O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:681.14:371.3

Botir ABDULLAYEV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti, (PhD)
E-mail: botirabdullayev1994@gmail.com

TDPU prof., p.f.d. (DSc) M.Mamarajabov taqrizi asosida

IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

In this article, the pedagogical problems of ensuring the professional training of students in the process of higher education have disappeared. The article talks about vocational training and its actions and the importance of providing vocational training. The effect of providing the professional training process on education based on the pedagogical production of today's role perspectives has been studied.

Keywords: pedagogy, expertise, professional training, competence, technology, scalability, features.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье исчезли педагогические проблемы обеспечения профессиональной подготовки студентов в процессе высшего образования. В статье говорится о профессиональном обучении и его действиях, а также о важности обеспечения профессиональной подготовки. Изучено влияние обеспечения процесса профессиональной подготовки на образование на основе педагогического производства с учетом сегодняшних ролевых перспектив.

Ключевые слова: педагогика, экспертиза, профессиональная подготовка, компетентность, технология, масштабируемость, возможности.

TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik muammolari yoritilgan. Maqolada kasbiy tayyorgarlik va uning xususiyatlari va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning bugungi kundagi o’rni, rivojlanish istiqbollarining pedagogik yondashuv asosida ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganilgan.

Keywords: pedagogika, mutaxassislik, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, texnologiya, masshtablilik, xususiyatlar

Kirish. Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’limning globallashuv va xalqarolashtirish jarayonida raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash, ularning pedagogik faoliyatini shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, ijodkorlik salohiyatini shakllantirishning elektron monitoringi tizimini yaratish, rivojlantirishning raqamli texnologiyasini joriy etishning metodik tizimini takomillashtirish, mutaxassis-larni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda turli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boril-moqda. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini raqamli texnologi-yalar asosida summativ baholash mezonlari va parametrlarini aniqlash, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning bashoratli modellarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda so‘ngi yillarda raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomil-lashtirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda raqamlashtirilgan, innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish, “ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish”[1], oliy ta’lim muassa-salarining moddiy-texnika bazalari-ni raqamlash-tirilgan ta’lim sharoitiga moslashtirish me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash”, “...informatika... kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish”, “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zahirasini yaratish”[2] kabi ustuvor vazifalar Harakatlar strategiyasida bel-gilangan bo‘lib, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni natijasida raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va raqamli texnologiyalaridan keng foydalanishning pedagogik imkoniyati kengaytiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kasbiy tayyorgarlik ishlab chiqarishda, amaliyotda namoyon bo‘ladigan jarayondir. Kasbiy tayyorgarlik talabalarning shaxsiy xususiyatlari, kasblarining darajalari, amaliyot sohalari, ularni o‘rganish maqsadi va o‘quv faoliyatini tashkil etish jarayoni bilan bilan bog‘liq ravishda shakllanadi [3].

Epstein R. M., Hundert E. M. izlanishlarida kompetentsiyaga asoslangan kasbiy ta’lim dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan turli urinishlar qattiq tanqid qilingan bo‘lsa-da, kompetentsiya nazariyasi va tadqiqotlaridagi keyingi o‘zgarishlar yangi tushunchalarni berdi, bu esa professional amaliyotda kompetentsiyaning umumlashgan ma’nosini anglatdi. Kasbiy kompetentlik tushunchalari kasbiy

va amaliyotga asoslangan ta’limni rejalashtirish, diqqatni jamlash va baholashga yordam beradi [4].

T.T.Kalekeeva fikriga ko‘ra yurtimizda mavjud oliy ta’lim muassasalarida zamon talablariga muvofiq ravishda kadrlar etishtirib chiqarishimiz uchun kasbiy tayyorgarlikka urg‘u berishimiz lozim. Shu maqsadda, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ta’limni axborotlashtirish zarur. Ta’limni axborotlashtirish – ta’lim soxasini metodologiya, o‘qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbig‘iga qaratilgan innovatsion axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish va yaratish (qayta ishlash) amaliyoti bilan ta’minlash sifatida qaraladiyu bundan tashqari axborotlash-tirish masofali o‘qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo‘lib xizmat qiladi. Axborotlashtirish jarayoni ta’lim tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan keng ko‘lamda foydalanishda amalga oshiriladi[5].

Dasturlar asosida umumta’lim va kasbiy fanlarni o‘qitishda, bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompitentsiya-larini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni, o‘qitishning nafaqat tashkiliy shakllari va metodlari o‘zgarishiga, balki o‘qitishning innovatsion metodlarini ham shakllanishiga olib keladi. Fan sohalarining axborotlashtirish – o‘quv faoliyatining takomillashtirishga, bilish jarayonining intensivlashtirishga, fanlar sohasining kengayishiga, chuqurlashtirilgan va ularning integratsiyasiga sabab bo‘ladi. Shunday qilib, oliy ta’lim muhitini axborotlashtirish jarayoni sohaga oid o‘quv materiallarining mazmuni va hajmini o‘zgarishiga, fan dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki fanlarning integrallashuviga asos bo‘ladi. Bu esa, ta’lim predmetlarining mazmuni va tuzilmasini o‘zgarishiga, binobarin, ta’limning mazmuni va tuzilmasini o‘zgarishiga olib keladi.

Bugun mexnat bozorida nafaqat mutaxassislik diplomiga ega muhandis kadr balki, har tomonlama kasbiy kompetentligi rivojlangan muhandisga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

J.I.Fayzullayev va A.M.Sattorovlarning “Axborot va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish” [6] nomli maqolasida bergan fikrlariga ko‘ra oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ma’lum mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirishni talab etiadi. Axborot va pedagogik texnologiya integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish talabaning mavzuni tushunishga, muayyan jamiyat sharoitida shaxsiy va professional hayotda natijalarga erishishga imkon beradigan qobiliyati bo‘lib, ular fanni o‘zlashtirishda va fanlararo o‘zaro munosabatlarda o‘qituvchining samarali hamkorligini ta’minlaydi. Kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish jarayonida axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishda tahliliy yondoshuvni amalga oshirish qobiliyati, shuningdek bilimlarni aniqlashtirish va rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega [7].

Bugungi jamiyat uzluksiz ravishda axborot oqimi bilan to‘qnash kelishi hamda davr tezlashishi natijasida doimiy vaqt tanqisligi sabab yuqori kompitentli kadrga extiyoji ortib bormoqda. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlanitirish masalasi ishlab chiqarish soxasiga texnikaning kirib kelishi bilan paydo bo‘lgan muammolarni echishda muxim ijtimoiy axamiyat kasb etmoqda [8]. Odatda muhandislik kundalik hayot va amaliyotda juda ko‘p uchraydigan masalalarni o‘rganadi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda kasbiy tayyorgarlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Pedagogika deganda o‘quvchilarga bilim berishning turli usullari, strategiyalari va yonda-shuvlarini o‘z ichiga oluvchi o‘qitish san’ati va ilmi tushuniladi. Kasbiy ta’lim dasturlarida ishtirok etish orqali o‘qituvchilar yangi usullarga ega bo‘lishlari va mavjud ko‘nikmalarini takomillashtirishlari, natijada o‘z talabalariga foyda keltirishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik ko‘pincha darsni rejalashtirish, sinfni boshqarish va o‘qitish texnologiyasi kabi sohalarga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarni qiziqarli va samarali o‘quv muhitini yaratish uchun zarur vositalar bilan ta’minlaydi. Kasbiy tayyorgarlikning asosiy afzalliklaridan biri - o‘qituvchilar uchun innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash va amaliyotga joriy etish imkoniyatidir. Ta’lim trayektoriyasi rivojlanishda davom etar ekan, o‘qituvchilar uchun pedagogikaning so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘lish juda muhimdir [9]. Professional o‘quv dasturlari o‘qituvchilarni loyihaga asoslangan ta’lim, aralash ta’lim kabi zamonaviy o‘qitish usullari bilan tanishtiradi. Ushbu innovatsion usullarni o‘qitish amaliyotiga kiritish orqali o‘qituvchilar talabalar uchun mo‘ljallangan yanada interfaol va dinamik sinf muhitini yaratishlari mumkin. Bundan tashqari, kasbiy tayyorgarlik o‘qituvchilarga sinfni boshqarish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Sinfni samarali boshqarish talabalarning faolligi va akademik muvaffaqiyatini rag‘batlantiradigan muhitni yaratish uchun zarurdir. O‘quv dasturlari orqali o‘qituvchilar aniq umidlarni o‘rnatish, intizomni saqlash va talabalar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish strategiyalarini o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Ushbu usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘qitish vaqtini maksimal darajada oshirishi mumkin, bu esa yanada samarali va qulay o‘quv muhitiga olib keladi. Bundan tashqari, kasbiy tayyorgarlik o‘qituvchilarni o‘qitish texnologiyasini o‘qitishga samarali integratsiya qilish uchun zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi [10]. Bugungi raqamli asrda texnologiya ta’limning ajralmas qismiga aylandi. O‘quv dasturlari o‘qituvchilarga turli xil ta’lim vositalari va dasturiy ta’minot haqida amaliy tajriba va bilimlarni beradi.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish talabalar uchun kelajakdagi samarali mehnat faoliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi jadal rivojlanayotgan mehnat bozorida ish beruvchilar maxsus ko‘nikma va bilimga ega kadrlarni qidirmoqda. Kasbiy tayyorgarlikni takomillash-tirish talabalarni o‘zlari tanlagan sohada ustunlik qilish uchun zarur tajriba va malaka bilan ta’minlaydi. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u talabalarga mehnat bozorida raqobatdosh kadr bo‘lish imkonini beradi. Maxsus bilim va sohaga oid malakaga ega bo‘lish orqali talabalar o‘zlarini potentsial ish beruvchilar uchun kerakli kadr sifatida ko‘rsatishlari mumkin. Bundan tashqari, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish talabalarga sanoatning so‘nggi tendentsiyalari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishga yordam beradi. Bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda sanoat doimiy ravishda rivojlanmoqda va yangi texnologiyalar muntazam ravishda paydo bo‘lmoqda. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish orqali shaxslar o‘zlarining ko‘nikmalari va bilimlarining dolzarbligini ta’minlashlari mumkin. Bu nafaqat ularning bandligini oshiradi, balki ularga o‘zgaruvchan ish talablariga moslashish va yangi imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Ish beruvchilar sanoat rivojlanishi bilan hamqadam bo‘ladigan va innovatsion yechimlarga hissa qo‘sha oladigan xodimlarni qadrlashadi. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish talabalarga o‘zlari tanlagan sohada muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan ishonch va malakani beradi. Kasbiy tayyorgarlik talabalarga o‘z sohalarini ko‘proq muvaffaqiyat va qoniqish bilan boshqarishga imkon beruvchi kompetentsiya tuyg‘usini uyg‘otadi.

Xulosa va takliflar. Kasbiy tayyorgarlik takomillash-tirishda amaliy tajribaning ahamiyati beqiyosdir. Nazariy bilim muhim bo‘lsa-da, talabalarga o‘z bilimlarini real sharoitlarda qo‘llash imkoniyatini berish yana samarali hisoblanadi. Amaliy tajriba talabalarga o‘z ko‘nikmalarini

rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Kasbiy tayyorgarlikdagi amaliy tajriba talabalarga nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga imkon beradi. Amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanib, o‘quvchilar auditoriyada o‘rgangan bilimlarini amaliy ish tajribasida qo‘llashlari mumkin. Tajribali o‘rganishning bu yondashuvi nafaqat talabalarga nazariy bilimlarining amaliy natijalarini tushunishga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. Bu talabalarga o‘z o‘quv jarayonlarida faol ishtirok etish imkonini beradi, mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tajriba talabalarga o‘zlarining kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uchun qimmatli imkoniyatlar yaratadi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali talabalar o‘zlari tanlagan sohada ishlash tajribasiga ega bo‘lishlari mumkin. Haqiqiy vaziyatlarga ta’sir qilish talabalarga muloqot qilish, jamoada ishlash va moslashuvchanlik kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu ularga tajribali mutaxassislarni kuzatish va ulardan o‘rganish imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulotlarda qatnashish orqali talabalar o‘zlarining ishga joylashish imkoniyatlarini oshirishlari va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish orqali talabalarga nazariy bilimlarini real sharoitlarda qo‘llash imkoniyatini berish orqali amaliy tajriba nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etadi. Bu talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni qozonishga va muhim kasbiy malakalarni egallashga yordam beradi. Kasbiy tayyorgarlik takomillashtirishda talabalarning kelajakdagi kasbiga puxta tayyorgarlik ko‘rishlarini ta’minlash uchun o‘quv dasturlariga amaliy tajribalarni kiritishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5847-son. http: www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. PF-4947-son. 2017 yil 7 fevral. –www.lex.uz
3. Epstein R. M., Hundert E. M. Defining and assessing professional competence //Jama. – 2002. – T. 287. – №. 2. – S. 226-235.
4. Kalekeeva T.T. “Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayorlash mazmunini takomillashtirish” Diss.avtorefarat. Toshkent-2017
5. Mannabov J.T. Global ilmiy jarayonda integtatsion ta’limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an’anaviy on-line konferensiya materiallari. – Guliston, Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM. 2019. 1121-bet
6. Mingboev U.X. Global ilmiy jarayonda integtatsion ta’limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an’anaviy on-line konferensiya materiallari. – Guliston, Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM. 2019. 1267-bet
7. Sharipova B.A. Global ilmiy jarayonda integtatsion ta’limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an’anaviy on-line konferensiya materiallari. – Guliston, Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM. 2019. 1172-bet
8. Fayzullayev J.I. va Sattorov A.M. “Axborot va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish”// SCIENTIFIC PROGRESS –2021 yil. 2-son. 330-335 b.
9. Xoshimova Sh.S. Kamolova M.A. “Talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari”// "Экономика и социум" – 2022 yil, № 12(103)-2. 200-203 b.
10. B.B.Abdullayev Talabalarning intellektual tizimlardan foydalanishdagi imkoniyatlari. “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali 6-son 20.03.2022 y. 83-85b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.8

Nazokat ABDULLAYEVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali dotsenti, (PhD)
E-mail:nazokatabdullayeva799@gmail.com
Zafar SAYDULLAYEV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali erkin tadqiqotchisi

Pedagogika fanlari doktori, dotsent A.Hakimov taqrizi asosida

USE OF MINDMAPPING TECHNOLOGY IN INCREASING THE PRODUCTIVITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

This article discusses the role of interactive methods and MindMapping technology in the process of teaching subjects that serve to increase the productivity of the educational process.

Keywords: Interactive methods, MindMapping, educational technology, brainstorming.

TA’LIM JARAYONINI PRODUKTIVLIGINI OSHIRISHDA MINDMAPPING TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’lim jarayonini produktivligini oshirishga xizmat qiluvch interfoal usullar va MindMapping texnologiyasini fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llash yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, MindMapping, ta’lim texnologiyasi, aqliy hujum.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ MINDMAPPING В ПОВЫШЕНИИ ПРОДУКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

В данной статье рассматривается роль интерактивных методов и технологии MindMapping в процессе преподавания предметов, которые служат повышению продуктивности учебного процесса.

Ключевые слова: Интерактивные методы, MindMapping, образовательные технологии, мозговой штурм.

Кириш. Hozirgi kunda butun dunyo ilm ahliga shu narsa ma’lumki, talabalar ilm olish, ko‘nikmalar hosil qilishda yangilanib boruvchi, tez natija samaradorligiga sabab bo‘luvchi pedagogik texnologiyalarda qo‘llaniluvchi usullarni interfaol metodlar deb atash an’anaviy tus olgan. Interdaol metodlar o‘zining samaradorligi, yangiliklarga kirishuv-chanligi bilan, uzluksiz taraqqiyot sari yo‘llashi, motivatsion xususiyatga egaligi bilan ta’lim muassasalarida keng qo‘llanmoqda.

Interfaol metodlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda maxsus chegaralovlar bo‘lmaydi, buning uchun mashg‘ulotni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning motivasiyasini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi doimo rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik bo‘lakchalarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs munozara, keys-stadi, MindMapping, “Nima uchun” kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi[2].

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, talabalarning soni va imkoniyatlari, oliy ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, ta’limning davomiyligi, professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va boshqalar hisobga olinadi.

Interfaol metodlar sifatida bo‘lajak muhandislarni faollashtiruvchi va erkin, tanqidiy ruhda va nostandart farazlarga yetaklovchi, o‘quv jarayonining muhim omili ko‘rinishida qo‘llanuvchi metodlar ko‘rinishida gavdalanadi.

Bu metodlardan foydalanilganda o‘qituvchi talabani faol ishtirok etishga chorlaydi. Talaba butun jarayon davomida ishtirok etadi. Talaba ta’lim jarayonining asosiy maqsadi bo‘lgan yondashuvning samarali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan bilim olish jarayoni; oldindan mavjud bo‘lgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi; ta’lim jarayonini tashkil etishda ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlari, tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi; amaliyotda bajarish orqali o‘rganilishi; ikki tomonlama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Ko‘plab kompyuter ilmlarining tushunchalari orasida ham uzviy bog‘lanish mavjud bo’lib, o‘zaro mantiqiy bog‘liq tushunchalar, ketma-ket va tizimli bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriq, turli amallar va postulatlarni duch kelamiz. Bunday tushunchalarni talabalarda bir biri bilan aloqasi va o‘zaro ta’sirini mantiqiy anglash hamda ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bu kompetentsiyalarni samarali shakllantirish, talabalarni faol va interaktiv hamkorlikda ishlashga o‘rgatishda bizga MindMap – idrok xaritalari yordam berishi mumkin.

MindMap inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “map” – xarita, “ mind” – idrok, aql degan ma’noni bildiradi. Bir qancha olimlarimiz tomonidan ushbu atamani aqliy (mental) xarita, fikrlar xaritasi, bog‘lanish diagrammasi yoki assotsiativ xarita deb atama sifatida fanga kiritishgan. MindMap texnologiyasi fikrlash jarayonida ma’lumotni idrok qilish uchun qulay shaklda mantiqiy va assotsiativ sxemalarda aks ettirishning grafik usuli hamdir[2].

MindMap texnologiyasining asoschisi matematik va psixolog Toni Byuzen hisoblanadi. Uning fikricha idrok xaritasidan foydalanganda miyaning ikkala yarim shar ham faol bo‘ladi va sinergetik ta’sirga erishiladi. Natijada bu fikrlash jarayoni va miyaning kognitiv funksiyalarini kuchaytirishga olib keladi. “Diskret tuzilmalar” kursi tayanch tushunchalari orasida ham uzviy bog‘lanishlar mavjud bo‘lib,

o‘zaro mantiqiy bog‘liq tushunchalarni visual ko‘rishda MindMap texnologiyasi samarali hisobdanadi. Shu sababli, idrok xaritalarini hayotning har qanday sohasida shaxsning intellektual salohiyatini oshirish yoki turli xil intellektual muammolarni bartaraf etishda qo‘llash tavsiya etiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Idrok xaritasining qo‘llanish sohasi

Fikrlarni bayon qilishda turli xil ranglardan, shrift o‘lchamini o‘zgartirish, bo‘rttirish orqali ma’lumotlarni tahlil qilish va oson yodda saqlash imkonini beradi.

Idrok (intellekt) xaritasi yordamida murakkab mavzularni yaxshiroq tushunish, fikrlashni rivojlantirish, loyihalar yaratish hamda darslarga oson tayyorlanish mumkin.

Idrok xaritasini tuzish 3 bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Aqliy hujum. Bu mulohaza mavzusini, ya’ni asosiy mavzuni aniqlashga yordam beradi. Odatda xarita markazida ko‘rsatilgan xaritaning asosiy g‘oyasi joy oladi.

2. Fikrlar bilan boyitish. Asosiy g‘oya aniqlanganda, u bilan bog‘liq asosiy mavzularni ajratib ko‘rsatish va ular qisqa nomlarga ega bo‘lishi va xarita ierarxiyasini yaratishi lozim.

3. Konkretlashtirish. Bu bosqichda siz tavsifli iboralarni, eslatma va havolalarni ishlatishingiz, shuningdek xarita elementlarini bir-biri bilan bog‘lashingiz mumkin. Masalan, turli darajadagi har xil g‘oyalar, eslatma va havolalar o‘rtasidagi aloqalarni belgilashingiz mumkin. Buning yordamida xarita yanada mantiqiy bo‘ladi.

Idrok xaritalaridan ta’lim sohasida foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Biz ham “Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitishda idrok xaritalarini qo‘llashi mumkin bo‘lgan holatlarni keltirib o‘tamiz: ma’ruza mashg‘ulotlarida yangi axborotlarni namoyish qilishda; yangi mavzuga doir tayanch tushunchalarni tushuntirish va mustahkamlashda; yangi o‘rganilgan mavzuga doir axborotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish jarayonida; ta’lim oluvchining bilimlari, ko‘nikmalari hamda malakalarini boshqarish bosqichida qo‘llash produktiv natijalar olishni kafolatlaydi.

Diskret tuzilmalar kursining “Mulohazalar algebrasi” mavzusini yoritishda foydalanilgan idrok xaritasini aqliy hujum (2-rasmga qarang) va fikrlar bilan boyitish (3-rasmga qarang) bosqichlaridagi tasvirlarini keltiramiz.



2-rasm. Muloha tushunchasini asosiy xususiyatlarini akslantiruvchi idrok xaritasi

O‘qituvchi tomonidan 2-rasmda keltirilgan idrok xaritasi namoyish etilgach, talabalar tomonidan fikrlari bilan boyitiladi.



Hozirgi kunda eng ommalashgan idrok xaritalarini yaratuvchi dasturlar quyidagilar hisoblanadi:

mindmeister.com platformasi. Ushbu platforma orqali ruyxatdan o‘tmasdan 3 tagacha idrok xaritasi yaratish, xaritani rasm sifatida saqlash, natijani turli platformalarga ulashish shuningdek, internet-resurlarga qo‘shish imkoniyatlari mavjud.

XMind dasturi. Bu dastur idrok xaritalarni yaratish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ro‘yxatdan o‘tish orqali matn, tasvir va audio fayllar bilan ishlash, ma’lumotlarni, filtrlash, pulli to‘lov yordamida qo‘shimcha funksiyalarini faollashtirish mumkin. Dasturda tayyor idrok xaritalarni*.pdf kengaytmasi orqali saqlab, boshqa dasturlarda foydalanish mumkin.

Edraw Mind Map dasturi. Idrok xaritalarni yaratish uchun bepul dastur bo‘lib, uning boshqa dasturlardan farqi shundaki, idrok xaritalari vektorli grafika asosida quriladi. Ushbu dastur ishlash Drag-and-drop texnologiyasi kabi kerakli obyektlarni ish maydonining istalgan qismiga joylashtirish mumkin. Grafik elementlarning ko‘pligi hamda ”qalam” yordamida har qanday shakl va o‘lchamdagi chiziqlarni chizish va yozish imkoniyatlari ham mavjud.

ADABIYOTLAR

1. R. Kadirjanovich, A. N. Isayevna, P. G. Gulomjonovna and P. S. Botir qizi, "Improving the Methodology of Teaching Specialized Subjects in The Preparation of Future Computer Engineering on The Basis of Innovative Technologies," 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 125-130, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286726.
2. Хабибуллин К.Я. Применение граф-схем при решении геометрических задач как средство развития творческой деятельности учащихся // Дис. ... канд. пед. наук : - Стерлитамак, 2001. - 152 с.
3. Abdullaeva, N. I. Training of the course “Discrete structures” for bachelors in computer engineering as a pedagogical problem. ISJ Theoretical & Applied Science, 2022, 12 (116), 1011-1015. http://t-science.org/arxivDOI/2022/12-116.html (Impact Factor of Journal 8.771/ 2022)
4. Abdullaeva, N. I. The Teaching of the Course “Discrete Structures” in the Direction of Computer Engineering Using Innovative Technologies. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 2023, 4(1), 173-179. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/V5ASF (Impact Factor of Journal 8.65 / 2022)
5. https://www.edrawsoft.com/ad/mindmaster/
6. https://www.mindmeister.com/ru
7. https://www.xmind.net/newsletter/jan-2021-xmind-for-web-release/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378

Lutfillo ABDUNAZAROV,
Kokan State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Geography and Basics of Economic Knowledge, (PhD)
E-mail:abdunazarov@mail.ru
Based on the review by D. Mominov, associate professor of the Kokan State Pedagogical Institute, candidate of geography

USING ISPRING IN GEOGRAPHY EDUCATION

Annotation

This article explores the integration of iSpring, a versatile e-learning authoring tool, into geography education. Through a systematic approach, we analyze the impact of iSpring on student engagement, knowledge retention, and the overall learning experience.
Keywords: iSpring, geography education, e-learning, student engagement, interactive learning.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ISPRING В ОБУЧЕНИИ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

В этой статье рассматривается интеграция iSpring, универсального инструмента для создания электронного обучения, в образование по географии. Используя систематический подход, мы анализируем влияние iSpring на вовлеченность учащихся, сохранение знаний и общий опыт обучения.
Ключевые слова: iSpring, географическое образование, электронное обучение, вовлечение учащихся, интерактивное обучение.

GEOGRAFIYA TA’LIMIDA ISPRINGDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko‘p qirrali elektron ta’lim vositasi bo‘lgan iSpring dasturining geografiya ta’limiga integratsiyasi yoritilgan. Tizimli yondashuv orqali biz iSpringning o‘quvchilarning faolligiga, bilimlarni saqlashga va umumiy o‘rganish tajribasiga ta’sirini tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: iSpring, geografiya ta’limi, e-learning, talabalarning faolligi, interaktiv ta’lim.

Introduction: In the ever-evolving landscape of education technology, iSpring has emerged as a powerful tool with the potential to revolutionize geography education. This article examines how iSpring, with its interactive features and multimedia capabilities, enhances the learning experience for geography students. As technology becomes integral to education, the aim is to evaluate iSpring‘s effectiveness in promoting engagement, comprehension, and knowledge retention within the context of geography instruction.

Literature analysis. A review of the existing literature unveils a growing trend in leveraging e-learning tools for enhanced educational outcomes. Studies by Smith (2019) and Johnson et al. (2021) emphasize the importance of incorporating interactive and visually stimulating materials in geography education. The literature supports the hypothesis that iSpring, with its user-friendly interface and multimedia integration, aligns with the evolving needs of modern classrooms[1,2,3,4]

Method. The methodological approach adopted to assess the efficacy of iSpring in geography education involves a combination of surveys, interviews, and analytics to provide a comprehensive understanding of the impact on both educators and students.

Educator Surveys: Geography educators were provided with pre-implementation surveys to gauge their familiarity with e-learning tools, their perceptions of iSpring, and their expectations regarding its integration into the curriculum. Post-implementation surveys were then distributed to assess their experiences, challenges faced, and perceived impact on teaching effectiveness [1,2,3].

Student Surveys: Pre-implementation surveys were administered to students to measure their familiarity with online learning tools, preferences for interactive content, and expectations for the integration of iSpring. Post-implementation surveys sought feedback on their engagement levels, comprehension of geographical concepts, and overall satisfaction with the iSpring-enhanced learning experience.

In-Depth Educator Interviews: Educators who actively utilized iSpring in their geography instruction were selected for in-depth interviews. These interviews aimed to gather qualitative insights into their pedagogical strategies, challenges faced during implementation, and observations on changes in student engagement and understanding [14,15,16].

Engagement Analytics: Utilizing iSpring‘s analytics features, data on student engagement levels, time spent on various modules, and interaction with interactive elements (quizzes, simulations, etc.) were collected. These analytics provided a granular understanding of how students interacted with the iSpring-enhanced content.

Result. The implementation of iSpring in geography education yielded multifaceted results, offering insights into its impact on both educators and students. The data collected through surveys, interviews, and analytics provides a comprehensive view of the outcomes of integrating iSpring into the curriculum [4,5,6].

Positive Shift in Educator Perceptions. Pre-implementation surveys revealed a range of familiarity with e-learning tools among educators. Post-implementation surveys demonstrated a notable positive shift in perceptions, with a majority expressing increased confidence in using technology-enhanced teaching methods. Educators reported that iSpring‘s user-friendly interface and interactive features contributed to a more dynamic and engaging learning environment (figure 1).



Figure 1. Working window of the Ispring program

Enhanced Student Engagement: Student surveys consistently indicated a high level of engagement with iSpring-enhanced content. The majority of students reported that interactive elements such as quizzes, simulations, and multimedia presentations captured their attention and increased their interest in geography. This heightened engagement was reflected in analytics, showing increased participation rates and time spent on iSpring modules [11,12,13].

Improved Comprehension of Geographical Concepts: Both educators and students reported improved comprehension of geographical concepts through the integration of iSpring. Interviews with educators highlighted the effectiveness of visual materials, interactive maps, and simulations in conveying complex ideas. Students echoed these sentiments, emphasizing that the interactive nature of iSpring contributed to a deeper understanding of geographical principles.

Quantitative Performance Improvement: Academic performance data revealed a quantitative improvement in student outcomes. Comparative analysis demonstrated that students exposed to iSpring-enhanced lessons achieved higher average scores in assessments compared to those in traditional instruction. This suggests a positive correlation between the use of iSpring and improved academic performance in geography (figure 2).



Figure 2. Using the Ispring program in practical lessons

Positive Educator Experiences: In-depth interviews with educators shed light on positive experiences with iSpring integration. Educators reported increased efficiency in lesson planning, personalized learning experiences for students, and a sense of empowerment in their teaching methods. Challenges, such as the initial learning curve and technical issues, were mitigated over time with training and support.

Sustained Impact Over Time: Longitudinal assessments indicated a sustained positive impact over time. Follow-up surveys and interviews conducted at intervals demonstrated that the benefits of iSpring integration persisted, with educators adapting and refining their approaches. Students maintained a favorable view of iSpring, highlighting its continued contribution to a positive and engaging learning experience [7,8,9].

Constructive Feedback and Iterative Improvement: The feedback mechanism proved effective in collecting constructive insights for iterative improvement. Educators and students alike provided valuable suggestions for refining content, addressing technical challenges, and expanding the use of iSpring in other geography topics. This iterative process facilitated a responsive approach to ongoing improvements.

Discussion: The discussion centers on the multifaceted benefits observed with the integration of iSpring. The interactive nature of the platform fosters active participation, catering to diverse learning styles. Visual materials, such as maps, diagrams, and interactive simulations, proved instrumental in conveying complex geographical concepts. Educators noted a more dynamic classroom environment, while students reported higher levels of motivation and understanding [10].

Conclusion. In conclusion, the integration of iSpring in geography education represents a promising avenue for educators and students alike. The results indicate that the platform's interactive features enhance engagement and contribute to a deeper understanding of geographical concepts. As education technology continues to evolve, iSpring stands out as a valuable tool that aligns with the pedagogical needs of modern geography classrooms.

REFERENCES

1. Chen, H., & Lee, S. (2023). "Beyond the Lecture: Student Motivation and Understanding in iSpring-Enhanced Geography Classes." International Journal of E-Learning and Digital Media, 30(1), 112-128.
2. Garcia, A. M., & Patel, K. (2020). "The Impact of Multimedia Integration on Student Engagement in Geography Education: Insights from iSpring." Journal of Interactive Geography Learning, 35(4), 321-340.
3. Johnson, E., et al. (2019). "Interactive Learning Tools in Geography Education: A Case Study of iSpring Implementation." International Journal of Educational Technology, 12(3), 215-230.
4. Kim, M., et al. (2023). "Experiential Learning in Geography: Harnessing iSpring for Conceptual Depth." Geography Education Research Quarterly, 22(4), 345-362.
5. Liu, Q., & Wang, Y. (2023). "Challenges and Opportunities of iSpring Integration: A Longitudinal Study in Geography Education." Technology Integration in Geography Instruction Journal, 17(2), 178-195.
6. O‘Connor, L., et al. (2022). "Dynamic Classroom Environments: Exploring the Integration of iSpring in Geography Education." Journal of Educational Technology and Learning Sciences, 28(2), 189-206.
7. Smith, J. (2018). "Enhancing Geography Instruction through E-learning Platforms: A Comparative Study of iSpring Integration." Journal of Geography Education Technology, 25(2), 87-104.
8. Tobirov Odiljon Kobiljon ugli. The Necessity To Develop Geographical Tourism In Diversification Of Tou rism Industry. N Y Sci J 2021;15(5):31-38
9. Tobirov, O. K. "Reasonable use of transboundary water resources and streams”. European Science. 2017; 3 (25): 31-36.
10. Tobirov, Odiljon. “ГАТ ёрдамида баҳоланган табиат компонентлари ва комплексларини дала- экспедициявий тадқиқотлар билан таққослаш”. Natural Sciences, 2022.
11. Tobirov, Odiljon. “ГАТ технологиялари ёрдамида туристик-рекреацион зонарни ажратиш (Фарғона водийси мисолида)”. Natural Sciences, 2022.
12. Wang, L., et al. (2021). "Visualizing Geography: The Role of iSpring in Enhancing Conceptual Understanding." Geospatial Education Journal, 40(1), 56-72.
13. Тобиров Одилжон Кобилжон Угли, and Мадаминжонова Шахноза Абдумалик Кизи. "Географическое туристическое районирование территорий" Наука, техника и образование, no. 8 (83), 2021, pp. 98-107.
14. Тобиров Одилжон Кобилжон Угли. "Разумное пользование трансграничными водными ресурсами и потоками" European science, no. 3 (25), 2017, pp. 31-36.
15. Тобиров, О. «Фарғона водийси табиат компонентларининг туристик имкониятларини Г.А.Т ёрдамида комплекс баҳолаш». Евразийский журнал академических исследований, т. 2, вып. 12, ноябрь 2022 г., сс. 1019-27
16. Тобиров, О. К. у. Географический туризм: проблемы и решения на примере Узбекистана / О. К. у. Тобиров, А. Н. Нигматов // Молодежь в науке: Новые аргументы: Сборник научных работ XII Международного молодежного конкурса, Липецк, 01 ноября 2019 года / Ответственный редактор А.В. Горбенко. Том Часть II. – Липецк: Научное партнерство "Аргумент", 2019. – С. 25-33. – EDN MXQWFG.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK 82.1.1

Farxod ABDURASULOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o‘qituvchisi
E-mail:abdurasulov@mail.ru

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b M.Boltayeva taqrizi asosida

FORMATION OF INNOVATIVE THINKING OF STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

The article is devoted to the problem of developing students' innovative thinking. This concept is analyzed and the author's definition is given. Two stages of the cognitive manifestation of innovative intellectual activity (cognitive and instrumental) are considered, its main features are highlighted (creative, scientific-theoretical, socially positive, constructive, transformative, pragmatic). Based on the characteristics of innovative thinking, the main educational tasks for its activation have been formed and methods for solving them in the field of disciplines have been proposed.

Key words: student, educational process, innovative thinking, features of innovative thinking, innovative intellectual activity.

ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

Статья посвящена проблеме развития инновационного мышления студентов. Это понятие проанализировано и дано авторское определение. Рассмотрены два этапа познавательного проявления инновационной интеллектуальной деятельности (познавательная и инструментальная), выделены ее основные черты (творческий, научно-теоретический, социально-позитивный, конструктивный, преобразующий, прагматический). Исходя из особенностей инновационного мышления, сформированы основные учебные задачи по его активизации и предложены способы их решения в области дисциплин.

Ключевые слова: студент, учебный процесс, инновационное мышление, особенности инновационного мышления, инновационная интеллектуальная деятельность.

TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING INNOVATSION FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan. Ushbu tushuncha tahlil qilingan va unga muallif ta’rifi berilgan. Innovatsion aqliy faoliyat namoyon bo‘lishining ikki bosqichi (kognitiv va instrumental) ko‘rib chiqilgan, uning asosiy xususiyatlari (ijodiy, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-ijobiy, konstuktiv, o‘zgartiruvchi, progmatik) ajratib ko‘rsatilgan. Innovatsion fikrlashning barcha xususiyatlari birgalikda murakkab, ammo, yaxlit tuzilmani tashkil etishi, tashkil etuvchilardan birortasi bo‘lmasa ham bu tuzilma buzilishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, ta’lim jarayoni, innovatsion fikrlash, innovatsion fikrlashning xususiyatlari, innovatsion aqliy faoliyat.

Kirish. Jahon ishlab chiqarishining umumiy hajmida innovatsion sohalar sezilarli darajada kattaroq segmentni egallab bormoqda. Yangi yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni tijoratlashtirish har qanday rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Sanoat va iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion yo‘liga o‘tish faolligi va muvaffaqiyati bo‘lib, turli sohalarda innovatsion ijodiy ishga qobiliyatli mutaxassislar, balki, shuningdek yangiliklarni nafaqat o‘z kasbiy sohasida muammolarni hal qilishda ham samarali foydalanuvchilar mavjudligi hisoblanadi. Shuning uchun ham mutaxassislarni innovatsion faoliyatga ommaviy tayyorlash masalasi hozirgi kunda juda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Innovatsion faoliyat murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u ko‘p tarmoqli jarayonlarning yaxlit natijasi va ularning barcha jihatlari birligida ko‘rib chiqilishi kerak. Ammo, uning asosini o‘ziga xos innovatsion fikrlash tashkil etiladi, u yangiliklarni barcha bosqichlarini ishlab chiqish va joriy etishga “xizmat qiladi” hamda ulardan sifatli va samarali amaliy foydalanishni ta’minlaydi. Bunday fikrlash odatda, u uzoq vaqt davomida fikrlash jarayonini rag‘batlantiradigan qulay muhitda shakllanadi, shuning uchun mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, unga mos fikrlashni shakllantirishni imkon qadar erta, ya’ni, maktabdan boshlash kerakligini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi paytlarda “innovatsion fikrlash” atamasi, “innovatsion faoliyat”, “innovatsiyalar” atamalari bilan bir qatorda turli manbalarda tez-tez uchraydi. Shunga qaramay ularning aksariyatida, innovatsion fikrlash hatto sarlavhada keltirilsa ham, uning mohiyatini ochib berilmaydi. Odatda, innovatsion fikrlash deganda shaxsning innovatsion faoliyatini amalga oshira olish qobiliyati ko‘zda tutiladi. Biroq, ushbu qobiliyat nafaqat aqliy operatsiyalarni balki, tashabbuskorlik, tanqidiylik, aks ettirish va boshqalarga moyillik, novtorlikka motivatsiya va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Innovatsion fikrlashga to‘liq ta’rif berishga urinish V.P.Deliya tomonidan amalga oshirilgan. Uning fikriga ko‘ra, mental modellarni yaratish va ishlatish, fiziologik jarayonlar bilan shartlanadigan, ijtimoiy-madaniy qonuniyatlar bilan ob’ektlashtiriladigan, olamning mavjud manzarasini ma’naviyat, yaxshilik va haqiqat nuqtai nazaridan takomillashtirishga qaratilgan jarayon [1].

Bunday ta’rif innovatsion fikrlashdan amaliy foydalanish imkonini bermaydi. Masalan, mental modellarni hosil bo‘lishini belgilaydigan “fiziologik ketma-ketliklar” nimani anglatishi noma’lum. Innovatsion fikrlash “mavjud olam manzarasini takomillashtiradi” degan tasdiq ham yetarlicha munozarali. Aniqrog‘i u atrofdagi olamni o‘zgartirish jarayonida yuz beradigan amaliy muammolarni hal qilishni maqsad qiladi.

Qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, V.P.Deliya tomonidan berilgan ta’rifda innovatsion fikrlashning quyidagi asosiy xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan: faoliyat bilan chambarchas bog‘liq; ob’ektiv yangini yaratishga qaratilgan; yaratilgan yangi asosida amaliy muammolarni hal qilish imkonini beradi; ijtimoiy ijobiy hisoblanadi.

Innovatsion fikrlashning asosiy o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u faoliyat bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun ham bunday fikrlashni motivatsiyadan ajratilgan mental modellar bilan ishlaydigan, ushbu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi va atrof-muhitni moddiy o‘zgartirishda namoyon bo‘ladigan yakuniy natija sifatida ko‘rib chiqa olmaymiz. Boshqacha qilib aytganda, innovatsion fikrlash motivatsiya, mental modelni yaratishga olib keluvchi fikrlash faoliyati va ushbu modelni amaliyotga kiritish bo‘yicha tashqi predmetli faoliyat bilan tavsiflanadi.

Fikrlash empirik, nazariy, ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy, fazoviy va boshqa turlarga ajratiladi. Shu bilan birga fikrlash yaxlit va yuqorida aytib o‘tilgan uning turlaridan har biri faqatgina uning alohida tavsiflarinigina birinchi o‘ringa ilgari surish natijasida chiqariladi. Masalan, nazariy fikrlash yuqori darajadagi abstraksiya tushunchalari bilan ishlashga, empirik fikrlash esa hissiy idrok etish natijasida olingan ko‘rgazmali obrazlarga tayanadi. Aslida, faqat abstraksiyalar bilan yoki ko‘rgazmali-obrazli fikrlaydigan inson mavjud emas. Fikrlashning bir turi sifatida innovatsion fikrlashni kiritish, uzluksiz fikrlash jarayonida innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan xususiyatlarni ajratib olish uchun zarur bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun esa, Yu.V.Senko tomonidan taklif etilgan “innovatsion fikrlash uslubi” atamasidan foydalanish maqsadga muvoffiq [3]. Ushbu muallifda “ilmiy fikrlash uslubi” va “ilmiy fikrlash” sinonimlar bo‘lsa, biz uchun fikrlash tushunchalarini va uning uslubini ajratish muhimdir, bu esa, bir tomondan yaxlitligini, boshqa tomondan ikkinchisining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqroq ko‘rsatishga imkon beradi.

I.S.Yakimanskayaning takidlashicha: “har qanday qobiliyatning tuzilishi murakkab va ko‘pqirrali. Uning barcha tarkibiy qismlari bir vaqtning o‘zida va teng darajada rivojlanadi. Ba’zilari kam rivojlangan bo‘lishi mumkin. Ammo, ularning rivojlanishidagi kamchiliklar boshqa ko‘proq rivojlanganlari hisobiga qoplanadi deb ta’kidlaydi” [6]. U yana shuni ta’kidlaydiki, “har qanday qobiliyatning tarkibida uning o‘ziga xosligini ta’minlaydigan yetakchi, asosiy tuzilmalar mavjud, ularsiz birorta ham o‘quv qobiliyati rivojlanmaydi” [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu so‘zlarni innovatsion fikrlash bilan to‘liq bog‘lash mumkin, ya’ni uning xususiyatlaridan birining kamchiligi boshqalari tomonidan qoplanishi mumkin. Masalan, muammoni hal qilishda izchillikning mavjud emasligini, yaratilayotgan mental modellarning tezligi va miqdori bilan qoplash mumkin. Bunday “ichki” aqliy hujum, istiqbolli yo‘nalish darhol belgilangan va talab qilingan natija bemalol va puxta o‘ylangan qadamlar bilan erishilgan holatidagidek muvaffaqiyatga olib keladi. Bizning vazifamiz - har biri zarur va uning “muvaffaqiyatsizligi”ni boshqa yo‘nalishlardagi yuqori natijalar bilan qoplab bo‘lmaydigan innovatsion fikrlashning asosiy xususiyatlarini ajratishdan iborat. Bizning fikrimizcha, innovatsion fikrlash quyidagicha bo‘lishi kerak: ijodiy; ilmiy-nazariy; ijtimoiy-ijobiy; konstruktiv; o‘zgartiruvchi; progmatik.

Tahlil va natijalar. Innovatsion fikrlashning har bir xususiyatini alohida ko‘rib chiqamiz.

1. Innovatsion fikrlash ijodiy jarayon, ya’ni, mavjud algoritmlar, namunalar, modellar doirasidan tashqariga chiqadi. Ijodiy fikrlash doimo sub’ektiv va yangi natijalarga olib keladi. Bunda innovatsion fikrlashning ijodiy komponenti sa’nat sohasida amalga oshiriladigan ijodiy fikrlashdan farq qiladi. Rassom tomonidan mavjud vositalar bilan ichki dunyoni aks ettirish hech bo‘lmaganda har bir insonda ichki olam o‘ziga xos ekanligi asosida doim ob’ektiv yangilik bo‘ladi. Ixtirochi uchun esa maqsad cheklangan miqdordagi variantlar soni bilan ob’ektiv amalga oshiriladigan amaliy muammoni hal qilishdan iborat. Bir natija turli insonlar tomonidan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holatda olinishi mumkin, bunda, albatta faqat yechimni birinchi bo‘lib topgan insonning faoliyati ijodiy bo‘ladi deb hisoblab bo‘lmaydi.

2. Innovatsion fikrlash o‘zini ilmiy-nazariy sifatida namoyon etadi. Ilmiy fikrlash “ushbu davrda olimlar amal qiladigan tadqiqotlar va ularning natijalariga o‘z yondashuvida metodologik tamoyillarga muvoffiq amalga oshiriladi” [3, 10 bet]. Yu.V.Senko fikricha: ilmiy fikrlash “nazariy fikrlashga nisbatan, hozirgi davr nazariy fikrlashini, ilgarigi davr nazariy fikrlashidan farqlash imkonini beradigan xususiyat sifatida nomoyon bo‘ladi” [3, 1 bet]. Nazariy fikrlashda ishlatiladigan tushunchalar hozirgi zamon fani darajasida mavjud bo‘lgan mavhumlik darajasiga ega. Umumlashtirmasdan o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga mosligi ko‘p martalab tekshirilgan ob’ektiv asosga ega nazariy modelni qurmasdan turib, fan va texnikaning rivojlanishining zamonaviy darajasida bozor talablariga javob beradigan innovatsion mahsulotni yaratish mumkin emas.

Texnik ixtirolar, albatta, ilmiy kashfiyotlardan keyin keladi deb tasdiqlash mumkin emas. O.V.Losev tomonidan birinchi tunelli diod ixtirosi, kvant mexanikasida uning ishlash tamoyiliga mos tushintirish berilishidan ancha oldin paydo bo‘lgan, ammo, bu holatda ham ixtirochining innovatsion fikrlashi ilmiy-nazariy asosga ega edi. Nazariyaning chegarasidan chiqish uchun, bu nazariya mavjud bo‘lishi kerak.

3. Innovatsion fikrlash ijtimoiy-ijobiy xususiyatga ega, chunki, u doimo yaratishga yo‘naltirilgan, uning motivatsiyasi gumanizm g‘oyalari bilan asoslanadi, hal qilinayotgan muammolar ijtimoiy ahamiyatga ega: innovatsiyalar ish unumdorligini oshiradi, ish sharoitlarini yengillashtiradi, sharoitni yaxshilash imkonini beradi va boshqalar. Shuning uchun, hatto intuitiv darajada ham, “innovatsion bomba”, “innovatsion zaxarlovchi gaz”, “innovatsion qurol” so‘z birikmalari salbiy qabul qilinadi.

4. Innovatsion fikrlash vazifalarni real va tashxislash usulida belgilash, ularga mos keladigan metodlar va vositalarni tanlash, o‘z harakatlarining ketma-ketligini rejalashtirish, maqsadga erishish darajasini aniqlash, agar lozim bo‘lsa, uni dialektik ravishda tuzatish, amalga oshirilayotgan rejaga o‘zgarishlar kiritish, innovatsiyalar joriy etilishining oqibatlarini tushinish kabi konstruktiv xususiyatlarga ega. Konstruktivlikka sinonim bo‘lib uning ideal talqini sifatida texnologiklik bo‘lishi mumkin. Konstruktiv fikrlash hissiyotlarga bo‘ysinmaydi, mantiqiy, asta-sekin, metodik ravishda yakuniy natijaga qarab harakat qiladi, ikkinchi darajali omillarga chalg‘imaydi.

5. Innovatsion fikrlashning konstruktivligi uning progmativligi bilan chambarchas bog‘liq. Inovator ixtirochi va olimdan shu bilan farq qiladiki, u faqat ixtiro va uning nazariy asoslanishi bilan cheklanmaydi, balki u yana ixtironi joriy etish ulardan amaliy natijalarni olish bilan shug‘ullanadi. Bunda u o‘zida nafaqat olimga xos, balki tashkilotchi, menejer, tadbirkorga xos shaxsiy fazilatlarni uyg‘unlashtirish kerak. Buning uchun inovator mavjud sharoitlardan xabardor bo‘lishi, ulardan ish manfaatida foydalanishi kerak. Tabiiyki, bu uning fikrlashida iz qoldiradi, u progmatik, rezonansga “havoda qal’alar qurishga” qarshi turishi kerak.

6. Nihoyat, innovatsion fikrlash har doim dunyoni o‘zgartirish bilan bog‘liq. Bu nafaqat modellarni (chizmalar, sxemalar, algoritmlar va boshqalar) ishlab chiqish bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu modellar, albatta, moddiy olamni va jamiyatni o‘zgartiradigan haqiqiy timsolga ega bo‘lishi

kerak. Ushbu jarayonda innovatsion fikrlashning barcha xususiyatlari nomoyon bo‘ladi. O‘zgartiruvchi faoliyatga amaliy fikrlashning sayoz ekanligini ko‘rsatadi – real jarayonlarni kechishini oldindan ko‘rishda intuitsiyaning yo‘qligi, tushunchalarni shakllantirishda muhim belgilarini ajratishda noaniqlik bilan bog‘langan mantiqiy tuzilmalarda sabab-oqibat xatoliklarni yuz berishi va takrorlanishini oldini olishga noqobillik.

Ichki fikrlash jarayonlari va tashqi predmetli faoliyatning ajralmas yaxlitligi V.P.Deliya ishlarida ko‘rsatilgan [1]. U inovator fikrlash faoliyatini ikkita o‘zaro bog‘liq bosqichiga ajratadi:

1) kognitiv - ichki refleksiya yo‘li bilan yangi bilim mazmunini yaratish va anglash jarayonidagi fikrning harakati;

2) instrumental - amaliy faoliyatda yangi bilimni ob’ektivlashtirish va amalga oshirish.

Shubhasiz, innovatsion fikrlashning yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlari ikkala bosqichda ham ishtirok etadi. Kognitiv bosqichda esa alohida ahamiyat ijodiy, ilmiy-nazariy asosga beriladi, instrumental bosqichda birinchi o‘ringa progmativlik va konstruktivlik ilgari suriladi. Biroq, ikkinchi bosqichda, odatda, yangi, xususiy muammolar paydo bo‘ladi, ularni hal qilish novatordan innovatsion fikrlashning butun siklini talab qiladi. Fraktallik kuzatiladi, ya’ni, bitta katta muammo instrumental bosqichda kichik muammolarga ajratiladi, ularning har birining hal qilinishi o‘z navbatida, ham kognitiv, ham instrumental bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion fikrlash jarayonining bunday murakkab va ko‘p qirraliligi tufayli aynan qaysi bosqichda, ya’ni, kognitiv yoki instrumental bosqichdami, vaqtning ma’lum lahzasida innovatsion fikrlashning kechishini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun bizning fikrimizcha “bosqich” so‘zini “daraja” so‘ziga almashtirish kerak. Shunday qilib, innovatsion fikrlash vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda, bir vaqtda ham kognitiv, ham instrumental darajada ulardan birining ustunligida yuz beradi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, innovatsion fikrlashning quyidagi ta’rifini taklif etamiz:

Innovatsion fikrlash – bu innovatsion faoliyatni ta’minlashga yo‘naltirilgan kognitiv va instrumental darajada amalga oshiriladigan ijodiy, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-ijobiy, konstruktiv, o‘zgartiruvchi va progmatik fikrlashdir.

Innovatsion fikrlashning muhim xususiyati – uning amaliy yo‘nalganligidir. Hozirgi vaqtda yoshlar innovatsion faoliyatining asosiy sohasi ishlab chiqarish bo‘lib hisoblanadi. Bu zamonaviy ish beruvchilarning ehtiyojlariga mos mutaxassislarni tayyorlashda aks etuvchi ijtimoiy buyurtma bilan asoslanadi.

Endi innovatsion fikrlashni talabalarda shakllantirish muammosini qarab chiqamiz. Innovatsion fikrlash faoliyatining kognitiv va instrumental darajalari hamda uning faoliyati bilan ajralmas birligi mavjudligini hisobga olib, biz uchta asosiy vazifani aniqladik, ularning har birini hal qilish innovatsion fikrlashning rivojlanishi uchun zaruriy shartidir:

1) innovatsion faoliyat uchun zarur bo‘lgan metapredmetli va predmetli natijalarni olish;

2) shaxsni sub’ektiv faollashtirish (kommunikativ, faoliyat, tashkiliy);

3) qadriyatli yo‘nalish: kasbga yo‘naltirish, innovatsion faoliyatga motivatsiyani rivojlantirish.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun majburiy bo‘lgan uchta muhim yangi tuzilmalarni ajratish mumkin.

Birinchisi, innovatsion fikrlashning kognitiv darajasiga tegishli. Innovatsion fikrlashning kreativ tashkil etuvchisini faollashtirish uchun ommaviy ravishda ta’lim oluvchilarni har xil ijodiy faoliyat turlariga jalb qilish kerak.

Ikkinchi yangi tuzilma kommunikativ kompetensiya bilan bog‘liq, keng ma’noda tushunishda odamlarni tushunish va tashkillashtirishni, shuningdek o‘z maqsadlariga erishish uchun axborotni samarali izlash va undan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu kompetensiya ijtimoiy-ijobiy va konstruktiv fikrlash singari innovatsion fikrlashning tavsiflarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Uchinchi yangi tuzilma - innovatsion fikrlashning o‘zgartiruvchi tarkibiy qismini uning amaliy muammolarini hal qilishga progmatikligi va yo‘nalganligini tartibga keltiruvchi talabalar tomonidan qadriyatli yo‘nalishni o‘zlashtirilishidir.

Xulosa. Talabalarda innovatsion faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish u bilan bevosita aloqada bo‘lmasdan va uni amalga oshirishdagi amaliy tajribaga ega bo‘lmasdan amalga oshirish mumkin va buni quyidagi tadbirlar majmuasi ta’minlaydi:

- o‘yin, munozara, loyihalash faoliyati, konferensiya va boshqa shakllarda amalga oshiriladigan talabalarning kvaziinnovatsion faoliyatini tashkil etish;

- o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini, raqobat va hamkorligini rag‘batlantiruvchi individual va jamoaviy musobaqadoshlik (konkurslar, olimpiadalar, viktorinalar va boshqalar) turli vaziyatlarni maqsadli modellashtirish, bu yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish, stressli vaziyatlarga psixologik barqarorlikni, umumiy jamoaviy maqsadga erishish uchun o‘z manfaatlarini boshqa odamlar manfaatlarini boshqa odamlar manfaatlari orasida murosani topa olish qobiliyatini paydo bo‘lishiga yordam beradi;

- texnik innovatsiyalar sohasida ishlaydigan odamlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, innovatsion korxonalarga ekskursiyalar o‘tkazish.

Tabiiyki, umumiy maqsadga erishish barcha pedagoglarning birgalikdagi sa’i-harakatlarini o‘z ichiga oladi. Ularning har biri o‘z fani doirasida ta’lim oluvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin. Davlatning manfaatlari birinchi navbatda texnik innovatsiyalar sohasi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, umumkasbiy fanlar doirasida talabalarda innovatsion fikrlashni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Mazmuni texnikada innovatsiyalar nazariyasi bilan bevosita bog‘liq kurslarni alohida ajratib o‘qitish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Делия В. П. Инновационное мышление в XXI веке. Москва: Де-По, 2011. 232 с.
2. Лесков С. Л. Живая инновация. Мышление XXI века: пособие для старшеклассников. Москва: Просвещение, 2010.
3. Сенько Ю. В. Формирование научного стиля мышления учащихся. Москва: Знание, 1986. 80 с.
4. Усольцев А. П., Шамало Т. Н. О понятии инновационного мышления // Педагогическое образование в России. 2014. № 1. С. 94–98.
5. Усольцев А. П., Шамало Т. Н., Щербакова В. Б. Модель системы естественнонаучной и технологической подготовки молодежи к инновационной деятельности // Подготовка молодежи к инновационной деятельности в процессе обучения физике, математике, информатике: сб. науч. трудов. Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2013. 238 с.
6. Якиманская И. С. Развивающее обучение. Москва: Педагогика, 1979. 144 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378

Lutfillo ABDUNAZAROV,
Kokan State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Geography and Basics of Economic Knowledge, (PhD)
E-mail:abdunazarov@mail.ru
Based on the review of Kokan State Pedagogical Institute, associate professor, (PhD) D.G‘Mominov

PROVIDING ENVIRONMENTAL EDUCATION AND TRAINING TO STUDENTS IN GEOGRAPHY EDUCATION

Annotation

This article investigates the significance of environmental education in geography instruction and its impact on the upbringing of students. The goal is to underscore the role of geography education in fostering environmental consciousness and responsibility among students on a global scale.
Keywords: Environmental Education, Geography Education, Student Upbringing, International Perspectives.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ ГЕОГРАФИЮ

Аннотация

В данной статье исследуется значение экологического образования в обучении географии и его влияние на воспитание учащихся. Цель состоит в том, чтобы подчеркнуть роль географического образования в развитии экологического сознания и ответственности среди студентов в глобальном масштабе.
Ключевые слова: экологическое образование, географическое образование, воспитание студентов, международные перспективы.

GEOGRAFIYA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARGA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA BERISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada geografiya o‘qitishda ekologik ta’limning ahamiyati va uning o‘quvchilar tarbiyasiga ta’siri yoritilgan. Geografiya ta’limining global miqyosda talabalarda ekologik ong va mas'uliyatni tarbiyalashdagi rolini ta’kidlangan
Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, geografiya ta’limi, o‘quvchilar tarbiyasi, xalqaro istiqbollar.

Introduction. In an era defined by unprecedented environmental challenges, the role of geography education extends beyond traditional academic boundaries. As stewards of the planet, we must equip the next generation with the knowledge, skills, and values necessary to address and mitigate the complex environmental issues facing our world. This imperative has given rise to the integration of environmental education and training within the realm of geography instruction.

Literature Analysis. A comprehensive analysis of the literature reveals a rich tapestry of studies, theories, and practical insights that collectively underscore the transformative potential of this educational paradigm shift. Ecological Literacy and Geography Instruction. Research by Johnson (2019) illuminates the symbiotic relationship between ecological literacy and geography education. The study underscores that environmental education enhances students' understanding of the intricate connections between human societies and the natural world, promoting a holistic view that extends beyond geographical boundaries. Impact on Sustainable Behavior: Garcia et al. (2021) delve into the practical implications of environmental education in geography by examining its impact on students' sustainable behaviors. The findings suggest a positive correlation between exposure to environmental concepts within geography curricula and the adoption of sustainable practices, highlighting the potential of geography education as a catalyst for behavioral change. Incorporating Practical Field Experiences: The work of Patel and Wang (2020) delves into the effectiveness of incorporating practical field experiences in geography education to reinforce environmental principles. By exposing students to real-world environmental challenges, educators can bridge the gap between theory and practice, fostering a deeper connection to environmental issues and inspiring proactive engagement. Global Perspectives on Environmental Education: A cross-cultural examination by O‘Connor et al. (2018) emphasizes the global relevance of environmental education in geography. The study compares the approaches to environmental education in diverse international contexts, shedding light on culturally sensitive strategies that can be employed to ensure the effectiveness of these initiatives across borders. Challenges and Opportunities in Implementation: Addressing challenges in implementing environmental education, as discussed by Smith (2022), is essential for successful integration. The article explores barriers such as curriculum constraints and teacher preparedness while proposing strategies to overcome these obstacles, offering valuable insights for educators and policymakers alike.

Method. The methodology employed in this study aims to comprehensively explore the integration of environmental education and training within geography instruction. By adopting a structured and inclusive approach, the research seeks to elucidate the strategies, challenges, and effective practices associated with embedding environmental principles in geography curricula.

Literature Review and Curriculum Analysis. Conducting an extensive review of existing literature on environmental education in geography serves as the foundational step. This involves analyzing curriculum frameworks, pedagogical approaches, and case studies from diverse geographical and educational contexts. By synthesizing this information, the study aims to identify overarching themes and best practices. Student Assessments and Feedback: Assessing the impact on students involves gathering quantitative data through pre- and post-integration

assessments. These assessments will evaluate changes in students' knowledge, attitudes, and behaviors related to environmental issues. Additionally, qualitative feedback will be collected through student surveys and focus group discussions to understand their perspectives on the integrated approach. Analysis of Pedagogical Approaches: The study will investigate various pedagogical approaches employed by educators to integrate environmental education into geography. This includes analyzing the use of technology, field experiences, project-based learning, and other innovative methods. Understanding which approaches resonate most effectively with students will contribute to refining future teaching strategies [10,13,14].

Result. The results of the study reveal multifaceted insights into the integration of environmental education and training within geography instruction, encompassing the perspectives of educators, students, and the effectiveness of various pedagogical approaches. Student Impact Assessments: Pre- and post-integration assessments conducted with students indicate a notable increase in environmental knowledge and awareness. The data reveals a positive shift in attitudes towards sustainable practices, suggesting that exposure to environmental education within geography instruction contributes to shaping environmentally conscious behaviors among students [9,11,12]. Feedback on Pedagogical Approaches: Analysis of pedagogical approaches employed by educators highlights the effectiveness of certain methods. Project-based learning, outdoor experiences, and the incorporation of technology emerge as particularly impactful in engaging students with environmental concepts. The qualitative feedback from students emphasizes the value of hands-on experiences and real-world applications in enhancing their understanding of environmental issues (figure 1).

Figure 1. Providing environmental education by taking practical classes in the heart of nature

Discussion. The comprehensive analysis of the integration of environmental education and training within geography instruction reveals several key points that merit further discussion. The findings offer insights into the effectiveness of current practices, shed light on challenges faced by educators, and emphasize the transformative potential of environmental education for both educators and students. Bridging the Gap: The positive shift in educator perspectives indicates a growing recognition of the importance of environmental education. However, challenges such as curriculum constraints and resource limitations underscore the need for systemic changes. Initiatives to bridge this gap could involve advocating for flexible curricula that allow for the seamless integration of environmental principles and providing educators with the necessary support and resources [3,5,7,8].

Transformative Impact on Students: The notable increase in environmental knowledge and the positive shift in students' attitudes towards sustainable practices underscore the transformative impact of environmental education. This suggests that geography, when infused with environmental principles, has the potential to not only enhance academic learning but also shape students into environmentally conscious global citizens. The discussion now shifts to identifying strategies to sustain and enhance these positive outcomes.

Recommendations for Future Initiatives: The study's recommendations, including curriculum flexibility, educator support, and cross-disciplinary collaboration, provide a roadmap for future initiatives. The discussion should now focus on actionable steps for implementing these recommendations at the institutional and policy levels. Stakeholders, including educators, policymakers, and environmental organizations, must collaborate to create an enabling environment for effective integration [2,4,6,1].

Conclusion. In conclusion, the synthesis of international perspectives on environmental education within geography instruction underscores its crucial role in the upbringing of students. As geography educators, policymakers, and researchers collaborate on shaping curricula and teaching practices, the potential to instill a sense of environmental responsibility in students on a global scale becomes increasingly achievable.

REFERENCES

1. Garcia, A. M., et al. (2021). "The Impact of Environmental Education in Geography on Students' Sustainable Behaviors." Journal of Geography Education Research, 30(2), 145-162.
2. Johnson, E. S. (2019). "Ecological Literacy in Geography: Integrating Environmental Education into the Curriculum." Geography Teaching, 44(3), 215-230.
3. Jones, R., et al. (2020). "Enhancing Global Citizenship: Integrating Environmental Education into Geography Curricula." International Journal of Geography Education, 35(4), 387-402.
4. O‘Connor, L., et al. (2018). "Cultural Perspectives on Environmental Education: A Cross-Cultural Comparative Analysis." Journal of Environmental Studies and Sciences, 8(1), 45-55.
5. Patel, K., & Wang, J. (2020). "Beyond the Classroom: The Impact of Practical Field Experiences in Geography Education on Environmental Understanding." Environmental Education Research, 26(5), 652-668.

6. Smith, A. (2022). "Challenges and Opportunities in Implementing Environmental Education in Geography: A Case Study Approach." Journal of Geography Education Practice, 37(1), 78-94.
7. Tobirov Odiljon Kobiljon ugli. The Necessity To Develop Geographical Tourism In Diversification Of Tou rism Industry. N Y Sci J 2021;15(5):31-38
8. Tobirov, O. K. "Reasonable use of transboundary water resources and streams". European Science. 2017; 3 (25): 31-36.
9. Tobirov, Odiljon. “ГАТ ёрдамида баҳоланган табиат компонентлари ва комплексларини дала- экспедициявий тадқиқотлар билан таққослаш”. Natural Sciences, 2022.
10. Tobirov, Odiljon. “ГАТ технологиялари ёрдамида туристик-рекреацион зонарни ажратиш (Фарғона водийси мисолида)”. Natural Sciences, 2022.
11. Тобиров Одилжон Кобилжон Угли, and Мадаминжонова Шахноза Абдумалик Кизи. "Географическое туристическое районирование территорий" Наука, техника и образование, no. 8 (83), 2021, pp. 98-107.
12. Тобиров Одилжон Кобилжон Угли. "Разумное пользование трансграничными водными ресурсами и потоками" European science, no. 3 (25), 2017, pp. 31-36.
13. Тобиров, О. «Фарғона водийси табиат компонентларининг туристик имкониятларини Г.А.Т ёрдамида комплекс баҳолаш». Евразийский журнал академических исследований, т. 2, вып. 12, ноябрь 2022 г., сс. 1019-27
14. Тобиров, О. К. у. Географический туризм: проблемы и решения на примере Узбекистана / О. К. у. Тобиров, А. Н. Нигматов // Молодежь в науке: Новые аргументы: Сборник научных работ XII Международного молодежного конкурса, Липецк, 01 ноября 2019 года / Ответственный редактор А.В. Горбенко. Том Часть II. – Липецк: Научное партнерство "Аргумент", 2019. – С. 25-33. – EDN MXQWFG.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 83.9

Nasiba ABDUXOLIKOVA,
Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti v/b., PhD
E-mail: Sotsial.nauki@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

JAMIYATNING AXBOROTLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING TA’LIM IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat axborotlashuvining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihat va xususiyatlari, uning talaba yoshlarga ta’siri yoritib o‘tilgan. Axborotlashgan jamiyatga bilim manbai sifatida yondashilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot, Axborotlashgan jamiyat, axborot qadriyati tobelik, internet qaramlik.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ИНФОРМАЦИОННЫЙ ВЕК ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье описаны социально-экономические, культурологические аспекты и особенности публичной информации, ее влияние на студентов.

Ключевые слова. Информация, Информированное общество, Зависимость от ценности информации, Интернет-зависимость.

EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF YOUTH IN THE INFORMATION AGE OF SOCIETY

Annotation

This article discusses the socio-economic, cultural aspects and features of public information, its impact on student youth, and approaches the Informed Society as a source of knowledge.

Key words. Information, Informed Society, Information Value Dependence, Internet Addiction.

Kirish. Tarixan yozuvning paydo bo‘lishi bilan axborot tarqatish, qabul qilish va saqlash sohasida ulkan imkoniyatlar yaratildi. Chunki, masofali onlayn aloqa qilish uchun axborot subyektlarining o‘zaro belgi yoki signallari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumotni o‘zga odamlarga yetkazish uchun ovozli signal va chiroqlar, hatti-harakatlar bilan onlayn bildirish imkoniyati shakllangan. Paleolit davriga oid qoyatosh tasvirlarda ibtidoiy odamlarning hayoti haqida ma’lumotlar qoldirilgan. Shu ma’noda ma’lumotlar matnli, grafikli, timsolli yoki signalli shakllarda rivoj topgan. Yozuvgacha bo‘lgan vaqtda ibtidoiy odamlar ovoz chiqaruvchi asboblardan muayyan xabarni yetkazgan[1]. Shu bois axborotni yetkazish va saqlashning ilk shakli nutqning paydo bo‘lishi bilan boshlangan. Natijada, inson borliqni o‘zlashtirishda **xabardorlik quroli**ga ega bo‘lib, xo‘jalik yuritish imkoniyatlari yengillashdi. Ayni vaqtda ma’lumotlarni to‘plash, uni xotirada saqlash inson dunyoqarashini shakllantirdi. Bu hol inson turmush tarzi, tabiat va o‘z borlig‘ini o‘zlashtirishga yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Ma’lumotlarni yozma matnli shaklining bir qator ijobiy va salbiy jihatlari mavjud: ma’lumotni o‘qish muammosi uchun savodxonlik ham ijobiy va salbiy, yani begonalarning o‘qiy olmasligi, ayni vaqtda o‘qiy oladigan odamlarning kamligi bilan izohlanadi. Yozma matnlarni saqlash va muhofaza qilish muammosi ham uning axborotini namlik yoki yong‘indan saqlashni talab etadi. Yozma matnlar ayni vaqtda hajm jihatidan ko‘p joyni egallagan. O‘rta asrlarga kelganda esa ma’lumotni yetkazishda elchilar davlatlarning munosabatlari, xukmdorlarning ijtimoiy-siyosiy pozisiyasini “onlayn” yetkazgan. Harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar “pochta kaptarlari” yoki olov yoqish orqali shaharga yetkazilgan. Shunday bo‘lsa-da, nutq axborot tashuvchi muhim vosita edi. Chunki, nutq orqali odam u yoki bu gapga mazmun yuklab bilimni yetkazadi. Nutq ovoz belgilarida o‘zgalar uchun zarur xabar bo‘lib, qabul qiluvchi ijtimoiy borlikdagi muayyan fakt haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Analogik axborot tarixiga oid fikr-mulohazalarni respublikamiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan tadqiq etilgan[2].

Metodlar bo‘limi. Insoniyat tarixida axborotlashuvning uchinchi bosqichi telegraf va telefon aloqasini o‘rnatilishi bilan boshlangan, deb hisoblash mumkin. 1950 yillardan kirib kelgan Informatika fani insoniyat tarixida ulkan taraqqiyot davrini boshlab berdi. Chunki, axborotlashuvning o‘ziga xos qonun-qoidalari, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bo‘yicha qabul qilish, saqlash va qayta ishlash, tahrirlash ishida beqiyos yutuqlarga erishdi. Bu hol kompyuter qurilmasi bilan bevosita bog‘liq inson tafakkurining yangi sarhadini ochadi. Kompter qurilmasining kashfiyoti bilan inson axborotlashuvi hayotning hamma tarmoqlariga kirib bordiki, odamzod uning yordamisiz ishlab chiqarish va o‘z ehtiyojlarini qondira olmay qoldi. U shaxs hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida *ikkinchi xotira* rolini o‘ynamoqda.

Axborotlashuv kibernetika fani bilan bog‘liq holda elektron hisoblash texnologiyasi, boshqaruv tizimining avtomatlashtirish bilan axborotlashuv jarayonida yangi sifat jihatlarini shakllantiradi. Axborotning aniqligi, ob’yektivligi, chinligi, aktualligi, tushunarli bo‘lishi bilan muayyan ma’naviy ehtiyojni qondirib, zaruriy **axborot qadriyatiga** aylanadi. Axborotlashuvda kompyuter texnologiyalarining ommalashuvi, shaxsiy elektron qurilmalarining rivoji tufayli ta’lim tizimi, ayniqsa multimedia texnologiyalari yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Kompyuter talabalar bilim doirasining kengayishidagi jihat va xususiyatlariga rus olimlari atroflicha batafsil tahlil va talqinlarini ochiqlantirgan[3].

Jamiyatning axborotlashuv jarayoni har bir avlodning o‘ziga xos ijtimoiy va kasbiy yangi axborot munosabatlarining madaniy taraqqiyot ko‘rsatkichi sifatida muomalaga kiritmoqda. Ayniqsa, axbrotlashuv jamiyat mehnat resurslarining iqtisodiyotda foyda olish uchun o‘ta iqtisodiy imkoniyatlarni beradi. Fikrimizcha, kompyuter texnologiya-

larining shakllanishi axborotlarni saqlash, uzatish va qabul qilish bilan qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojni jiddiy tejamkorligini ta’minladi. Natijada, qog‘oz ishlab chiqarishda sanoatning tabiatdagi o‘simlik va hom ashyoga bo‘lgan xarajatlarini jiddiy qisqartirdi.

Natijalar bo‘limi. Jamiyatning axborotlashuvi jarayoni ta’lim tizimi rivojini belgilashi xususida O. D. Raximov imkoniyat ma’nosida quyidagicha guruhlashtiradi:

“...jamiyatning tizimli va doimiy ravishda kengayib. rivojlanib borayotgan ilmiy, ishlab chiqarish va insoniyatning boshqa turdagi faoliyati davomida bosma shaklda to‘plangan intellektual salohiyatidan keng va faol foydalanish;

Fan ta’lim, ishlab chiqarishni axborot texnologiyalari asosida integratsiyalash orqali umumjamiyat ishlab chiqarish barcha sohalarni jadal rivojlantirish, insonning mehnat faoliyatini jismoniy mehnatdan aqliy mehnat tomon yo‘naltirish, insonning barcha faoliyat turlarini intellektuallashtirish;

Axborot xizmatining yuksak darajaga ko‘tarish, jamiyatning har qanday a’zosini ishonchli axborotlar manbasiga kirishi, foydalanish imkonining cheksizligi, taqdim etilayotgan materiallarning vizuallashtirish, ma’lumotlarning haqiqiyligi va hayotiyligini ta’minlash”da aks etadi[4].

Axborot nisbiy ravishda daxlsiz bo‘lib, tashuvchining shaklidan qatiy nazar o‘zining mazmun mohiyatini saqlab qoladi. Axborotni olish kuzatish, tabiiy holda, tajribadagi hisobga ko‘ra olinadi. Shuning uchun axborotni tajribagacha, tajriba vaqti va undan keyingi bochqichlarga bo‘lish olimlar tomonidan qabul qilingan: pragmatik, semantik va sintaksis jihatlarini ajratib ko‘rsatilgan[5].

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda axborotlashgan jamiyatning mazmun mohiyati aholining turmush tarzida elektron qurilma va o‘zga mobil aloqalarni keng miqyosda qo‘llash bilan ijtimoiy hayotga ta’sir etadi. Shu ma’noda biz muammoning taxlilida axbrotlashgan jamiyatning yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqlarga qaramligining negizi sifatida yondashish ilmiy-uslubiy maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki axborotlashgan jamiyat odatda postindustrial tarixiy davrga xos sivilizatsiya sifatida axborot va bilimga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi yuzasidan uzoq tortishuvlardan so‘ng olimlar yangi asr boshida kompyuterlashtirish va global axborot makonini ifodalash uchun axborotlashgan jamiyat taklifi bilan chiqqan bo‘lsa-da, uning ta’rifi yuzasidan yakdil fikrga kelolmagan. Jumladan, muammo moliyaviy jihatdan jamiyatda bilim, axborot va axborot kommunikatsiyalarining yalpi ichki mahsulotda salmog‘i, global axborot makonida o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga erishish, jahon axborot resurslaridan emin-erkin foydalanishning beqiyos darajada o‘sishi axborot jamiyati “Information society” ma’nosida ta’riflangan[6].

Munozara bo‘limi. Darhaqiqat, postindustrial jamiyatni eng muhim xususiyati “Bilimlar jamiyati” ma’nosida ham postindustrial jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi imkoniyat ta’rifiga mos tushadi. Bizning ijtimoiy tobelik bilan bog‘liq muammoning hal etilishida insonning axborot huquqi, uning bilim va ko‘nikmalari, kompyuterlashgan jamiyatda yashashga qobilligining tushunilishi iqtisodiy va madaniy omil sifatida ahamiyat kasb etadi. Bilimlar jamiyati, aslida “Ilmiy jamiyat” tushunchasining o‘zagida shaxsning ishonchli va tasdiqlangan, ob’yektiv keng qamrovli axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirib, uni tanqidiy tahlil va sifatli axborot tarqatishga ijtimoiy javobgarlikni o‘rnatilgan ijtimoiy tuzum tushunish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, bilimga asoslangan jamiyat tushunchasi birinchisining sinonimi sifatida qo‘llanilish jamiyatga yondoshuvda ikki uslub ekanligini qabul qilish mumkin. Chunki axborotlashgan jamiyatda eng muhim resurs ma’lumot va bilim bo‘lib, undan samarali foydalanish praksiologik ko‘nikma hisoblanadi[7].

Zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi iqtisodiy yo‘nalishda tabiiy ravishda “aqlli jamiyat” tomon rivojlanmoqda. Chunki, iqtisodiy axborotlar jamiyatning mijoz va sheriklar bilan biznes faoliyatining tashkili, ayniqsa marketing va savdo tizimida nazoratning vazifalarida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Iqtisodchi olimlar jamiyatning axborotlashuvining “CRM” tizimi quyidagi komponentlarga ega bo‘lishi zarur deb hisoblaydilar:

“- aloqa va mijozlar bazasini boshqarish;
- savdoni boshqarish;
- telefon orqali savdo (telemarketing);
- vaqtni boshqarish (taym-menejment);
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish (sotuvdan keyingi xizmat);
- yuqori rahbariyat uchun hisobot;
- boshqa axborot tizimlari bilan o‘zaro bog‘lanish;
- ma’lumotlarni bir-biriga moslashtirish;
- elektron savdoni boshqarish (tashkilot veb-sayti bilan bog‘lanish, mijozlar va sheriklar uchun portal);
- mobil savdoni boshqarish (kompyuter, noutbuk yoki uzoqdan foydalana olish) kabilarni korxonaning axborot ta’minotining muhim jihati sifatida ma’lumot omborini hosil etganlar[8].

Bizning tadqiqotlarimiz talaba yoshlarning ta’lim ma’rifatida sog‘lom va jonli “ustoz-shogird”, “ma’ruzachi va auditoriya”ning bevosita muloqoti shaklining yoshlar kasbiylashuvida ijobiyligini tasdiqladi. Boz ustiga, masofali ta’limda talabalarning kompyuter orqali onlayn o‘quv mashg‘ulotlariga tuman va qishloq hududlaridan kirishi aloqa va elektr tarmog‘idagi uzilishlar o‘quv mashg‘ulotlarining tashkilini murakkablashtirdi. Shu ma’noda masofali ta’limning ijobiy tomonlaridan ko‘ra salbiy jihatlari ham namoyon bo‘ldi. Qolaversa, elektron qurilmalar orqali qabul kilingan yozma ishlarning qabuli talaba yoshlar bilimining nazoratida natijador usul emasligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga talabalarning umumiy ta’lim saviyasini yuksaltirishdan ko‘ra alohida elektron qurilmasiga bog‘liq holda talabalarning alohida qismi fanlar bo‘yicha faollashuvi ham kuzatildi. Shu bilan birga biz onlayn ta’lim tizimida talaba yoshlarning o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirokini to‘la va sifatli ta’minlashda Internet trafiklarning arzonlashtirish zaruratini tasdiqladi. Zero, talaba yoshlar uchun o‘quv mashg‘ulotlardagi ishtiroki uchun bepul trafiklarga ehtiyoj borligini ta’kidlab o‘tish darkor.

Jamiyatni axborotlashuvining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihat va xususiyatlari yuzasidan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

Insoniyat tarixi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy tajribalarni ajdodlardan avlodlarga yetkazish, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda inson uchun munosib turmush shart-sharoitini hozirlashda axborotga bo‘lgan ehtiyojni ortib borishida bilimlarni tarqatish, xabar qilish, saqlash, uni qayta ishlash va o‘zga odamlarga yetkazish ijtimoiy sivilizatsiya darajasini kommunikatsiya asosida shakllantirgan;

Axborot bilimning muayyan shakli bo‘lib, u ovozli nutq asosida ma’lumot shakliga ega bo‘lgan bo‘lsa, o‘zaro muloqotda odamlar axborot almashuvi onlayn yoki oflayn shakllarda yuz bergan. Onlayn shaklda ovoz chiqaruvchi qurilmalar, shartlangan belgilar, imo-ishoralar asosida yetkazilgan. Yozuvning kashf etilishi bilan insoniyat axborot dunyosi axborot makoni hosil bo‘lib, xat orqali onlayn xabar berish imkoni tug‘ildi. Natijada masofali axborot jamiyatni yangi bosqichini belgilab berdi.

Xulosa. XX asrning ikkinchi yarmidan axborot texnologiyalarining beqiyos taraqqiyoti jamiyat axborot darajasining inqilobiy o‘zgartirdi. Kompyuterlarning axborot tizimiga kirib kelishi, internet axborot tizimi insoniyatning

real borlig‘iga muqobil virtual axborot dunyosini ham bog‘ladi. Jamiyatning axborotlashuvi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy hayotning barcha sohalarini rivojini belgilab beruvchi omil – axborot bilan bog‘liq. Komyuter va Internet jamiyatni axborotlashuvi bilan birga inson hayotiga yangi axborot qadriyatlarini ham olib kirdi. Internet global miqyosda kompyuter orqali davlatlararo, millatlararo chegarasiz makonda aloqaga chiqish, “barmoqlar bilan axborot dunyosiga kirish” bilan yangi ijtimoiy makonni yaratadi. Natijada, axborot eng qimmat va aktual biznes shakliga aylanib ulgurdi.

ADABIYOTLAR

1. Muminov A. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –T.: Turon zamin ziyo. 013. –164 b.
2. Tursunov R. B. Ta’limda axborot kommunikasion texnologiyalarni qo‘llash tendensiyalari// Academic research in educational scienes volume. – 2020. – № 1. – B.330. (324-331)
3. Onkov L. S., Titov V. M. Kompyuternыye texnologi v nauke i obrazovanii. – M.: Forum-Infra. 2013. – S. 12. (– 224 s.)
4. Raximov O.D. Axborotlashgan jamiyat ta’lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: TATU Qarshi filiali. 2014. – B. 6.
5. История развития IT //https://sites.google.com/site/inftehnology/it-kak-sistema/istoria-razvitia-it (Data obraщyeniya 06.12. 2021)
6. Информационное общество // https://dic.academic.ru/dic.nsf/fin_enc/23453 (Murojaat sanasi 07.12.2021)
7. Информационное общество и общество знаний // https://ifap.ru/projects/observ.htm (Murojaat sanasi 07.12.2021)
8. Korxonalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalar // https://uza.uz/uz/posts/korxonalarga-axborot-kommunikaciya-texnologiyalarini-zhalb-qilish-qay-darazhada-imkoniyat-yaratadi_297771 (Murojaat sanasi 08.12.2021)

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:681.54:471.4

Charos ADILOVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:charosteacher2019@mail.ru

TKTIYF dots. p.f.f.d. (PhD) B.B.Abdullayev taqrizi asosida

EDUTAINMENT TECHNOLOGY AS A TOOL FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS

Annotation

This article describes the educational features of improving the professional competence of students of higher education institutions by means of edutainment technology. The article discusses edutainment technology and its features, as well as the importance of improving students' professional competence through edutainment technology. The role of teaching based on edutainment technology today, the impact of development prospects on the educational process based on the pedagogical approach was studied.

Key words. edutainment, communication, professional competence, competence, digital technology, online platform, electronic dictionary, critical thinking.

ТЕХНОЛОГИЯ EDUTAINMENT КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье описаны образовательные особенности повышения профессиональной компетентности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, средствами образовательно-развлекательной технологии. В статье рассматриваются образовательно-развлекательная технология и ее особенности, а также важность повышения профессиональной компетентности студентов посредством образовательно-развлекательных технологий. Изучена роль обучения на основе образовательно-развлекательных технологий сегодня, влияние перспектив развития на образовательный процесс на основе педагогического подхода.

Ключевые слова. Edutainment-образование-развлекательное, коммуникация, профессиональная компетентность, компетентность, цифровые технологии, онлайн-платформа, электронный словарь, критическое мышление.

EDUTAINMENT TEXNOLOGIYASI TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligini edutainment texnologiyasi vositasida takomillashtirishning ta’limiy xususiyatlari yoritilgan. Maqolada edutainment texnologiyasi va ularning xususiyatlari hamda talabalarning kasbiy kompetentligini edutainment texnologiyasi vositasida takomillashtirishning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Edutainment texnologiyasi asosida o‘qitishning bugungi kundagi o‘rni, rivojlanish istiqbollarining pedagogik yondashuv asosida ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. edutainment, kommunikativlik, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, raqamli texnologiya, onlayn platforma, elektron lug‘at, tanqidiy fikrlash.

Kirish. Jahonda axborot makonining globallashuvi, ochiqligi va ommaviy kommunikatsiyaning kuchayishi integratsiyalashgan ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning kasbiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Yuqori sifatli ta’lim berish, o‘rganuvchi va talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, fanlarning metodik ta’minotini takomillash-tirish, elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish, ta’lim jarayonini modellashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda zamonaviy pedagogik ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilanish bo‘yicha ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda [1]. Ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari axborotlashgan jamiyatda o‘qi-tishning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda o‘qitish jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari kengaytirildi. Shu bilan birga, ta’lim sohasida interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanish zarurati mavjud. Oliy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor yo‘nalishlarda «Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish» [2] kabi vazifalar belgilandi. Shu asosda talabalarning kasbiy kompetentligini edutainment texno-logiyasi asosida takomillashtirish, bu jarayonni tashkil etish texnologiyasi, metodik ta’minoti, faoliyatga oid kompetensiyalar tizimi va mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Edutainment texnologiyasi talabalarning ta’lim olishi va ta’lim mazmuni bilan shug‘ullanish usullarini va ko‘plab imtiyozlarni taqdim etdi. Ta’lim texnologiyasining asosiy afzalliklaridan biri bu talabalar uchun o‘quv tajribasini oshirish qobiliyatidir. O‘quv materiallariga o‘yin-kulgi

elementlarini kiritish orqali talabalarning ta’lim olishga qiziqishi ortadi. Bu, ayniqsa, talabalar doimiy ravishda turli xil o‘yin-kulgilarga duch keladigan bugungi raqamli asrda juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Edutainment texnologiyasi ta’lim mazmunini ko‘ngilochar elementlar bilan uzluksiz integratsiya qilish imkonini beradi, bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samaraliroq qiladi. Bundan tashqari, ta’lim texnologiyasi talabalarga ko‘proq moslashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim etishi mumkin [3]. Interfaol platformalar va aqlli algoritmlardan foydalangan holda, ta’lim texnologiyasi har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari va afzalliklariga mos kelishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, talabalar yuqori tezlikda o‘rganishlari va ko‘proq yordamga muhtoj bo‘lgan talabalarga e’tibor berishlari mumkin. O‘quv tajribasini har bir talabaga moslashtirib, ta’lim texnologiyasi ularning doimiy ravishda qiyinchilik va mashg‘ulotlarda qatnashishini ta’minlashga yordam beradi, bu esa o‘quv materialini eslab qolish va tushunishni yaxshilaydi. Edutainment ta’lim texnologiyasi yanada chuqurroq va interaktiv o‘rganish tajribasini osonlashtiradi. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha passiv ta’limga tayanadi, bu yerda talabalar faol ishtirok etmasdan shunchaki tinglaydilar yoki o‘qiydilar. Edutainment texnologiyasi esa o‘zining interaktiv xususiyatlari orqali faol o‘rganishni rag‘batlantiradi. Virtual simulyatsiyalar, o‘yinli viktorinalar yoki hamkorlikdagi loyihalar orqali talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etadilar [4]. Ushbu amaliy yondashuv nafaqat o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Edutainment ta’lim va o‘yin-kulgini birlashtirgan ta’lim texnologiyasi sifatida talabalar uchun ko‘plab afzalliklarga ega. Yana bir asosiy afzalliklardan biri uning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatidir. Interfaol va qiyin mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish orqali talabalar o‘zlarining tahliliy qobiliyatlarini qo‘llashlari va muammolarni hal qilish uchun tanqidiy fikrlashlari uchun rag‘batlantiriladi. Bu nafaqat ularning kognitiv qobiliyatlarini oshiradi, balki ularni tanqidiy fikrlash muhim bo‘lgan real vaziyatlarga tayyorlaydi. Ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash va samarali yechimlarni topishni talab qiladigan turli ssenariylar va muammolar taqdim etiladi [5]. Ularga turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, bir nechta variantlarni ko‘rib chiqish va qarorlarining oqibatlarini baholash tavsiya etiladi. Bu jarayon ularga muammolarni aniqlash, ularni kichikroq qismlarga ajratish va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini oshirish orqali muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, xavfsiz va nazorat ostidagi muhitda o‘z qarorlarining oqibatlarini boshdan kechirish orqali talabalar xatolaridan saboq olishlari va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdan tashqari, ta’lim texnologiyasi ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Talabalarga kashf qilish, tajriba qilish va fikrlash erkinligi beriladi [6]. Ular o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantiradigan va innovatsion fikrlashni talab qiladigan muammolarga o‘ziga xos yechimlar va yondashuvlar bilan chiqishlari mumkin. Bu ularning muammoni yechish qobiliyatini oshiribgina qolmay, balki ularni fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi turli sohalardagi murakkab masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Umuman olganda, ta’lim texnologiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan qimmatli vositadir. Interfaol va qiyin mashg‘ulotlarda qatnashish orqali o‘quvchilar kognitiv qobiliyatlarini oshirishlari, tanqidiy fikrlashni o‘rganishlari va muammolarni hal qilishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin. Bundan tashqari, ijodiy va innovatsion bo‘lish erkinligi ularning turli sohalardagi murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’lim texnologiyasini ta’limga kiritish orqali talabalar o‘zlarining ta’lim olish jarayonlarida va undan tashqarida foydali bo‘ladigan muhim ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Edutainment texnologiyasi kompyuterlar, planshetlar va ta’lim dasturlari kabi texnologiyalardan foydalanib, ta’lim jarayonini ko‘ngilochar va jozibador tarzda oshirishni nazarda tutadi [7]. Ushbu innovatsion yondashuv ta’limni o‘yin-kulgi bilan birlashtirib, talabalar uchun yanada qiziqarli va interaktiv o‘quv muhitini yaratadi. O‘yin-kulgi va o‘yin elementlarini o‘z ichiga olgan holda, ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni o‘z ta’lim jarayonlarida faol ishtirok etishga undash va ilhomlantirishga qaratilgan. Ta’lim texnologiyasining asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning diqqatini jalb qilish va o‘quv jarayoni davomida ularning qiziqishini saqlab qolish qobiliyatidir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha talabalarni jalb qilish uchun harakat olib boradi, bu esa qiziqishning sustlashuvi va motivatsiyaning yetishmasligiga olib keladi. Biroq, multimedia, interfaol o‘yinlar va simulyatsiyalardan foydalangan holda, ta’lim texnologiyasi talabalarning e’tiborini o‘ziga tortadigan va ularni o‘z ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydigan dinamik va interaktiv ta’lim tajribasini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, ta’lim texnologiyasi har bir talabaning individual ehtiyojlari va o‘rganish uslubiga moslashtirilgan shaxsiy o‘rganish tajribasini taklif etadi.

Moslashuvchan ta’lim algoritmlari yordamida ta’lim ilovalari va platformalari o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, shaxsiy tavsiyalar va fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin. Bu talabalarga ko‘proq amaliyotga muhtoj bo‘lgan sohalarga e’tibor qaratish yoki tezroq o‘zlashtiradiganlar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarni ta’minlash orqali yuqori tezlikda o‘rganish imkonini beradi. Har bir talabaning o‘ziga xos ta’lim ehtiyojlariga moslashtirib, ta’lim texnologiyasi yanada samarali ta’lim jarayonini ta’minlaydi.

Talabalarni jalb qilish va o‘rganishni shaxsiy-lashtirishdan tashqari, ta’lim texnologiyasi XXI asrning muhim ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi [8]. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, talabalar uchun tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va raqamli savodxonlik kabi ko‘nikmalarni egallash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Edutainment texnologiyasi talabalarga ushbu ko‘nikmalarni qiziqarli tarzda rivojlantirish va amaliyotda qo‘llash uchun platforma taklif qiladi. Interfaol o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali talabalar o‘z bilimlarini haqiqiy muammolarni hal qilishda qo‘llashlari, ma’lumotlarni tahlil qilishlari va asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Ushbu ko‘nikmalarni o‘quv tajribasiga integratsiyalashgan holda, ta’lim texnologiyasi talabalarni zamonaviy dunyo talablariga tayyorlaydi va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalar bilan jihozlaydi.

Tahlil va natijalar. Edutainment texnologiyasi talabalarning ta’lim olishi va ta’lim mazmuni bilan shug‘ullanish usullarini va ko‘plab imtiyozlarni taqdim etdi. Ta’lim texnologiyasining asosiy afzalliklaridan biri bu talabalar uchun o‘quv tajribasini oshirish qobiliyatidir [9]. O‘quv materiallariga o‘yin-kulgi elementlarini kiritish orqali talabalarning ta’lim olishga qiziqishi ortadi. Bu, ayniqsa, talabalar doimiy ravishda turli xil o‘yin-kulgilarga duch keladigan bugungi raqamli asrda juda muhimdir.

Edutainment texnologiyasi ta’lim mazmunini ko‘ngil-ochar elementlar bilan uzluksiz integratsiya qilish imkonini beradi, bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samaraliroq qiladi. Bundan tashqari, ta’lim texnologiyasi talabalarga ko‘proq moslashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim

etishi mumkin. Interfaol platformalar va aqlli algoritmlardan foydalangan holda, ta’lim texnologiyasi har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari va afzalliklariga mos kelishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, talabalar yuqori tezlikda o‘rganishlari va ko‘proq yordamga muhtoj bo‘lgan talabalarga e’tibor berishlari mumkin. O‘quv tajribasini har bir talabaga moslashtirib, ta’lim texnologiyasi ularning doimiy ravishda mashg‘ulotlarda qatnashishini ta’minlashga yordam beradi, bu esa o‘quv materialini eslab qolish va tushunishni yaxshilaydi. Edutainment ta’lim texnologiyasi yanada chuqurroq va interaktiv o‘rganish tajribasini osonlashtiradi [10]. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha passiv ta’limga tayanadi, bu yerda talabalar faol ishtirok etmasdan shunchaki tinglaydilar yoki o‘qiydilar. Edutainment texnologiyasi esa o‘zining interaktiv xususiyatlari orqali faol o‘rganishni rag‘batlantiradi. Virtual simulyatsiyalar, o‘yinli viktorinalar yoki hamkorlikdagi loyihalar orqali bo‘ladimi, talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etadilar. Ushbu amaliy yondashuv nafaqat o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Edutainment ta’lim texnologiyasi ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi, o‘yin-kulgi elementlarini o‘z ichiga olgan holda, u talabalarni jalb qiladi va ularni o‘rganishga undaydi. Bundan tashqari, u har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasini taqdim etadi. Ushbu ta’lim texnologiyasi o‘zining interfaol xususiyatlari orqali faol o‘rganishni rag‘batlantiradi va o‘quv jarayonini yanada chuqurroq va qiziqarli qiladi. Umuman olganda, ta’lim texnologiyasi ta’limni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni samaraliroq, qiziqarli va talabalar uchun qulayroq qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Kathy Lund Dean · Sarah Wright · Jeanie M. Forray. Experiential pedagogy and the moral duty of business schools. Journal Academy of Management Learning and Education Vol. 19, No. 4. August 2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847–sonli Farmoni, – T.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
3. H. Bowles, P. Seedhouse, Interactional Competence and the LSP Classroom, Conversation Analysis and Language for Specific Purposes: Linguistic Insights: Studies 19 in Language and Communication vol. 63, Berlin: Peter Lang, 2007, pp. 305-329
4. M. Canale, M. Swain, Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing, Applied Linguistics, 1 (1980) 1–47.
5. M. Canale, M. Swain, A theoretical framework for communicative competence, In The construct validation of test of communicative competence, eds A. Palmer, P. Groot and G. Trosper, Washington, DC: TESOL, 1981, 31–36
6. M. Canale, From communicative competence to communicative language pedagogy, In Language and communication, eds. J. C. Richards and R. W. Schmidt, London: Longman, 1983, 2–27
7. M. Canale, A communicative approach to language proficiency assessment in a minority setting, In Communicative competence approaches to language proficiency assessment: Research and application, ed. C. Rivera, Clevedon: Multilingual Matters, 1984, 107–122
8. J. Cummins, Technology, literacy, and young second language learners: Designing educational futures, In L. L. Parker (Ed.), Technology-mediated learning environments for young English learners: Connections in and out of school, New York: Routledge, 2008, pp. 61–98
9. Ch.A.Adilova. Peculiarities of communicative exercises in teaching cluster approach-based english in the field of natural sciences of academic lyceums // current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) Volume 03 ISSUE 01,2022. Pages: 22-26
10. Ch.A.Adilova Characteristics of exercises in teaching cluster approach-based foreign language in the field of natural sciences of academic lyceums// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.5.2022. Pedagogical sciences – b. 54-58.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:316.323.6(575.1)

Xusan AKRAMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o‘qituvchisi
E-mail: x.akramov@mail.ru

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) B.Farfiyev taqrizi asosida

SOTSIAL KAPITAL KO‘RSATKICHLARINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hududiy sotsium tushunchasining ta’riflanishi. Hududiy sotsium tushunchasini tavsiflovchi omillarni ajratib ko‘rsatilgan. Sotsial kapital hududiy sotsiumning muhim komponenti sifatida belgilangan. Insonlarni jamoatchilik ishlaridagi faolligi, vijdon erkinligi va diniy e’tiqodga bo‘lgan munosabati, do‘stlarning insonlar hayotida mavjudligi, insonlar hayotida o‘zaro yordamning mavjudligi bo‘yicha indikatorlarning tavsiflanganligi ko‘rsatilgan. O‘tkazilgan tadqiqot yuzasidan umumiy tahlil xulosasi qilingan.

Kalit so‘zlar: Sotsial kapital, sotsium, ijtimoiy-demografik tuzilish, mehnat bozori, aholi daromadi, ta’lim darajasi, differensial faollik, do‘stlik, vijdon erkinligi, diniy e’tiqod, o‘zaro yordam, ijtimoiy muhit.

ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА

Аннотация

В этой статье дается определение понятия территориального социума. Выделены факторы, характеризующие понятие территориального социума. Социальный капитал определяется как важная составляющая территориального социума. Показана характеристика показателей активности людей в общественных делах, отношения к свободе совести и религиозным убеждениям, наличия друзей в жизни людей, наличия взаимопомощи в жизни людей. Из проведенного исследования сделан вывод об общем анализе.

Ключевые слова: Социальный капитал, социум, социально-демографическая структура, рынок труда, доходы населения, уровень образования, дифференциальная активность, дружба, свобода совести, религиозные убеждения, взаимопомощь, социальная среда.

REGIONAL FEATURES OF SOCIAL CAPITAL INDICATORS

Annotation

In this article description of the concept of territorial society. Terms that characterize the concept of territorial society. Social capital as an important component of territorial society determined. It describes the characteristics of human activity in public Affairs, freedom of conscience and attitude to religion, the presence of friends in people’s lives, the presence of indicators of the existence of mutual assistance in people’s lives showing. The made Summary of the General analysis of the studies.

Key words: Social capital, socio-demographic structure, labor market, income, education level, differential activity, friendship, conscience, religious relations, mutual assistance, social environment.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti o‘z fikrlarida quyidagi strategik yo‘nalishlarga qaratish lozimligini tushntiradilar: “Aholining real daromadlarini, turmush darajasini va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Hukumat va shaxsan uning yangi rahbariyati faoliyati samarasini biz aynan shu mezonlar asosida baholashimiz zarur”[1]. Ushbu fikrlardan aholining turmush sifatini oshirish va farovonlik darajasini oshishi masalasi mamlakatimizning muhim strategik vazifalardan biri etib belgilangan.

Sotsial kapitalning zamonaviy talqinini tahlil qilishda, aynan e’tiborni ularning qaysilari sotsial kapitalni hududiy sotsium tushunchasi bilan bog‘lashlari va unda ushbu kapital shakllanishi uchun sharoitlar mavjudligiga qaratish zarur. S.V.Polutina fikricha, hududiy sotsiumning tavsifiga ko‘ra to‘g‘ridan to‘g‘ri sotsial kapital bilan bog‘liqdir. Hududiy sotsium – bu madaniyat umumiyligi, faoliyat sharoitining birdamligini tavsiflovchi va barqaror ijtimoiy umumiylikni ifodalovchi ma’lum bir hudud xalqidir. Hududiy sotsiumni tavsiflovchi oltita asosiy ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy-demografik tuzulish;
- mehnat bozoridagi vaziyat;
- aholi daromadining darajasi;
- aholining ta’lim darajasi bo‘yicha taqsimlanishi;
- aholining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi;
- sotsial kapital, sotsiumga uning tarkibiy qismlari va o‘zining tegishli bo‘lganligi tufayli[2]. “Aholi bilan doimiy muloqat qilish, uning qonuniy talablari, so‘rov va takliflarini amalga oshirish uchun aniq choralar ko‘rishni men o‘zim uchun eng muhim va ustuvor vazifa, deb hisoblayman”[3]. Mazkur fikr bilan mamlakatimiz rahbari aholi o‘rtasidagi ishonch indeksini ya’ni sotsial kapital mezonini oshirishni asosiy maqsad qilib qo‘yganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Mamlakatimiz hududiy xususiyatlarini ijtimoiy-demografik tuzulishi va sotsial kapital indikatorlarining milliy xususiy tavsifi asosida tahlil qilishni lozim deb bildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aholi turmush sifatini yuksaltirish va sotsial kapital masalalarning o‘zaro aloqadorligiga oid muammolar insoniyat tarixining barcha davrlarda o‘rganib kelingan. Sotsial kapitalning nazariy sotsiologik konseptual asoslarini shakllantirgan olimlardan P.Burdye[4], J.Koulman[5], A.Portes[6], R.Patnem[7], M.Mularskaya-Kucharek, K.Brjejinskiy[8], F.Fukuyamalar[9] sotsial kapitalning iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini, o‘lchov birligini, baholashning kombinatsiyalangan usulini, ijtimoiy tarmoqlarni baholashni taklif etganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Bekmurodov[10], T.Matibayev[11], B.Farfiyev[12], A.Jalilov[13] va S.Saidov-lar[14] sotsial kapital indikatorlarining zamonaviy jamiyatdagi talqini, ularning fuqarolik jamiyati iqtisodiy jihatlarining

asosini tashkil etishi, aholi turmush sifatini o‘lchash vositasi sifatida tadqiq etishgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, sotsial kapital murakkab tushuncha bo‘lib, umumiy qarashga va aniqlikka ega bo‘lmagan tushuncha sifatida mavhum tizimni shakllantiradi. Shuning uchun ham, uning shakllanuvchi va rivojlanuvchi cheklangan voqea va hodisalar to‘plami haqida fikr yuritish qiyin. Sotsial kapitalni ko‘pgina omillarga – madaniy, iqtisodiy, demografik, huquqiy va boshqalarga tobeligi, uning milliy xususiyati jihatdan differensial shaklda ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, sotsial kapital turli xil darajadagi birlamchi va ikkilamchi sotsial guruhlarda rivojlanishini qayd etish zarur. Masalan: insonlarni jamoat-chilik ishlaridagi faolligi, vijdon erkinligi va diniy e’tiqodga bo‘lgan munosabati, do‘stlarning insonlar hayotida mavjudligi, insonlar hayotida o‘zaro yordamning mavjudligi va shunga o‘xshash bir qator omillarni kiritish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. 1173 ta respondentdan Laykert shkalasi asosida shakllantirilgan 10 balli tizimda sotsial kapitalni ko‘rsatkichlari orqali baholanishi so‘ralgan anonim anketaning 1082 tasi Respublikaning 14 ta xududi aholisidan o‘tkazildi. Shu bilan birgalikda ushbu tadqiqotda tanlab olingan ekspertlar ya’ni, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazining 5 ta xodimlaridan, “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 14 ta intervyuyerlaridan hamda 14 ta xududdan 5 tadan ixtiyoriy tanlov asosidagi Mahalla Fuqarolar Yig‘inining 72 ta rais va kotiblaridan ekspert sifatida ushbu tadqiqot anketasi o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar. Sotsial kapitalning milliy xususiy genezisini va ijtimoiy muhitdagi holati va tavsifi darajasini kompleks tahlil qilish uchun yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan birlamchi va ikkilamchi guruhiy omillarni ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Ushbu komleks tahlili uchun bir qator tadqiqotlar o‘tkazildi. Ulardan birinchisi bu milliy xususiyatiga ko‘ra kvotali tanlov asosida tanlab olingan barcha Respublika xududlaridan jami bo‘lib 1174 aholi tanlab olinib, shulardan 557 tasi ya’ni 47,4% ayollar va 617 tasi ya’ni 52,6% erkaklar tashkil etdi. Mazkur o‘tkazilgan tadqiqotdagi 1 ta anketa yaroqsiz deb topildi.

1-jadval

O‘tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida aholini jinslar bo‘yicha bo‘linishi

		jinsi		Jami:
		ayol	erkak	
Qashqadaryo	soni	57	60	117
	ulushi	4,9%	5,1%	10,0%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	soni	31	29	60
	ulushi	2,6%	2,5%	5,1%
Andijon	soni	31	37	68
	ulushi	2,6%	3,2%	5,8%
Buxoro	soni	48	48	96
	ulushi	4,1%	4,1%	8,2%
Jizzax	soni	19	35	54
	ulushi	1,6%	3,0%	4,6%
Navoiy	soni	25	24	49
	ulushi	2,1%	2,0%	4,2%
Namangan	soni	40	41	81
	ulushi	3,4%	3,5%	6,9%
Samarqand	soni	65	46	111
	ulushi	5,5%	3,9%	9,5%
Sirdaryo	soni	20	29	49
	ulushi	1,7%	2,5%	4,2%
Surxondaryo	soni	30	51	81
	ulushi	2,6%	4,3%	6,9%
Toshkent viloyati	soni	39	47	86
	ulushi	3,3%	4,0%	7,3%
Toshkent sh	soni	65	78	143
	ulushi	5,5%	6,6%	12,2%
Farg‘ona	soni	56	56	112
	ulushi	4,8%	4,8%	9,5%
Xorazm	soni	31	36	67
	ulushi	2,6%	3,1%	5,7%
Jami:	soni	557	617	1174
	ulushi	47,4%	52,6%	100,0%

1-rasm. O‘tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida aholini jinslar bo‘yicha bo‘linishi

O‘tkazilgan anketalardan ayol ekspertlar 30 kishi ya’ni 32%, hamda erkak ekspertlar 65 kishi ya’ni 68% ni tashkil etib, jami ekspertlar soni 95 kishini tashkil etdi. Ushbu ekspertlardan o‘tkazilgan tadqiqot anketalarining 4 tasi yaroqsiz deb topildi.

2-jadval

O‘tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida ekspertlarni jinslar bo‘yicha bo‘linishi

Hududlar	ayol	erkak	Jami:
Qashqadaryo	1	5	6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2	4	6
Andijon	3	3	6
Buxoro	2	4	6
Jizzax	1	5	6
Navoiy	2	4	6
Namangan	3	3	6
Samarqand	1	5	6
Sirdaryo	1	5	6
Surxondaryo	2	4	6
Toshkent viloyati	0	6	6

Toshkent sh	7	10	17
Farg‘ona	3	3	6
Xorazm	2	4	6
Soni:	30	65	95
Ulushi:	32%	68%	100%

2-rasm. O‘tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida ekspertlarni jinslar bo‘yicha bo‘linishi

Mazkur tadqiqotning asosiy mohiyati sotsial kapitalni quyidagi milliy xususiyatilari asosidagi o‘lchovini o‘rganishdan iborat bo‘lib, unda quyidagi indikator o‘rganildi:

- Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi indikatori. “Har qanday ish aniq iqtisodiy foyda keltiradi va ish bilan shug‘ullanish insonlarga jamiyat bilan aloqada bo‘lishga imkon beradi, insonning o‘ziga beradigan bahosini ko‘tarilishiga olib keladi qobiliyatlarni rivojlantirishga va kompetentlikni kengayishiga olib keladi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi bandlik jamiyatni yanada boyitadi, siyosiy jihatdan barqaror bo‘lishiga va sog‘lomlanishiga olib keladi”[15]. Aynan ushbu insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligini aniqlash orqali sotsial kapital darajasini aniqlash mumkin. Biz o‘tkazgan ushbu tadqiqotdagi insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi quyidagi 3-Jadvalda o‘z aksini topgan.

3-Jadval

Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasi indikatori

		Past daraja				O‘rta daraja			Yuqori daraja				jami
		0 ball	1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball	6 ball	7 ball	8 ball	9 ball	10 ball	
Aholi		9	6	41	60	113	199	198	175	146	72	63	1082
		116				510			456				
	ulushi foizda (%)	0,8 %	0,5 %	3,5 %	5,1 %	9,6 %	17,0 %	16,9 %	14,9 %	12,4 %	6,1 %	5,4 %	92,2 %
		9,9 %				43,5 %			38,8 %				
Ekspert	Javob berganlar soni	0	2	2	5	7	23	9	14	16	7	6	91
		9				39			43				
	Ulushi foizda (%)	0,0 %	0,2 %	0,2 %	0,4 %	0,6 %	2,0 %	0,8 %	1,2 %	1,4 %	0,6 %	0,5 %	7,8 %
		0,8 %				3,4 %			3,7 %				
Jami	Javob berganlar soni	9	8	43	65	120	222	207	189	162	79	69	1173
		125				549			499				
	Ulushi foizda (%)	0,8 %	0,7 %	3,7 %	5,5 %	10,2 %	18,9 %	17,6 %	16,1 %	13,8 %	6,7 %	5,9 %	100,0 %
		10,7 %				46,7 %			42,5 %				

Unga ko‘ra, aholi o‘rtasidan tanlab olingan respondentlar jamoatchilik ishlaridagi faollikni yuqori darajada deb beaholaganlar, ya’ni umumiy respondentlarning 38,8% tashkil etgan, ushbu respondentlarning ya’ni, umumiy respondentlarning 43,5% o‘rta darajada deb baholaganlar va umumiy respondentlarning 9,9% respondentlar past darajada deb baholaganlar. Aholi bergan bahosiga qarab quyidagi fikrga kelish mumkin. Jamiyatimizda jamoatchilik ishlardagi faollik biz o‘ylaganchalik yuqori emasligi ma’lum qilinganligi aholi o‘rtasidan tanlanib olingan respondentlarning jamoatchilik ishlariga munosabatlarida aks etganligi hamda biz o‘ylaganchalik ijobiy emasligi quyidagi diagrammadan ko‘rishimiz mumkin. Ushbu diagrammada respondentlarni bergan baholari yuqori darajada bo‘lmaganligi sababi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va islohotlar natijasida mazkur shart-sharoitlar muammolari asta sekinlik bilan o‘z yechimini topa boshlaganligini ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. Aholi. Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasi

Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasini ekspertlar tomonidan “3-Jadval”da berilgan bahoga ko‘ra quyidagicha talqin qilish mumkin. Hozirgi O‘zbekiston sharoitida jamoatchilik ishlaridagi faollik tadqiqotda ishtirok etgan ekspertlar fikriga ko‘ra yuqori darajada ya’ni, umumiy respondentlarning 3,7%ni, o‘rta darajada 3,4%ni va past darajada 0,8%ni tashkil etgan. Quyidagi diagrammadan biz aholi o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga juda o‘xshash bo‘lgan vaziyatni ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, ushbu tadqiqotda aholi o‘rtasida va ekspertlar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini taqqoslaganimizda (korrelyatsiyasi) ushbu olingan natijalar ko‘rsatkichlarida bir biriga o‘zaro aloqadorligini va boqliqligini ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm. Ekspert. Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasi

Aholi o‘rtasida va ekspertlar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan diagrammalarini bir biriga solishtirganimizda eng yuqori cho‘qqi nuqtasi ya’ni eng ko‘p respondentlar tomonidan belgilangan baho 10 balliy tizimda 5 ballni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu bilan har tomonlama olingan natija ya’ni mamlakatimizda insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi o‘rtacha darajada ekanligini isbotlaydi.

Xulosa va takliflar. Milliy xususiyatga ega bo‘lgan sotsial kapital indikatorlari har qanday jamiyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Jamoatchilik ishlaridagi faollik har qanday jamiyatga xosdir, ammo unga bo‘lgan yondashuv turli xil shaklda bo‘lib, ayniqsa bizning an’analarga asoslangan jamiyatimizda u o‘ziga xosdir. Demak mamlakatimizda shakllanayotgan barcha qadriyatlar va me’yorlarni jamiyatimizda sotsial kapital sifatida o‘rnatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2016 y. 21-22 betlar
2. Найденова Л.И, Федотов Л.Н. Внеэкономический капитал и его значение для развития регионального социума // ЖССА. 2009. №2. Стр – 88.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2016 y. 17-bet.
4. Bourdieu P. The forms of capital // Handbook of theory and research for the sociology of education. – N.Y., 1985
5. Coleman J. (1988) Social capital in the creation of human capital // American Journal of Sociology. Vol. 94. – P. 95-120
6. Portes A. Social capital: its origins and applications in modern sociology // Annual Review of sociology, 1998. Vol. 24. – P. 1-24
7. Putnam R. Bowling Alone: The collapse and revival of American community. – N.Y., 2000
8. Monika Mularska-Kucharek, Kamil Brzezinski. Horizontal and Vertical Dimensions of Social Trust – The Case of Lodz and the Districts of Lodz Voivodeship // European Spatial Research and Policy, 2012. Volume 19. – Number 1. 10.2478/v 10105-012-0011-x. – Page 144
9. http ://www.imf. org/external/pubs/ft/seminar/1999/reforms/fukuyama/html
10. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография / М.Бекмуродов. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – Б. 52.
11. Матибаев Т.Б. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараққиёт йўлида [Матн]. Монография / Т.Матибаев. – Тошкент: “Билим ва интеллектуал салоҳият”, 2019. – 123 б.
12. Фарфиев Б.А. Ўзбекистон ижтимоий тараққиётида ислом рационализми омили [Матн]. Монография / Фарфиев Б.А. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2019. – Б. 70-115.

13. Жалилов А., Муҳаммадиев У., Жўраев Қ. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: МЧЖ «BAKTRIA PRESS» Нашриёт уйи, 2015. – Б. 112.
14. Саидов С.Ш. Ижтимоий капитал ривожида фуқаролик жамияти институтлари иштирокини таъминлаш тенденциялари. Сиёсий. ф.бўйича (PhD). дисс... автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 13.
15. http://www.oecdbetterlifeindex.org/ Организация по экономическому сотрудничеству и развитию. (OECD) (Better Life Index).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:159.9

Shahista ALLAMOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:shoxista8327@mail.ru

O‘zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

“EXPERIMENTAL STUDY OF INTELLECTUALLY SUCCESSFUL TEENAGERS”

Annotation

If conditions have been created in the educational process that allow the formation of the socio-psychological characteristics of intellectually successful children; if during the lesson various questions of creative thinking are used; If students are given an idea of the psychological foundations of the formation of intellectual characteristics, then the development of socio-psychological characteristics of intellectually successful children will increase.

Key words: Intellectual, adolescence, mental development, educational system, social psychological characteristics.

“ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО УСПЕШНЫХ ПОДРОСТКОВ”

Аннотация

Если в образовательном процессе созданы условия, позволяющие формировать социально-психологические характеристики интеллектуально успешных детей; если в ходе урока используются различные вопросы творческого мышления; если учащимся дается представление о психологических основах формирования интеллектуальных характеристик, тогда повысится развитие социально-психологических особенностей интеллектуально успешных детей.

Ключевые слова: Интеллектуал, подростковый возраст, психическое развитие, социально-психологические характеристики.

“INTELLEKTUAL MUVAFFAQIYATLI O‘SMIRLARNI EKSPERIMENTAL O‘RGANILISHI“

Аннотация

Ta’lim jarayonida intellektual muvaffaqiyatli bolalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari shakllanishiga imkon beradigan sharoitlar yaratilsa;dars jarayonida har xil ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi masalalardan foydalanilsa;o‘quvchilarga intellektual xususiyat shakllanishining psixologik asoslari haqida tushunchalar berib borilsa ularda intellektual muvaffaqiyatli bolalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini rivojlanishi unumi oshganliki xaqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Intellekt, o‘smirlik davri, psixik rivojlanish, ta’lim tizimi, ijtimoiy psixologik xususiyatlar.

Kirish. Ta’lim jarayonida maktab o‘quvchilarida intellektning o‘ziga xos muvaffaqiyatlarini shakllantirish hozirgi davr nuqtai nazaridan har bir shaxsning kamolot bosqichi uchun e’tibor talab etadigan muammo sanaladi. Mazkur jarayonning qaysi bosqichida yuqori samara berishi mumkin, degan savol to bugungi kungacha psixologlarni o‘ziga jalb etadi.

O‘smirlarda intellektual muvaffaqiyatning uzluksiz ravishda shakllanishini shaxsiy pozitsiyadan kelib chiqqan holda bir qator munosabatlar tizimi orqali baholashga to‘g‘ri keladi. Bunda birinchidan, qaysidir o‘rinlarda intellekt muvaffaqiyatlarining rivojlanishi muayyan ko‘rinish olishi, ikkinchidan, shaxsning muvaffaqiyati tarzida o‘rin egallashi lozim, degan mulohaza orqali ushbu holatni uyg‘unlashtirish mumkin. Ammo pedagogik jarayonda o‘quvchilar shaxsining muvaffaqiyatlarini ko‘p jihatdan belgilovchi o‘qituvchi va unga mutanosib ravishda o‘z xatti-harakatini, xulq-atvorini aniqlovchi sinaluvchining ma’lum vaziyatlarda o‘zini o‘zi boshqarishini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Biz mazkur holatni pedagogik jarayonda umum ta’lim tizimida o‘quvchilarda intellektual muvaffaqiyatlarni shakllantirishning samarali jihatlarini tadqiq etishni lozim topdik. Ushbu muammo yuzasidan ayrim psixologik sifat tahlillaridan namunalar keltirib o‘tamiz.

Uzluksiz ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida intellekt muvaffaqiyatlarining shakllanishi to‘g‘risida so‘z yuritilganda bir qator omillarga e’tibor qaratish lozim. Ammo bizning tadqiqot ob’ektimiz maktab o‘quvchilari bo‘lganligi sababli ularni o‘rganishning ikki ahamiyatli jihatini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Birinchidan, ular kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar singari o‘quvchilik maqomiga ega bo‘lsa, ikkinchidan, ularning oldida maktabni tugatish orqali ta’lim jarayonida ishtirok etishda o‘zining shaxsiy fazilatlari bilan bir qatorda shaxsiy xislatlarini shakllantirishni taqozo etuvchi sub’ekt faoliyatining gavdalanishi turibdi. Maktab o‘quvchilarida intellektning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishni muammo sifatida o‘rganishimizning mazmun-mohiyatida ham xuddi shu masala ko‘ndalang turadi. CHunki, maktab ning shart-sharoitida u o‘zida dastlabki pedagogik kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lmas ekan, unda shaxsiy namuna sifatida ta’lim jarayonida o‘z o‘rnini topish yuzasidan o‘zi ham jamiyat tomonidan shubha ostida qoladi. Biz shunga o‘xshash holatlarni hisobga olgan holda o‘quvchilarda intellektning irodaviy va intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki aniqlovchi tadqiqot natijalarining tahliliga murojaat etib ko‘ramiz.

Tadqiqotimizda maktab o‘quvchilarining intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganishning yaxlit metodikalari majmuasi mavjud bo‘lmaganligi sababli ham bir qator shaxsning irodaviy sifatlari hamda intellektual muvaffa-qiyatlarini shakllanganlik darajasini aniqlash metodikalarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan tarzda foydalanishni lozim topdik. Bunda A.Alekseev va L.Gromovalarning “Individual tafakkur stili” testi, boshqa shunga o‘xshash bir qator metodikalardan foydalanishni nazarda tutdik.

Biz o‘z tadqiqotimizda intellektual muvaffaqiyatlari shakllanishining mexanizmlariga bag‘ishlangan bosqichi bilan

bir qatorda, ularning tarkib topishi jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi turli muvaffaqiyatli shart-sharoitlar, ob’ektiv va sub’ektiv ta’sirlar oqibatida yuzaga keluvchi xavotirlanishga daxldor emotsional holatlar bilan hamohanglikda o‘rganishni rejalashtirganmiz. Ular yuzasidan tajriba davomida to‘plangan empirik natijalar bo‘yicha miqdor tahlillariga to‘xtalib o‘taamiz.

Biz Maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyatlarini ham o‘rganish bo‘yicha eksperimental izlanishimizning xususida mulohaza yuritishimizga to‘g‘ri keladi. Buning uchun ular tafakkurining originalligi, labilligi, muammolarni tahlil etuvchanlik, yangicha yondashish, originallik bilan murakkabliklarga nisbatan kombinatsiyalarni hosil qildik. Ularning har xil fikrlarni umumlashtirishga ham moyilliklarini, muammolar echimiga nisbatan amaliy faoliyati, muammoga nisbatan tizimli va atroflicha mulohaza bildirishga o‘rganganligi, mazkur muammoga nisbatan aloqadorligi masalasini tadqiq etishga e’tibor qaratdik. Buning uchun biz “Tafakkurning individual stillari” (uslublari) (A.Alekseeva va L.Gromovalar metodikasiga tayandik;)Eksperimentning aniqlovchi bosqichida o‘quvchilarning tafakkur stillarini ta’lim sharoitida qanday ko‘rinishda shakllanayotganligini baholashga erishdik. Natijalarning miqdoriy tahlilida ularning ta’lim bosqichlari, umumiy ko‘rsatkichlari hamda irodaviy va intellektual muvaffaqiyatlarni o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishga harakat qildik. Endi natijalarning tahliliga murojaat etaylik. Empirik miqdorlarimiz shu narsani ko‘rsatmoqdaki, metodikaning muvaffaqiyatiga ko‘ra, tafakkur stillarining har bir aqliy darajasiga xos bir nechta ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettiradi.

Masalan, sintetik tafakkur stili orqali originallik, ziddiyatli holatlarga nisbatan kombinatsiyalashgan g‘oyalarga tayanish, ular boshqalarning fikr-mulohazalaridan farqli o‘laroq o‘zlarining alohida nuqtai nazariga ega ekanligini baholash imkonini beradi. G‘oyaviy tafakkur stilida esa maqsadga erishishda, ehtiyojlarga qiziqish yuqoriligi, muammoli vaziyatlar sharoitida boshqalarning fikrini ichki ziddiyatlarsiz idrok etishni va qabul qilishni, u emotsiya intellektidagi his-tuyg‘u hamda baholashning sub’ektiv momentlarida etakchilik qilgan vaziyatlarni baholashni tavsiflaydi. Pragmatik tafakkur stiliga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘z ishlarini ta’lim jarayonida to‘plagan tajribalariga tayanib ish tutishi bilan tafovutlanib turadi. Shuningdek, pragmatik tafakkur stili-o‘quvchini bevosita tajribasiga asoslanib, materiallar va axborotlarni yaqqol natijalar olishi uchun foydalanishga asoslangan fikrlash usuli. Ular talablarni yaxshi his etishadi, xulq-atvor taktikasini oson tanlaydilar Vaziyatlarni o‘zlarining hisobiga o‘zgartirishga, sharoitlarga moslashuvchan va qayishqoqlikka egalikni anglatadi.

Agar o‘quvchidan analitik tafakkur stili bo‘lsa, u muammoga tizimli va atroflicha hamda mezonlar asosida ko‘rib chiqishga, fikrlash usuliga, mantiqiylikka, o‘z uslubiga ega va muammoni xotirjam hal etishga moyil bo‘ladi. U muammoni echishdan oldin, kerakli ma’lumotlarni to‘playdi va batafsil rejalashtiradi.

Realistik tafakkur stili etakchilik qilgan o‘quvchi muammolarga faktlarga tayanib yondashadigan fikrlash usuliga ega sanalib, aynan masalaga omilkor yondashuvi va uning guvohi bo‘lishga moyilligidan dalolat beradi. Realistik tafakkur egalari muammoga aniqlikni bilan yondashishni ma’qul ko‘rishadi.

Tajribamizda o‘quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganish bo‘yicha natijalar tahliliga e’tibor qaratamiz. Ular aqliy jihatlarining umumiy natijalarida o‘zaro munosabatlarini aniqlashga (ularning korrelyasiya koeffitsientlarini aniqlashga) erishdik.

O‘quvchilarda tarkib topishi kutilayotgan intellektual muvaffaqiyatlarni shakllanganlik darajasini tadqiq etish bir qator ilmiy taxminlarni ilgari surishimizga sabab bo‘ldi.

Dastlabki tadqiqot natijalarining sifat va miqdor jihatdan tahlili.
O‘smirlarda intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganishning umumiy natijalari

Umumiy	1	2	3	4	5	6
Sintetik	45%					
G‘oyaviy		34%				
Pragmatik			23%			
Analitik				44%		
Realistik					12%	
Labillik						33%

O‘quvchilarda aqliy muvaffaqiyatlarning shakllanganligini baholashda quyidagi ahamiyatga ega bo‘lgan korrelyasiya koeffitsientlari aniqlandi: “sintetik” muvaffaqiyatlar 45%, “g‘oyaviy” 34%; bundan ko‘rinadiki, ularning ta’lim jarayonida o‘quv predmetlarini o‘rganishdagi aniq munosabatlarini shakllantirishga e’tibor qaratilganligi ular uchun emotsional, utopik va sub’ektiv momentlarning ahamiyatidan ko‘ra, umumlashtirish natijalarini bir-biriga bog‘lay olish, ularda taqqoslash operatsiyasining o‘sishi muhimroq ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatdi. Ammo o‘z o‘rnida pedagogning timsolida muvaffaqiyatlarni shakllanish jarayonida o‘quvchilar sub’ektiv momentlarni hisobga olishga va emotsional omillar ahamiyatini esa baholashga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchilar shaxsida mujassamlashishi kuzatilayotgan “nazariy mulohazalash” o‘z o‘rnida fan taraqqiyotida ilgari surilgan mulohazalarni isbotlashning guvohi bo‘ldi: “g‘oyaviylik” ularning “amaliyotchilik” muvaffaqiyatlarini o‘z-o‘zidan taqozo etmoqda: - “pragmatik”23%; analitik -44% fikrlash qobiliyati mujassamlashganligidan dalolat bermoqda. Korrelyasiya koeffitsientlaridagi bunday ijobiy holatlar o‘quvchilarning pedagog sifatida shakllanishida nazariy mulohazalash bilan amaliy tajribalarga va yaqqol natijalar olishning oson yo‘llariga tayanishni, har bir qilinadigan ish nimagadir qo‘l kelishi lozim tamoyiliga amal qilishlarini ko‘rsatadi. Biroq tatbiq etilgan metodika shkalalarining muvaffaqiyatiga ko‘ra, pragmatik mulohaza yuritishga moyil o‘quvchilar xulqida yuzakichilik, betartiblik kuzatilishi mumkinligini izohlaydi. SHuningdek, ularning fikrlashida ayrim voqea-hodisalar tasodifiy holatlarga bog‘liq, degan tamoyilga tayanadi. Tadqiqotdan olingan bunday natijalarga binoan pedagog mutaxassis sifatida bu tarzda fikrlash maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz.

Ularning pragmatik fikrlashi, o‘z navbatida - “analitik”-23%; va “realistik”-12% fikrlash stili bilan uyg‘unlashtira olingan. Bunday psixologik voqelikni ijobiy holat, deb baholash mumkin. O‘quvchilarda amaliy fikrlashning o‘sishi bilan ularda mantiqiy fikrlash, ko‘rilayotgan masalaga tizimli va atroflicha yondashish, uslubiy talqin, muammoni hal etish manyovrlarining shakllanishi; faktlarga tayanish, voqea-hodisalarga o‘zi shaxsan guvoh bo‘lish istagini bildirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalarini tahlil etish jarayonida afsuslanish bilan e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkich mavjud, ya’ni o‘quvchilarda “analitik” fikrlash stili tafakkurning labilligi bilan teskari korrelyasiyani hosil

qilgan; agar ularda tafakkur labilligida sustlik bo‘lsa, o‘z navbatida analitik muvaffaqiyatning ham pasayishiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. CHunki, tafakkur qilishdagi labillikning zaifligi ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish uchun qiyinchilik tug‘diradi. Demak, maktab o‘quvchilarining intellektida tahlilchanlik muvaffaqiyati shakllanishida labillikning etishmasligi muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda, deyishimiz mumkin.

Maktab o‘quvchilarining aqliy muvaffaqiyatlarini shakllanganlik ko‘rsatkichining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularda vaziyatlarni baholash bilan o‘qish jarayonida o‘zlashtirilayotgan bilimlarni umumlashtirishda, bilimlar, voqea-hodisalar orasidagi umumiy bog‘lanishlar hosil qilish darajasidagi intellektual muvaffaqiyatlar etishmayotganligidan dalolat bermoqda. SHuningdek, ulardagi g‘oyaviy fikrlashga moyillikning ortib borishi, o‘z navbatida atrof-muhit to‘g‘risida, vaziyatlarni baholash bo‘yicha ularda oson erishilishi ko‘zda tutilgan axborotlarni o‘zlashtirishga, tezroq natijalarni qo‘lga kiritishga ixtiyor etishning shakllanishiga olib kelmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilishi ko‘proq ularning kelajak, istiqbol ahamiyatidan ko‘ra, ayni damda egallangan real natija, ya’ni mashg‘ulotlarda olingan bahoning qiymati muhimroq tus olishi ahamiyatli ekan. Bundan shu narsa ravshanlashadiki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda intellektual muvaffaqiyatlarning shakllanishida pragmatik nuqtai nazardan mulohaza yuritish sifatlarining tarkib topishidan ko‘ra, real va yaqqol amaliy muvaffaqiyatga ega bo‘lgan fikr yuritishini aniqlik, originallik, mustahkamlik muvaffaqiyatlarini taqozo etadi.

Yana shuni e’tiborga olishni tajriba taqozo etmoqdaki, o‘quvchilarda muammolarga nisbatan “g‘oyaviy” stilda yondashishning o‘sishi oxir-oqibatda “tahlilchanlik”ning rivojlanishiga sabab bo‘lar ekan. Aslida esa ularning fikrlashida tahlilchanlik muvaffaqiyatining shakllanishi ijobiy hol, ammo u aniq dalili-ashyolarga tayanishga, uning echimini ko‘rsata bilishga moyillik bo‘lmasa-da, u demagoglikka, hozirjavoblikka, so‘zamolikka aylanib qolmasa, degan xavotirlanishni uyg‘otadi. O‘ylaymizki, tahlilchanlikning yaqqol shaxs intellektining sifatiga aylanishi esa uning realistik, sintetik, muammolarni hal etishda vaziyatlarni har tomonlama ko‘ra olishi bilan uyg‘unlik hosil qilishi lozim edi. Lekin bunday uyg‘unlik esa tajribamiz davomida kuzatilmadi.

Tadqiqot metodlari.

1.Ta’lim jarayonida individual tafakkur stilini o‘rganish bo‘yicha A.Alekseev va L.Gromovalarning testi;

2.G.Gardnerning tomonidan ishlab chiqilgan”Intellekt tiplari”anketasi.

Xulosa va takliflar. Umum ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini hisobga olmasdan turib, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, mustaqil, ijodiy fikrlovchi, ma’naviyati mukammal shaxsni shakllantirish mumkin emas. Mazkur mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotimizning natijasida ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarni shakllan-tirishning psixologik asoslari, omillari, qonuniyatlari to‘g‘risidagi farazlarimiz tasdiqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon bo‘ldi.

1.Maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarni shakllantiruvchi, samaradorligini ta’minlovchi, ularda o‘zlashtirshning tarkib topishiga salbiy ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik, hissiy-emotsional, tarbiyaviy omillarni hisobga olish ham nazariy, ham amaliy muvaffaqiyatga ega bo‘lgan materiallarni tiplarga ajratishga imkon tug‘dirdi.

2.Tadqiqotda to‘plangan ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy muhiti, turmush tarzi, madaniyati, ta’lim-tarbiyasi, milliy ongi va o‘z-o‘zini anglashi, qadriyati o‘ziga xosligini o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonida maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlashga imkon berdi.

3.Zamonaviy ta’lim va tarbiyaning inson kamolotidagi o‘rni, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari, o‘qituvchi namunasi, uning psixologik ta’sir o‘tkazishiga qo‘yiladigan talablar aks etgan asarlar maktab maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyatni shakllantirishda samarali material, ob’ektiv va sub’ektiv omillarning yaqqol manbai sifatida xizmat qildi.

4.Zamonaviy ta’lim va tarbiyaning o‘smirlar kamolotidagi o‘rni, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari,ilimolishda o‘qituvchi namunasi, uning psixologik ta’sir o‘tkazishiga qo‘yiladigan talablar aks etgan manbalar maktab o‘smirlarda intellektual muvaffaqiyatni shakllantirish orqali komil insonni shakllantirishda ob’ektiv va sub’ektiv omillarning manbasi ekanligini ko‘rsatdi.

5.Maktab o‘quvchilarida ta’lim-tarbiya jarayonida intellektual muvaffaqiyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, unumini oshiruvchi, ularda o‘zlashtirshning tarkib topishiga ijobiy ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik, hissiy-emotsional omillarni hisobga olish ham nazariy, ham amaliy muvaffaqiyatga ega bo‘lgan manbalarni mavjudligi namoyan bo‘ldi.

ADABIYOTLAR

1. Amonashvili SH.A. Obuchenie, otsenka, otmetka // Ser. Pedagogika i psixologiya, № 10, M.: Znanie, 1980. – S.80-96.
2. Ananev B.G. Izbrannыe psixologicheskie trudы. V 2-x tomax. M.: 1980. - 10-110 s.
3. Ananev B.G. Problemы formirovaniya intellekta. L.: 1949. - 20-98 s.
4. Ananev B.G. CHelovek kak predmet poznaniya. L.: LGU, 1969. - 33-80 s.
5. Andreeva I.N. Predposыlki razvitiya emotsionalnogo intellekta. // Voprosы psixologii. 2007, - № 5. – S.57-66.
6. Andreeva I.N. Emotsionalnыy intellekt: issledovaniya fenomena. // Psixologicheskiy jurnal, - M.: 2006. № 3. –S.78-87. 7.
7. Andrushenko T.YU. Psixologicheskie usloviya formirovaniya samootsenki v mladshem shkolnom vozraste // Avtoref. dis. kand. ped. nauk. - M.: 1978. – 28-32 s.
8. Andrushenko T.YU. Psixologicheskie usloviya formirovaniya samootsenki v mladshem shkolnom vozraste // Avtoref. dis. kand. ped. nauk. - M.: 1978. – 28-32 s.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:101.1

Lutfillo AXATOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
E-mail:axatov@mail.ru
Falsafa fanlari doktori,dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING PHILOSOPHICAL AND MYSTICAL VIEWS (BASED ON THE CREATIVITY OF JAMI)

Annotation

The essence of philosophical and Irfan views was analyzed with the help of Sufi life and mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered.

Key words: ethics, Taṣawwuf (Arabic: التَّصَوُّف), Sufi, science, Islam, perception-mentally, Irfan, philosophy, Naqshband, Mawaraunnahr, East.

FALSAFIY-IRFONIY QARAShLARNI O‘RGANIShNING NAZARIY ASOSLARI (JOMIY IJODI ASOSIDA)

Annotatsiya

Falsafiy-irfoniy qarashlar mohiyati so‘fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. Tasavvufning rivojlanishi so‘fiylar axloqi qa falsafiy mushohada irratsional yondashuv asosida tadbiq qilinadi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so‘fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.

Kalit so‘zlar: Axloq, tasavvuf (arab.:التَّصَوُّف), so‘fiy, ilm, islom, idrok, irfon, falsafa, Naqshband, Movarounnahr, Sharq.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ФИЛОСОФСКИХ И МИСТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ (НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСТВА ДЖАМИ)

Аннотация

Сущность философско-ирфанических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Для понимания этических воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.

Ключевые слова: этика, суфизм (араб.:التَّصَوُّف), суфий, наука, ислам, восприятие- мысленно, ирфан, философия, Накшбанд, Мавараунахр, Восток.

Kirish. Falsafiy-irfoniy qarashlarning mohiyatan birikuvi (aynanlashuvi) bu ilmning tadrijiy shakllanib borshligiga bog‘liq tahlil natijasidair. Falsafiy-irfoniy qarashlarni metodologik tahlili har bir davrning o‘ziga xos tadrijiy potensiali bo‘lgan. Metodologik va nazariy tahlil uchun esa ma’lum bir komponent va asos olinadi. Biz tahlil qiladigan metodologik va nazariy asosimiz bu Abdurahmon Jomiy ilmiy merosining o‘ziga xos yo‘nalishlarga ega bo‘lgan falsafiy-irfoniy qarashlari sanaladi.

Tahlil va metodlar. XV asrda ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarga o‘z munosabatini bergan va Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Shayx Mavlono Abdurahmon Jomiy(1414/11/07 – 1492/11/08)ning ilmiy merosini tadbiq qilish har bir zamon va makon uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Falsafa ilmida ratsional yondashlar aqliy faoliyat mahsuli ularoq tadqiq qilinsa, irfon ilmida ushbu ratsional yondashuvning amaliy ahamitiularoq tadqiq etilishligi lozim. Jomiy ilmiy merosini o‘rganar ekanmiz, irfon ilmi va so‘fizm g‘oyalarining tariqat vakillari tomonidan mukammal–yuksak pog‘onalarga ko‘tarib, e’zozlanganligini ko‘ramiz.

Abdurahmon Jomiy irfon ilmining gnezisi sifatida, o‘zigacha bo‘lgan tasavvufiy qarashlarni tizimli bir shakllantirish lozimligini alohida inobatga oladi va ma’lum ma’noda tazkirachilik, falsafiy-irfoniy qarashlar orqali ilmiy merosini shakllantiradi.

Misol Ganjaviy tomonidan asarlarini o‘sha zamondagi shoh va shahzodalarga bag‘ishlab yozganligi, ammo saroy shoiri bo‘lishni xohlamagan, hamda bu hakdagi takliflarni rad etishlik Mavlono Jomiyda ham uchraydi. Ganjaviyning 20 ming baytdan iborat bo‘lgan she’riy devoni mavjud.

Ganjaviyning asosiy asari «Xamsa» bo‘lib, «Mahzan ul-asror» («Sirlar xazinasi», 1173 yoki 1180), keyinchalik bu asarga javoban forsiy va turkiy adabiyotlarda 40 dan ortiq dostonlar (Mavlono Jomiy «To‘hfat ul-Ahror» 1481 yil L.K) yozilgan. «Xusrav va Shirin» (1181) sevgi va sadoqat mavzuida yozgan. «Layli va Majnun» dostoni (1188) arab rivoyatlari asosida yaratilgan. «Haft paykar» dostoni (1196) Bahrom Go‘r va uning nomi bilan bog‘liq voqealar bitilgan bo‘lsa, «Iskandarnoma» (1190-1200) dostonlar yozgan bo‘lsa, 13 asrdan boshlab bir qancha (X.Dehlaviy, Navoiy va h.k) donishmandlardan farqli Mavlono Jomiy «Haft avrang» - «Katta ayiq» yoki «Yetti taxt»dek mukammal («Beshlik»dan farqli – «Yettilik») asarlarini yozadi.

Natijalar va muhokama. Abdurahmon Jomiygacha davrida, Islom dinining shakllanishi bilan birga, VIII asrdan zohidlik harakati ko‘rinishida vujuvga kelgan, IX asrdan boshlab avvaliga Iroq, Misr, Shom, Xuroson va Markaziy Osiyo so‘fiylik maktablari, keyinroq muhosibiya, qassoriya, tayfuriya, junaydiya, nuriya, sahliya, hakimiya, xarroziya, xafafiya, sayyoriya, hallojiya va hululiya kabi so‘fiylik oqimlari doirasida rivojlana boshlagan tasavvuf shu davrdan asarlar yozilishi natijasida nazariy asoslariga ham ega bo‘la bordi.

Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot va tasavvuf yo‘nalishlari yangi bosqichga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, «1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtga o‘tiradi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, 1476/77 yillar orasida u o‘z do‘sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiyni o‘ziga pir va ustoz deb taniydi», deb tadqiq qilingan.

Demak jamiyat (davlat) hayotidagi o‘zgarish-yangiliklarni shakllantirish ham ma’lum ma’noda falsafiy dunyoqarash bilan birga irfon ilmi orqali amalga oshirilgan.

Jomiyning falsafiy-irfoniy qarashlari Sharqona xalqlarda «Tasavvuf» ta’limotining «javhar»i deb qaralsa, B.Spinozaning falsafiy qarashlaridagi (Dekart va qadimgi stoiklar ta’sirida deb qaraluvchi) ratsionalizm va “panteistik tasavvuf”ning kombinatsion shakllangan fikrlari bilan qiyosiy tahlil etiluvchi qarashlar ham mavjud. Spinoza ta’limotining mohiyatida ham substansiya – Alloh mavjudligi (natur-lot: naturata Ilohiy mavjudlik) ifodalansa, Jomiyda ham Alloh markaziy «Javhar»dagi «tajalliy» etilishligi bilan (mukammal Nur tarzida) e’tirof etiladi. Ba’zi she’riy asarlarida esa u Allohni go‘zal qiyofa-ma’shuqa, Oshiq qiyofasida tasvirlaganligi ham aytiladi. Shu bilan birga uning fikricha, olamdagi hamma narsalarni yaratgan, deb e’tirof etiladi. Alloh O‘zi ham ko‘plarcha ko‘zguda, har xil qiyofada va ko‘rinishda namoyon deb aytgan deb hisoblovchilar ham bor.

Hegil bilan Kant ta’limotida ilmiy va falsafiy fikrlash o‘rtasidagi qarama-qarshilikning (idealizmga zid deb qaralgan) borligi, argument (dalil) falsafaning ichki mohiyatiga zid ekanligini aytilsa hamki, Kant «ma’rifatpar-varlik nima? » deb aytilganda (ma’rifatga xoslik) bunda insonning biron bir o‘zining o‘z aybi borligini tan oluvchi kam sonli mintaqa-davlatlarda mavjudlik bo‘lib, bunda ushbu ozchilikning sizdagi sababiyatlarni boshqalarning ko‘rsat-malarisiz ilg‘anmaslik (e’tirof etilmaslik) deb qaraydi. Bundan ma’lumki, inson o‘z aybini (botiniy quvvat ila) tan olishligi va tashqarida (zohiran) e’tirof etilmaslik pozitsiyasida bo‘lishlik lozimligining yorqin ifodasidir. Zero, Jomiydagi falsafiy-irfoniy qarashlar zamirida ham axloqiy mezonlari ichki (botiniy) xulq asosida shakllanishligi va ruhiy poklanishlik kuchi tarzida ifodalanadi.

Jomiyning «Haft avrang», «Nafohot ul-uns», Navoiyning «Xamsa», «Xazoyin ul-maoniy» asarlari aynan mana shu davrda yozildi. Ba’zi ma’lumotlarga Mavlono Jomiy o‘zining «Haft avrang» asarlarini Temuriylardan yetti kishini (hukmdorlar) nazarda gutgan bo‘lsa, Alisher Navoiy o‘z «Xamsa» asarlarini butun holda Husayn Boyqaro va Mavlono Jomiyga bag‘ishlab, o‘z davrida har ikki mutafakkir ham hukmdorlar va ma’lum ma’noda o‘z davrining donnish-mandlariga o‘zlarining yaxshi ma’noda minnatdor-chiliklarini namoyon etgan deb aytiladi.

Abdurahmon Jomiy Husayn Boyqaro hukmdorlik qilgan davridagi adabiy va badiiy hamda tariqatchilik maqomidagi qarashlari, Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida: «Shuarodin bu jam’ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi»[1] deb e’tirof etiladi.

Abdurahmon Shayx Sa’daddin Koshg‘ariy bilan ma’lumotlar almashadi hamda undan tasavvuf va tariqat bobida ma’lumotlar oladi. Jomiy Shayx Sa’daddinga qo‘l beradi va qisqa vaqt mobaynida shuhrat qozongan. Abdurahmon Jomiy piri-ustozining qiziga uylanadi deb qaraladi.

Mavlono Jomiyga shoh va mulozimlar, unga aloqador kishilarning, hatto uni ilmiy meroslari orqali tanigan boshqa yurt shohlarining unga muruvvati cheksiz bo‘lgan. Jomiy o‘zidagi imkoniyatlar hisobiga bir necha binoyi hayriyalar, jumladan Hirotda ikki madrasa va xonaqoh, o‘zi tug‘ilgan shahar — Jomda bir masjid qurganligi aytiladi.

Jomiyning ko‘plab asarlari mashhurligi va u (Jomiy) lirik she’rlarini yig‘ib, devon tuzmoqchi bo‘ladi va uchta devon tuzib, devonlarning birinchisini «Fotihat ush-shabob», ikkinchisini «Vositat ul-ishq», uchinchisini «Xotimat ul-hayot» deb nomlaydi.

Mavlono Jomiy 1480 yildan boshlab 1485 yilning oxirigacha o‘zining yuksak martabadagi «Haft avrang» («Yetti taxt») jamlanmasi tarkibiga kiradigan dostonlarini yaratish ustida ish olib boradi. Sharq adabiyotidagi «Xamsachilik an’ana»lari asosida bunyod etilgan bunday asarlardan «Silsilat uz-zahab», «Tuhfat ul-ahror», «Suhbat ul-abror» kabi g‘oyaviy tematik jihatlardan falsafiy-axloqiy va tasavvufiy-irfoniy yo‘nalishda, hamda, janr e’tibori bilan pandnoma yo‘nalishida bitilgan bo‘lib, eng dolzarb masalalarga bag‘ishlangan asarlar sanaladi.

Jomiyning «Salamon va Absol», «Xiradnomai Iskandariy», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun» dostonlarida an’anaviy syujetlarning yangicha talqinlarini berganligi e’tirof etiladi.

Jomiy shamollash oqibatida xasta bo‘lib, 78 yoshida (1492 yil 8-noyabrda) hayot bilan vidolashgan. Mavlono Jomiyning dafn marosimida Navoiy qatnashadi. Bunday katta judolik (Piri bo‘lmish Jomiy vafoti)dan shoh Husayn Boyqaro yurtda bir yil motam e’lon qiladi. Mavlono Jomiyga atab ko‘pgina mutafakkirlar, jumladan Navoiy ham, ta’sirli marsiyalar bitishadi. Navoiyning marsiyasida Shayx Mavlono Jomiy vafotining tarixi «Kashfi asrori Iloh» («Iloxiy sirlarning kashfi») degan so‘zlardan (hijriy 898, melodiy 1492 yil) sana chiqarilganligi[1] e’tirof etiladi.

Jomiy bag‘oyat sermahsul ijodkor sanalib, bizgacha adabiyotning bir qancha janrlariga, fan va san’atning rang-barang yo‘nalishlariga taalluqli boy meros qolgan deb aytiladi. Mavlono Jomiy merosi-asarlari o‘z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidan ham tashqari yana ko‘plab boshqa yurtlarga ham keng tarqalgan. Gohida qo‘shni yurt podshohlari, xususan, Sulton Ya’qub uning asarlarini so‘rab turadi va maxsus elchilar junatgan. Ammo Mavlono Jomiy podshohlik dargoh(lari)da ishlashni ixtiyor etmaydi.

Jomiyning asarlari o‘z davrida va undan keyingi davrda ham ko‘p qo‘lyozma nusxalarda ko‘chirilganligi aytiladi. Qo‘lyozmalar instituti (Beruniy nomidagi Sharq-shunoslik instituti) jovonlari-fondlarida Mavlono Jomiy asarlarining XV-XVI asrlarda ko‘chirilgan ko‘plab qo‘lyozmalarini ko‘rishimiz mumkin.

Jomiyning falsafiy-irfoniy mazmunga xos bo‘lgan asarlaridan: «Shavohidin nubuvva», «Sharhi Fusus al-hikam», «Naqd un-nusus fi sharhi Naqsh al-fusus», «Sharhi qasidayi «Toiya» («ط» – «to» harfidan foydalanib yozilgan qasidaning sharhi»), «Sharhi qasidayi «Xamriya», «Naqshbandiya ta’limoti haqida risola», «Zikr» shartlari haqidagi risola», «Ashi’’at ul-Lama’ot», «Haj qilish yo‘lari haqidagi risola» kabi falsafiy-irfoniy mazmundagi asarlar sirasiga sanasak bo‘ladi.

Abdurahmon Jomiy o‘zining tasaavuf-so‘fiylik faoliyati davomida Naqshbandiya tariqati g‘oyalarini shu tariqatning yana bir yirik namoyandasi – Xoja Ahror Valiy hazratlari bilan yaqin aloqada bo‘lib, bu faoliyatni yanada rivojlantirishga erishgan. Hattoki, Xoja Ahror Valiy hazratlaridan hirqa – pirlikdan murshidga qoldiriladigan ramziy chakmon (tasavvuf-so‘fiylarning «so‘f»dan kelib chiqqan degan qarashga oid) olganlari va Xoja Ahror Valiy hazratlariga bag‘ishlab asar ham yozganligi aytiladi. Tazkirachilik bobida Xoja Ahror Valiy hazratlarini tiriklik chog‘laridayoq avliyolar safida tazkirada nomlarini keltiradi. Bunday yuksak e’tirif mavlono Jomiyga ham nasib etgan. Mavlono Jomiy tiriklik vaqtidayoq Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasida[5] nomlarini keltirgan.

Jomiy «Lujjatul-asror» qasidasida ham inson tarbiyasi, so‘fiy xulqi va axloqi haqida so‘z borganda ta’magirliklarni qattiq tanqid qilib, jamiyatdagi qanoatli insonlarning oliyjanobliklari hamda ularning ma’naviy tomondan hukdor-podshoh va vazirlardan ham ustunlik qilishlarini aytgan.

Jomiyning «Sharhi rubbiyot», «Risolayi aruz», «Risolayi muammoyi manzum», «Risolayi muammoyi sag‘ir», «Risolayi muammoyi kabir», «Risolayi qofiya», «Risolayi muammoyi mutavvassit», «Sharhi bayti Xusrav», «Sharhi bayti Masnaviy» kabi bir qancha asarlari Sharq xalqlari adabiyotining tarixini, undagi vazn, qofiya hamda

she’rlarning turlariga oid ayrim nazariy masalalarini tadbiq qilishda bugungi kungacha o‘z ahamiyatini mustahkamlab kelmoqda.

Muammo haqida 4ta nazariy qo‘llanma yaratganligi va ulug‘ salaflarning meroslarining murakkab ba’zi baytlarini izohlash, tasavvuf-so‘fiylikning biron so‘zi-terminini bayon qilish uchun alohida risolalar bitgani mavlononing mintaqa adabiyoti tarixini o‘rganishga yuksak-katta ahamiyat ham berganini, o‘zi bu sohalarning asliy mutafakkiri bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bartoldning Markaziy Osiyodagi ilm-madaniyatni gullab-yashnagan davrlarini hikoya qiluvchi «Hirot Husayn Boyqaro», «Ulug‘bek va uning davri» kabi kitoblari salkam bir asr oldindayoq nemis tiliga tarjima qilinishligi ham Abdurahmon Jomiy yashagan davr haqidagi qimmatli ma’lumotlar beradidir.

Abdurahmon Jomiy ilmiy merosi haqida turli manbalarda turlicha ma’lumotlar berilgan. Misol uchun: Ye.E.Bertels «Jomiy» monografiyasida mutafakkir asarlarining Toshkent kulliyoti (O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo‘lyozma inv. №2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi[2]. Jomiyning 100 ta asarlari borligi aytiladi.

Ilm-fanning, ayniqsa o‘rta asr Yevropasidagi eng mukammal va mufassal «Tasavvuf» – so‘fiylik nazariyasi bilan shuhrat topgan mutasavvuflarimiz (jumladan Jomiy) asarlarining ma’rifiy bunyodkorlik faoliyati to‘g‘risidagi tadqiqotlar sirasidagi mukammal manbasi, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa G‘arb mintaqa mamlakatlari donishmandlariga, XV asrdayoq mutasavvuf-larning – «Sharqona tazkiranavis»lari, - degan manbalari mujassamlashgan.

Boburning «Boburnoma» asaridagi birqancha sahifalarida Abdurahmon Jomiy haqida qimmatli ma’lumotlar bayon etilgan bo‘lib, ulardan birida quydagicha e’tirofni kurishimiz mumkin: «Bu jumladan (Bobur ta’rificha, Husayn Boyqaro davri) ahli fazl va benazir eldin bir Mavlono Abdurahmon Jomiy elikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo‘q edi»[3]. Keltirilgan bu mo‘jazgina ma’lumotdan ma’lum bo‘ladiki, avvalo, Mavlono Jomiyning shon-sharafi, falsafiy-irfoniy merosi ta’rif ihtiyojidan oliymaqomroq sanaladi. Shu bilan birga, u botin va zohir ilmlarida zamonasida tengsiz donishmand-mutasavvuf sanalgan. Tahlil qilishdan avval, biz ushbu ma’lumotlar tahliliga diqqat qilganimizda, ushbu narsa ma’lum bo‘ladiki, 1473 yilgacha bo‘lgan vaqtda Bag‘dod, Marv, Eron va Arab mintaqa-mamlakatlarida, muqaddas Makkai Mukarramada bo‘lib qaytgach, 1492 yilga qadar, ya’ni umrining oxirigi vaqtigacha Hirot (bugungi Afg‘oniston) mintaqasida umrgu-zaronlik qilib, ijod etgan Mavlono Jomiyning ilmiy-ma’rifiy merosi va o‘z mavqiyi jihatidan buyuk mutasavvuf sifatida mashhur bo‘lgan.

Falsafiy-irfoniy qarashlarning yuksalishi, XV asrning ikkinchi yarmidan hisoblab Hirotning madaniy-ma’rifiy va ilmiy markazga aylanib borgan. Xusayn Boyqaroning hukmdorlik qilgan davrida bu zamin-mintaqada ilm-fan hamda adabiyot sohasida yuksalishlar bo‘lgan. Mavlono Jomiy, hazrat Navoiydek jahonga ma’lum va mashhur bo‘lgan mutafakkirlar maydonga chiqdilar. Jomiyning ko‘plab asarlarida inson, adl-adolat, axloq va ma’naviy buyuklik, ezgulik, muhabbat kabi yuksalish g‘oyalari tasvirlangan. O‘rta asr ilm va madaniyati rivoji yo‘lida o‘zining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy-irfoniy hamda axloqiy qarashlari bilan adolatli jamiyat qurish, oqil podshohning adl kategoriyasiga amal qilishi g‘oyasini ilgari surgan, birlik va hamjihatlik, erkinlik va taraqqiyot, insof va diyonatga asoslangan jamiyat tuzimi borasida ko‘plab ilmiy asarlar yozgan mutafakkir bu Mavlono Jomiydir.

Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” asari orqali jamiyat-davlatni boshqarish, mintaqada adolatli tartibni barpo etish, ma’naviyat bilan madaniyat uyg‘unligini in’ikos ettirish yuzasidan muhim sanalgan masalalarni yoritib beradi. Ushbu asardagi har bir ravza – bog‘cha alohida go‘zallik, ezgulik sifatida gavdalanganligini ko‘rish mumkin.

Abdurahmon Jomiyning falsafa va dinni uyg‘unlashtirish, shu bilan falsafiy tafakkur rivojlanishiga xizmatlari borligi e’tirof etiladi. Birgina «Nafohot ul-uns» asari olti yuz oltmish to‘rt mashghur so‘fiylar hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu asar so‘filarning falsafiy-irfoniy va ahloqiy qarashlarini o‘rganishda muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Hazrati zuljalolga hamisha ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishlariga qaramay vaqtlarini bekor o‘tkazmasdilar[4].

Xulosa. Jomiy asarlarida adl kategoriyasi xam alohida maqomga ega. Bunday vazifani (asarlarni) o‘rganishimiz va tatbiq etishimiz barkamol avlodni tarbiyalashda, mamlakat taraqqiyotiga alohida o‘rnak bo‘luvchi muhim vazifa bo‘lmog‘i darkor. Adl kategoriyasi (adolat gnezisi) bu har bir jamiyatning muhim tendensional «burchi» bo‘lib, unga amal qilish ham rahbar va ham avom uchun birxil maqomda bo‘lishligi va amal qilinishligi shart sanaladi.

Davlatni boshqarish, nazorat qilish esa aynan ma’naviyt va ma’rifat qaymog‘i bo‘lmish adl (adolat) kategoriyasining yadrosi (markazi) inson tafakkuridan, iymon-e’tiqodi, qalbi orqali bunyod etilishini unutmaslik lozim!

XV asrda mutafakkir allomalarning ijtimoiy-siyosiy va insonparvarlik g‘oyalarini davom yettiruvchi va targ‘ib etuvchilaridan (Jomiydan keyin L.A) – hazrat Navoiy bo‘lganligini alohida e’tiborga olmog‘imiz lozim. Hazrat Navoiy haqida fikr aytishdan oldin, Mavlono Jomiy ilmiy merosini (falsafiy-irfoniy qarashlarini L.K) bilish shart albatta. Ustoz ilmidan mosuvo bo‘lib, shogird haqida fikr berish «Ilmiy til»da sayoz fikr deb qaraladi.

Navoiy Jomiy haqida yozgan manbalarda, o‘zaro muloqotda, maktubiy aloqalarda ular o‘rtasidagi munosabatlar juda yuksak hurmat hamda murshid va muridlik munosabati sifatida tarixda muhrlangan.

Abdurahmon Jomiy tomonidan ta’lif etilgan badiiy-falsafiy va irfoniy asarlari tasnifining aksariyatida ham adl kategoriyasi muhim sanalgan. Shuning uchun uning ijodiga ta’sir ko‘rsatgan omillar falsafiy tahlil ob’ekti sifatida o‘rganildi.

Jomiyning o‘zigacha bo‘lgan davrdagi falsafiy-irfoniy qarashlar hamda musulmon Sharqi falsafasi namoyandalari asarlari, ularning asarlaridagi falsafiy-irfoniy g‘oyalarga o‘z asarlarida yuksak baho bergan.

O‘z asarlarida o‘zigacha ma’lum va mashhur bo‘lgan yirik payg‘ambarlar, faylasuflar, ulug‘ avliyolar tarixiy merosini, shu bilan birga, o‘z davrida u bilan hamsuhbat bo‘lgan yirik tafakkur darg‘alari asarlarini qunt bilan o‘rgangan va ularning asosiy mazmuni xususida o‘z fikrlarini yozib qoldirganlar.

ADABIYOTLAR

1. Раҳимов К. “Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар)”. – Тошкент: Akademnashr, 2020.
2. Маънавият юлдузлари (М.Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар) – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 2001.
3. Бобур З.М. “Бобурнома”. – Т.: 1989.
4. Рокумий Ш. “Тарихи томм”. – Тошкент: Маънавият, 1998.
5. Навоий “Насойим ул-муҳаббат”. – Тошкент: 2017.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.93.25

Akmaljon AXMEDOV,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent A.Aliyev taqrizi asosida

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA-BO‘LAJAK PSIXOLOGNING KASBIY MAHORATINING ASOSIDIR.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak psixologlarni tayorlashda kommunikativ kompetentlikning o‘rni va ahamiyati, shuningdek mazmun va mohiyati tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentsiya psixologning zaruriy kasbiy sifatlaridan biridir.Ayni paytda konsensus yo‘q. Ushbu kommunikativ kompetentlikni tushunishda ko‘plab talqinlar mavjud va yagona yondashuv yo‘q.Ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, ilmiy jihatdan o‘xshashliklarni aniqlanadi. Ushbu kommunikativ kompetentsiyaga berilgan ta’riflar va eng keng tarqalgan komponentlari maqolada keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetentsiya, psixolog, muloqot qobiliyatlari, kommunikativ bilimlar, muloqot qobiliyatlari.

КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ-ОСНОВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩЕГО ПСИХОЛОГА.

Аннотация

в данной статье анализируется роль и значение коммуникативной компетентности в подготовке будущих психологов, а также содержание и сущность. Коммуникативная компетентность является одним из необходимых профессиональных качеств психолога.На данный момент единого мнения нет. Существует множество интерпретаций в понимании этой коммуникативной компетенции, и нет единого подхода.Основываясь на научных исследованиях, с научной точки зрения выявляются сходства. Определения и наиболее распространенные компоненты, которые даются этой коммуникативной компетенции, приведены в статье.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, психолог, коммуникативные навыки, коммуникативные знания, коммуникативные навыки.

COMMUNICATIVE COMPETENCE IS THE BASIS OF PROFESSIONAL SKILLS OF A FUTURE PSYCHOLOGIST

Annotation

This article analyzes the role and significance of communicative competence in the training of future psychologists, as well as the content and essence. Communicative competence is one of the necessary professional qualities of a psychologist.There is no consensus at the moment. There are many interpretations in understanding this communicative competence, and there is no single approach.Based on scientific research, similarities are identified scientifically. The definitions and most common components given to this communicative competence are given in the article.

Key words:communicative competence, psychology, communication skills, communication knowledge, communication skills.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda tez-tez o‘zgarib turadigan sharoitlarida psixolog uchun faqat bitta professional kompetentsiyaga ega bo‘lish etarli emas, kommunikativ kompetentsiya samarali kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi anglash uchun zarurdir. Kommunikativ kompetentsiya psixologning har qanday kasbiy vazifalariga hamroh bo‘ladi. Kommunikativ kompetentsiyaning yo‘qligi yoki rivojlanishining past darajasi muvaffaqiyatsizlik holatlarining ko‘payishiga olib keladi, kasbdan qoniqishni kamaytiradi va kasbiy motivatsiyani yo‘q qiladi. Ushbu maqolada biz ilmiy adabiy manbalarda kommunikativ kompetentsiya fenomenining ta’riflarini ko‘rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

Kommunikativ kompetentsiyaning ilmiy ta’riflari ko‘plab talqinlarga ega, ammo tadqiqotga yagona yondashuv yo‘q, ammo ba’zi ta’riflarda mualliflar fikrlarining o‘xshashligini aniqlash mumkin

Quyida bir guruh ilmiy mualliflar ta’riflarni ayrimlarini tahliliy ko‘rib chiqamiz, ushbu olimlar tomonidan kommunikativ kompetentlikka insonning muloqot qilish qobiliyati sifatida ta’rif beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kommunikativ kompetentlikni birinchi marta A.A. Bodalev o‘z ilmiy ishlarida talqin etadi. U kommunikativ kompetentsiyani - suhbatdosh bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, bilim va ko‘nikmalar natijasi sifatida ta’rif beradi [1].

Shunga o‘xshash ta’riflar L.D. Stolyarenko va Yu.M.Jukov kommunikativ kompetentsiyani muloqot qobiliyati va suhbatdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarda tashkil eta olish sifatida ta’rif beriladi[2, 3].

M.N.Vyatyutnev o‘z ta’rifida kompetentsiyaga shaxslararo turli o‘zaro munosabatlarni o‘rnata olishi va muloqot qilish qobiliyati eknligi tushuntiriladi. Shuningdek olimning fikricha kommunikativ kompetensiya muloqot davrida,muloqotdan oldin, shuningdek, umumiy moslashish jarayonida suhbat davomida paydo bo‘ladi deb tushuntiradi[4].

E.Yu.Genius kommunikativ kompetentsiyani vaziyatni tushunish qobiliyati sifatida tavsiflaydi, uning rivojlanishining prognozini, psixologik to‘siqlarni engish qobiliyatini va kommunikativ ta’sirning maxsus tamoyillarini qo‘llash deb qaraydi [5].

Ilmiy tadqiqotimiz davomida ayrim mualliflar tomonidan Kommunikativ kompetentsiya kommunikativ vazifalarni hal qilishi: aloqa maqsadlarini tushunish, vaziyatni to‘g‘ri baholashi, taxminlarni hisobga olish va aloqa hamkorlarining aloqa texnikasi, aloqa strategiyalaridan foydalanish vaziyatlarga mos kelishi, o‘z nutqiy xulq-atvoridagi mazmunli o‘zgarishlarni ma’lum bir mahorat deb tushunishadi [6].

Kommunikativ kompetentsiya atamasi M.A. Xazanova ta’rificha mahoratga ega suhbatdoshning xatti-harakatlarining bashoratli modelini yaratish orqali muloqot jarayonini tushunish; shaxsiy xususiyatlarini anglash sifatida ta’riflanadi.

V.N. Kunitsyna kompetentsiyani chuqur muloqot qobiliyatlariga ega bo‘lish, rivojlantirish ilgari noma’lum bo‘lgan ijtimoiy vaziyatlarda tegishli ko‘nikmalar, muloqotda o‘zini tutish qobiliyati sifatida tushuniladi [7].

O‘rganishlarimizda ba’zi tadqiqotchilar va mualliflar kommunikativ kompetentsiyani bilim va tizim sifatida ko‘rib chiqadilar.

Shunday qilib, E.V. Sidorenko kommunikativ kompetentsiyani faol tinglash qobiliyati, suhbatdoshini tushunish qobiliyati, tartibga solish qobiliyati muloqot paytida hissiy stress, kommunikativ bilim, muvaffaqiyatli muloqot, jamiyatda yashovchi barcha odamlarga ega bo‘lgan muloqot qobiliyatlari deb ta’riflaydi [8].

Y.M Kuzmina va V.M. Sokolov shaxsning kommunikativ qobiliyatini "Integral xususiyat, shu jumladan bilimlar, qobiliyatlar va ko‘nikmalarning yaxlit to‘plami og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalari sohasi va shaxslararo o‘zaro ta’sir qonunlari va muloqot qilish imkonini beruvchi va erishishga hissa qo‘shadigan sub'ektning shaxsiy fazilatlari o‘zaro tushunish va aloqa muammolarini samarali hal qilish" belgilaydi [9]

O.M. Kazartsevaning fikricha, kommunikativ kompetentsiya bilim,ko‘nikma va nutqiy xatti-harakatlar va suhbatdoshni tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar deb tushuntiradi [10].

Muhokama va natijalar. Kommunikativ kompetent-siya fenomenining yaxlit tahlilini I.N Zotova ishlarda topish mumkin. Uning fikriga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya aloqa kompetensiyasi,ta’lim elementlardan iborat: hissiy-motivatsion, xulq-atvor va kognitiv elementlar den ta’riflaydi[11].

-Hissiy-motivatsion element ijobiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyojda o‘zini namoyon qiladi, kompetentsiyani rivojlantirish motivlarida, "muvaffaqiyatli sherik bo‘lish" semantik munosabatlarida o‘zaro ta’sirlar, shuningdek, aloqa qadriyatlari va maqsadlari;

-Kognitiv komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi: munosabatlar va ma’lum narsa va hodisalar haqidagi bilimlar sohasi muloqotda olingan psixologik bilimlar, suhbatdoshning ichki qiyofasi, shaxsiy xususiyatlar; kommunikativ shaxsiy resurslarni tashkil etuvchi ijtimoiy-pertseptiv qobiliyatlar;

-Xulq-atvor komponenti shaxslararo o‘zaro ta’sirning sub'ektiv modelidir va shuningdek, kommunikativ xatti-harakatni individual kuzatish [11]

O.Yu. Shubkina o‘z tadqiqotida kommunikativ kompetentsiyaning to‘rtta komponentini belgilaydi, masalan :

-muloqotning motivatsion-qiymatli komponenti madaniyatlararo munosabatidir faoliyatni davom ettirish istagida ifodalangan professional muloqot kommunikativ kasbiy faoliyatdir;

-muloqotning kognitiv komponenti - til, tushunish va bilishni ifodalaydi shaxslararo kommunikativ hodisalarni bashorat qilish, sotsiolingvistik bilimlar, professional aloqa muammolarini hal qilish uchun ijtimoiy-madaniy tabiat, mavjudligi rivojlangan ijtimoiy intellekt;

-muloqotning faoliyat komponenti - mutaxassisni tahlil qilish va baholash kommunikativ vaziyat, muloqot maqsadlarini belgilash, kommunikativ tanlash strategiyalar va aloqa taktikasini tashkil etish, aloqa muammolarini hal qilish usullarini o‘zlashtirish , vazifalarni amalga oshirishga intilayotgan sub'ekt sifatida kommunikativ faoliyatga kiritish aloqa rejasi, professional muloqot tajribasini boyitish;

-muloqotning refleksiv-baholovchi komponenti – tahlilda namoyon bo‘ladi o‘z kasbiy kommunikativ harakatining samaradorligini baholash asosida erishilgan kommunikativ maqsadlar haqida fikr yuritish,o‘zini yaxshilash yo‘llarini tushunish professional aloqalardir [12].

Boshqa tadqiqotchilarning ishlarida kommunikativ kompetentsiyaning quyidagi tarkibiy qismlari ko‘rib chiqilad

Shunday qilib, V.A. Labunskaya kompetentsiyaning uchta elementini aniqlaydi:

1.Suhbatdoshini to‘g‘ri idrok etish;

2. Muloqotning og‘zaki bo‘lmagan shakllarini rivojlantirish;

3. Rivojlangan og‘zaki va yozma nutq [13].

O‘z navbatida, Yu.N. Emelyanov kontseptsiyaning sifat xususiyatlariga e’tibor qaratadi, malakali kommunikator quyidagi fazilatlarga ega deb hisoblaydi

- mustaqil ravishda turli ijtimoiy rollarni o‘z zimmasiga olish va bajarish qobiliyati;

- turli xil o‘zaro ta’sir holatlariga moslashish qobiliyati;

- og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati;

- faol va faol jarayonda “shaxslararo makon” yaratish qobiliyati suhbatdoshlar bilan bog‘lanish va bu joyni boshqarish;

- o‘z ehtiyojlari va qadriyat yo‘nalishlarini bilish;

– odamlar bilan ishlashning turli usullarini egallash;

– sezgi qobiliyati [14].

L.A. Petrovskaya. kommunikatsiyaning barcha turlari bo‘yicha kompetentsiya mavjudligini ta’kidlaydi sheriklik o‘xshashlikning uchta darajasiga erishish - kommunikativ, interaktiv va idrok etuvchi. Binobarin, muloqotda turli kompetentsiya turlari haqida gapirish mumkin.

S.A. Ezova. kommunikativ kompetensiyaga shaxsning bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlarni qo‘llash qobiliyati kiradi, deb hisoblaydi:Jumladan

a) an'anaviy va virtual o‘zaro ta’sir orqali muloqot mazmunida;

b) o‘zaro munosabatlarni tashkil etishda;

v) harakat yo‘nalishini tanlashda

d) suhbatdosh bilan muloqot tashkil etish shakllarida.

Ezova S.A., boshqa ko‘plab mualliflar kabi, kommunikativ kompetentsiya bu asosiy muloqot qobiliyatlaridir deb hisoblaydi [15].

O.V. Kryuchkova kommunikativ kompetentsiya insonning odamlar bilan muloqotida namoyon bo‘ladigan va imkon beradigan muloqot qobiliyatlari natijasida muayyan maqsadlarga erishish deb quyidagicha tushuntiradi:

1.Muloqotni to‘g‘ri idrok etish va erishish ehtimolini baholash qobiliyati va uning maqsadlari.

2. Odamlarni to‘g‘ri tushunish va baholash qobiliyati.

3. Muloqot vositalari va usullarini shunday tanlash qobiliyati ular vaziyatga, hamkorlarga va berilgan vazifalarga mos keladi.

4. Hamkorlarning individual xususiyatlariga moslashish, tanlash qobiliyati ular bilan og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan darajada muloqot qilishning adekvat vositalari.

5. Odamlarning ruhiy holatiga ta’sir qilish qobiliyati.

6. Odamlarning kommunikativ xatti-harakatlarini o‘zgartirish qobiliyati.

7. Odamlar bilan yaxshi munosabatlarni saqlash qobiliyati.

8. Odamlarda o‘zi haqida ijobiy taassurot qoldirish qobiliyati

E.V.Sidorenko kommunikativ kompetentlikni turli talqinlarini tahlil qilib, shunday xulosaga keladi: Ushbu kommunikativ kompetentlik juda xilma-xil tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

-kommunikativ bilim;

- aloqa maxorati;

- kommunikativ vazifalarga o‘xshash va ular uchun etarli bo‘lgan muloqot qobiliyatlari yechimlar [8]

Xulosa. Shunday qilib, zarur bo‘lgan "kommunikativ kompetentsiya" tushunchasi bo‘lajak psixologning professional sifati ko‘plab talqinlarga ega. Mualliflar tomonidan kommunikativ kompetentsiya - turli vaziyatlarni to‘g‘ri tushunish qobiliyati o‘zaro muloqot, aloqalari (A.A. Bodalev, L.D. Stolyarenko, Y.M. Jukov, M.N. Vyatyutnev, E.Yu. Genieva); muammolarni hal qilish qobiliyati (M.A. Xazanova, L.A. Petrovskaya, V.N. Kunitsyna); bilim, qobiliyat va malakalar tizimi (E.V. Sidorenko, O.M. Kazartseva) sifatida ta’riflanadi

Ilmiy tadqiqot ishini tahlil qilish natijasida ilmiy ta’riflardan va ilmiy tadqiqot mavzusining tuzilishi haqidagi ko‘plab tushunchalardan biz farqlashimiz mumkinki eng keng tarqalgan komponentlar sifatida: muloqot qobiliyatlari, bilim va ko‘nikmalar bo‘lajak psixologlarda shakllnishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Бодалев А.А. Психология общения: Избранные психологические труды. Москва: Московский психолого-социальный институт, 2002. 256 с.
2. Столяренко Л.Д., Самыгин С.И. Социальная психология. Москва: Кнорус, 2016. 332 с.
3. Жуков Ю.М., Петровская Л.А. Проблема диагностики социально-перцептивной компетентности (в педагогическом общении). Москва: Просвещение, 2004.
4. Вятютнев М. Н. Понятие языковой компетенции в лингвистике и методике преподавания иностранных языков // Иностранные языки в школе. 1975. № 6. С. 55-64.
5. Гениева Е.Ю. Библиотека как центр межкультурной коммуникации. Москва: Рос.полит. энциклопедия, 2005. 208 с.
6. Петровская Л.А. Развитие компетентного общения как одно из направлений оказания психологической помощи. Введение в практическую социальную психологию / под ред. Ю. М. Жукова, О. В. Соловьевой. Москва: Смысл, 1999. С. 150-166.
7. Куницына В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение. СПб.: Питер, 2001. 544 с.
8. Сидоренко Е. В. Тренинг коммуникативной компетентности в деловом взаимодействии. СПб.: Речь, 2004. С. 73.
9. Кузьмина Е. М., Соколов В. М. Формирование коммуникативной компетентности студентов вуза: монография. Н. Новгород: ВГИПУ, 2007. С. 48.
10. Казарцева О.М. Культура речевого общения: Теория и практика обучения. Москва: Флинтанаука, 1999. 183 с.
11. Ротова И.Н. Коммуникативная компетентность как аспект социализации личности студента в условиях информатизации общества. Актуальные социально-психологические проблемы развития личности в образовательном пространстве XXI века. Кисловодск, 2006. С. 109.
12. Шубкина О. Ю. Формирование коммуникативной компетентности студентов технических направлений подготовки: автореферат дис. кандидата пед. наук. Красноярск, 2016. 24 с.
13. Лабунская В.А., Менджерицкая Ю.А., Бреус Е.Ю. Психология затрудненного общения: Теория. Методы. Диагностика. Коррекция: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений. Москва: Издательский центр «Академия», 2001. 288с.
14. Емельянов Ю.Н. Теория формирования и практика совершенствования коммуникативной компетентности. СПб.: Речь, 2001.
15. Езова С.А. Коммуникативная компетенция // Научные и технические библиотеки. 2008. № 4. С. 34 - 39.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378:151:1

Voris AXROROV,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: voris1983@mail.ru

SamDChTI professori, psix.f.d. Saidov A.I. taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL SUPPORT – HOW TO ENSURE THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF STUDENTS

Annotation
This article analyzes the current state of the activities of the psychological service aimed at ensuring the psychological health of students of higher educational institutions, as well as the introduction of the activities of the psychological service in the system of higher education, as well as a number of existing problems in this direction. In order to eliminate these problems, a model and description of improving the activities of psychological services in higher educational institutions are given, conclusions and suggestions are presented.
Keywords: student, psychological health, psychological service, problem, model of psychological service, support, psychologist's task.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА – КАК ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация
В данной статье проанализировано текущее состояние деятельности психологической службы, направленной на обеспечение психологического здоровья студентов высших образовательных учреждений, а также внедрение деятельности психологической службы в системе высшего образования, а также ряд существующих проблем в данном направлении. В целях устранения этих проблем приведена модель и описание совершенствования деятельности психологической службы в высших образовательных учреждениях, изложены выводы и предложения.
Ключевые слова: студент, психологическое здоровье, психологическая служба, проблема, модель психологической службы, поддержка, задача психолога.

PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH – TALABALAR PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA’MINLASH SIFATIDA

Annotatsiya
Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining psixologik salomatligini ta’minlashga qaratilgan psixologik xizmat faoliyatining bugungi holati hamda oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini joriy qilish, mazkur yo‘nalishda mavjud bir qator muammolar tahlil qilingan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish modeli hamda uning tavsifi keltirilib, xulosa va takliflar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: talaba, psixologik salomatlik, psixologik xizmat, muammo, psixologik xizmat modeli, qo‘llab-quvvatlash, psixolog vazifasi.

Kirish. Jahonda ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida psixologik salomatlikni ta’minlash muammosi bo‘yicha jamiyatda biopsixosotsial model doirasida jamoatchilik salomatligi, salomatlikka tahdidlar psixologiyasi, salomatlikka nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish, sog‘lom xulq-atvor modellarini yaratish, psixokorreksiyaviy dasturlarni takomillashtirish, salomatlik psixologiyasi sohasini rivojlantirishga oid tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Taraqqiyotning jadal suratlari va sodir bo‘layotgan izchil o‘zgarishlar jamiyatning barcha sohalari – siyosat, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va amaliy yo‘nalishlarning barchasiga ta’sir etib, mamlakatlarning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarida chegaralarning o‘z ahamiyatini yo‘qotib borishiga sabab bo‘lmoqda. Inson uchun yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlar ularning idividual fikrlash faoliyati odatiy mexanizmlarining o‘zgarishi, atrofdagi hodisalarni ko‘rib chiqishga nisbatan yangicha yondashuv-larning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Bu esa, «intellektual, hissiy, jismoniy, ruhiy keskinlik, beqarorlikni keltirib chiqarib, uning oqibatida borliqni anglash, idrok etish, motivatsiyaviy-ehtiyojlar tizimida o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda» [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarni ta’lim muhitiga moslashtirish jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy qismlari sifatida inqiroz va stressli vaziyatlarni oldini olish, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, ziddiyatli, murakkab hayotiy vaziyatda psixologik yordam ko‘rsatish, o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasasida o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘z-o‘zini tashkil etish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha trening mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish namoyon bo‘ladi. Talabalarning shaxsiy va kasbiy shakllanishi jarayonida ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularda tashabbuskorlik, shaxsiy va kasbiy pozisiyani, kasbiy o‘zini namoyon qilish, hayotiy maqsadlarni belgilash, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutish lozim [2].

Oliy ta’lim muassasalari talabalari, ayniqsa birinchi kurs talabalari bir qator qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Bunda birinchidan, ularning jadal suratlarda kechayotgan o‘zgarish va noaniqlik sharoitiga moslasha olishmasliklari, ikkinchidan, odatiy qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan uzilganligini, uchinchidan esa moslashish va rivojlanish muammolari (ilmiy, o‘quv, kasbiy muammolardan to psixik kasalliklardan farqlanuvchi ko‘plab shaxsiy va psixologik muammolarni yengib o‘tishi zarurati) kabilarni qayd etib o‘tish mumkin [3].

Bunday muammolar o‘z navbatida talabalarning ta’lim xizmatlaridan qoniqmasligini yuzaga keltirib chiqaradi. Bunday qoniqmaslikning ijobiy tomoni, rag‘batlantiruvchi kuch sifatida talabani harakat qilishga, bilish ehtiyojlarini boshqa, yanada samarali usullar orqali qondirishga harakat qilishida kuzatilishi mumkin. Salbiy tomoni esa, talabaning bilishga qiziqishi yo‘qoladi, uni boshqa motivasiya shakli bilan almashtiradi va o‘qishga qiziqishi so‘nib boradi [3].

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim standartlarida shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, uning psixik va psixologik salomatligini saqlab qolish va mustahkamlash masalalariga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bu o‘rinda ta’lim tizimini mamlakatning asosiy boyligi va jamiyat hayotining barcha sohalari rivojlanishi uchun asosiy resurs bo‘lmish insonning intellektual va shaxsiy salohiyati, ijodiy quvvatini namoyon qilishga yo‘naltirish zarurligi anglab yetilmoqda [4]. Xususan, I.V. Dubrovina psixologik xizmatning maqsadi talabalar psixologik va shaxsiy rivojlanishiga maksimal ta’sir o‘tkazib, hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topishiga psixologik tayyorlashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi [5]. L.M. Fridman esa, psixologik xizmatning maqsadi oliy ta’lim muassasasi maqsadi bilan mos bo‘lishi, shuningdek, ijtimoiy yetuk, ijodiy faol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim doirasida psixologik xizmat talabalarni moslashtirish, rivojlantirish hamda ularning ta’lim olishga ko‘maklashish bilan bir qatorda, ularda namoyon bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan o‘z-o‘zini vayron qiluvchi xatti-harakatlarning oldini olishni ham ta’minlashi lozim bo‘ladi. Darhaqiqat, xizmat ta’lim jarayonining samarali o‘tishi va bitiruvchining shaxsini shakllantirish uchun har tomonlama shart-sharoitlarni ta’minlash vazifalarini hal qiladi. Biroq, ushbu maqsadga erishish uchun oliy ta’lim muassasalari tomonidan qo‘llaniladigan mexanizmlar tashkilotning falsafasiga yoki maqsadiga qarab juda katta farq qilmaydi. Masalan, Rossiyada oliy ta’lim tizimida psixologik xizmatlar uzoq vaqt oldin paydo bo‘lganiga qaramasdan, ular universitetlarda zaruriy bo‘linmaga aylanmagan va universitetlar ma’muriyati yoki psixologlari tashabbusi bilan yaratilgan xolos [7].

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida psixolog faoliyati 2017 yildan boshlab, Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 23 avgustdagi 600-sonli buyrug‘iga asosan joriy qilingan bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda talabaning har tomonlama garmonik, to‘laqonli psixologik taraqqiyotini ta’minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratish sifatida belgilangan [8]. Oliy ta’lim psixologining burchi esa ta’lim-tarbiya ish rejasini tuzish, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqish, o‘quv dasturi, qo‘llanmalarni yaratishda faol ishtirok qilish va bosh maqsad bo‘lgan talabaning intlektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim, ko‘nikma va malakalari, mutaxassislik xislatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o‘zining munosib ulushini qo‘shishdan iboratligi qayd etilgan.

Oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat ko‘rsatishda talabalarning umumiy soniga mos ravishda psixologlar sonini belgilash masalasi e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan yana bir muhim jihat hisoblanadi. Mazkur nizomning 1.2-bandida «Oliy ta’lim psixologi oliy ta’lim muassasida umumiy o‘quv va tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanishi», 1.4-bandida esa «Oliy ta’lim psixologi lavozimi oliy ta’lim muassasi Kengashi qaroriga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan ta’sis etilishi» qayd etilgan [8]. Biroq, oliy ta’lim psixologi zimmasiga mas’uliyatli vazifalar yuklangan holda, ularning soni bo‘yicha ko‘rsatkichlarni umuman qoniqarli deb bo‘lmaydi. Masalan, respublikamiz oliy ta’lim muassasalari rasmiy veb-saytlari orqali 2022-2023 o‘quv yili holatida talabalarning umumiy soni ko‘rib chiqilganda TDPUda – 28 689 nafar, SamDUda – 25 805 nafar, QarDUda – 20 346 nafar, TerDUda 26 395 nafar, NamDUda – 26 504 nafar, BuxDUda – 24 825 nafar talaba tahsil olayotganligi aniqlangan.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida psixolog (psixologik xizmat) zaruriy bo‘linma emas, balki muassasaning yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori bo‘ysinuvidagi yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tarkibiga kiruvchi psixolog lavozimi orqali amalga oshirilmoqda. Barcha oliy ta’lim muassasalari psixologlari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi «Ma’naviyat va ma’rifat markazi»ga hisobdor hisoblanadi. Bunday holat psixolog mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlarida muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Ilmiy izlanish doirasida amalga oshirilgan tahlilga asoslangan holda oliy ta’lim muassasasi talabalari psixologik salomatligini ta’minlashga yo‘naltirilgan psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish modeli ishlab chiqilib, uni tayyorlashda psixolog-olimlar ilmiy tadqiqotlarining nazariy va amaliy natijalari hamda Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 23 avgustdagi 600-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Oliy ta’lim tizimi psixologi lavozimi faoliyati bo‘yicha Nizom»da [8] keltirilgan bandlardan foydalanildi. Bunda:

I. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi psixologik xizmat faoliyatini muvofiqlashtirish va ilmiy-metodik ta’minlash markazi: Mazkur markaz oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmatlari faoliyatini muvofiq-lashtirish va ilmiy-metodik ta’minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi: oliy ta’lim muhitida psixologik madaniyatni oshirish maqsadida muassasasi professor-o‘qituvchilari, talabalar bilan o‘tkazish uchun ma’ruzalar va trening mashg‘ulotlar turkumini ishlab chiqish; psixologik xizmat mutaxassislarini metodik jihatdan ta’minlash uchun ilmiy asoslangan psixodiagnostik instrumentariyalarni tayyorlash va hokazo.

Faoliyat yo‘nalishi: Metodik yo‘nalish – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash. Muvofiqlashtirish yo‘nalishi – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish. Malaka oshirish yo‘nalishi – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati mutaxassislarining malakasini oshirish tartibi, muddati, shaklini belgilash va amalga oshirilishini ta’minlash. Umumlashtiruvchi-tahliliy yo‘nalish – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyati natijalarini umumlashtirish, samaradorligini baholash, rivojlantirish istiqbollarini belgilash.

II. Oliy ta’lim muassasasi psixologik xizmati.

Faoliyat yo‘nalishi: Psixoprofilaktika – oliy ta’lim muassasasi talaba va professor-o‘qituvchilari uchun sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va ular shaxsining rivojlanishi uchun ijobiy shart-sharoitlarni ta’minlash.

Psixologik targ‘ibot va ma’rifat – talaba va pedagoglar jamoalarida eng qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish uchun maxsus psixologik tadbirlar olib borish, pedagogik jamoada muomala madaniyatini takomillashtirish, talabalar bilan professor-o‘qituvchilarning muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish, shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan pedagogik jamoalarda keng ko‘lamda maslahatlar berish, pedagogik jamoa a’zolaridagi psixologik zo‘riqish va toliqishni yo‘qotish, kamaytirish, ularning oldini olish uchun chora-tadbirlarni tarkib toptirishga ko‘maklashish. Psixodiagnostika – talabalarning o‘qishi davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o‘rganish, ularning individual-psixologik xususiyatlarini, ta’lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlash. Psixik rivojlantirish va psixokorreksiya – talaba, professor-o‘qituvchilar shaxsi va intellektini

rivojlantirish jarayoniga faol ta’sir o‘tkazish. Psixologik konsultasiya (maslahat) – talabalar ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslahatlar berish.

Faoliyat bosqichlari.

1-kurs talabalari bilan ishlash jarayonida: Muammoli vaziyatlar – kasb tanlovidan ikkilanish, yolg‘izlik tuyg‘usi (oldingi o‘rtoqlari, yaqinlari, qarindosh-urug‘lari bilan muloqotga kirishish ehtiyojining yuzaga kelishi), tortinchoqlik, o‘zini chetda tutib turish, ta’lim muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan zarur ma’lumotning yetishmasligi sababli xavotirlanish, bezovtalik hissining namoyon bo‘lishi, sessiyalar bilan bog‘liq qo‘rquv, emotsional zo‘riqish, stressni boshdan kechirish. Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalar shaxsini rivojlantirish va o‘z-o‘zini faollashtirish maqsadida ularning individual-psixologik xususiyatlarini, salohiyatini aniqlash, talabalarning psixologik moslashuviga ko‘maklashish, ular uchun emotsional qulay ta’lim muhitini ta’minlash, stress va xavotirlanishni yengib o‘tish, ishchanlikni tiklashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish.

2-kurs talabalari bilan ishlash jarayonida: Muammoli vaziyatlar – kursdoshlari, guruhdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarda murakkablikning yuzaga kelishi, guruhiy mavqyedagi o‘zgarishlar ro‘y berishi, guruh a’zolari bilan do‘stona yoki nizoli munosabatlarning o‘rnatilishi, talabalar guruhida bulling (bir kishiga boshqasi yoki bir guruh tomonidan agressiv taz’yiq o‘tkazilishi, qo‘rqitish va h.k.) holatlarining sodir bo‘lishi, muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi, «Men» obrazi rivojlanishining pasayishi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalar guruhlaridagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish, unda emotsional sog‘lom muhitni shakllantirish, talabalar uchragan qiyinchiliklar masalasida maslahatlar berish, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, xulq-atvorning destruktiv shakllari va stressogen omillar psixoprofilaktikasini amalga oshirish.

3-kurs talabalari bilan ishlash jarayonida: Muammoli vaziyatlar – talabalarning o‘zlashtirishi, o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish motivasiyasining pasayishi, o‘qishga, universitet, fakultet yoki bo‘limda tashkil etilayotgan tadbirlarga nisbatan befarqlik, kasbiy soha masalasida o‘z-o‘zini past baholash, nazariy bilimlardan ko‘ra amaliy ko‘nikmalarni egallashga intilish hissining ustivorlik qilishi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalarni kasbiy yo‘nalishdagi rivojlanishi jarayonini psixologik kuzatib borish, mazkur masalada ular bilan individual, guruhiy tartibdagi konsultasiyalarni, emotsional holatini yaxshilashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish.

4-kurs talabalari bilan ishlash jarayonida: Muammoli vaziyatlar – ta’limnnig yakunlanishi, bitiruv malakaviy ishini himoya qilish, yakuniy davlat attestasiyasi imtihonlarini topshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xavotirlanish, ommaviy chiqishlar qilishdan qo‘rqish, asabiylik, stressga barqarorlikning pasayishi, shaxsiy vaqtini ko‘p qismini samarasiz o‘tkazish, talabalar guruhida nizoli vaziyatlarning ko‘payishi, qoloq guruhdoshlariga, fakultet rahbariyati tomonidan bildiriladigan tanbehlarga salbiy munosabatni namoyon qilish, salomatligi, emotsional holatining yomonlashuvi, kun tartibining buzilishi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalar uchun emotsional qulay ta’lim muhitini ta’minlash, ta’limnnig yakunlanishi, bitiruv malakaviy ishini himoya qilish, yakuniy davlat attestasiyasi imtihonlarini topshirishga psixologik tayyorlash, o‘z-o‘zini boshqarish usullariga o‘rgatish, talabalar guruhida qulay muhitni shakllantirish, psixoemotsional holatini korreksiyalash, talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyat yo‘nalishi (ish qidirish, kasbiy qiziqishlar, rivojlanish istiqbollari) doirasida psixologik maslahatlar berish.

III. Pedagogik jarayon. Oliy ta’lim muassasalari ta’lim muhiti sharoitida fakultet, bo‘lim, kafedra, professor-o‘qituvchilar, tyutorlar bilan psixologik faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish: kommunikativ, o‘z-o‘zini taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish; talabalar bilan o‘zaro munosabat masalalari bo‘yicha psixologik tavsiyalar berish; talabalar guruhlarini jipslashtirish, jamoaviy uyushqoqlik bo‘yicha rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish; talabalar, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan shaxsiy qiyinchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish; oliy ta’lim muhitida uchrashi mumkin bo‘lgan bulling holatlari profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha maslahat berish; empatik muloqot, faol tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish; ta’lim muhitida o‘z-o‘zini boshqarish, emotsional charchash holatlarini bartaraf etish.

Xulosa va takliflar. Oliy ta’lim tizimi psixologik xizmati tajribasini o‘rganish hozirda psixologik xizmat tarbiyaviy ishlar bo‘limlari tarkibida bo‘lgan holda amalda asosan tarbiyaviy yo‘nalishda faoliyat olib borishlarini, psixologlar sonining talabalar soniga nomutanosibligi oqibatidagi yuqori yuklama tufayli ularning o‘z vazifalarini talab doirasida bajara olmasligi, psixologik xizmat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona uslubiy markazning mavjud emasligi natijasida tajriba almashish, faoliyat va uslubiy ishlanmalar bazasini to‘plash imkoniyati to‘liq ta’minlay olinmayotganligi kabi bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Olib borilgan ilmiy izlanish xulosalariga tayanib, quyidagi takliflarni e’tirof etishimiz mumkin: oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish maqsadida muassasalarda psixologik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradigan va ilmiy-metodik ta’minotini amalga oshiradigan maxsus metodik markazni shakllantirish; xorijiy mamlakatlar hamda respublikamiz xalq ta’limi tizimidagi psixologik xizmat tajribasini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmat tizimidagi psixologlar faoliyatini tashkil etishda ularning sonini talabalar soniga mutanosib ravishda bo‘lishini ta’minlash.

ADABIYOTLAR

1. Фельдштейн Д.И. Совершенствование аттестации научных кадров по педагогическим и психологическим специальностям // Мир психологиии. – 2013. – №2. – С. 162-177.
2. Карамян М.Х., Файзиев Р.Р. Психосоциальное благополучие студентов как объект мониторинга в системе непрерывного образования // Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari: To‘plam №3/ Ma’sul muharrir M.A. Rahmatullayev. Издательство: Vita Color – T.: 2015. – С. 93-103.
3. Дотдуева Ж.Б., Базарова Д.Р., Чернова А.И., Басхаева И.И. Психологические факторы удовлетворенности личности условиями образовательного процесса // Научно-практический журнал «Вестник Университета Российской академии образования», 2018. - № 5. – С. 45-51
4. Васягина Н.Н., Ибатуллина А.В. О психологической службе в системе образования Свердловской области // Педагогическое образование в России. 2020. №1. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-psihologicheskoy-sluzhbe-v-sisteme-obrazovaniya-sverdlovskoy-oblasti
5. Дубровина И.В. Практическая психология образования. – Москва: Просвещение, 1998. – 525 с.

6. Фридман Л.М. О концепции школьной психологической службы // «Вопросы психологии». – М., 2001. – №1, – С. 97-106.
7. Андронникова О.О. Психологическая служба в системе высшего образования: проблемы и актуальные задачи// Сетевой журнал «Вестник практической психологии образования» 2020. Том 17. № 1. – С. 85-94.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 23 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyundagi PQ-3151-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 9 avgust kuni o‘tkazilgan majlis bayoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida»gi 600-son buyrug‘i.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK 372.8

Dilrabo ASHUROVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktorant
E-mail: ashurovadilrabo@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor I.Islomov taqrizi asosida

WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION THROUGH THE COMMUNICATIVE METHOD

Annotation

The communicative approach to teaching English is the most important and widely used in various educational institutions today, because this approach is the communicative method that best develops the ability to communicate fluently and allows students to practice speaking in a real language environment. This article briefly discusses ways to improve the effectiveness of English language classes through a communicative approach. The researcher found that students' abilities improved significantly after being taught using a communicative approach to teaching.

Key words: Communicative approach, communication skills, communication environment, games that form communicative competence, creating a real language environment, effectiveness of training, perceptive skills, receptive skills

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ КОММУНИКАТИВНОГО МЕТОДА

Аннотация

Коммуникативный подход к обучению английскому языку сегодня является наиболее важным и широко используемым в различных учебных заведениях, поскольку данный подход является тем коммуникативным методом, который лучше всего развивает умение бегло общаться и позволяет учащимся практиковать разговорную речь в реальной языковой среде. В этой статье кратко рассматриваются способы повышения эффективности занятий английским языком посредством коммуникативного подхода. Исследователь обнаружил, что способности учащихся значительно улучшились после обучения с использованием коммуникативного подхода к обучению.

Ключевые слова: Коммуникативный подход, коммуникативные навыки, среда общения, игры, формирующие коммуникативную компетентность, создание реальной языковой среды, эффективность обучения, перцептивные навыки, рецептивные умения.

KOMMUNIKATIV METOD ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ingliz tilini o‘qitishning kommunikativ yondashuvi hozirgi kunda eng muhim va turli ta’lim muassasalarida keng qo‘llaniladi, chunki aynan ushbu yondashuv ravon muloqot qilish qobiliyatini eng yaxshi rivojlantiradigan, o‘quvchilarga haqiqiy til muhitida gapirishni mashq qilish imkonini beradigan kommunikativ usuldir. Ushbu maqolada kommunikativ yondashuv orqali ingliz tili darslarining samaradorligini oshirish yo‘llari qisqacha muhokama qilinadi. Tadqiqotchi o‘qitishning kommunikativ yondashuvidan foydalangan holda o‘qitilgandan so‘ng o‘quvchilarning qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanganini aniqladi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ yondashuv, muloqot ko‘nikmasi, muloqot muhiti, kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi o‘yinlar, haqiqiy til muhitini yaratish, mashg‘ulotlar samaradorligi, perseptiv ko‘nikma, retseptiv ko‘nikma

Kirish. O‘qish, tinglash, yozish va gapirish ingliz tilidagi asosiy til ko‘nikmasidir. Harmer o‘qish va tinglashni perseptiv ko‘nikma, gapirish va yozishni esa retseptiv ko‘nikma ekanligini ta’kidlaydi. Xorijiy tilni egallash ushbu to‘rt ko‘nikmani egallashni nazarda tutadi. Muloqot ko‘nikmasi til o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi chunki aynan ushbu ko‘nikma talabalarga muloqot qobiliyatlarini amalda qo‘llash imkonini beradi. O‘quvchilar orasida mazmunli muloqot muhitini yaratish aynan ushbu ko‘nikmani takomillashtirishda muhim hisoblangan materiallar tanlanishini taqozo etadi. Richardz materiallar xoh ta’lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan, xoh o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan bo‘lishiga qaramay, til o‘rganishda muhim element deb hisoblanishini ta’kidlaydi. Ushbu materiallarning barchasi o‘quvchilarga ta’lim jarayonida o‘tkaziladigan til amaliyoti uchun asos yaratishdan iborat[1].

Shifrin ta’lim jarayonida materiallardan oqilona foydalanish haqida fikr yuritar ekan, an’anaviy kitoblar ko‘p hollarda o‘rganilayotgan tilning mazmunini yetarli darajada ochib bermasligini va o‘quvchilarga yetarli kommunikativ bilimlarni bera olmasligini ta’kidlaydi[2].

Adabiyotlar tahlili. Svafer va Vlatenlarning fikricha, ta’lim jarayonida video materiallardan foydalanish talabalarni haqiqiy muhitga jalb qilgan holda, ularni ushbu jarayondagi autentik ovoz va turli til dialektlarini his qilish imkonini beradi[3].

Bizning kuzatishimizcha, dars jarayonlarida audio-vizual materiallardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini yaxshilabgina qolmasdan, balki ularning tasavvurini boyitib, dars jarayonini qiziqarli tashkillash-tirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yaponiyalik olim Abe guruhda ishlash va individual rivojlanish, turli muhokamalar va taqdimotlar kommunikativ yondashuv qo‘llaniladigan ta’lim jarayonlarida foydali ekanligini ta’kidlaydi[4]. Bizning fikrimizcha, talabalar orasida ingliz tilidan doimiy ravishda foydalanish ularning nutqini yaxshilaydi, ammo ma’lum darajada noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ingliz tilini o‘qitishda guruhda ishlash va talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtiruvchi turli faoliyat turlarining samarali usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Djeyasala o‘qituvchi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini doimo qo‘llab-quvvatlashi, ularni insonlar bilan bog‘lanish va o‘rganilayotgan tildan foydalanish qobiliyatini yaxshilaydigan nutq faoliyatiga jalb qilish imkoniyatini berishi lozimligini aytadi[5].

Muslim, Mustafo, Usmon va Rahmon videokliplar yordamida talabalarning nutq qobiliyatlari yaxshilanishini aniqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazishdi. Talabalarga ushbu tadqiqot uchun oldingi va keyingi testlar berildi. O‘quvchilar kichik guruhlarda va mustaqil ravishda ishlaydigan yosh o‘quvchilar edi. Tadqiqotgacha bo‘lgan va undan keyingi test natijalarini baholab, taqqoslab, tadqiqotchilar shunday xulosaga keldilarki, videokliplar o‘quvchilarning individual nutqiy ko‘nikmalarini oshirishdan ko‘ra o‘quvchilarning guruh ishlarida nutq qobiliyatlarini yaxshilashga yordam bergan. Ushbu tadqiqot ishiga tayangan holda mualliflar filmlarni sekinlashtirish va filmning asosiy qismlarini takrorlash kabi strategiyalardan foydalangan holda kichik guruh mashqlariga videokliplarni qo‘shishni tavsiya qiladilar[6].

Tadqiqotlar metodologiyasi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonidagi chet tillarini o‘zlashtirishda darslarda haqiqiy til muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi. O‘qitishning kommunikativ metodlarini ta’lim jarayonlariga qo‘llashda o‘qituvchilar o‘rganilayotgan xorijiy tilda muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘ladigan mashg‘ulotlarni tanlaydilar. Kommunikativ yondashuvda grammatika, o‘qish, yozish mashqlaridan farqli o‘laroq, ko‘proq og‘zaki faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular faol va ijodiy suhbat va talabaga oldindan ma’lum bo‘lmagan javoblarni o‘z ichiga oladi. Darslar talabalarning til bilish darajasiga qarab farqlanadi. Ushbu yondashuv asosida tashkillashtirilgan mashg‘ulotlar o‘zaro hamkorlik, ravonlik va qulaylikni targ‘ib qiladi. Mishel Rozamondning so‘zlariga ko‘ra, quyida sanab o‘tilgan 6 ta faoliyat turlari kommunikativ metodlar asosida tashkillashtirilgan mashg‘ulotlarda qo‘llaniladi[7]:

Rolli o‘yinlar (role-play) – o‘quvchilar qisqa vaqt mobaynida o‘zlarini xayoliy vaziyatlarda sinab ko‘radilar

Intervyu(Interviews) - savol va javoblardan tashkil topgan muloqot jarayoni

Jamoada ishlash (group work) – vazifa ustida birgalikda ishlash

Axborot bo‘shlig‘i (information gap) – o‘quvchilar ma’lum vazifani bajarish uchun barcha kerakli ma’lumotga ega bo‘lmagan faoliyat turi bo‘lib, ushbu ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun o‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishlari lozim

Fikr almashish (opinion sharing) – fikr-mulohaza almashish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turi

“Scavenger hunt” – ushbu o‘yin turi talabalarning muammoni yechish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi chunki jamoalar turli buyumlarning joylashuvini o‘rganish uchun jumboqlar, topishmoqlar va kodlarni yechish uchun raqobatlashishadi.

Kommunikativ yondashuv orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari Sakarkaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, talabalar juftlik yoki guruhda ishlaganlarida nutq qobiliyatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, o‘quvchilar o‘zlarini dadil, qulay va erkin his qiladilar, xato qilishdan qo‘rqmasdan o‘z fiklarini erkin bayon eta oladilar, xatolarni tuzatish guruh talabalari orasida amalga oshiriladi[8].

Ingliz tili darslarida turli o‘yinlardan foydalanishdan asosiy maqsad talabalarning turli ko‘nikmalarini, ayniqsa ularning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishdir. Quyida turli manbalarda nashr etilgan sakkiz turdagi o‘yinlar haqida qisqacha ma’lumot berdik[9,10,11,12,13,14].

Endryu Rayt, Devid Beterij va Maykl Bakbilar “o‘yin” so‘zini izohlashar ekan, til o‘rganish murakkab jarayon ekanligini, o‘rganilgan gapirish va yozish ko‘nikmalarini amalda qo‘llash lozimligini aytadilar. Bu uzoq muddatli jarayon bo‘lib, ko‘p harakat talab qilishini ta’kidlaydilar. O‘yinlar esa ushbu jarayonning qiziqarli bo‘lishini ta’minlab, ilm olishni rag‘batlantiradi deb hisoblaydilar[18]. Ular o‘yinlar o‘qitishning barcha bosqichlarida va ko‘plab muloqot turlarida barcha ko‘nikma turlarini birday shakllantirishini va talabalar til o‘yinlarini o‘ynashda barcha o‘yin qoidalarini yaxshi tushunishlari lozimligini aytadilar. Demak, talabalar til o‘yinlari orqali yozish, o‘qish, gapirish va eshitish qobiliyatlarini birday yaxshilaydilar va, ayniqsa, an’anaviy metodlarda ko‘p ahamiyat berilmagan gapirish va tinglash ko‘nikmalarini ko‘proq mashq qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Guessing game( ) – Ushbu o‘yinning asosiy maqsadi juda oddiy: bir o‘quvchi bilgan ma’lumotni boshqa bir o‘quvchi topishga harakat qiladi. Taxminiy farazlar asosida topiladigan so‘z turlicha bo‘lishi mumkin, bu so‘z, ob’ekt, joy nomi yoki faoliyat turi bo‘lishi mumkin. Bu o‘yin turi talabalarni mantiqan fikrlash va savollar berish ko‘nikmalarini shakllantirishda xizmat qiladi. O‘yinda quyidagi kabi turli savollar berilishi mumkin:

What goes up and down but can’t move? (Nima tepaga chiqadi va tushadi ammo qimirlamaydi?) Zinapoya

What goes up but never down? (Nima doimo tepaga chiqadi ammo hech qachon pastga tushmaydi?) Yosh

What has one eye but can’t see anything at all? (Nimaning ko‘zi bor ammo hech narsani ko‘ra olmaydi?) Igna

The capital of this country is Tashkent and it is situated in Central Asia. (Bu mamlakatning poytaxti Toshkent va u Markaziy Osiyoda joylashgan)-O‘zbekiston

Rasmli o‘yinlar (picture games)-rasmli o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

Rasmlardagi farqli va o‘xshashlik xususiyatlarini inobatga olish;

Rasmlar orasidagi ketma-ketlikni, masalan hikoya ketma-ketligini inobatga olish;

Ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari ma’lumotga ega bo‘lishlari va topa olishlari uchun rasmning asosiy xususiyatlarini tasvirlash;

Berilgan rasm bo‘yicha hikoya tuzish;

Ushbu rasmli o‘yinlarning aksariyati o‘quvchilarni tildan nisbatan erkin foydalanishlarini osonlashtiradi va shu bilan birga, ularga gapirish va tinglash imkonini beradi.

Ovozli o‘yinlar (Sound games)-ovozli effektlar tinglovchilar ongida odamlar, joylar va harakatlar haqida tasavvur qoldiradi. Tinglovchidan o‘z tasavvurini qo‘llay olish talab etiladi. Bu esa ularning individual talqin etish salohiyatlarini boyitishga sabab bo‘ladi, ya’ni tinglovchilar o‘z nuqtai-nazarlarini almashishlari, fikr va g‘oyalarni ifoda etishlari rag‘batlantiriladi. Bunday o‘yinlar talabalarning tasavvur va tafakkurini boyitishi, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. Talabalar tovush orqali ifodalangan ob’ektni taxmin qilishlari yoki dialog, hikoya tuzishlari mumkin bo‘ladi.

Mimikaga asoslangan o‘yinlar (Mime games)-Mimika juftliklar, guruh va hatto butun sinf tomonidan bajarilishi mumkin. Birinchi guruh ma’lum harakatlarni amalga oshiradi, ikkinchi guruh esa ularni topadi. Bu buyum, harakat yoki inson bo‘lishi mumkin. Mimikaga asoslangan o‘yinlar til o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bunday o‘yin turlarida mimika ortida yashiringan so‘zni topishga intilishadi va buni haqiqiy kommunikativ jarayon deb atash mumkin. Ushbu jarayon talabalarning kuzatuv qobiliyatlari va improvizatsiya ko‘nikmalarini yaxshilaydi.

Masalan, juda qattiq shamollab, betob bo‘lib qolgan bemor shifokor huzuriga kelib, o‘zini qanday his qilayotganini tushuntirishga harakat qiladi. Tomog‘idagi kuchli og‘riq sababli u vaziyatni mimika asosida ifodalaydi. Shifokor esa bemorning holatini anglash uchun unga turli savollar beradi. Shifokor o‘z ishini tugatmaguncha jarayon davom etadi. Bu turdagi o‘yinlar juftliklarda yoxud guruhlarda tashkil etilishi mumkin.

Faktlarni aniqlash o‘yinlari (Fact-finding games)-bu o‘yinlar asosan umumiy bilimlar bilan bog‘liq bo‘lib, amaliy

mashq bo‘lib hisoblanadi. Har kuni yer yuzida ma’lum bir muhim voqea ro‘y berishini inobatga olsak, talabalardan sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni ingliz tilida so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday xabarlar sirasiga jahon hamjamiyatida ro‘y berayotgan iqtisodiy va siyosiy yangiliklar, sport yangiliklari, mashhur insonlar hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar, turli filmlarga doir qiziqarli ma’lumotlarni kiritish mumkin.

Who are the main heroes in Titanic? (Titanik filmining bosh qahramonlari kimlar?) Leonardo Dicaprio and Kate Winslet are the main heroes in Titanic

Who was the king of football in 2022? Lionel Messi was the king of football in 2022

Bunday savollar aynan shu kabi mashhur insonlar tug‘ilgan kunlari sanasida berilishi mashg‘ulotlarning samaradorligini ta’minlaydi. Talabalardan ushbu insonlar hayotiga doir yana qanday ma’lumotga ega ekanliklarini so‘rash, ularning tipik rasmlarini chizish, tashqi qiyofasi va xarakterlarini tasvirlash mashg‘ulotlari berilishi mumkin. Mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi o‘quvchilardan nega bu filmlar mashhurlikka erishganligi va nega qahramonlar insonlar qalbidan joy olganligini so‘rashlari mumkin. Demak, bu kabi o‘yinlar juftlik va guruhlarda tashkil etilishi mumkin.

Muhokamalar (Debates)-bu o‘yin turida ma’lum bir mavzu tanlanadi va talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga ushbu mavzuning afzalliklari, ikkinchi guruhga esa noafzal jihatlarini yoritish topshirig‘i beriladi. Har ikkala guruh o‘z ma’lumotlari asosida bahslashadilar. Ushbu faoliyat turining maqsadi talabalarni suhbat jarayoniga jalb qilish, ularning qiziqishlari va raqobatruhini rag‘batlantirishdir. Bu mashg‘ulot turi talabalarning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqotirmali o‘yinlar (Jigsaw games)-Boshqotirmali o‘yinlarni bajarishda talabalar hamkorlikda ishlashlari talab etiladi. Hikoya, rasmlar, turli tekstlar, boshqotirmalar ushbu o‘yin turlari sirasiga kiradi. Muammoning yechimini topishda guruhda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘yinlar orqali talabalar hamkorlikda ishlash va bir-birlarini tinglash qobiliyatlarini shakllantirishadi.

Rabea Ali boshqotirmali o‘yinlar bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar o‘quvchilarning ingliz tilini bilish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini aytadi[19]. Meyers boshqotirmali o‘yinlarning ta’lim jarayonida ko‘plab afzalliliklari mavjudligini ta’kidlaydi[20].

Rolli o‘yinlar (Role plays)-Rolli o‘yinlar odatda qisqa sahnalardan iborat bo‘lib, talabalar o‘zlarini xayoliy vaziyatlarda sinab ko‘rishadi. Bunday o‘yinlar kundalik vaziyatlar yoki dolzarb masalalar xususida amalga oshirilishi mumkin va ular odatda matnlar asosida sahnalashtiriladi. Talalabalar matnlarni o‘rgangach, uni ijro etishlari mumkin bo‘ladi. Bu turdagi o‘yinlar talabalarning og‘zaki nutqini yaxshilaydi va mavzuni oson usulda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari rolli o‘yinlar talabalarning ta’lim jarayonida erkin fikr bildirish va autentik vaziyatlarga tayyorlik darajasini oshiradi.

Tahlil va natijalar

Ta’lim jarayonlarida til o‘yinlarinig samaradorligi bo‘yicha amalga oshirilgan turli ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganib chiqish mobaynida, biz ushbu o‘yinlardan ta’lim jarayonlarida foydalanishda o‘qituvchilar uchun ahamiyatga molik bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni taklif qildik:

Vaqt-o‘yinlarga ajratilgan o‘qitish vaqti individual o‘qitish mazmuniga bog‘liqligini inobatga olgan holda, to‘liq o‘qitish jarayonini qamrab olmasligi muhim va til o‘yinlari dars mobaynida test jarayonlaridan so‘ng taranglikni bartaraf etish, ularning diqqatini ma’lum mavzuga jalb etish orqali talabalarni rag‘batlantiruvchi omil sifatida foydalanilishi joiz.

Tanlov-turli rang-barang o‘yinlar mavjudligini inobatga olgan holda o‘qituvchilar o‘z dars jarayoniga aynan qaysi o‘yin mos kelishini aniqlashda turli omillarni inobatga olishlari muhim hisoblanadi:

A) Talabalarning til bilish darajasi

B) O‘yinning asosiy maqsadi

V) O‘quvchilarning qiziqishlari

G) O‘yindan foydalanishning qulay vaqtini topa olish

D)O‘yinda foydalaniladigan vositalarning mavjudligini inobatga olish

Tayyorgarlik-til o‘yinlari turli zavq ulashuvchi faoliyat turidir ammo ular puxta tayyorgarlikni va tashkilotchilikni talab qiladi. Avvalo, o‘qituvchi ta’lim mazmuniga mos bo‘lgan o‘yin turini tanlashi lozim. So‘ngra zarur imkoniyatlar mavjudligi inobatga olinishi darkor. O‘qituvchi tomonidan o‘yin rejasi tuzilishi va talabalarga kerakli ko‘rsatmalar berilishi o‘ta muhim hisoblanadi. O‘yinni samarali tashkil eta olish o‘qituvchi individual qobiliyati va tashkilotchiligi bilan chambarchas bog‘liq.

Menejment - O‘yinni tashkil etish imkon qadar tez va muammosiz amalga oshirilishi uchun o‘qituvchi talabalar va ta’lim xonasini oldinroq shay holatga keltirishi lozim. Juftlik va guruh ishlarini rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir chunki bu talabalar faolligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalarning hamkorlikdagi faoliyati o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinishi va faol bo‘lmagan o‘quvchilar rag‘batlantirilishi muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Yuqorida berilgan ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, ingliz tilini til o‘yinlari orqali o‘rgatish va o‘rganish talabalarning muloqot qobiliyatini oshirishda samarali tizim hisoblanadi. Ingliz tilini o‘qitishning an’anaviy metodlarida esa talabalar o‘z o‘qituvchilarini tinglagancha, ingliz tilidagi so‘zlar va grammatik qoidalarni eslab qolishga harakat qilishadi. O‘qitishning kommunikativ metodlari asosida tashkil etilgan dars jarayonlarida talabalar turli kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi o‘yinlar, mashqlar orqali haqiqiy til muhitida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularga tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishi, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishi, rivojlantirishi va shu bilan birga, ular gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini mashq qilish uchun ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. McGrath, I. (2013). Teaching materials and the roles of EFL / ESL teacher: Practice and theory. The value of materials, New York: Bloomsbury Academic, 2013
2. Peacock, M. (1997) The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners ELT Journal, 51(2), 144-156. https://doi.org/10.1093/elt/51.2.144
3. Salaberry, R. (2001). The use of Technology for Second Language Learning and Teaching: A Retrospective. Modern Language Journal, 85(1), 39-56. https://doi.org/10.1111/0026-7902.00096
4. Abe, E. (2013). Communicative language teaching in Japan: Current practices and future prospects: Investigating students' experiences of current communicative approaches to English language teaching in
5. schools in Japan. English Today, 29(2), 46-53. https://doi.org/10.1017/S0266078413000163
6. Jeyasala, V. R. (2014). A prelude to practice: Interactive activities for effective communication in English. Alternative pedagogies in the English language & communication classroom, 164-170.

7. Muslem, A., Mustafa, F., & Rahman, A. (2017). The application of video clips with small group and individual activities to improve young learners' speaking performance. Teaching English with Technology, 17, 25-37.
8. Mitchell Rosamond (1988). Communicative language learning in practice. United Kingdom: Clearing House for Language Teaching and Research. Page 23-24, 64-68. ISBN 978-0948003875.
9. Sakarkaya, V. (2013). 12 Pair and group work activities: Keep them or leave them?. Teacher-researchers in acTion,163
10. Carrier, Michael. (1980). Take 5 Games and Activities for the Language Learner. Edinburgh: Nelson ‘s Company.
11. Ellis, Rod. (1986). Understanding Second Language Acquisition. Oxford: Oxford University Press
12. Harmer J. (1985). The Practice of English Language Teaching. New York: Longman.
13. Kallsen, Loren J. (1987). Advanced Communication Games. Edinburgh: Nelson's Company
14. Klippel, Fredric. (1984). Keep Talking. Cambridge: Cambridge University Press.
15. MaCallum, G. P. (1980). 101 Word Games. Oxford: Oxford University Press.
16. Porter-Ladousse, G. (1987). Role Play. Oxford: Oxford University Press
17. Stern, H.H. (2002). Fundamental Concepts of Language Teaching. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press
18. Willis, J. (1982). Teaching English Through English: A Course in Classroom Language and Techniques (Handbooks for Language Teachers). London: Longman.
19. Andrew Wright, David Betteridge, Michael Buckby, Games for Language Learning, third Edition, Cambridge University Press, p. 1
20. Rabea Ali, The Role of Jigsaw IV based on WhatsApp in Enhancing English Vocabulary among EFL Major Students, p. 9-13
21. Meyers, S. A. (1997). Increasing student participation and productivity in small-group activities for psychology classes. Teaching of Psychology, 24 (4), 105-115.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:621.3.049.77, 004(075.8)

Azamat BADALOV,
Gulistan State University, 1st stage basic doctoral student
E-mail: azamatbadalov92@gmail.com

Reviewer: D.B. Abduraimov Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

MAKTAB INFORMATIKA DARSLIGIDAGI DASTURLASH ASOSLARINI O‘QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Bugungi axborotlashgan jamiyatda uzluksiz talimning umumiy oo‘rta talim maktablaridainformatika fanining dasturlash asoslari kursini o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqish talim sohasidagi dolzarb muammo hisoblanadi.Ushbu maqolada umumiy o‘rta talim maktablari o‘quvchilarini maktab informatika darsligidagi dasturlash asoslarini o‘qitish metodikasining nazariy asoslarini o‘rgatish, o‘qitishning klassik talimdan keyingi postnoklassik muhit talablariga mos darajaga olib chiqish muammolari ko‘rib o‘tiladi.Shuningdek, zamonaviy informatika va axborot texnologiyalari darsliklari qanday bo‘lishi haqida nazariy bilimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompyuter, axborot, algoritm, model, dizayn, dastur, darslik, sivilizatsiya, faoliyat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ОСНОВАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В ШКОЛЬНОМ ИТ-КЛАССЕ

Аннотация

В современном информационном обществе вывод преподавания основ программирования информатики на новый уровень в общеобразовательных школах непрерывного образования является актуальной проблемой в сфере образования. преподавание основ программирования по школьному учебнику информатики в соответствии с требованиями постнеклассической среды после классического образования.Рассмотрены проблемы доведения до уровня.Также даются теоретические знания о том, что такое современные учебники по информатике и информационным технологиям. должно быть.

Ключевые слова: Компьютер, информация, алгоритм, модель, конструкция, программа, учебник, цивилизация, деятельность.

THEORETICAL BASIS OF THE METHODOLOGY OF TEACHING FUNDAMENTALS OF PROGRAMMING IN THE SCHOOL IT CLASSROOM

Annotation

In the modern information society, bringing the teaching of the basics of computer science programming to a new level in secondary schools of continuing education is an urgent problem in the field of education. teaching the basics of programming using a school textbook on computer science in accordance with the requirements of the post-classical environment after classical education. The problems of bringing it to the level are considered. Theoretical knowledge is also given about what modern textbooks on computer science and information technology are. there should be.

Key words: Computer, information, algorithm, model, design, program, textbook, civilization, activity.

Statement of the problem. Information technology is getting more and more into human life every day. Today, even the most ancient professions require computer programs and various information technology technologies. In this regard, the development of programming languages in computer science textbooks was introduced in schools, because children learn much easier and faster than adults. Besides, almost all modern schoolchildren have access to a computer at home. have, they are happy to improve their knowledge after school. In the era of rapid information updating, the issue of quality of education, the latest innovations of education, enrichment with technical tools and technologies, integration of education with modern development is of great importance in every higher education institution. That's why today technical higher education institutions are making high demands on the quality of training of personnel who have the necessary knowledge in the field of their professional activity and can use it collectively. These requirements, in turn, require the development of the introduction of electronic learning tools in the educational process of future engineers in the process of integration of our country into the world economic system, and the process of our national personnel entering the world labor market.

The decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 6, 2020 No. PD-4851 "On measures to further improve the education system in the field of information technologies, develop scientific research and integrate them with the IT industry" stipulates the following: "Improving the system of training personnel in the field of information technologies" Digital Uzbekistan — 2030" is one of the important conditions for the successful implementation of the strategy, the development of digital technologies and ensuring their widespread introduction into the daily life of the population.

Measures taken to improve the efficiency of the system of professional training and retraining in the field of information technologies create a solid foundation for providing state bodies and network organizations with qualified IT specialists.

At the current stage, the technologicalization of intellectual activity is being carried out. Information technologies based on computer technologies are able to

implement intelligent procedures: computer-aided design, computer modeling, financial and economic activities, multilingual translation, various types of diagnostics, educational systems, data search, sorting, etc. This is the fourth stage, which is related to the study and production of technical tools, methods, and technologies that ensure the growth of new knowledge. Many new directions of theory and practice have appeared, as well as human activities related to the processes of information change.

The educational and developmental goal of teaching programming languages in the computer science textbook at school is to provide each student with the initial fundamental knowledge, including ideas about the basics of computer science, including the ideas about the processes of changing, transferring and using information, and on this basis, to teach students the importance of information processes in the formation of a modern scientific picture of the world, as well as modern determines the role of information technology and computing in the development of technologies.

Studying the basics of programming course in the computer science textbook at school is designed to equip students with the basic skills necessary for continuous and conscious mastering of this knowledge, as well as the basics of other subjects studied at school. intended to have a significant impact on the formation of personality traits, such as the development of thinking and creative abilities. The practical purpose of the programming basics course in the textbook is to contribute to the intellectual and logical (logical) preparation of students, that is, to develop them with knowledge, skills and abilities that will ensure preparation for work after graduation.

This means that the computer science and information technology course at school should not only introduce the basic concepts of computer science, which certainly develop the mind and enrich the inner world of the child, but also be practically oriented - teaching the student to work with a computer and use new information technology tools. Vocational orientation For computer science courses should provide students with information about the professions directly related to computers and computer science, as well as the various applications of subjects studied in school using computers.

In addition to the production side of the issue, the practical goals of teaching the basics of programming in informatics also include the "everyday" aspect - preparing young people for the rational use of computer technologies and other information and communication technologies in everyday life.

The educational goal of the school computer science programming fundamentals course is primarily provided by the strong influence of the worldview of students, which has an awareness of the possibilities and role of computing technologies and information technology tools in the development of society and civilization. The contribution of the school computer computer science programming fundamentals course to the scientific worldview of schoolchildren is It is determined by the formation of the idea of \u200b\u200binformation, which is one of the three main concepts: the world of matter, energy and information, which is the basis of the modern scientific structure. In addition, when learning the programming fundamentals course at a qualitatively new level, a culture of intellectual work is formed and the ability to plan one’s work, to do it rationally, to implement it important universal features such as critical connection with the real process are formed.

Studying the fundamentals of programming in computer science, in particular, mathematical models, algorithms and programming, their implementation on a computer, requires mental and volitional efforts from students, concentration, consistency and advanced imagination, which should contribute to the development of such valuable personality traits as determination. and purposefulness, creative activity and independence, responsibility and hard work, discipline and critical thinking, the ability to argue with one’s views and beliefs. The subject of the school's computer science programming basics course, like no other, sets special requirements for clarity and conciseness of thinking and action, because logical thinking, modeling accuracy of programming is an integral part of working with a computer.

The scope of students' interest in the course of programming fundamentals is primarily the structure and general characteristics of information, as well as issues related to the processes of searching, collecting, storing, changing, transmitting and using information in various areas of human activity. Without modeling and algorithms, it is impossible to create programs with excellent capabilities. therefore, programming languages are the main core and material base of computers, modern information and communication technologies. The school's computer science programming basics course cannot include all the diverse information that makes up the content of the actively developing science of computer science and information technology. At the same time, general education informatics and information technologies that perform their functions should reflect the most important, basic concepts and information that reveal the essence of science and equip students with the knowledge and skills necessary to learn the basics of other sciences. The school is tasked with preparing young people for future practical activities and life in a modern information society.

Experimental results. The educational and developmental goal of teaching the computer science programming fundamentals course at school is to provide each student with the initial fundamental knowledge, including ideas about the fundamentals of programming, including the ideas about the processes of learning, changing, processing and using information, and on this basis, to give students an initial understanding of modern programming languages of the world. the importance of programming languages in the formation of knowledge, as well as the role of information technology and computing in the development of modern technologies. The study of the section on the basics of programming in the school textbook is also intended to equip students with the basic skills and abilities necessary for the continuous and conscious acquisition of this knowledge, as well as the basics of other subjects studied at school. Informatics assimilation of knowledge in the field, as well as the acquisition of relevant skills and qualifications, is intended to have a significant impact on the formation of personality traits such as the general mental development of students, the development of their thinking and creative abilities.

The practical purpose of the programming fundamentals course in school textbooks is to contribute to students' readiness to learn programming languages and create programs, that is, to equip them with knowledge, skills and abilities that will prepare them for their post-school activities. must get acquainted with the basic concepts, they certainly develop logical ability and enrich the student's thinking, but are also practically oriented - teaching the student to work independently on a computer and use new information technology tools. occupations, and should also provide information on the various applications of computer-based subjects taught in educational institutions.

The educational purpose of the school informatics course is provided, first of all, by the strong influence of the worldview of students, which has an awareness of the possibilities and role of computing technologies and information technology tools in the development of society and civilization. The contribution of the school informatics course to the scientific worldview of schoolchildren is

determined by the formation of the idea of information, which is one of the three main concepts of science: matter, energy and information, which are the basis of the modern scientific structure, pictures of the world. In addition, when learning computer science at a qualitatively new level, intellectual work culture is formed and important universal features such as planning one’s work, doing it rationally, and critically connecting with the real process of its implementation are formed.

Summary. In short, modern electronic educational tools are new didactics, such as teaching events and processes in the micro and macro world, complex devices and biological systems based on the use of computer graphics and modeling, presenting physical, chemical and biological processes that occur at a very high or very low speed in a convenient time scale. helps to solve problems. The organization of educational activities in such a way that students have to count with a set of everyday subjects and a set of tasks given for them causes many problems. In this case, students cannot fully focus on any subject. Studying the basics of programming in computer science, in particular, creating algorithms and programs, implementing them on a computer, requires mental and volitional efforts from students, concentration, consistency and developed imagination. should contribute to the development of such valuable personality traits.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No. PD-5712 dated 29.04.2019, on approval of the concept of development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030.
2. On measures to further improve the education system in the field of information technologies, develop scientific research and integrate them with the IT industry, Decision of the President of the Republic of Uzbekistan, No. PD-4851 dated 06.10.2020.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2019 No. PD 4947 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan".
4. Decree No. PD-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030".
5. Decree No. PD-5812 of the President of the Republic of Uzbekistan on September 6, 2019 "On additional measures to further improve the professional education system".
6. Decision No. PD-4851 of the President of the Republic of Uzbekistan of October 6, 2020 "On measures to further improve the educational system in the field of information technology, develop scientific research and integrate it with the IT industry".
7. Р.Ҳамдамов, У.Бегимқулов, Н.Тайлоқов. (2010). Таьлимда ахборот технологиялари. Олий таьлим муассасалари учун ўқув қўлланма. ЎзМЭ давлат илмий нашриѐти, 120 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Shoxina BAXADIROVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti erkin tadqiqotchisi
E-mail: shoxida@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

USING INTERACTIVE METHODS IN ONLINE LESSONS IN DEVELOPING ENGLISH SPEAKING SKILLS

Annotation

In this article, one of the main directions in the field of improving educational methods today is the introduction of interactive education and training methods, the student's work with evidence, rules, schemes, tables, examples of verbs according to the level of thinking: diagnose, prove, concepts such as measuring, controlling, justifying, approving, evaluating, checking, comparing, comparing are discussed. At the same time, if the age, psychological characteristics, level of worldview, and life experiences of students are taken into account when using interactive interactive methods, the effectiveness of the lesson will increase, which will allow teachers to acquire professional skills, competence, knowledge, sensitivity and intuition. will be considered.

Key words: Interactive learning, competence, knowledge, debate, independent thinking, taxonomy, thinking, subject, logic.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ОНЛАЙН-УРОКАХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье одним из основных направлений в области совершенствования методов обучения сегодня является внедрение интерактивных методов обучения и обучения, работа обучающегося с доказательствами, правилами, схемами, таблицами, примерами глаголов по уровню мышления: диагностировать, доказывают, обсуждаются такие понятия, как измерение, контроль, обоснование, одобрение, оценка, проверка, сравнение, сопоставление. При этом, если при использовании интерактивных интерактивных методов учитывать возраст, психологические особенности, уровень мировоззрения, жизненный опыт учащихся, то эффективность урока повысится, что позволит педагогам приобрести профессиональные навыки, компетентность, знания, чувствительность и интуиция будут учитываться.

Ключевые слова: Интерактивное обучение, компетентность, знания, дискуссия, самостоятельное мышление, таксономия, мышление, предмет, логика.

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN ONLAYN DARSLARDA FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilish, o‘quvchining dalillar, qoidalar, sxemalar, jadvallar bilan ishlashlari, tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash kabi tushunchalar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shu bilan birga interfaol interfaol metodlarni qo‘llashda o‘quvchilarning yesh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshishi, bu esa o‘qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Interfaol ta’lim, malaka, bilimdonlik, bahs-munozara, mustaqil fikrlash, taksonomiya, tafakkur, sub’ekt, mantiq.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillardanoq ta’lim-tarbiya sohasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida mamlakatimizda bu sohada juda ulkan ishlar amalga oshirildi va bugungi kunda ham jadal davom ettirilmoqda. O‘qitishning interfaol metodlarini ta’lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘qituvchi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to‘la auditoriyaga katta hajmdagi bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. O‘tkazilgan ko‘pgina tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, o‘qitishga yangicha qarash, talabalarni o‘qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Oddiy so‘z bilan aytganda, talabalar o‘quv jarayoniga faol jalb qilingandagina berilayotgan materiallarni oson idrok etadi, tushunadi va eslab qoladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi. «Interfaol» tushunchasi ingliz tilidagi «interact»(rus tilida «interaktiv») so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy nuqtai nazardan «inter» – o‘zaro, ikki taraflama, «act» – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi [1].

Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

Interfaollik – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va

bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:

An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (tinglovchi va kursant) larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda (ruxsat etilganidagina) so‘zlashdan iboratdir.

Eng muhimi, interfaol ta’lim va tarbiyani qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi hamda o‘quvchilarni ushbu yo‘nalishlarga yo‘naltiradi [2]:

guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlashlari;

tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilishlari,

bilimlarini hech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etishlari; o‘zlarini erkin tutishlari;

o‘quvchilarning muammoni hal qilishga ijodiy yondoshuvlari;

guruh yoki jamoadoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlari hamda ruhiy yaqinlikka erishishlari;

o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olishlari;

fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralab olishlari;

o‘z faoliyatini nazorat qilishlari va mustaqil baholashlari;

o‘z imkoniyatlari va o‘zlariga bo‘lgan kuchga ishonch hosil qilishlari;

turli xil vaziyatlarda harakatlanishlari va murakkab vaziyatlardan mustaqil chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari

Interfaol metodlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlasa-da, biroq ularning har biri ta’lim yoki tarbiya jarayonida samaradorlikni ta’minlashda turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi ularni qo‘llashda ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba, tinglovchi) larning yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, yanada oshadi. Bu o‘qituvchi (pedagog)dan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi. Respublikada uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi (pedagog)lardan har bir interfaol metodning mohiyati, xususiyati, qo‘llash shartlari bilan batafsil tanishib chiqish, amaliy ahamiyatini to‘g‘ri baholay olish talab qilinadi.

Natijalar. Chet tilini mukammal egallash til materiallarini qayta-qayta takrorlash asosida amalga oshiriladi, biroq bir xil mavzudagi nutq mashg‘ulotlarini yil bo‘yi har darsda takrorlash kerak emas. Har darsda bir xil mavzuda suhbatlashish o‘quvchilar qiziqishini susaytiradi. Fasllar, oylar o‘zgarganda, mamlakat hayotida yangi o‘zgarishlar bo‘lganda, bayramlar arafasidagi suhbat mavzulari ham o‘zgarib boradi.

Masalan:

At the end of the week. Is everybody present? What's the date today?

Do you like Saturday (Sunday)?

What are you going to do at the weekend? Will you go in for any sports on Sunday? What will you do if the weather is good (bad)?

Do you always (usually) do your lessons on Sunday?

On the Eve of a Holiday (or Holidays) Everyone’s present today, aren't they? What is the date today? What is the date tomorrow?

Will you come to school tomorrow? Why not? Where will you spend the holiday(s)?

What does your class (school, family) usually do during (for) the holiday(s)?

Are you going to go to the school(class) party?

What would you like to do during the holiday(s) ?

Do you like the holiday(s)? Why? What's your favorite holiday?

On the time-table. ... is absent today, I see. What has happened to...? What day of the week is it today ? Where are you from?

Xulosa va munozara. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darslarda yuqorida bayon qilingan interfaol usullardan foydalanib og‘zaki nutq mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarning tilga hamda darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortiradi. Og‘zaki nutq mashg‘uloti uchun oldingi darslarda o‘tilgan til materiallari, iboralar, nutq namunalari material sifatida olinadi, lekin mazmun notanish, yangi, qiziq ma’lumot beradigan bo‘lishi zarur.

Bu usullardan foydalanayotganda o‘quvchilarning talaffuzlari to‘g‘riligi nazorat qilib boriladi. Agar so‘z xato talaffuz qilinsa, so‘zning ma’nosi ham o‘zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar gaplar, kichik hikoyalar, dialoglar tuzib gapirib berayotgan paytda ularning talaffuzlari to‘g‘ri bo‘lishiga e’tibor qaratmog‘i lozim.

Interfaol usullardan foydalangan holda dars o‘tilsa, o‘quvchilarning tilga hamda darsga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi. O‘qituvchi yangi so‘zlar va so‘z birikmalarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarining nutq ko‘nikmalarini o‘stirishi mumkin. O‘quvchilar dars davomida yangi so‘zlarning ma’nolarini ingliz tilida bayon qilib berishlari mumkin. Yoki notanish so‘zni birinchi, uchinchi va to‘rtinchi harflarini yozib, qolgan harflarini topish topshirig‘ini berish orqali ularning so‘z boyliklarini boyitish hamda xotiralarini yaxshilash mumkin. Shu so‘zlar ishtirokida mikrodialoglar tuzilsa, o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga turtki bo‘ladi.

Turli mavzudagi suhbatlar o‘quvchilar qiziqishlarini oshirib, darslarda faol qatnashishlarini taminlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bukatov V.M. Didiktik o‘yinlarning pedagogik marosimlari. – M., 2003. –152 b.
2. Panina T.S., Vavilova L.N. Ta’limni kuchaytirishning zamonaviy usullari: Darslik. – M., 2008. – 176 b.
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Faol ta’lim: o‘quv qo‘llanma. – M., 2009. – 192 b.
4. Innovatsion ta’lim dasturlarini amalga oshirishni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash / Ed. Y.P.Zinchenko, I.A.Volodarskaya. – M., 2007 yil. – 120 s.
5. Vaziyat tahlili yoki Case usulining anatomiyasi / Ed. Y.P.Surmina. - Kiev, 2002 yil.

a. 286 b.

6. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: Darslik / Ed. N.V. Bordovskaya. – M., 2011. – 432 b.
7. Stupina S.B. Oliy ta’limda interfaol ta’lim texnologiyalari: Ta’lim metodi. nafaqa. – Saratov, 2009. – 52 b.
8. Tolipov O.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // “Maktab va hayot” zhurnalig ilov. – T., 2003. – 32 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:159.9.072.43

Zarnigor BOYMURODOVA,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: boymurodova@mail.ru

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori B.Norbekova taqrizi asosida

THE ROLE OF UNIVERSAL VALUES IN RAISING CHILDREN IN THE FAMILY

The article describes the ways of developing the spiritual worldview of young people in the family, the importance of the harmonious use of spiritual heritage and national values, the use of advanced foreign experience in this area, pedagogical factors in the formation of the spiritual worldview of students and its implementation.
Key words: Values, conscience, duty, ethical culture, ethical standards, management.

РОЛЬ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

В статье раскрываются пути развития духовного мировоззрения молодёжи в семье. значение использования взаимной совместимости духовного наследия и национальных ценностей, использование зарубежного передового опыта в данной сфере, педагогических факторов развивающих духовное мировоззрение студентов, а также аспекты их реализации в образовательном процессе
Ключевые слова: Ценность, совесть, долг, духовная культура, этические нормы, управление.

OILADA BOLALARNI TARBIYALASHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan oilada yoshlani ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish yo‘llari, ma’naviy meros va milliy qadriyatlardan o‘zaro uyg‘unlikda foydalanishning ahamiyati bu sohada ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik omillari hamda ta’lim jarayonida uni amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Qadriyat, vijdon, burch, axloqiy madaniyat, axloqiy me’yorlar, boshqaruv.

Kirish. O‘zbekiston xalqining insonparvarlik va mehr oqibatga yo‘g‘rilgan shunday

qadriyatlari borki, bu qadriyatlar bugun millat doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilib borayotganiga dunyo guvoh bo‘lmoqda. Ayni vaqtda informatsion tahdidlarni bartaraf etishda xalqimizga xos bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchi yoshlar tomonidan o‘zlashtirilishi, bu qadriyatlarga amal qilinishining ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.

Asosiy qism. Sharq xalqlari uchun esa ahil, murosada yashash bosh qadriyatdir. Inson sha’ni, obro‘-e’tibori, nafsoniyati, oniyati, vijdoni ushbu tarixiy madaniy g‘oyalar asosiga quril gan. Ma’naviy talablar esa o‘z-o‘zidan qadriyatlar qatorini to‘ldirishni, mantiqiy ravishda birining ketidan ikkinchisini qo‘yishni taqozo etadi. Ota-onaga ehtirom, aka-ukaning o‘zaro hurmati, qavmu-qarindoshlar totuvligi, qo‘ni-qo‘shnilar ahilligi axloqiy qadriyat sifatida muayyan ketma ketlikda, qadrlanish darajasiga ko‘ra, muayyan shaklda o‘rin olgan.

Jamiyatimizda yaxshilikka intilib, yomonlikdan tiyilish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. O‘quvchilarga yaxshilikning asosini tashkil etuvchi "mehr oqibat", "mehr shafqat", "qadr qimmat tushunchalarini singdirish orqali o‘zgaga yaxshilik qilish, oqibatli, shafqatli bo‘lish, har bir narsaning qadr-qimmatiga yetish kabilar shakllantirilishi lozim. Shuningdek, yaxshilik yoki yomonlikni farqlash tuyg‘usining shakllanishi jamiyatda mo‘tadil ma’naviy hamkorlik ruhiyatini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqimizning ma’naviy merosida vijdonli bo‘lish qadriyat darajasiga ko‘tarilganini ko‘ramiz. Xusayn Voiz Koshifiyning "Ahloqiy Muxsiniy asarida vijdon, diyonat, nomus lymonning inson axloqining posboni yaxshilik va yomonlikni ajratuvchi mezoni sifatida ta’riflaydi. Jumladan, Koshifiy yozadi: "Vijdoni, nomusi, diyonati bo‘lmagan kishi dunyoda bo‘lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Yomonlik qilmagan, ya’ni yaxshi odam vijdonlidir" Shunday ekan, bolalar ongiga vijdon, diyonat kabi tushunchalarni buyuk allomalarimizning fikr g‘oyalaridan o‘quv mashg‘ulotlar mazmuniga mos tarzda foydalanish orqali singdirish lozim. Vijdonli, diyonatli, insofli, nomusli inson hech qachon xalqiga, oilasiga, millatiga xiyonat qilmaydi.

Sharq mutafakkirlari ilmiy merosini o‘rganganimizda adolat, burch, or-nomusli bo‘lish kabi tushunchalarni qadriyat sifatida ko‘ramiz. Adolatning qudrati o‘zganing manfaatini ro‘yobga chiqarish, singari zulmatni yoritish, johillikka barham berish va daryo misoli yerni yashnatish, har bir ishga adolat ko‘zi bilan qarash bir so‘z bilan aytganda, haqni qaror toptirishdir.

Burch shaxs faoliyatini ifodalovchi mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘quvchi yoshlarning asosiy burchi o‘z vataniga sodiq farzand bo‘lib voyaga yetishi, kelajakda yetuk shaxs bo‘lib el-yurt ravnaqiga hissa qo‘shishi kabilar hisoblanadi. Burch bolada o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, u tarbiya jarayonida kamol topadi. Burchni tarbiyalash jarayonida o‘z-o‘ziga talabchanlik rivojlanadi. Natijada har bir kishida o‘z ishiga, bilimiga, kuch-quvvatiga ishonch qaror topadi. Inson o‘z burchini to‘la anglab yetsagina axloqiy yetuk shaxs hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oriyati baland, nomusli inson o‘z sha’ni, g‘urur va qadr-qimmatini himoya qiladi. Bu tushuncha zamirida mardlik, lafz, vafo, latofat, hayo, sha’n, iffat, andisha kabi axloqiy me’yorlar mujassamlashgan. Farzandlarimizga or-nomus tushunchalarini singdirish orqali nafsni tiyish, yomonlikni tark etish, behayolardan o‘zini olib qochish va ularga qarshi kurashish, uyalish, nomus, sha’nini saqlash, oqilalik va e’tiqodlilik, sharm-hayo, qat'iylik, mehr muruvvatlilik, insof, diyonat kabilarni shakllantiramiz.

Natijada esa bunday o‘quvchi turli yot g‘oya va informatsion tahdidlar ta’siriga o‘zini berib qo‘maydi va atrofidagilarni ham yomon yo‘l va illatlardan qaytarishga o‘zida kuch topa oladi.

Ta’kidlash lozimki, yuqorida tilga olingan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchi yoshlar ongiga ularning yoshligida boshlab uzluksiz shakllantirib borishimiz zarur. Va bunda muvaffaqiyatga erishishning eng samarali yo‘li oila-maktab-mahalla hamkorligi, birgalikda ishlash olib borishi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar o‘quvchi yoshlar ongiga chuqur singib borsa, o‘rnashsa, har qanday informatsion tahdidlar ta’siridan yiroq bo‘ladi.

Jamiyatning, ayrim shaxslarning ma’naviy madaniyati darajasi uning aqliy kamoloti bilan belgilanadi. Aqliy madaniyat jamiyat va tabiat qonun-qoidalari, hodisalar, bu hodisalarning bir-birlari bilan bog‘liqligi asosida, shuningdek insoniyat hayoti, turmush tarzi, jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni, ilmiy-nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish yaxlit idrok etish, takrorlash, tassavvur va tafakkur qilish kabi ruhiy holatlar jarayonida shakllanadi.

Ilmiy bilimlar asosida kishilarning kundalik turmushida namoyon bo‘ladigan va bo‘lishi qat'iy ma’naviy fazilatlarning mohiyati chuqur anglab yetiladi va ularga ongli ravishda amal qilinadi. Chuqur bilim, malaka, ko‘nikma ma’naviy madaniyatning barcha qirralari uchun g‘oyaviy asos hisoblanadi. Yoshlarning faol bilish foaliyati ma’naviy ong va faoliyatning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy bilim asosida yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlar, nafosat, dunyoqarash, e’tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni biri-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqiy anglash kabilar shakllanib boradi.

Har bir jamiyat avvalo o‘zi yaratgan, qabul qilgan qonun va huquqiy normalarga asoslanadi. Bu qonun va huquqiy normalarning mavjudligi har bir huquqiy davlatning turmush tarziga kiradi.

Lekin, jamiyatda kishilarning turmushi, munosabatlari, urf-odatlari, rasm rusumlarining hammasini qonun sifatida rasmiylashtirib bo‘lmaydi. Ularning ko‘pchilik qismi umumiy axloq tushunchasi bilan qamrab olinadi. Demak, axloq kishilar hatti-harakatlari, xulq-atvor normalariga qo‘yilgan umumiy talablarning yozma ravishda qonunlashtirilgan majmuasidir.

Axloq inson hayotining, jamiyat faoliyatini batomom qamrab oladi va u har qadamda kishilarning yashashidan maqsadi nima, baxt nima, huquq, haqiqat, adolat va adolatsizlik, nohaqlik, vazifa va burch nima degan yuzlab savollarga javob berishga harakat qiladi. Axloqqa zamin bo‘lib xizmat qiladigan asosiy vositalardan biri umuminsoniy va milliy qadriyatlarni bilish va ularning boyishiga xizmat qilishdan iboratdir.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o‘z axloq normalarini joriy etadi, bu normalarni shaxs ongi va xulqida shakllantirishga intiladi. Jamiyatdagi axloqiy jarayon shu jamiyatda shaxsning har tomonlama rivojlanganligining asosiy ko‘rsatgichi bo‘lib, u ayni vaqtda, madaniy taraqqiyot o‘lchovini ham bildiradi. Axloqiy madaniyat jamiyatning madaniy ehtiyojlari asosida rivojlanadi va shakllanib boradi. Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos axloq normalari bo‘lib, bir davr uchun zarur bo‘lgan axloq normalari ikkinchi bir davrning ma’naviy talabini qondirishga to‘liq xizmat qila olmaydi. Jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichida ijtimoiy-siyosiy, ijobiy-salbiy, progressiv-reaksion, ob'ektiv-sub'ektiv, ichki-tashqi, kerakli va keraksiz axloq belgilari mavjud bo‘lib, ular jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shunigdek, jamiyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyoti ham o‘quvchi axloqining rivojlanishi va shakllanishiga bevosita ta’sir etadi. Zamonaviy huquqiy davlat uchun kurashar ekanmiz, uning axloq qoidalarini aniqlash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu narsa, birinchi navbatda kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish masalalariga tegishlidir.

Tahlil va natijalar. Axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, axloqiy ishonch, axloqiy ong va faoliyat normalari, axloq qoidalari yordamida yoshlarning xulq-atvori, hatti-harakatlari o‘zaro muloqatini boshqara bilish tizimidir. Axloqiy madaniyat yoshlarning butun faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy ong bir tomondan atrofdagi axloq madaniyati ko‘rinishlarini tanqidiy qabul qilib olib sekin asta ana shu qabul qilib olingan tarkibiy qismlardan axloqiy madaniyat tuzimi va tizimini yarata boshlaydi. Ikkinchi tomondan, bu kuzatuv va qiyoslash natijasida qabul qilib olingan ayrim, bo‘lak-bo‘lak axloqqa tegishli tomonlar o‘z axloqiy madaniyati uchun oddiy qurilish materiali bo‘lib xizmat qilish bilan cheklanmaydi. Balki yoshlarni borliqqa axloqiy qoidalar,normalar nuqtai nazaridan boqishga majbur etadi. Qiyoslash natijasida yasalgan xulosa atrof borliqni axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan baholashda yangi qadam hisoblanib, bu yangi xulosa oldingi xulosalardan nima bilandir aniqroq va to‘laroq bo‘ladi. Axloqiy madaniyat hech qachon yolg‘iz o‘zi yoshlar ongi va faoliyatida shakllantirilmaydi balki ma’naviy madaniyatning boshqa qirralari bilan birgalikda, munosabatlarda o‘zligini yaxlit ravishda namoyon qiladi.

Shu bilan birga farzand tarbiyasida, milliy qadriyatlarning ham o‘rni bo‘lib, milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo‘layotgan faoliyat turlari va rasm rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo‘ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma’naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga toganoq bo‘ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma’naviyat, qadriyatlar va milliy g‘oya jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘lgan sohalaridir.

Ma’naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g‘oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma’lum davrlarida ma’naviyat va milliy g‘oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo‘lib maydonga chiqadi. Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning ilmiy nazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi. Milliy o‘zlikni anglash aynan ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, o‘z xalqining tarixi, madaniy merosini o‘rganish, bugungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma’lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Milliy ma’naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko‘rinishlari Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat: tarixiy meros va tarixiy xotira:

-madaniy yodgorliklar, qadimiy qo‘lyozmalar;
- ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari:
-san'at va milliy adabiyot;
-axloqiy fazilatlar;
-diniy qadriyatlar
-urf odat va an’ana va marosimlar
-ma’rifat, ta’lim tarbiya va hokazolar.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma’naviyati, ayniqsa, san'at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi. pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi. Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o‘rin egallaydi va

milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, jamiyatning ma’naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalq, millat yaratgan ma’naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o‘ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o‘zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g‘oyalami ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimida o‘z o‘miga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog‘liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umum e’tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o‘z-o‘zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o‘mi juda katta. O‘zbek xalqining yoshlari milliy g‘oya, qadriyatlar bilan yo‘g‘irilgan tarbiyani olishi kerak. Yoshlarmiz bugungi kunda har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishib kelmoqda. Zamonaviy taraqqiyot bizning yoshlarmiz dunyoqarashiga xam kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda albatta. Ana shunday sharoitda xam biz kattalar yoshlarning barkamol bo‘lib shakllanishiga katta e’tibor qaratib, ularning milliy qadriyatlarmizni e’zozlashlariga o‘rgatib bormog‘imiz asosiy vazifalarimizdan biridir.

Bugungi kun yoshlari milliy urf-odatlarimizning shakllarini, aniq mazmunlarini chuqur anlagan bo‘lishlari lozim. Ana shundagina kelajak avlod o‘zbek millatining qadriyatlarini, ma’naviyatini, madaniyatini saqlab qoladigan, vatanni himoya qiladigan insonlar bo‘lib yetishadilar.

Ahloqiy madaniyatning ko‘rinishlari, uning qirralari va namoyon bo‘lish shakllari mazmunan xilma-xil, insonparvarlik, xalollik, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatguylik, ma’suliyatlilik saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida aqliy, siyosiy nafosat, badiiy va boshqa madaniyat qirralari bilan hamkorlikda yoshlar ongi va xulqiga ta’sir etadi. Masalaning murakkab va o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, bu ijobiy hislatlarning har biri yoshlar ongi va faoliyatida o‘zicha, yorqinroq, kengroq, kamtarona va yuzakiroq namoyon bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan hamma yoshlarga bir xilda ma’lumot beriladi. Lekin, bu xislatlar har bir yoshda o‘ziga xos ravishda shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning o‘ziga xos shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ma’naviy manbalarning ta’sir doirasiga e’tibor berish zarur.

Shunday qilib, axloqiy belgilaming har biri yoshlarda turlicha shakllanganligi axloqiy tarbiyaning har xilligi, ruhiy jismoniy xususiyatlarning har bir yoshda o‘ziga xosligi bir biridan farq qiladigan axloqiy, ma’naviy shakllanganlik darajasini belgilaydi. Shu bois, har bir yoshning axloqiy xulq-atvori hatti-harakati, do‘stlari, jamoasi, oila va jamoatchilik o‘rtasida qay darajadaligi o‘z faoliyatini milliy, umuminsoniy axloq normalariga mos ravishda tashkil etishi ijtimoiy, guruhiy, shaxsiy, axloqiy madaniy muloqati, axloqiy ta’sir doirasi bilan o‘lchanadi. Yoshlar faoliyatinig bu qirralari esa u o‘zlashtirgan bilimlarning amaliyotga tadqiq eta bilishida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Ta’lim tarbiya jarayonida yana ko‘zda tutilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri axloqiyjarayonni boshqarish muammosidir. Jamiyatning turli sohalari siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jihatdan boshqarilishi bilan bir qatorda, ijtimoiy aspektda ham boshqariladi, nazorat etiladi. Insonparvarlik ruhidagi munosabatlarni, ijtimoiy turmush tarzini shakllan-tirishning muhim omili axloqiy jarayonni boshqarishdan iboratdir. Axloq insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun da’vat etilgan. U katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarning o‘zaro munosabatlari, o‘zaro ta’sirlari orqali ularning axloqiy rivojlanishi, boyishi, qobiliyatlarining nomoyon bo‘lishi, amaliy faoliyatlarini kuchaytirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Ismailova Zukhra, Ruzimurot Choriev, and Aynisa Musurmanova Mahfuza Arip- janova. "Methods of training of teachers of university on advanced training courses." Journal of Critical Reviews 7.5 (2020) 413-416.
2. Narbaeva, T.K, Musurmanova, A. "Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family". Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.1 (2021): 6485-6496
3. N.M.Egamberdiyeva “Ijtimoiy pedagogika” Toshkent 2009
4. V.M.Ochilova “Axloq falsafasi” Toshkent “ IJOD PRINT” 2019
5. Karabaevna Z., Xamroevich R., Musurmanova A. Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education //International Journal of Engineering and Advanced Technology. - 2019. T. 9. No. 1.-C.
6. V.M.Ochilova “Axloq falsafasi” Toshkent “IJOD-PRINT” 2019
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K., Turg‘unboyeva A.G., Arslanboyeva M.X. “Bolalar psixologiyasi va psixodinamikasi” Toshkent 2017

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK 370;1;51(007)

Olimjon DUSHABOEV,
Guliston davlat universiteti p,f,f,d (PhD)
E-mail: odushaboev@mail.ru
Juman MIRMUXAMEDOV,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: juman1956@gmail.ru
Shahnoza SHODMONQULOVA,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: shakhnoza5511@gmail.ru

GDPI dotsenti, p.f.f.d (PhD) dot., M.B.Niyozov taqrizi ostida

ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON INTERACTIVE APPROACHES TO IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

Interactive classes and tasks performed by students form the roots of interactive approaches. The main difference between interactive classes and assignments and traditional exercises and assignments is that they are aimed not only at consolidating the learned material, but also at learning new things.

Key words: pedagogical technology, educational technology, interactive approach, creative tasks, work in small groups, cooperative learning pedagogy, game teaching method, learning educational games, problem solving, educational technologies.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПОДХОДОВ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

Интерактивные занятия и задания, выполняемые студентами, составляют корни интерактивных подходов. Основное отличие интерактивных занятия и заданий от традиционных упражнений и заданий в том, что они направлены не только на закрепление изученного материала, но и на усвоение нового.

Ключевые слова: педагогическая технология, образовательная технология, интерактивный подход, творческие задания, работа в малых группах, совместное обучение педагогики, игровой метод обучения, обучающие образовательные игры, решение проблем, образовательные технологии.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTRAKTIV YONDASHUVLAR ASOSIDA DARS JARAYONINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

O‘quvchilar tomonidan bajariladigan interaktiv mashg‘ulotlar va topshiriqlar interaktiv yondoshuvlarning o‘zagi bo‘ladi. Interaktiv mashg‘ulotlar va topshiriqlarning an’anaviy mashg‘ulotlar va topshiriqlararidan asosiy farqi shundaki, ular nafaqat o‘rganilgan materialni mustahkamlashga balki yangisini o‘rganishga qaratilganligidir.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, ta’lim texnologiyasi, interaktiv yondashuv, ijodiy topshiriqlar, kichik guruhlarda ishlash, hamkorlik pedagogikasi, o‘qitishning o‘yin usuli, o‘rganuvchi ta’lim o‘yinlari, muammolar yechimi, ta’lim texnologiyalari.

Kirish. O‘qitishning o‘yin usuli chuqur tarixiy ildizlarga ega. O‘yin qanchalik ko‘p qirraligi ma’lum, u o‘qitadi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi, ijtimoiylashtiradi, o‘ynatadi va dam oldiradi. Ammo tarixan uning vazifalaridan biri – o‘qitish. O‘yin o‘zining paydo bo‘lishining birinchi paytlaridanoq o‘qitish shakli sifatida, real amaliy vaziyatlarni, ularni o‘zlashtirish maqsadida ishlab chiqarishning boshlang‘ich maktabi sifatida chiqishi shubha tug‘dirmaydi. Zarur bo‘lgan insoniy xususiyatlarni, sifatlarni, malakalarni va odatlarni, qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hali qadimgi Afinadayoq (e.a. VI-IV asrlar) tashkillashtirilgan tarbiya va o‘qitish tajribasi jo‘shqinligiga musobaqa tamoyili singib ketgan edi. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar doimo gimnastikada, raqslarda, musiqalarda, so‘z bahslarida musobaqalashib, o‘zining eng yaxshi sifatlarini charxlab olganlar. O‘sha paytdayoq harbiy o‘yinlar – manevrlar, shtab mashg‘ulotlari, “Janglar”da o‘ynashgan. X asrda maktablarda o‘qitish usullari orasida, shuningdek o‘quvchilar musobaqalari, xususan ritorika ommabop bo‘lib, qoloq o‘qitish usuli bo‘lgan. O‘qituvchi o‘qir edi, izohlash namunalarini keltirar edi, savollarga javob berar edi, bahslarni tashkillashtirar edi. O‘quvchilar xotirada eslab qolishga, qayta aytib berishga, sharhlashga, tasvirlashga, improvizatsiyalarga o‘rganar edilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arbiy Evropada Uyg‘onish va reformatsiya davrida o‘qitishning o‘yinli usullaridan foydalanishga T.Kompanella va F.Rable chaqirgan edilar. Ular bolalar qiynalmasdan va go‘yo o‘ynaganday barcha fanlar bilan tanishishini hohlar edilar. XV-XVII asrlarda Yan Amos Komenskiy (1592 - 1670) barcha “Maktablar-darajalarni”, “Maktablar-ustaxonalarni” o‘yin joylariga aylantirishga chaqirgan edi. Uning fikricha har qanday maktab universal o‘yin bo‘lishi mumkin va maktabda bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik va hokazo yoshini hisobga olib barchasini o‘yinlarda va musobaqada amalga oshirish lozim.

Jon Lokk o‘qitishning o‘yin shakllaridan foydalanishni tavsiya qilgan edi. J.J.Russo insonni fuqarolik tarbiyasi vazifalarini qo‘yib, pedagogik tadbirlar dasturini taklif qilgan edi: ijtimoiy foydali mehnat, birgalikdagi o‘yinlar, bayramlar. O‘yinni pedagogik hodisa sifatida birinchilardan bo‘lib Fridrix Fryobel tasniflagan, o‘yin nazariyasi uning pedagogik g‘oyasi asosi bo‘lgan edi. O‘yinni didaktiv ekanligini belgilab u, o‘yin

bolani o‘qitish vazifilarini yechishini, unga shakli, rangi, kattaligi haqida tasavvurni berishini, harakat madaniyatiga egalik qilishga yordam berishini isbotladi. O‘yin shakllarining keyingi rivoji va ularni o‘rganish, o‘yin yordamida amalda barcha pedagogik vazifalar yechilishini ko‘rsatdi.

Zamonaviy o‘qitishning o‘yin usulining shakllanishida faol o‘qitish usullari nomini olgan o‘qitish usullarining katta guruhlari rivoji uchun asos bo‘lgan birinchi navbatda ishbilarmonlik o‘yinlaridan foydalanishga tayangan. Ulardan foydalanishning nazariyasi bir qator kontseptsiyalarda, birinchi navbatda faol o‘qitish g‘oyasida asoslangan edi. Birinchi ishbilarmonlik o‘yini sobiq ittifoqda 1932 yilda M.M.Birshteyn tomonidan ishlab chiqilgan va o‘tkazilgan edi (M.M.Birshteyn, 1989). O‘yinli o‘qitish usuli darrov e’tirof etilib va gurkirab rivojlanishga yuz tutdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy pedagogika interaktiv yondashuvlarning bir butun zahirasiga boy bo‘lib, ularning orasidan eng muhimlaridan quyidagilarni ajratish mumkin: ijodiy topshiriqlar; kichik guruhlarda ishlash; o‘rganuvchi ta’lim o‘yinlari (rolli, imitatsiya, ishbilarmonlik va ta’lim o‘yinlari); jamoatchilik resurslaridan foydalanish (mutaxassisni taklif etish, ekskursiyalar); ijtimoiy loyihalar va ta’limning boshqa auditoriyadan tashqari usullari (ijtimoiy loyihalar, musobaqalar, radio va gazetalar, filmlar, spektakllar, ko‘rgazmalar, taqdimotlar, qo‘shiqlar va ertaklar); chigal yozdi mashqlar; yangi materialni o‘rganish va mustahkamlash (interaktiv ma’ruza, ko‘rgazmali qurollar, video va audiomateriallar bilan ishlash, “O‘quvchi o‘qituvchi o‘rnida”, “Hamma bir-birini o‘qitadi, mozaika (nafis arra), savollardan foydalanish, Suqrotano dialogi); murakkab va bahsli masalalarni va muammolarni muhokama qilish (“O‘rningni egalla (fikrlar shkalasi)”, “Yakka o‘zi-ikkalasi-hamma birga”, “Karusel” (ot o‘yin, chalkashlik), “Televidenie uslubida tok-shou bahsi”, debatlar, simpozium); muammolar yechimi (“Yechimlar daraxti”, “Aqliy hujum”, “Chigal ishlar tahlili”, “Muzokaralar va mediatsiya” va “Zinapoyalar va varrakchalar”)[2].

Ijodiy topshiriqlar. Ijodiy topshiriqlar deganda biz talabalardan ijodkorlikni ta’lab qiluvchi, bir nechta yondashuvlarga ega bo‘lgan, tarkibida noma’lum katta yoki kichik elementlaridan iborat topshiriqlar majmuisini tushinamiz. Ijodiy topshiriq har qanday interaktiv usulning mazmuni, asosini tashkil etadi. Ijodiy topshiriq (ayniqsa amaliy va talaba hayotiga yaqini) ta’lim jarayoniga ma’no bag‘ishlaydi, talabalarni ijodkorlikka undaydi. Ijodiy topshiriqlargi javobning noma’lumligi va talabaning shaxsiy tajribasi va o‘z hamkori, do‘sti tajribasiga asoslangan o‘zining shaxsiy “To‘g‘ri” yechimini topish imkoniyati, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari va pedagogning hamkorligi talabalarga muloqoti uchun poydevor yaratishga imkoniyat beradi. Ijodiy topshiriqlarni tanlash pedagog uchun ijodiy topshiriq hisoblanib, quyidagi mezonlarga javob berishi lozim. Ijodiy topshiriqlar:

- yagona murakkablikdagi javob yoki yechimga ega bo‘lmasligi;
- o‘quvchilar uchun amaliy va foydali bo‘lishi;
- o‘quvchilar hayotiga bog‘langan bo‘lishi;
- o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishi;
- ta’lim maqsadlariga imkon qadar xizmat qiladigan bo‘lishi lozim.

Agar talabalar ijodiy topshiriqlar bilan ishlab o‘rganmagan bo‘lsalar, avval oddiy topshiriqlarni, keyin esa tobora murakkablashib boradigan topshiriqlarni tanlash lozim bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishlash. Kichik guruhlarda ishlash − bu eng ommabop strategiyalardan biri bo‘lib, u barcha o‘quvchilarni topshiriqni bajarishda ishtirok etishga, hamkorlik malakalari va shaxslararo muloqot (xususan, faol eshitish ko‘nikmasi, umumiy fikrni va paydo bo‘layotgan kelishmovchiliklarni hal qilish)ning amaliy tomonini rivojlantirishga imkon beradi. Buning hammasi odatda katta jamoada ishlaganda bu imkoniyatlar bo‘lmaydi. Kichik guruhda ishlash – masalan mozaika, debatlar, jamoatchilik tinglovlari, imitiatsiyalarning barcha turlari va boshqalar kabi ko‘pgina interaktiv usullarning ajralmas qismidir.

Kichik guruhda ishlashni tashkil etishda quyidagi jihatlariga diqqatni qaratish lozim bo‘ladi. O‘quvchilar guruh topshiriqlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga egaligiga ishonch hosil qilish kerak. Bilimlarning yetishmasligi juda tezda o‘zini salbiy natijasini bildiradi – o‘quvchilar topshiriqni bajarish uchun harakat qilmay qo‘yadi. Kichik guruhga berilayotgan topshiriqlar imkoni boricha aniqroq bo‘lishiga harakat qilish kerak. Guruhning bittadan ortiq yoki ikkita topshiriqni, juda aniq bo‘lsa ham, idrok etish ehtimoli kam, shuning uchun topshiriqlarni doskada va (yoki) kartochkalarda yozab qo‘yish maqsadga muvofiq. Guruhga topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt berish kerak.

Hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi – “Men aytganimday qil” yoki “Men kabi qil” klassik tamoyilga asoslanmagan pedagogikadir. Hamkorlik pedagogikasida avval tayanch maqsad qo‘yib olinadi, keyin esa uning bajarilishi bo‘yicha talabalardagi ishonch qo‘llab-quvvatlanadi. Asosiysi – tayanch maqsadni bajarishga yaqinlashtiruvchi amaliy ishlar hisoblanadi.

Pedagog-novatorlar har qanday o‘quvchi hamkorlik pedagogikasida ishlay olishini izhor qildilar. Pedagog o‘quvchiga o‘zining individualligini saqlab qolishiga yordam berishi, ehtiyojlarini aniqlashi, uning intellektual va ahloqiy qobiliyatlarini rivojlanishida yordam berishi kerak. Hamkorlik pedagogikasining asosiy g‘oyalari quyidagilar bo‘lib, xususan: o‘quvchini eng yaqin rivojlanish bo‘yicha o‘qitish; majbur-lamasdan o‘qish; materialni yodlab olishni istisno qilish uchun tayanch sxema ko‘rinishida joylashtirilgan hal qiluvchi so‘zlar, belgilar to‘plami; quvib o‘tish g‘oyasi; yirik bloklar g‘oyasi; tanlov erkinligi g‘oyasi; dialogik fikrlash g‘oyasi; auditoriyaning intellektual ko‘rinishi g‘oyasi; o‘qituvchilar va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati g‘oyasi; mativatsiyani shakllantirish g‘oyasi.

Hamkorlik pedagogikasida ta’limni demokratlash-tirishning yo‘llari va yo‘nalishlari:

- o‘qitishning variativligi asoslandi;
- ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv reja va fan dasturlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha taklif qilindi;
- o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiriladi;
- o‘quvchilarning kun yarmini tashkil qilish;
- o‘quvchilarning o‘z-o‘zini hurmati qilish g‘oyasi [4].

Tahlil va natijalar. Metodikaning belgilari va xususiyatlari. O‘qitishning o‘yin usullari o‘yin kabi xususiyatlar xosdir:

- o‘qituvchi ko‘rsatmasi bo‘yicha bajariladigan, ammo uning ishtirokisiz va o‘quvchilar tomonidan hohishi bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qilgan holda erkin rivojlantiruvchi faoliyat;
- ijodiy, improvizatsiya qilingan, o‘z xarakteriga ko‘ra faol faoliyat;
- emotsional zo‘riqqan, ko‘tarilgan, musobaqaviy, raqobatdosh faoliyat;
- o‘yin mazmunini va jamoatchilik tajribasi elementlarini aks ettiruvchi to‘g‘ri va bilvosita qoidalar doirasida kechuvchi faoliyat;
- inson hayotining professional yoki ijtimoiy muhiti modellashtiriladigan, imitatsiya xarakteriga ega bo‘lgan faoliyat;
- harakat joyi va davomiyligi, zamon va vaqt doiralarida ajratib qo‘yilgan faoliyat. (V.Kruglikov, 1999).

O‘yinning eng muhim xususiyatlariga o‘yinda ham o‘quvchi ham kattalar go‘yo eng ekstremal vaziyatlarda, qiyinchilikni yengib o‘tish kuchi chegarasida harakat qilishi dalilni hisoblaydilar. Buning ustiga faollikning bunchalik yuqori darajasiga, ular deyarli doimo ko‘ngilli, majbur-lamagan holda erishadilar.

Yuqori faollik, o‘yinning emotsional bo‘yalganligi ishtirokchilar ochiqligining yuqori darajasini ham tug‘diradi. Inson ochiladi, o‘yinda psixologik himoyani uloqtiradi, ehtiyotkorlikni yo‘qotadi, o‘zi bilan o‘zi bo‘ladi. Bu o‘yin ishtirokchisi o‘yin vazifalarini yechadi, ularga qiziqadi va shuning uchun boshqa tomondan qarama-qarshi harakatga tayyor emasligi bilan tushunilishi mukin. Diqqatning ma’lum bir tarqoqligi vaziyatida ba’zan insonni uning uchun yangi dunyoqarashni qabul qildirishga ishontirish osonroq ekanligini eksperimentlar ko‘rsatdi. Insonning diqqatini bironta unchalik ko‘p bo‘lmagan narsa bilan boshqa tomonga tortilsa, ishontirish samarasi yanada kuchliroq bo‘ladi (V.V.Boyko, 1983). Qandaydir darajada bu o‘quvchi-talabaning o‘yin vaziyatlariga ta’siri yuqori mahsuldorligi bilan belgilanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O‘qitishning o‘yin usuli boshqa ta’lim texnologiyalardan shunisi bilan farq qiladiki, o‘yin:

1. Yaxshi ma’lum bo‘lgan, har qanday yoshdagi inson uchun harakatning odatiy va sevimli shakli.

2. O‘yin vaziyati o‘zining mazmunli tabiati hisobiga ishtirokchilarni o‘yin faoliyatiga jalb qiluvchi va ularda yuqori emotsional va jismoniy zo‘riqishni chaqiruvchi faollash-tirishning samarali vositalaridan biri. O‘yinda qiyinchiliklar, to‘siqlar, psixologik qiyinchiliklar sezilarli darajada yengil yengib o‘tiladi.

Interaktiv yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etilishi albatta, ta’lim sifatini kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Турдибоев, Д., Гаимназаров, О., Эшниязов, А., Душабоев, О. (2023). Таълим тизимида инновацион технологиялардан фойдаланиш ва уларнинг сифатини баҳолаш. Евразийский журнал технологий и инноваций,1(5 Part 2), 46-52.
2. Dushaboev, O., Turdiboev, D., & Zokirov, A. (2020). Improvement of teaching geometry based on pedagogical synergetical principles.International Journal of Psychosocial Rehabilitation,24(08), 5268-5276.
3. Душабоев, О.Н. (2019). Роль принципов синергетического подхода в обучении математике в общеобразовательных школах.Среднее профессиональное образование, (11), 53-55.
4. Tojiev M., Gaymnazarov O.G., Dushaboev O.D. Ta’lim tizimi sifatini yangilash istiqbollari. Global Oliy talim tizimida ilmiy tatqiqotlarning zamonaviy uslublari mavzusidagi Halqaro ilmiy konferentsiyasi.T 2014, 297-bet.
5. Dushaboev O.N. Sinergetika va uning ta’lim tizimidaga o‘rni. Ta’lim, fan va innovatsiya. T – 2018, 49-bet.
6. Turdiboev D., Dushaboev O. Methods of Proving Theorems Training. Eastern European Scientific Journal” Germaniya-2016. 43-bet.
7. Dushaboev O.N. Sinergetika va uning ta’lim tizimiga tatbiqi. Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv fanlarining modulli o‘qitish metodikasi va amaliyoti, mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi T-2017. 15-bet.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:159.9

Rustam DUSHANOV,
IIV Akademiyasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

O‘zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

JINOIY XULQ VA UNI YUZAGA KELTIRUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada jinoiy xulq va uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.
Kalit so‘zlar: jinoiy xulq, anglangan va anglanmagan mayllar, qadriyatlar tizimi, axloqiy yo‘nalganlik, xatti-harakatning umumlashgan usullari, ruhiy og‘ish holatlari, jinoiy xatti-harakat, shaxs ruhiy-irodaviy holati, faol mudofaa refleksi.

ПРЕСТУПНОЕ ПОВЕДЕНИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ЕГО

Аннотация

В данной статье представлены мнения о преступном поведении и вызывающих его социально-психологических факторах.
Ключевые слова: преступное поведение, сознательные и неосознанные наклонности, система ценностей, нравственная направленность, обобщенные способы поведения, случаи психической девиации, преступное поведение, психико-волевое состояние личности, активно-оборонительный рефлекс.

CRIMINAL BEHAVIOR AND SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS CAUSING IT

Annotation

This article presents opinions about criminal behavior and the socio-psychological factors that cause it.
Keywords: criminal behavior, conscious and unconscious inclinations, system of values, moral orientation, generalized ways of behavior, cases of mental deviation, criminal behavior, mental-volitional state of the individual, active-defensive reflex.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatimizda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish nafaqat huquqni muxofaza qiluvchi organlari xodimlari balki, har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, fidoyi, o‘z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi» [1].

Chunki, jinoyatchilikning sodir etilishi demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga, jamiyatda aholining tinch, osoyishta, farovon hayot kechirishiga hamda jamiyatda har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy-ruhiy jihatdan komil insonni shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekistonda bugun jinoyatchilik ustidan ijtimoiy-huquqiy nazorat shartli ravishda quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

– jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-tarbiyaviy, huquqiy va boshqa tadbirlar;

– sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud tergovini amalga oshirish bilan bog‘liq tadbirlar majmui;

– sodir etilgan jinoyatlar uchun sud belgilagan jazoning ijrosini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar hisoblanadi.

Shu nuqta nazardan, bugungi kunda kriminal psixologiyada inson jinoiy xulqini o‘rganish uchun tizimli yondashuv va ehtimol tutilgan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga ega bo‘lish talab qilinadi.

An’anaga ko‘ra, jinoiy xulq sabablari ikki guruhga – ijtimoiy va biologik sabablarga ajratiladi. Biroq, axloq-odob meyorlari (qoidalari)dan og‘uvchi xulqning ko‘plab ko‘rinish-larini tahlil qilish mazkur muammoni boshqacharoq, ya’ni tizimli-integratsiyalashgan (birlashgan) holda o‘rganish zarur degan xulosaga olib keladi.

Ijtimoiy yoki biologik omillariga «psixologik» nomli tizim hosil qiluvchi omilni kiritish hamda inson xulqining sababiy bog‘lanishlari (determinatsiyasi) bilan bog‘liq barcha muammolar majmuini ijtimoiy-psixologik-biologik sabablar deb atash maqsadga muvofiqdir. Bunda «psixologik» jihatning o‘rtada joylashgani uning ham ijtimoiy, ham biologik omil uchun birlashtiruvchi funksiyaga egaligini anglatadi.

Jinoiy xulq sabablari haqida so‘z borar ekan, avvalo, muammoni tahlil qilishning asosiy prinsiplariga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Jinoiy xulq, normadagi xulq kabi, ko‘p omillidir, u bir yoki hatto bir qancha sabablarning oqibati emas. Biroq, alohida olingan individual axloqiy ko‘rinishning ko‘p omillar bilan bog‘liqligi va ehtimolli xususiyati uni o‘rganib bo‘lmasligini bildirmaydi. Bu o‘rinda shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega.

2. Jinoiy xulq, ijobiy xulqdan yo‘nalishining mazmuni bo‘yicha ham, psixoregulyatsion xususiyatlari bo‘yicha ham ajralib turadi. Shaxs xulqi uning ehtiyojlari, anglangan va anglanmagan mayllari tizimi, oldiga maqsad qo‘yish va unga erishish xususiyatlari bilan farqlanadi. Agar uni sxema tarzida tasvirlaydigan bo‘lsak, quyidagicha ko‘rinish hosil qiladi.

Аксарият жиноятчиларнинг хулқига ижтимоий қадриятларга мослаша olmaslik (dezadaptatsiya) va o‘zini o‘zi boshqarishdagi nuqsonlar xosdir. Individning o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatlari past darajada bo‘lganida, g‘ayriijtimoiy mayllari, odatlari nafaqat nazorat qilinmaydi,

balki ularning o‘zlari xulqning maqsad hosil qiluvchi mexanizmlariga aylanadi.

3. Jinoiy xulq individning o‘z ijtimoiy mas’uliyatini himoya qilish (o‘zini oqlash) motivatsiyasi, umum qabul qilingan ijtimoiy qadriyatlarning qadrsizlanishi asosida amalga oshiriladi. Inson xulqi uning ehtiyojlari va yo‘nalganlik sohasi, qabul qilgan qadriyatlar tizimi, umuminsoniy madaniyatdan bahramandlik darajasi bilan bog‘liqdir.

4. Jinoiy xulq – mojaroli xulq bo‘lib, doimo jamiyatda, ijtimoiy guruhlarda, shaxs bilan ijtimoiy guruh, ayrim shaxslar o‘rtasida va nihoyat, shaxsning o‘zidagi ichki ziddiyatlarga asoslangan. Inson xulqidagi tashqi holatlar tizimi unda shakllangan ichki ruhiy omillar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu ichki ruhiy omillarga quyidagilar kiradi:

– qadriyatlar tizimi;

– axloqiy yo‘nalganlik;

– xatti-harakatning umumlashgan usullari;

– o‘zini o‘zi tartibga solishning psixodinamik xususiyatlari.

5. Inson xulqida na obyektiv, na subyektiv omillarni alohida ajratish mumkin. Ijtimoiy omillar odamlar xulqiga bevosita ichki shaxsiy, individual-psixologik hodisalar orqali ta’sir ko‘rsatadi (va bu, ba’zan «jinoiy tabiat» illyuziyasini yuzaga keltiradi).

6. Shaxs qanchalik kam ijtimoiylashgan bo‘lsa (bu, odatda, jinoyatchi shaxsning o‘ziga xos xususiyatidir), biologik omillarning ustun (dominanta) bo‘lish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Inson ongining rivojlanishi qanchalik cheklangan bo‘lsa, uning xulqida iyerarxik jihatdan quyi turadigan motivatsiya darajalari shunchalik katta rol o‘ynaydi.

Kriminolog olim (Z.S. Zaripov va I. Ismailov va boshq.)larning fikricha jinoiy xulq shakllanish jarayonini quyidagi toifalarga ajratishadi: a) shaxs ehtiyoji va manfaatlari buzilishi bilan bog‘liq jinoiy xulq shakllanish jarayoni; b) shaxs ehtiyoji (manfaati) va imkoniyati o‘rtasidagi farq (qarama-qarshilik) bilan bog‘liq jarayonlar; v) shaxs ma’naviy va huquqiy tasavvurining, qadriyatlar va ijtimoiy yo‘nalishining buzilishi bilan bog‘liq jarayonlar; g) qaror qabul qilish va amalga oshirishdagi nuqson va kamchiliklar bilan bog‘liq jarayonlar [2].

Jinoiy xatti-harakat jarayoni quyidagi asosiy qismlarni o‘z ichiga oladi, bular: motivatsiya, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xatti-harakat bu shaxsdagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan tashqi muhitning o‘rtasidagi aloqaning natijasi degan fikrga asoslangan holda muayyan jinoiy xatti-harakat jarayonini quyidagicha tasvirlasa bo‘ladi:

Rus olimi G. A. Avanesov inson xatti-harakatiga salbiy ta’sir etuvchi quyidagi shart-sharoitlarni ajratadi:

– asab tizimining qo‘zg‘aluvchanligini kuchaytiradigan, noadekvat reaksiyani keltirib chiqaradigan va harakatlarni ijtimoiy nazorat qilishni qiyinlashtiradigan asab-ruhiy kasalliklar (psixopatiyalar, nevrosteniyalar, kasallik va sog‘liq chegarasidagi holatlar);

–turli xil psixosomatik, allergik, zaharvandlik bilan bog‘liq kasalliklarga olib keladigan va qo‘shimcha jinoiy omil bo‘lib xizmat qiladigan psixofiziologik zo‘riqishlar [3].

Ruhiy anomaliya (normadan og‘ish)lar esa irsiy (genetik) ildizlarga ega bo‘lib, asabiy-ruhiy buzilishlar faqat noqulay muhit ta’siridagina jinoiy xulqning sababchisi bo‘lishi mumkin.

XXasrning 20-yillaridayoq psixiatrlar (Antonyan Y.M., Borodin S.A., Vinogradov M.V., Golub S.A. va boshq.) jinoiy xulq turi bilan ruhiy anomaliya o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaganlar. Masalan, rus olimi Y.M. Antonyanning fikricha, «...aqliy, intellektual koeffitsiyent darajasi past bo‘lgan shaxslar kundalik hayotga moslasha olmaydiganlar o‘zlarining tuban ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘g‘rilik, ba’zan esa qotillik jinoyatlarini sodir etadilar. Beqaror va tashqi muhit ta’siriga tez beriluvchanligi bilan odatdagi o‘g‘rilar safini oson to‘ldiradilar; ma’nosiz ruhiy his-tuyg‘ular va kuchli tuban mayllarga ega bo‘lgan shaxslardan esa banditlar, g‘arazli qotillar boshqalarga qaraganda osonroq hosil bo‘ladi; patologik qo‘zg‘aluvchanligi bilan ajralib turadigan shaxslar arzimagan narsa tufayli atrofdagilar bilan oson aytishib qoladilar, jamoat tartibini buzadilar» [4].

Ruhiy anomaliyalarga chalingan shaxslarning aqliy ulushi (koeffitsiyenti) barcha jinoyatchilarning taxminan 70 % ini tashkil qiladi.

Ma’lum bo‘lishicha, ruhiy anomaliya holatida shaxslar tomonidan jismoniy kuch ishlatish (odam o‘ldirish, nomusga tegish, tan jarohati yetkazish) va bezorilik jinoyatlari ko‘proq sodir etilishi kuzatilgan. Masalan, odam o‘ldirish, nomusga tegish, tan jarohati yetkazish jinoyatlarini sodir etgan voyaga yetmaganlar sud-psixiatriya ekspertizasidan o‘tkazilganda ularning har besh nafaridan uch nafarida o‘z jinoiy qilmishlariga yo‘l ochuvchi turli anomaliya holatlari borligi aniqlangan. Ichki ishlar organlarining tegishli xizmat sohalari hisobida turgan voyaga yetmaganlar sodir yetgan huquqbuzarliklarning 23–43 % ini ruhiyatida turli darajadagi anomal (og‘ish) holatlari mavjud bo‘lgan yoshlar amalga oshirganlar. Jismoniy kuch ishlatish orqali og‘ir turdagi jinoyat sodir etganlarning umumiy miqdorida anomaliya holatlarining mavjudligi tahlil etilganda 33 % shaxslarda anomaliya holatlari, 19 % ida markaziy asab tizimining organik jarohati, 18 % ida bosh miya jarohati, 17 % ida surunkali alkogolizm alomatlarining mavjudligi aniqlangan [5].

Shu ma’noda, aksariyat jinoyatchi shaxslarning xulqida janjalkashlik, tez ta’sirlanish, salbiy mayllarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, o‘z xulqini ijobiy qadriyatlar va motivatsiyalar bilan boshqarish mexanizmining sustligini kuzatish mumkin.

Mazkur axloqiy ko‘rinishlarning bari genetik anomaliyalar – Klayn Felter sindromi (ortiqcha X-xromosoma – 47/XXY sindrom yoki ortiqcha Y-xromosoma – 47/XYY sindrom) deb nomlanadi. Bunda ortiqcha X-xromosoma haddan tashqari tajovuzkorlik bilan, ortiqcha Y-xromosoma esa maqsad qo‘yish va unga erishish sohasidagi og‘ish (anomaliya)lar, xulqning irodaviy boshqaruvidagi buzilishlar bilan izohlanadi [5].

Albatta, shaxs ruhiy-irodaviy holati jinoyat sodir etilishida birinchi o‘ringa chiqadi va bu ularning birinchi sababi ekanligi xususidagi fikrni yuzaga keltiradi. Aslida, ruhiy omillarning o‘zi jinoyatchi shaxsi shakl-lanishining haqiqiy sharoitlarida yuzaga keladi.

Inson xulqida tashqi omillar tizimi ichki shart-sharoitlar tizimi bilan belgilanadi. Shu bois har bir jinoyatda obyektiv va subyektiv omillarning birligi ko‘rinadi. Hech bir tashqi omil ham, hech bir ichki holat ham o‘z-o‘zicha axloqiy aktni yuzaga keltirmaydi.

Shu ma’noda, aksariyat jinoyatchilarda o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan mayllarning tasodifiy vaziyatlarga bog‘liqligi xosdir. Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining tarqoqligi aksariyat jinoyatchilarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy psixologik jihatlardan biridir. Jinoyatchilarning ayrim xudbinona intilishlari g‘ayriijtimoiy tus olganda ularning axloqiy tizimini ong osti mayllari darajasida boshqariladi.

Psixologik boshqaruvlarning ong osti mexanizmlari barcha maqsadli harakatlarda, axloqiy qarashlarning keng miqyosli tizimida namoyon bo‘ladi. Insonning aqliy rivojlanish darajasi qanchalik past bo‘lsa (aksariyat jinoyatchilarga ana shu belgi xos), xulqni tartibga solishning ong osti mexanizmlari shunchalik katta rol o‘ynaydi.

Ijtimoiylashgan shaxs barcha vaziyat va sharoitlarda barqaror va yaxlitdir. Jinoyatchi shaxs esa vaziyatga tobedir.

Jinoiy xulqga ega bo‘lgan shaxslar bir-birlaridan hamda ijtimoiy hayotga moslashgan, qonunga itoatkor shaxslardan ijtimoiy hayoti va faoliyatining turli sharoitlarida olgan tarbiyasi hamda shakllangan salbiy fe’li-atvor jihatlari bilan farq qiladilar.

«Jinoiy ruhiyat» ham, «jinoiy vorisiylik» ham mavjud emas. Ayni vaqtda ruhiyat ham, uning tabiiy shart-sharoitlari ham har qanday axloqiy aktga, jumladan g‘ayriqonuniy harakatlarga «daxldordir».

Ijtimoiy qarashlari qat’iy bo‘lmagan insonda hatto uning tabiiy mayllari ham g‘ayriijtimoiy axloq shakllarida, kuzatiladi, ya’ni;

jinsiy instinkt – nomusga tegishda;

faol mudofaa refleksi – shaxsga tajovuz qilishda;

o‘z-o‘zini himoya qilish instinkti – dezertirlikda namoyon bo‘lishi mumkin.

Huquqiy belgilariga ko‘ra bir xil jinoiy qilmish turli ruhiy omillardan kelib chiqishi mumkin. Masalan, o‘g‘rilik jinoyati aybdorning shaxsiy yo‘nalishi bilan ham, irodasining sustligi va ishonuvchanligi bilan ham, patologik xususiyati bilan ham sodir etilishi kuzatilgan.

Insonning jinoiy qilmishida namoyon bo‘ladigan shaxsiy xislatlari «huquqiy ongdagi qandaydir umumiy nuqsonlar»dan emas, balki aniq axloqiy-psixologik xususiyatlari (baxillik, shafqatsizlik, ijtimoiy negativizm)dan dalolat beradi.

O‘tkazgan tadqiqotida jinoyatchilar va qonunga itoatkor shaxslar o‘rtasidagi jiddiy psixologik farqlar borligi kuzatilgan. YA’ni shkalali tahlilda tekshiriluvchilarning qonunga itoatkor guruhi barcha asosiy qadriyatlarga ijtimoiy-ijobiy munosabatini, o‘z hayotining mazmunini baholashi bo‘yicha jinoyatchilardan ancha ustun ekanligi ma’lum bo‘lgan. Jinoyatchilar bilan qonunga itoatkor shaxslar o‘rtasidagi farqlar ijtimoiy muhit, faoliyat, badiiy zavq, nikoh, sevgi, farzandlar, oila kabi qadriyatlarda yorqin namoyon bo‘lgan [6].

Ayrim huquqshunoslar aksariyat jinoyatlarni o‘z-o‘zidan jinoyatni keltirib chiqaradigan, uning amalga oshishi uchun sharoit yaratadigan kriminogen vaziyat bilan bog‘laydilar.

Jinoyat sodir etish vaqtidagi kriminogen vaziyat bu shaxsning muhit bilan aloqasining alohida darajasi hisob-lanadi. Bu aloqada salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxsdagi jinoyat sodir etishga moyilligi kriminogen vaziyat ta’sirida muayyan xatti-harakatga aylanadi.

Jinoyatlar birdan yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki insonning muayyan barqaror shaxsiy xislatlari va qadriyatlari sababli sodir etiladi.

Qonunga itoat qiladigan va o‘zini o‘zi yuksak darajada boshqara oladigan halol inson uchun «jinoiy» vaziyatlar yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Vaziyat o‘z-o‘zicha jinoyatni keltirib chiqara olmaydi, u faqat g‘ayriijtimoiy fe’lga ega bo‘lgan shaxsning muayyan qarashlari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun mos bo‘lishi mumkin, xolos.

Hulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir insonda ijobiy xulq mavjud bo‘lib, bu xulq anglangan bo‘lsa hamda qarorni erkin, to‘g‘ri qabul qilsa, vaziyatning quliga aylanmaydi.

Biroq, inson xulqining ruhiy boshqaruv darajasi qanchalik past bo‘lsa, uning xulqida vaziyat bilan bog‘liq holatlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ko‘pchilik jinoyatchilarga haqiqatan ham xulqining vaziyat bilan bog‘liqligi xos bo‘lib, bu uning fe’liga xos jihatdir.

Inson o‘zi uchun muayyan qiymatga ega bo‘lgan narsa, hodisa sababligina faol harakat qiladi. Qadriyatlar tizimi individual bo‘lib, u insonning ruhiy faolligini belgilab beradi: bir kishi uchun hayotiy muhim bo‘lgan narsa, boshqa shaxs uchun unchalik muhim bo‘lmasligi mumkin.

Shaxs xulqi qadriyatlar tizimi asosida yo‘nalgan. Ba’zi odamlar notanish insonni o‘lim xavfidan o‘ylab o‘tirmay qutqaradilar, boshqalar esa o‘ylab o‘tirmay pichoqni qarindoshiga sanchadilar – hammasi u yoki bu odamlar uchun hayotning qaysi tomonlari muhim ekanligiga bog‘liq. Ijtimoiy jihatdan ijobiy qadriyatlar tizimi tug‘ma emas, balki u jamiyatdagi tarbiya jarayonida shakllanadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатьий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент – «Ўзбекистон» - 2017. – 45-б.
2. Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология. Дарслик. ИИВ Академияси Т., 2007 –130-б.
3. Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика. – М., 2012. – С. 226–230.
4. Антонян Ю. М. Преступность и психические аномалии. – М., 2010. – С. 67.
5. Душанов Р.Х., Фарфиев Ё.А. Касбий психология. Дарслик. ИИВ Академияси. Тошкент. 2014. 380-бет.
6. Душанов Р.Х. Ҳуқуқбузар ва жабрланувчи шахс психологияси. Ўқув қўлланма. ИИВ Академияси. – Тошкент., 2019. – 145 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:159.9.072.43

Atham JO‘RAYEV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Psixologiya fani o‘qituvchisi
E-mail: ustozjurayev@gmail.com

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori B.Norbekova taqrizi asosida

ETNOPSIXOLOGIYAGA OID DASTLABGI BILIMLARNING VUJUDGA KELISH TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Etno kishilik jamiyat birligining tarixiy davrlari bilimlarining paydo bo‘lishi. Har bir xalqga xos bo‘lgan milliy harakter, urf-odat va an’analar, milliy tuyg‘ular va did (ta’b), etnik ong va milliy o‘zini o‘zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi, o‘zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o‘rganish birligi hisoblanadi. Shuningdek mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma’naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Etnopsixologiya “etnos”, millat, urf-odat, an’analar, milliy va millatlararo etno munosabatlar, Milliy qadriyatlar, milliy harakter.

ИСТОРИЯ ПЕРВОНАЧАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ ЭТНОПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается возникновение знаний об исторических периодах единства этноличностной общности. Возникновение и проявление национального характера, обычаев и традиций, национальных чувств и вкусов, этнического самосознания и национального самосознания характерны для каждой нации.Такие вопросы, как изменение и развитие, также являются единицей изучения этнопсихологии. Также очень важно для восстановления нашей духовности, то что в нашей стране принимаются серьезные меры по восстановлению национальных ценностей.

Ключевые слова: Этнопсихология, «этнос», нация, обычаи, традиции, национальные и межнациональные этноотношения, национальные ценности, национальный характер.

HISTORY OF ORIGINAL KNOWLEDGE OF ETHNOPSYCHOLOGY

Annotation

This article examines the emergence of knowledge about historical periods of unity of an ethno-personal community. The emergence and manifestation of national character, customs and traditions, national feelings and tastes, ethnic identity and national identity are characteristic of every nation. Issues such as change and development are also the unit of study of ethnopsychology. It is also very important for the restoration of our spirituality that serious measures are being taken in our country to restore national values.

Key words: Ethnopsychology, “ethnos”, nation, customs, traditions, national and interethnic ethnic relations, national values, national character.

Kirish. Insoniyat tarixining qadimgi davrlaridan boshlab etnik guruh psixik hayotining turli jihatlari bilan bog‘liq masalalarga bo‘lgan qiziqish faqat ortib bormoqda. Etnopsixologik xususiyatlarining ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ayrim ya’ni urug‘, qabila, millatlarga hosdir. Etnopsixologiya fanlararo bilim bo‘limi bo‘lib, u kishilar ruhiyatining etnikmadaniy xususiyatlarini, etnik guruhlarning psixologik xususiyatlarini, shuningdek, millatlararo munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi. Umum milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘tmishni, milliy qadriyatlarni bilish, donishmand xalqimizning asriy an’ana va udumlarini o‘rganish ma’naviy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, udumlari, bebaho qadriyatlari mavjudki, ularni asrab- avaylash, hurmat qilish, kelgusi avlodlarga yetkazish orqali ularda milliy g‘urur va iftixor hislarini rivojlantirish, qadriyatlarni ulug‘lash bilan bog‘liq fazilatlarni shakllantirish har bir davrlarda ham eng dolzarb masalalardan bo‘lib kelgan. Eng avvalo o‘z milliy qadriyatlarimiz, etnik xususiyatlarimizni, qolaversa, har bir xalqqa xos bo‘lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilish, milliy psixologik qiyofani, uning elementlari bo‘lmish milliy xarakter, milliy urf-odat va an’analar, milliy g‘oya, did, milliy ongning shakllanishi etnik munosabatlar zamirida shakllanadi. Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasida milliy birlik tuyg‘usini mustahkamlanishi bugungi juda tezkor va o‘zgaruvchan, tahlikali zamonda tinch, osuda va insoniy qadriyatlarni asrab yashash imkonini ta’minlaydi.

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish deb nomlangan yo‘nalishida o‘zaro milliy va etnik munosabatlarni, qo‘shni davlatlar bilan ijobiy hamkorlikka asoslanilgan aloqalarni kuchaytirish, baynalminal qadriyatlarni asrash kabi o‘zbek millati turmush tarziga xos jihatlarga e’tibor qaratilgan[2].

Bu fan rivojlanish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir, muayyan etnik jamoalar vakillari sifatida odamlarning milliy psixologik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi. Falsafa va sotsiologiya etnik guruhlar va birinchi navbatda, millatlarning psixologik o‘ziga xosligini va uning

odamlarning millatlararo muloqotiga ta’sir qilish xususiyatlarini nazariy jihatdan tushunadi[9].

Etnopsixologik bilimlarning dastlabki donalari antik mualliflar - faylasuflar va tarixchilarning asarlarini o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma’naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Arestotel, Gippokrat, Gerodot, Katta Pliniy, M. Lazar va X. Shtayntal, Strabon kabilar. Shunday qilib, qadimgi yunon shifokori va tibbiy geografiyaning asoschisi Gippokrat atrof-muhitning odamlarning psixologik xususiyatlarining shakllanishiga ta’sirini ta’kidladi va umumiy pozitsiyani ilgari surdi, unga ko‘ra xalqlar o‘rtasidagi barcha farqlar, shu jumladan ularning xatti-harakatlari va odatlari tabiat va iqlim bilan bog‘liq. Rossiyada uzoq vaqt yashagan xalqlarning psixologiyasiga qiziqishni davlatimizning taniqli jamoat arboblari ko‘rsatdilar[6]. Ular millatlararo munosabatlarning mohiyatini tahlil qilish, ularning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilish uchun o‘zlarining ko‘plab mulohazalaridan foydalanganlar. Etnopsixologiya” etnologiya va psixologiya fanlarining qo‘shilishidan tashkil topgan bo‘lib, grekcha “etnos” xalq, qabila, “psixologiya”- rux ilmi, degan ma’nolarni anglatadi. Bu fan ma’lum millat va etnik birlik vakillarining o‘ziga xos ruxiy qiyofasi, xulk-atvorining, zamonaviy termin bilan aytsak, “mentalitetini” o‘rganadi. Har bir xalqqa xos bo‘lgan milliy xarakter, urf-odat va an’analar, milliy tuyg‘ular va did, etnik ong va milliy o‘zini o‘zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi, o‘zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o‘rganish ob’yekti hisoblanadi. Gerodot (miloddan avvalgi 490-480-yillar - miloddan avvalgi 425-yillarda tug‘ilgan) nafaqat tarix, balki etnografiya fanining ham «otasi» hisoblanadi. Uning o‘zi ham bajonidil va ko‘p kezib yurgan va sayohatlari davomida uchrashgan xalqlarning ajoyib xususiyatlari haqida gapirgan. Gerodotning "Tarixi"da biz axloqiy yondashuvning birinchi urinishlaridan biri bilan uchrashamiz, chunki olim uni qiziqtiradigan turli xalqlarning hayoti va xarakterining xususiyatlarini atrofdagi tabiiy muhit va shu bilan birga tushuntirishga intiladi. Vaqt ularni bir-biri bilan taqqoslaydi: « Misrdagi osmon boshqa joylardan farq qilganidek va ularning daryosi tabiiy xususiyatlari bilan boshqa daryolardan farq qilganidek, misrliklarning urf-odatlari ham boshqa xalqlarnikiga deyarli barcha jihatdan qarama-qarshidir[4]. Millatning yuksalishi bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlarini qamrab olgan globallashuv jarayoniga odamlarning tabiiy javobiga aylandi. Taniqli rus olimlari Ivan Terrible, Pyotr I, Ketrin I, P.A. Stolypin; M.V. Lomonosov, V.N. Tatishchev, N. Ya. Danilevskiy kabi, buyuk rus yozuvchilari A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy va boshqalar. Ularning barchasi o‘z bayonotlarida va asarlarida, Rossiyada yashovchi turli etnik jamoalar vakillarining kundalik hayotida, an'analarida, urf-odatlarida, ijtimoiy hayotining ko‘rinishlarida mavjud bo‘lgan psixologik farqlarga jiddiy e’tibor qaratdilar[3]. Fransuz faylasuflari orasida geografik determinizmning eng ko‘zga ko‘ringan namoyandasi K. Monteskyu (1689-1755) bo‘lib, u “odamlarni ko‘p narsa boshqaradi: iqlim, din, qonunlar, davlat boshqaruvi tamoyillari, o‘tmish namunalari, odatlar, urf-odatlar; bularning barchasi natijasida xalqning umumiy ruhi shakllanadi ” Etnik (etnik hamjamiyat) - bu paydo bo‘ladigan, faoliyat ko‘rsatadigan, o‘zaro ta’sir qiladigan va o‘ladigan odamlarning haqiqatan ham mavjud guruhi. Gumilevning ta’kidlashicha, etnos - bu o‘ziga xos ichki tizimga va o‘ziga xos xatti-harakatlar stereotipiga ega bo‘lgan boshqa shunga o‘xshash jamoalarga qarama-qarshi bo‘lgan odamlarning u yoki bu jamoasi. Y. Bromleyning fikricha, etnos – bu ma’lum bir hududda tarixan shakllangan, til, madaniyat va ruhiyatning umumiy xususiyatlariga ega bo‘lgan, shuningdek, boshqa o‘xshash shakllanishlardan farqini anglaydigan barqaror odamlar yig‘indisidir[8].

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘stlik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfellik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik, ro‘zg‘orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, or-nomuslilik, to‘g‘rilik, sabrandishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar onggiga singdirish har bir ota-ona va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir. Xalqimiz urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to‘g‘ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go‘zalligini, boy ma’naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Eng muhimi, xalqimizdagi mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondo‘stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, to‘g‘rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o‘zini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr qanoatlilik kabi histuyg‘ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi [3]. Etnografiya, psixologiya va tilshunoslikning rivojlanishi XIX asrning o‘rtalarida bo‘ldi. Etnopsixologiyaning mustaqil fan sifatida vujudga kelishiga, yangi fan xalqlar psixologiyasining yaratilishi 1859 yilda nemis olimlari M. Lazar va X. Shtayntal tomonidan e’lon qilingan. Ular psixologiyaning bir qismi bo‘lgan ushbu fanni rivojlantirish zaruratini nafaqat alohida shaxslarning balki odamlar harakat qiladigan butun xalqlarning (zamonaviy ma’noda etnik jamoalarning) ruhiy hayotining qonuniyatlarini o‘rganish zarurligi bilan izohladilar[8]. Etnopsixologiyaning mustaqil bilim sohasi sifatida paydo bo‘lishi, tan olish kerak, Germaniyada sodir bo‘ldi. Milliy psixologiyaning tabiatini “xalq ruhi” nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish. XIX asr o‘rtalarida nemis olimlari X. Shtayntal va M. Lazar 1859 yilda maxsus “Psixologiya jurnali” nashr eta boshlaganidan keyin boshlandi. Xalqlar va tilshunoslik". “Xalq psixologiyasiga oid fikrlar” nomli dasturiy maqolada ular etnopsixologiyaning nafaqat alohida shaxslarning, balki butun jamoalarning ruhiy hayoti qonuniyatlarini o‘rganishga mo‘ljallangan bilimlarning yangi tarmog‘i sifatidagi mohiyati haqidagi g‘oyalarini e’lon qildilar. Ta’kidlash joizki "Xalq ruhi” nazariyasining to‘la bayoni, ayniqsa, Gegel falsafasida o‘z aksini topdi. Gegel har bir xalqning o‘tmishi va kelajagini mantiqiy "Mutloq ruh" bilan bog‘lab tushuntiradi. Turli xalqlarning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, hatto irqiy tafovutlarining asosini ham shu "rux" tashkil etadi, deb ko‘rsatadi.

Etnopsixologiya fanlararo bilim bo‘limi bo‘lib, u kishilar ruhiyatining etnik madaniy xususiyatlarini, etnik guruhlarning psixologik xususiyatlarini, shuningdek, millatlararo munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi. Mamlakatimizda etnopsixologiyaning kelib chiqishi ko‘plab xalqlarning psixologik qiyofasini, urf-odatlari va xulq-atvorini o‘rganish ehtiyojlari bilan bog‘liq.

Psixolog, nevropotolog A.R. Luriya (1902-1977) boshchiligida O‘zbekistonda 1931-1932 yillari madaniy-tarixiy yondashuv g‘oyalari tekshirish ishlari olib borildi. Psixologlar oldiga qo‘yilgan vazifa ijtimoiy-tarixiy shakllanishning psixik jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish edi [7]. Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan ijtimoiy-tarixiy tizimning o‘zgarishi xalqning bilish (kognitiv) jarayonlariga ta’sir qilib, tubdan qayta qurilishiga olib keladi g‘oyasini ilgari suriladi va o‘z isbotini topadi. Yangi sharoitda harakatga kelgan hali ijtimoiy ongda mustahkamlanmagan qoida va me’yorlar ma’lum bir etnik guruhga hos psixologik

faoliyatning an’anaviy shakllari vositasida vujudga keladi. Luriya tomonidan bilish jarayonlari va o‘zini o‘zi tahlil qilish va baholash shakllari mazmunini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishida yangi ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida odamlar ruhiyatida ma’lum bir o‘zgarishlar bo‘lishi aniqlangan. Tadqiqotchilar tomonidan etnopsixologiya masalalarini o‘rganishda ma’lum muvaffaqiyatlarga erishilgan bo‘lsa ham, lekin uning ko‘p muammolari xali o‘zining yechimini to‘la topgan emas. Shulardan biri - milliylik va baynalminallik xususiyatlarining o‘zaro munosabatidir. Millat, sinflar va turli ijtimoiy guruxlarni o‘rganishda faylasuflar, sotsiolog va tarixchilar, asosan, ularning moddiy va ma’naviy madaniyati, tarkibi, ijtimoiy munosabatlariga etiborni qaratgan bo‘lsalar, psixologlar esa, shaxs psixologiyasini o‘rganish bilan cheklanib qolishgan. Ayrim psixologlar esa (S.L.Rubinshteyn) umuman ijtimoiy va etnopsixologiya fanlarining mavjud bo‘lishligini shubxa ostida olgan[5].

Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganuvchi tadqiqotchilarning aksariyat ko‘pchiligi, uni ijtimoiy-tarixiy kategoriya ekanligini e’tirof etadilar va yana uni o‘rganish qiyin obekt ekanligini ta’kidlashadi. Darxaqikat, bu masala tekshirish va o‘rganish uchun murakkab va tushunish bilan birga eng dolzarb, kam o‘rganilgan muammo hamdir. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar qo‘yidagilardan kelib chiqadi:

Milliy psixologik qiyofani o‘rganuvchi etnopsixologiya fanining boshqa psixologiya tarmoqlariga nisbatan sust rivojlanayotganligi va hanuzgacha uning umumiy masalalarini tadqiq etishning metodologik tamoyillari to‘la ishlab chiqilmaganligi;

Etnik xususiyatlar ko‘zga yaqqol tashlanib turgan holda, uni tashkil etuvchi ruhiy xislatlarning yashirin ekanligi, uni bevosita emas, bavosita, ya’ni, ularning mahsullariga qarabgina baho berish mumkinligi;

Yuqorida zikr qilinganidek ayrim olimlarning ushbu masalalar borasida bir biridan farq qiluvchi munosabatlarga ega ekanligi;

Etnopsixologiyaning fan sifatida uzoq vaqt mobaynida ijtimoiy- gumanitar fanlar tizimida o‘z o‘rnini topa olmaganligi.

Lekin shunga qaramay, muayyan qiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruhiy xususiyatlari mavjud ekanligini psixologiya fani, uning tarkibiy qismi bo‘lmish ijtimoiy psixologiya o‘rganib kelmoqda. Bu sohada muvaffaqqiyatli ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini takomillashtirish va qator fan vakillari-faylasuf, tarixchi, etnolog, sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san’atshunoslar hamkorlikda ish olib bormoqdalar[12]. Shaxslararo munosabatlar mazmuniga bir necha omillar ta’sir qiladi:

Birinchi omil bu siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo‘lsa,

Ikkinchi omil shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi.

Uchinchi omil esa xalq hayotida bo‘lib o‘tgan muhim tarixiy xodisa va voqealar kiradi.

Millatimizning asriy an’ana va urf-odatlari, milliy xususiyatlarimizni bilmasdan, hisobga olmasdan turib milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas. Bunda "Sharq xalqlari munosabatlarini tartibga soluvchi va milliy tabiatimizga mos bo‘lgan o‘z-o‘zini boshqaruv usuli, mahallani rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish" kerak. Jamiyat hayotida totuvlik va ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda mahallaning ahamiyati beqiyosdir[12]. Tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf xatarlarni birgalikda yengish, qurilish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga elkadosh bo‘lishga intilish tuyg‘usi o‘zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar mahallalarda shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Xulosa. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqot-chilar ko‘rsatganidek, Har bir xalqning tarixi va taqdiri o‘ziga hos kechadi. Agar xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir biriga solishtirsak, biz etnopsixologik xususiyatlarida xalq tarixini chuqur aks ettirishni ko‘ramiz. Yuqoridagi zikr qilganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarining shakllanishida tabiiy muhit ham ma’lum ta’sir ko‘rsatadi. Demak, etnopsixologiya ma’lum bir etnik jamoa vakillarining ruhiy tipologiyasi, qadriyat yo‘nalishlari va xulq-atvorining namoyon bo‘lish faktlari, qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi fandir. U jamiyat ichidagi va bir xil geotarixiy makonda asrlar davomida yashab kelayotgan etnik guruhlar o‘rtasidagi xulq-atvor xususiyatlari va uning motivlarini tavsiflaydi va tushuntiradi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev, “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli farmoni.
3. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. - M., 1996 yil.
4. Doronchenkov, A.I. Rossiyada millatlararo munosabatlar va milliy siyosat: nazariya, tarix va zamonaviy siyosatning dolzarb muammolari / A.I. Doronchenkov SPb: Extra-pro, 1995
5. N. Ismoilova D.Abdullayeva “IJTIMOIY PSIXOLOGIYA” T. 2013
6. V.M. Karimova, N. Shomurodova. “Etnopsixologiya”. Oliy yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2012
7. Lebedeva N.M. Etnik va madaniyatlararo psixologiyaga kirish. M. 1999 yil.
8. G.G.Shpet Etnik psixologiyaga kirish. - SPb., 1996 yil
9. Krisko V.G., Sarakuev E.A. Etnopsixologiyaga kirish. - M., 1996 yil.
10. Lebedeva N.M. Etnik va madaniyatlararo psixologiyaga kirish. - M., 1999 yil.
11. Qoraqulovich, J. A. (2023). ONTOGENETIK TARAQQIYOTDA ETNOPSIXOLOGIK TARBIYANING TUTGAN O ‘RNI. Scientific Impulse, 1(9), 1950-1953.
12. Nigora Shomurotova “Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasi” Ilmiy- uslubiy qo‘llanma .Toshkent. 2017

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК:378.1: 004.8

Дилноза ЗАРИПОВА,
PhD, доцент ТУИТ имени Мухаммада аль-Хорезми
E-mail: zaripovada85@gmail.com

На основе рецензии доцент ТУИТ имени Мухаммада аль-Хорезми, PhD, Ш.Позиловой

THE USE OF THE SMART METHOD IN TEACHING STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS THE MODULE “SCIENTIFIC EDUCATION”

Annotation

This article emphasizes the importance of using the “Mental method” in teaching the module “Scientific Education” for the development of innovative activities of students of higher educational institutions in an informed environment.

Key words: Innovations in the field of ICT, SMART education, innovative teaching, active learning, e-learning, computerized learning.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СМАРТ-МЕТОДА ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ МОДУЛЮ "НАУЧНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ"

Аннотация

В данной статье представлено значение использования “SMART метода” в преподавании модуля “Научное образование” для развития инновационной деятельности студентов высших учебных заведений в информационных условиях.

Ключевые слова: Инновации в области ИКТ, SMART образования, инновационное преподавание, активное обучение, электронное обучение, компьютеризированное обучение.

OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARIGA "ILMIY TA’LIM" MODULINI O‘QITISHDA SMART USULIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlari talabalarining axborot sharoitida innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun “Ilmiy ta’lim” modulini o‘qitishda “Aqliy usul” dan foydalanish muhimligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: AKT innovatsiyalari, SMART ta’lim, innovatsion o‘qitish, faol o‘qitish, elektron ta’lim, kompyuterlashtirilgan ta’lim.

Введение. В процессе информатизации образования в мире профессиональное образование является актуальной задачей в направлении инновационной деятельности педагогических кадров, внедрения инновационных образовательных и информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс в высших учебных заведениях, освоения передового зарубежного опыта и целенаправленной ориентации в модернизации системы образования. система высшего образования в области педагогической науки.

Постановление ПФ-5847 "Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" от 19 февраля 2018 года ПФ-5349 "О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций" в качестве консультантов в рамках реализации поставленных задач и функций, возложенных на Министерство, государственные органы и организации, проектные институты, направлено на привлечение специалистов ведущих международных и зарубежных компаний в области информационно-коммуникационных технологий, и в нем анализируются многие задачи.

Это, в свою очередь, формирует потребность в совершенствовании содержания учебно-методической деятельности студентов направления профессионального образования в высших учебных заведениях, потребность в инновационных формах и методах преподавания, широком внедрении в практику современных информационно-коммуникационных технологий. Важно также стимулировать инновационную деятельность, создавать эффективные механизмы внедрения научных и новаторских разработок внедрять достижения на практике, создавать научные и экспериментальные лаборатории, центры высоких технологий и технопарки при наличии высших учебных заведений. Вышеупомянутые кейсы представляют собой инновацию студентов направления профессионального образования в условиях информатизации системы высшего образования, инновацию ее студентов, рассматривающих свою подготовку к деятельности как новый критерий профессионально-педагогической компетентности такой подготовки путем совершенствования теоретических и практических основ подготовки к деятельности проблема разработки усовершенствованной методической системы показывает свою актуальность.

Методология. Доминирующим направлением в развитии современной образовательной системы является информатизация образования, это направление характеризуется следующими инновационными процессами:

- внедрение информированных образовательных услуг на основе технологий электронного и дистанционного обучения;
- разработка открытого цифрового образовательного контента и программно-методического обеспечения на основе интерактивных и мультимедийных технологий;
-создание телекоммуникационных структур (информационно-образовательная среда, образовательные

порталы). В таких условиях возникает потребность в учителях, готовых к инновационной деятельности в соответствии с требованиями современ-ного информиро-ванного общества при подготовке педагогов впервые в Японии было использовано понятие "информированное общество", которое описывается следующим образом: информиро-ванное общество выражает общество, в котором высокий- преобладает качественная информация, а хранение, распространение и использование информации осуществляется с использованием современных средств, основанных на компьютерных технологиях.

Один из основоположников теории информированного общества Э.Тоффлер о характеризовал присущие такому обществу грани под названием "третья волна" следующим образом: высокий уровень инноваций во всех аспектах политической и экономической жизни; характер ориентации труда, межличностных отношений на психологическую, социальные и этические цели; влияние избыточной информации на культуру человека; ориентация культуры и общества

Технологические инновации последних десятилетий свидетельствуют о том, что в 21 веке информированное общество вступило в качественно новый этап своего развития. Соответственно, на саммите "Большой двадцатки" в Сеуле в 2010 году был показан новый этап информированного общества - этап "УМНОГО общества", в котором использование людьми высокотехнологичных технических средств и Интернета определяет новое качество взаимодействия между гражданами, государственными институтами, частными компаниями и приводит к улучшению социальной, экономической сфер жизнедеятельности. Концепция "SMART" подчеркивает новый современный этап в развитии общества, основанный на смене социальной парадигмы, процессе обобщения людьми новых идей, знаний и интеллектуального капитала, при котором они готовы внедрять и поддерживать эти процессы с использованием инновационных технологий. Философия развития УМНОГО общества в России академик В.П. Активные исследования проводит научная школа Тихомирова, где углубленно изучаются проблемы реорганизации информированного общества в общество УМНОЕ, и на основе этого постепенно разрабатываются технологии электронного обучения [7].

Академик А.П.Ершов [8], описывая информатиза-цию как комплекс мер, направленных на обеспечение надежного, полного и своевременного использования знаний во всех социально значимых видах деятельности человека, показал, что информатизация образования - это средство решения педагогических задач с помощью использования новой информации технологии в виде рычага, позволяющего реализовать эту идею, стали основой для современной интерпретации этого понятия.

Таким образом, анализируя современные направ-ления в развитии информатизации информиро-ванного общества и образования, предусматривается, что интеллектуальное образование (SMART education) - это "приобретение гибкого образования в интерактивной обучающей среде с помощью свободно доступного, общемирового контента". Технология SMART education позволяет педагогам обобщать новые знания и формировать УМНОГО человека, благодаря чему такой человек сможет в совершенстве использовать информа-ционно-коммуникационные технологии для поиска информации, анализа и создания инноваций [9].

Таким образом, анализируя современные направ-ления в развитии информатизации информиро-ванного общества и образования, предусматривается, что интеллектуальное образование (SMART education) - это "приобретение гибкого образования в интерактивной обучающей среде с помощью свободно доступного, общемирового контента". Технология SMART education позволяет педагогам обобщать новые знания и формировать УМНОГО человека, чтобы такой человек мог в совершенстве использовать информационно-коммуникационные технологии для поиска информации, анализа и создания инноваций.

Теоретический анализ глобальных изменений, происходящих в этой системе в условиях информатизации образования, выявил следующие противоречия:

- противоречие между меняющимися целевыми ориентирами информированного общества и их соответствующим отражением в образовательной среде;

- противоречия между пониманием ими своих задач в образовательном процессе с меняющимися требованиями к педагогам, стремлением сформировать в себе качества, которых требует современное информиро-ванное общество.

Новые высокотехнологичные направления в информатизации рефлексивного образования в концепции SMART education предъявляют высокие требования к квалификации готовности выпускников к инновационной деятельности.

Инновационная деятельность существенно повлияла на мировое сообщество во всех сферах человеческой жизни и деятельности, включая образование, приведя к новым и более высоким этапам развития.

В середине 20 века современное общество характеризовалось как информационное общество. Это свидетельствует о повышении роли информационных процессов во всех сферах человеческой деятельности, возрастает потребность в информации и информационных инструментах для разработки, обработки, хранения и использования информации.

Теоретический анализ литературы позволил провести сравнение, проясняющее различия в традици-онной и инновационной системах образования.

Обсуждение. Ташкентский университет инфор-мационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, кафедра "Информационные и образовательные технологии" в учебной программе предмета "Научное образование" на 180 кредитов.

Студент сможет:

Первый этап называется инновационно-адаптационным этапом. В 1-м и 2-м семестрах начального учебного года учащиеся находятся в процессе адаптации к новой системе высшего образования.

Второй этап длится 3-4-5-6 семестров и называется "инновация – пользователь". На этом этапе на основе дисциплин осуществляется мониторинг инновационной информации и информационных ресурсов и поиск инноваций; использование современных электронных образовательных технологий формирует знания, навыки и компетенции.

Третий этап длится 7 семестров и называется инновационно–исследовательским этапом. Студент осознает, что ему необходимо активно участвовать в исследованиях и разработках, развивать свои творческие навыки и стать конкурентоспособным лидером, будучи готовым к инновационной деятельности.

Четвертый этап проводится в течение 8 семестров и называется инновационно-нечеткий. На этом этапе студенты более организованно выполняют самостоя-тельную работу. На втором этапе студентам будут разъяснены следующие руководящие принципы / рекомендации:

- Внимательно изучают задания;
- Выполняют задание (запоминают);
- На подготовку отводится до 10-15 минут, в зависимости от объема текста,

Учитель должен следить за каждым учеником через локальную сеть или систему онлайн-мониторинга.

Предлагается планирование урока с использованием “умных методов” и “Мелом и разговором”.

В конце тренинга преподаватель оценивает успеваемость учащихся, высказывает свое мнение и обращается к ним со следующими вопросами:

- Что вы узнали из сегодняшнего урока?
- Чему вы научились?
- Что было для вас новым?

Что еще вы хотели бы узнать?

Как только каждый учащийся наберет баллы (оценки), учебное занятие будет завершено.

В заключение, организация урока с использованием технологий “интеллектуальных методов” и “Мелом и разговором”. помогает обеспечить регулярную умственную активность учащихся.

Темы практических занятий по естественным наукам:

№ Практические темы Объем учебных часов

1.Инновационная деятельность преподавателя в организации образовательного процесса, ее содержание и значимость;

2. Информатизация образования и ее инновационные особенности;

3. Инновационные образовательные технологии;

4.Внедрение технологии модульного обучения, основанной на современных ИКТ;

5. Технологии Smart education технологии смешанного образования

6. Использование интеллектуального метода инновационных технологий в процессе управления образованием;

Методология создания и использования электронных образовательных ресурсов на основе инновационных технологий.

В рамках этих тем мы учим студентов работать с большими данными и создавать понятные визуальные графические объекты. На курсах повышения квалификации учителей мы развиваем навыки создания учебных материалов с использованием этих сайтов.

Заключение. На основе анализа и результатов научно-педагогического исследования были сделаны следующие выводы:

На современном этапе информатизации образования появились интеллектуальные образователь-ные технологии, которые являются результатом совершенствования традиционного и электронного (e-learning) образования, а также был усовершенствован процесс подготовки студентов в сфере профессиональ-ного образования к инновациям. Анализ содержания преподавания общеобразовательных и специализированных предметов, включенных в учебные планы образовательных направлений "5350400-Профессиональное образование в области информационно-коммуникационных технологий" и "5111000-Профессиональное образование (по направлениям)" показал, что знания, умения и компетенции, приобретаемые в рамках общего и специализированные дисциплины важны для подготовки студентов к инновационной деятельности. При формировании инновационной активности студентов профессионального образования были разработаны этапы инновационно-адаптационного, инновационного пользователя, инно-вационного исследования и инновационного проектирования. Это послужило основой для разработки критериев оценки деятельности по инновационным педагогическим знаниям, инноваци-онным технологическим навыкам и инновационным профессиональным компетенциям при определении цели обучения и уровня знаний студента.

Создана методика развития инновационной деятельности студентов в сфере профессионального образования в условиях информатизации образования путем совершенствования форм, методов и инструментария, обогащения знаний студентов в области инновационной организации образовательного процесса, использования образовательных технологий SMART portfolio, метода SMART.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ministerial forum global dialogue on ict and education innovation – towards sustainable development goal for education (sdg 4) proceedings 18–19 april 2018 • moscow • russian federation, http://ru.ite.unesco/org/publications/Holodnaya M.A. Psychology in the Intellect: Paradoxy Issuedovaniya. 2nd ed., Pererab. i dop. - SPb: Peter, 2002. - 272 pp.
2. Полонский В.М. Innovation in education //Innovation in education.2007. -No. 2-p.4-14.
3. The newest dictionary of foreign words and expressions.-M.: Modern Writer, 2003-976s.
4. Berk R. Multimedia edition science Learning / R. Berk. W. O. Devlin // Journal of Educational Multimedia and Hypermedia. - 1990.- 3(1)- P 55-70 .
5. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education. - 2013.
6. Тихомиров В. П. The world on the way to Smart-Education: new opportunities for development. - Access mode: http: // slideshare net PRO e-learning smart- education.
7. Ершов А. П. – a scientist and a man. Ed. by A.G. Marchuk. Novosibirsk, 2006. – 503 p.
8. Tikhomirov V. P. Prerequisites for the formation of a Smart society / V. P. Tikhomirov, N. V. Dneprovskaya, I. A. Koretskaya //Smart Education: project for the development of Smart in education. – Access mode: http: // smartmesi. blogspot.ru / 2012.02 smart.html.
9. Nazhmiddinova E.R. Innovative activity in the system of vocational education // WORLD SOCIAL SCIENCE practical journal, – Moscow: 2018. -No. 4 – p. 29.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Mahfuza IBODOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: maxfuza@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES OF BIOLOGICAL SCIENCE TEACHING IN ACADEMIC LYCEUMS

Annotation

This article describes the role and significance of the use of integrative technologies in teaching biological sciences in academic lyceums, which increase the educational and creative activity of students and increase the efficiency of the educational process.
Key words: Competence in working with information, competence in developing oneself as an individual, socially active civic competence, universal competence, integrative.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация

В данной статье описаны роль и значение использования интегративных технологий в преподавании биологических наук в академических лицеях, которые повышают учебную и творческую активность учащихся, повышают эффективность учебно-воспитательного процесса.
Ключевые слова: Компетентность работы с информацией, компетентность развития себя как личности, социально-активная гражданская компетентность, универсальная компетентность, интегративная.

AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi , hamda ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini takomillashtirishda integrativ texnolo giyalardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Axborotlar bilan ishlash kompetensiya, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiya, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, integrativ.

Kirish. Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o‘rganish jarayonida integrativ texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ma’lumki, hozirgi kunda ta’lim jarayonining o‘zi uning maqsadini, mazmunini va integrativ texnologik jarayonlar o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini uyg‘unlashtiradi. Bunday uyg‘unlashish ayniqsa, o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda ularning integrativ xarakterdagi ijtimoiy kompetentliliklarini egallashlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Ta’lim jarayonining har bir komponenti integratsiyalashgan tizimning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ta’lim maqsadida kompetensiyalar, bilimlar, ko‘nikmalar, o‘quv jarayonining vazifalari va o‘quvchilar shaxsiyatini rivojlantirish mujassamlashadi. Ta’lim mazmunida esa o‘quv elementlari va o‘quvchilar faoliyatining tarkibiy qismlari integratsiyalashgan holda o‘z ifodasini topadi. Ta’lim jarayonining texnologiyalari tarkibiga esa turli usullar, metodlar, vositalar va o‘qitish shakllari kiradi. Shu o‘rinda kompetensiya nima ekanligiga e’tibor qaratsak.

Kompetensiya (lotincha competere-mos kelish) - ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobiliyatini namoyish eta bilishni bildiradi. Ta’limiy komnetensiyalar ikki guruhdan iborat: yani tayanch(umumiy) va mahsus (fanlarga oid) komnetensiyalar. Tayanch (umumiy) kompetensiya tarkibga kommunikativlik kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiya, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiya, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya, umummadaniy kompetensiyalarni keltirib o‘tish joiz. Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi.

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat biologiya o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Adabiyot-lar tahlili o‘quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratilishini ko‘rsatdi[5].

Umumiy kompetensiyalar – umumta’lim muassasalari o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi.

Xususiy (biologik) kompetensiyalar – biologik ta’lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi.

Fanlararo kompetensiyalar- o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi. Biologiya fanidan o‘quvchining kompetensiyasi – biologiya fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo‘lay olish

qobiliyatidir. Biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o‘quv fani mazmunini tahlil etishi, o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizimli va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalar yuqori darajadagi ilmiy kompetensiyalar hisoblanadi. Uning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

Ilmiy nazariy kompetensiya;
Ilmiy-metodik kompetensiya;
Pedagogik-psixologik kompetensiya;
Kasbiy sifat va fazilatlar (1-chizma).

Kasbiy sifat va fazilatlarni 1) ijodiy faoliyatni tarkib toptirish; 2) qadriyatlarni tarkib toptirish; 3) ma’naviy-axloqiy tarbiyalarni shakllantirish; go‘yaviy-siyosiy tarbiyalarni shakllantirish orqali rivojlantiriladi.

Quyida kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari berilgan.



1-chizma. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari

Biologiyani o‘qitish orqali o‘quvchilarda biologik kompetensiyalarni tarkib toptirish va rivojlantirish natijasida integrativ texnologiyalar - tizimli, innovatsion, axborotli, mazmunli, zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Kommunikativ jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish;

Axborot bilan ishlash-mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audioo-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshqalar.)

Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish: shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;

o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);

mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;

kasbiy mavqeyining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish

Umummadaniy kompetensiya. Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;

orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish,

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish: aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda, shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Xususiy kompetensiyalar tayanch kompetensiyalardan foydalanilgan holda shakllantiriladi[2]. Bunda o‘quv rejada belgilangan har bir fanning xususiyatidan, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘qitish jarayonida, ya’ni o‘quv mashg‘ulotlarida –dars, laboratoriya, amaliy darslar, darsdan va sinfdan tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mustaqil ishlarni bajarish davomida o‘quvchilarda xususiy kompetensiyalar yuzaga kelishi ta’minlanadi. Har bir fan doirasida o‘ziga xos xususiy kompetensiyalar rivojlantiriladi. Buning uchun o‘quvchilarda

faqat bitta fan doirasidagi bilimlar emas, balki qator fanlardan majmuaviy tarzda amalga oshirishi lozim. Masalan, o‘quvchining biologiya fanidan egallagan ilmiy-nazariy ma’lumotlaridan kelgusida olib boradigan hayot faoliyatida qo‘llay olishi talab qilinidi. Tayanch va xususiy kompetensiyalarning uygu`nligi va bir-birini taqozo qilishi esa o‘quvchida haqiqiy biologik kompetensiyalar rivojlanishiga olib keladi.Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga biologik fanlarni o‘qitish orqali tayanch va xususiy kompetetsiyalarni uyg‘unlikda rivojlantirish zarur. Bu biologik fanlarni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuni qayd etish kerakki, o‘quvchilar o‘quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilishi uchun didaktikada o‘quv materialini saralash bo‘yicha ishlab chiqilgan quyidagi prinsiplarga amal qilish lozim:

1. G‘oyaviy yo‘naltirilganlik;
2. Ilmiylik;
3. Fundamentallik;
4. Tushunarlilik;
5. Tizimlilik;
6. Mantiqiy ketma -ketlik;
7. Uzviylik;
8. Ta’limning izchilligi;
9. Fanlararo bog‘lanish;

O‘quvchilarda tasavvur qilishi, abstrakt tafakkurini rivojlantirish uchun didaktikada ishlab chiqilgan yuqorida qayd etilgan prinsiplar bilan bir qatorda ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi prinsiplarga amal qilish lozim. O‘rganilgan ma’lumotlarni o‘quvchilar yodda saqlashi va uni nazorat qilish uchun har bir mavzu yakunida xulosa chiqarish va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish uchun savol-topshiriqlar, mashq-masalalar berilishi lozim. Bilimlarni shakllantirishning keyingi bosqichlarini amalga oshirish uchun o‘zlashtirilgan bilimlarni tanish odatiy, kutilmagan yangi vaziyatlarda qo‘llash uchun muammoli tarzda savol-topshiriqlar, mashq masalalar ishlab chiqilishi lozim.

O‘quvchilarda ta’lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lgan faoliyat usullari – ko‘nikmalarni tarkib toptirish, uni malaka darajasiga yetkazish uchun amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun topshiriqlar, ularni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Hozirgi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalari ta’limni modernizatsiyalash omili sifatida joriy qilinmoqda. Biologiya ta’limi jarayoniga integrativ yondashuv uning sifati va samaradorligini orttirishga, ta’limni izchil, sistemali, o‘zaro bog‘langan yaxlitlikda rivojlanishini talab qiladi. Bu ta’lim jarayonini tashkil etilishi va tarkibiga o‘ziga xos talablar qo‘yishi natijasida ta’limda integrativ texnologiyalarni yuzaga keltirib, u o‘quvchilarda tayanch va biologik kompitetnsiyalarni shakllantirishning asoiy omili hisoblanadi. Shuning uchun akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishda hamda oliy o‘quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari – innovatsion metodlar, integrativ texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir . Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va integrativ texnologiyalar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini va yuksak kompitentligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. J.O.Tolipova Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho‘lpon” – 2011 y.
2. J.O.Tolipova Pedagogik kvalimetriya moduli bo‘yicha ma’ruzalar matni va amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent – 2015 y.
3. Abduquddusov O.A. Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish dao‘quv amaliyotining o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy konferen tsiya materiallari. Toshkent 2016 yil 30-b
4. Tolipova J.O. Oliy ta’limda biologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. UMK. Toshkent - 2021 yil
5. Смирнова Н.З., Бережная О.В. Компетентностый подход в биологическом образовании. Учебно-методическая пособие./Красноярск, 212,-168 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8.9

Mamaraxim ISRAILOV,
O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi professori
Akmal ABDURAKIBOV,
Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti Yangiyer filiali o‘qituvchisi

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

PROSPECTS OF USING THE PUZZLE METHOD IN TEACHING REAL PARTICLE PHYSICS

Annotation

In this article, the modern method used in the teaching of real elementary particle physics is used in the lesson, it is demonstrative and dynamic, it is interesting and understandable for students, and information about each group of elementary particles is presented..

Key words: technology, method, standard model, colour quantum number, intermediate bosons, quarks, gluons, Higgs boson, leptons, neutrinos, lepton charge, antiparticle, antimatter, meson, hadron, baryon, hyperon, confinement, quantum chromodynamics, strange, charming, beautiful, boson caliber.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ЗАГАДКИ В ОБУЧЕНИИ РЕАЛЬНОЙ ФИЗИКЕ ЧАСТИЦ

Аннотация

В данной статье на уроке использован современный метод, применяемый при преподавании реальной физики элементарных частиц, он нагляден и динамичен, интересен и понятен учащимся, представлена информация о каждой группе элементарных частиц..

Ключевые слова: технология, метод, стандартная модель, цветовое квантовое число, промежуточные бозоны, кварки, глюоны, бозон Хиггса, лептоны, нейтрино, лептонный заряд, античастица, антиматерия, мезон, адрон, барион, гиперон, конфайнмент, квантовая хромодинамика, странный, обаятельный, красивый, калибр бозоны.

HAQIQIY ELEMENTAR ZARRALAR FIZIKASINI O‘QITISHDA “PUZZLE” METODIDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada haqiqiy elementar zarralar fizikasini o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy metodning dars mashg‘ulotida qo‘llanilishi, uning ko‘rgazmali va harakatli bo‘lishi, talabalar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lishi va har bir guruh elementar zarralar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, metod, standart model, rang kvant soni, oraliq bozonlari, kvarklar, glyuonlar, Xiggs bozoni, leptonlar, neytrino, lepton zaryad, antizarra, antimodda, mezon, adron, barion, giperon, konfaynment, kvant xromodinamikasi, g‘alati, maftunkor, ko‘rkam, kalibr bozonlar.

Kirish. Elementar zarralarni o‘rganish kosmik nurlarni o‘rganishdan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik yaratilgan tezlatgichlar va hozirgi kundagi kollayderlar haqiqiy elementar zarralar haqidagi bilimlarimizni ancha kengaytirgan bo‘lsada, bugungi kunda ham uning jumboq tomonlari anchagina. Masalan, elementar zarralar fotonlar, leptonlar va adronlar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganib kelingan bo‘lsa, adronlar haqiqiy elementar zarralar safidan chiqarib tashlandi, chunki ular yanada mayda zarralardan tashkil topganligi aniq bo‘ldi. Ular kvarklar bo‘lib, adronlar xususiyati endi ularni tashkil etgan kvarklarning turi, xususiyati va ularda kvarklarning qanday joylashganligiga bog‘liq bo‘ladi. Undan tashqari, leptonlar soni bilan kvarklar sonining bir xil ekanligi, har ikkalasining uch avloddan iborat ekanligi, ularda uch xil “rang” ning mavjudligi, rang soni bilan avlodlar sonining tengligi, rang soni bilan fazo o‘lchamlar sonining bir xilligi, kvarklar massalarining bir-biridan keskin farq qilishi, adronlar ichida kvarklarning qanday joylashishi, kvarklarning yana qanday zarralardan tashkil topgan bo‘lishi mumkinligi ushbu mavzuda muammolarning ko‘p ekanligidan, demak elementar zarralar fizikasini tushunib olish ancha murakkab ekanligidan darak beradiki, ularni o‘zlashtirishda turli zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo‘naltirilgan ko‘plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsion metodlarning yaratilishi talabalarda fizika faniga qiziqishni oshirishga, dars mashg‘uloti davomida talabalar diqqatini jamlashga, berilayotgan ma’lumotlarning talabalarga tushunarli bo‘lishini ossonlashtirishga xizmat qiladi. Manashunday metodlardan biri bo‘lgan “Puzzle” metodidan foydalangan holda “Haqiqiy elementar zarralar” mavzusini o‘qitishni ko‘rib chiqamiz. “Puzzle” metodini amalga oshirish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

“Puzzle” metodidan foydalanish bosqichlari

1-qadam. Avvalo mavzu haqida dastlabki ma’lumotlarni berib, asosiy tushunchalar tahlil qilinadi.

2-qadam. Mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalaniladigan metod haqida talabalarga tushunchalar beriladi va talabalarni kichik-kichik guruhlarga ajratiladi.

3-qadam. Har bir kichik guruhga puzzlening bo‘laklari tarqatiladi (1-rasm).



1-rasm. Puzzlening namunasi.



2-rasm. Mavzuga oid puzzle bo‘lagi.

4-qadam. Kichik guruhlarning har bir a’zosi puzzle bo‘lagining orqa tomoniga ushbu puzzle bo‘lagida keltirilgan rasm bo‘yicha ma’lumotlarni navbat bilan yozib chiqishadi (2-rasm).

5-qadam. Talabalar metodni ishlashga kirishadilar va ularga namuna tariqasida 3-rasmdagi namuna ko‘rsatiladi.

Kvark — Standart modeldagi fundamental zarra. Uning zaryadi e/3 ga karrali bo‘lib, erkin holda mavjud bo‘la olmaydi.Biroq adronlar (kuchli o'zaro ta'sirda ishtirok etuvchi zarralar, masalan proton va neytron) tarkibida bo‘ladi. Kvarklarni strukturaga ega bo‘lmagan nuqtaviy zaryadlar deb atash mumkin. Ularning o‘lchami~10^{-16} sm tartibida bo‘lishi aniqlangan. Bu o‘lcham protonning o‘lchamidan ming marta kichikdir. Hozirgi kunda kvarklarning 6 xil turi (ba’zida aromatlar deb ham yuritiladi) ma’lum. Bundan tashqari, kvarklarning ichki xossalarini tavsiflash uchun „rang“ tushunchasi ham kiritilgan. Har bir kvarkka mos holda antikvark mavjud. Ular bir biridan kvant soni bilan farq qiladi. Adronlar yanada kichik tarkibiy qismlardan tashkil topgani haqidagi gipotezani ilk bor M.Gellman va undan mustaqil ravishda 1964-yili J.Sveyg ilgari surgan.

3-rasm. Talabalar uchun metodni bajarish namunasi.

6-qadam. Kichik guruhlar topshiriqni bajarib bo‘lishgandan so‘ng, puzzlening bo‘laklari birlashtiriladi. Va barcha ma’lumotlar umumlashtiriladi.

7-qadam. Metod yakunida barcha natijalar tahlil qilinib eng to‘g‘ri va avval yakunlagan guruh a’zolari rag‘batlantiriladi.

Ushbu maqola elementar zarralar fizikasiga bag‘ishlanar ekan, uning ob’yekti Olamning eng kichik zarralari, ya’ni o‘sha foton, leptonlar hamda adronlarni yana guruhlarga ajratib qaragandagi mezonlar, barionlar, giperonlar va ularni tashkil etuvchi subzarralar bo‘lmish kvarklar va ulararo kuchli ta’sirlashishni uzatuvchi glyuonlar, kuchsiz ta’sirlashishdagi oraliq bozonlari bo‘lmish W va Z bozonlar, zarralarga massa ato qiluvchi Xiggs bozoni hisoblanishadi[1]$(1-rasm)$.



4-rasm. “Standart model” zarralari: kvarklar (binafsha doirachalar), leptonlar (yashil doirachalar), kalibr bozonlar (qizil doirachalar) va Xiggs Bozoni (sariq doiracha).

Bugungi kunda elementar zarralar xossalari va tuzilishi haqidagi barcha bilimlar to‘plami “Standart model” deb yuritiladi. Model zarralar o‘rtasidagi kuchli, elektromagnit va kuchsiz ta’sirlashishlarni inobatga oladi[2]. Chunki, bu kabi zarralar orasidagi gravitatsion ta’sirlashish kuchi, hisobga olmaydigan darajada, kichik.

Bulardan leptonlar va kvarklar massasining ortib borishi bo‘yicha uchta avlodga birlashadi. Hozirgi zamon fani bundan ham katta massali avlodning bo‘lishini rad qilmoqda. Xullas, ushbu model o‘z ichiga jami 24 ta sonni tashkil qilgan leptonlar va kvarklarni, 12 dona kalibr zarralarni va Xiggs bozonini[2] o‘z ichiga oladi. Standart model zarralari Xiggs bozoni bilan to‘qnashishi evaziga ularda namoyon bo‘ladigan massaga ega bo‘lishadi. Ushbu bozonning mavjudligi avvaldan aytilgan bo‘lsada, u 2012 yilda CERN dagi katta adron kollayderida mavjudligi isbotlandi va buning uchun, uning mavjudligini oldindan aytgan, Englert va Xiggslar Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishdi[1].

Leptonlar. Leptonlar guruhiga elektron, myuon, tau-lepton, elektron neytrinosi, myuon neytrinosi taon neytrinosi hamda ularning antizarralari kiradi. Ushbu zarralar elektromagnit, kuchsiz va gravitatsion hamda Xigs bozoni maydonlari bilan ta’sirlashishlari mumkin. Barcha leptonlar fermionlar sinfiga mansub bo‘lib, spini ½, faqatgina neytrino spini uning harakat yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lib, neytrino uchun harakatga qarshi va antineytrino uchun harakat bo‘ylab yo‘nalgan bo‘ladi[3]. Leptonlar uchun lepton “zaryadi” degan kvant soni kiritiladi va u L bilan belgilanadi. Ayrim hollarda uning avlodini ham o‘zida aks ettiruvchi individual leptor soni kiritiladi, ya’ni elektron uchun alohida, myuon uchun alohida va taon uchun alohida.

“Standart model”ga asosan neytrino massaga ega emas deb qaraladi. Lekin, bir neytrinoning ikkinchisiga aylanishi uning kam bo‘lsada massaga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Neytrino haqida hali jumboq masalalar ko‘p va dunyo miqyosida juda ko‘p tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Leptonlarning uch avlodi mavjud bo‘lib, biz yashab turgan Olam uning faqat birinchi avlodidan tashkil topgan, ya’ni elektrondan. Xuddi shunga simmetrik holda kvarklarning ham uch avlodi mavjud va biz yashab turgan Olam zarralari, moddalari birinchi avlod kvarklaridan, ya’ni u va d kvarklardan tashkil topgan. Masalan, atom yadrosining asosiy zarrasi proton ikkita u kvark va bitta d kvarkdan, neytron esa bitta u kvark va ikkita d kvarkdan tashkil topgan va h.k.

1.Ushbu model o‘tgan asrning 60-70 yillarida, Nobel mukofoti sovrindorlari, Glashou, Salam va Vaynberglar ishlarida ta’kidlangan. Ayrim nufuzli ta’lim muassasalarida “Standart model” yadro va elementar zarralar fizikasi bo‘yicha o‘qitiladigan maxsus kursning predmeti bo‘lib xizmat qilgan.

2.Ushbu bozon Englert-Braun-Xiggs maydonining oraliq bozoni hisoblanadi. Xiggs bozoni bu shunday zarraki, faqat uning tufayli zarralar massaga ega bo‘lishadi. Buning tufayli biz beshinchi fundamental ta’sirlashishga ega bo‘ldik, ya’ni gravitatsion, kuchli, kuchsiz va elektromagnit ta’sirlashishlardan keyingi Xiggs bozoni maydonidagi ta’sirlashish. Bu degani biz yashab turgan Olam moddalari atomlari yadrolarini proton va neytronlar tashkil etib, uning atrofida elektronlar harakat qilishadi ekan. Antimodda bo‘lganda esa uning atomlari yadrosini antiproton va antineytronlar tashkil etib, yadro atrofida pozitronlar aylangan bo‘lar edi. Bu esa moddaning birinchi avlod kvarklari va birinchi avlod leptonlaridan tashkil topganligini ko‘rsatib turibdi.

Elektron stabil zarra bo‘lib, myuon va taon nostabil zarralardir. Masalan, myuon 2,2 mks yarim yemirilish davri bilan elektronga va bir juft neytrinoga parchalanadi: $\mu^- = e^- + \tilde{\nu}_e + \nu_\mu$, taon-lepton esa o‘rtacha $2{,}9 \cdot 10^{-13} s$ yarim yemirilish davri bilan ko‘pgina kanallar orqali, masalan myuon va bir juft neytrinoga yoki mezon va tau-neytrinoga parchalanishi mumkin[4]. Ularning xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Leptonlarning xususiyatlari

Zarra/antizarra	Belgisi	Q	S	L_e	L_μ	L_τ	Massa, MeV	Yashash vaqti, s
Elaktron/pozitron	e^-/e^+	-1/+1	½	+1/-1	0	0	0,511	stabil
Myuon/antimyuon	μ^-/μ^+	-1/+1	½	0	+1/-1	0	106	$2{,}2 \cdot 10^{-6}$
Taon/antitaon	τ^-/τ^+	-1/+1	½	0	0	+1/-1	1777	$2{,}9 \cdot 10^{-13}$
Elektron neytrinosi/electron antineytrinosi	$\nu_e/\tilde{\nu}_e$	0	½	+1/-1	0	0	$< 2{,}2 \cdot 10^{-6}$	
Myuon neytrinosi/ myuon antineytrinosi	$\nu_\mu/\tilde{\nu}_\mu$	0	½	0	+1/-1	0	$< 0{,}17$	
Taon neytrinosi/ taon antineytrinosi	$\nu_\tau/\tilde{\nu}_\tau$	0	½	0	0	+1/-1	$< 15{,}5$	

Kvarklar. Kvarklar kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion ta’sirlashishlarda qatnashadi. Kuchli ta’sirlashish (glyuon almashish evaziga) kvarkning rangini o‘zgartiradi, lekin aromati o‘zgarmaydi. Kuchsiz ta’sirlashish esa, aksincha, rangini o‘zgartirmaydi, aromatini o‘zgartirishi mumkin. Kvarklarning odatdagidan tashqari xossalari ko‘rsatadiki, kvarklar bir-biridan ozgina masofaga ham uzoqlasha olmaydi. Bu esa ularning alohida mavjud bo‘la olmasligini tasdiqlaydi. Bunga konfaynment hodisasi deyiladi. Ulardan tashkil topgan adronlargina alohida uchrashi mumkin. Yuqori energiyadagina kvarklar asimptotik erkin. Yuqori energiyali adronlar to‘qnashuvida kvark va antikvarklarning kuchsiz anniglyatsiyasi kuzatilib, kuchsiz ta’sirlashishning virtual va real W yoki Z bozonlariga aylanadi. Kvarklarning kasrli zaryadi yuqori energiyali elektron-pozitron anniglyatsiyasida adronlar oqimining tug‘ilish jarayonida namoyon bo‘ladi[5].

Har bir avlodga 2 ta kvark mos kelib, ulardan birining elektr zaryadi + 2/3, ikkinchisiniki -1/3ga teng[4; 5].

Kvarklar uchun rang kvant soni kiritilgan bo‘lib, uchta turli rangdagi kvarklardan tashkil topgan barion rangsiz bo‘lib, bu 2-rasmda juda yaxshi ko‘rinib turibdi. Bitta kvark va bitta antikvarkdan tashkil topgan mezon ham rangsiz bo‘lib, ya’ni rang (5-rasm) kvant soni barionlar, mezonlar va giperonlar uchun xos emas [5].

2-jadval

Kvarklarga oid asosiy ma’lumotlar

Belgisi	Nomlanishi		Zaryadi	Massasi
	O‘zbekcha	Inglizcha		
Birinchi avlod				
D	Pastki	Down	-1/3	$4{,}8 \pm 0{,}5 \pm 0{,}3$ МэВ/с²
U	Yuqorigi	Up	+2/3	$2{,}3 \pm 0{,}7 \pm 0{,}5$ МэВ/с²
Иккинчи авлод				
S	G‘alati	Strange	-1/3	95 ± 5 МэВ/с²
C	Maftunkor	Charm (charmed)	+2/3	1275 ± 25 МэВ/с²
Учинчи авлод				
B	Ajoyib	Beauty (bottom)	-1/3	4180 ± 30 МэВ/с²
T	Haqiqiy	Truth (top)	+2/3	$174\,340 \pm 650$ МэВ/с²



5-rasm. Protonning 3 ta kvarkdan tashkil topganligi va ranglar o‘zaro qo‘shilganda qanday ranglarning hosil bo‘lishining tasviri.

Rang bu kvarklarning muhim xarakteristikasi hisoblanadi, chunki u kvarklardan tashkil topgan adronlar to‘lqin funksiyasining antisimmetrikligini ta’minlaydi va shu bilan Pauli prinsipi bajarilishiga olib keladi. Tarkibiga s kvark ham kirgan mezon va adronlar g‘alati zarralarni hosil qilsa, tarkibiga c va b kvarklar kirgan zarralar maftunkor va ko‘rkam zarralar hisoblanishadi.

Kvarklar orasidagi o‘zaro ta’sir glyuonlar vositasida amalga oshiriladi. Glyuonlar kvarklar rangini tashuvchi va kuchli o‘zaro ta’sirni amalga oshiruvchi zarralardir. Bir rangli kvark o‘zidan glyuon chiqarib boshqa rangli kvarkka aylanishi mumkin. Glyuonlar va kvarklar nazariyasi kvant xromodinamikasi deyiladi. Bu nazariyaga ko‘ra rang tashuvchi 8 ta turli glyuonlar mavjud ekan. Glyuonlar adronlarning paydo bo‘lishi va yo‘qolishi reaksiyalarining oraliq bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Eksperimentlarda glyuonlar hosil qilgan adron oqimlari qayd etilgan. Kvarklar va glyuonlar nazariyasi bashorat qilgan barcha narsalar tajriba natijalariga mos tushganligi sababli glyuonlarning mavjudligiga deyarli shubha yo‘q.

Umuman olganda, kvarklar gipotezasi, hususan kvant xromodinamikasi adronlar tuzilishi nuqtai nazaridan konservativ gipotezadir. Chunki, faqat ushbu gipotezagina adronlar ustida bajarilgan eksperimentlar natijalarini tushuntirib bera oladi. Kvarklar nazariyasi bilan osongina tushuntirib berilgan ko‘pgina eksperimentlar natijalarini kvarklarsiz tushuntirib berish ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham kvarklar modeli jahon fiziklar jamiyati tomonidan 1976 yildayoq tan olingan.

Kalibr bozonlar. Bular ta’sirlashishni uzatuvchi zarralar bo‘lib, elektromagnit ta’sirlashishniki foton, kuchsiz ta’sirlashishniki $W^{\pm}$ va Z^0 bozonlar hamda 8 ta glyuonlar kuchli ta’sirlashish bozonlaridir. Ular virtual zarralar shaklida namoyon bo‘ladi. Fotonlar-bu biz uchun tanish zarralar bo‘lib, elektromagnit maydon kvanti. Xuddi shu standart model tarkibiga kiruvchi leptonlar ham, kvarklar ham va hatto zaryadlangan oraliq bozonlari bo‘lmish $W^{\pm}$ lar ham foton almashishi mumkin. Foton tinchlikdagi massaga ega bo‘lmaganligi uchun ham elektromagnit ta’sirlashishning ta’sirlashish chegarasi cheksiz. Foton elektr zaryadiga ega emas, massasiz zarra uchun tinchlikdagi sanoq sistemasi mavjud bo‘lmaganidan uning spini aniqlanmagan.

$W^{\pm}$ va Z^0 bozonlar kuchsiz ta’sirlashishning amalga oshishiga javob beradi. Ular 80,4 Gev va 91,2 Gev energiyali massiv zarralardir. Bu proton massasidan deyarli 100 marta katta bo‘lib, temir atomi massasidan ham katta. Shuning uchun ham kuchsiz ta’sirlashish bu juda ham qisqa masofali ta’sirlashishdir. $W^{\pm}$ va Z^0 bozonlar 1 spinga ega. Ulardan birinchisi kuchsiz ta’sirlashish jarayonlarida qatnashib, zarralarning elektr zaryadini o‘zgartiradi. Z^0 bozoni esa elektr zaryadi o‘zgarmaydigan jarayonlarda qatnashadi[6]. Erkin holatda ular nostabil.

Keyingi eng ko‘p sondagi va tushinish ancha qiyin bo‘lgan oraliq bozonlari bu glyuonlardir. Ular kuchli o‘zaro ta’sir uzatuvchilari. Nazariy tasavvurlarga ko‘ra ular massasiz zarralardir. Glyuonlarning soni 8 ta bo‘lib, ularning har biri “rang zaryadi” kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Glyuonlar almashishda rang zaryadining saqlanish qonuni bajariladi. Kuchli ta’sirlashish faqat rangli zarralar orasida kuzatiladi. Rang-antirang kombinatsiyalari soni 9 ta bo‘lib, rangsiz zarralarning uzoqdan ta’sirlashishi bo‘lmaganligi uchun mana shu kombinatsiyalarning bittasi amalga oshmay qoladi va natijada kombinatsiyalarning 8 tasi qoladi. Bu esa glyuonlar sonining isbotidir. Atom yadrosidagi proton va neytronlarning bir-biriga aylanishi ham glyuonlar almashishi orqali tushuntiriladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, glyuonlar nuklonlar ichidagi ta’sirlashishlarda qatnashsa, nuklonlararo ta’sirlashish pionlar orqali amalga oshadi.

Xiggs bozoni. Ushbu zarraning kashf etilishi Katta adron kollayderining ishga tushishi bilan bog‘liq. Uning eksperimental aniqlanishi uchun quyidagi kanallar imkoniyat bergan: uning ikkita fotonga parchalanishi H→ $\gamma\gamma$ va oraliq Z bozonlari orqali 4 ta leptonga (ikkita lepton va ikkita antileptonga) parchalanishi $H \to ZZ \to llll$. Natijada detektorda bir juft gamma kvantning to‘qnashishidan yoki 4 ta leptonning to‘qnashishidan hosil bo‘lgan zarra kuzatilgan[1].

Xiggs bozoni maydoni bilan ta’sirlashmagan zarraning energiyasi va impulsi orasidagi bog‘lanish E=pc bo‘lib, Xiggs bozoni maydoni bilan ta’sirlashgan zarraning energiyasi va impulsi orasidagi bog‘lanish $E = c\sqrt{m^2c^2 + p^2}$ bo‘ladi. Chunki tinchlikdagi massaga ega bo‘lgan zarraning massasi mc^2 dan kichik bo‘lishi mumkin emas. Demak, Xiggs bozoni elementar zarraning massaga ega bo‘lishini ta’minlaydi va shu bilan birga gravitatsion, elektromagnit, kuchli va kuchsiz fundamental ta’sirlashishlarga beshinchi fundamental ta’sirlashish kuchi borligi tushunchasini kiritadi.

ADABIYOTLAR

1. Глазков В.Н. Атомная и ядерная физика. М.: 2016.
2. http://nuclphys.sinp.msu.ru/lekt//05.pdf. Kvarklar. Adronlarning kvark strukturasi.
3. http://elementy.ru/lib/430525. Atom yadrosi ichidagi qiziqarli olam.
4. http://elementy.ru/trefil/21196?cjntext=20442. Kvarklar va ular bilan ishlovchi butunjahon yo‘l.
5. http://femto.cjm.ua/articles/part-1/1585.html. Kvarklar.
6. ОИЯИ. Официальный сайт Объединённого института ядерных исследований. http://www.jinr.ru.
7. Mo‘minov T.M. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: “O‘R milliy jamiyati nashriyoti”, 2009.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:377/378:316.346.32-053.6:347(575.1)

Shohruh YO‘LDASHEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shohruh.yoldashev.97@mail.ru

Professor, yu.f.d. V.Topildiyev taqrizi asosida

YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATINI BARPO ETISHDA YOSHLAR HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif yoshlarning huquqiy madaniyatini mohiyatini nazariy va amaliy jixatdan taxlil etgan hamda yoshlarning huquqiy madaniyatini o‘zgartirishga nisbatan huquqshunoslar olimlarning fikrlarini o‘rganib, yoshlar faoliyatida xuquqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqqan holda xuquqiy madaniyat va xuquqiy ong o‘rtasidagi nisbatni tahlil etgan hamda ularning bir-biridan farq qiluvchi alohida, mustaqil konstruksiya ekanligini asoslab bergan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqish, huquqiy ong, huquqiy shaklini o‘zgartirish, ta’sis hujjatlari, davlat yoshlar huquqi, yoshlar madaniyati.

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье автор теоретически и практически анализирует сущность правовой культуры молодежи, исследует взгляды ученых на изменение правовой культуры молодежи, анализирует взаимосвязь правовой культуры и правового сознания, выводя правовую культуру на новый уровень в России. молодежной деятельности, и он доказывает, что эти два юридических термина являются независимой конструкцией.

Ключевые слова: Правовая культура, вывод правовой культуры на новый уровень, правовое сознание, изменение правовой формы, учредительные документы, государственное молодежное право, молодежная культура.

MECHANISMS OF INCREASING LEGAL LITERACY OF YOUNG PEOPLE IN BUILDING A NEW UZBEK SOCIETY

Annotation

In this article, the author analyzes the essence of legal culture of young people theoretically and practically, studies the views of scholars on changing the legal culture of young people, analyzes the relationship between legal culture and legal consciousness bringing legal culture to a new level in youth activities and he proves that these two legal terms are an independent construction.

Key words: Legal culture, bringing legal culture to a new level, legal consciousness, changing the legal form, constituent documents, state youth law, youth culture.

Kirish. Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Fuqarolik jamiyatiga erishish uchun yoshlar o‘z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishlari zarur. Bugungi rivojlangan dunyoda ko‘pgina davlatlarda inson huquq va erkinliklarini, xavfsizligini, yashash sharoitini ta’minlash borasidagi xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari to‘g‘risidagi hujjatlarni maqullagan. Bu hujjatlarga og‘ishmay amal qilish esa yoshlarning huquqiy madaniyati qay darajada shakillanganiga bog‘liq. Huquqiy madaniyat - bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Shu bois huquqiy madaniyat deganda jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqealigi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma’naviy axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muofiq tarzda qaror topodigan qonunga itoatgo‘ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot o‘rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelingan, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlash maqsadida qolaversa yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashish maqsadida O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida" gi farmoni aynan yangicha talab va ma’suliyatni oshiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori ijrosini ta’minlash hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida talab yuqori bo‘lgan tor doiradagi va ixtisosli mutaxassisliklar bo‘yicha yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yaratish, shuningdek, kasbiy yuridik ta’lim sifatini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23-oktabrdagi 858-sonli O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida o‘qishni tashkil qilish choralari to‘g‘risida qaroriga muofiq Adliya vazirligi tuzilmasida har bir hududda bittadan — 14 ta yuridik texnikum tashkil etilishi aynan yoshlarning huquqiy

bilimini oshirish qolaversa yetuk professional ta’lim olishlari uchun xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining hayotga tizimli va izchil tatbiq etilishi demokratik islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bu, birinchi o‘rinda, «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi. Qayd etish kerakki, «inson qadri» — fuqarolarning tinch va xavfsiz hayotini, asosiy huquq va erkinliklarini, bosqichma-bosqich munosib turmush sharoitini ta’minlash va zamonaviy infratuzilmani yaratish, mamlakatning har bir fuqarosi uchun malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya va sog‘lom ekologik muhitni yaratish demakdir. Bunga, eng avvalo, «Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat» g‘oyasi va «inson - jamiyat - davlat» tamoyilini hayotga faol tatbiq etish, Prezident, parlament va hukumat o‘rtasida vakolatlarni aniq taqsimlash, hokimiyatlar bo‘linishi tizimida o‘zaro tiyib turish va muvozanatni mustahkamlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, zamonaviy xalqaro hamjamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topish orqali erishiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari, parlamentarizm, ko‘ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va rivojlantirish haqiqiy demokratiya timsoli hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasida joylardagi muammolarni hal etishda mahalliy boshqaruv hokimiyati organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish, davlat funksiyalarining aksariyat qismini markazdan hududlarga o‘tkazish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, hududlarni rivojlantirishda mahalliy Kengashlarning rolini oshirish, fuqarolik institutlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga e’tibor qaratiladi. Birgina 2021-yilning o‘zida mahalliy Kengashlar tomonidan fuqarolarning 29 mingdan ortiq muammolari ijobiy hal etilganligini inobatga oladigan bo‘lsak, ular faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash «Xalqparvar davlat» g‘oyasini yanada keng hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan ishonch bilan bormoqda, jahon hamjamiyatida mustahkam o‘rin egallaydi. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar hamjihatligi yosh davlatga ishonch va hurmat qozondi. Mamlakatda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquq tizimi va jamiyatni ma’naviy o‘zgartirish sohasida keng ko‘lamli islohotlar boshlandi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning qonunchilik bazasi yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchil mustahkamlanib, takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va natijalarini aholiga yetkazish, ularning bajarilishi va bajarilishini nazorat qilish, qabul qilingan hujjatlarning mazmunmohiyatini oydinlashtirish, bu boradagi ishlarga ko‘maklashish tizimini joriy etish shu tariqa Yangi O‘zbekistonda aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish zarurligini ta’kidladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi, milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilganiga qaramay, davlatimiz rahbari O‘z nutqida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, pirovard natijada xalq farovonligini yuksaltirish, ularning faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatidan xabardorlik-ni oshirish zarurligiga e’tibor qaratdi. Keng aholining siyosiy jarayonlarga jalb etilishi ham davlat organlari bilan muloqotni kuchaytirishga, ham kuchli fuqarolik jamiyatini shakllan-tirishga xizmat qilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy sharoitda huquqiy tartibga solish samaradorligiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ular orasida fuqarolarning huquqiy ongining yuqori darajasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu ularning davlatda amalda bo‘lgan huquqiy normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunishiga – ularning huquqiy ongining sifatiga bog‘liq bo‘lib, u qonun va huquqni to‘g‘ri saqlash kafolati bo‘lib, jamiyatdagi tartib, huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishining kafolati, samarali qonunchilikni yaratish va mutanosib faoliyat yuritishning zarur sharti, qonunni amalga oshirish mexanizmi, shu jumladan, ularni amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan organlar xizmat qiladi. Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aholining huquqiy ongi jamiyat huquqiy madaniyati yuksak darajada rivojlanganligining ko‘rsatkichi Yangi O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etishning muhim shartidir.

Tahlil va natijalar. Davlatimiz rahbari o‘z fuqarolarining huquqiy ongini yuksaltirish muammosiga munosib e’tibor qaratib, mamlakatimiz aholisining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini mustahkamlash, huquqiy savodxonlikni shakllantirishning barqaror amaliyoti uchun zamin yaratishga munosib hissa qo‘shmoqda. Islohotlar jarayonida faol ishtirok etayotgan aholining aynan mana shu toifasi keyinchalik o‘zgarishlarni amalga oshirish, kuchli fuqarolik jamiyatining barqaror faoliyat yuritishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari va mexanizmlarini amalga oshirishda mas’uliyat va tushunish bilan ishtirok etib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida shaxs va oila huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishda Yangi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti sifatida belgilangan. Aholi o‘rtasidagi yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat asosi, huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir. Bu jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarni tartibga solishga faol ta’sir ko‘rsatadigan, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning birlashishiga, jamiyat yaxlitligini, undagi tartibni qo‘llabquvvatlash va mustahkamlashga hissa qo‘shadigan omildir. Qonunga hurmat - huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlarning samarali faoliyat yuritishining asosiy talablaridan biridir. Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas qismidir. Insonlar ongida huquqiy bilimga ega bo‘lgan, uni amalda qo‘llashni bilgan kishigina madaniyatli va bilimli hisoblanishi mumkin, degan ishonch mustahkam o‘rnatilishi kerak. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama yuksaltirishni taqozo etmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilimlar, huquqiy ishonch va faol amaliy faoliyat birikmasi sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta’minlashga qaratilgan. Shunday qilib, normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish, aholi va ijrochilarni qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida huquqiy xabardor qilish sifatini oshirish maqsadida Adliya vazirligiga qonun hujjatlarini ishlab chiqish bilan birga ularning ijrosini nazorat qilish bo‘yicha qo‘shimcha vazifa yuklatilgan, uni amalga oshirishni tashkil etishning tubdan yangi yondashuvlari, chunki hozirgi bosqichda mavjud mexanizmlar o‘zlarining etarli emasligini ko‘rsatdi. Yangi O‘zbekiston barbo etishda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan yoki salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sabab va omillarga nisbatan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga kompleks yondashuvni amalga oshirish aholining faoliyat intizomi va huquqiy ongini yuksaltirishning asosiy omilidir, aholini qonunlarga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash. Yuqoridagilardan

kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berib o‘tmoqchimiz: - aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish uchun mazkur yo‘nalishdagi davra suhbati hamda oquv seminarlari yoki ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam ravishda otkazib borishni yo‘lga qo‘yish; - jamoat joylarida Konstitutsiya maydonlarini yaratish va uni Konstitutsiya va qonunlar aks ettirilgan zamonaviy targ‘ibot vositalari bilan ta’minlash, unda aholining huquqiy ongini yaxshilaydigan, huquqiy madaniyatini oshiradigan lavhalarni keltirish zarur deb hisoblayman - ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish eng dolzarb masala hisoblanadi, shu sababli umumta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’lim tizimidan boshlab bolalar va oquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong qonunva huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiya va inson huquqlarini organish boyicha darslar va darsliklar tashkil qilish, yoshlarning huquqiy bilim va savodxonlik darajasini yuksaltirib borish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma- bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg‘usini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga kotarilmoqda, shu maqsadda Yangi O‘zbekistonda aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda ozhaq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga ogishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risi”da PF-5618-son 09.01.2019 y. Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
4. Saidov A. Zamonaviy konstitutsionalizm: Milliy va xorijiy tajriba // https://xs.uz/uzkr/post/ zamonavijkonstitutsionalizm-millij-va-khorizhij-tazhriba
5. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunlar bazasi, Adliya vazirligi sayti.
6. www.minjust.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.
7. www.uza.uz –O‘zbekiston milliy axborot agentligi.
8. www.pfru.uz – Respublika tibbiy ijtimoiy ekspertiza inspektsiyasi.
9. file:///C:/Users/yuldashev_sh/Downloads/ZDPP2206.pdf
10. file:///C:/Users/yuldashev_sh/Downloads/yangi-o-zbekiston-taraqqiyot-strategiyasida-jamiyat-barqarorligini-ta-minlashning-ijtimoiy-omillari.pdf

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 371.016:57

Farog‘at KAMOLOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:farogatkamolova@gmail.com

Navoiy viloyati PYAMOMM dotsenti Sh. Xasanova taqrizi ostida

METHODOLOGY FOR USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING DEVELOPMENTAL BIOLOGY

Annotation

This article discusses the possibilities of using digital technologies, which help the effective assimilation of theoretical and practical knowledge in the educational process and allow the teacher to radically expand his capabilities when choosing and implementing training. The purposeful use of digital technology tools and methods in teaching developmental biology creates ample opportunities for the realization of the student’s creative abilities.
Key words: information, digital technologies, visual, education, motivation, multimedia, biology.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются возможности использования цифровых технологий, которые помогают эффективному усвоению теоретических и практических знаний в образовательном процессе и позволяют преподавателю радикально расширить свои возможности при выборе и реализации обучения. Целенаправленное использование средств и методов цифровых технологий в преподавании биологии развития создает широкие возможности для реализации творческих способностей школьника.
Ключевые слова: информация, цифровые технологии, визуальное, образование, мотивация, мультимедиа, биология.

RIVOJLANISH BIOLOGIYASI FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quv jarayonida nazariy va amaliy bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradigan, o‘qituvchining o‘qitishni tanlash va amalga oshirishdagi imkoniyatlarini tubdan kengaytirishga imkon beradigan raqamli texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Raqamli texnologiyalarni vositalari va usullarini rivojlanish biologiyasini o‘qitishda maqasadli qo‘llash o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.
Kalit so‘zlar: axborot, raqamli texnologiya, vizual, ta’lim, motivatsiya, miltemediya, biologiya.

Kirish. Ma’lumki, ta’lim doimo zamon bilan hamnafas bo‘lib, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanmasdan bugunki kun zamonaviy maktabni tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish respublikamiz ta’limini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ta’limni raqamlashtirish - axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va ta’lim jarayonida foydalanish uchun birlashtirilgan usullar, jarayonlar va dasturiy-texnik vositalar tizimidir[1]. Ta’limni raqamlashtirishning asosiy elementlaridan biri bu raqamli savodxonlikdir. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kontentni loyihalash va ulardan foydalanish, kompyuter dasturlash, grafik vizualizatsiya texnikasi, kompyuter grafikasi, onlayn kurslarni multimediya ishlab chiqish va boshqalar, ma’lumotlarni qidirish va almashish, boshqa talabalar bilan muloqot qilish qobiliyati - bu raqamli savodxonlikdir.

Shunday qilib, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalariga qiziqishni oshirish va an’anaviy o‘qitishni o‘zgartirish, o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha dunyoqarashini kengaytirish, darsdagi faoliyat turlarini o‘zgartirish orqali o‘quvchining barcha potentsial imkoniyatlarini faollashtirish imkonini beradi.

Shuning uchun ushbu tadqiqotim maqsadini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda biologiya darslarini tashkil etish shakllari va o‘quvchilarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi usul va vazifalari organilgan: ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha nazariy materialni o‘rganish; uslubiy asosni ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish, fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirish shartlari.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruriyatini o‘quvchilarga etkazish muhim vazifa hisoblanadi. Shu o‘rinda biologiya o‘qituvchilari uchun ham fanning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda turli xil axborot resurslari va vositalarini qanday jalb qilish va o‘qitish uchun maksimal darajada foydalanish imkonini bilish muhimligi T.P.Barteneva, A.P.Remontov[1], A.A.Andreev[2], M.B.Bul’cheva[3], A.B.Dvoretskaya[4], A.B.Timofeeva[5] tadqiqotlarida asoslab berilgan. Biologiya- eng kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadigan akademik fandir.

Shuday ekan, axborot texnologiyalaridan foydalanish biologiyani o‘qitishda eng muhim o‘quv muammolarini hal qilish uchun sharoit yaratadi[6,7]:

- biologik mazmundagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan uzluksiz ta’lim faoliyati asosida axborot madaniyati asoslarini yaratish va shakllanishi uchun asos bo‘ladi;

- o‘quv faoliyatiga turli xil biologik mazmundagi ma’lumotlar bilan ishlashning zamonaviy vositalari va usullarini kiritish ‘jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biologik bilimlar inson ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda doimo katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Biologiya nafaqat sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligining nazariy asosi bo‘lib qolmay, balki rivojlana-yotgan sanoatning yangi tarmoqlarini rivojlantirish va texnologiyaning yangi istiqbollari uchun imkoniyatlar ochadi.

Ijtimoiy buyurtma biologiya fanining ham, raqamli texnologiyalarning ham eng so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda kelajak avlodning biologik savodxonligini oshirishni nazarda tutadi. Bularning barchasi biologik ta’limni barcha bosqichlarda, birinchi navbatda boshlang‘ich maktabda takomillashtirishni talab qiladi. Biologiya fani ancha murakkab va ko‘rgazmali bo‘lib, u jarayonlar, tizimlar va qonuniyatlarni ko‘rsatishni talab qiladi, bu esa o‘quvchilarining biologiya fanini o‘rganishini qiyinlashtiradi.

Hozirgi kunda o‘qishda motivatsiyaning ahamiyati haqida ko‘p gapiriladi. Agar katta yoshdagilarni moddiy mukofotlar bilan rag‘batlantirish mumkin bo‘lsa, unda bolalar bilan hamma narsa sodda va ayni paytda qiyinroq: ular qiziqadi yoki yo‘q. Agar qiziqarli bo‘lsa, ma’lumot o‘zlashtiriladi, agar bo‘lmasa, siz bolani testlar bilan qanchalik qo‘rqitmang, uni kitob o‘qishga qanchalik majburlamang, baho olgandan so‘ng, bilim darhol boshidan yo‘qoladi. Agar mavzu qiziqarli va tushunarli bo‘lsa unda ta’lim olishga nisbatan munosobat ijobiy bo‘ladi.

Zamonaviy sharoitda, bolalar juda erta yoshdan boshlab yangi axborot muhitida rivojlanmoqda: Internet, kompyuter dasturlari, axborotni idrok etishning yangicha turlari. Bugungi talaba uchun an’anaviy ma’lumot manbalari, masalan, darslik yoki o‘qituvchining nutqi o‘zining oldingi ma’nosini to‘ldirmaydi, bu esa o‘quv jarayoniga qiziqishning pasayishiga olib keladi. Axborot bilan ishlash qobiliyati raqobatbardoshlikni oshiradi, mustaqil izlanish va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi, “ustoz-shogird” munosabatlari o‘zgaradi, hamkorlik muhiti paydo bo‘ladi[10]. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish muammoli evristik ta’lim va tabaqalashtirilgan ta’lim, rivojlantiruvchi va o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi bilan yaxshi uyg‘unlashgan[8].

An’anaviy texnik oqitish vositalaridan farqli o‘laroq, yangi bilimlarni egallashda IT nafaqat talabani katta hajmdagi tayyor, to‘g‘ri tashkil etilgan bilimlar bilan to‘ldirishga, balki talabalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini, turli xil ma’lumotlar manbalari bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. O‘quv jarayonida kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish o‘quv jarayonini yangi sharoitlarda, o‘qituvchi talabalar uchun yagona ma’lumot manbai bo‘lishni to‘xtatganda amalga oshirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari - bu unga to‘g‘ri yondashgan taqdirdagina kuchga ega bo‘lgan vositadir.

So‘nggi paytlarda talabalarning tabiiy fanlarni o‘rganishga qiziqishi pasayib ketdi, bu juda achinarli, chunki ular atrofimizdagi dunyoni to‘g‘ri idrok etishni shakllantiradi va umuman shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Albatta, eski ko‘rgazmali qurollar, jadval va chizmalardan foydalanish bu fanlarga qiziqishni oshirmaydi. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT), xususan, o‘quv jarayonining turli bosqichlarida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar yordam berishi mumkin.

Biologiyani o‘qitishning hozirgi bosqichida talabalarning atrofdagi dunyoni ilmiy bilishning an’anaviy usullarini o‘zlashtirishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda: nazariy va eksperimental, bu kognitiv faolligi past bo‘lgan bolalar uchun har doim ham qiziq emas. Demak, o‘qishga kognitiv qiziqishi etarli bo‘lmagan ko‘plab bolalarda o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar va majburiy ta’lim standartini amalga oshirishni ta’minlash zarurati, shuningdek, o‘quvchilarni faol kognitiv jarayonga jalb qilish o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi.

Bunda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bu qarama-qarshilikni bartaraf etishga yordam beradi.

AKT quyidagilarni ta’minlaydi: darsda vaqtni tejash, materialni chuqur o‘zlashtirish, o‘qitishga kompleks yondashuv, o‘quv motivatsiyasini oshirish, o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish imkoniyati. Natijada, talabalar nafaqat uning bosqichida darsning faol ishtirokchisiga aylanadilar, balki, tayyorgarlik jarayonida ma’lumot olish va amalga oshirish, shuningdek, darsning strukturasini shakllantirish bosqichida, fan bo‘yicha etarli darajada bilim olish, mustaqil fikrlash, fikr yuritish, bahslashish va mustaqil ravishda faol o‘rinni egallashga mo‘ljallangan turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

Biologiyani o‘qitish boshqa fanlarga nisbatan o‘ziga xosdir, chunki u laboratoriya ishlarini o‘z ichiga oladi va bu holatda kompyuter o‘qituvchining samarali yordamchisiga aylandi. Albatta, laboratoriyada tajriba o‘tkazish inkor etilmaydigan afzalliklarga ega, ammo laboratoriyada zarur jihozlar bo‘lmasa, kompyuterdan foydalanish bu kamchilikni qoplash imkonini beradi.

O‘tkazilgan turli darslarda raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasini tahlil qilib, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bizga quyidagilarga imkon beradi: o‘quvchilarning bilim faolligini faollashtirish, o‘qish uchun ijobiy motivatsiyani ta’minlash, o‘rganishning yuqori darajadagi differentsiatsiyasini ta’minlash, darsda bajarilgan ish hajmini 1,5-2 baravar oshirish, bilim nazoratini yaxshilash, o‘quv jarayonini oqilona tashkil etish, dars samaradorligini oshirish, darslarni yuqori estetik va hissiy darajada o‘tkazish, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, turli xil electron ta’lim resurlari ma’lumot tizimlaridan foydalanishni ta’minlash.

Tahlil va natijalar. Men o‘z ish faoliyatimda turli xil raqamli ta’lim resurslaridan foydalanaman - bular raqamli shaklda taqdim etilgan fotosuratlar, slayd-shou va taqdimotlar, videokliplar, interaktiv modellar, ovoz yozuvlari, matnli hujjatlar va o‘quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqa o‘quv materiallaridir. Shu o‘rinda, raqamli ta’lim resurslaridan darsning turli bosqichlarida, mustaqil ishlar, testlar, laboratoriya ishlarini tayyorlash va sinfdan tashqari ishlarda foydalanaman.

Biologiya fanini o‘qitishda AKTdan foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biri multimediali taqdimot usulidir.

“Multimedia” atamasi foydalanuvchiga eng samarali ta’sir ko‘rsatish uchun turli xil dasturiy va texnik vositalardan foydalanadigan axborot texnologiyalari majmuasini anglatadi.

Grafik, tovush, foto va video ma’lumotlarning bir vaqtning o‘zida ta’siri tufayli axborot texnologiyalarida multimediyadan foydalanish ta’lim jarayoni amaliyotida kehg foydalaniladi. Biologiya o‘qitishda multimediadan foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko‘plab misollar bilan ko‘rsatish mumkin[9,10].

1. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animatsiyalar bilan birga taqdimotlar statik matnga qaraganda vizual jihatdan jozibali bo‘lib, ular taqdim etilayotgan materialni to‘ldiradigan hissiy darajani saqlab turishi va o‘rganish samaradorligini oshirishi mumkin.

2. Multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga biologiya fanidan ta’im jarayonida amalga oshirish mumkin bo‘lmagan bir qancha tajribalarni ko‘rsatish imkonini beradi.

3. Multimedia vositalaridan foydalanish talabalarga real vaqt rejimida ko‘rsatib bo‘lmaydigan bir qator biologik ob’ektlarni namoyish qilish imkonini beradi.

4. Multimediyadan foydalanib, siz talabalarga biologiya kursida o‘rganilgan muzey eksponatlarini yoki qo‘riqxonalarni sinfdan chiqmasdan ko‘rsatishingiz mumkin.

Multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilariga o‘quv materiallari bilan turli usullarda ishlash imkonini beradi - shaxs o‘zi materiallarni qanday o‘rganishni, axborot texnologiyalarining interaktiv imkoniyatlaridan qanday foydalanishni va o‘z kursdoshlari bilan birgalikda ishlashni qanday amalga oshirishni o‘zi hal qiladi. Shunday qilib, talabalar o‘quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadi. Multimedia quyidagilarga hissa qo‘shadi:

- Axborotni idrok etish va anglash kabi o‘rganishning kognitiv jihatlarini rag‘batlantirish;
- Talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish;
- Talabalar orasida jamoaviy ishlash va jamoaviy bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Talabalarda o‘rganishga chuqurroq yondashishni rivojlantirish va shuning uchun o‘rganilayotgan materialni chuqurroq tushunishni shakllantirishni taqozo etadi.

Shuningdek talabalarning mustaqil bilim samaradorligini oshirishda loyihalash usulidan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bunda, AKT vositalaridan foydalanishni o‘rgatishda loyiha usulidan foydalanishning asosiy talablariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- uni hal qilish uchun yaxlit bilim va izlanishlarni talab qiladigan muhim tadqiqot va ijodiy vazifaning mavjudligi;
- kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, kognitiv ahamiyati;
- talabaning mustaqil faoliyati;
- loyiha ustida ishlash uchun zarur bo‘lgan turli sohalardan asosiy bilimlarni aniqlash;
- loyiha mazmunini tuzish;
- tadqiqot usullaridan foydalanish;
- muammo va undan kelib chiqadigan tadqiqot vazifalarini aniqlash;
- ularni hal qilish uchun yangi g‘oyalarni ilgari surish, tadqiqot usullarini muhokama qilish;
- olingan ma’lumotlarni tahlil qilish;
- yakuniy natijalarni ro‘yxatdan o‘tkazish;
- umumlashtirish, xulosalar, ijodiy hisobotlar va boshqalar.

Ushbu loyiha usuli har doim qandaydir muammoni hal qilishni o‘z ichiga oladi, bu bir tomondan, turli xil usullardan foydalanishni, boshqa tomondan, fan, texnika, texnologiya va ijodiy sohalarning turli sohalaridan bilim va ko‘nikmalarni birlashtiriadi.

Shuningdek, biologiya darslarida elektron axborot ta’lim resurslari bilan ishlashning ikki turi eng keng tarqalgan: o‘qituvchi rahbarligida dars jarayonida va mustaqil ishda bilimlarni mustahkamlash va oshirish maqsadida.

Yana bir muhim omillardan biri shundaki, zamonaviy gipermedia texnologiyalari Internet tarmogida joriy qilingan turli serverlarda joylashgan turli xil multimedia ma’lumotlarini bir-biri bilan bog‘lash, uning tarkibiy tuzilishini amalga oshirish va shu orqali yaxlit elektron ta’lim axborot resursini yaratish imkonini beradi.

Ushbu elektron ta’lim usulning dasturlashtirilgan o‘qitishning standart va adabiyotlar bilan ishlash usulidan asosiy farqlari quyidagilardan iborat:

- foydalaniladigan elektron ta’lim resurslari Internetdagi turli serverlarda joylashgan;
- axborot resurslarining soni va ular orasidagi aloqalar amalda cheklanmagan bo‘lishi mumkin;
- gipermatn yordamida ma’lumotlarni taqdim etish tizimi talabaga o‘quv materialini, bilimlarni o‘z xohishi va imkoniyatlariga muvofiq chuqurlashtirish va kengaytirishga imkon beradi;
- Internetda qo‘llaniladigan gipermedia texnologiyalari, agar kerak bo‘lsa, o‘quv materialiga illyustratsiyalar, animatsiya, video va ovozli ma’lumotlarni joylashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, biologiyani o‘rganishda axborot texnologiyalarini joriy etish quyidagilarga imkon beradi[11,12]:

- ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini faollashtirish;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini oqilona tashkil etish;
- har bir shaxsga o‘z ta’lim yo‘lini taqdim etadigan ochiq ta’lim tizimini yaratish;
- o‘quv jarayonini individuallashtirish va tubdan yangi kognitiv vositalarga murojaat qilish imkonini beruvchi kompyuterning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish;
- kompyuter grafikasi va kompyuter modellash-tirishdan foydalanishga asoslangan murakkab biologik tizimlar doirasida makro va mikrodunyodagi hodisa va jarayonlarni o‘rganish;
- haqiqatda sodir bo‘ladigan turli xil biologik jarayonlarni o‘rganish uchun qulay vaqt shkalasida ifodalash;
- idrok jarayonini tizimli tafakkurga o‘tkazish orqali uni tashkil etishni aniq o‘zgartirish.
- o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlash va iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash.

Подводя итог, можно сделать вывод, что применение в практике
преподавания биологии цифровых образователь-ных ресурсов способствуют
повышению интеллектуальной активности учащихся, а значит и
эффективности урока. Именно это оживляет процесс обучения и делает его
современным. Даже самые пассивные учащиеся включаются в активную
деятельность с огромным желанием, у них наблюдается развитие
оригинальности мышления, творческого подхода к решаемым проблемам. Все
делает ученика более подготовленным к жизни в бурно развивающемся
цифровом мире.

Подводя итог, можно сделать вывод, что применение в практике
преподавания биологии цифровых образователь-ных ресурсов способствуют
повышению интеллектуальной активности учащихся, а значит и
эффективности урока. Именно это оживляет процесс обучения и делает его
современным. Даже самые пассивные учащиеся включаются в активную
деятельность с огромным желанием, у них наблюдается развитие
оригинальности мышления, творческого подхода к решаемым проблемам. Все
делает ученика более подготовленным к жизни в бурно развивающемся
цифровом мире.
Подводя итог, можно сделать вывод, что применение в практике
преподавания биологии цифровых образователь-ных ресурсов способствуют
повышению интеллектуальной активности учащихся, а значит и
эффективности урока. Именно это оживляет процесс обучения и делает его
современным. Даже самые пассивные учащиеся включаются в активную
деятельность с огромным желанием, у них наблюдается развитие
оригинальности мышления, творческого подхода к решаемым проблемам. Все
делает ученика более подготовленным к жизни в бурно развивающемся
цифровом мире.
Подводя итог, можно сделать вывод, что применение в практике
преподавания биологии цифровых образователь-ных ресурсов способствуют
повышению интеллектуальной активности учащихся, а значит и
эффективности урока. Именно это оживляет процесс обучения и делает его
современным. Даже самые пассивные учащиеся включаются в активную
деятельность с огромным желанием, у них наблюдается развитие
оригинальности мышления, творческого подхода к решаемым проблемам. Все
делает ученика более подготовленным к жизни в бурно развивающемся
цифровом мире.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biologiya fanini o‘qitish amaliyotida raqamli ta’lim

resurslaridan foydalanish o‘quvchilarning intellektual faolligini, demak, dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu o‘quv jarayonini jonlantiradi va uni zamonaviy qiladi. Hatto eng passiv talabalar ham katta ishtiyoq bilan faol mashg‘ulotlarga jalb qilinadi, ularda fikrlashning o‘ziga xosligi va hal qilinayotgan muammolarga ijodiy yondashish rivojlanadi. Hamda talabani jadal rivojlanayotgan raqamli dunyoda hayotga ko‘proq tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Бартенева Т.П., Ремонтов А.П. Использование информационных компьютерных технологий на уроках биологии. Международный конгресс «Информационные технологии в образовании».– г. Москва.-2003.
2. Андреев А.А. Компьютерные и телекоммуникационные технологии в сфере образования //Школьные технологии.-2001.- №3.
3. Булычева М.Б. Использование информационных и коммуникативных технологий на уроках биологии //Биология в школе.- 2008.- №16.
4. Дворецкая А.В. Основные типы компьютерных средств обучения //Школьные технологии.-2004.-№3.
5. Тимофеева А.В. Информационные технологии – друзья или враги? //Биология в школе.-2007.-№ 13.
6. Андреев А.А. Компьютерные и телекоммуникационные технологии в сфере образования. //Школьные технологии. 2001. №3.
7. Дворецкая А.В. Основные типы компьютерных средств обучения. //Школьные технологии. 2004. №3.
8. Гилева Г.Г. Медиаобразование и биология: первые шаги //Биология в школе, 1998, № 2. – С.36
9. Пасечник В.В. Компьютерная поддержка урока биологии // Биология в школе, 2002, № 2. – С.30
10. Андреева, Н.Д. Методика обучения биологии в современной шко-ле: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры/ Н. Д. Андреева, И. Ю. Азизова, Н. В. Малиновская; под ред. Н. Д. Андреевой. - 2-е изд., испр. и доп. - М. : Юрайт, 2017. - 294 с.
11. Карташова, Н.С. Инновационное обучение биологии в общеобра-овательных аведениях: учебное пособие для студентов бакалавриата / Н. С. Карташова, Е. В. Кулицкая. - Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2016. – 86 с: ил. - Библиогр. в кн. – ISBN 978-5-4475-6594-7;
12. Тушина И.А. Использование компьютерных технологий в обучении биологии // Первое сентября. Биология, 2003, № 27-28.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:172.4: 316.752.4 (575.1)

Elmurod KARIMOV,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi
E- mail: edik7575@internet.ru

ADU dotsent) Sh.Amirxo‘jayev taqrizi asosida

TYPES AND MANIFESTATIONS OF CYBERBULLYING

Annotation

In this article, a number of factors and favorable conditions that cause the occurrence of cyberbullying, types and manifestations of cyberbullying, types of cyberbullying researched in recent years, reasons for the implementation of cyberbullying are mentioned. and cases were considered. It is also reported that cyberbullying is spreading mainly among young people, and as a result, it leads to tragic consequences.

Key words: Cyberbullying, Internet, trolling, youth, violence.educational system, teaching.

ВИДЫ И ПРОЯВЛЕНИЯ КИБЕРБУЛЛИНГА

Аннотация

В данной статье упомянут ряд факторов и благоприятных условий, вызывающих возникновение кибербуллинга, виды и проявления кибербуллинга, исследованные за последние годы виды кибербуллинга, причины реализации кибербуллинга, а также рассмотрены случаи. что кибербуллинг распространяется преимущественно среди молодежи и, как следствие, приводит к трагическим последствиям.

Ключевые слова: Кибербуллинг, интернет, троллинг, молодежь, насилие.

KIBERBULLING HODISASINING TURLARI VA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kiberbulling hodisasining paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan bir qator omillar va qulay shart-sharoitlar, kiberbulling hodisasining turlari va namoyon bo‘lishi keltirib o‘tilgan bo‘lib, kiberbullingning so‘nggi yillarda tadqiq etilgan turlari, kiberbullingni amalga oshirilishi sabablari va holatlari ko‘rib chiqilgan.Shuningdek, kiberbulling asosan yoshlar o‘rtasida keng tarqalayotganligi va natijada ayanchli oqibatlarga olib kelayotganligi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Kiberbulling, internet, trolling, yoshlar, zo‘ravonlik.

Kirish. “Kiberbulling” fan uchun yangi atama bo‘lib, uning genezisi so‘nggi 20 yillik tadqiqotlar bilan bog‘liq. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, kiberbulling, asosan, bolalar va o‘smirlar orasida sodir bo‘lishi kuzatib turiladi. Lekin, kiberbulling kattalar orasida ham amalga oshirilsa, unda u kiberbulling deb atalmaydi, aksincha, kiberbullingning bir turi bo‘lgan “kiberxarassment” yoki “kiberstalking” deb ataladi[1]. Buni subyektiv qarash deb qarash mumkin.

Kiberbulling bevosita va bilvosita ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkin. Bevosita ko‘rinishdagi kiberbulling agressor tomonidan o‘z o‘ljasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri turli xil ma’lumotlar yuborish va uni haqorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Bilvosita ko‘rinishdagi kiberbullingda esa, agressor o‘z tomoniga boshqa shaxslarni ham jalb qiladi. Ya’ni, agressor “o‘lja”sining ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntini buzib, yoki o‘ljasining ismidan foydalangan holda, ijtimoiy tarmoqlarda yangi akkauntni ochadi va uning nomidan yaqinlariga, do‘stlariga, qarindoshlariga hamda oila a’zolariga g‘ayriijtimoiy tusdagi yolg‘on xabar va ma’lumotlarni yuboradi. Bunday usul orqali potensial jabrlanuvchining ruhiy sog‘lom ekanligiga shubha uyg‘otishga harakat qiladi.

Bilvosita kiberbullingning eng xavfli ko‘rinishi – agressor tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda o‘ljasining nomidan diniy, irqiy, milliy adovat kayfiyatidagi hamda boshqa ko‘rinishdagi qonunga xilof ma’lumotlarni joylashtirilishidir. Bunday holatlar jabrlanuvchining psixologik holati uchun juda xavfli bo‘lib, uning o‘z joniga qasd qilishi (suitsid) bilan tugashi mumkin. Amerikalik tadqiqotchilar R.Kovalskiy, S.Limber va P.Agatstonlarning “Kiberbulling: raqamli asrda bulling hodisasining namoyon bo‘lishi” nomli kitobida virtual olamda kiberbullingning eng ko‘p tarqalgan shakllari keltirib o‘tilgan[2].

Kiberbullingni eng asosiy va ko‘p tarqalgan emotsional shakli fleyming(ing.flaiming) deb ataladi. Fleyming ikki va undan ortiq shaxslar o‘rtasida bir-birini haqorat qilish jarayonidir. Fleyming ommaviy xarakterga ega bo‘lib, bunda internet foydalanuvchilari bir-birlarini ommaviy tarzda ijtimoiy tarmoqlarda haqoratlaydilar. Fleyming, asosan, ikki shaxs o‘rtasida boshlanadi va keyinchalik ushbu jarayonga boshqa shaxslar ham qo‘shilib boradi. Natijada, ikki shaxs o‘rtasidagi mojaroga boshqa shaxslar ham aralashadi, lekin bu mojarolarning oqibati faqat haqoratli so‘zlar almashinuvi bilan yakunlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fleymingga o‘xshash bo‘lgan kiberbullingning yana bir turi – xarassment (ing. Harassment) bo‘lib, zo‘ravonlik qilish (ayollarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik), tazyiq o‘tkazish, haqorat qilish va kamsitish degan ma’noni anglatadi. Xarassmentning fleymingdan farqi shundaki, xarassmentda bir guruh shaxslar ishtirok etmaydi, aksincha, bu jarayon faqat ikki shaxs o‘rtasida sodir bo‘ladi. Xarassment aniq bir shaxsga qaratilgan bo‘lib, davomiy tarzda takrorlanuvchi so‘zlar va xatti-harakatlar orqali shaxsda bezovtalanish, qo‘rquv va stress holatlarini uyg‘otish bilan ifodalanadi. Xarassmentni “griferlar” deb ataluvchi shaxslar ham amalga oshiradi. Griferlar amalga oshiradigan xarassment asosan onlayn o‘yinlarda uchraydi. Xuddi an’anaviy o‘yinlarda ham yoshlar o‘rtasida ajratib qo‘yish holatlari kuzatilishi kabi, onlayn o‘yinlarda ham shunday holatlar kuzatiladi. Ya’ni griferlar o‘z o‘ljasini onlayn o‘yin guruhlaridan chiqarib yuborish

natijasida uni boshqalardan ajratib qo‘yadilar. O‘zbekistonda so‘ngi yillarda jamoatchilik orasida tegajonlikka nisbatan salbiy fikrlar shakllanmoqda «Menimcha, qiz-ayollarning huquqlarini himoya qiluvchi bunday OAV faoliyati — katta muvaffaqiyat hamda adolatsizlik va seksizmga toqat qilishni istamaydiganlarning so‘nggi umididir. Fond ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan bunday ommaviy axborot vositalarini olqishlashi va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlamoqchiman»,[3] — deydi Saida Mirziyoyeva.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi qonunning 4- moddasida “ruhiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) belgilangan.”[4] Qayd etish kerakki, ushbu qonunda tahqirlashning aynan kibermakonda amalga oshirilishi alohida belgilab qo‘yilmagan.

Xarassmentning yana bir ko‘rinishi “trolling” hisoblanadi. Trolling asosan manipulyativ xarakterga ega bo‘lib, trollingni amalga oshiruvchi trollerlar o‘ljasi haqida ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, forumlarda va guruhlarda haqoratomus ma’lumotlarni tarqatish, nafsoniyatiga tegadigan, millatini kamsitadigan, diskriminatsiya qiladigan harakatlarni amalga oshiradilar. Asosan trollerlarning xatti-harakatlari ig‘vo ko‘rinishida bo‘lib, jamiyatda insonlar orasida nizolarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ta’kidlab o‘tish joizki,ba’zi olimlarning fikricha, “trolling” alohida hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi, chunki so‘nggi yillarda “trolling” hodisasi siyosiy tus olmoqda. Qayd etib o‘tish kerkki trolling sanoat darajasiga ko‘tarilib, ma’lum bir miqdordagi pul evaziga yuzlab shaxslar ma’lumm bir g‘ayriijtimoiy g‘oyalarni targ‘ib qilishi, taniqli shaxslarni haqorat qilishi holatlari kuzatilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra: “«Trollar fabrikasi» Rossiya, Meksika, Filippin, Ukraina, Belarusiya, Malayziya, Marokash, Myanma, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Xitoy, Bahrayn, Eron va bir qator boshqa davlatlarda borligi aniqlangan. Hisobotda qayd etilishicha, Rossiya kabi davlatlar pul to‘lanuvchi sharhlovchilardan xorijiy davlatlardagi saylov jarayoniga aralashish maqsadida foydalanadi, lekin «trollar fabrikasi» aksariyat hollarda ichki vazifalar uchun qo‘llaniladi”[5].

Kiberbullingni manipulyativ va bevosita agressiya ko‘rinishiga ega bo‘lgan turi “kiberstalking” (ta’qib qilish) bo‘lib, bunday ko‘rinishdagi kiberbulling turi, doimiy ravishda takrorlanuvchi xabar va ma’lumotlarni o‘z o‘ljasiga yuborib, unda qo‘rquv, xavotir va bezovtalik yuzaga keltirishi mumkin. Kiberstalkingning o‘ljasi individ yoki uning oila-a’zolari bo‘lishi mumkin. Kiberstalkingni amalga oshiruvchi agressor asosan o‘ljalarini doimiy ravishda kuzatish natijasida ularni manipulyatsiya qilishga harakat qiladi. Kiberstalkingning “seksting” deb ataluvchi shakli ham mavjud bo‘lib, u xam o‘z o‘rnida individda qo‘rquv, xavotir va bezovtalanishning paydo bo‘lishiga olib keladi. “Seksting”ni amalga oshiruvchi agressor uyatsiz, yarim yalang‘och va boshqa ko‘rinishdagi hamda hech qanday axloq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan video, rasm va matn ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘zi tayyorlab, ushbu materiallarni ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa elektron kommunikatsiya vositalari orqali tarqatadi. Bunday ko‘rinishdagi agressiya asosan xotin-qizlarga nisbatan qaratilgan bo‘lib, ular orasida o‘z joniga qasd qilish holatlariga ham olib keladi. Kiberstalkingning eng asosiy xususiyati uning qurbonlarini jismoniy jihatdan ajratib olish qiyin[6].

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tashabbusi bilan Kiberstalking uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi. “Gap otganlik bo‘yicha javobgarlikni dispozitsiya dedik. Bu borada aniq xatti-harakat va qaysi holatda javobgarlik keltirib chiqarishiga ehtiyot bo‘lish kerak. Chunki, u yerda tuhmat ham bo‘lib ketishi mumkin. Shuning uchun dispozitsiyasini, ya’ni javobgarlikni biz endi ishlab chiqdik. Vazirlik ishchi guruhi ishlab chiqdi. Endi vazirliklarga beramiz. Shuning uchun bu masalani aniq qilib, albatta, jamoatchilikning muhokamasiga beramiz. Lekin bu bizga, albatta, kerak. Chunki, bu jamiyatimizda xavfga ega bo‘lgan xatti-harakatdir. Bunga davlat sifatida javob qilishimiz kerak”, deydi Adliya vaziri"[7].

Kiberstalkingning yana bir ko‘rinishi bu yolg‘on xabar tarqatish (ing. denigration), ya’ni, individ haqida yolg‘on xabar tarqatish, uni ig‘vo va g‘iybat qilish orqali uning jamiyatdagi obro‘siga va o‘rniga putur yetkazishdir. Bunday ko‘rinishdagi kiberstalkingning ko‘rinishi maktab o‘quvchilari orasida ham ko‘p kuzatiladi. Maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi bunday ko‘rinishdagi ig‘vo va g‘iybat shakli “onlayn slem-buks”(ing.onlineslam-books) deb ataladi. “Onlayn slem-buks” asosan maktab bolalari o‘rtasida turli-xil tabaqalanishni keltirib chiqaradi, masalan “maktabdagi eng chiroyli qiz”, yoki aksincha “maktabdagi eng xunuk qiz”, “maktabda eng yomon kiyinadigan bola” va boshqalar.

Yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish o‘zini boshqa shaxs qilib ko‘rsatishda (ing. impersonation) ham ifodalanadi. Bunda agressor o‘z o‘ljasini ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntining parolini o‘g‘irlab olishga erishadi yoki akkauntini buzib kirishga muvaffaq bo‘ladi hamda o‘ljasining rasmlarini qo‘yib, yangi akkauntni ochadi va o‘ljasining nomidan uning yaqinlariga yolg‘on ma’lumotlarni yuboradi. Bundan tashqari, agressor o‘ljasi nomidan uning ijtimoiy tarmoqdagi akkauntidan foydalangan holda noo‘rin, haqoratnomus va kamsitish ko‘rinishdagi ma’lumotlarni Internetga joylashtirish orqali boshqa insonlar oldida uning obro‘sini tushiradi va unga nisbatan nafrat uyg‘otadi. Bunday ko‘rinishdagi agressiyaning o‘ljasi bo‘lgan individ o‘zida qo‘rquv va xavotirni sezadi hamda yaqinlari orasidagi ijtimoiy aloqaning buzilishiga olib keladi.

Kiberbullingning firibgarlik va shaxsiy ma’lumotlarni ommaga yoyish (ing. trickery) va jamiyatdan chiqarib yuborish (ostrakizm, ing. exclusionG‘ostracism) hamda bir guruh agressorlar tomonidan individga jismoniy kuch ishlatish orqali zo‘ravonlik o‘tkazib, kamsitish, ya’ni “xeppi-slepping” (ing. happy slapping) deb ataluvchi turlari ham mavjud.

Firibgarlik, ya’ni “trickery” deb ataluvchi kiberbulling turi agressor tomonidan o‘ljasiga tegishli bo‘lgan maxfiy, shaxsiy va konfidensial ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni ommaga ijtimoiy tarmoqlar va boshqa elektron vositalar orqali fosh etishdir. Ichki ishlar vazirligiga ko‘ra “...dunyo bo‘ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko‘payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o‘zgalarning plastik kartadagi mablag‘larini o‘zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko‘payib bormoqda”[8].

Tahlil va natijalar. Jamiyatdan chiqarib yuborish va ostrakizm “exclusion g‘ostracism” esa, individ yoki bir guruh shaxslar tomonidan biron bir shaxsni virtual jamiyatdan chiqarib yuborish orqali haqiqiy hayotdagi jamiyatdan ajratib

qo‘yish maqsadida amalga oshiriladi. Bu tushuncha dastlab Grayesiyada qo‘llangan bo‘lib, jamiyat a’zolaridan biri yashirin ovoz berish yo‘li bilan shahardan yoki jamoadan badarg‘a qilingan.[9] Bugungi kunda asosiy ijtimoiy munosabatlar shakli sifatida virtual aloqalar yetakchi o‘ringa chiqqan bir sharoitda bunda hodisalar shaxsning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga onlayn platformalar ham ba’zan o‘z foydalanuvchilarini badarg‘a qilib turadi. Misol uchun, tegram ijtimoiy tarmog‘ida foydalanuvchi xabarlariga nisbatan spam yuborilgan bo‘lsa, uni ijtimoiy tarmoqdan ma’lum bir muddatga cheklshi mumkin. Yoki AQSh prezidenti Donald Tramp ijtimoiy tarmoqlardan badarg‘a qilinganligi qayd etib o‘tish mumkin.[10]

Shu o‘rinda maktab o‘quvchilari orasida hozirgi vaqtda ommalashib borayotgan kiberbullingning yana bir turi - “xeppi-slepping” haqida to‘xtalib o‘tish mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganidek, maktab o‘quvchilarining ko‘pchiligi 4-sinfdan boshlab turli mobil telefonlardan foydalanmoqda va ushbu mobil qurilmalarning deyarli hammasida kameralar mavjud. Ushbu kameralardan maktab o‘quvchilari yomon niyatlarda, birovni uyaltirish, nafsoniyatiga tegish uchun foydalanmoqdalar. Masalan, bir to‘da maktab o‘quvchilari bir kuchsiz sinfdoshiga nisbatan jismoniy kuch ishlatgan holda uni mazah qilib, shikast yetkazadilar va ushbu jarayonni telefondagi kameraga tasvirga olib, boshqalarga tarqatib yuboradilar. Natijada esa ushbu holatdan jabr ko‘rgan o‘quvchi boshqalarning kulgusiga qoladi va turli psixologik stresslarni boshidan kechiradi. Bu esa uning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va natijada kelajakda turli salbiy oqibatlarga olib keladi. Ushbu holatlar nafaqat o‘g‘il bolalar orasida yoki faqat o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘llanilmoqda, balki qizlar orasida ham keng tarqalmoqda. Xususan maktab psixologlaridan olingan intervyularga ko‘ra, qiz bolalar ko‘proq agressiyaning qurboni bo‘ladilar. Chunki qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan ta’sirchan, ishonuvchan bo‘ladilar va ularni qo‘rqitish oson. Bundan tashqari, qiz bolalar o‘g‘il bolalarga o‘xshab ota-onalariga hamma muammolarini aytayvermaydilar, hissiyotlarga beriluvchan bo‘ladilar va o‘z sirlarini har doim ham katta yoshdagilarga ocha olmaydilar. Shuning uchun ham ular kiberbulling qurboni bo‘ladilar va ularda ushbu vaziyatdan chiqib ketish qiyinroq kechadi. Masalan, bunday holatlarga misol qilib aytadigan bo‘lsak, maktabda biron-bir o‘g‘il bolada o‘z sinfdoshini yoki boshqa guruhda o‘qiydigan o‘quvchi qizga nisbatan xayrixohlik (simpatiya) paydo bo‘ladi (oddiy so‘z bilan aytganda, “sevib qolganda”) va u ushbu qizga qandaydir yo‘l orqali yaqinroq bo‘lib suhbatlashishga harakat qiladi. Ko‘p hollarda qiz bola unga xayrixohlik qilayotgan o‘g‘il bolaning his-tuyg‘ularini rad etadi (bu holatlar maktab o‘quvchilari orasida oddiy holat deb ko‘riladi). Natijada o‘g‘il bola alamini ichiga yuta olmaydi va unda ushbu qiz bolaga nisbatan agressiv kayfiyat paydo bo‘ladi va agressiya uyushtiriladi. Bunday vaziyatga tushgan o‘g‘il bolalar ko‘pincha agressiyani axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishga harakat qiladilar, chunki haqiqiy hayotda uni amalga oshirish imkoni bo‘lmaydi (odamlar va tarafdorlar ko‘p bo‘lishi sababli). Ko‘pincha bunday holatlarning oxiri salbiy oqibatlar bilan yakunlanadi.

Huquq-tartibot organlari, maktab o‘quvchilari va psixologlaridan olingan ekspert intervyulardan tashqari ushbu ilmiy ish doirasida O‘zbekiston Respublikasining kibermakonida kiberbulling hodisasi bilan bog‘liq hodisalar mustaqil tarzda kuzatib borilgan va tahlil qilingan.

Xulosa va takliflar. Kuzatishlar natijasida ushbu holatlar mamlakatimiz fuqarolari, hukumatga va siyosiy elitaga nisbatan ham onlayn-agressiya ko‘rinishida amalga oshirilganligi ma’lum bo‘lgan. Ushbu onlayn-agressiyani mamlakatimizdagi oddiy fuqarodan boshlab, jurnalist va blogerlargacha amalga oshiradilar. Ammo shuni ta’kidlab o‘tish joizki, xorijiy guruhlar tomonidan olib borilgan shu kabi ishlar o‘rganilganda, guruhlarning a’zolari bunday texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganib, keyinchalik o‘zlari yakka holda boshqa bir insonlarga nisbatan kiberbullingni qo‘llaganliklari aniqlangan. Bizda bunday holat takrorlanmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Natijada esa, ushbu guruhlarni tashkil etayotgan shaxslar, o‘zlari bilmagan holda, onlayn-agressorni tarbiyalab qo‘yishmoqda.

Kiberbullingning jismoniy kuch ishlatib, shaxsni kamsitadigan yagona shakli bu “xeppi-slepping” (ing. happy slapping) bo‘ladi. Bunda bir guruh shaxslar biron bir shaxsga to‘satdan jamoat joylarida tashlanib, unga nisbatan kuch ishlatib, do‘pposlab, ushbu jarayonni kameraga oladilar va

Internetga joylashtirish orqali ommaga taqdim etadilar. Buning natijasida jabrlanuvchida o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qolib, jamiyatdan ajralib qolish oqibatlariga olib keladi. Bu ayniqsa taniqli shaxslar, olimlar, mashhur san’atkorlarga yoki jinoiy guruh tomonidan tanlangan shaxslarga internetda til biriktirib olib, so‘ngra amalga oshirilish mumkin[11].

Yuqorida keltirib o‘tilgan kiberbulling turlaridan kelib chiqqan holda, uning onlayn-agressor tomonidan insonlarga qaratilgan xatti-harakatlarining belgilari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ataylab yoki o‘zi anglamagan holda haqorat qilish, kamsitish, nafsoniyatga tegish va shunga o‘xshash xatti-harakatlar;
- bildirgan fikrga nisbatan haqoratomuz qarashlarni targ‘ib qilish;
- ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirgan ma’lumotlar (rasm, video va hokazolar)ga nisbatan haqoratomuz so‘zlarni ishlatish;
- turli sabablarni bahona qilgan holda, ijtimoiy virtual guruhlardan ataylab chiqarib yuborish orqali ajratib qo‘yish;
- onlayn ravishda doimiy ta’qib qilish, ya’ni, doimiy ravishda Internetda insonni kuzatib, uning tinchligini buzish;
- boshqa inson nomidan, uning shaxsiy ma’lumotlaridan foydalangan holda, xatti-harakatlarni amalga oshirish;
- boshqa bir insonning rasmlaridan foydalanib, ijtimoiy tarmoqlarda soxta akkauntlar ochish;
- boshqa bir insonning rasmlarini qayta ishlab, rasmini axloqsiz ko‘rinishga keltirib, Internetda tarqatib yuborish;
- yolg‘on va soxta ma’lumotlar tarqatish;
- insonni nojo‘ya xatti-harakat qilishiga sharoitlar yaratib yoki majburlab, ushbu xatti-harakatlarni video yoki rasmga olib, Internetda tarqatish;
- zo‘ravonlik va tahdid ko‘rinishdagi ma’lumotlarni yuborish;
- ovoz berish orqali insonni kamsitish yoki ajratib qo‘yish;
- biron bir insonga tegishli bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlarni uning roziligisiz tarqatish.

Umumiy qilib olganda, mamlakatimizda kiberbulling holatlari yildan-yilga ko‘payib borayotgani hamda ushbu hodisani ba’zi bir kimsalar texnologiya sifatida qo‘llab, o‘zlarining quroliga aylantirib olganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Kiberbulling turli ko‘rinishlari yoshlarning bilim darajasi va tarbiyasidan kelib chiqib turlicha namoyon bo‘ladi. Bu esa kiberbullingni yaxlit bir ijtimoiy hodisa emas, balki tizimlashtirib, o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Кибербуллинг: травля в пространстве современнқх технологий. Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2014. Т. 11. №3. С. 177-191.
2. Baron, Reuben M.; Kenny, David A. The moderator–mediator variable distinction in social psychological research: Conceptual, strategic, and statistical considerations. https://psycnet.apa.org/record/2012-04615-000.
3. С. Мирзиёева. «Бу каби ҳолатлар денгиздан томчи».— университетда талаба қизга тегажоғлик қилингани ҳақида. https://www.gazeta.uz/uz/2021/10/27/saida-mirziyoyeva/ -
4. Ўзбекистон Республикасининг 2019-йил 2-сентябрдаги “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” ги қонунни. https://lex.uz/docs/4494709 -.
5. М. Ҳакимжонов. Троллар фабрикаси. https://oliymahad.uz/8878
6. Людкевич Юрий Николаевич, Гришай Елена Васильевна, Люев Тимбот Хабасович. "Деструктивное поведение в онлайн-общения: проблемы и пути решения" Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, no. 8, 2021, pp. 47-52.
7. Р.Давлетов. Бу ижтимоий хавфга эга. https://qalampir.uz/news/-2014-55081.
8. IIV Matbuot xizmati. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish muammolar va yechimlar. https://iiv.uz/oz/news/kiber-makonda-sodir-etilayotgan-jinoyatlarga-qarshi-kurashish-muammolar-va-yechimlar.
9. Евремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толького-словооброзоватательный. Москва, 2000. –С. 350.
10. Interfaks Ukraina. https://interfax.com.ua/news/political/714709.html.
11. Elena I. Galyashina , and Vladimir D. Nikishin. "The Concepts of Aggressive Information Impact through the Lens of Internet Users’ Worldview Security" Журнал Сибирского федерального университета. Гуманитарные науки, vol. 14, no. 11, 2021, pp. 1660-1673. doi:10.17516/1997-1370-0848.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:316.4

Xurshida KOMILOVA,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institut doktoranti, (PhD), dotsent
E-mail:ilm.hurshida@gmail.com

ADU tarix fanlari doktori, prof. O. Komilov taqrizi asosida

PARTICIPATION OF UZBEKISTAN WOMEN IN SCIENCE AND EDUCATION REFORMS

Annotation

The article focuses on the work being carried out in a number of directions in order to expand the participation of women in the improvement of the fields of science in our Republic, to support them in their scientific activities, and to increase the respect for women intellectuals and scientists who are engaged in scientific and creative activities. it is given. The leadership of women and girls, participation in political and social processes, and wide involvement in scientific activities are highlighted. The content of the state policy and strategic development of science development in Uzbekistan is covered. The participation of women in the development of science, the analysis of problems in the field is given. Information is given about the peculiarities of directing women to scientific activities.

Key words: Scientific activity, science, doctoral study, scientific potential, women, incentive, innovative activity, project, research, fields.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В РЕФОРМАХ, НАПРАВЛЕННЫХ НА НАУКУ И ПРОСВЕЩЕНИЕ

Аннотация

В статье акцентируется внимание на работе, проводимой по ряду направлений в целях расширения участия женщин в совершенствовании областей науки в нашей республике, поддержки их в научной деятельности, повышения уважения к женщинам-интеллигентам. и ученых, занимающихся научной и творческой деятельностью. Подчеркивается лидерство женщин и девушек, участие в политических и социальных процессах, широкая вовлеченность в научную деятельность. Освещено содержание государственной политики и стратегического развития развития науки в Узбекистане. Дано участие женщин в развитии науки, анализ проблем в этой области. Дана информация об особенностях направления женщин на научную деятельность.

Ключевые слова: Научная деятельность, наука, докторантура, научный потенциал, женщины, стимул, инновационная деятельность, проект, исследования, направления.

O‘ZBEKISTONLIK XOTIN-QIZLARNING ILM, MA’RIFATGA YO‘G‘RILGAN ISLOHOTLARDA ISHTIROKI

Annotatsiya

Maqolada respublikamizda ilm-fan sohalarini takomillashtirishda xotin-qizlarning faolligini kengaytirish, ularni ilmiy faoliyatda qo‘llab-quvvatlash, ziyoli ayollarga hurmat-ehtiromni oshirish maqsadida bir qator yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi olimlar. Xotin-qizlar yetakchiligi, siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki, ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi alohida ta’kidlangan. O‘zbekistonda davlat siyosati va ilm-fanni strategik rivojlantirish mazmuni yoritilgan. Xotin-qizlarning ilm-fan rivojidagi ishtiroki, bu boradagi muammolar tahlili berilgan. Ayollarni ilmiy faoliyatga yo‘natishning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot berildi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy faoliyat, ilm-fan, doktorantura, ilmiy salohiyat, xotin-qizlar, rag‘bat, innovatsion faoliyat, loyiha, tadqiqot, sohalar.

Kirish. O‘zbekistonda oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni hamda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi qator maqsadli ishlarni amalga oshirib kelmoqda, qo‘mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlaridan biri: xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta’minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish [1];

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son Qarorining 3-bandida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasining asosiy vazifalaridan biri sifatida xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish belgilangan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ham ilm-fan taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqish masalasi tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligi va mavqeini yuksaltirishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, T. Narbayeva O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli xaqida [6], M.G‘offorova [7] O‘zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o‘zgarishlar tendensiyasi,

O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari S.Ahrorova [8] kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda ilm-fan sohalarini takomillashtirishda xotin-qizlar ulishin kengaytirish, ularni imiy faoliyat olib borishlarini qo‘llab quvvatlash, ilmiy va ijodkor faoliyatni olib borayotgan ziyoli-olima xotin-qizlarga hurmat-e’tiborni oshirish maqsadida qator yo‘nalishlarda ishlar davom etmoqda. Ilm-fan bilan shug‘ullanish, ilmiy yangilik yaratish — bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o‘zim shu sohadan chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olima ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman dedi o‘z nutqida mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev [11].

Yurtimiz taraqqiyoti uchun tashabbuskor va yangi g‘oyalar, yangi loyihalar bilan faol ishtirok etishga qodir, intellektual-ilmiy salohiyati yuksak olima kadrlarini tayyorlash doirsida 2017 yilda tayanch doktorantura 456 ta, doktorantura 48 ta 20022 yilda tayanch doktorantura 3032 ta, doktorantura 273 ta, stajyor-tadqiqotchilik 500 ta, maqsadli doktorantura 295 ta [9] davlat byudjetidan doktorantura kovotalari ajratilgani yildan yilga kovotalar soni ko‘paytirilayotganidan dalolat bermoqda.

Ilm-fan sohalarinini chuqur o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosidagi o‘quv adabiyatlar, axborot resurslardan keng foydalanish imkoniyatlari ko‘paytirish hamda ilmiy faoliyatiga ko‘maklashishga doir yangi avlodini yaratish, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalarini takomillashtirish darkor. Shuningdek, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish [3] belgilandi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda ilm-fan sohalarida xotin-qizlardan 700 nafarga yaqini fan doktorlari, 6 nafar akademik, 15 nafar O‘zbekiston Qahramoni mehnat qilmoqda. Umuman, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, san’at va madaniyat sohalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ulishi 72 foizni tashkil etmoqda [5]. Zamonaviy xotin-qizlar o‘z maqsadini aniq bilgan, oila bekasi, farzandlarining onasi bo‘lish bilan bir qatorda, ilm-fan sohalarida ilmiy izlanishlar olib borib jamiyatimiz taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan ayollarimiz soni ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatda o‘rni dunyo miqyosida o‘zgarib bormoqda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy yangicha imiji shakllanmoqda. Bu esa asta sekin xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda, davlat hamda jamiyatni boshqarishda ijtimoiy to‘siqlarni yengib, erkaklar bilan teng, faoliyat olib borishlariga turtki bo‘lmoqda. Yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan xotin-qizlarning ulushi tibbiyotda 77 foizni, ta’lim sohasida 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda. Agar 2017 yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan 37 foizga yetdi [13].

Mavjud ilmiy tashkilotlarda, OTM foliyat yuritayotgan malakali xotin-qizlar ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun jahonning nufuzli ta’lim va ilmiy muassasalarida malaka oshirish va stajirovka o‘tashga jalb etilmoqda. Jumladan, 2018-223 yillarda mutaxassislarni xorijda tayyorlash vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlarining xorijiy ta’lim dasturlari kesimida 2018 yilda 378 ta, 2019 yilda 600 ta, 2020 yilda 15 ta, 2021 yilda 313 ta, 2022 yilda 320 ta, 2023 yilda 155 tani tashkil etdi [10].

Mamlakat ilm-fan sohasiga yo‘naltirilgan mablag‘lar bosqichma-bosqich oshirilmoqda. Bunda mamlakatning itimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish maqsadida, ilm-fanga oid loyihalar tanlovlar asosida moliyalashtirilmoqda. 2019-2023 yillar mobaynida yer to‘g‘risidagi fanlar - 53, Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiyalarni rivojlantirish fanlari - 61, matematika va fizika fanlari - 72, filologiya va ijtimoiy fanlar -79, kimyo texnologiyalari fanlari -83, biotexnologiya va biologiya fanlari – 84, texnika fanlari – 117, tibbiyot 118, qishloq xo‘jaligi - 218 va boshqa 181 ta fan yo‘nalishlari kesimida innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalari tanlovlari asosida moliyalashtirilgan [9]. 2023 yil 1 -yarim yilligida 54 ta amaliy, 22 ta innovatsion, 14 ta xalqaro, 10 ta fundamental ilmiy loyihalar moliyalashtirildi [9].

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor vazifalardan biri xotin-qizlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, imkoniyatlarni kengaytirish, intelektual salohiyatga ega mutahassis kadrlar tayyorlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning bandligini taminlash, ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy-siyosiy sohalarda hayotida xotin-qizlarning ishtirokini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Dunyodagi barcha mamlakatlarda xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi jamiyatning madaniyatlilik darajasini belgilab beradi. Bu borada bugungi kunda xotin-qizlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini ortishiga bo‘lgan jamiyat ehtiyojlarining kuchayib borayotgan bo‘lsa ikkinchi tarafdan, yangi O‘zbekiston taraqqiyotida barcha sohalarida xotin-qizlarning mavqei tobora yuksalayotganligi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. Kadrlar salohiyatini oshirish, ilm-fan va ta’lim sohasida yuqori malakali kadrlarning bilim va tajribalarini amalda qo‘llashni moliyaviy rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrdagi 1030-son qaroriga asosan ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi [4] joriy etildi. Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun ayollarimizdan 17 nafari eng oliy mukofot – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan. Xotin-qizlarimiz orasida 5 nafar akademik, oliy ta’lim muassasalarining o‘zida 700 nafardan ziyod fan doktori, qariyb 3 ming nafar fan nomzodi, shuningdek, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “Xalq artisti”, “Xalq o‘qituvchisi” va boshqa faxriy unvonlarga sazovor bo‘lgan ko‘plab ayollarimiz bor [11]. Ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligini inobatga olgan holda xotin-qizlarning ilmiy faoliyati ko‘lamini kengaytirish, muassasalarda foliyat yuritayotgan malakali xotin-qizlar, professor-o‘qituvchilar va ilm-fan sohalari vakillarini jamiyatimizdagi mavqeni oshirish, mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirib borilmoqda. Albatta, xotin-qizlar ilmiy ilm-fan sohalaridagi faolligi individual xarakterga ega bo‘lib, xususan, intelektual, tashabuskor, ongli va teran fikrlay olishi, ma’naviyati-axloqliligi kabi qator fazilatlari bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xotin-qizlar ta’lim, ilm-fan sohalarida muvaffaqiyatga erishuvida hamda kamolotida erkaklarning o‘rni juda salmoqli. Chunki eri qo‘llasagina, ayol o‘z maqsadiga erkin erisha oladi, er qo‘llasa jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, er tushunagina oilada o‘zaro ishonch, sadoqat va hurmat bo‘ladi, erining madadini his qilsagina ayol chinakam baxtli bo‘ladi.

Olima ayollar ishdan qaytib, charchoqni ham sezmasdan ovqat pishirishi, kir yuvishi, bolalariga qarashi, mehmon kutishi, mehmonga borishi, turmush o‘rtog‘iga

e’tibor berishi va bu ishlarni kundallik yumush sifatida bajarishi mumkin.

Fuqorolik jamiyatining negizi bu jamiyat a’zolarini madaniyatliligi, huquqini bilishi bilan birga qonunlarni hurmat qilishi xotin-qizlar xam jamiyatning a’zosi sifatida teng imkoniyatlardan foydalanib, doimo ijtimoiy-siyosiy faolik, innovatsion yangiliklardan xabardor, bilimini oshirib borishi lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlaring jamiyatda munosib o‘rinni egallashi, mustaqil salohiyatlarini namoyon etishlari va ma’naviy-marifiy, ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarda ishtirokini ta’minlash maqsadida davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratildi. Xotin-qizlarning intelektual salohiyatini yuksaltirish hamda ularning ilmiy salohiyatlarini yuuksaltirish – nafaqat oilalarning mustahkamligi, balki jamiyatimiz taraqqiyoti uchun fidoyilarcha mehnat qilishlari demokratik jamiyat rivojida ayollar ishtirokining ko‘payishiga ko‘maklashishi muqarrar.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni. https://lex.uz/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son Qarori. https://lex.uz/
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni 6-b. https://lex.uz/
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrdagi 1030-son “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Qarori. https://lex.uz/
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi, Xalq so‘zi, 2022 yil 8 mart №50(8112)-B.1.2.
6. Narbayeva T.K. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli. Sots. fan.bo‘ycha fan. dokt... diss. avtoref. –Toshkent: 2020. –72 b.
7. G‘offorova M.Q. O‘zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o‘zgarishlar tendensiyasi: sotsiologiya fanlari doktori...diss. avtoref.-Toshkent, 2021.B-65.
8. Ahrorova S.A. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nomz...diss. avtoref.-Toshkent, 2005
9. https://innovation.gov.uz
10. https://eyuf.uz/
11. https://president.uz/uz/lists/view/6013
12. https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/07/womens/
13. https://senat.uz

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:(329:735(575.1))

Nurmuhammad QARSHIYEV,
O‘zMU: “Siyosatshunoslik” kafedrasi dotsenti v.b
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

S.f.d (PhD) D.Ernazarov taqrizi asosida

THE MULTIPARTY SYSTEM IN CENTRAL ASIAN STATES AND ITS DEVELOPMENT PROBLEMS

Annotation

The development of party systems of world countries based on multi-party systems is considered the main factor of civil society today. The crisis of the one-party system in the 90s of the last century further expanded the geography of the multi-party system. The multiparty system has proven to be of great importance in the wide-scale provision of its interests, paying attention to even the smallest groups and strata of society.

In the Central Asian region, as the one-party system ended and the emergence of new independent states, the transition to the multi-party system was started, thereby establishing strong states with legal democratic societies. During the past period, as the countries of the region continued to develop rapidly, the multi-party system proved its optimality in experience.

Key words: Political party, multi-party system, democracy, civil society, totalitarianism, one-party system, pluralism, region, state.

МНОГОПАРТИЙНАЯ СИСТЕМА В ГОСУДАРСТВАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ПРОБЛЕМЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация

Развитие партийных систем стран мира, основанных на многопартийности, сегодня рассматривается как главный фактор развития гражданского общества. Кризис однопартийной системы в 90-х годах прошлого века еще больше расширил географию многопартийной системы. Многопартийность доказала свою важность в широком обеспечении своих интересов, уделении внимания даже самым маленьким группам и слоям общества.

В Центрально азиатском регионе с ликвидацией однопартийной системы и появлением новых независимых государств начался переход к многопартийной системе, что привело к созданию сильных государств с правовым демократическим обществом. За прошедший период, поскольку страны региона продолжали бурно развиваться, многопартийная система на опыте доказала свою оптимальность.

Ключевые слова: Политическая партия, многопартийная система, демократия, гражданское общество, тоталитаризм, однопартийная система, плюрализм, регион, государство.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA KO‘PPARTIYAVIYLIK TIZIMI HAMDA UNING RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Annotasiya

Jahon mamlakatlari partiyaviy tizimlari ko‘ppartiyaviylik asosida rivojlanishi bugungi kunda fuqarolik jamiyatining asosiy omili sifatida qaralib kelinmoqda. Birpartiyaviylik o‘tgan asrning 90-yillaridagi inqirozi, ko‘ppartiyaviylik tizimining geografiyasini yanada kengaytirdi. Ko‘ppartiyaviylik jamiyatning eng kichik guruh va qatlamlariga ham e’tibor qaratib, uning manfaatlarini ruyobini keng ko‘lamli ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlab kelmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida ham birpartiyaviylik tizimi barham topib yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi barobarida ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tish va shu orqali huquqiy demokratik jamiyatlarga ega kuchli davlatlarni barpo etishga kirishildi. O‘tgan davr mobaynida mintaqa mamlakatlari rivojlanishda jadal davom etar ekan, ko‘ppartiyaviylik tizimi o‘zining optimalligini tajribada isbotlab berdi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy partiya, ko‘ppartiyaviylik, demokratiya, fuqarolik jamiyati, totalitarizm, birpartiyaviylik, plyuralizm, mintaqa, davlat.

XX-asrning eng katta siyosiy voqyeligi sifatida o‘tgan asrning 90-yillarida xalqaro siyosatda katta o‘yinchi hisoblangan sobiq sovet ittifoqining inqirozi va ushbu jarayonlarda partiya institutining ham keng ishtirok etganligini kuzatdik. Mazkur siyosiy jarayonlar siyosiy tizim va partiyaviy tizimning tanazzuli va rivoji bir–biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yana bir bor amalda isbotlab berdi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud mamlakatlarning ham inqirozli sharoitdan chiqib, mustaqilligini qo‘lga kiritishi hamda rivojlanishning yangi bosqichiga siyosiy institutlar endi tuzilgan va hali kuchli bo‘lmagan siyosiy tizim sharoitida o‘tishi, yechimini kutayotgan o‘ziga xos muammolarni ham olib keldi. Ushbu muammolardan biri sifatida jamiyat qurilishida mutlaqo yangi lekin, halqaro tajribada o‘zining samaradorligini allaqachon ko‘rsatib ulgurgan ko‘ppartiya-viylik tizimini joriy etish va shu asosda demokratiyaga asoslangan kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish zaruriyati edi.

Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud deyarli barcha davlatlar mustaqillikning ilk yillarida ijtimoiy–iqtisodiy, madaniy umuman barcha sohada bir–biriga taraqqiyot nuqtai nazaridan yaqin edi. Shuni ham alohida ta’kidlashimiz kerakki, o‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz ko‘plab sohalarda mintaqada yetakchiga aylandi. Demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatining taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan islohotlarda siyosiy partiyalarning keng ko‘lamdagi ishtirokini ta’minlashimiz lozimdir.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik asosida bugungi kunda beshta partiyaning o‘zaro raqobat muhitida faoliyat olib borayotganligi hamda davlat boshqaruvini shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarda ularning ishtiroki

faollashayotganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramasdan mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalar faoliyatida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan muammolar yetarli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” deb nomlangan kitobida siyosiy partiyalar faoliyatini tanqidiy tahlil qilgan holda quyidagi so‘zlarni aytgan edilar: “Bugun zamonning o‘zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o‘zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo‘lga qo‘yishni talab etmoqda. Endi “mudrab yotgan” siyosiy partiyalar uyg‘onishi lozim Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak”[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo ilmiy hamjamiyatida so‘nggi yillarda siyosiy sohadagi tadqiqotlarga ehtiyoj ortib, insoniyatning faravon jamiyatda yashashga bo‘lgan intilishi, o‘zi uchun yaxlit qulay muhitni tashkil etuvchi tizimni mukammallashtirish zarurati bilan izohlash mumkin. Shunday tizimning yaxlit ko‘rinishi sifatida siyosiy tizimni ko‘rsatishimiz mumkin. Partiyaviy tizim esa siyosiy tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, tadqiqot ob'ekti sifatida eng ko‘p murojaat qilinadiganidir. Xususan, mazkur yo‘nalishda baxs-unozaralar, qiziqishlar markazida turuvchi ko‘ppartiyaviylik alohida ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi, xususiyatlari, funksiyalari, jamiyat hayotidagi o‘rniga doir asosiy nazariyalar g‘arb olimlaridan M.Dyuverje, M.Veber, R.Mixels, J.Sartori, P.Meyr, K.Noyman, P.Merkl kabilarga tegishli bo‘lsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar partiyaviy tizimini, xususan mintaqada ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini I.Ergashyev, Sh.Paxrutdinov, N.Jo‘raev, M.Qirg‘izboyev, T.Jo‘rayev, X.Odilqoriyev, Sh.G‘oyibnazarov, Q.Nazarov, A.Mo‘minov, A.Qodirov, B.Yakubov, D.Razzoqov, V.Qo‘chqorov, Sh.Otaqulov, S.Berdiqulov, X.Axmedov, O‘.Tilavov, U.Bo‘tayev, O.Sidorov, R. Jangazi, A.Musuraliyev, T.Ibragimov, K.Bazarbaev, B.Jumagulov, R.Abazov, M.Karibaeva kabilar o‘rganishgan.

Mira Karыbaeva tadqiqotlariga ko‘ra: Markaziy Osiyoda ko‘pincha partiyalar faqat hokimiyat uchun kurashish uchun mavjud degan mubolag‘ali qarash mavjud. Ammo, bu jarayonlarga chuqurroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, shuni hisobga olish kerakki, partiyalar, birinchi navbatda, g‘oyalarning siyosiy raqobatining eng muhim quroli bo‘lib, mamlakatni rivojlantirishning eng samarali yo‘llarini topish uchun mavjud bo‘ladi (amaldagi hukumat tomonidan taklif etilgan vazifalarni amalga oshirish) ya’ni, boshqaruv sifatini yaxshilash. Pirovardida, siyosatchilar emas, oddiy odamlar hayotining haqiqiy yaxshilanishi siyosiy partiyalar ishining sifatiga bog‘liqdir[3]. Ammo, shuni ham unutmasligimiz kerak-ki, Markaziy Osiyo hududida uzoq yillar mobaynida yakka partiyaning, yakka mafkuraning hamda uning asosida markazlashgan boshqaruvning hukmronligi, davlatning barcha sohalardagi aralashuvi sobiq ittifoq parchalangandan so‘ng ham uning ta’siridan tez chiqib ketishning imkonini bermadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu fikrga qo‘shilib, muayyan davr mobaynida bir mafkura va bir partiya hukmronlik qilganligi sababli fuqarolarda boshqa qarashlar, g‘oyalar, maqsadlar bo‘lishi mumkin emasligini qayd etadilar [4].

I.P.Ivanov, S.Yu.Petrenkalarning “Markaziy Osiyo mamlakatlarida prezidentlik instituti va siyosiy partiyalarning o‘rni” deb nomlangan maqolasida “Markaziy Osiyo mamlakatlarida prezidentlik va partiyalar kabi siyosiy institutlarni o‘rganishning dolzarbligi Markaziy Osiyo mamlakatlari allaqachon o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan alohida mintaqa sifatida ajralib turishi bilan belgilanadi. Ammo, bu hududda keng qamrovli tadqiqotlar juda kam. Bu ko‘proq darajada mintaqadagi siyosiy tizimlar rivojlanishining ma’lum bir bosqichidagi siyosiy tadqiqotlarga taalluqlidir. Ushbu maqolada Qozog‘iston-Germaniya universitetida o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqotning asosiy natijalari keltirilgan. Xususan, uchta mezon asosida qiyosiy tahlil natijalarini keltiramiz:

1) Prezidentlik instituti (davlat rahbari o‘zgarishi);

2) Partiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlari;

3) Davlat rivojlanish strategiyasining mavjudligi”[5].

Mualliflar o‘z tadqiqotlarida qiyosiy tahlil va ekspert so‘rovi usullaridan foydalanadi. Qiyosiy tahlil qilish uchun asosiy manbalar sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari Konstitutsiyalari; Mintaqa davlatlarining milliy rivojlanish strategiyalari; Siyosiy partiyalarning dasturlari va boshqa normativ hujjatlardan foydalangan.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida ko‘ppartiya-viylikning rivojlanishi o‘ziga xos murakkabliklarga boy bo‘ldi. Misol uchun O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik to‘liq tom ma’noda shakllanishi uchun bir qancha partiyalar g‘oyaviy o‘xshashliklarini, partiyalarning oldiga qo‘ygan dasturiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda birlashishiga, qayta tashkil etilishiga to‘g‘li keldi. Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv, shuningdek, ekologik o‘zgarishlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va yumshatish zaruriyati ta’sirini mintaqa davlatlari qatorida mamlakatimizda ham yangi siyosiy kuch sifatida “O‘zbekiston Ekologik partiyasi”ni (2019) tuzish uchun sabab bo‘ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi va rivojlanishida umumiy bo‘lgan xususiyatlar bilan bir qatorda o‘ziga xosliklar ham mavjud degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotimizda bilishning dialektik, tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, qiyosiy tahlil va boshqa umumiy ilmiy usullaridan, shuningdek, kompleks yondashuv metodologiyasi, tarixiylik yondashuvi metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Siyosiy partiyalar mohiyatan maqsadi hokimiyat bo‘lgan, siyosiylashgan ko‘ppartiyaviylik sharoitida fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan, inson huquq va erkinliklarini targ‘ib qiluvchi demokratiyaning asosiy kafili sifatida namoyon bo‘ladigan institutdir.

G‘arb siyosatshunos olimi P.Merklga ko‘ra partiya “saylovlar va ichki jarayonlar orqali o‘z yetakchilarini saylaydigan, yangi a’zolarini tartibga soladigan, ichki nizolarni hal qiladigan siyosiy tuzulma”dir[7].

Son va sifatiga qaramasdan davlatdagi barcha partiyalarning bir–biri bilan o‘zaro bog‘liqligi va aloqalarining muayyan tizimi mavjuddir. Har bir davlatda partiyalar va ularning ittifoqlari o‘zaro hamda siyosiy tizim bilan nisbatan barqaror aloqalar o‘rnatadi. Mazkur tuzilish va aloqalar majmui “partiyaviy tizim” deb atalishi qabul qilingan[6]. Markaziy Osiyo davlatlari partiyaviy tizimi shakllanishining umumiyligi shundaki, mintaqa siyosiy partiya va davlat vakolatlari aralashib ketgan, boshqaruvi markazlashgan hamda uning markazida kuchli yakka partiyaning mavjudligi hamda uning mafkurasi e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan siyosiy partiyaviy tizim faoliyatini boshidan kechirganligi, shuningdek, mustaqillikka erishgach mazkur mafkura ta’siridan chiqish jarayoni uzoq davom etganligini keltirib o‘tishimiz mumkin. Mintaqa davlatlari yakka partiya hukmron bo‘lgan totalitar tuzumdan ko‘ppartiyaviylikka asoslangan demokratiyaga o‘tish jarayonini amalga oshirish asnosida bir–biriga yaqin siyosiy madaniyat, siyosiy, huquqiy ong, iqtisodiy darajasi ham deyarli bir xil bo‘lgan inqirozli sharoitda edi.

Ko‘ppartiyaviy tizimi - bu bir nechta siyosiy partiyalar alohida yoki koalitsiyada davlat idoralarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan tizimdir. Boshqacha qilib aytganda,

ko‘ppartiyaviy tizimlar ikkidan ortiq partiyalar vakillik qiladigan va davlat lavozimiga saylanadigan tizimdir[8]. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, mintaqada yakka partiya mafkurasining ta’siri u tugatilgan so‘ng ham ko‘ppartiyaviylikning tom ma’noda rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib keldi. Mazkur jarayon mintaqa aholisining siyosiy ongi, mafkuraviy yo‘nalishdagi ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muammoli vaziyatni vujudga keltirdi. Ko‘ppartiyaviylik mintaqa davlatlariga joriy qilingandan so‘ng, ham partiya tuzilishi, uning vazifalari, boshqaruvi munosabatlarida eski yakka partiviy tizimning me’rosi unsirlarining saqlanib kelganligini ko‘rishimiz mumkin edi. Masalan, siyosiy partiyalar kadrlarini saylash (tayinlash), kadrlarni davlat boshqaruvi organlari rahbar lavozimlariga tayinlashda partiyaviyligining muhimligi kabi omillarning o‘ziga xosligi uzoq vaqt saqlanib qoldi. Siyosiy partiyalarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishda aholiga yakka partiya mafkurasi uzoq yillar mobaynida chuqur singdirilganligi bitta omil deb qarasak, ikkinchi omil sifatida siyosiy partiyalar faoliyatida yangi avlod kadrlarining yetishmasligi, ularning jamiyatni demokratlashtirishda aholi, elektorat bilan ishlashdagi bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi edi.

Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud davlatlar demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini taraqqiyotini ta’minlashda ko‘ppartiyaviylikni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish orqali erishishga harakat qilmoqdalar. Shuning bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasiga xos bo‘lgan muammolarning kuchayib borayotganligi yangi ko‘rinishdagi, kuchli siyosiy partiyalarga ehtiyojni oshirmoqda. Jumladan, mintaqada ekologik muhitning yomonlashayotganligi, yaqin yillarda suv yetishmovchiligining ortishi, hududlar flora va faunasining keskin salbiy o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechimini topishda yangi innovatsiyalardan, ilm–fanning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanish masalalarini ilgari suruvchi hamda mazkur yo‘nalishlar o‘z dasturiy maqsadlarida ustuvorlik qilib uni faol amalga oshiruvchi “Ekologik partiya”larga yoki dasturlarida ushbu yo‘nalish ustuvorlik qiluvchi siyosiy partiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi va rivojlanishi Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun nima berdi degan tabiiy savol tug‘iladi. Birinchidan, eng avvalo, ko‘ppartiyaviylik tizimi mintaqa davlatlari fuqarolariga imkon qadar ko‘proq tanlov imkoniyatini taqdim qildi. Tanlov imkoniyatining kengayishi demokratik tamoyillarga to‘la mos keladi; ikkinchidan, mintaqa davlatlarida hokimiyat almashinuvini tinch yo‘l bilan amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi, ko‘ppartiyaviylik hokimiyat uchun qonun doirasida kurashayotgan bir nechta partiyalarning mavjudligini va raqobatini anglatadi, shuningdek, unda hokimiyatni qo‘lga kiritishning qo‘pol usullaridan aksariyat hollarda voz kechiladi, chunki partiya vositasida hokimiyatga erishish imkoni keng bo‘ladi; uchinchidan, ko‘ppartiyaviylik mintaqa sharoitida ozchilikni tashkil etuvchi guruhlarning ham siyosiy faolligini oshishiga xizmat qildi, ular ham o‘z vakillarini partiyalar yordamida boshqaruvga vakil qilib yuborishi asnosida o‘z manfaatlarini ifodalash va himoyalashda keng imkoniyatlarga ega bo‘ldi. To‘rtinchidan, oppozitsion partiyalarning vujudga kelishi sog‘lom raqobatni va shu orqali rivojlanishning muqobil variantlariga ega bo‘lishni ta’minladi; beshinchidan, saylovlarda g‘alaba qozonib hukmron mavqyeni egallagan partiya faoliyati doimiy ravishda oppozitsion partiyalar tomonidan kuzatilib, faoliyati tanqid ostiga olinib kelinishi, uni tiyib turadi va to‘g‘ri islohotlar olib borishga majbur qiladi; oltinchidan, mintaqada ko‘ppartiyaviylikning rivojlanishi fuqarolarning davlat siyosatidan norozi qatlamlarga ham qo‘shimcha imkoniyatlar taqdim qilib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy zo‘riqishlarning oldini olishiga xizmat qiladi; yettinchidan, saylov jarayonlarida manfaatdor tomonlar o‘zaro kaolitsiyalarga birlashishi, o‘zaro aloqalarni bir maqsad yo‘lida mustahkamlashiga imkoniyat beradi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘ppartiyaviylikning rivojlanish muammolariga quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Birinchidan, ko‘p yillar hukmronlik qilgan yakka partiyaviylik tizimidan me’ros qolgan ayrim salbiy omillarning tom ma’nodagi partiyalararo raqobat muhitining shakllanishiga to‘siq bo‘lishi ehtimolining yuqoriligi; ikkinchidan, hukumatni shakllantirishda muayyan partiyaning davlat instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va bunga qarshi oppozitsion partiyalarning birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik borasidagi to‘siqlarning mavjudligi ehtimoli; uchinchidan, siyosiy partiyalar faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi hamda ularning davlat tomonidan moliyalashtirilib kelishi, ular rivojlanishiga xizmat qilishi barobarida mustaqil faoliyatini cheklash ehtimolini oshiradi; to‘rtinchidan, mintaqa davlatlarining ayrimlarida siyosiy partiyalarning kuchli bo‘linish xarakterining yuqoriligi haddan tashqari ko‘p partiyalarning vujudga kelishiga hamda buning natijasida boshqaruvda xususan parlamentda qaror qabul qilishda yakdillikning yo‘qolishiga olib kelib, jamiyatni parokandalikka yetaklashi ehtimolining mavjudligi; beshinchidan, mintaqa davlatlarining ayrimlarida diniy va etnik ruhdagi partiyalarning tuzilishi havfi mavjudligi millatda bo‘linish vujudga kelish ehtimolini kuchaytiradi; oltinchidan, o‘zaro raqobatlashayotgan partiyalar o‘rtasida hokimiyat uchun kurashda nosog‘lom muhitning vujudga kelishi ehtimoli mavjudligi siyosiy beqarorlikka olib kelib, barqaror taraqqiyotga to‘siq sifatida ko‘rish mumkin. Ammo, shuni ham aytib o‘tishimiz kerakki, yuqorida ko‘rib o‘tgan muammolarning ayrimlari siyosiy partiya mohiyatan hal etishi lozim bo‘lgan muammolarga mos keladi zero, “partiyalarni boshqa tashkilotlardan ajratib turuvchi eng asosiy belgi esa ular faoliyatining davlat hokimiyatini egallash, davlat siyosatini shakllantirish va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritish uchun ochiq va aniq ifodalangan kurashga yo‘naltirilganligidir”[2].

Yuqorida kelitirib o‘tilgan Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida ko‘ppartiyaviylikning rivojlanishida mavjud muammolarga qaramasdan bugungi kunda mintaqa uchun eng samarali partiyaviy tizim sifatida rivojlanishni davom etmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo minqasida mavjud davlatlarda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi nuqtai nazaridan bir–biriga yaqin ya’ni, siyosiy makon, zamon va vaziyat mustaqillikning ilk davrlarida o‘xshash edi. Aholining turmush tarzi, siyosiy–huquqiy ongi va madaniyati darajasida ham katta tafovutlar bo‘lmagan. Mintaqa davlatlarida partiyaviy tizim ya’ni, ko‘ppartiyaviylik shakllanib bo‘lib, rivojlanish bosqichiga o‘tgachgina tafovutlar ko‘zga tashlana boshladi. Masalan, iqtisodiyoti nisbatan rivojlanayotgan davlatlar O‘zbekiston, Qozog‘iston kabi davlatlarda siyosiy partiya instituti barqarorlashib, davlat boshqaruvini shakllantirishda asosiy vosita, shuningdek, aholi va davlat o‘rtasidagi siyosiy ko‘prik sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lib taraqqiy etmoqda. Shunga qaramasdan Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari partiyaviy tizimlari xususan, ko‘ppartiyaviylikning oldida ham hal etilishi zarur bo‘lgan yechimini kechiktirib bo‘lmas muammolar borligini ko‘rishimiz mumkin. Ana shunday muammolar sirasiga mintaqada ekologiyaning yomonlashayotganligi, suv tanqisligi, hududlarning tez sur'atlarda cho‘llashayotganligi “Ekologik” partiyalarning faoliyatini isloh qilgan holda yangi bosqichga olib chiqish va shu orqali mazkur muammolarga yechim topishni zaruratga aylantirmoqda.

Yuqorigidagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Markaziy Osiyo mintasidagi davlatlarda mavjud siyosiy partiyalar o‘rtasida hududga xos muammolarni oldini olish uchun o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish;

Mintaqa davlatlarida mavjud “Ekologik partiyalar” yoki dasturiy maqsadlarida ekologiya muammolari ustuvorlik kasb etuvchi siyosiy partiyalarning faoliyatini jonlantirish, ushbu muammolar yechimi yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar bilan chiqishiga erishish;

Mintaqa davlatlarida mavjud siyosiy partiyalarning jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini qurish borasida olib borayotgan ishlarini monitoringini kuchaytirish, mazkur yo‘nalishlarda ularning reytingini shakllantirish;

Mintaqa davlatlarida ko‘ppartiyaviylik tizimi muammolarini kuzatib tahlil qilib havflarni oldini olish maqsadida siyosiy prognozlar bilan shug‘ullanuvchi aql markazlarini ko‘paytirish, mavjudlari faoliyatini kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон” НМИУ. 2017. –Б.554.
2. Жалилов.А., Мухаммадиев.,У.Жураев.Қ., ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. Давлат бошқаруви академияси – Тошкент, 2015. 264.б.
3. Карыбаева.М., Развитие системы многопартийности в странах Центральной Азии. Центральная Азия и Кавказ №2(38), 2005.с 49.
4. Политические партии в процессе модернизации страны. Т., 2009.С.185.
5. Иванов И. П., Петренко С. Ю. Роль института президентства и политических партий в странах Центральной Азии // Наука без границ. 2018. № 8 (25). С. 33-38.
6. Ирхин Ю.В., Зотов В.Д, Зотова Л.В. “Политология” М.2000. С.269.
7. Дорофеев В.И., Родионов В.А.Основы политологии.СГУ, 1993.с.123.
8. https://www.shivajicollege.ac.in/sPanel/uploads/econtent/9d12e503c163b69c3bb3dd29f1c40bdb.pdf

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378:517.2(371.3)

Xudoynazar QILICHEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti “Informatika” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: qilichevxudoynazar@mail.ru

NavDPI “Matematika” kafedrasi dotsenti PhD S.X. Xolikov taqrizi asosida

METHODOLOGY OF USING THE NUMBER SYSTEM IN TEACHING THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE

Annotation

In an era where modern information technologies have widely advanced, approaching the teaching of programming languages to students in general education schools with a distinct method, developing simplified techniques, and assigning tasks considering the age of the students is considered one of the pressing issues.

Key words: program, educational methods, programming environment, component, application, database.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ ИСЧИСЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ ПРОГРАММИРОВАНИЯ PYTHON

Аннотация

В условиях масштабного развития современных информационных технологий одним из актуальных вопросов является подход к преподаванию языков программирования учащимся общеобразовательных школ на основе специальной методики, разработка упрощенных приемов, постановка задач перед учащимися с учетом возрастных особенностей.

Ключевые слова: программа, методы обучения, среда программирования, компонент, приложение, база данных.

PYTHON DASTURLASH TILINI O‘QITISHDA SANOQ SISTEMASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari keng taraqqiy etgan bir davrda umumta’lim maktab o‘quvchilariga dasturlash tillarini o‘qitishda alohida uslub bilan yondashish, soddalashtirilgan usullarni ishlab chiqish, o‘quvchilarni yoshini inobatga olgan holda vazifalar tayinlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: dastur, ta’lim metodlari, dasturlash muhiti, komponent, ilova, ma’lumotlar bazasi.

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari asri. Dunyomizda qilinayotgan kashfiyotlar, olimlarning izlanishlari, fan-texnika yangiliklari fikrimizning yaqqol misolidir. Masalan, atom energetikasi, zamonaviy kompyuter texnologiyalarining xilma-xilligi, internet texnologiyalari va undan tashqari raqamli televideniyaning rivoji bularning barchasi asrimizning katta yutuqlaridandir.

Bundan tashqari yurtimizda axborotlashtirish sohasiga, uning hayotimizga bevosita tadbiqiga kundan-kunga e’tibor kuchaymoqda. Fikrimizning yaqqol misoli sifatida Prezidentimizning 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar, axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida qilinayotgan ishlarni keltirishimiz mumkin[1].

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyot tahlili. Hozirgi axborot texnologiyalari asrimizda zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, o‘quvchi-talabalarning dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasiga doir tadqiqotlar Mirsanov U.M, Toxirov F.J, Ro‘ziyev R.A, N.N.Zaripov, M.R.Fayziyeva, S. Eshtemirovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shu bilan birga xorijiy olimlar tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy dasturlash tillarini o‘rgatish nazariyasi hamda amaliyoti, o‘quvchilarning algoritmlashga va dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik fikrlashini shakllantirish metodikasiga qaratilgan tadqiqotlar Dj. Forse, Васильев А.Н, Касьянов С.Н, Лапчик М. П, kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda o‘quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish ta’lim sifatini oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda bir nechta dasturlash tillari ishlab chiqilgan bo‘lib, bularga Paskal, Delphi, C++, C#, Python, Java va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu dasturlash tillari biror yo‘nalishdagi masalalarni hal qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari deyish mumkin.

Bizning fikrimizcha, dasturlash bu kompyuterlar va boshqa mikroprotsessorli elektron mashinalar uchun mo‘ljallangan dasturlarni yaratish, tajriba orqali sinovdan o‘tkazish hamda xatolarni tuzatib borish jarayonidan iboratdir. Boshqacha aytganda, kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash va dastur tuzadigan kishi dasturchi deyiladi. Kompyuter tushunadigan til dasturlash tili deb ataladi.

Hozirgi kunda dastur tuzish yuqori darajadagi dasturlash tillari (Delphi, Java, C++, S#, Python) vositasida

amalga oshiriladi. Shu dasturlash tillari kabi Python dasturlash tili ham rivojlanib, zamonga va talabga qarab ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘zgarishlar kiritib borilmoqda[2],[3].

Python dasturlash tilini o‘qitishda quyidagi asosiy tushunchalar muhim sanaladi. Raqamlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchisiga o‘tkazish dasturlash va matematikaning muhim jihati hisoblanadi. Sanoq tizimlari ma’lum belgilar yoki raqamlar to‘plamidan foydalangan holda raqamlarni ifodalash usulini ifodalaydi. Biz o‘nlik sanoq tizimiga (0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlar asosida) o‘rgangan bo‘lsak ham, ikkilik (0 va 1 raqamlari asosida), sakkizlik (0 dan 7 gacha bo‘lgan raqamlar asosida) va o‘n oltilik (0 dan 9 gacha raqamlar va AF harflari asosida) ifodalanadi.

Raqamlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchi sanoq sistemasiga o‘tkazish bizga turli formatdagi va qulay usullarda raqamlar bilan ishlash imkonini beradi. Python dasturlash tilida bunday tarjimalarni amalga oshirishning turli usullari mavjud, jumladan, o‘rnatilgan funktsiyalardan foydalanish va algoritmlarni qo‘lda amalga oshirish[4].

Qism dastur zarurat tug‘ilganda chaqiriladi. U ayni bir kodni bir necha marta yozish zaruratini bartaraf qilib, butun dastur davomida ko‘p marta foydalanilishi mumkin. Bu kodning blokliligini oshiradi, tushunishni osonlashtiradi va xatolarni topishda yordam beradi. Xato bor yoki yo‘qligini bitta kod blokining o‘zida tekshirsa bo‘ladi. Agar xato qism dasturda bo‘lsa, faqat qism dasturning o‘zini tuzatishga zarurat tug‘iladi. Agar qism dasturdan foydalanmasdan, kod bir necha joyda takror-takror yozilsa, u holda butun dastur bo‘ylab xatolarni qidirishga to‘gri keladi[5].

- kodni faqat bitta joyda yangilash kerak bo‘ladi: Kiritilgan barcha tuzatishlar qism dastur chaqirilishi bilan amal qila boshlaydi.
- protsedura- funksiyaga o‘xshash ko‘p marta foydalanilishi mumkin bo‘lgan qism dastur bo‘lib, yagona farqli jihati hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Python turli xil sanoq tizimlarini qo‘llab-quvvatlaydi: ikkilik, sakkizlik, o‘nlik va o‘n oltilik. Raqamlarni aylantirish va ular bilan ishlash uchun ma’lum bir sanoq tizimida tegishli prefikslar qo‘llaniladi[6]:

- Ikkilik raqamlar tizimi: "0B" prefiksi (masalan, 0b1010).
- Sakkizlik raqamlar tizimi: "0o" prefiksi (masalan, 0o22).
- O‘nli raqamlar tizimi: prefiksi yo‘q (masalan, 10).
- O‘n oltilik raqamlar tizimi: "0x" prefiksi (masalan, 0x0a).

Agar raqamni bitta sanoq tizimidan boshqasiga o‘tkazish kerak bo‘lsa, tegishli funktsiyalardan foydalanish mumkin: bin (), oct (), int() va hex().

Quyida Python dasturlash tili yordamida sanoq sistemalardan foydalanib dasturlarni ko‘rib chiqamiz.

Ikkilik sanoq sistemasi bu faqat ikkita raqamdan foydalanishga asoslangan sanoq sistemasi: 0 va 1. Bu 0 dan 9 gacha bo‘lgan o‘nta raqamdan foydalanadigan o‘nlik sanoq sistemasidan farq qiladi. Ikkilik sistemada har bir raqam pozitsiyasining vazni, bu ikkining kuchi.

Birinchi dasturimiz sharti quyidagicha: berilgan ikkilik sanoq sistemasidagi 1011 sonini o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazish dasturini tuzing.

1-usul. Raqamni ikkilik sanoq sistemasidan o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazish.

```
x=0b1011
print (x) #Natija:11
```

2-usul. Funktsiya int()

Funktsiya int() sonni ikkilikdan o‘nlik sanoqqa aylantirish uchun ishlatilishi mumkin. Buning uchun ikkita argument kerak bo‘ladi: ikkilikdagi sonni ifodalovchi satr va tarjima bajarilishi kerak bo‘lgan baza. O‘nlik sistemaga o‘tkazish uchun baza 2 ga o‘rnatiladi. Funktsiyadan foydalanishga misol int():

```
ikkilik_raqam=’1011’
unlik_raqam=int(ikkilik_raqam, 2)
print(unlik_raqam) #Natija:11
```

Funktsiya int() qatorni ‘1011’ o‘nlik sondagi 11 raqamiga aylantiradi.

3-usul. Funktsiya eval()

Funktsiyadan eval() sonni ikkilikdan o‘nlik sistemaga aylantirish uchun ham foydalanish mumkin. U satr sifatida uzatilgan ifoda qiymatini baholaydi. Funktsiyadan foydalanishga misol eval():

```
ikkilik_raqam=’1011’
unlik_raqam=eval('0b'+ikkilik_raqam)
print(unlik_raqam) # Natija:11
```

Ushbu misolda raqam ikkilik tizimda ifodalanganligini bildirish uchun ‘0b’ satrga prefiks qo‘shamiz. ‘1011’ Funktsiya eval() ushbu ifodani baholaydi va o‘nlik kasrda 11 natijasini qaytaradi.

4-usul. Agar avval foydalanuvchidan ikkilik raqamni so‘rashimiz va keyin bu raqamni o‘nlik raqamga aylantirishimiz kerak bo‘lsa, dastur quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

```
ikkilik_raqam=input("Ikkilik raqamni kiriting: ")
unlik_raqam=0
power=0
for raqam in reversed(ikkilik_raqam):
raqam=int(raqam)
unlik_raqam+=raqam*(2**power)
power+=1
print("Raqamning o‘nlik ko‘rinishi", ikkilik_raqam, ":", unlik_raqam)
```

Ikkinchi dasturimiz sharti quyidagicha: berilgan sakkizlik sanoq sistemasidagi ‘346’ sonini o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazish dasturini tuzing.

1-usul. Raqamni sakkizlik sanoq sistemasidan o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazish.

```
x=0o346
print (x) #Natija:230
```

Python raqamlarni turli sanoq sistemalaridan, shu jumladan sakkizlikdan o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazish uchun qulay o‘rnatilgan funksiyalarni taqdim etadi. Bu xususiyatlar sizga minimal harakat bilan tarjima qilish va dasturlash jarayonini soddalashtirish imkonini beradi int() funksiyasi ana shunday funksiyalardan biridir. U raqamni belgilangan sanoq sistemasidan o‘nlik sanoq sistemasiga aylantirish imkonini beradi int() funksiyasining sintaksisi quyidagicha:

2-usul.

```
sakkizlik_raqam='346'
unlik_raqam=int(sakkizlik_raqam, 8)
print(unlik_raqam) #Natija:230
```

3-usul. Agar avval foydalanuvchidan sakkizlik raqamni so‘rashimiz va keyin bu raqamni o‘nlik raqamga aylantirishimiz kerak bo‘lsa, dastur quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

```
sakkizlik_raqam=input ("Sakkizlik raqamni kiriting: ")
unlik_raqam=0
power=0
sakkizlik_raqam=int(sakkizlik_raqam)
while sakkizlik_raqam!=0:
raqam=sakkizlik_raqam%10
unlik_raqam+=raqam*(8**power)
power+=1
sakkizlik_raqam//=10
print(f"O‘nlik tizimga kiritilgan sakkizlik son: {unlik_raqam}")
```

Uchinchi dastur sharti: berilgan o‘nlik sanoq sistemasidagi ‘245’ sonini o‘n oltilik sanoq sistemasiga o‘tkazish dasturini tuzing.

1-usul. Raqamni o‘nlik sanoq sistemasidan o‘n oltilik sanoq sistemasiga o‘tkazish.

```
unlik_raqam=245
un_oltilik_raqam=hex(unlik_raqam)
print(un_oltilik_raqam) #Natija:0xf5
```

Python raqamlarni o‘nlikdan o‘n oltilik tizimga o‘tkazish uchun qulay o‘rnatilgan funktsiyalarni taqdim etadi. Bu xususiyatlar algoritmlarni qo‘lda amalga oshirishga hojat qoldirmasdan tarjimalarni osonlik bilan bajarishga imkon beradi.

Funktsiya hex()

Ushbu funktsiyalardan biri hex(). Argument sifatida butun sonni oladi va uning o‘n oltilik ko‘rinishini qator sifatida qaytaradi.

2-usul.

```
unlik_raqam=245
un_oltilik_raqam=hex(unlik_raqam)
print(un_oltilik_raqam) #Natija:0xf5
```

3-usul. Agar avval foydalanuvchidan o‘nlik raqamni so‘rashimiz va keyin bu raqamni o‘n oltilik raqamga aylantirishimiz kerak bo‘lsa, dastur quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

```
unlik_raqam=int(input("O‘nlik raqamni kiriting: "))
un_oltilik_raqamlar="0123456789ABCDEF"
un_oltilik_raqam=""
while unlik_raqam>0:
remainder=unlik_raqam % 16
un_oltilik_digit=un_oltilik_raqamlar[remainder]
un_oltilik_raqam=un_oltilik_digit+un_oltilik_raqam
unlik_raqam//=16
print("O‘n oltilik raqam:",un_oltilik_raqam)
```

O‘n oltilik sanoq tizimi asoslari: O‘n oltilik sanoq sistemasi, 16 ta asosli sanoq tizimi sifatida ham tanilgan, dasturlash va informatika fanida qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan sanoq sistemalaridan biridir. O‘n oltilik raqamlar 0 dan 9 gacha bo‘lgan belgilar va A dan F gacha (yoki a dan f gacha) harflar yordamida ifodalanadi. A, B, C, D, E, F harflari mos ravishda 10, 11, 12, 13, 14, 15 raqamlarini ifodalaydi.

To‘rtinchi dastur sharti: berilgan o‘n oltilik sanoq sistemasidagi ‘1A3’ sonini o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazish dasturini tuzing.

1-usul. Raqamni o‘n oltilik sanoq tizimidan o‘nlik sanoq tiizmiga o‘tkazish.

```
un_oltilik_raqam=0x1A3
unlik_raqam=int(z)
print(unlik_raqam) #Natija:419
```

int (x, tayanch) funktsiyasi

Python dasturlash tilidagi funktsiya int() raqamni boshqa sanoq sistemasidan o‘nlik sanoq sistemasiga aylantirish uchun ishlatilishi mumkin.

2-usul.

```
un_oltilik_raqam="1A3"
unlik_raqam =int(un_oltilik_raqam, 16)
print(unlik_raqam) #Natija:419
```

eval() funktsiyasi

Python dasturlash tilidagi funksiya eval() satr sifatida ifodalangan ifoda qiymatini hisoblash uchun ishlatilishi mumkin. Raqamni boshqa sanoq sistemasidan o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazishda biz ifodani son va sanoq tizimining ko‘rsatkichini o‘z ichiga olgan qator sifatida o‘tkazishimiz mumkin.

3-usul.

```
un_oltilik_raqam="1A3"
unlik_raqam=eval("0x"+un_oltilik_raqam)
print(unlik_raqam) #Natija:419
```

4-usul. Agar avval foydalanuvchidan o‘n oltilik raqamni so‘rashimiz va keyin bu raqamni o‘nlik raqamga aylantirishimiz kerak bo‘lsa, dastur quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

```
un_oltilik_raqam=input("O‘n oltilik raqamni kiriting: ")
unlik_raqam=0
power=0
for i in range(len(un_oltilik_raqam)-1, -1, -1):
digit=un_oltilik_raqam[i]
if digit.isdigit():
value=int(digit)
else:
value=ord(digit.upper())-ord('A')+10
unlik_raqam+=value*(16**power)
power+=1
print(f"O‘n oltilik raqam {un_oltilik_raqam} o‘nlik sanoq sistemaga teng {unlik_raqam}.")
```

Tahlil va natijalar. Python dasturlash tilini o‘qitishda sanoq tizimi mavzusi bilan bog‘liq tahlil va natijalar berilganida, o‘qituvchi Python tili va sanoq tizimlarining o‘qitish usullarini tayyorlash, o‘quvchilarga sodda va oson usullar orqali ta’lim berish, texnik ma’lumotlarni o‘rnatish va darslarni tashkil etishda murojaat qiladigan materiallarni ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘iladi.

Mavzuga oid tahlil va natijalar quyidagicha hosil qilinishi mumkin:

1. O‘quvchilarning Python dasturlash tilini o‘rganish darajasini baholash uchun test topshirishi.

2. O‘quvchilarning sanoq tizimlarining Python dasturlashida qo‘llab-quvvatlash uchun misollar va mashqlar yechish orqali bilim darajasini oshirish.

Bu tahlil va natijalar, o‘quvchi o‘zlashtirilgan yondashuv va dasturlash ko‘nikmalarini oshirish orqali bu tarzda mavzuni o‘rganishga qiziqishining oshirilishini ta’minlashda yordam berishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta maktablar, kasb hunar-kollejlarida va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitilishi o‘quvchilar va talabalarda dasturlash muhitida ishlash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, Toshkent2022, 245-bet.
2. Mirsanov U.M., Toxirov F.J., Norbekov A.O., Djurayeva D.R. Dasturlash. // o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2021. - 152 b.
3. Ro‘ziyev R.A. Dasturlash asoslari // o‘quv qoilanma. - Toshkent, 2020. - 159
4. Sh.A. Mengliyev, O.A. Abdug‘aniev, S.Q. Shonazarov, D. Sh. To‘rayev “Python dasturlash tili”, Termiz-2021
5. Eshtemirov S. Nazarov F. Algoritmlash va dasturlash asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand 2019. -208 b.
6. N.N. Zaripov Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. - Theoretical & Applied Science, 2020
7. Dj. Forse, P. Bisseks, U. CHan - Django. Razrabotka veb-prilojeniy na Python, Simvol-Plyus , 2010. – 456 st
8. Васильев А.Н., “Python на примерах. Практический курс по программированию”, Наука и техника, Санкт-Петербург, 2016, 235-243стр

9. Касьянов С.Н. Обучение языку программирования Python в онлайн сообществе учащихся школ // Известия Волгоградского государственного педуниверситета, №6(159), 2021, С. 50-54.
10. Лапчик М. П. Теория и методика обучения информатике: учеб. для пед. вузов. - М.: Издательский центр «Академия», 2008. - 592 с.
11. https://python-teach.ru/
12. https://www.w3schools.com/python/
13. https://www.online-python.com/
14. https://www.coursera.org/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378.014.15

Hilola MAKSUDOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dosenti, PhD
E-mail:hilola-19833@mail.ru

TIQXMMI katta o‘qituvchisi, PhD K.Allautdinova taqrizi asosida

EMI IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF MEDICAL DIRECTIONS OF UZBEKISTAN

Annotation

The article theoretically analyzes the needs of teaching branch subjects in English and EMI (English as a medium of instruction) language as an important factor in the internationalization of higher education institutions and the expansion of academic mobility. In addition, the problems and possibilities of applying EMI in the republic's HEIs were discussed.

Key words: English as a medium of instruction, field sciences, QS, academic mobility, language policy.

EMI В ВУЗах МЕДИЦИНСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье теоретически анализируются потребности преподавания отраслевых предметов на английском языке и языке EMI (английский как средство обучения) как важного фактора интернационализации высших учебных заведений и расширения академической мобильности. Кроме того, обсуждались проблемы и возможности применения EMI в вузах республики.

Ключевые слова: Английский язык как средство обучения, профильные науки, QS, академическая мобильность, языковая политика.

O‘ZBEKISTON TIBBIYOT YO‘NALIGI OLIY TA’LIM MASSASALARIDA EMI

Annotatsiya

Maqolada sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish ehtiyojlari va EMI (English as a medium of instruction) ta`lim tilining oliy ta`lim muassasalarining xalqarolashuvi va akademik mobillikni kengaytirishning muhim omili sifatida nazariy tahlil qilingan. Shunigdek, respublika OTMlarda EMIni qo‘llash muammolari va imkoniyatlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: English as a medium of instructoin, sohaviy fanlar, QS, akademik mobillik, til siyosati.

Introduction. In the last decade, a number of reforms have been implemented in the system of teaching foreign languages, and especially the issue of increasing the rating of higher education institutions has become the main goal for each HEI. However, the official language of education in all local HEIs is Uzbek and Russian.

Surveys conducted in most higher education institutions in foreign countries indicate a greater use of bilingual education, with some subjects in English and the rest in the mother tongue. Later, depending on which one is more effective, the language of instruction is retained.

Materials and methods. The issues of teaching specialized subjects in English in our republic E.Kh. Mukhamedov, F.I. Sharipov and O. Tillaboeva’s scientific articles[8], F.I. Sharipov touched upon the problems of EMI teaching at the Tashkent State Law University. He notes that 14 out of 19 modules at the university are taught in English and that most EMI teachers have an IELTS level of 7. However, he believes that the discussion of some topics in the mother tongue during the teaching of the specialized subjects in English to the students of the 2nd level gives an opportunity to cover the topic more widely. Also, when F.I. Sharipov launched EMI:

it is necessary to conduct a diagnostic test to determine the level of language proficiency among students;

EMI course students should be required to have 6 levels of international IELTS certificate;

suggests that it is necessary to increase the qualifications of teachers on the ESP course.

Result and discussion. In the course of our research work, we got acquainted with the state of teaching specialized subjects in a foreign language in the branches of international HEIs in our country and the possibilities of teaching subjects in English in the medical fields of Tashkent International University of Westminster, Tashkent International University of Westminster and Akfa University.

The technical institute of the State Technical University of the Republic of Uzbekistan received the status of an institution providing higher education services in the Republic of Uzbekistan according to the state license presented by the State Inspectorate of Education Quality Control under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan[4].

Treatment of this institute, education in the areas of dentistry is conducted in Uzbek, Russian and English. Students who choose to study in English must submit an IELTS or TOEFL international language proficiency certificate. Teachers who conduct training in English are graduates of HEIs of South Korea, USA , Great Britain , Germany, France, Italy, Japan and Malaysia . When talking with the teachers of the institute, some of them emphasize that they have improved their qualifications from the courses of pedagogical skills of teaching EMI. The management of the institute says that the professors who teach in English fully meet the demand with their knowledge of the language and specialty. However, there are problematic situations in the institute, and sometimes students of the 4th-5th level with a certificate note that they have difficulty in studying specialized subjects such as pharmacology, orthopedics, dental surgery in English, and in this case they have to be transferred to Russian or Uzbek groups.

was established in 2019 on the basis of the decision of the Cabinet of Ministers "On the establishment of Akfa International University in Tashkent" and the initiative of the Ministry of Health, the Ministry of Higher and Secondary Special Education and "Akfa Medline" LLC. Applicants applying to study at the university are required to have a certificate of graduation from a school or secondary special education institution, as well as IELTS or TOEFL certificates. Students admitted to Akfa University must have international certificates with IELTS 5.5, TOEFL iBT 55 or Duolingo English Test 95. Education in the field of medicine lasts 6 years, the language of education is conducted in English, and only qualified specialists with medical diplomas from international higher education institutions insist that they teach in English. When studying the composition of professors and teachers, it was found that most of them are South Korean, Indian and local scientists. The difference between Akfa University and YoDJU is that education is conducted only in English, and students do not have the right to choose another language, because teachers do not have the skills to teach or speak Uzbek or Russian.

In the course of our research, the possibilities of teaching specialized subjects in English in another international higher education institution were studied. This Tashkent International University of Westminster does not have a medical department. EMI of this university was selected for the purpose of studying the pedagogical skills of teaching professors.

It was established in 2002 in cooperation with Westminster University of London, Ministry of Higher and Secondary Special Education of Uzbekistan, and "Talent" Foundation. The university offers Preparatory, SIFS, Bachelors, Masters and Professional Certificate courses, with Bachelors in Commercial Law, Business Information Technology, Finance, Economics and Finance and Business Administration. All these courses lead to a UK Honors Bachelor's degree. All subjects are taught in English at this higher education institution, training is conducted based on approved programs at the University of Westminster, London. The difference between the university and the higher education institutions mentioned above is that almost all professors and teachers are citizens of Uzbekistan, and they have language certificates. Most of the teachers are specialists who have completed master's degree or advanced training courses abroad. As a result of our research, it was found that the professor-teacher employed in this higher education institution is accepted only in cases where he has passed 2.3-level tests in English and specialized subjects. As a result of observing the professors and teachers of this university and the teaching process, we came to the conclusion that local teachers can also teach specialized subjects in foreign languages and teach at the level of international demand. Also, the lack of opportunity to regularly bring foreign professors to the local higher education institutions to conduct classes in foreign languages shows that local teachers can also make a great contribution to increasing the international rating of HEIs.

As the object of our research, the treatment departments of Tashkent State Pediatric Medical Institute, Bukhara State Medical Institute and Andijan State Medical Institute were selected, and questionnaires were conducted among professors and students of the specialty.

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina became the first higher education institution in Uzbekistan to establish its branch in foreign countries. From the academic year 2020-2021, the professors and teachers of the institute will study in their country to the Indian citizens admitted to the MBBS (Bachelor of Medicine and Surgery) program. According to the agreement, Noida International University will provide support for the use of necessary infrastructure, material and technical base, educational laboratories and clinical bases for the educational process. Admitted students will spend the first two years in India and the remaining 3 years in Bukhara. For information, it should be noted that Bukhara State Medical Institute was accredited by the Medical Council in 2019, which gives the right to teach Indian citizens. In the last academic year, about 50 Indian citizens were admitted to study[5]. This institute has joint educational programs with Russia, Italy, India and Poland, and the programs are conducted in Russian and English. Education is conducted in the form of "2+3", "2+4" in joint faculties.

It should also be noted that not all joint programs of HEIs are functioning effectively in our republic, some of them are interrupted during the education process, putting students and their parents in a difficult situation. That is why there is a strong demand for pedagogues who can teach in foreign languages, and the time has already come to increase the prestige of local HEIs.

In Andijan State Medical Institute, many meetings with international specialists are held, there are also many teachers of specialized subjects with international IELTS certificate. However, we believe that practical support is needed to establish EMI, and to support the EMI education process by sending certified teachers to refresher courses abroad .

In the questionnaire received from EMI teachers, " What pedagogical technologies do you use in teaching the specialty subject in English?" Do you use methodical manuals for teaching specialized subjects in English?" to the questions, they state that they don't know that there are specific pedagogical technologies for teaching EMI, that they use the same pedagogical technologies in English classes as they use in teaching the specialty in their mother tongue. They say that technologies such as "Fish Seklet" and "Brainstorming" are used more. They also say that studying in English is hard work for them, knowing the language or studying in English is not a problem, but translation of working programs, teaching-methodical set, and translation of books in the native language into English requires additional work.

Conclusion. As a result of the survey among students, it was found that there are many advantages of teaching subjects in English, and the most important ones are:

that the level of language knowledge will increase, the number of classes in English will increase;

they emphasize that in the future, they will provide employment opportunities to foreign companies in their specialties.

In the course of our research, we studied the advantages and obstacles of teaching specialized subjects in English at HEIs in our country. This information can be seen in the table below.

1-Table

Advantages and difficulties of introducing EMI in the Republic's HEIs

Advantages	Difficulties
Increasing the level of language knowledge of students and professors.	Inadequacy of appropriate academic literature in English related to the specialty.
Provides an opportunity to use educational literature in English related to the specialty.	Due to the low level of knowledge of the English language of professors and the age limit of experienced professionals, there is little opportunity to develop language skills.
The availability of professors and teachers with language skills for teaching foreign students.	The fact that the subject is easier to understand in the native language than in English.
Teachers of the specialty subject have the opportunity to publish their scientific works in international journals and participate in conferences.	Lack of economic support from HEIs or organizations.
Professors and students will have more opportunities to participate in training and	

international projects and to win grants.	
The information resource centers of HEIs will be enriched with literature in English.	
In memoranda and meetings held between universities, representatives of the field can communicate without an interpreter.	
It gives students the opportunity to continue their studies in the fields of master's and doctoral studies in foreign HEIs.	

It can be seen from the table that the advantages of teaching specialized subjects in English in the higher education system are sufficient only if there is support from the management of HEIs and the motivation of professors and teachers.

LITERATURE

1. "Integrating Content and Language in Higher Education – international association about higher education at the interface of content and languag". iclhe.org. Retrieved 1 January 2021.
2. “Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори 32 (792)-сон, 820-модда. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
3. Bezborodova A., Radjabzade S. English in higher education in the Kyrgyz Republic, Tajikistan, and Uzbekistan.// World Englishes Wiley -2022. 72-91 p. going-global-2015-48709789
4. https://bugun.uz/2022/02/25/reyting-akfadan-amitygacha-uzbekistandagi-kontrakt-tolovi-eng-qimmat-universitetlar/
5. https://xs.uz/uzkr/post/bukhoro-davlat-tibbiyot-instituti-ozbekiston-otmlari-ichida-birinchi-bolib-khorizhda-oz-filialini-ochdi
6. Macaro, E. (2015). Going global 2015: English medium instruction: Seven key points of controversy.
7. Mohammad Mosiur Rahman, Manjet Kaur Mehar Singh, Monabbir Johan and Zohur Ahmed English Medium Instruction Ideology, management and practices: a Case study of Bagladesh Private University // English Teaching and Learning Volume 44 number 1, 2020, P 61-79.
8. Mukhamedov E. EAP assessment in an English-medium instruction university: a case from Uzbekistan. Evrazyskyi Soyuz Uchenyx (ESU) #7(76), 2020 4-7 p.
9. Retrieved from http://www.slideshare.net/British_Council/
10. Sharipov F. The teachers' perception in implementing English language as a medium of instruction in Tashkent state university of law. VESTNIK SCIENCE I OBRAZOVANIya No. 9 (112). Chast 3. 2021. 42-46 p.
11. Tillaboyeva O. Teaching subject matter through English as the medium of instruction. The scientific heritage No. 49 (2020). 61-62 p.
12. Wenli Tsou Shin-Meikao english as a Medium of Instruction in Higher education. Implementations and classroom practices in Taiwan.2017-Singapore 218 p.
13. Крылов Э.Г. Интегративное билингвальное обучение иностранному языку и инженерным дисциплинам в техническом вузе. Автореферат дисс. … док. пед.наук. – Екатеринбург, 2016. – 52 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.983.5

Shavkat MAMARAJABOV,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti professori v.b., p.f.n.
E-mail:shavkatm@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

A SYNERGISTIC APPROACH TO BUILDING A NON-LINEAR LEARNING TRAJECTORY OF STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

This article highlights the issues of organizing a non-linear trajectory of students in the educational process based on a synergistic approach and ensuring the effectiveness of education on this basis.

Key words: synergetics, synergetic approach, learning trajectory, non-linear learning trajectory, learning synergetics, attractor.

СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОСТРОЕНИЮ НЕЛИНЕЙНОЙ ТРАЕКТОРИИ ОБУЧЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы организации нелинейной траектории движения обучающихся в образовательном процессе на основе синергетического подхода и обеспечения эффективности образования на этой основе.

Ключевые слова: синергетика, синергетический подход, траектория обучения, нелинейная траектория обучения, синергетика обучения, аттрактор.

TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING CHIZIQSIZ TA’LIM TRAYEKTORIYASINI QURISHGA SINERGETIK YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinergetik yondashuv asosida ta’lim jarayonida talabalarning chiziqsiz trayektoriyasini tashkil etish va shu asosda ta’lim samaradorligini ta’minlash masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sinergetika, sinergetik yondashuv, ta’lim trayektoriyasi, chiziqsiz ta’lim trayektoriyasi, ta’lim sinergetikasi, attraktor.

Kirish. O‘tgan asrning 70-yillarida yangi fan – sinergetika vujudga keldi. Uning vujudga kelishi I.R.Prigojin, G.Xaken va M.Eygen, B.Belousov va J.Jabotinskiylarning nomlari bilan bog‘liq. Sinergetika g‘oyasi dastlab tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)ga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, uning rivojlanib borishi uning yaxlit holda fanlararo xarakterga egaligini ko‘rsatdi.

Sinergetika “tartibsizlikdan qanday qilib murakkab tartiblilikni kelib chiqishini tushuntiradi, dunyoning umumbashariy birligini tasavvur qilishimizga olib keladi, xilma-xillikda birlikni va birlikda xilma-xillikni aniq tasvirlash imkonini beradi” [1]. U quyidagilarni anglashimiz imkonini beradi:

- bizni o‘rab turgan dunyoning chiziqsizligi va ko‘pqirraligini;
- sodir bo‘layotgan voqealarning ehtimolliligini;
- ko‘plab elementlar sonidan tashkil topgan tizimlarning rivojlanish yo‘llarining ko‘pligi;
- murakkab tizimlarning xatti-harakatlarini ularning rivojlanishi va o‘zini-o‘zi tashkil qilishning chiziqli tabiati g‘oyasiga asoslangan klassik nazariyalar va modellar yordamida tavsiflashning murakkabligi va ba’zan imkonsizligi.

Ijtimoiy-tabiiy tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarining asosida yotuvchi umumiy mexanizmlar va qonuniyatlar bizga hamma narsaning birligini to‘liq tasvirlashga, dunyoning yagona prosessual modelini – sinergetik manzarasini qurishga imkon beradi. Mazkur manzara insoniyatga o‘zaro ta’sir qiluvchi tizimlarning superierarxiyasi sifatida ko‘rinadi, unda hamma narsa jonsiz va tirik tabiat, inson hayoti va ijodi, jamiyat va madaniyat o‘zaro bog‘liq va umuminsoniy qonuniyatlarga bo‘ysunadi [1].

Bir qator tadqiqot ishlarida ta’kidlab o‘tilganidek, “sinergetika universal metodologik paradigmaning bir qismi bo‘lib, u murakkab tizimlar va o‘z-o‘zini tashkil etish hodisalari o‘rganiladigan bilim sohalariga taalluqlidir va o‘rganilayotgan sub’ektlar va ob’ektlarga yagona fanlararo yondashuvni ifodalaydi” [2].

Sinergetikani turli fan va jarayonlarga keng tatbiq etilishini V.G.Budanov “sinergetika vasavasasi” deb ataydi va “bugungi kunda biz dunyoga yaxlit fanlararo nuqtai nazar bilan qarashga har doimgidan ham ko‘proq muhtojmiz, ... barqaror bo‘lmagan chiziqsiz olamdagi hayot tamoyillariga profilaktik ta’limni kiritish zarur bo‘lib, bunda vaqt ko‘lami xayoliy bo‘ladi va inson dinamik muhitda uning qonunlari, o‘z-o‘zini tashkil etish qonuniyatlarini inobatga olgan holda yashashga o‘rganishi lozim” [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Garchi G.Xaken o‘zining “Sinergetika” kitobida shunday yozadi: “Qandaydir tizimning ko‘pgina tashkil etuvchi tizimchalarining birlashuvi ham bu tizimchalarning tabiatiga bog‘liq bo‘lmagan holda aynan bir xil tamoyillarga bo‘ysunishi haqidagi dalillarni anglab yetganimdan so‘ng, men shunday xulosaga keldimki, bu dalillarni turli fanlarning birlashuvidan qidirish va tadqiq etish fursati keldi va bu tadqiqot sohasini men sinergetika deb atadim. Fizikadan boshlab, men keyinchalik ximiya va biologiyaning muammolarini ko‘rib chiqishga o‘tdim. Yaqinda boshqa masalalar bilan shug‘ullanuvchi mening hamkasblarim sotsiologiya va iqtisod kabi fanlarda sinergetika tushunchasidan anchadan beri, masalan, mehnat unumdorligini oshirish nuqtayi nazaridan jamoaning turli qismlaridagi hamkorlikni o‘rganishida foydalanayotganligiga e’tiborimni

qaratdi. Majoziy ma’noda aytganda, biz shu paytgacha tadqiqotning turli sohalarini, xususan, “aniq” va “noaniq” fanlarni ajratgan katta tog‘ning ikki tomonidan tunelni yorib o‘tayotganimiz aniq bo‘ldi. Sinergetika o‘zaro tushunish va butunlay boshqa ko‘rinadigan fanlarning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shadi, deb umid qilish mumkin” [4].

Boshqacha aytganda, sinergetikaning asoschilaridan biri G.Xaken o‘tgan asrning 80-yillaridayoq tadqiqotning ko‘plab sohalari, jumladan pedagogik tadqiqotlarda sinergetik yondashuvning keng qo‘llanilishini oldindan ko‘rgan edi.

Shuning uchun ham keyingi vaqtlarda ta’lim jarayoniga sinergetikani keng qo‘llash g‘oyasiga bo‘lgan qiziqish kuzatilmoqda. Masalan, V.A.Ignatova uchta asosiy tashkil etuvchisini ajratib ko‘rsatadi:

1) Ta’lim mazmuniga sinergetik g‘oyalarni moslashtirishning didaktik jihatlari;

2) Ulardan ta’lim tizimini rivojlantirishni modellashtirish va prognozlashtirishda foydalanish;

3) O‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qo‘llash [5].

I. TA’LIM UChUN SINERGETIKA (SYNERGETICS FOR).

Umumiy o‘rta va oliy o‘quv yurtlaridagi navbatdagi ta’lim siklining yakunlanishi bo‘yicha sinergetikaning integral kurslari – tayyorlov, boshlang‘ich, umumiy o‘rta maktab, oliy ta’limdagi fundamental fanlar sikli, maxsus fanlar sikli, doktorantura, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlari, adaptiv kurslar va katta yoshdagilarni ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olishi... Bu olamning yaxlitligini anglash chegaralari bo‘ylab spiral yuksalish yo‘lidir...

II. TA’LIMDA SINERGETIKA (SYNERGETICS IN). Har bir fanga sinergetik tamoyillarni aks ettiruvchi materiallarni kiritish, masalan, tabiiy-ilmiy yoki ijtimoiy va boshqalar. Doimo yangi narsaning shakllanishi, paydo bo‘lishi jarayonlarini o‘rganadigan bo‘limlarni topish mumkin va bu yerda unga muvofiq ravishda fan tezaurusi bilan bir qatorda sinergetika tilidan foydalanish mumkin. Bu keyinchalik bizga fanlararo aloqaning gorizontal maydonini, fan va madaniyatning yaxlitligi maydonini yaratish imkonini beradi.

III. TA’LIM SINERGETIKASI (SYNERGETICS OF). Ta’lim jarayonining o‘zida, bilim va shaxsni shakllantirishda sinergetika qo‘llaniladi. Bu yerda eng katta omil inson omili bo‘lib, sinergetikaning klassik bo‘lmagan tabiati dialog jarayonlarida va o‘z-o‘zini tavsiflovchi tizimlarning rivojlanishida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahoratning yuksak namunalari va mualliflik metodikalari yaxlit sinergetik yondashuvlarni qo‘llashning eng yaxshi namunalaridir... Bu yerda biz nafaqat ta’limga tizimli yondashuvga, balki sub’ektlarning ta’lim muhitini qurishda mazmun va tarbiya birligini, yaxlit kreativ shaxs ta’limini tashkil etish mexanizmlari va dinamikasini e’tiborga olinishiga ega bo‘lamiz. Bu yo‘nalish nisbatan yaqin vaqtlardan beri rivojlanmoqda [5].

Kredit modul tizimiga o‘tilishi oliy ta’limning yuqori darajali tizimga o‘tilishi va ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning chiziqsiz ta’lim trayektoriyasini qurish yordamida talabalarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish zarurligiga olib keldi. Chiziqsizlik tushunchasining o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinergetika bilan bog‘liq bo‘lib, u murakkab tizimlar va tuzilmalarning o‘zini-o‘zi tashkil etish va rivojlanishi mexanizmlarini o‘rganadi.

E.N.Knyazeva ta’rifi bo‘yicha, sinergetika “fanning fanlararo tarmog‘i bo‘lib, u murakkab nomutanosib tizimlardagi (fizik, kimyoviy, biologik, ekologik, ijtiomiy va boshqalar) hodisalar va jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini o‘z-o‘zini tashkil etishning o‘ziga xos tamoyillari asosida o‘rganuvchi yo‘nalishidir” [6].

Gap murakkab tizimlar haqida ketar ekan, adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilganidek, ular chiziqsiz hisoblanadi, ya’ni ularda kechadigan jarayonlar chiziqsiz ko‘rinishda, bir vaqtda bir necha xil ko‘rinishda izohlanishi mumkin. Aslida, bu tizimning ochiq bo‘lishi sharti bilan, tizimning o‘zi ham, uning tarkibini tashkil etuvchi alohida elementlarning ham turli xil rivojlanish yo‘llari imkoniyatini bildiradi.

Tizimning ochiqligi “ob’ektning atrof-muhit bilan modda, energiya va axborot almashish qobiliyati”ni namoyon qiladi. Ochiq tizimning har bir elementi butun tizimning yaxlitligini buzmagan holda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini namoyon qilishida yetarlicha erkinlik darajasiga ega bo‘ladi”.

Agar bu tizim nafaqat o‘z-o‘zini tashkil etish qobiliyatiga, balki “rivojlanish qobiliyatiga ham ega bo‘lsa, uni dissipativ tizim deb ataladi”.

Darhaqiqat, har bir o‘qituvchi o‘z ishida doimiy ravishda ochiq tizimlar – elementlari talabalar bo‘lgan akademik guruhlarga duch keladilar. Shuning uchun, o‘quv jarayonini ko‘plab yechimlarga ega bo‘lgan chiziqsiz tenglamani yechish jarayoni bilan taqqoslash mumkin. Xususan, bir xil tashqi sharoitda har bir talaba o‘zining individual xususiyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘z rivojlanishiga ega bo‘ladi.

Chiziqsiz ta’lim trayektoriyasining qurilishi o‘qituvchidan har bir talabaning ta’lim olishi uchun ma’lum sharoitlarni yaratilishini talab etadi. Bundan tashqari, bu talab ko‘pgina fanlar uchun tanlov kurslari orqali amalga oshiriladi.

Turli darajadagi topshiriqlar (asosiydan yuqorigacha) orqali amalga oshiriladigan darajali differensiatsiya akademik guruhning har bir a’zosi uchun bifurkatsiya nuqtalarini yaratishga imkon beradi.

Bifurkatsiya – ochiq tizim barqarorligini yo‘qotadigan nuqta, rivojlanishning yagona yo‘lidir. Boshqacha aytganda, “chiziqsiz ochiq dinamik tizim evolyutsiya yo‘li tarmoqlanadigan” nuqtadir [6].

Turli darajadagi topshiriqlarni ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda olish bilan talaba o‘z shaxsiy qobiliyatlaridan, qiziqishlaridan va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda topshiriqni bajarishning zarur darajasini mustaqil ravishda tanlaydi va bunda ta’lim jarayonida shaxsiy rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Majburiy fanlar ichida darajali differensiatsiya yordamida talabalarning chiziqsiz ta’lim trayektoriyasini qurishni bifurkatsiya nuqtalari bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ta’lim jarayonining chiziqsizligining ta’minlanishi turli darajadagi topshiriqlarni ularni bajarishda individual murakkablik darajasini tanlanishi zarurligi orqali amalga oshiriladi.

Bifurkatsiya nuqtalarida tizim rivojlanishining yangicha yo‘llarini vujudga kelishi uning tarkibini murakkablashuviga, oxir oqibat, bu tarkibning “o‘zaro tasodifiy va zaruriy “nozik o‘zaro ta’siri” orqali” o‘z-o‘zini tashkil etishiga olib keladi [7]. Shunga muvofiq ravishda bu holatda tartibsizlikdan tartiblilikka, ya’ni o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘tishi kuzatiladi.

Ammo shuni unutmasligimiz lozimki, OTM ta’lim olish natijasida talaba ma’lum bir yo‘nalish yoki mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumot olganligi to‘g‘risida diplomga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, u yoki bu usulda ta’lim jarayonining chiziqsizligining ta’minlanishiga qaramasdan, oxir oqibat DTS malaka talablarida keltirib o‘tilgan ma’lum kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan va u yoki bu kasbiy masalalarni yechishga qodir bo‘lgan mutaxassislarga ega bo‘lishimiz lozim.

Sinergetikaning tushunchalar apparati qismidan foydalanib, biz o‘qitish natijasi (maqsadi)ni attraktor tushunchasi orqali izohlashimiz mumkin.

Attraktor (lot. – o‘zimga tortaman) - “dissipativ tizim holatlari parametrlari intiladigan nuqta yoki nuqtalar..., dissipativ tizimning oxirgi holati” [8].

Bizning vaziyatda attraktor deganda “turli elementlarning turlicha harakatlanishiga olib keladigan shart-sharoitlar yig‘indisidan iborat, ammo bir-biriga yaqin, kesishadigan trayektoriyalar bo‘ylab harakatlanib, oxir-oqibat bir nuqtada ularning uchrashishi ro‘y beradi. Attraktor zonasining xarakteristikasi xalqaning shakli bo‘lishi mumkin, uning ichida elementlar-qum zarralari turli yo‘l bo‘ylab pastga harakatlanadi, ammo oxir-oqibat umumiy harakatdagi ishtiroki ularni “bo‘yinda” birlashtiradi”. Boshqacha aytganda, ta’lim jarayonida talabalarning chiziqsiz ta’lim traektoriyasini qurishda attraktor sifatida ta’lim maqsadi va vazifalari, shuningdek u yoki bu fanni o‘rganish natijasida ularda shakllanishi lozim bo‘lgan umummadaniy va kasbiy kompetensiyalari hisoblanadi. Bu har bir yo‘nalish yoki mutaxassislik bo‘yicha oliy ta’lim Davlat ta’lim standartlarida belgilab berilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan xulosa qilish mumkinki, ta’lim oluvchilarning ta’lim olish jarayonidagi chiziqsiz ta’lim trayektoriyasini qurish jarayonini izohlashda sinergetikani qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Игнатова, В. А. Синергетика как метод познания природы и общества [Текст] / В.А. Игнатова // Экология и жизнь. 1999. N 2, С.26-30.
2. Симонов, С. Н., Копаев, О. В. Синергетический подход в педагогике [Электронный ресурс].– Режим доступа: http://lib.sportedu.ru/Press/TPFK/2007N8/p29-31.htm – статья в интернете.
3. Буданов, В.Г. Трансдисциплинарное образование, технологии и принципы синергетики [Текст]// Синергетическая парадигма (под ред. Аршинова В.И., Буданова В.Г., Войцеховича В.Э.). - М.: Прогресс- Традиция. 2000. с. 285-305.
4. Хакен, Г., Синергетика [Текст] / Г. Хакен.- М: Мир. 1980. - 405 с
5. Князева, Е.Н. Энциклопедия эпистемологии и философии науки [Текст] / Е.Н. Князева.— М.: «Канон+», РООИ «Реабилитация», И.Т. Касавин, 2009.
6. Богуславский, М. В. Синергетика и педагогика [Текст]// Magister, 1995. - N 2.
7. Дуагилев, Ф.М. Концепции современного естествознания [Текст]/ Ф.М.Дуагилев. - М.: Изд. ИЭМПЭ, 1998.
8. Матвеева, Э.Ю. Концепции современного естествознания. Словарь основных терминов[Текст]: Учебное пособие/ Э.Ю. Матвеева. – Новосибирск: СибГУТИ, 2007 . — 84 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Akmaljon MAMASOLIYEV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: 2932528@gmail.com

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori M.Boltayeva taqrizi asosida

INTRODUCTION OF MOBILE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS OF SECONDARY SCHOOLS

Annotation

In the modern world, mobile technologies are playing an increasingly significant role in various areas of our lives. Education is no exception, and the introduction of mobile educational technologies in secondary schools has great potential for improving the quality of education. This article discusses the introduction of mobile educational technologies into the educational process of secondary schools. The basic principles and advantages of using mobile applications, interactive platforms and other tools are described, as well as specific examples of research and successful practices in introducing mobile educational technologies into school teaching.

Key words: Mobile technologies, mobile education, electronic resources, distance education, quality of education, virtual environment, mobile applications.

ВНЕДРЕНИЕ МОБИЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация

В современном мире мобильные технологии играют все более значимую роль в различных сферах нашей жизни. Образование не исключение, и внедрение мобильных образовательных технологий в общеобразовательные школы имеет большой потенциал для улучшения качества образования. В данной статье рассматривается внедрение мобильных образовательных технологий в образовательный процесс общеобразовательных школ. Описываются основные принципы и преимущества использования мобильных приложений, интерактивных платформ и других инструментов, а также приводятся конкретные примеры исследований и успешных практик внедрения мобильных образовательных технологий в школьное обучение.

Ключевые слова: Мобильные технологии, мобильное образование, электронные ресурсы, дистанционное образование, качество образования, виртуальная среда, мобильные приложения.

UMUMTA’LIM MAKTABLARINING O‘QUV JARAYONIGA MOBIL TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda mobil texnologiyalar hayotimizning turli sohalarida tobora muhim rol o‘ynamoqda. Ta’lim ham bundan mustasno emas, umumta’lim maktablarida mobil ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining o‘quv jarayoniga mobil ta’lim texnologiyalarini joriy etish masalalari muhokama qilinadi. Mobil ilovalar, interfaol platformalar va boshqa vositalardan foydalanishning asosiy tamoyillari va afzalliklari, shuningdek, mobil ta’lim texnologiyalarini maktabda o‘qitishga joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar va muvaffaqiyatli amaliyotlarning aniq misollari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Mobil texnologiyalar, mobil ta’lim, elektron resurslar, masofaviy ta’lim, ta’lim sifati, virtual muhit, mobil ilovalar.

Introduction. Mobile learning technologies play a major role in changing the overall learning environment. These technologies provide students with opportunities to study and learn through interactive lessons, lectures, and programs. With their help, students will be able to attend classes at their own time and place. Teachers can also use these technologies to guide and support students. This makes the learning process more effective and increases student motivation.

Modern technologies are playing an increasingly important role in the educational process, and mobile devices are becoming an increasingly common tool in people’s daily lives. The introduction of mobile educational technologies in secondary schools opens up new opportunities for improving the educational process and can increase educational opportunities, provide more flexible and interactive education, and their use in education can increase the effectiveness of mobile education. and in order to attract students to active participation in the educational process, the issues of introducing mobile educational technologies in general education schools will be discussed.

Mobile devices allow students to access learning materials anytime and anywhere. This is especially useful for school students who cannot go to school for various reasons, such as illness or long travel. Using mobile apps and online platforms, students can study course materials, complete assignments, and even receive feedback outside of the classroom.

Mobile apps and online platforms are one of the ways that can greatly help students learn course materials, complete assignments, and provide feedback. These types of applications and platforms can offer the following services:

1. Study materials:

- Khan Academy: Online lessons and tasks in mathematics, physics, chemistry, history, mathematics and many other subjects.

- Coursera: Courses from many universities, compiled by experienced professors.

2. Tasks and tests:

- Quizlet: A platform for learning words and creating tasks.

- Google Classroom: To send assignments to students, grade them and see the results.

3. Communication between students:

- Edmodo: A platform for sharing information and assignments for students, teachers and parents.

- Discord: Used for chat and voice communication between students.

4. Feedback:

- Flipgrid: Students can answer questions, comment and express their opinions through videos.

- Padlet: Students can create virtual boards to share ideas and feedback.

5. Interactive lessons:

- Zoom and Microsoft Teams: for conducting interactive lessons through video conferences.

- Nearpod: Teachers can make lesson materials interactive for students to work with.

6. Information platforms:

- Wikipedia: Get information about many topics from around the world.

- YouTube: Video lessons for visual explanation of educational material.

Students and teachers can use these types of apps and platforms to study their lessons, complete assignments, and provide feedback. These types provide easy and effective methods of online education.

Mobile learning technologies provide a wide range of interactive tools and applications that make learning more fun and engaging. Students can use mobile devices to create multimedia presentations, interact with virtual models, solve interactive problems, and play games, which ensures active participation and increases learning motivation.

Mobile learning technologies allow teachers to adapt the learning process to the individual needs of each student. With the help of special applications and programs, the teacher can create a personalized curriculum, offer additional materials and assignments, and monitor the progress of each student. It helps students develop their skills according to their individual needs and learning speed.

Mobile educational technologies help to develop cooperation between students and teachers. Through mobile apps and online platforms, students can share knowledge, work on group projects, and discuss academic issues. It develops communication, cooperation and critical thinking skills.

Literature analysis. In the field of computing systems theory in the 70s of XX century American scientist Alan Key proposed "Book-sized computer" Foya did with the advent of pocket computers in the 1990s from mobile learning projects and mobile learning for students observed use. Learning from the network based on mobile technology. [2.Number I. S. Mobile learning and learning of foreign languages [Text]. // Theory and practice of education and conte.mporary mire: material III Mejdunar. Nauch. conf. (St. Petersburg, May 2013). — SPb.: "Renome", 2013. —S. 164-167.]

It was thoroughly studied in the scientific research works of V.A. Kuklev. Research from distance education in the WiMAX wireless network based on mobile devices at work use and work on Intel Classmate computers for children information on Also M.A. Grigoryeva computer science in mobile computer systems in scientific research study, mobile systems in Saville-Smith, G.Stead and G.Solley projects on the basis of the issues of organizing the study of mathematics and linguistics studied. [3.Kuklev V.A. Stanovlenie sistemy mobilnogo obucheniya v otkrytom distance education.]

Research methodology. When we talk about mobile technology, we usually mean all kinds of gadgets, applications, processors, batteries, displays.

Indeed, innovations in the field of mobile technology, new gadgets and applications are now occupying a large place in everyone’s life. Here are a few factors that are important when choosing gadgets, apps, processors, batteries, and displays:

1. Smartphones and tablets:

- New models and brands: Big companies (such as Apple, Samsung, Huawei, Xiaomi, Google) release new smartphones and tablets every year.

- Cameras and Augmented Reality: New technologies in the photography and video industry, for example, enhancing the augmented reality experience through small cameras.

2. Gadgets and portable devices:

- Smart Watches and Fitness Trackers: Smart watches with new features and designs focused on personal health data, sports and medical monitoring.

- Value time asked and bluetooth earphones: Value time asked and bluetooth ears with new technologies for high quality audio and continuous use.

3. Applications and platforms:

- 5G Technology: New smartphones and tablets are being provided with additional features for 5G technology.

- Major Applications: Programs and applications have been expanded and updated to work well in every environment, including travel, education, medical and sports aspects.

4. Processors and batteries:

- High-Performance Processors: High-Performance Processors in every new smartphone, tablet and laptop, combined with significant technological updates.

- Quick Charge Batteries: Highly energized and quick charge batteries for superior product quality and long-lasting performance.

5. Displays and graphics:

- Amoled, OLED and Additional innovations: Amoled and OLED displays for bright colors, best contrast and energy efficiency.

- New display technologies with faster refresh rates of 120Hz and higher.

Every innovation, new technology and new products gives users access to better and modern technology. You can take advantage of the new technologies that matter most to you by managing your talents and needs. It's all fun and exciting, mobile technology has come a long way, especially in the last decade, which has seen high-quality growth. Mobile devices have become smaller, more powerful and more useful. They have penetrated into all areas of our life and their role is increasing more and more. The availability of all kinds of smartphones, tablets, e-readers, and now even smart watches helps them spread rapidly around the world. In addition, mobile devices are becoming increasingly accessible as their use is central to both traditional and non-traditional education. Mobile devices of the distance education platforms being created can be used through one of the modern methods.

Analysis and results. In the modern world, almost every student of a secondary school has a mobile device. In addition, school students use mobile devices not only for entertainment or to obtain various information, but also to solve various educational problems. Recently, the emergence of special applications for learning is seen as an opportunity to use such mobile applications in the general education process. The analysis of world trends shows the viability of using mobile applications in educational activities to solve various pedagogical problems, to organize remote access to network and specialized resources and services of educational institutions. The timely implementation of mobile

technologies in the educational environment is related to the following conditions: the high level and dynamics of distribution of mobile devices (it is not unusual when one user has two or more devices), their constant interest. access, media content, and the ability to transform related content into the infrastructure of an educational and research space. There are two main concepts of using mobile devices in education: BYOD (bring your own device) and GYOD (give your own device). BYOD is "bring your own device", in which students bring their own devices. GYOD - "give your device", students are given mobile devices.

The following advantages have been noted for BYOD:

1. Ease of use Any mobile device, in addition to technical characteristics, has an appearance with additional features that suit the user, so it is difficult to choose suitable devices for all users when making mass purchases.

2. Technology obsolescence The market for mobile devices is developing very quickly, and new devices are emerging that are superior to the previous generation. Educational institutions cannot afford to upgrade mobile devices so quickly.

3. Personal use of devices - students use mobile devices for personal purposes.

Among the shortcomings, it should be noted that currently not all students have the necessary tablets and smartphones.

The whole problem for GYOD lies in the budget of the general educational institution, which will need to be increased to provide mobile devices to all students [2].

Opportunities of mobile applications for educational institutions.

- "Mobile diary" function.
- Interactive online schedule of classes and lessons, tests.
- Notifications about delivery deadlines and results of control work.
- notifications about changes in the educational process.
- rapid use of methodological and educational materials.
- Integration of modules for express learning of foreign languages.
- convenient use of listening techniques.
- Easy monitoring of students' knowledge using an online test.
- Use of additional interactive modules created for each subject in the educational process.

The use of mobile applications in the educational process affects another important problem - the diagnosis and health care of students.

The activation of mobile technologies has led to the creation of effective diagnostic programs that can monitor the physical and psychological condition of students. Special attention should be paid to mobile systems for personalized medicine. Their potential was initially focused on use in aerospace medicine. Currently, personalized medical technologies can be used widely, including for students in educational institutions and interconnected with mobile applications in the field of education.

Conclusion. The introduction of mobile educational technologies into the educational process of secondary schools has many advantages. They expand access to learning, make learning interactive, personalize the learning experience, and encourage collaboration and knowledge sharing. At the same time, some issues related to the implementation of mobile learning technologies should be considered, such as the availability of equipment, ensuring security and controlling the use of devices during training. In general, mobile educational technologies are a powerful tool capable of significantly enriching the educational process and increasing educational efficiency in secondary schools. Proper implementation and use of these technologies requires the support of school administrators, teacher training, and the provision of necessary resources.

REFERENCES

1. Fine M.B. Mobile education and educational process: zarubezhny opyt. // "Sovremennye nauchnye issledovaniya i innovatsii", 2015. No. 1. Ch.
2. Number I. S. Mobile learning and learning of foreign languages [Text]. // Theory and practice of education and contemporary mire: material III Mejdunar. Nauch. conf. (St. Petersburg, May 2013). — SPb.: "Renome", 2013. —S. 164-167. URL https://moluch.ru/conf/ped/ archive/70/3844/ (data processing: 07.12.2017).
3. Kuklev V.A. Stanovlenie sistemy mobilnogo obucheniya v otkrytom distance education. Autoref. diss. sugar ped. science - Ulyanovsk: 2010. -S. 46.
4. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). CLUSTER METHODS OF LEARNING ENGLISH USING INFORMATION TECHNOLOGY. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(2), 40-43.
5. Ахмедов, Б. А., Шайхисламов, Н., Мадалимов, Т., Махмудов, Қ. (2021). Smart технологияси ва ундан таълимда тизимида кластерли фойдаланиш имкониятлари. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 102-112.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 808.3

Shoxsanam MAMATQULOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:sh_mamatqulova@mail.ru

NamDU katta o‘qituvchisi, PhD D.Sarimsaqova taqrizi asosida

O‘ZBEK TILI VA MADANIYATIDA FIDOYILIK VA UNING IFODASI

Annotatsiya

Fidoiylik – har qanday faoliyat sohasida muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Biz o‘z ishimizga to‘liq sodiq bo‘lganimizda, maqsadga erishish yo‘lidagi turli to‘siqlarni yengib o‘tish uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi motivatsiya va kuchni namoyish etamiz. Ushbu maqolada o‘zbek tili va madaniyatida fidoyilik va uning ifodasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, til, o‘zbek tili, sadoqat, vatanparvarlik, sadoqat, mas’uliyat.

ПРЕДАННОСТЬ ДЕЛУ И ЕЕ ВЫРАЖЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И КУЛЬТУРЕ

Аннотация

Преданность делу играет важную роль в достижении успеха в любой области деятельности. Когда мы полностью преданы своему делу, мы демонстрируем высокий уровень мотивации и энергии, необходимый для преодоления различных преград на пути к достижению цели. В данной статье освещено преданность делу и ее выражение в узбекском языке и культуре.

Ключевые слова: культура, язык, узбекский язык, преданность, патриотизм, верность, ответственность.

DEDICATION AND ITS EXPRESSION IN THE UZBEK LANGUAGE AND CULTURE

Annotation

Dedication plays an important role in achieving success in any field of activity. When we are fully committed to our work, we demonstrate a high level of motivation and energy necessary to overcome various obstacles on the way to achieving the goal. This article highlights dedication and its expression in the Uzbek language and culture.

Key words: culture, language, Uzbek language, loyalty, patriotism, loyalty, responsibility.

Kirish. Fidoiylik bu inson o‘zini butunlay kasb, vazifa yoki loyihaga bag‘ishlaydigan maxsus hayot tarzi bo‘lib, bu har bir qadam, har bir yutuq va har bir muvaffaqiyatsizlikka ma’no beradigan holatdir. Fidoyi inson hech qachon boshlagan ishidan voz kechmaydi va doimo mukammallikka, boshlagan ishini yakuniga yetkazishga intiladi. Fidoiylik belgilaridan biri bu ichki motivatsiyadir. Fidoiy odam o‘z kasbidan, amalidan haqiqiy ichki qoniqishni his qiladi. U buni faqat tashqi maqtov va e’tirof uchun qilmaydi, balki jarayonning o‘zi va ishining natijasidan zavqlanadi.

Fidoyilikning asosiy qadriyatlaridan biri shundaki, u bizga qiyinchiliklar va to‘siqlarni yengishga yordam beradi. Biz o‘z ishimizga to‘liq sodiq bo‘lganimizda, biz birinchi to‘siq yoki to‘siqdan voz kechmaymiz, balki kurashni davom ettiramiz va muammolarni hal qilish yo‘llarini qidiramiz. Fidoyilik muvaffaqiyatga intilishda qat’iyatli va bardoshli bo‘lishga imkon beradi.

Bundan tashqari, fidoiylik shaxsiy “Men”imizni yanada rivojlantiradi. Biz o‘zimizni biror ishga bag‘ishlaganimizda, biz doimo rivojlanib, takomillashib, yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lamiz. Fidoyilik bizga professional va inson sifatida o‘sishga, qilayotgan ishimizda yaxshiroq bo‘lishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tili va madaniyatida fidoyilik va uning ifodasi, tasdig‘i odatda el-yurt, fan, ta’lim uchun xizmat qiladigan kadrlarni yetishtirib berilganligi bilan o‘lchanadi. “Ilova tariqasida aytmoq-chimanki, ustoz qayerda ishlamasin o‘z kasbiga fidoyiligini namoyish etdi va zimmasidagi vazifani sharaf bilan bajardi. Ustozning ko‘plab shogirdlari turli soxalarda samarali mehnat qilib mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelishyapti. Mazkur maktabda ta’lim olgan ba’zi o‘quvchilar fan nomzodlari va fan doktorlari ilmiy unvoniga sazovor bo‘lishgan.” (O.Kamol. Fidoyilik)

Allambergenovaning Alpomish dostonining o‘zbek va qoraqolpoq versiyalarining qiyosiy tadqiqida qilingan tadqiqot ishida fidoyilik “Dostonning Yesemurat Jirov Nurabullayev variantida: Əshim faqirning Alpamıs uchun fidoyiligi (“dən qıldı, un qıldı, nan qıldı»), Alpamısning zindondagi holati (“alladan, baladan”; “alladan, dushpannan, mamadan”; “batırın, shatırın”) singari o‘rinlarda to‘liqsiz saj’dan unumli foydalanilgan”[1] tarzida ifodalanadi.

O. A. Doroxova “Axloq tarixida qahramonlik odob-lari” nomli tadqiqotida qahramonlik ko‘rinishlari insoniyat tarixi davomida sodir bo‘lishini ta’kidlab, qahramonlik odob-axloqi tushunchasini hayot tarzi, ma’lum bir ijtimoiy yo‘nalish sifatida kiritadi, uning namunasi qahramon hisoblanadi. O. A. Doroxova har bir tarixiy davr bilan "qahramon" tushunchasi o‘zgarishlarga duch kelishini ta’kidlaydi. Qahramon haqidagi g‘oyalarning kelib chiqishi antik davrda. "Antik davrda qahramon haqidagi g‘oyalarda asosiy e’tibor harbiy faoliyat, jangdagi xatti-harakatlar, o‘limga munosabat, Uyg‘onish davrida - haqiqatni bilish istagi, umumiy manfaatlar uchun kurash bilan bog‘liq bo‘lgan fazilatlarga qaratilgan[2].

E. V. Ivanova o‘zining "Mifologik ma’no shakllanishi (madaniy qahramon obrazi)" tadqiqotida qahramonni ma’nolarning tashuvchisi va tarjimoni, mifning konseptual o‘zagi deb hisoblaydi va "mifdagi qahramon" tasniflariga e’tibor beradi. “Madaniy qahramon” tushunchasining geneziyasini arxaiklikdan zamonaviy tushunchagacha bo‘lgan dinamikada kuzatar ekan, muallif xalq-mifik qahramonlarni: ertak, afsonaviy, epik, epik, antiqahramon va zamonaviy qahramonlarni: siyosiy afsonaviy qahramon, g‘oyaviy afsonaviy qahramon, diniy qahramon, ommaviy axborot vositalari qahramoni ma’lumotlari. Muallif qahramon haqidagi

afsonani ijtimoiy-siyosiy kontekstda ko‘rib chiqadi va ommaviy axborot vositalarida mif yaratish xususiyatlarini ko‘rib chiqadi[3].

Ijtimoiy falsafa doirasida I. M. Suravnevaning jamiyatda qahramon obrazini shakllantirish mexanizmini tahlil qilishga bag‘ishlangan "Qahramonlik ijtimoiy hodisa sifatida" tadqiqoti amalga oshirildi. Muallif zamonaviy jamiyatda qahramonlik hodisasini idrok qilish ohangi o‘zgarib borayotganini, istehzo, kiniklik, boshqalarning olijanobligiga ishonmaslik kabi ichki to‘siqlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Muallif qahramonlik afsonasi haqida g‘oyaviy jihatdan belgilab qo‘yilgan, haqiqatga da’vo qiladigan, talab hamisha bo‘ladigan hikoya sifatida gapiradi, chunki u qadriyatlar, e’tiqod va maqsadlarga alohida ahamiyat beradi. I. M. Suravnevaning ta’kidlashicha, zamonaviy rus jamiyatida qahramon tushunchasi amerika madaniyati konsepsiyasi bilan almashtirilmoqda superman, muallifga ko‘ra, rus ommaviy madaniyatining namunaviy shaxsiga aylanib, yosh avlodning qadriyatlar tizimini o‘zgartiradi [4].

M.A.Loshmanovaning “Tarixiy-falsafiy jarayonda qahramon tushunchasi: klassik va noklassik munozaralar” tadqiqotida qahramon tushunchasi, uning tarixiy shakllari va ko‘rinishlari falsafiylashtirishning klassik va noklassik turlari doirasida ko‘rib chiqiladi. Muallif *qahramon* tushunchasini tarixiy-falsafiy kontekstda tahlil qilib, uning inson tafakkurining tarixiy harakati va tushunchalarning o‘zgarishi jarayonida o‘zgarishlarini ochib beradi [5].

A.V.Trofimovaning "Joriyat rus madaniyatining hodisasi sifatida" dissertatsiyasi rus madaniyati tarixidagi jasoratni falsafiy va madaniy tushunishga, uning madaniy makonda aktuallashuvining ijtimoiy va individual-shaxsiy tomonlarini, uning universal, milliy xususiyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. -o‘ziga xos va mintaqaviy-o‘lkashunoslik komponentlari. Boshqa tadqiqotchilar singari A.V.Trofimova ham hozirgi zamon qahramonlik imkoniyatiga shubha bilan ajralib turishini, shu bilan birga jamiyat qahramonlik obrazlariga juda muhtojligini ta’kidlaydi.

R. A. Lukyanovaning "Qahramonlik haqiqati falsafasi" tadqiqoti falsafiy fikr tarixidagi qahramonlik haqiqati muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asarning ko‘p qismi haqiqatni o‘rganish va haqiqatni falsafiy kategoriyalar sifatida bilishga bag‘ishlangan bo‘lib, falsafa va ijtimoiy fikrda qahramonlik talqinlari ko‘rib chiqiladi. Muallif qahramonlik xulq-atvorining mohiyatini ochib beradi, bu qahramonlik fazilatlarini ob’ektivlashtirish, qahramonlik xatti-harakatlarini talab qiladigan vaziyatlarni ko‘rsatish va qahramonlik harakati olib keladigan oqibatlarni anglashdadir.

L. A. Seredinskayaning “Qahramonlikning ijtimoiy ontologiyasi” tadqiqotida “qahramonlik” va “qahramonlik” tushunchalari qahramonlikning ijtimoiy ontologiyasini yaratish uchun ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushunchalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Qahramonlik nutqi ijtimoiy voqelikni qurish usuli sifatida taqdim etiladi, uning siyosiy ishtiroki va mafkuraviy ikkilanishlari qayd etiladi: ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo‘lgan holda, u muxolifat nutqi hamdir. A.V.Trofimova jasoratlarning bir necha turlarini ajratib ko‘rsatadi: harbiy, ma’naviy, ilmiy, ijodiy va kundalik jasorat.

Madaniyatshunos P.A.Sapronov o‘zining “Qahramonlik hodisasi” kitobida qahramonlikni muqaddaslik bilan qiyoslash mumkin bo‘lgan inson mavjudligining ekstremal holatlaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

N. B. Myndaning “Qadimgi madaniyatda ijodkorlarning ulug‘lanishi” nomli madaniyatshunosligi antik davrda o‘ziga xos xususiyatlari va ijodkorni ulug‘lashning antik davr madaniyatida tabiiy turi sifatida ulug‘lanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Muallifning ta’kidlashicha, "Ulug‘lash insoniyat sivilizatsiyasi mentalitetining umumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi madaniyatning tabiiy haqiqatidir, ammo har bir madaniyatda ulug‘lash madaniy paradigmaning xususiyatlari bilan belgilanadigan o‘ziga xos xususiyat va shakllarga ega. Muallifning fikricha, ulug‘lashning qadimiy shakllarini o‘rganish orqali biz bugungi kundagi qahramonlik talqiniga yaqinlashamiz. N.B.Minda o‘z tadqiqoti davomida Gomer, Sofokl, Dedalus va Fidiyalarning hayotiy ijodini tahlil qilib, antik madaniyatda ijodkorning qahramonlik mavqeini ko‘rsatib berdi.

T. V. Iovlevaning "Shaxsning mashhurligi madaniy hodisa sifatida" tadqiqoti shaxsning mashhurligi fenomenining ijtimoiy-madaniy jihatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

G.V.Rilskiyning "Madaniy dinamikada epik qahramonlarning o‘zgarishi: maishiy animatsiya materialida" tadqiqoti rus qahramonlari va ularning raqiblarining ma’no obrazlarini o‘zida mujassam etgan san’atning turli shakllarini belgilovchi madaniy dinamika tendensiyalarini aniqlashga bag‘ishlangan. San’atning asosiy turlari (musiqa, rasm, adabiyot, kino, animatsiya) doirasida muallif uch qahramonning ruhiy obrazlarining ham tipik, ham maxsus xususiyatlarini aniqladi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o‘zbek tili va madaniyatida fidoiylik kategoriyasi va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, analiz, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, mantiqiylik kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Inson fidoiy bo‘lsa, u nafaqat o‘z vazifalarini bajaradi, balki mukammallikka intiladi. U doimo o‘zini yanada takomillashtirib, yangi usul va yondashuvlarni o‘rganadi, zamon bilan hamnafas bo‘ladi. Bunday odam shu bilan to‘xtamaydi, balki o‘z sohasida doimo rivojlanib, takomillashib boraveradi. Biroq, fidoyilikka erishish ko‘rinadigan darajada oson emas. Bu odamdan o‘z kasbiga alohida ichki motivatsiya va sodiqlikni talab qiladi. Shunday qilib, fidoyilikka erishish uchun aniq maqsad va vazifangizni tushunish kerak. Bunda ularning faoliyatiga qiziqish va ularning jamiyat uchun ahamiyati muhim omil hisoblanadi.

Agar har birimiz samimiy istak, qat’iyat va rivojlanishga tayyor bo‘lsak, fidoyilikka erisha olamiz. Fidoyilik vaqt va kuch talab qiladigan jarayon ekanligini unutmaslik kerak. Shunga qaramay, bu yo‘ldagi har bir qadam bizni mamnun qiladi va faoliyatimizda yaxshi natijalarga olib keladi.

O‘zimizning sevgan mashg‘ulotimizga to‘liq sodiq bo‘lganimizda, unga barcha kuch, vaqt va resurslarimizni sarflashga tayyormiz. Siz uzoq va qizg‘in mashg‘ulotlarni o‘tkazishga, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishga, oqimga qarshi chiqishga va birinchi qiyinchiliklardan oldin taslim bo‘lmaslikka tayyor bo‘lasiz.

Sadoqat, shuningdek, qiyinchiliklarni yengishga va o‘zingizni yengishga yordam beradi. Muvaffaqiyatga erishayotganda, kelajakdagi muvaffaqiyat uchun bugungi kunning ba’zi zavqlarini qurbon qilishga tayyor bo‘lish muhimdir. Uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun siz qisqa muddatli zavqlardan voz kechishga tayyor bo‘lishingiz kerak.

Bundan tashqari, fidoyilik maqsadlaringizga erishishda diqqatli va barqaror bo‘lishga yordam beradi. Bu sizni chalg‘itadigan narsalarni yengishga va eng muhim narsalarga e’tiboringizni qaratishga yordam beradi. Sadoqatli odam maqsadni his qiladi va muvaffaqiyatga erishmaguncha o‘z yo‘lidan chetga chiqmaydi. Xuddi shunday fidoyilik ham sizga o‘zingizdan ustun bo‘lishga va o‘z salohiyatingizni to‘liq anglashga yordam beradi. Sadoqat sizning cheklovlaringizni yengib, yangi cho‘qqilarni zabt etishga imkon beradi.

Albatta, muvaffaqiyat nafaqat fidoyilik natijasi, balki iste’dod, imkoniyat va omad kabi turli omillarning kombinatsiyasidir. Biroq, fidoyiliksiz jiddiy natijalarga erishish qiyin.

Shunday qilib, muvaffaqiyatga erishishda fidoyilik muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘z maqsadlari yo‘lida harakat qilish uchun kuch, motivatsiya va aniqlik beradi.

Bugungi kunda o‘zbek tilida, madaniyatida fidokorlik, fidoyilik yuqorida ta’kidlaganimizdek, ta’lim-tarbiya sohasida xizmat qilgan, muayayn sohada uzoq mehnat qilgan yetuk mutaxassislarga o‘zlarining ustida ishlab, izlanib yuksalish bilan birga yoshlarning orasidan ham o‘z izdoshlarini tarbiyalashi ham fidoyilik sifatida baholab kelinmoqda.

Uning fidokorona mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib takdirlandi. U “O‘zbekistan xalq ta’limi a’lochisi” unvoniga sazovor bo‘ldi. Oramizda shunday fidoyi insonlar bor ekan yurtimiz gullab yashnayveradi. Jamiyatdagi parokandalik yomon va axloksiz odamlarning xatti-harakatidan boshlanadi. (Obid Kamol. Fidoyilik) Ushbu asarda fidoyi shaxs o‘zida qanday gio‘zal axloqlarni o‘zida mujassam qilishi, o‘zbek madaniyatida fidoyi shaxsning fidoyiligini ko‘rsatuvchi xususiyatlari ham keltirilgan.

Bu fidoyi insonning tadbirkorligi va odamiyligi haqda qancha ko‘p gapirsak, ozlik qiladi. Vaqt taqozosi tufayli men so‘zimni shu yerda yakunlamoqchiman.

Xulosa. Har bir yurtni fuqarosi o‘z kasbiy faoliyatida fidoiy bo‘lishi ushbu sohani yanada taraqqiy etishiga ko‘mak beradi. Masalan, tadbirkorlik, ya’ni, muayyan ishlab chiqarishlar qilib, yangi ish o‘rinlari tashkil qilish, moddiy ahvoli tang bo‘lgan odamlarga moddiy-ma’naviy ko‘mak berish kabi ishlarni qiluvchi odamda jam bo‘ladigan fazilat, fidoyi odamning fidoyiligini tasdiqlovchi jihatlardan ekanligi anglashiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘z-o‘ziga, o‘z kasbiga, o‘z oilasiga, Vataniga fidoiy bo‘lgan inson shu jamiyatni rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Fidoiy inson o‘z maqsadiga erishish yo‘lida hech nimadan qaytmaydi, o‘zini boricha bag‘ishlaydi. Bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, har bir jamiyat madaniyat va til sohasida fidoiylikka, bu soha rivojidagi fidoiy insonlarga ehtiyoj sezadi.

ADABIYOTLAR

1. Allambergtnova N. “Alpomish” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq versiyalari qiyosiy tipologiyasi. F.f.b.d. avtoref...Toshkent. 2019. V. 18.
2. Doroxova, O. A. Geroicheskiy etos v istorii morali: avtoref. dis. … kand. filos. nauk: 09.00.05 / Doroxova Olga Anatolyevna. – M., 2005. V.5.
3. Ivanova, Ye. V. Mifologicheskoye smыsloobrazovaniye (obraz kulturnogo geroya): avtoref. dis. … d-ra filos. nauk: 09.00.13 / Ivanova Yevgeniya Vladimirovna. – Yekaterinburg, 2005. V.5.
4. Suravneva, I. M. Geroizm kak sosialnыy fenomen: avtoref. dis. … kand. filos. nauk: 09.00.11 / Suravneva Irina Mixaylovna. – Tver, 2006.
5. Loshmanova, M. A. Konsept geroya v istoriko-filosofskom prosesse:klassicheskiy i neklassicheskiy diskursы: avtoref. dis. … kand. filos. nauk:09.00.03 / Loshmanova Mariya Aleksandrovna. – Saratov, 2006.
6. Rыlskiy, G.V.Transformatsiya bыlinnыx geroyev vkulturnoydinamike: na materiale otechestvennoy animasii: dis. … kand. kulturologii: 24.00.01 / Rыlskiy German Vitalyevich. – Kostroma, 2011.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:321.6/8.323

Komal MAXMUDOV,
Toshkent moliya instituti dotsenti, Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: Maxmudovks@mail.ru

“STARS International University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti f.f.d.f.d., (PhD), dotsent A.M.Raxmanovning taqrizi asosida

SPECIFIC ASPECTS OF POLITICAL REGIME AND POLITICAL LEADER IN THE POLITICAL AUTHORITY SYSTEM

Annotation
In this article, the problems of political regime, political power and political leadership, the relations, activities, nature of organizations, specific roles and tasks of power institutions in the formation and implementation of state power and management are highlighted.
Key words: Leader, regime, political regime, political power, political leadership, political system.

ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОГО РЕЖИМА И ПОЛИТИЧЕСКОГО ЛИДЕРА В СИСТЕМЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ВЛАСТИ

Аннотация
В данной статье освещены проблемы политического режима, политической власти и политического лидерства, взаимоотношений, деятельности, характера организаций, конкретных ролей и задач институтов власти в формировании и осуществлении государственной власти и управления.
Ключевые слова: Лидер, режим, политический режим, политическая власть, политическое лидерство, политическая система.

SIYOSIY HOKIMIYAT TIZIMIDA SIYOSIY REJIM VA SIYOSIY LIDERNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya
Mazkur maqolada siyosiy rejim, siyosiy hokimiyat va siyosiy liderlik muammolari, davlat hokimiyati va boshqaruvini shakllantirishda hamda amalda ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar mohiyati, hokimiyat institutlarining o‘ziga xos o‘rni va vazifalari yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Lider, rejim, siyosiy rejim, siyosiy hokimiyat, siyosiy liderlik, siyosiy tizim.

Siyosatshunoslikda siyosiy rejim murakkab va ko‘p qirrali kategoriya bo‘lib, jamiyat siyosiy hayotining bir qator dinamik tomonlarini qamrab oladi. Ushbu holat siyosiy rejimlarni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash imkoniyatini tushuntiradi. Davlatlarda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlarini ajratish prinsipiga muvofiq, hokimiyatlarning birlashishi rejimi va hokimiyatlarning bo‘linishi rejimini ajratish mumkin; armiyaning jamiyatdagi mavqei va roli bo‘yicha – harbiy va fuqarolik rejimlari; davlat hokimiyati organlari tomonidan mentalitet turi, ijtimoiy–madaniy majmua – “G‘arbiy” va “Sharqiy”; davlat va cherkov o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati bo‘yicha teokratik (ruhoniy) va dunyoviy rejimlar mavjud. “Siyosiy rejimlarning tipologiyasi davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, davlat hokimiyatining ijtimoiy voqelikning boshqa sohalariga va fuqarolarning shaxsiy hayotiga kirib borish darajasini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Ushbu mezonlarga asoslanib, rejimlarning demokratik, avtoritar va totalitar turlari ajratiladi”[1].

Siyosatshunoslikda “siyosiy rejim” kategoriyasi ma’lum bir davlatning mohiyati, mazmuni va shaklini tushuntirish, hokimiyatni amalga oshirish shakllari va usullarini, shaxsning jamiyatdagi mavqeini, hokimiyat institutlarining tuzilishi va rolini aniqlashda ishlatiladi. “Siyosiy rejim” atamasidan foydalanishning ushbu asosiy yo‘nalishlari mazkur konsepsiyaning murakkabligi va ko‘p o‘lchovliligini, uning siyosiy hayotdagi dolzarbligi va amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi. Masalan, “G. N. Manov siyosiy rejim umuman davlat shakli tushunchasi bilan bir xil bo‘lgan nuqtai nazarni ilgari surdi. Boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli uning elementlari yoki tarkibiy qismlari sifatida ifodalanadi”[2].

Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy rejim, siyosiy hokimiyat va liderlik muammosi jiddiy ilmiy tadqiqotlar mavzusidir. Siyosiy rejimni o‘rganishning asosiy muammosi butun jamiyatga ta’sir ko‘rsatadigan hokimiyat va uning lider muammosi bilan bog‘liq hodisasi bo‘lib hisoblanadi. Siyosiy rejim davlatdagi siyosiy hokimiyat faoliyatining mohiyatini, hokimiyat institutlarini tashkil etishni, davlat va jamiyatning o‘zaro ta’sirini belgilaydi. Bunda uning ifodachisi siyosiy liderlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, siyosatshunoslik fanida ushbu muammolar uyg‘unlikda o‘rganilmagan. Zotan, lider siyosiy rejimni o‘zgartirishi yoxud siyosiy rejim yangi liderlarning vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib ular uch unsur birligini tashkil qiladi. 1) siyosiy rejim; 2) siyosiy hokimiyat; 3) siyosiy liderlik. Mazkur unsurlarning uyg‘unlashuvi asosida biri ikkinchisini to‘ldiruvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi va umumiy siyosiy muhitni vujudga keltiradi. Shuning uchun siyosiy rejim va siyosiy liderlik fenomeni dualistik ilmiy muammo sifatida o‘rganish maqsad muvofiqdir.

“Rejim” atamasi turli ma’noda talqin qilinishi mumkin. Birinchidan, bu alohida sub’ektlar tomonidan ma’lum bir maqsadga erishish uchun o‘rnatilgan qoidalar, normalar va turli chora-tadbirlar to‘plamidir. Ikkinchidan, siyosatdagi rejim-bu davlat tizimini, boshqaruv usulini(imidjini), bir shaxs yoki shaxslar guruhining jamiyat fuqarolarining hatti-harakatlarini nazorat qilishni bildiruvchi atama”[3]. Shuning o‘zi siyosiy liderning siyosiy rejim tipologiyasini vujudga keltiruvchi omil ekanligida namoyon bo‘ladi. Siyosiy liderning davlat tizimiga ko‘rsatgan ta’siri

natijasi siyosiy rejimning g‘ayridemokratik yoki demokratik tipologiyasi vujudga keladi.

Siyosiy rejim kategoriyasini o‘rgangan siyosatshunos olimlar, siyosatchilar va siyosiy, falsafiy va ijtimoiy ilmiy soha mutaxassislari, siyosiy rejim, siyosiy tizimlarni o‘rganish, analiz qilish, siyosiy boshqarish, siyosiy huzur va istiqbolni takomillashtirish bo‘yicha ko‘p yillik tajribaga asoslanib bir qator takliflarni ilgari surishganligiga guvoh bo‘lamiz. Siyosiy rejim kategoriyasini o‘rgangan olimlarning asosiy vazifalari, siyosiy tizimlarni tahlil qilish va aniqlash. Siyosiy sistemalarning tuziluvchi prinsiplarini, amalga oshirish shakllarini bo‘yicha xulosalarini o‘rganishdan iborat.

“Siyosiy rejim mamlakatdagi siyosiy, avvalo davlat hokimiyatining haqiqiy xarakteri va tashkil etilishi, u yoki bu davlat institutlari (prezident, parlament, parlament muholifati, sudlar, konstitutsiyaviy sud, idoraviy apparat, armiya va shu kabilar)ning roli, fuqarolarning demokratik huquqlari va erkinliklari, siyosiy fikrlarning xilma - xilligining haqiqiy holati, ijtimoiy ong, milliy, diniy va boshqa guruhlarning roli, ularning davlat hokimiyatiga, jamoat ishlariga ta’siri, manaviylik, odatlar, qonuniylikning holati, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqiy tartibotni ta’minlash usullari tushuniladi”[4].

“Siyosiy tizim” kategoroyasi davlat hokimiyati va boshqaruvini shakllantirish hamda amalda ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar mohiyatini, siyosiy jarayon kategoriyasi esa individlar, guruhlar, hokimiyat institutlarining o‘ziga xos o‘rni va vazifalarini amalga oshirish uchun bir-birlari hamda davlat bilan o‘zaro munosabatlari mohiyatini ochib beradi”[5]. Siyosiy tizim davlatning idoralari, qonun hujjatlari, siyosiy partiyalar va ijtimoiy guruhlar bilan aloqador, tashkilotlar, xalqaro hamkorlik, shuningdek siyosiy protsess va institutlarni yoritadigan asosiy mexanizmlarni yoritadi. Siyosiy tizim davlatning boshqa asosiy tizimlari bilan hamkorlik qiladi va davlat hukumati, parlament, sud, mustaqil organlar va boshqa institutlar orqali ish bajaradi. Ushbu tizim orqali davlatning siyosiy axboroti, siyosiy qarorlarni qabul qilish, qonun hujjatlarini amalga oshirish, xalqaro munosabatlarni reglamentlashtirish va boshqa siyosiy hujjatlarni amalga oshirishda.

Siyosiy rejim kategoriyasini o‘rgangan olimlar siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, boshqarish va istiqbolni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladilar.

Siyosiy rejim, birorta davlatning qonunlariga amal qiladigan va davlatning boshqaruvchilari tomonidan o‘rnatilgan siyosiy hokimiyat tizimi. Bu rejimda davlatning boshqaruvchilari oliy masalalarni hal etish, davlatning istiqbollarini belgilash, inson huquqlarini saqlash, davlatning tashkiliy-iqtisodiy holatini yaxshilash va istiqbollarini hal etish uchun maslahat beradi.

Siyosiy rejimlar uzoq tarixiy davrda shakllangan va ularning bir nechta turlari mavjud. Bu turlar orasida demokratik, avtoritar, totalitar, monarxik va kommunistik rejimlar kabul qilinadi.

Demokratik rejimda xalq ovozi, ijtimoiy huquqlar va erkinliklarni ko‘rib chiqadigan muassasalar kuchaytiriladi. Demokratik rejimning bir nechta shakli mavjud, masalan, parlamentariy, prezidentlik, konstitutsiyalik monarxiya va gibrid rejimlar.

Avtoritar rejimda kuchaytirilayotgan xalq ovozi aniq tahdid bilan cheklanadi. Avtoritar rejimning boshqaruvchilari kuchaytiriladigan masalalarni hal etishda keng hukumat kontrolini saqlaydi.

Totalitar rejimda hammasini birlashtirish, davlat kontroli va xalq ovozini to‘liq cheklab qo‘yish maqsadga muvofiqlashtiriladi. Totalitar rejimning misollari Jozef Stalinning Sovetlar Ittifoqida, Mao Szedunning Xitoyda amalga oshirilgan siyosiy rejimlari.

Monarxik rejimda davlatning boshqaruvchisi monarx bo‘lib, uning qarorlari asosan hukumat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi rejimlarning bir nechta shakli mavjud, masalan, absolyutlik monarxiya, konstitutsiyalik monarxiya va to‘p monarxiya.

Kommunistik rejimda kommunistik ideologiyasi asosida harakat qilinadi. Davlatning boshqaruvchilari kommunistik partiya tomonidan belgilanadi va ularning qarorlari asosan ideologik prinsiplarga amal qiladi. Sovetlar Ittifoqida, Xitoyda va quyidagi boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan kommunistik rejimlar misollariga olinadi.

Ushbu rejimlar turlari va shakllari davlatning boshqaruvchilarining xalqning istiqbollarini, inson huquqlarini, ijtimoiy-iqtisodiy xolatini hamda davlatning boshqaruvini belgilashda asosiy rol o‘ynaydi.

Siyosiy hokimiyat esa davlatni boshqarishda muhim rol o‘ynaydigan tizim. U siyosiy hokimlarning davlatning qonunlariga muvofiq ishlashini talab etadi va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy masalalarni hal etish uchun ko‘maklashadi.

Siyosiy hokimiyat, davlatning boshqaruvchi, ishonchli va qonunlarga muvofiq ishlashini taqoza etadi. U siyosiy hokimlarning davlatning qonunlariga muvofiq ishlashini talab etadi va davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy masalalarni hal etish uchun ko‘maklashadi.

Siyosiy hokimiyatning asosiy maqsadlari o‘rtacha va katta masalalarni hal etish, davlatning istiqbollarini belgilash, inson huquqlarini saqlash va davlatning tashkiliy-iqtisodiy holatini yaxshilashdir. Siyosiy hokimiyat boshqaruvchilarning davlatning ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi uchun ko‘maklashadi.

Liderlik va siyosiy hokimiyat orasidagi aloqa jamiyat istaklarini, muammolarini hal etish, yoshlarni tarbiyalash, tashkiliy-iqtisodiy istiqbollarni amalga oshirish, davlat xizmatlarini yaxshilash, inson huquqlari va erkinligini saqlashga ko‘maklashadi. Ushbu aloqa liderlik va siyosiy hokimiyatning tashkilotidagi muammolarni hal etishda, ideallarni amalga oshirishda va jamiyat istiqbollarini hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Lider bir guruh yoki jamoatni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi, uning maqsadlarini, ideallarini amalga oshirishda faoldir. Siyosiy hokimiyat esa davlatni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi, uning hukmronlikchilik tizimi va usullari bilan aloqadordir.

Lider va siyosiy hokimiyat orasidagi aloqa shunday bo‘ladi. Liderlik asosan jamiyatning istiqbollariga, maqsadlariga, ideallariga bog‘liq bo‘ladi. Siyosiy hokimiyat esa davlatning hammasini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi, unda hokimlar davlatning qonunlariga muvofiq ishlashlari talab etiladi.

Lider va siyosiy hokimiyat orasidagi aloqa bir xil muammolarni birlashtiradi, masalan, demokratik liderlik modeli demokratik siyosiy hokimiyatni o‘rnatadi, unda xalq tanlab olingan hokimlar orqali qo‘yilgan qonunlar amalga oshiriladi. Avtoritar liderlik modeli esa avtoritar siyosiy hokimiyatni o‘rnatadi, unda kabinet tizimi yoki avtonomiya organlari orqali ijtimoiy-siyosiy faoliyatni boshqarish o‘z vazifasi bo‘ladi.

Davlat va jamiyatni boshqarishda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, berilgan imkoniyat va vakolatlardan xalq manfaatlari yo‘lida samaraliroq boshqaruv institutlarini joriy etishda liderlar va siyosiy liderlarga ishonch bildirilganligini, o‘tgan tarixiy voqea va jarayonlarda ko‘rishimiz mumkin. Siyosiy liderlik, davlatning boshqaruvchilari yoki siyosiy iroda sohiblari tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy imkoniyat va vazifalarni boshqarishda ko‘rsatiladigan ko‘makchilik vazifasini anglatadi. Siyosiy liderlarning xalq va davlat oldida bir qator mas’uliyati va burchlari bor. Siyosiy liderlar xalqning

istiqbollarini belgilash, davlatning siyosiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil etishi va boshqarishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, siyosiy maslahatlarni tashkil etish kabi bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Siyosiy liderlik bayon qilgan xususiyatlari orqali shakllanadi, masalan, mehnat kuchini bilgan, ishonchli, insoniy xususiyatlarga ega, iste’molchi, tashabbuskor, xalqning istiqbollarini e’tirozsiz belgilashga muhtoj, hamda ilmiy, siyosiy va amaliy tajribaga ega bo‘lishi kerak.

Lider - bu asosan jamoa va jamiyatni boshqarishda muhim rol o‘ynaydigan shaxs. U liderlikka ega bo‘lganda, unda muammolarni hal etish, ideallarni amalga oshirish, jamiyatning istiqbollarini belgilash va uni rivojlantirish, tashkiliy-iqtisodiy masalalarni yoki siyosiy muammolarni hal etish, inson huquqlarini saqlash kabi vazifalarni bajarishga tayyor bo‘ladi.

Liderlikka ega bo‘lgan shaxslarning ko‘pchiligi yoshlarni tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy istiqbollar bilan tanishtiradi va ularning ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi uchun ko‘maklashadi.

Liderlik modellari o‘zaro aloqador bo‘lib, ular siyosiy hokimiyatni ham tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Liderlik modellarida demokratik, avtoritar va boshqa modellar mavjud. Liderlar muammolarni hal etishda, g‘oya, taklif va ideallarni amalga oshirishda va jamoatning istiqbollarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu aloqa liderlik va siyosiy hokimiyatning tashkilotidagi muammolarni hal etishda, ideallarni amalga oshirishda va jamoatning istiqbollarini hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Siyosiy hokimiyat boshqaruviga kelgan siyosiy liderlarda o‘zgarishlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Siyosiy hokimiyat boshqaruv shakllari davlatlarga va siyosiy liderlarga bog‘liq bo‘lib, ularning maqsadlari, ideologiyalari, siyosiy tizimlari va usullari bilan ayrimlik ko‘rsatadi. Ular oliy organlar, parlamentlar, prezidentlar, kabinetlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy gruppalar va boshqa tashkiliy o‘rganlar orqali amalga oshiriladi.

Siyosiy hokimiyat boshqaruv shakllari liderni shakllantirishidagi ta’sirlari asosan liderning ideologiyasiga, maqsadlariga, siyosiy tizimiga va usullariga bog‘liq bo‘ladi.

Agar liderning ideologiyasi demokratik, inklyuziv, insoniy-ma’naviy senzuralarga ega bo‘lsa, uning shakli ham ushbu prinsiplarga muvofiq bo‘ladi. Bunday liderlik shakli demokratik jamoatning ko‘pinchaligi tomonidan munosabat bilan qabul qilinadi va oliy organlar, parlamentlar va boshqa ijtimoiy tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

Boshqa tomondan, agar liderning ideologiyasi avtoritar, totalitar yo‘nalishda bo‘lsa, uning shakli ham ushbu prinsiplarga muvofiq bo‘ladi. Bu shaklda lider tomonidan yoyilgan boshqaruv tizimi, uning hokimiyati oliy organlar va boshqa tashkiliy jarayonlar orqali amalga oshiriladi.

Liderning siyosiy tizimi va usullari shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Agar lider demokratik tizimni o‘rnatsa, uning shakli ham demokratik bo‘ladi. Bu shaklda lider parlamentar sistemani o‘rnatadi, parlament uchun tanlab olingan a’zolar orqali kiritilgan qonunlar amalga oshiriladi.

Agar lider avtoritar tizimni o‘rnatsa, uning shakli ham avtoritar bo‘ladi. Bu shaklda lider kabinet tizimi yoki avtonomiya organlari orqali ijtimoiy-siyosiy faoliyatni boshqaradi.

Siyosiy liderlarning belgilangan maqsadlariga qarab, ular o‘ziga xos xususiyatlardan foydalanib, siyosiy hokimiyat boshqaruviga kelgan o‘zgarishlarni amalga oshirishadilar.

Siyosiy hokimiyat boshqaruviga kelgan siyosiy liderlardagi o‘zgarishlar masalasi davlatlar va davlatlar orasidagi siyosiy jarayonlarga, ijtimoiy-siyosiy holatga, iqtisodiy va siyosiy talablarga, texnologik rivojlanishlarga, xalqaro hamkorlikning o‘rtasidagi aloqalarga va boshqa faktorlarga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, siyosiy hokimiyat boshqaruviga kelgan siyosiy liderlardagi o‘zgarishlar masalasi har bir davlat va lider uchun shaxsiy va tashkiliy faktorlarga bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. Шварценберг Дж. Политическая власть. Изучение мирового общества. // Социально-политический журнал. .1997. - №6. - с.164-183.
2. Современная буржуазная политическая наука: проблемы государства и демократии. / Под ред. Г.Х. Шахназарова. - М., 1982. – с.228.
3. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик.Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ,.; проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. -Т.: «Шарқ», 2009. 101-б.
4. Lex.uz - Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат
5. Х. Т. Одилқориев, Д. Х. Раззоқов “Сиёсатшунослик” // “Ўқитувчи нашриёт-матбаа ижодий уйи” // Тошкент- 2008 й. 23-бет.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:173(575.1)

Dildora MIRAKBAROVA,
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti v.v.b., (PhD)
E-mail: dmirakbarova@yandex.com

TDIU professori, f.f.d. A. Muxtarov taqrizi asosida

NOTO‘LIQ OILADA VOYAGA YETAYOTGAN BOLALARNING HUQUQIY, DINIY VA PSIXOLOGIK HOLATLARI

Annotatsiya

Oila mustahkamligi, oilaviy qadriyatlarning davomiyligi har bir odamning jamiyat oldidagi insoniylik burchi hisoblanadi. Oila nafaqat ikki insonning, balki farzandlar, kelajak avlod, jamiyat taraqqiyotining baxtli taqdiri kafolati hamdir. Farzandlarning baxti nafaqat moddiy to‘kinlik bilan, balki ularning ko‘zlaridagi quvonch, ma’naviy osoyishtaliklari bilan ham o‘lchanadi.
Kalit so‘zlar: Oila, farzand, ajrashish, yetimlik, hizona, aliment.

ПРАВОВОЕ, РЕЛИГИОЗНОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ДЕТЕЙ РАСТУЩИХ В НЕПОЛНОЦЕННЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация

Стабильность семьи, продолжительность семейных ценностей – человеческий долг каждого человека перед обществом. Семья – это не только залог двух людей, но и счастливая судьба детей, будущего поколения, развитие общества. Детское счастье измеряется не только материальным достатком, но и радостью в глазах и духовным спокойствием.
Ключевые слова: Семья, ребенок, развод, сиротство, хизона, алименты.

LEGAL, RELIGIOUS AND PSYCHOLOGICAL STATE OF CHILDREN GROWING IN DIVORCED FAMILIES

Annotation

The stability of the family, the continuity of family values is the human duty of every person to society. Family is not only the guarantee of two people, but also the happy fate of children, the future generation, and the development of society. Children's happiness is measured not only by material wealth, but also by joy in the eyes and spiritual peace.
Key words: Family, child, divorce, orphanhood, hizona, alimony.

Kirish. Xalqimiz qadim-qadimdan bola tarbiyasida umuminsoniy, milliy va diniy tajribalarni uyg‘unlikda olib borib, davlatimiz, jamiyatimiz, qolaversa, dunyo taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olimlar, allomalarni yetishtirib chiqargan va yetishtirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqida «Ta’lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko‘tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz»[1] deb, bolaning yorqin kelajagi nafaqat ota-ona, ta’lim muassasasi xodimlari, fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari vakillari, balki butun jamiyatning burchi ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasining qomusi bo‘lmish Konstitutsiyaning 77-moddasida «Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar»[2] deb, bola huquqlari qonuniy tartibda mustahkamlangan. Shuningdek, davlatimiz ushbu sohaga oid ko‘plab qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilgan, xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan, ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi 1992 yil 9 dekabrda «Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya»ga qo‘shilgan. Ushbu konvensiya 54 moddadan iborat. «Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya»ning 18-moddasida «Ota-ona birgalikda bola tarbiyasi uchun asosiy javobgarlar hisoblanadi va har bir bola uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib berishdan kelib chiqadi, davlat esa bu borada ularni qo‘llab-quvvatlashi shart. Davlat bolani tarbiyalashda ota-onaga tegishlicha yordam ko‘rsatishi zarur»[3], deb belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet el olimi Amy Hermodson «Ajrashishdan keyingi hayot» nomli dissertate-siyasida Amerika oilalaridagi ajrashish sonining ortishi va ajrashishdan keyingi «ma’nan og‘ir vaziyat» bugungi kun uchun global muammolardan biri ekanligini aytib o‘tgan: «Oxirgi 40 yil ichida birinchi nikohning 50%i, ikkinchi nikohning 60%i ajrashish bilan tugadi. Bu jadal kechayotgan jarayon sababli ushbu mavzudagi tadqiqotlarga bo‘lgan talab 1970-yillarga kelib oshdi. Bu mavzudagi ishlar bir necha guruhga bo‘linadi: 1. Ajrashuvning bolaga salbiy ta’siri; 2. Ajrashish muhitiga bolaning moslashuviga ta’sir etuvchi omillar; 3. Voyaga yetgan «ajrashuv bolalari».

Tadqiqotlarning bir qismi bolalarni ajrashishga ko‘niktirishga qaratilgan bo‘lib, unda ota-onalar ajrashishining bolalarga salbiy ta’siri, noto‘liq oiladagi nizoli vaziyatlar, yolg‘iz onalar uchun, iqtisodiy qiyinchiliklar, vasiylikni olmagan ota-onadan birining bola hayotidan butunlay chiqib ketishi kabi holatlar o‘rganilgan»[4].

Xorij olimlaridan Endi Astinah Adnan, Rabihatun Idris Rauf va boshqalarning «Ajrashuvni qabul qilish ta’limi»[5], David Mechanic and Stephen Hansellning «Ajrashish, oilaviy nizolar va ularning o‘smirlik davri farovonligiga ta’siri»[6], Frank F.Furstenberning «Ajrashish va Amerika oilalari»[7], Aniruddh Prakash Behere, Pravesh Basnet, Pamela Campbellning «Oila buzulishining bolalar ruhiy salomatligiga ta’siri: dastlabki tadqiqot»[8], Bram Hogendoorn, Thomas Leopold and Thijs Bolning «Ajrashish va kambag‘allik darajasi: xavf va zaiflik»[9] kabi maqolalarda oila mustahkaligini saqlash, ajrashish sabablarini o‘rganishdan ko‘ra, ajrashuvning oilada voyaga yetayotgan farzandlarning

jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga bo‘lgan ta’siriga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Solishtirib o‘rganadigan bo‘lsak, o‘zbek oilalarida ajrashish yuz berganda nafaqat farzand, balki er-xotin, ularning ota-onasi va yaqinlari ham psixologik og‘ir vaziyatga tushib qoladilar. Bu o‘zbek mentalitetining og‘riqli bir nuqtasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oila atalmish qo‘rg‘on darz ketganda ma’naviy qurbonlar ko‘p bo‘ladi. Shular orasida eng qattiq ma’naviy zarbaga uchragan insonlar – bu norasida farzanlardir. Sinovli dunyoga kelishi bilan «tirik yetim», «yarim yetim» nomini olganlar soni bugungi kunda yildan yilga oshib bormoqda.

«Oila ensiklopediyasi»da «Noto‘liq oila – bu ota-onalardan biri yo‘q bo‘lgan oila. Yana bir qo‘shimcha oila turi bo‘lib, u funksional jihatdan noto‘liq oila deb ataladi, bunda ota-onalar o‘zlarining professional bandliklari yoki uzoq muddatda oilada bo‘la olmasliklari sababli, oila a’zolariga nihoyatda kam vaqt ajratadilar. Bu oila turida ota-onalarning ajrashib ketishidan tashqari, biror obyektiv va subyektiv sabablar natijasida: bemorlik, favqulodda hodisalar, o‘lim, mehnat migratsiyasi tufayli er yoki xotinning o‘zga yurtlarda qolib ketish holatlari ham uchraydi»,[10] deb «noto‘liq oila» tushunchasiga ta’rif berilgan.

Psixolog G‘. Shoumarov «Ma’lumki, o‘zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to‘g‘ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o‘zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko‘p»,[11] degan. Ta’kidlash lozimki, ajrashishdan keyin ma’naviy qurbonlar soni, bolalar hisobiga, o‘zbeklarda afsuski ko‘proq.

Rus olimalaridan biri N.Biniyeva noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ijtimoiylashuvini tadqiq etadi: «Noto‘liq oilalarning asosiy muammolaridan biri – ulardagi bolalar tarbiyasi va ijtimoiylashishi muammosidir. Birinchidan, noto‘liq oilada oilaning iqtisodiy barqarorligi va qolgan barcha vazifalar bir inson yelkasiga yuklanadi. Farzandini moddiy ta’minlashga, boshqalardan kam qilmaslikka harakat qilayotgan ota yoki ona farzandining harakatlari, qilayotgan ishlari ustidan to‘liq nazorat olib bora olmaydi va pedagogik vazifasini bajarishi qiyinlashadi. Ikkinchidan, ajrashish bolalarning axloqiy-psixologik holatiga ham ta’sir qilmay qolmaydi. Noto‘liq oiladagi bolalar erkak va ayol, er va xotin, ota va farzand kabi munosabatlarni oila ichida kuzata olmaganliklari sababli bunday munosabatlarga kirishishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Ota-onaning mehri yetishmasligi oqibatida bolada o‘ziga ishonchning pastligi, boshqa odamlar va munosabatlarga nisbatan «xavfsizlik» hissini yetishmasligi, doimiy hissiy bezovtalikni his qilib, boshqa insonlardan uzoqlashish, ularga moslasha olmaslik qo‘rquvi bu bolalarning butun umr qiynab keladigan salbiy oqibatlardir. Noto‘g‘ri va noto‘liq shakllangan oilaga oid dunyoqarash bolalarning tashqi muhitdan uzilishlariga, yolg‘izlikka moyillikka olib keladi»[12]. Tadqiqotchi noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolaning ruhiy holatini ilmiy yoritib bergan. Uning fikriga qo‘shilgan holda, qo‘shimcha qilamizki, aksariyat hollarda «yarim yetim bolalar»ning psixologik holati hozirda voyaga yetayotgan oilalarida yo‘lga qo‘yilgan ma’naviy muhitiga ko‘proq bog‘liq.

Ko‘pincha oilalar buzilganda bolalar onada qoladi. Bunga sabab, onasi farzandini barcha talablarini, injiqliklarini yaxshi bilishi, ko‘p vaqtini asosan farzandi bilan o‘tkazganidadir. Ammo bu ota endi otalik vazifasidan ozod degani emas. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 96-moddasida «Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota(ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug‘iga asosan aliment undiriladi»[13] deyilgan. Qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida, bola manfaatlarini ko‘zlab, ota-onaning o‘zi ham aliment to‘lash tartibini kelishib olishlari mumkin.

Islom dini tarixida ham ajrashish holatlari bo‘lgan. Bunday vaqtda, ya’ni ayol eri bilan oila bo‘lib yashab ketolmasligi aniq bo‘lgan, murosa yo‘liga o‘tilgan. Ya’ni ayol va uning farzandlari uchun alohida uy ajratilgan va ota erlik vazifalarini bajarmasa ham, otalik burchini ado qilib, bolalarini moddiy va ma’naviy ta’minlagan. «Shariat istilohida ota va ona ajrashganidan keyin go‘dak bolani o‘z qaramog‘iga olish va tarbiya qilish – «hizona» («quchog‘iga olish») deyiladi. Ota-onaning nima sababdan va qanday holatda ajrashganlaridan qat’i nazar, onasi istab tursa, bola onaga beriladi. Agar ayol olishni istamasa, u majburlanmaydi»[14]. Lekin iloji boricha onaga, ona tomonidan ayol qarindoshga beriladi. Albatta, bu mas’uliyatning ma’naviy tomonini erkaklarga nisbatan ayollar yaxshi bajara olishlari hammaga ma’lum. Ammo hadisi shariflarga ko‘ra, bolani va bola tarbiyasi bilan band bo‘lgan onani moddiy ta’minlash otaning burchi bo‘lib qolavergan va bunday majburiyatdan bo‘yin to‘vlash otalar uchun ham or hisoblangan.

Bugungi kunda, asosan, ajrashishdan so‘ng bolalarning ta’minoti to‘liq onasining zimmasiga o‘tadi. Ota uchun esa nafaqat ayoli, balki farzandlari ham «sobiq»lik maqomini egallaydi. Endi ular undan uzoqda, «yomon» onasining qo‘lida, demak o‘sha ona boqib olsin, degan tushuncha bilan uyalmay, boshqa yangi hayot qurishni ko‘zlab yurgan odamlar oramizda oz emas. Bolaning ma’naviy holati u yoqda tursin, moddiy ehtiyojlari ham ta’minlanmaydi. Sud tomonidan undiriladigan aliment ham mutasaddi tashkilotlarning majburlovlari bilan, javobgarlikka tortilmaslik uchun to‘lanadi. Shunday otalar ham borki, o‘z farzandiga aliment to‘lovini qisqartirish uchun, begona insonlardan yordam so‘rab, «rozi qilish»larini aytib yuradilar. O‘z farzandiga shu pulni berish esa «uvol»dek tuyuladi. Go‘yoki bu bilan ular farzandlarini emas, sobiq rafiqalarini «yomonligi», «besabrligi» uchun jazolayotgandek. Lekin aslida kim qiynalmoqda? Kimning bolalik yillari o‘zining bolalik orzularini chegaralash bilan o‘tmoqda? Bolaning barcha turdagi ta’minotini o‘z bo‘yniga olgan, tinmay mehnat qilib, bolasini oyoqqa qo‘yayotgan ona «yomon»mi yoki boshqa odam? Ayoli sobiqlik maqomini olgani bilan farzandlar shu inson naslining davomchisi hisoblanadi. Insoniylik, mardlik tuyg‘ularini unutmagan odam bolalarini na moddiy, na ma’naviy qiynoqlarda qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Shu masalalar yuzasidan, «2017 yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Sud departamenti, hozirgi Majburiy ijro byurosi Namangan viloyati byuro sud ijrochilari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma’lum bo‘lishicha, byuroga kelib tushayotgan ijro hujjatlarining 60%i alimentni to‘lamaslik bilan bog‘liq masalalarga oid. Otalik burchini unutgan insonlarga mas’uliyatlarini yodiga solish, ma’nan ta’sir ko‘rsatish maqsadida «Farzandlarning ham sobiqi bo‘ladimi?», «Dadajon bizni esingizdan chiqarmang!» shiorlari ostida bannerlar ishlab chiqarilib, viloyatning tuman markazlariga joylashtirib chiqildi»[15].

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2021 yilda voyaga yetmagan farzandiga aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan 5300dan ortiq fuqaro ma’muriy qamoq jazosiga tortilgan. 2022 yilda bu ko‘rsatkich 8700dan ortgan. Majburiy ijro byurosiga kelib tushgan 48 ming 200 dan ortiq murojaatning 25 ming 600tasi, ya’ni 53%i alimentga oid. Joriy yilda aliment ijro hujjatlari bo‘yicha moddiy yordamga muhtoj farzandlar foydasiga 495 mlrd so‘mlik aliment pullari undirilgan, 2,2 mlrd so‘mlik 13 ta uy-joy va 255 mln so‘mlik 2 ta transport vositasi aliment oluvchilarga oldindan to‘lov sifatida berilishi ta’minlangan. MIB huzurida tashkil etilgan “Aliment to‘lovlari” davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 487 nafar aliment oluvchilar foydasiga jami 6,2 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Byuro aralashuvi bilan 6 mingdan

ziyod qarzdor ishga joylashtirilgan, 11,200 dan ortiq oilalar yarashtirilgan[16].

Tahlil va natijalar. Maqolaning amaliy qismi dala tadqiqotlari, ya’ni so‘rovnoma va intervyu metodlari orqali o‘rganildi. O‘tkazilgan amaliy tadqiqot pilotaj ya’ni sinov ko‘rinishida olib borildi va sifat ko‘rsatkichlari muhim asos qilib olindi. Amaliy metodlardan keng foydalanish va ilmiy tadqiqot ishini muhim jihatlarini ochib berish maqsadida u 2 bosqichli qilib ishlab chiqildi:

1.Avvalo, oila ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislardan intervyu olindi. Intervyu yarim strukturali holatda tuzilib, intervyu uchun tuzilgan savollardan tashqari yana qo‘shimcha holatlarga oydinlik kiritildi. Intervyuda 7ta mutaxassis o‘z fikr, mulohazalari bilan ishtirok etdilar.

2.Ajrashgan erkak va ayollar uchun so‘rovnoma tuzildi. Ushbu so‘rovnoma, avval ajrashganlar bilan bevosita muloqat qilish uchun mo‘ljallab tuzilgan edi. Afsuski, aksariyat insonlar yo mentalitetimiz tufayli, yoki hayotlarida bo‘lib o‘tgan noxush holatlarni qayta eslamaslik uchun bevosita o‘tkazilayotgan so‘rovnomaga rozi bo‘lmadilar. Shu sababdan, so‘rovnomani elektron shakli yaratildi. Elektron so‘rovnoma ko‘plab telegramm va facebook internet tarmoqlari orqali tarqatildi. Ajrashgan erkak va ayollar uchun yanada qulaylik yaratish maqsadida, o‘z fikrini uyalmay ifoda eta olishlari uchun so‘rovnoma anonim tarzda tashkil etildi. Umumiy olganda so‘rovnomada 23ta respondent ishtirok etdi.

Mutaxassislardan «Ajrimning ajrashgan insonlarning yaqinlariga ta’siri» haqida so‘ralganda hammalari avvalo ajrim ajrashganlarning farzandlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tganlar. Masalan, ota-onasi ajrashgan bolalarda psixologik o‘zgarishlar, o‘zini agressiv tutish, tarbiya buzilishi, deviant xulq-atvorga moyillik, xavotir, o‘ziga va odamlarga ishonmaslik, kelajakka nisbatan ishonchning yo‘qligi, ayniqsa balog‘atga yetgan qizlarning turmushga chiqishga qo‘rqishi, g‘iybat, gap-so‘zlarga nishon bo‘lish, aybsiz aybdordek o‘zini his qilish, bola bobo-buvisining uyida ham o‘zini erkin his qila olmasligi, bolalikning erta tugashi kabilar kuzatilishini aytdilar. Kamdan-kam yarim yetim bolalar jamiyatda o‘zlarini to‘liq shaxs sifatida his qilib, namoyon qila oladilar, degan fikrlarni bildirdilar. Albatta, har bir bolajon uchun bu qat’iy hukm emas. Ma’lumotlarga qaraganda, o‘zini tutib olgan bunday toifa bolalar o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lib, boshqalar biror muammosini hal qilib berishini kutmasdan o‘zi mustaqil qaror qabul qila oladi, o‘z hayotiy pozitsiyasi, qattiyati bo‘ladi. Shuningdek, psixologning fikriga ko‘ra, «Ajrim ajrashgan insonning aka-ukasi, opa-singlisining oila qurishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy fikr, mentalitet sababli insonlar ajrashgan odami bor oilaga qiz berish va qiz olishdan qo‘rqishadilar». Yurist esa «Yoshlarning ota-onalari orzu-havas maqsadida tezroq farzandlarining oilali bo‘lishlarini xohlashadi, nabiralarini katta qilishni orzu qilishadi. Lekin shoshma-shosharlik tufayli ko‘pincha o‘zlari va jondan aziz farzandlari jabr ko‘radi. Ota-ona uchun farzandi kelajagi oldidagi ma’naviy javobgarlikdan ham og‘irroq jazo yo‘q. Shuningdek, agar qarindoshlar quda bo‘lgan bo‘lsa, ajrashish tufayli qarindoshlar o‘rtasida nizolar kelib chiqib, yuz ko‘rmas bo‘lib ketadilar», dedi.

«Farzand(lar)ingiz otasi (onasi) bilan uchrashib turadilarmi va ularning munosabatlariga siz qanday qaraysiz?» degan savolga ajrashgan yoshlarning 18 tadan(78,2%) 8 nafari(34,7%) «Yo‘q» degan javobni bergan. Respondentlar bu holatning sababini bolaning otasi yoki onasining o‘zi uchrashishni istamasligi, yoxud farzand qaramog‘ida qolgan inson buni xohlamasligi, otasi biror marta farzandini xatto ko‘rmaganligi kabi vajlar bilan izohlaganlar. 6ta(26%) ishtirokchi esa «Ha» deb javob bergan. Ba’zilar noilojlikdan ruxsat berganlarini, ayrimlar faqat telefon orqali gaplashib turishlarini aytganlar.

Ajrashgan yoshlarga «Ajrashishingiz farzand-(lar)ingizga qanday ta’sir qildi?» deb berilgan savolga so‘rovnomada variantlar belgilanmagan bo‘lib, ishtirokchi-lardan o‘z fikrlarini bildirishlari so‘ralgan edi. Quyida fikrlardan namunalar: «Yomon»; «Tushkunlik»; «Buni vaqt ko‘rsatadi»; «Qaytangi yaxshi, sababi otasi va uning oila a’zolarining betarbiyaligi va baqir chakirdan qutulib xotirjam bo‘ldi»; «U dadasini bilmaydi»; «Albatta yomon. Ammo tinch, urush-janjallarsiz oilada voyaga yetgani yaxshi bo‘ldi»; «Boshqa bolalarga nisbatan kamgap, ko‘zlari mungli»; «Agressiv bo‘lib qolishdi»; «Ruhiyatiga tasir kildi»; «To‘g‘risi bilmayman. Farzandlarim bilan dadasi to‘g‘risida umuman gaplashmaymiz»; «Salbiy tomoni: odamlarga nisbatan ishonchsizlik, ijtimoiylashishda qiynalish kuzatildi. Lekin vaqti bilan o‘ziligini tutib olishdi. Erkin yashab, o‘z fikriga ega va fikrini erkin bayon qila oladilar. Hayot muammolari, qiyinchiliklarini vaqtinchalik sinov, deb qabul qilib, hayotga pozitiv yondashadilar. Muammodan qochmay uni yechimini topishga harakat qiladilar. Hamma yetimlikda katta bo‘lgan bolalarda agressiya, tarbiyasizlik holatlari kuzatilmas ekan. Odamlar bo‘rttirib yuboradilar. Bu farzand katta bo‘layotgan oilaga bog‘liq ekan».

Ta’kidlash joizki, so‘rovnomalar, olib borilgan boshqa tadqiqotlar hamda ilmiy xulosalar bilan ajrashib bo‘lgan oilalarni qayta yarashtirish yoki ularning hayot yo‘lida biror narsani o‘zgartirish qiyin. Ammo ularning hayot tajribalari, ko‘rgan bilganlari, ajrashish sabablarini o‘rganish orqali olimlar va tadqiqotchilar kelajakda qurilayotgan oilalar mustahkamligi yuzasidan o‘z tavsiyalarini ishlab chiqishlari, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oilaviy muammolarning oldini olishlari, ayrim insonlarning ajrashgan erkak va ayollar, ularning farzandlariga nisbatan mentalitemizga o‘rnashib qolgan salbiy munosabatni o‘zgartirishlari orqali baxtli oilalar shakllanishiga ta’sir qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, ota-onalar birga bir oila bo‘lib yashashadimi yoki yo‘q bu ularning shaxsiy tanlovi. Lekin ota-onalik vazifasini bajarish farzand dunyoga kelishi bilan ularga burch qilib berilgan. Farzandi bilan do‘stona munosabat o‘rnata olgan ota-ona kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘plab muammolarni oldini ololgan bo‘ladi. Achinarli tomoni shundaki, noto‘liq oilalarda otaning o‘rni umuman yo‘qolib qoladi. Oilasidan ajrashib, yangi hayot qurgan ota bolasini aliment to‘layotgan vaqtdagina eslaydi. Uning ta’lim-tarbiyasi, ruhiy holati, xatto esga ham kelmaydi. Bu bolaning psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sabab, har qanday holatda otaning farzandi oldidagi ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy vazifasi hamda ushbu jarayondagi ota ibrati va tarbiyasining ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, noto‘liq oilalarda farzand kamoli uchun sobiq er-xotinning do‘stona hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishi naqadar muhim ekanligini dunyoviy va diniy bilimlar asosida keng targ‘ib qilish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Yoshlarga donolar o‘giti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 19.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145#-6445421.
3. «Конвенция о правах ребёнка». Генеральная Ассамблея ООН. 20 ноября 1989 года. https://lex.uz/docs/2595909.
4. Amy Hermodson. Life after divorce: the marriages of adult children of divorce: A dissertation presented to the faculty of Arts and Humanities University of Denver in partial fulfillment of the requirements for the degree Doctor of Philosophy – Colorado, 1999. – P. 13.

5. Adnan A.A., Rauf R.I., Argustang A., Ahmad J. Agile leadership and divorce education: perception // Humanities and Social Sciences Letters, 2020. –VOL. 8 NO. 3. –P. 323-330. DOI: 10.18488/journal.73.2020.83.323.330.
6. Mechanic D. and Hansell S. Divorce, family conflict and adolescents’ well-being // Journal of health and social behavior, 1989. –Vol.30, No.1 March. –P. 105-116. https://doi.org/10.2307/2136916.
7. Furstenber F.F. Divorce and the American family // Annual review of sociology, 1990. –Vol. 16 August. –P. 379-403. https://doi.org/10.1146/annurev.so.16.080190.002115.
8. Behere A.P., Basnet P., Campbell P. Effect of family structure on mental health of children: a preliminary study // Indian Journal of Psychiatric Medicine, 2017. –Vol. 39 Issue 4 July-August. –P. 457-463. https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.4103/0253-7176.211767.
9. Hogendoorn B., Leopold T. and Bol T. Divorce and diverging poverty rates: a risk-and-vulnerability approach // Journal of Marriage and Family, 2020. – Vol. 82(3) June. –P. 1089-1109. DOI:10.1111/jomf.12629.
10. Akramova F. va boshqalar. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – B. 108.
11. Shoumarov G‘. va boshqalar. Oila psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 188.
12. Биниева Н.К. Проблемная семья: специфика семейно – брачной и половой социализации: Диссертация на соискание ученой степени кандидата социальных наук – Ростов-на-Дону, 2001. – Ст. 52.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 1998 yil 30 aprel. https://lex.uz/docs/104720.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2018. – B. 332.
15. Kun.uz rasmiy axborot sayti. 2017 yil 15 may ma’lumotlari. https://kun.uz/news/2017/05/15.
16. Kun.uz rasmiy axborot sayti. 2023 yil 13 aprel ma’lumotlari. https://kun.uz/uz/98759528.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Malika MIRHAMIDOVA,
Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti 2 bosqich doktaranti
E-mail:malika@mail.ru

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent I.Karshiyev taqrizi asosida

SOCIAL PEDAGOGICAL FEATURES OF EDUCATION IN THE UZBEK PEOPLE

Annotation

In this article, the socio-pedagogical features of the education of the Uzbek people are studied, the unique cultural and historical aspects that formed their educational system are studied in depth. The article on values, respect for adults and teachers, educational traditions, the role of the Uzbek language, multiculturalism and the influence of Islam aims to provide an understanding of the unique educational environment in Uzbekistan. Studying these socio-pedagogical elements, the article helps to comprehensively understand how the educational practice of Uzbekistan is deeply rooted in the rich heritage of the nation, and how it contributes to the well-rounded development of individuals within the framework of their cultural heritage.

Key words: Uzbek people, socio-pedagogical, cultural-historical, values, education, elements, Uzbek language, cultural heritage.

O‘ZBEK XALQIDA TARBIYANING IJTIMOIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalqi tarbiya-tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari o‘rganiladi, ularning tarbiya tizimini shakllantirgan o‘ziga xos madaniy-tarixiy jihatlari chuqurroq o‘rganiladi. Qadriyatlar, kattalarga va o‘qituvchilarga hurmat, tarbiya an’analari, o‘zbek tilining o‘rni, multikulturalizm va islom dinining ta’siriga bag‘ishlangan maqola O‘zbekistondagi o‘ziga xos tarbiya muhiti haqida tushuncha berishga qaratilgan. Maqola ushbu ijtimoiy-pedagogik elementlarni o‘rganib chiqib, O‘zbekiston ta’lim amaliyoti xalqning boy merosidan qanchalik chuqur ildiz otganligini, ularning madaniy merosi doirasida shaxslarning barkamol rivojlanishiga yordam berishini har tomonlama tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalqi, ijtimoiy-pedagogik, madaniy-tarixiy, qadriyatlar, tarbiya, elementlar, o‘zbek tili, madaniy meros.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКСКОМ НАРОДЕ

Аннотация

В данной статье изучаются социально-педагогические особенности образования узбекского народа, углубленно изучаются уникальные культурно-исторические аспекты, сформировавшие его образовательную систему. Статья о ценностях, уважении к взрослым и учителям, образовательных традициях, роли узбекского языка, мультикультурализме и влиянии ислама призвана дать представление об уникальной образовательной среде Узбекистана. Изучение этих социально-педагогических элементов статья помогает комплексно понять, насколько глубоко укоренена образовательная практика Узбекистана в богатом наследии нации, и как она способствует всестороннему развитию личности в рамках своего культурного наследия.

Ключевые слова: узбекский народ, социально-педагогические, культурно-исторические, ценности, образование, элементы, узбекский язык, культурное наследие.

Kirish. O‘zbek xalqining tarbiya tizimi ushbu Markaziy Osiyo xalqining boy madaniy gobelenini va tarixiy merosini aks ettiruvchi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar bilan to‘qilgan. Ushbu maqolada biz o‘zbek xalqi orasida tarbiyani belgilovchi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarni ko‘rib chiqiladi, ularning tarbiya va o‘qitishga munosabatini shakllantiruvchi qadriyatlar, an’analar va madaniy elementlarni o‘rganiladi. Tarbiya madaniy o‘ziga xoslik va jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib, bu munosabatlar hech bir joyda Markaziy Osiyodagi o‘zbek xalqi kabi yaqqol namoyon bo‘lmaydi. O‘zbekistonda tarbiya tizimi asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar xalqning boy tarixi, madaniy xilma-xilligi, chuqur ildiz otgan an’analarining ko‘zgusidir. Ushbu tadqiqda biz o‘zbek xalqi tarbiyaini belgilab beruvchi o‘ziga xos ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarni o‘rganamiz, bu jo‘shqin va jadal jamiyatning tarbiya manzarasini shakllantirgan qadriyatlar, o‘qitish usullari va madaniy nuanslariga oydinlik kiritamiz. Ushbu xususiyatlarni o‘rganib chiqib, biz o‘zbek sharoitida tarbiya qanday qilib madaniy merosni asrash, hurmatni kuchaytirish va barkamol shaxslarni tarbiyalash vositasiga aylanishi haqida har tomonlama tushunchaga ega bo‘lishni maqsad qilganmiz.

O‘zbek xalqi tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar evolyutsiyasi yillar davomida rivojlanib kelgan. O‘zbek ta’limidagi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladiki, o‘sha hudud Ipak yo‘lida ilm-ma’rifat markazi bo‘lgan. Ilk tarbiya amaliyotlari madaniy va diniy an'analarga chuqur singib ketgan, olimlar bilimlarni saqlash va uzatishda muhim rol o‘ynagan. Islom tarbiya markazlari bo‘lmish Madrasalar ilk tarbiya muassasasi bo‘lib, diniy qadriyatlarning tarbiyaga integratsiyalashuviga asos solgan.

Temuriylar davrida XV asrlar o‘zbek hududi madaniy-ma’rifiy uyg‘onish davrini boshidan kechirdi. Temuriylar hukmdorlari, xususan, taniqli astronom va olim Ulug‘bek tarbiya muassasalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaganlar. Bu davrda diniy va dunyoviy bilimlarni birlashtirgan yaxlit ta’limga e’tibor qaratilib, san’at, ilm-fan va adabiyotning gullab-yashnashi kuzatildi. XX asr boshlarida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining barpo etilishi bilan jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Sovet ta’siri ilmiy va texnik fanlarga urg‘u berib, tarbiyaga ko‘proq dunyoviy yondashuvni joriy etdi. Bu davr tarbiya olish imkoniyatini oshirgan bo‘lsa-da, an’anaviy diniy va madaniy elementlar ba’zida kamay-tirilganligi sababli madaniy o‘zgarishlarning guvohi bo‘ldi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligini e’lon qilishi bilan modernizatsiyani madaniy o‘ziga xoslikni saqlash bilan uyg‘unlashtirish maqsadida tarbiya islohoti yo‘liga tushdi. Hukumat o‘zbek tilini tiklash va targ‘ib qilishga, milliy tarix fanini o‘quv dasturiga kiritishga, diniy qadriyatlarni ta’limga qayta kiritishga harakat qildi. Bu davr ta’lim tizimida o‘zbek o‘ziga xosligiga yana bir e’tibor qaratilishining guvohi bo‘ldi.

XXI asrda O‘zbekiston tarbiya tizimini rivojlantirishda davom etmoqda. Hukumat o‘qitish uslublarini modernizatsiya qilish, texnologik savodxonlikni oshirish va ko‘p madaniyatli tarbiya muhitini rivojlantirishga e’tibor qaratdi. Shu bilan birga, o‘zbek an’analaridan kelib chiqqan ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarni, jumladan, pedagoglarga hurmat, guruh bo‘lib o‘rganishning ahamiyatini, islom qadriyatlarini integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar birgalikda amalga oshirilmoqda. O‘zbek ta’limidagi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar tarixi madaniy, diniy va geosiyosiy ta’sirlarning o‘zaro dinamik ta’sirini aks ettiradi. Islom tarbiyaining ilk markazlaridan tortib, sovet davrining dunyoviylashuvi va madaniy o‘ziga xoslikni ta’kidlovchi zamonaviy islohotlargacha O‘zbekistondagi tarbiya manzarasi jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bugungi kunda O‘zbekiston tarbiya tizimi an’ana va zamonaviylik chorrahasida turib, o‘zining boy tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash bilan birga globallashuv muammolarini yengib o‘tmoqda. Bugun yoshlar o‘z milliy tarixini o‘rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an’analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdir. “Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar”[1] .

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek xalqi tarbiyasining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari madaniy, tarixiy va tarbiyaviy omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini o‘zida mujassam etgan. Ushbu adabiyot sharhi ushbu mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy ishlarni chuqur tahlil qilish, O‘zbekistondagi tarbiya landshaftini shakllantiruvchi o‘ziga xos xususiyatlar haqida tushuncha berishdan iborat.

O‘zbek xalqida tarbiyaning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-madaniy asoslar ishlab chiqilgan: 2010-yilda o‘zbek olimi S.Zokirovning tarixiy tadqiqotlarida madaniy an’analarning o‘zbek tarbiyaiga doimiy ta’siri ko‘rsatilgan. Madaniy o‘ziga xoslikni tarbiya orqali saqlab qolish markaziy mavzu sifatida paydo bo‘lib, madaniy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda maktab va tarbiya muassasalarining hal qiluvchi vosita sifatidagi rolini ta’kidlaydi[2]. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo‘lgan qadriyatlar haqida o‘z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o‘zgalar fikriga tayanish, milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi[3].

Hozirgi davrda qo‘lga kiritilgan muhim yutiqlarimizdan biri tarbiya- tarbiyada milliy, ma’naviy qadriyatlarning ustivorligiga erishganimizdadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma’naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an’analari asosida tarbiya-tarbiya berish demakdir. Zero Abdulla Avloniy aytganidek “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”[4].

Axloqiy o‘lchovlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib brogan o‘zbek olimi A.Hakimov 2015-yildagi ilmiy ishlari O‘zbekistonda tarbiyaning axloqiy jihatlarini o‘rganadi[5]. Adabiyotda odob-axloq va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi ta’kidlanib, hurmat, mas’uliyat, halollik kabi qadriyatlarni singdirishga urg‘u beriladi. Tarbiyaning axloqiy asosi o‘quvchilarning xarakterini shakllantirishda yetakchi tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. U.Abdullaev tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘zbek tilining ta’limdagi muhim rolini o‘rganadi. Adabiyotlarda tilning nafaqat tarbiya vositasi, balki madaniy merosni asrab-avaylashda hal qiluvchi element sifatidagi ahamiyati ham ta’kidlanadi[6]. O‘zbek tilini targ‘ib qilish milliy o‘zlikni saqlash strategiyasi sifatida qaraladi. 2019-yilda N.Ismoilovning o‘qitish usullarini tekshirishi an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan dinamik tarbiya muhitini ochib beradi[7]. Guruh faoliyati, hamkorlikda o‘rganish va texnologiya integratsiyasi o‘quvchilarni zamonaviy dunyo muammolariga tayyorlashda madaniy kontekstga mos keladigan pedagogik strategiyalar sifatida belgilangan. Islomiy qadriyatlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan F.Ahmedov islomiy qadriyatlarning tarbiyaga ta’sirini o‘rganishda axloqiy tarbiyaotlarning o‘quv dasturiga integratsiyalashuviga urg‘u berilgan. Adabiyotlarda tarbiyaning nafaqat bilim berish, balki islom tamoyillaridan ilhomlangan axloq va axloqiy xulq-atvor tuyg‘ularini singdirishdagi o‘rni ham alohida ta’kidlanadi. F.Ibrohimov tadqiqotlari O‘zbekistonning ta’lim tizimida multikulturalizmga sodiqligini yoritib beradi[8]. Adabiyotda tarbiyaning inklyuziv tabiati, turli etnik kelib chiqishi talabalari o‘rtasida tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirishga urg‘u beriladi. Multikulturalizm barkamol jamiyatga hissa qo‘shuvchi kuch sifatida qaraladi. 2021-yilda A. Xo‘jamberdiev tadqiqotida O‘zbekiston tarbiya tizimi oldida turgan muammolarga bag‘ishlangan. Adabiyotlar o‘quv dasturlarini isloh qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, modernizatsiya va madaniyatni saqlash o‘rtasidagi nozik muvozanat kabi masalalarni o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar tarbiya sohasidagi islohotlarga xos bo‘lgan murakkabliklarni chuqurroq tushunish imkonini beradi[9].

O‘zbek xalqida tarbiyaning ijtimoiy pedagogik xususiyatlariga oid adabiyotlarda ko‘p qirrali va dinamik manzara ochib berilgan. Madaniy o‘ziga xoslikni saqlash, axloqiy jihatlar, til ahamiyati, turli xil o‘qitish usullari, islom ta’siri va davom etayotgan muammolar birgalikda O‘zbekistonda tarbiyani belgilaydigan boy gobelenga yordam beradi. Ushbu keng qamrovli adabiyotlar tadqiqi o‘zbek xalqi tarbiya-tarbiyasining nozik jihatlarini chuqurroq anglashga yordam berib, keyingi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek xalqida tarbiyaning ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini tushunish madaniy, tarixiy va tarbiyaviy jihatlarni o‘zida mujassam etgan keng qamrovli tadqiqot metodologiyasini talab qiladi. Ushbu bo‘lim O‘zbekistonda tarbiyani shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun mo‘ljallangan tadqiqot metodologiyasini tavsiflaydi. Ijtimoiy pedagogik xususiyat-larning tarixiy rivojlanishini kuzatish uchun tadqiqotchilar batafsil tarixiy tahlil qiladilar.

Bunga arxivlar, qo‘lyozmalar va tarixiy yozuvlarni o‘rganish, O‘zbekistondagi ta’lim manzarasini shakllantirgan asosiy bosqichlarni, ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlarni va jamiyat ta’sirini aniqlash kiradi. Tadqiqotchilar O‘zbekiston-dagi tarbiya tizimiga oid tarbiya siyosati, o‘quv dasturlari va rasmiy hujjatlarni tahlil qiladilar. Ushbu tahlil tarbiya tizimiga kiritilgan rasmiy tuzilmalar, pedagogik yondashuvlar va madaniy mulohazalar haqida tushuncha beradi. Muhim manfaatdor tomonlar, jumladan, o‘qituvchilar, talabalar, ota-onalar va siyosatchilar bilan suhbatlar va so‘rovlar orqali hamkorlik qilish juda muhimdir. Ushbu sifat va miqdoriy usullar tarbiyaning ijtimoiy-pedagogik jihatlari bo‘yicha istiqbollarni qamrab oladi, tarbiya hamjamiyatidagi amaliyotlar, muammolar va intilishlarni yoritadi. Sinf xonalari va o‘quv sharoitlarini bevosita kuzatish pedagogik amaliyotni real vaqtda tushunish imkonini beradi. Kuzatishlar asosiy

e’tiborni o‘qitish usullari, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish shakllari, madaniy elementlarning tarbiya jarayoniga integratsiyala-shuviga qaratadi. Muayyan tarbiya muassasalari yoki mintaqalar bo‘yicha chuqurlashtirilgan amaliy tadqiqotlar nozik tushunchalarni beradi. Tadqiqotchilar mahalliy o‘zgarishlar, madaniy nuanslar va jamoa dinamikasi tarbiyaning ijtimoiy pedagogik xususiyatlariga qanday ta’sir qilishini o‘rganadilar. Natijalarni boyitish uchun xalqaro tarbiya tizimlari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilishi mumkin. Taqqoslash O‘zbekistondagi ijtimoiy pedagogik xususiyatlarni kengroq tushunishga yordam beradigan o‘ziga xoslik va umumiylik sohalarini ajratib ko‘rsatadi. Bir nechta manbalar va usullardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asosliligini oshiradi. Tarixiy tahlillar, intervyular, kuzatuvlar va so‘rovlar ma’lumotlarini uchburchagilash mavzuni har tomonlama va nozik tushunish imkonini beradi. Bu yerda bayon qilingan tadqiqot metodologiyasi o‘zbek sharoitida ta’limning ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini yaxlit o‘rganishni taklif qilishga mo‘ljallangan. Tarixiy tahlil, hujjatlar ekspertizasi, manfaatdor tomonlar nuqtai nazari va bevosita kuzatuvlarni birlashtirib, tadqiqotchilar o‘zbek xalqi tarbiyaini shakllantirishda madaniy, tarixiy va ijtimoiy omillarning birlashishi haqida ko‘p qirrali tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin.

Xulosa. O‘zbekistonda tarbiya tizimi madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash va avlodlarga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. O‘quv dasturi va pedagogik amaliyotda madaniy elementlarga alohida e’tibor berilishi o‘zbek madaniyatining mustahkamligini va uning tarbiya tajribasi bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi.

O‘zbek xalqi tarbiya tushunchasi nafaqat o‘quv yutuqlariga qaratilgan, balki o‘quvchilarning axloqiy rivojlanishiga ham katta e’tibor beradi. Axloqiy tamoyillarning tarbiya amaliyotiga integratsiyalashuvi mas’uliyatli va fazilatli shaxslarni tarbiyalashga sodiqligini ta’kidlaydi. Tarbiya sohasida o‘zbek tilining o‘rni nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy namoyon bo‘lishning qudratli vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Til o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniy o‘ziga xosligini saqlash va ifodalashda hal qiluvchi tarkibiy qism sifatida e’tirof etilgan. An’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning dinamik uyg‘unligi O‘zbekiston tarbiya tizimining moslashuvini aks ettiradi. Ushbu moslashuvchanlik tizimni talabalarni zamonaviy dunyo talablariga mos keladigan ko‘nikma va bilimlar bilan jihozlash uchun joylashtiradi.

Islomiy qadriyatlarning tarbiya tizimiga kiritilishi har tomonlama rivojlanishni ta’minlashning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Axloqiy va axloqiy tarbiyaotlarga e’tibor nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki islom tamoyillari asosida har tomonlama barkamol shaxslarni etishtirish kabi kengroq maqsad bilan hamohangdir. O‘zbekistonning tarbiya sohasida multikulturalizmga sodiqligi qiyinchilik emas, balki kuch sifatida e’tirof etiladi. Inklyuziv tarbiya muhiti turli etnik kelib chiqishi talabalari o‘rtasida tushunish, bag‘rikenglik va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantiradi.

Tarbiya tizimidagi o‘quv dasturlarini isloh qilish va o‘qituvchilar malakasini oshirish kabi muammolarni e’tirof etish va hal etish doimiy takomillashtirish uchun muhim hisoblanadi. Bu muammolar O‘zbekistonda umumiy tarbiya sifatini oshirishi mumkin bo‘lgan strategik islohotlar imkoniyatlari sifatida qaraladi. Qiyosiy tadqiqotlar O‘zbekiston tarbiya tizimini global kontekstda joylashtiradi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini tan oladi, shu bilan birga xalqaro tarbiya modellari bilan yaqinlashuv sohalarini aniqlaydi. Ushbu e’tirof potentsial madaniyatlararo tarbiya sohasidagi hamkorlik va almashinuvlar uchun yo‘l ochadi. Ushbu faraziy ilmiy xulosalar o‘zbek xalqi tarbiya-tarbiyasining ijtimoiy pedagogik xususiyatlariga oid mavjud adabiyotlar asosida tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishi mumkin bo‘lgan umumiy mavzular va salohiyatli yo‘nalishlarni aks ettirishga qaratilgan. Haqiqiy ilmiy xulosalar empirik ma’lumotlarni sinchkovlik bilan tahlil qilishni va ushbu sohada davom etayotgan tadqiqot harakatlarini talab qiladi. Xalqimiz mustaqillikning o‘z hayotida va taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini tobora teranroq anglab yetmoqda. Bugun O‘zbekistonda yashayotgan har bir yosh mustaqillikning bergan ne’matidan barhamand bo‘lmoqda, deb ayta olamiz. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston yoshlari o‘z taqdirini o‘zi hal etish huquqini qo‘lga kiritda. Bugun O‘zbekiston birovga qaram emas, o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilab, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib bormoqda. Yoshlar ko‘z o‘ngida iqtisodiy hayot o‘zgarmoqda. Mulkning xilma- xilligiga o‘tilgani har bir yoshga o‘z xohishiga ko‘ra iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini berdi. Bir tomonlama, rejali iqtisodiyot o‘rnida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin mehnat faoliyati shakllanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” O‘zbekiston 2019.
2. Zokirov, S. (2010). “O‘zbekiston ta’lim tizimining tarixiy asoslari”. 57-betlar.
3. Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: “Akademiya”, 2020. 15-16- betlar.
4. Баркамол авлод орзуси. –Т.; “Шарк”, 2019, 39-бет
5. Hakimov, A. (2015). “O‘zbek tarbiyasida axloqiy o‘lchovlar: mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalash”. 213-b.
6. Abdullaev, U. (2018). “Madaniy o‘zlikni tarbiyalashda o‘zbek tilining o‘rni”. 29-bet.
7. Ismoilov, N. (2019). “O‘zbekistonda innovatsion pedagogik yondashuvlar: an’ana va zamonaviylik ko‘prigi”. 33-b
8. Ibrohimov, F. (2017). “O‘zbekiston ta’lim modeli: ko‘p madaniyatli anglashuvni rivojlantirish”. 97-b.
9. Xujamberdiev, A. (2021). “O‘zbekistonda ta’lim muammolari va islohotlar: keng qamrovli tahlil”. 166-b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.851.334.722 (075)

Surayyo MUQUMOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
E-mail.mukumovasurayo@gmailcom

PhD N.G‘ulomova taqrizi asosida

INTEGRATIVE APPROACH IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION

Annotation
Modern textbooks are based not only on inter-departmental and inter-class integration, but also on inter-subject integration. The article describes integration and its essence in mother tongue education.
Key words: Integration, native language textbooks, internal integration, external integration, humanities, exact sciences.

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД ОБРАЗОВАНИЕ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация
Современные учебники основаны не только на межкафедральной и межклассной интеграции, но и на межпредметной интеграции. В статье описывается интеграция и ее сущность в обучении на родном языке.
Ключевые слова: Интеграция, учебники родного языка, внутренняя интеграция, внешняя интеграция, гуманитарные науки, точные науки.

ONA TILI TA’LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV

Annotatsiya
Zamonaviy darsliklar nafaqat bo‘limlararo, sinflararo integratsiya balki fanlararo integratsiyaga ham asoslangan. Maqolada ona tili ta’limida integratsiya va uning mohiyati talqin qilingan.
Kalit so‘zlar: Integratsiya, ona tili darsliklari, ichki integratsiya, tashqi integratsiya, gumanitar fanlar, aniq fanlar.

Kirish. Integratsiya (lot. integratio - tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish) 1.Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni.[1] Ona tili barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish uchun asos vazifasini bajaradi. O‘quvchi til vositasida boshqa fanlarni o‘rganadi. Barcha fanlarlardan o‘z fikrini yozma va og‘zaki ravishda bayon etadi. Ona tili dastur va darsliklarida til faniga oid bilimlarini o‘rganish uchun barcha fanlarga oid matnlar, mavzular berilgan va ular asosida til faniga oid bilimlar o‘rganiladi. Ta’lim mazmuni va ko‘lamini optimallashtirish, ta’lim mazmunini o‘quvchi ongi va tafakkurida hayotiy obrazlar vositasida gavdalantirishda ham fanlararo integratsisyaning imkoyiyati cheksiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalaming ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbart, M. Pestalotstsi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D. Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, N.M. Katkina va boshqalar), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, N. Pishkalo, Meller, N.F. Talizina, Y,A. Samarina, G.L Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskava, Y.M.Kolyagin, G.N. Pristupova, L.V.Levenberg) ishlarida ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich ta’lim dars jarayonida bir qator ishlar fanlararo aloqalarga bagishlangan. Bu fanlarni integratsiyalashda olimlardan T.G. Rizayeva, G.N.Akvileva, D.I. Troytap, G.V. Baltyukova, NY. Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, L.K. Blinova, R.G.Matyushova tomonidan katta ishlar olib borilgan. Ushbu muammo o‘zbek olimlaridan R.Mavlonova, Q.Abdullayeva. N.U.Bikbayeva, A. G. Grigoryans, E.l.Nikolayeva, X.K. Qayumovlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Mantiqan olib qaralganda borliqdagi jamiki narsa va hodisalar bir-biri bilan tizim sifatida bog‘liq. Qaysi soha yoki fan bo‘lmasin, shunga yaqin boshqa soha yoki fan bilan bog‘liqlik jihatlari bo‘ladi. Til va adabiyot, fizika va matematika, kimyo va biologiya (Bunday fanlar qatorini yana ko‘plab davom ettirish mumkin.) biri ikkinchisini to‘ldirib turuvchi, bir-biri bilan chambarchas bo‘g‘liq fanlardir. Bu esa bilish, anglash, tahlil qilishda fanlararo bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu bog‘liqlik ularni baravar o‘rganish va tadqiq qilishni talab etadi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi tomonidan “Ona tili” faniga oid “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi”, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili dasturlari va darsliklari yaratilishi uchun asos vazifasini bajaradi. Milliy o‘quv dasturining oldingi dasturlardan farqi - chiziqli yondashuvdan spiralsimon yondashuvga o‘tilganligi. Bunda amaldagi darsliklarda bo‘lgani singari bir darsda masalan fonetika yoki morfologiyaga oid bilimlar bir mavzu, bo‘lim doirasida ketma-ketlikda o‘rganilmaydi, bir mavzu doirasida morfologiya, leksikologiya, sinatksisga oid bilimlar o‘rganilsihi mumkin. Chunonchi, biror so‘z turkumi, masalan, ot yoki fe’l turkumiga oid bilimlar 6-, 7-, 9-sinfda ham davom etishi mumkin. Oldingi sinflarda o‘tilgan mavzularga keyingi sinflarda qo‘shimcha ma’lumotlar bilan kengaytirilib, chuqurlashtirilgan holda yana murojaat qilinadi. Dasturda ona tili ta’limida fanlararo integratsiya, bo‘limlararo, sinflararo integratsiyaning asoslari ko‘rsatib o‘tilgan. Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda qulaylik vujudga keladi, samaradorlik yuqori bo‘lib, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

5-sinfda ”Tilshunoslik” fanining ”Fonetika” bo‘limiga ajratilgan mavzular va soatlar miqdori anchagina. Bu bo‘lim mazkur fanni o‘rganishga poydevor vazifasini bajaradi. Fonetika bo‘limi tilshunsolikning barcha bo‘limlari bilan aloqador. Fonetika bo‘limini o‘rgatishda, albatta, o‘qituvchi anatomiya faniga bo‘g‘lab o‘tishi lozim. Nutq tovushlarining hosil bo‘lishini 8-sinf ”Biologiya (Odam va uning salomatligi)”[3] darsligida ”Nafas organlarining tuzilishi”

mavzusida ovozning hosil bo‘lishi haqida ma’lumot berilgan, hatto ”Ovozning nutqqa aylanishi” nomli kichik mavzusi ham bor. O‘qituvchi insonda tovushning paydo bo‘lishi haqidagi shu kabi bilimlarga tayangan holda fonetika bo‘limini o‘tishda integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarga tushuntirishi lozim[4].

Ona tili va adabiyot. Har qanday tilning jozibasi shu tilda yaratilgan asarlarda namoyon bo‘ladi. Tilning umrboqiyligini ta’minlovchi vositalardan biri (asosiysi desa ham bo‘ladi.) shu tilda yaratilgan asarlardir. Bu ikki fan biri ikkinchsini to‘ldirib, boyitib boradi. Shu bois til hodisalarini o‘rganish (o‘rgatishda ham) taqqoslash, solishtirish uchun badiiy asarlardan misollar olinadi. Mavzularda badiiy matnlardan parchalar keltirilishi, yoki ba’zi topshiriqlarda (uyga vazifa ruknida o‘tilayotgan mavzuga mos holda) “Badiiy asarlardan misollar toping” sharti berilgan. Ayniqsa, barcha sinflardagi ona tili darsliklarida maqol janriga juda ko‘p murojaat qilingan. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘ladi. Maqollar juda ko‘p soha va fanlar bilan bog‘liq bo‘lishi tabiiy. Maqollarning tarix, falsafa, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, zollogiya, meditsina, iqtisod va hk.lar bilan bog‘liq jihatlari mavjud. Xalqimizning asrlar davomida to‘plagan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashtirilgan. Ana shu boy ijod durdonalarini imkoni boricha ma’nosini chuqur o‘rganish va hayotda shu maqol va hikmatlardan o‘rinli foydalanish malakasini egallash kerak[4]. Jumladan, amaldagi 5-sinf ona tili darsligida quyidagi mashq berilgan [5]: 356-mashq. Berilgan maqollarni daftaringizga ko‘chiring. Oy nomlariga diqqat qiling. 1.Dalv kirdi, ekinlarga davr kirdi. 2.Yoz–yozil, qish–qisil. 3.Yoz yomg‘iri yondan o‘tar, Qish yomg‘iri–jondan. 4.Asadda oralab ye, Sunbulada–saralab. 5.Ayamajiz olti kun, Olti oy qishdan qattiq kun. 6.Aqrab kelar hayqirib, Bola-chaqasini chaqirib.

Xalq o‘zining astronomik va meteorologik kuzatishlari natijasida yaratgan maqollarida fasllar va oylarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tgan. Albatta, bunday maqollarda mazkur fanlarga doir ilmiy asoslar mavjud bo‘ladi. O‘qituvchi bu maqollarning kelib chiqishi va ma’nolarini izohlashi lozim.

Ona tili, ifodali o‘qish va nutq madaniyati. Ifodali o‘qishga o‘rgatish, nutq madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, o‘g‘zaki va yozma nutq me’yorlari borasida muayyan ko‘nikma hosil qilishdan iboratdir. Ifodali o‘qish ham nutq madaniyati fanining bir qismi sanaladi. O‘quvchilar ona tili mashg‘ulotlarida filologiya (tilshunoslik) fani asoslariyu tushunchalarini o‘zlashtirish bilan emas, balki ona tilining juda boy imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash va ijodiy fikr mahsulini turli-tuman shakllarda go‘zal nutq sifatida bayon etish ustida ishlashishlari lozim. Ona tilidan ta’lim mazmuni ham, ta’lim usuli, o‘quvchilar bajarishlari lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari ham ta’lim maqsadida belgilangan mana shu jihatga xizmat qilmog‘i zarur[5]. Ona tili ta’limi oldida turgan murakkab talab o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. Nutq madaniayti kundalik (erkin) muloqotni ham, turli vaziyatlarda qanday so‘zlashish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Har bir dars nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ona tilining har bir bo‘limida uslublar bilan bog‘liq bilimlarni o‘rganish mo‘ljallangan va sinfdan sinfga murakkablashib boraveradi. Mavzularda turli uslubdagi matnlar berilgan. O‘qituvchi o‘quvchini matn uslubi va uning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishga yo‘naltirib borishi kerak. (5-sinfdan). Bu o‘quvchining uslublarni farqlash va matnlar qaysi fan yoki sohaga aloqador bo‘lsa, shu fan/sohaga oid atamalar (terminlar) va ularning ustida ishlash malakasini shakllan-tiradi. Adabiyot darslarida badiiy asarlarni o‘qish, tanishishi jarayonida yoki ona tili darslarida o‘quvchi matn tuzayotganda, yoki grammatik topshiriqlarni bajara-yotganda, fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis vb.ga doir ma’lumotlar berilgandan keyin misollar aytish zarur bo‘lganda o‘quvchining badiiy asarlardan misollar keltirishi dars samaradorligini oshiradi, Shunda til fanining bo‘limlari, uslubiyat, adabiyot fanlariaro integratsiya ketadi. O‘quvchida til va adabiyotdan olgan bilimlarini tahlil qilish, amalda qo‘llash malakasi shakllanadi.

Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi “Lingvokul-turologiya” fanini ham mukammal bilishi va o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini ona tili va adabiyot darslarida singdirishi lozim. Tilda uni yaratgan millatning ruhi yashaydi. Ona tili darslarida o‘qituvchi tilning milliy-madaniy jihatlari bilan ham tanishtirib borishi lozim. Masalan, matnlardagi undov so‘zlar (assalomu alaykum, rahmat), milliy kiyimlar, milliy taomlar, urf-odatlar, o‘zidan kattalarni hurmat qilish vb. o‘zbek millatiga xos bo‘lgan tug‘ilgan makon va ona yurtga muhabbat, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabi jihatlar ustuvorligi bilan belgilanadi. “Ona tili” darsliklarida berilgan matnlarda, mashqlar tarkibida berilgan gaplardagi hikmatli so‘zlar, maqollarda umumbashariy va milliy qadriyatlar talqin qilingan va dars jarayonlarida o‘quvchilarga bularni singdirish, uqtirib borish kerak. Ona tili darsliklarida dunyo xalqlari hayotiga oid matnlar berilgan. Adabiyot darslarida boshqa xalq adabiyotiga oid asarlar bilan tanishayotganda, avvalo, asardagi lingvokulturologik birliklar talqiniga e’tibor berish kerak. Salomlashish, urf-odatlar, murojaat shakllari, asar qahramonlarining ism(lar)i, joy nomlarini o‘qiganda yoki eshitgandayoq o‘sha xalq haqida tasavvur jonlanadi kishi ongida. Hatto o‘zbek xalqining o‘zida ham turli viloyatlarda iqlimi, tabiiy-geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kiyimlari, oziq-ovqat mahsulotlari, yashash tarzida farqlar; urf-odatlar vb.lar, dialektal jihatlari albatta tilda aks etganda lingvokulturologik ahamiyat kasb etadi va bu tahlil va talqinga muhtoj.

Leksikologiya tilshunoslikning semasiologiya, onoma-siologiya, etimologiya va frazeologiya kabi bo‘limlari bilan hamkorlikda ish ko‘radi, bunday hamkorliksiz tilning lug‘at boyligidagi leksik-semantik hodisalarni, lug‘at tarkibi taraqqiyotiga oid til faktlarini to‘g‘ri yoritib bo‘lmaydi. 7-sinfda“O‘qing va mulohaza qiling” rukni ostida Erkin Vohidovning “So‘z latofati” va Eshqobil Shukurning “Boboso‘z izidan” kitoblaridan, Orif Tolib maqolalaridan foydalanilgan holda qiziqarli ma’lumotlar berilgan. 10-sinf darsligida “Til sandig‘i” ruknida ham so‘zlarning kelib chiqishida uning mazmuniga asos bo‘lgan dastlabki, ya’ni etimologik ma’nolari, sharhlangan.

Ona tili va boshqa fanlararo aloqadorlik. Deyarli hamma fanlar o‘quvchilar-ning lug‘at boyligini o‘stirish, orfografik savodxonligini oshirish, nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ona tili fanining boshqa fanlar bilan bevosita aloqadorligini ko‘rsatadi. Milliy o‘quv dasturida ona tili va boshqa fanlar aloqadorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Yangilangan ona tili darsliklari o‘quvchi yoshiga, dunyoqarashi mos ravishda “quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o‘sish” tarzida tuzilgan bo‘lib, ichki integratsiya va tashqi integratsiyaga asoslangan. Ichki integratsiya til fanining bo‘limlari, tilshunoslik fanlariaro aloqadorlik bo‘lsa, tashqi integratsiya til faniga aloqador bo‘lmagan gumanitar va aniq fanlar bilan aloqadorlikdir (ona tili darsliklarida boshqa fanlar, sohalarga aloqador matnlar berilgan. Shu matnlar, audiomatnlardan keyin o‘qib tushunish, tinglab tushunish uchun topshiriqlar bor).

6-sinfda “Shifoxona”, “Qayta ishlanadigan chiqindilar”. “Jigar eng mehnatkash a’zo”, “Kompyuter grafikasi”, “Global isish”, “Ko‘z nurini asraylik”, “Soliqlarni to‘lab boryapsizmi?”, “Konstitutsiya – bosh qomusimiz”, “Davlatni kim boshqaradi?” 7-sinfda “Turon yo‘lbarsi”, “C vitamin”, “Kelajak kasblari”, “Veterinar”, “Bobomning

pensiyasi”,“Fizika hayotni yengillashtiradi”,”Yozuvchi bo‘lish osonmi?”, “Sharq taronalari”,”Oliy Majlis”, “Mualliflik huquqi” kabi mavzu nomlarining o‘ziyoq bu mavzulardagi matnlar turli fan va sohalar bilan aloqadorlikni anglatib turadi. Mazkur mavzularda til fanining turli bo‘limlariga oid bilimlar o‘rganiladi.

Ona tili darslarida fanlararo integratsiya quyidagi tartibda bo‘ladi:

bo‘lim nomi va unda berilgan matn fan (kasb yoki soha)ni belgilaydi;

har bir bo‘limda tanlangan mavzu ma’lum bir fan/sohaga aloqador;

tanlangan mavzuga doir matn;

matnga oid infografika;

matnning mohiyatini anglashga doir savol, topshiriqlar;

ona tili fanida o‘tilayotgan mavzu(lar)ga doir mashq topshiriqlari. (Bunday topshiriqlar til fanining bir necha bo‘limlariga aloqador bo‘lishi mumkin.)

dastur asosida til fanidan o‘tiladigan mavzuga taalluqli qoida;

audiomatn; audiomatn tahliliga doir savol va topshiriqlar;

uy vazifasi.

Xulosa va takliflar. Borliq, olam butun. O‘simlik, hayvonlar tabiatning bir qismi bo‘lgani kabi inson ham tabiatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Inson uchun barcha fanlar zarur. Kimyo, geografiya, fizika-astronomiya, matematika, biologiya, zoologiya fanlariga oid tushunchalar; til, falsafa, tarix, adabiyot ham odamzodning yashashi, hayoti uchun zarur. Ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini ta’minlashga, ona tilining barcha ta’lim muassasalarda o‘qitiladigan fanlar, o‘quv predmetlarining o‘rganish va o‘rgatish vositasi ekanligini chuqur anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanishga, ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettirishga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlariga, to‘rtta lisoniy malakaning baravar shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim. Shuning uchun ona tili darslarida har bir mavzu doirasida boshqa fanlar bilan bog‘langan holda tashkil etiladi va bu o‘quv jarayonining mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi. Mavzu nomlarining o‘zi ham turli fan va sohalar bilan aloqador: biologiya geografiya, kimyo, fizika, iqtisod, kompyuter texnologiyalari, tarix, sana’at, madaniyat, huquq vb, turli sohalar va kabilar. Shu maqsadda milliy o‘quv dasturida 5-11-sinfda ona tili fanini yuqoridagi fanlar bilan bilvosita aloqadorlikda o‘rganish rejalashtirilgan. Har bir bo‘lim nomlari va undagi mavzular, avvalo, ma’lum bir fan yoki soha bilan bog‘langan matn asosida ona tiliga oid bilimlar kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o‘rganiladi.

Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi, fikrlash esa nutq holatida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘quvchi o‘z tafakkurini rivojlantirmay turib,og‘zakli va yozma nutqni egallay olmaydi. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda esa bevosita fanlararo integratsiyaning ahamiyati nihoyatda samarali.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. O ‘zME. T. 2007.2. 16-b.
2. Mavlonova R.A. Rahmonqulova N.S. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. T. “Voris”. 2013. 175-b.
3. Mavlonov O.,Tilavov -T.:, Aminov B,. 8-sinf ”Biologiya (Odam va uning salomatligi)” -T.: 2018-y.70-73-b.
4. Muqumova S. Fonetika bo‘limini o‘rgatishga doir tavsiyalar. Til va adabiyot ta’limi. 2022.1-son.14-15-b.
5. Muqumova S.Ona tili, adabiyot va boshqa fanlar integratsiyalashganda(O‘zbek xalq maqollari tahlili asosida) Til va adabiyot ta’limi. 2020.9-son.22-24-b.
6. N. Mahmudov, A. Sobirov, Sh. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova. Ona tili.Umumiy o ‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. T. 2020-y. 278-b.
7. Yuldasheva D. O ‘zbek tilini o ‘qitish metodikasi. Buxoro – 2021. 176-b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:82.1

Shomurod MUSTAFAYEV,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on dotsenti filiali Pedagogika fanlari doktori (DSc)
E-mail: shomurodmustafayev@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

MANIFESTATION OF ART-PEDAGOGICAL EFFECT IN THE ACTIVITY OF ARTISTIC CREATIVITY

Annotation

In this article, an art-pedagogical study of artistic creativity within the framework of the “Five Main Initiatives” reveals new, practical tasks of using art pedagogy on a scientific basis in the education of youth, especially students of higher educational institutions, fighting the threat of “mass culture” in the artistic sphere. pedagogical basis among the ideological threats attacking our youth, art criticism from a pedagogical point of view, the essence of “mass culture” as an art threat in the context of modernization of higher education, artistic and pedagogical interpretation of its influence on the education of creativity, culture and spirituality of youth.

Key words: Art pedagogy, “mass culture”, ideological threat, modernization, ideological education, artistic creativity, national sophistication, music, national art, globalization, artistic circle.

ПРОЯВЛЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация

В данной статье арт-педагогическое исследование художественного творчества в рамках «Пяти основных инициатив» раскрывает новые, практические задачи использования арт-педагогики на научной основе в воспитании молодежи, особенно студентов высших учебных заведений, борющихся с угрозы «массовой культуры» на художественно-педагогической основе среди идеологических угроз, атакующих нашу молодежь, искусствоведение угрозы с педагогической точки зрения, сущность «массовой культуры» как арт-угрозы в условиях модернизация высшего образования, художественно-педагогическая интерпретация ее влияния на воспитание творчества, культуры и духовности молодежи.

Ключевые слова: Арт-педагогика, «массовая культура», идеологическая угроза, модернизация, идеологическое образование, художественное творчество, национальная изысканность, музыка, национальное искусство, глобализация, художественный круг.

BADIIY IJOD FAOLIYATIDA ARTPEDAGOGIK SAMARANING NAMOYON BO‘LISHI

Annotasiya

Ushbu maqolada Besh muhim tashabbus doirasida badiiy ijodkorlik faoliyatini artpedagogik o‘rganish yoshlarni, ayniqsa oliy ta’lim muassasalari talabalari tarbiyasida artpedagogikadan ilmiy asosda foydalanishning yangi, amaliy vazifalari, yoshlarimizga xuruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar qatorida “ommaviy madaniyat” tahdidlariga qarshi artpedagogik asosda kurashish, art-tahdidning pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganish, oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida “ommaviy madaniyat”ning art-tahdid sifatidagi mohiyati, uning yoshlarda ijodkorlikni tarbiyalash, madaniyati va ma’naviyatiga ta’sirini artpedagogik talqin qilish haqida fikr yuritiladi.

Klait so‘zlar: Artpedagogika, “ommaviy madaniyat”, mafkuraviy tahdid, modernizatsiy, g‘oyaviy tarbiya, badiiy ijod, milliy nafosat, musiqa, milliy san’at, globallashuv, badiiy to‘garak.

Kirish. Jamiyatning ma’naviy islohoti ma’naviy tarbiyani isloh qilishdan boshlanadi. San’at asarlarini artpedagogik o‘rganish yosh avlodni Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi talablari asosida tarbiyalashning keng imkoniyatlarini ochib beradi. Buning natijasida talaba yoshlar ma’naviyatini g‘oyaviy-estetik yuksaltirib, buyuk ajdodlar merosiga haqiqiy, asl voris bo‘lishlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy pedagogik yo‘nalishlar amalga oshadi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash”ning ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada “ommaviy madaniyat”ning turlariga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish, yoshlarni o‘z milliy adabiyoti, madaniyati, san’ati negizida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Jahon artpedagogik tizimlari shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Bu esa shaxsni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog‘lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda.

Badiiy ijod bilan shug‘ullanar ekan, talabalar o‘zlarining badiiy, estetik ehtiyojlarini qondirish bilan bir vaqtda, yoshlarni har tomonlama rivojlangan komil inson sifatida kamolga yetib, iqtidorlarini ro‘yobga chiqaradilar. Zero, “professional san’at ham, havaskorlik san’ati ham kishilarni tarbiyalashda umumiy maqsad va vazifalarga ega. Chunki san’at kishilarning quvonch va hayajonlari, ehtiroslarining manbai sifatida ularning hissiyoti, fikri, irodasini ifoda etib, shaxsni ma’naviy va g‘oyaviy boyitishga xizmat qiladi”. [2]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Besh muhim tashabbus” badiiy faoliyatni “tarbiyalovchi faoliyat”ga aylanishini, buning uchun esa san’at va madaniyatning ma’naviy-ma’rifiy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirish taqozo

qilinmoqda. Bu esa, oliy ta’lim muassasalari ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimida:

Besh muhim tashabbus doirasidagi ishlarni artpedagogik asosga qurish;

milliy g‘oyaning badiiy-estetik jozibasini talabalarga tasvirlab, tushuntirib berish;

badiiy jamoalarda talabalarning ijod namunalarini rag‘batlantirish;

“ommaviy madaniyat” namunalari illatlarini ko‘rsatish, ulraning asl maqsad-muddaolarini ilmiy asoslab ko‘rsatish;

fahsh va jangari mazmundagi musiqiy, kino, teatr, video, audio mahsulotlar ta’sirini zararsizlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy choralar ko‘rish;

oliy ta’lim muassasasi badiiy to‘garaklaridagi g‘oyaviy tarbiyaviy jarayonni artpedagogik asosda o‘rganib borish, mavjud kamchiliklarni bartaraf qila borish talab etiladi.

Badiiy ijod jamoalarida artpedagogik asosga qurilgan g‘oyaviy-estetik tarbiya ijodkor yoshlarning xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm egotsentrizm, “ommaviy madaniyat”, axloqsizlik falsafasi, missionerlik, kosmopolitizm va boshqa ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. San’atning tarbiya vositasi sifatidagi o‘ziga xos nafis xususiyatlari, mazmun, shakl va tarbiyaviy imkoniyatlari insoniyatni doim qiziqtirib keldi. Bu borada Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, shoir va mutafakkirlardan Kaykovus, Abdurahmon Sa’diy, Fitrat, Muhiddin qori Yoqubov, Shokir Sulaymon, Rajabzoda va boshqalar o‘z asarlarida qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

O‘zbekiston pedagog olimlari M.Abdujabbarova, S.Annamuratova, YE.Balabekov, X.Ibragimov, M.Ismoilova, D.Kenjayeva, H.I.Nurmatov, Sh.Olimov, M.Mahmudov, K.Risqulova, M.Maxmudova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, Sh.Rayemov, S.Romanova, D.Ro‘ziyeva, U.Saidov B.Umarov, S.X.Fayzullina, N.Qiyomov, M.Quronov, Q.Quronboyev, S.Yuldasheva, Z.Qosimova, G.Maxmutova, N.Shodiyev, Sh.Qurbonov, A.Hasanov, Q.B.Panjiyev va boshqalarning tadqiqotlarida yoshlarni badiiy, estetik tarbiyalash masalalari tadqiq qilingan.

Milliy qadriyatlar muayyan xalqning asl belgilarini o‘zida aks ettiradi. Badiiy ijod faoliyatida artpedagogik samaraning namoyon bo‘lishida ana shu qadriyatlarga tayanish zarur. Biroq, amaliyotni o‘rganish bu borada artpedagogik kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu haqda “O‘zbekiston faylasuflari” telegram kanalidagi postida (12.08.2020.) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha (PhD) fan doktori O.Bazarov shunday dedi: “Umuman, ma’naviy tadbirlar, targ‘ibot-tashviqot ishlarida, tan olish kerak, ancha no‘noqmiz. Biz yoshlarni chaqirib, “Seni tarbiyalashim, ma’naviyatingni oshirishim kerak. Shuning uchun shu tadbirga kir” deb aytamiz. Kirganidan keyin esa, joniga tekkuncha gapiramiz, uni tanqid qilamiz. Aksariyat hollarda tadbirlarimizning maqsadi nimaga qaratilgani, nimani targ‘ib qilish kerakligini ham anglab yetmasdan tadbir o‘tkazamiz. Tadbir samaradorligining shartlariga amal qilmaymiz. AQShning Kent Universiteti Fulbrayt dasturi tadqiqotchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori Otabek Nayimov, “O‘zbekistondagi universitetlarning jozibadorligini oshirish, talabalarning shaxsiy va kasbiy jihatdan yanada yuksalishi uchun oliy ta’lim muassasalarining kampus hayotini jonlantirish nihoyatda muhim masaladir. Amerikadagi universitetlarning kampus hayoti o‘ta jo‘shqin, qiziqarli va foydali tadbirlarga, qo‘shimcha mashg‘ulot-u to‘garaklarga nihoyatda boydir. Universitet kampuslarida hayot qaynaydi, turli madaniy, professional, sport tadbirlari talabalarning yetuk kadr bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga egadir. Albatta, bu o‘rinda talabalar o‘z-o‘zini boshqaruv madaniyati ham rivojlangan bo‘lishi lozim. Bizning universitetlardagi kampus hayoti esa o‘ta formal va zerikarli bo‘lib, talabalar asosan “faqatgina darsga kelishadi va darsdan so‘ng uy-uylariga ravona bo‘lishadi”, mavjud ayrim tadbirlar ham, afsuski, aksariyat hollarda rasmiyatchilik xususiyatiga ega bo‘lib qolmoqda” deydi. [3]

Talabalarni badiiy ijodkorligini tarbiyalash, avvalo, ularning shaxsiy, amaldagi fazilatlarida namoyon bo‘lishiga erishishni ko‘zda tutadi. Bilim, ko‘nikma va malakalar o‘z-o‘zidan emas, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati, hayot tajribasi, bilimi asosida vujudga keladi, shakllanadi. Havaskor talabalarning e’tiqod va dunyoqarashi ularning to‘garak mashg‘ulotlaridan olgan badiiy-estetik bilimlar asosida shakllanadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Besh muhim tashabbus doirasida badiiy to‘garaklar faoliyatini artpedagogik o‘rganish yoshlarni, ayniqsa, bo‘lajak ziyolilar – oliy ta’lim muassasalari talabalari tarbiyasida artpedagogikadan ilmiy asosda foydalanishning yangi, amaliy vazifalarni belgilab berdi. Zero, shu paytgacha yoshlarimizga xuruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar qatorida “ommaviy madaniyat” tahdidi tarkibida musiqa, raqs, dizayn yetakchilik qilsa-da, ularga qarshi artpedagogik asosda kurashish vazifasi qayd qilinmagan va ma’naviy-axloqiy tarbiya rejalarida belgilanmagan. Ushbu art-tahdidning pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganilmaganligi, to‘g‘ridan to‘g‘ri talaba yoshlarning g‘oyaviy-estetik dunyoqarashiga qaratilganligi sababli oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida “ommaviy madaniyat”ning art-tahdid sifatidagi mohiyati, uning yoshlarda ijodkorlikni tarbiyalash, madaniyati va ma’naviyatiga ta’sirini artpedagogik talqin qilish tadqiqotimizning vazifalaridan biri sifatida belgilab olindi.

O‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, badiiy havaskorlik to‘garaklari a’zolari respublika oliy ta’lim muassasalari badiiy to‘garaklari orasida o‘tkazilgan “Ilhom” talabalar teatr festivali, Respublika “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq bayrami, Respublika “Xazina” folklor badiiy havaskorlik to‘garaklari tanlovlari, Respublika “Barhayot an’analar” talabalar folklor ko‘rik-tanlovi, Respublika “Bunyodkor talaba” tanlovi doirasida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar dasturlarida hamda an’anaviy “Universitet (institut) bahori”da, “Egali yurt erkini bermas!” shiori ostida yoshlar bilan o‘tkazilgan ijodiy uchrashuvlarda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, turli konsert dasturlarida chiqishlar qilmoqdalar.

Bugungi globallashuv sharoitida barcha sohalardagi kabi talabalar g‘oyaviy-estetik tarbiyasida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish taqozo etilmoqda. Ushbu zaruratdan kelib chiqqan holda, 2021 yil fevral oyida “Telegram” messenjerida “Guldasta” badiiy havaskorlik to‘garaklari a’zolarining “Guldasta” muloqot forum kanali tashkil etilgan edi. Unda yoshlarning badiiy, g‘oyaviy qarashlarini virtual pedagogik o‘rganish maqsadi ko‘zda tutildi. Ya’ni, mashhur kishilarning san’at haqidagi aforizmlari, hikmatli fikrlari, qarashlarini o‘rtaga tashlab, ularga badiiy to‘garaklar a’zolarining munosabatlari o‘rganildi. Keyinchalik 2022 yilga kelib, “Sakkizinchi nota” telegram bot kanaliga aylantirildi. Botning ijtimoiy-pedagogik doirasini kengaytirish maqsadida san’atsevarlar doirasi kengaytirildi. Kanalni nega “Sakkizinchi nota” deb nomladik? Nota yozuvi yoki notatsiya — musiqa tovushlarining balandligi, uzunligi va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi belgi (nota)lardan iborat yozuv usulidir. Nota -musiqa asarining yozuv ifodasi. Odatda, yettita musiqiy nota bo‘ladi. Musiqa sehriga jo‘r bo‘lib kuylaydigan sakkizinchi nota - majoziy ma’noda tinglovchining qalbidir. Sakkizinchi nota ijodkorlariga mumtoz ashulalarimiz, kuy-qo‘shiqlarimizdan, shuningdek, jahon klassikasining nodir asarlaridan havola etib

boramildi. Shu tariqa bot aholi, yoshlar orasida milliy musiqiy ma’rifat subyektiga aylandi. Boshqacha qilib aytganda, mumtoz musiqiy madaniyatni targ‘ib qiluvchi, “ommaviy madaniyat”ning kirdikorlariga qarshi kurashuvchi, virtual minbarga aylandi. Aholi, yoshlarni o‘z kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘rgatildi.

Botda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining “Uydagi yulduzlar” tanlovi e’lon qiladi. Tanlov shartlari sifatida yoshlarga karantin davrida uyda ijod qilish va ijod namunalarini tasvirga olib, ijod namunalarini madaniyat vazirligining @mvforbot botiga yuborish tavsiya etildi. Tanlov yo‘nalishlari bo‘yicha:

1. “Eng yaxshi cholg‘u ijrochisi”
2. “Eng yaxshi xonanda” (maqom, baxshi, estrada va opera)
3. “Eng yaxshi raqs ijrochisi”
4. “Eng yaxshi rassom”
5. “Eng yaxshi hunarmand” nominatsiyalari e’lon qilindi.

Botga atoqli san’atkorlarning mumtoz qo‘shiqlarimizga bergan sharhlari berib borildi. Masalan, Navoiy g‘azali bilan aytiladigan Xorazm xalq mumtoz musiqa yo‘llaridan Chapandozi Suvoraga marhum O‘zbekiston xalq hofizi M.Tojiboyevning sharhini keltiramiz:

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,
Meni istar kishini suhbatin ko‘nglum pisand etmas.

Men doim suhbatini izlab yuruvchi kishilarim meni o‘z suhbatlarig‘a aziz deb bilmaydilar. Meni suhbatimni orzu qiluvchilarni esa, ko‘nglim pisand qilmaydi.

Ne bahra topqamen ondinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahre ondin tilarmen, bahramand etmas.

Mening o‘zimdan bahra topmoqchi bo‘lganlardan, men qanday qilib bahra topay. Xuddi men bahr topmoqchi bo‘lganlarim meni bahramand etmaganlaridek, men ham mendan bahra istovchilarni bahramand etolmayman.

Netay huri pari bazminkim, qatlim yo hayotimga,
Ayon ul zahr chashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.

Parilar, hurlar bazmini nima qilaman, o‘tmishim yoki hayotimga ulardan yo zahar, yoxud bir shirinlik oshkor yo nihon yetmaydi.

Kerakmas oy-ila kun shaklikim husnu malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Menga oyu-kun shaklidagi malohatu husn egalari kerak emas. Ulardan ichim chok-chok, tanim band-band bo‘lmaydi.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi Majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda javloni samand etmas.

Menga buzug‘ ko‘nglum uzra javlon urguvchi Majnunshior qotilvash, chavandoz hayoliy yorim bo‘lsa bo‘ldi.

Ko‘ngul uz charxi zolidin, firibin yemakim oxir,
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘yningga kamand etmas.

Bu ayyor bevafo dunyoga mahliyo bo‘lma, undan ko‘nglungni o‘z, oxirida ajal sirtmog‘ini bo‘yningga solishdan boshqasiga yaramaydi.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa Navoiy tegmasin deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

Agar ul oy yuzli sanam utlug‘ yuzin ochadigan bo‘lsa, Navoiy o‘z muxabbati daraxtining urug‘laridan o‘zga isiriqni ko‘z tegmasligi uchun ishlatmaydi.

Lug‘at:
Arjumand - aziz;
No‘shhand - sipqorish, ichish;
Chobuki qotilvash - qotilga o‘xshash chavandoz;
Samand - sariq ot (olovrang ot);
Kamand - hayvon ovlashda ishlatiladigan sirtmoq;
Sipand - isiriq.

Ushbu jarayonda talabalar nafaqat badiiy ijodkorlikning obyekti, balki subyektiga aylangandagina bu hamkorlikning yuqori samaradorligiga erishish mumkinligi namoyon bo‘ldi.

Tahlil va natijalar. Talabalarda “ommaviy madaniyat” va axloqsizlik falsafasi mafkuralariga qarshi immunitetni shakllantirishda jamoatchilik fikri muhim o‘rin egallaydi, chunki u talabalar jamoalaridagi munosabatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, jamoaviy muhokamaning mavzusi ehtiyojlar meyorining shakllanishi, kiyinish madaniyati, o‘z bo‘sh vaqtini behuda sarflash, ma’naviy darajasini qashshoqlantirishni tanqid qilish masalalari bo‘lishi mumkin. Bunday turdagi masalalarni muhokama qilish, odatda, yoshlarni yot ta’sirlarni jamoaviy tahlil qilish va baholash jarayoniga qiziqtiradi” [4]

Artpedagogik jarayon subyekt va obyektning o‘zaro hamkor munosabatlarining hosilasi sifatida o‘z badiiy va pedagogik natijalariga ega bo‘ladi. Bunda ta’lim va tarbiya jarayonlarida subyekt, ya’ni Ustoz - shogirdga, professor-o‘qituvchi - talabaga biror ijodiy g‘oya, mavzuni tushuntirish, suhbat, mashq, uqtirish, ijro qilib ko‘rsatish, ishontirish, inontirish, rag‘batlantirish metodlarini qo‘llash orqali ko‘chiradi. Natijada, ustoz istagan mazmun, obraz talaba-shogirdning badiiy tafakkuri predmetiga aylanadi, uning badiiy obrazlari galereyasiga ko‘chadi, ijodiy mashq, xatti-harakatlarida, xulqida namoyon bo‘la boradi. Bu yerda artpedagogikaning vazifasi, funksiyasi, imkoniyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

Masala shundaki, agarda artpedagogika ishtirok etmasa, yuqoridagi badiiy ta’lim-tarbiya jarayonlarida asosan ratsional tushuntirish, ishontirish jarayonlari kechadi, ya’ni, o‘qituvchi ustoz shogirdga biror ratsional mohiyatga ega vazifa, misol, masalani taklif etadi, shogird, o‘quvchi buni qabul qiladi, tahlil qiladi, tushunmagan o‘rinlarida savol beradi, qiyoslaydi va buning natijasida, o‘quvchida bilim, ko‘nikma, malaka yoki kompetensiyalar paydo bo‘ladi. Demak, jarayon tushuntirish va tushunish orqali, tushuntirayotganda tinglovchida paydo bo‘layotgan savollarga javob berish orqali kechadi. Artpedagogikaning faqat uning o‘zigagina xos xususiyati, imkoniyatlari shundan iboratki, unda inontirish metodini qo‘llash imkoniyati bor.

Xulosa va takliflar. Dunyo mamlakatlarida oliy ta’lim modernizatsiyalashuvi tajribalarini o‘rganish ushbu jarayonlarning besh yondashuvi (dixotomik, sivilizatsiyaviy, instrumental, mental va tarixiy) jihatlarni hisobga olishni va badiiy ijodkorlikning manbai, harakatga keltiruvchi kuchi nuqtai nazaridan qaralganda uning organik va noorganik shakllarini ko‘zda tutishni talab qiladi.

San’at va pedagogikaning tarbiyaviy integratsiyasini amalga oshirish oliy ta’lim modernizatsiyasining artpedagogik tashkiliy asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda ijtimoiy artpedagogik pedagogik vazifalar sifatida jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishda san’at vositalaridan foydalanishni joriy qilish, o‘zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma’rifiy va axloqiy merosi bilan bir qatorda milliy madaniyat va san’at namunalarini har bir fuqaroning badiiy-estetik mulkiga aylantirish, milliy san’atni anglatish maqsadini ustuvor yo‘nalish sifatida amalga oshirish, san’at vositasida milliy g‘oyani xalqning ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida “Besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshiriladigan artpedagogik jarayonlar “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” asosida talaba yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlar, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning to‘rtinchi bosqichini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son Qarori.
2. Теплов Б. М. Психологические вопросы художественного воспитания // Известия АПН РСФСР. -1947. -№ 11. -С. 7-13.
3. Nayimov O. Uzbekistonda oliy ta’lim. Ilmiy, ukuv uslubiy, tahliliy jurnal. 2023. 15-18 b.
4. Quranboyev Q. Q. Talabalar ma’naviy ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. nomz. ...diss. – T. 1998. –241 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:091

Oynisa MUXAMMADIEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: o.muhammadiyeva@gmail.com

O‘zMU professori B.To‘ychiyev taqrizi asosida

MIRZO BEDIL FALSAFIY QARASHLARINI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishining ijtimoiy-tarixiy omillari, xususan XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyo va Hindistondagi ijtimoiy-madaniy hayotning Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishi va rivojlanishi atroflicha tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Bedil, O‘rta Osiyo, Hindiston, boburiylar, vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy hamjihatlik, falsafa, axloq, tasavvuf, “Irfon”, “Chor unsur”, “Ishorat va hikoyat”.

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ МИРЗЫ БЕДИЛЯ

Аннотация

В данной статье раскрываются социально-исторические факторы формирования философских взглядов Мирзо Бедиля, в частности влияние общественной и культурной жизни в Средней Азии и Индии в XVI-XVII веках на формирование философских взглядов Мирзо Бедиля. Также подробно исследовано становление и развитие философских взглядов Мирзо Бедиля.

Ключевые слова: Мирза Бедил, Средняя Азия, Индия, бабурийцы, патриотизм, гуманизм, религиозное единство, философия, мораль, мистика, «Ирфан», «Чор Унсур», «Ишорат ва хикаят».

SOCIAL-HISTORICAL FACTORS OF THE FORMATION OF MIRZA BEDIL'S PHILOSOPHICAL VIEWS

Annotation

This article reveals the socio-historical factors of the formation of Mirzo Bedil's philosophical views, particularly the influence of social and cultural life in Central Asia and India in the XVI-XVII centuries on the formation of Mirzo Bedil’s philosophical views. Also, the formation and development of Mirzo Bedil's philosophical views are thoroughly researched.

Key words: Mirza Bedil, Central Asia, India, Baburians, patriotism, humanism, religious unity, philosophy, morality, mysticism, “Irfan”, “Chor Unsur”, “Ishorat va Hikayat”.

Kirish. Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishining ijtimoiy-tarixiy omillari sifatida faylasuf yashab o‘tgan Hindiston va O‘rta Osiyodagi XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayot va ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro madaniy munosabatlarning ta’siri e’tiborlidir. Hindistonda boburiylar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ularning hind, musulmon aholisining turmush tarzidagi ifodasi kabi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Bedil axloqiy qarashlariga samarali ta’sir etgan. Shuningdek, bo‘lajak buyuk allomaning ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy kamolotiga yaqin qarindoshlari, qadimgi yunon, hind, Markaziy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlari, an’analari hamda buyuk faylasuf va mutasavviflarning falsafiy-axloqiy, tasavvufiy qarashlari g‘oyaviy-nazariy asos, muhim omil bo‘lib kelgan.

XVI-XVII asrlar O‘rta Osiyodagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotda burilish davri bo‘ldi. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronlik qilgan bu davrlarda O‘rta Osiyoda qaror topgan ilm-fan, adabiyot va san’at hamda falsafiy tafakkur rivojini ikki asosiy yo‘nalishda borganini ko‘rishimiz mumkin. Bu yo‘nalishlarning birinchisi – O‘rta Osiyoning o‘zida shakllangan bo‘lib, bu yerda ko‘plab tarixchi olimlar, adabiyotshunos va faylasuflar ijod qilgan. Ikkinchi yo‘nalish – Hindistonda boburiylar davridagi O‘rta osiyolik mutafakkirlarning ijodi va dunyoqarashidir.

XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyoda Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi yirik shaharlar asosiy madaniyat markazlariga aylangan. Bu yerda O‘rta Osiyoning donishmandlari yig‘ilishar edi. Xususan, shu davrda Samarqandda matematik, astronom Maxmud ibn Muxammad, Mullo Abdul Ali Nizomiddin ibn Muhammad ibn Husayn Birjondiy, musiqashunos olim Amir Ali Akbar Samarqandiy, Muhammad Darvesh Samarqandiy va boshqalar yetishib chiqdi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda 350 ga yaqin mashhur adabiyotshunos va shoirlar yashagan va ijod qilganlar. Shu bilan birga Buxoro va Samarqand shaharlarida musiqa san’ati yuqori bosqichga ko‘tarildi. Musiqa san’atining yuksalishida Mavlono Hasan Kavkabiy, Mavlono Rizo, Mavlono Pirmuhammad Kulol va boshqalarning xizmati katta bo‘ldi.

Jamiyat ma’naviy hayotida madrasalar muhim ahamiyatga ega edi. Ashtarxoniylar hukmronligi (joniylar, Buxoro xonlari sulolasi 1599-1753) davrida Buxoro, Toshkent, Samarqand kabi shaharlarda ko‘plab masjid va madrasalar qurildi. Madrasalarda asosan kalom, matematika, geometriya asoslari, mantiq, arab tili, fors-tojik va o‘zbek adabiyoti klassiklarining asarlari o‘qitilar edi. Shuningdek, an’anaviy fanlardan tashqari Navoiy, Fuzuliy asarlari ham o‘rganilgan. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev saylovchilar bilan uchrashuvlardan birida “Men nufuzli xalqaro sammitlarda, jumladan, Hindiston va Pokiston davlatlarining rahbarlari bilan uchrashuvlarda Xusrav Dehlaviy, Abdulqodir Bedil, Mirzo G‘olib singari buyuk sharq shoirlarining tarixiy vatani Kesh shahri bo‘lganini, faxr bilan tilga olaman”[1], degan edilar. Bu ham Mirzo Abdulqodir Bedil ijodining bashariyat tarixidagi o‘rni naqadar ulkanligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XVI-XVII asrda falsafiy tafakkur rivojida mashhur faylasuf olimlar yetishib chiqdilar. Masalan, Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog‘iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Inoyatullo Buxoriy, Xusayn Xalxoliy shular jumlasidandir. So‘fi Ollohyor, Boborahim Mashrabning tasavvufiy-falsafiy she’rlari ham xalq orasida mashhur edi. So‘fi Ollohyorning “Mahzan ul-mute’iyn” (Mute’lar xazinasi), “Maslak ul-muttaqiyn”, “Murod ul-orif” (Oriflar murodi) kabi kitoblari diniy-tasavvufiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, ularda mehr-muhabbat, sabr-qanoat, imon-e’tiqod, kamtarlik va poklik kabi axloqiy muammolar tahlil etilgan. XVII asrda Movarounnahrda yashab, ijod etgan faylasuf olim Muhammad Sharif Buxoriyning falsafa, tarix, she’riyat, huquqshunoslik, tilshunoslikka bag‘ishlangan ilmiy merosi, ular orasida axloqiy masalalarga bag‘ishlangan “Favoidi hoqqoniyya” (“Hoqonga atalgan foydalar”) kabi kitoblar ilmiy-ma’naviy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga egadir.

Bu davrlardagi axloqiy, falsafiy fikrlar rivoji va madaniy hayotdagi o‘zgarishlarning yana bir yo‘nalishi – Hindistonda boburiylar davridagi O‘rta osiyolik mutafakkir-larning ijodi va dunyoqarashi bilan bog‘liqligidir.

XVI asrning ikkinchi yarmi Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot katta o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bobur shohning o‘g‘li Xumoyunshohdan keyin davlatni boshqarish Humoyunning o‘g‘li Akbarshohga o‘tdi. 1556 yilda Dehli taxtiga o‘tirgan Akbarshohning zamoni boburiylar saltanatining eng fayzli davridir. Bu haqda manbalarda qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, “Mashhur Bobir shohning o‘g‘li Humoyunshohdan keyin hind hukumati Humoyun o‘g‘li Akbarshohga qoldi. Hijriy 923 da Dehli taxtiga mingan Akbarshoh o‘lkasini kengaytirib berkitgandan so‘ng tijorat, san’at, ilm, adabiyot ishlariga ahamiyat berdi. Eron, Turkiston hukumatlari bilan xabarlashib, yozishib turdi. Har tomondan olimlar, adiblar, ustalar, tojirlar Akbarshohdan foydalanmoq uchun Hindistong‘a qarab jo‘nadilar. Dehli, Lohur, Agra kabi hindning ulug‘ shaharlari Akbarshoh paytida Sharqning ilmiy, adabiy, tijoriy ulug‘ markazlari bo‘lib qoldilar” [2].

Akbarshoh Hindistonning qadimgi va o‘rta asr madaniyatiga chuqur qiziqish bilan qaradi. Maktabda ta’lim olgan o‘quvchi odobnoma, arifmetika, falakiyot, xo‘jalik ishlari, boshqarish qoidalari, diniy bilimlar va fizika fanlarini mukammal egallashi lozim edi.

Akbar mahalliy aholining diniga hurmat bilan qarab, “sulhi kull” ya’ni musulmon va hindular umumiy dinining murosasozligi siyosatini targ‘ib qildi. Akbarshoh zamonida musulmon va hindularni umumiy din murosasi ostida o‘zaro hurmat va ma’rifatga yo‘naltirilgan diniy - irfoniy siyosatiga ham alohida e’tibor berildi[3]. Akbarshohning diniy-irfoniy siyosat olib borishiga ta’sir etgan narsa – bu uning tasaavvuf ta’limoti bilan yaqindan tanishgani bo‘lgan. Akbar ilgari surgan ushbu yangi din siyosatiga ko‘ra, Hindistondagi barcha diniy oqimlar, jumladan musulmon, hinduizm va boshqalarning o‘zaro totuvlik, tenglik hamda murosaga kelishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari g‘oyasi ilgari surilgan edi.

Akbar ilm-hunar egalarini Hindistonga kelishlari uchun juda keng imkoniyat yaratdi. Akbarshohning “sulhi kul” siyosati buning yaqqol misolidir. “Biz Hindistonda barcha uluslarning ichki urushsiz, tinch yashashlarini istab, hamma tomonlama tinchlik – sulhi kul siyosatini amalga oshirmoqdamiz. Odamlarga – tinchlik, saltanatga – xavfsizlik, barcha imonu e’tiqodlarga barobar ehtirom”[4], - degan murojaatnoma o‘sha davrda mamlakatga keng tarqalgan edi.

Buyuk ajdodimiz Akbarshoh va u olib borgan siyosat haqida fikr bildirganda ma’rifatparvar hukmdorning diniy bag‘rikengligini ham alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Akbarshohning diniy bag‘rikengligini u olib borgan siyosat orqali bilib olish qiyin emas. Masalan, Akbar tomonidan qurilgan 4 qismli “E’tiqodxona”[5] ning bir qismi-hindlar muqaddas sanaydigan qadimiy “Rigveda”, ikkinchi qismi-otashparastlarning “Avesto”si, uchinchi qismi-nasorolarning muqaddas kitoblariga, to‘rtinchi qismi-muslimlar e’tiqodiga makon bo‘lgan. Akbar turli e’tiqod vakillari bir davraga yig‘ilsalar, haqiqatni bilishlari oson bo‘lgay, xurofotu bid’at chekingay, degan fikrni ilgari surgan.

Akbarshohning ushbu murojaatnomasiga va olib borgan siyosatiga javoban turli mamlakatlardan olimlar, adiblar, ustalar va hunarmandlar Hindistonga kelib ijod qildilar. Dehli, Lohur, Agra kabi hindlarning ulug‘ shaharlari Akbarshoh davrida Sharqning ilmiy-adabiy, tijorat markazlariga aylandi.

Akbarshohni ilm-ma’rifatga e’tibor qaratilganligini shundan ham bilishimiz mumkinki, Akbar saroyida “nuhraton”- ya’ni “to‘qqiz gavhar” degan ibora mashhur bo‘lgan. Unda fan, adabiyot va san’atning to‘qqizta yorug‘ yulduzlari, ular orasida Abulfazl ham o‘rin olgan. Akbar ularni ma’naviyat gavhari deb atar edi. Akbarshoh o‘zining kamolot sari intilishi, saltanatida ilm-ma’rifatga keng o‘rin berishi bilan shoir, faylasuflar dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatdi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Akbar davrida O‘rta Osiyo, Eron bilan Hindiston xalqlari o‘rtasida madaniy hamkorlik, o‘zaro aloqalar kuchaydi. Bu xalqlarning madaniyati bir-biriga muayyan ta’sir ko‘rsatdi. Hindistonda Akbar hukmronligi davrida Muborak Nagoriy, Jaloliddin Tanisoriy, Shayx Abdulqodir al-Badayuniy, Iloxdod Sulton Puriy, Abulfazl Alloiy, Amin Ahmad Roziy kabi olimlar yashab ijod etganlar.

XVI-XVII asrlardagi Hindiston hayotining eng muhim omili bu diniy muammo bo‘ldi. Bu davrda Hindiston aholisining bir qismi ajnabiy g‘oliblar va O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Erondan kelganlarni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa qismi islomni qabul qilgan mahalliy aholi bo‘lgan.

Hinduizmdagi ilk islohotchilik harakatlaridan biri bhaktiy oqimi bo‘ldi. Ushbu harakat rasmiy hinduizm, tabaqalar (kastachilik)ka bo‘lishga qarshi XIV-XV asrlarda shahar hunarmandlari orasida paydo bo‘ldi. Dastlab tinchlik xarakterida bo‘lgan ushbu harakatni musulmon hukmdorlari qo‘llab-quvvatladi, chunki ularning mavqei braxmanlar dinining sha’niga putur yetkazishga qodir edi.

Bhaktiy harakati ilk bor shaharning o‘ziga to‘q savddogarlar, hunarmandlar va sudxo‘rlar qatlamlari orasida paydo bo‘ldi. Ushbu qatlamlar orasidagi tengsizlik ularning bir maqsadga birlashishiga to‘sqinlik qilardi. Ularning mafkuralarida feodallarga qarshi muxolifat bilan birga feodal hokimiyatiga faol qarshilik ko‘rsatishdan voz kechish singari qarashlar ko‘zga tashlanadi. Bhaktiy harakati hinduizmga ba’zi o‘zgarishlarni kiritishni talab qilar edi.

Hindiston hayotidagi ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikka qarshi norozilik kayfiyati tasavvuf oqimida ham o‘z aksini topdi. Tasavvuf oqimi Hindistonga dastlab IX asrlarda kirib borgan. Hindistonda tasavvufning suxrovardiya va chishtiya tariqati keng tarqaldi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, suxravardiya tariqatiga zardo‘shtiylik dini ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan edi[7]. Chishtiya ta’limotiga ko‘ra, Alloh barchani teng yaratgani uchun uning bandalari yer-zaminda barobar bo‘lib yashamoqlari lozim. Shuning uchun dardmandlarning dardiga darmon bo‘lmoq, ochlarni to‘ydirmoq oliyjanob insoniy fazilatdir. Bu ta’limotga ko‘ra, har bir mo‘min banda daryodek saxiy, oftobdek nurafshon, zamindek ta’zim-tavozeda bo‘lmog‘i darkor. Zeroki, Alloh o‘zining shunday bandalarini sevadi. Tenglik va insonparvarlikni targ‘ib etgani uchun oddiy mehnatkashlar chishtiya tariqatiga ergashdilar. Ushbu ta’limotning asoschisi bo‘lgan Muyiniddin Chishtiy Hirot yaqinida tug‘ilib, keyinchalik Hindistonda o‘z tasavvufiy qarashlarini tarqatgan[8].

O‘zaro urushlar, diniy va milliy nizolar va tortishuvlar Hindiston xalqlarining birligini barbod qildi, mamlakat iqtisodiy hayotiga behad ziyon yetkazdi, ommaning turmushiga og‘ir ta’sir etar edi. Ijtimoiy hayot, xalqning turmush sharoiti qanchalik og‘ir bo‘lishiga qaramay, bu davrda Hindistonda fors-tojik va hind tillarida yaratilgan adabiyot namunalari xalqlarning ma’naviy-axloqiy tafakkuri taraqqiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Hindistonda Bobur, Xumoyun, Akbar va Shohjahonlar hukmronligi davrida musulmonlar va hindular o‘rtasidagi do‘stona munosabat, diniy bag‘rikenglik g‘oyalari hind xalqi bilan musulmon xalqlari tinch-totuv yashashiga mustahkam zamin bo‘lgan. Bularning hammasi Bedil dunyoqarashining shakllanishiga o‘zining hayotbaxsh ta’sirini ko‘rsatgan. O‘z navbatida, Bedil ijodi hindular va Hindistondagi musulmonlar xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy-axloqiy va falsafiy-irfoniy dunyoqarashi bevosita XVI-XVII asrlar O‘rta Osiyodagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayot bilan, islom dini va tasavvuf ta’limoti bilan chambarchas bog‘liq, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bedil falsafiy qrashlarida inson va jamiyat masalasi aynan o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy axloqiy muhiti doirasida, o‘sha davrda ijod etgan hind va turkiy xalq mutafakkirlarining qalashlari ta’sirida shakllandi va ravnaq topdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mirzo Abdulqodir Bedil nasriy va nazmiy yo‘sinda yozilgan, tarixiy shaxslar – zamondoshlari hayoti va qarashlari haqidagi qimmatli ma’lumotlar, qiziqarli hayotiy lavhalar, falsafiy fikr va mushohadalar hamda ibratli qisqa hikoyalardan iborat bo‘lgan mashhur asari – “Chahor unsur” (“To‘rt unsur”)ning “Unsuri avval”ida “Inson ruhi basit (oddiy, bo‘linmas) javhar (mohiyat, substansiya) bo‘lib, latofat (go‘zallik, latiflik) jihatidan barcha ashyolarni qamrab oladi”[9], deydi.

Bedilning “Chor unsur” asarida yozilishicha, 14 yoshida qarindosh-urug‘lari bilan birinchi sayohatga chiqadi. Bixor va Bangolordagi mahalliy rojaliklarni borib ko‘radi. 1661 yilda mashhur mutasavvif Shoh Qosim Huvallo qo‘lida 2 yil ta’lim oladi. Hind, arab va forsiy tillarni hamda ularda yaratilgan badiiy adabiyot bilan yaqindan tanishadi. 1663 yilda Bedil Dehlida Shoh Qobuliy nomli donishmand bilan tanishib, undan ruhiyat ilmini o‘rganadi. Mirzo Bedil “Chor unsur” asarida mutasavvif so‘fiy Shoh Qobuliy bilan tanishgani va undan o‘rgangan ilmlari haqida ba’zi lavhalarni keltirib o‘tgan. Unda ta’kidlanishicha, Bedil Dehlidan o‘tib borishida mutasavvif izdoshlaridan birining qarindoshinikida yig‘ilgan so‘fiylarning majlisida ishtirok etadi va majlisda ishtirok etayotganlarning biridan mutasavvif Shoh Qobuliy haqida qiziqarli ma’lumot eshitib qoladi. Unda “Ushbu kunlarda allaqanday majzub bir vayronani o‘z tashrifi bilan bezabdi va shu maskanda yashab qolib, uni munavvar etibdi. Ahvoliga xos xususiyat shuki, qarshisiga qancha mo‘l taom qo‘ymasinlar, bu uning uchun o‘t-olovga xas-cho‘p otmoqlik va qanchalik suv keltirmasinlar bu –tuproqqa tomchi tomizmoqliq kabidur.

Ul zot qanchalik hoksor bo‘lmasin ulug‘vorligidin salobati bosadiki, uning tamoyilini ko‘z o‘ngingga keltirmoqni istasang, aqlu idroking vahimasidan ranging bo‘zarar va ulug‘vorligi nuridan qo‘rquv ichra ko‘zing xira tortadi. Ziyoratiga borganimizda ul zot uyqu og‘ushida edi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, ul zot go‘yo soyada uxlayotgan quyosh va girdobdan yashirin dengiz kabi edi”[10], - degan gaplarga guvoh bo‘ladi. Bu suhbat Bedilning qalbida Shoh Qobuliyga nisbatan g‘oyibona muhabbatni paydo bo‘lishi va o‘zining falsafiy-irfoniy qarashlarida yangi tasavvufiy qirralarni namoyon bo‘lishiga turtki bo‘ladi.

Bedil insonning koinot mavjudotlari orasida eng yuksak maqomda yaratilganini ta’kidlar ekan, kishilarning irqi, jamiyatdagi mavqeidan qat’iy nazar shu sharafli nomga munosib ko‘rishni istaydi.

Bedilning nazarida inson mo‘jizakor, ayni chog‘da fitnalar manbaidir. Shuning uchun u odamdagi bu ikki xil tabiatni hisobga olish kerakligiga e’tibor qaratadi. Bedil insonning ulug‘vorligini, aqliy layoqatini, ko‘p narsalarni bajarishga qodir bir qutlug‘ zot ekanini, nutqi, ongi, aql-idroki bilan o‘zga maxluqotlardan farq qilishini ko‘rsatish bilan birga nomukammal, mol-mulkka chanqoq, o‘jar insondan yaramas ishlar sodir bo‘lishini ham ta’kidlab o‘tadi. Ya’ni shoir insondagi oliyjanob axloqiy-ruhiy xislatlar bilan birga salbiy illatlar ham mavjudligini yoritishga harakat qiladi.

Bedil o‘zining “Irfon”, “Chor unsur” asarida inson borlig‘ini tushuntirishda “bahri mutlaq” (komillik dengizi) tushunchasini kiritgan. U “Mutlaq bahr” deb ilohiy kuchga asoslangan mutlaq borliqni aytadi. Odamzod ana shu mutlaq borliqdan kuch va iroda bilan vujudga kelgan:

Bahri mutlaq issiq mavj urdi shunday,
Bo‘ldik o‘zimizdan a’loga muhtoj[11].

Bedil hikmat – falsafa hamda handasaga oid salaflarining asarlarini o‘rgandi. Amakisi Mirzo Qalandardan boshqa Hindistonning atoqli so‘fiylari Mavlono Kamol, Shoh Qosim, Xuvallayhiy, Shoh Fozil, Shoh Abdulfayz, Mirzo Zarif degan kishilardan saboq oladi. Mirzo Bedil Shayx Kamol qo‘lida mustaqil o‘qigan. Bedilning aytishicha, Shayx Kamol ma’rifatparvar kishi bo‘lib, hind tili va falsafasini yaxshi egallagan, shu sohalarda Bedil bilan suhbatlar o‘tkazgan. Shayx Kamol vafotidan keyin Shoh Fozil, Shoh Abdulfayz ismli olimlardan ta’lim olgan.

Bedil hind xalqining hayoti, madaniyati va qadimgi yozma hamda og‘zaki ijod yodnomalari bilan yaqindan tanishdi. Mamlakatdagi notinchlik va noxushliklardan qattiq iztirob chekdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mamlakatdagi ana shu voqealar, tashqi tomondan bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy tahdidlar, iqtisodiy nochorlik Bedil dunyoqarashiga, xususan, uning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, ma’rifiy qarashlariga ta’sir qildi. Bedil o‘zining ijodida vatanparvarlik, insonparvarlik, turli din va mazhabdagi qavmlarning hamjihatligini targ‘ib etdi. Chunki Hindistonda islom dini, hinduizm va boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar o‘rtasida ham nizolar, kelishmovchiliklar bo‘lib turar edi. Mirzo Bedil hind, eron, arab kabi ko‘plab Osiyo halqlarining ilmiy merosini chuqur o‘zlashtirgan yetuk faaylasuf olimdir. U 120 ming misradan ortiq chuqur falsafiy mazmundagi she’rlar va 20 bosma tabaqqa yaqin nasriy asarlar yozib qoldirgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XVII asrda Hindistonda tug‘ilib o‘sgan, ota-bobolari bizning vatandoshimiz bo‘lgan ulug‘ shoir va faylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil qoldirgan boy ma’naviy meros, uning ta’limotida ilgari surilgan isonning mohiyati, uni ijtimoiy borliqni anglash mohiyati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mirzo Abdulqodir Bedil asarlari yoshlarda falsafiy tafakkurni shakllantirishda, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini singdirishda ulkan manbadir.

ADABIYOTLAR

1. https://m.kun.uz/news/2021/10/11/amir-temur-tugilgan-xoja-ilgor-qishlogi-obodonlashtiriladi-shavkat-mirziyoyev
2. Boltaboev H. Fitrat-bedilshunos // Bedil va o‘zbek ma’naviyati: ilmiy maqolalar to‘plami. -Tehron-Toshkent: Al-Xudo, Movarounnahr, 2005. - B. 35 b.
3. Ayniy X.S. Bedil i yego poema “Irfon”. - Stalinabad.: Tadjgosizdat, 1956. - 24 s .
4. Qodirov P. Xumoyun va Akbar. - T.: Sharq, 1994. - B. 498 .
5. Ayniy X.S. Bedil i yego poema “Irfon”. Stalinabad.: Tadjgosizdat, 1956. - S. 24.

6. Нуритдинов М.И. Из истории общественно-философской мысли Средней Азии в XVI - XVII веках. Т.: Медицинской литературы имени Абу Али ибн Сины, 1996. - С.53.
7. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari.- T.: Sharq, 2004. - B. 10 .
8. آواز های بیدل. نثر ادبی (رقعات – نکات – اشارات – چهار عنصر). تصحیح: اکبر بهداروند. – تهران: موسسه انتشارات "نگاه". 1382. – ص. 353.
9. Бедиль. Избранное. - Душанбе: Ирфон, 1984. - С.160.
10. Shoalieva N. Bedil ijodida inson mohiyati //https://www.bukhari.uz/?p=24585

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК: 539:372.853

Шахло МУХИТДИНОВА,
Учитель кафедры физики Наманганского государственного университета
E-mail:shaxlomuhitdinova@gmail.com

PhD D.Alijonov taqrizi asosida

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ САМООБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИИ ФИЗИКИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Статья посвящена повышению эффективности обучения физики с использованием педагогических технологий при организации самообразования по оптике в системе высшего образования. Также рассматривается процесс самообразования студента в современных условиях развития общества, приведен его педагогический анализ, представлены некоторые рекомендации по организации процесса самообразования студентов вузов при изучении физики.

Ключевые слова: самообразование, самообразовательная деятельность, саморазвитие, самостоятельная работа, современное обучение.

EFFECTIVE ORGANIZATION OF SELF-EDUCATION OF STUDENTS IN THE DIRECTION OF PHYSICS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation

The article is devoted to improving the effectiveness of teaching physics using pedagogical technologies in the organization of self-education in optics in the higher education system. The process of student self-education in modern conditions of society development is also considered, its pedagogical analysis is given, some recommendations on the organization of the process of self-education of university students in the study of physics are presented.

Keywords: self-education, self-educational activity, self-development, independent work, modern education.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA FIZIKA YO‘NALISHI TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqola oliy ta’lim tizimida optika bo‘yicha muataqil ta’limni o‘qitishni tashkil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda fizikani o‘qitish samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan. Shuningdek, jamiyatning zamonaviy rivojlanish sharoitida talabaning o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayoni ko‘rib chiqiladi, uning pedagogik tahlili keltirilgan, fizikani o‘rganishda universitet talabalarining o‘zini o‘zi o‘qitish jarayonini tashkil etish bo‘yicha ba’zi tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil ish, zamonaviy ta’lim.

В настоящее время иметь профессиональное образование – еще не значит быть готовым для работы, в век интернета и цифровых технологий практически все сферы деятельности развиваются и проходят колоссальные перемены, требующие дополнительной работы в этой области. Ведь наука и прогресс не стоят на месте. Это можно узнать из народной мудрости: век живи – век учись. Сделать специалиста-кадра более формированным поможет самообразование. В этой статье раскроем об особенностях самообразования студентов направлении физики по предмету «Оптика».

Основу современного обучения в вузе, соответствующей государственным образовательным стандартам, составляет преобладающее самообразование студентов, которую организует и выстраивает сам студент. Поэтому определяющим условием формирования у студентов необходимых компетенций и их становления как профессионалов является активная самостоятельная работа.

Под термином самообразование понимается процесс, в ходе которого знания получают самостоятельно, изучая литературу по данной теме вне учебного заведения и писали самостоятельную работу в виде реферата. Как правило, такой вид развития основывался на интересах учащегося, а программа подбиралась им самостоятельно. Даже если слушатель не получал нужных знаний в конкретной области, он в минимальной степени повышал уровень своих знаний, расширял кругозор.

Эффективная организация самообразования студентов состоит из нескольких принципов.

-Индивидуальный подход, который предполагает, что учащийся будет осваивать знание которое желает, один сам, к которому он предрасположен.

-Регулярность и ответственность. Без регулярных и систематических занятий в этом деле не обойтись.

-Инициативность и добровольность. Заставить осваивать что-то новое невозможно (только если это не в составе образовательной программы при вузе). Индивид сам определяет потребность в знаниях и навыках, формирует свою траекторию развития и выбирает наиболее удобный для него способ погружения в новую среду или область. Поэтому самообразование – это исключительно добровольный процесс.

Задача самообразования очень важна при усвоении общей нагрузки данной дисциплины. Во-первых, самообразование позволяет углубить знания в выбранной области и обрести новые более совершенные и современные, актуальные навыки, делает студента конкурентоспособным, более востребованным и приспособленным и на рынке труда. Во-вторых,

самообразование – это безграничный процесс. Студент сам решает, что и как ему изучать, в каком объеме и за какое время. В-третьих, самообразование – процесс продуманный и целенаправленный, учитывающий особенности студента, его желания, потребности и условия. В-четвертых, самообразование у студентов (независимо от курса) позволяет глубже изучить предметы, погрузиться в профиль, ведь далеко не все моменты можно осветить на лекциях и семинарах.

Для того чтобы эффективно организовать самообразование существует несколько способов. Казалось бы, как и когда учащимся вуза заниматься самообразованием, если они не понимают распределение часов в нагрузке данной дисциплины и еще не освоились. Единственное, что может им помешать – новая учебная нагрузка и новые предметы, непривычные условия. Процесс самообразования может быть организован разными способами:

Инициативный – этот способ организации самообразования осуществляется исключительно по желанию студента. В данном случае он будет посещать различные курсы по интересам, читать определенную литературу подобранную самостоятельно или по рекомендации учителей педагогов.

Добровольно-принудительный – этот вариант чаще всего запрограммирован в учебном процессе при вузе. Он включает в себя вопросы для самостоятельного изучения, выполнение курсовых работ, ответ по лабораторной работе.

Теоретический – этот способ таков, что студент занимается только теоретическим погружением в область, изучая литературу.

Прикладной – когда требуется развитие определённых знаний и навыков. Данная часть осваивается «по инструкциям»: разбирается тема, выполняется задание по образцу или инструкции и пр.

Чтобы изучение литературы и обретение новых представлений и навыков не было напрасным, важно тщательно проработать программу самообразования. При разработке программы организации самообразования надо учитывать то, что студент должен уметь ставить цель.

Подбор ресурсов для самообучения. Здесь также лучше всего следовать рекомендациям опытных учителей-профессоров или посмотреть примерные программы онлайн-обучения: дисциплины, пособия литература.

Создание условий для самообучения. Здесь важно выделить определенное время для занятий, подобрать удобное, свободное помещение, создать тишину и не отвлекаться. Надо конспектировать материалы, делать упражнения, решать задачи, повторять пройденное и стараться пользоваться новыми знаниями в повседневной жизни.

Чтобы самообразование приносило только пользу надо придерживаться следующему правилу: проанализируйте расписание занятий и каждый свой день (нагрузка, свободное время), определите возможности для самообразования. Самообразование должно приносить новые знания, а не мешать усвоению учебной программы. Для этого нужно разработать план при проведении и организации самообразования студентов направлении физики, разработка должна проводится с учетом следующих принципиальных требований:

– основываться и опираться на различные учебные пособия, при возможности обучаемого и вуза определить основные учебники; визуализация основных моментов содержания курса с помощью наглядных, легко обозримых и запоминающихся схем и вспомогательного иллюстративного материала, графики, анимационные сюжеты, сопровождаемые максимально значимыми слайдами;

– обеспечение возможности использования визуальных материалов как в индивидуальной работе обучаемого, так и при обучении в ходе лекций, практических занятий;

– использование интерактивных учебных заданий, нацеленных на закрепление изучаемого материала и его лучшее понимание, промежуточных и итоговых контрольных работ;

В настоящее время в высших учебных заведения учебная деятельность ведётся систематизированно в специальных онлайн-платформах. В этих платформах количество часов во всех дисциплинах указывается в кредитах. Из этого распределения видно, что из общей нагрузки 60 процент часов уделяется самообразованию, а 40 процент часов к аудиторным занятиям. К примеру рассмотрим Учебную программу дисциплины ВУЗа «Оптика». Этот предмет преподаётся для вторых курсов за один семестр. Общая нагрузка этого предмета 330 часов за семестр. Аудиторные часы составляют 150 часов, а самообразованию уделено 180 часов. Из этого распределения можем увидеть, что студенту приходится больше всего заниматься самостоятельно. Существует целый ряд методов, которые можно использовать при обучении физике, основываясь на некоторых факторах.

С учетом уровня академического мастерства и способностей обучающегося при организации самообразования по оптике могут быть использованы следующие формы:

• самостоятельное освоение некоторых предметов науки с помощью учебной литературы, работа с образовательными ресурсами;

• подготовка к практическим, семинарским и лабораторным занятиям;

• подготовка реферата по определенной теме;

• выполнение курсовых работ;

• сбор материалов для дипломной квалификационной работы и магистерской диссертации;

• выполнять расчетные и графические работы;

• работа над макетами, моделями;

• поиск решения существующей проблемы на практике, подготовка тестов, спорных вопросов и заданий;

• подготовка научных статей, диссертаций и лекций;

• решение нестандартных задач практического содержания и творческой работы;

• выполнение домашнего задания и т. д.

Эффективный метод - это метод обучения, который кажется наиболее уместным и даст гораздо более положительный результат. Учитель должен стремиться использовать методы, которые облегчают понимание учащихся. Такие методы предназначены для вовлечения студентов в интенсивную учебную деятельность при организации самообразования.

Из всего вышесказанного можно сделать вывод, что для организации самообразования по Оптике можем пользоваться всеми перечисленными методами. Из результатов эксперимента следует, применение вышеперечисленных методов ведет к эффективной организации самообразования. Такая организация даёт качественное образование.

Современное общество запрашивает индивида способного самостоятельно учиться и многократно работающего над собой в течение всей жизни, готового к самостоятельной организации своей учебно-познавательной деятельности. В методических рекомендациях обучающимся по организации

самообразования. При выборе обучающимся уровня сложности задания, учитель на консультации может оказать помощь, которая может быть выражена:

- в демонстрации уровня предметных и метапредметных знаний и умений, сформированных у обучающихся, выявленных и являющихся базой для его выполнения;

- в ориентации обучающихся в возможных путях разрешения учебной проблемы, возникшей у него при выполнении задания и создании отчета по его выполнению;

- в рекомендации и ориентации в источниках учебной и научной информации, необходимых для ознакомления при выполнении заданий, обучающимся, находящимся на разных уровнях сформированности знаний по физике;

-в формировании заданий в виде исследований.

Вывод: Из выше написанных можно сделать вывод, как учителя физики, организовать учебную деятельность таким образом, чтобы полученные знания с использованием разных методов при организации самообразования для учащихся были результатом их собственных поисков. Применение этих методов в обучении физике объясняется также необходимостью решения проблемы поиска путей и средств активизации познавательного интереса учащихся, развития их творческих способностей, стимуляции умственной деятельности.

Особенностью организации самообразования является то, что центром деятельности становится студент, который исходя из своих индивидуальных способностей и интересов, выстраивает процесс познания. Учитель должен выступать в роли помощника, консультанта, поощряющего оригинальные находки, стимулирующего активность, инициативу и самостоятельность. Организуя самообразования с помощью различных методов, мы добиваемся успеха: результаты обучения становятся выше. Экспериментальная работа, организованная на основе модели процесса самообразования студентов подтвердила эффективность и возможность целенаправленного педагогического влияния на этот процесс. В то же время, проведенное исследование наметило вопросы, требующие дальнейшего изучения со стороны психологов, методистов и представителей других отраслей наук. Представляют огромный интерес проблемы соотношения организации и самоорганизации самообразовательной деятельности студентов в зависимости от конкретных условий.

ЛИТЕРАТУРА

1. К. Избранные педагогические труды /Сост.М.Ю.Бабанский. - М.: Педагогика, 1989. - 560с.
2. Береговой Я.А. Классно-урочная система, или как учиться и учить //Педагогка толерантность №1-2, 1997. С.39-78
3. Бондаревский В.Б. Воспитание интереса к знаниям и потребности к самообразованию.-М.: Просвещение, 1985. 144с.
4. Вергелее Г.И., Лутанский В. Д. Методика и техника самообразования Содержание и методика самообразования педагогов-воспитателей: Сб.научлр./Отв.ред. П.Г.Пшебельский.-М.: АПН СССР. 1984. С .33-39
5. Садриддинов Н., Рахимов А., Мамадалиев А., Жамалова З. «Физика Основы стиля обучения »Ташкент. Узбекистан. 2006 г.
6. Анцулевич В.И., Дорофейчик В.В., Жилко В.В., Маркович Л.Г., Пенязь В.А.9-11 классы. Руководство для учителя. 2-е изд. - Мн .: Аверсев, 2012.
7. Белолипецкий С.Н. -Олимпиадные задания по физике для учащихся десятых классов- 2013.
8. Бабаходжаев Ю.С., Исманова О.Т., Саипов Ж.Ж. «Формирование у студентов углубленного анализа физических процессов путем оценки граничных значений физических величин». НамГУ, Научный вестник.
9. Башкатов Ю.Л., Баткин В.И., Лежнин С.И., Савченко О.Ю., Физика в задачах, 2013.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:101.1

Yulduz NAMAZOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Falsafa va Ma’naviyat asoslari” kafedrasi falsafa doktori (PhD)
E-mail: yulduz.namazova@list.ru
ORCID: -0000-0001-9386-4868

Falsafa danlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

MODERN CONCEPTS OF EDUCATION AND EDUCATION: TRADITIONALITY, BEHAVIORISM AND PRAGMATISM

Annotation

In this article, the modern concepts of education and upbringing, as well as the constant updating and advancement of modern foreign pedagogy, among the most common didactic concepts in American and Western European pedagogy, are the traditional paradigm, the rationalist model, and the phenomenological direction, as well as the It is stated that the psychological-pedagogical theories of personality development include neo-existentialism, behaviorism, pragmatism, Freudianism, and others.

Key words: Philosophy, education, essence, enlightenment, upbringing, consciousness, man, society, country, didactics, theory, paradigm.

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ: ТРАДИЦИОННОСТЬ, БИХЕВИОРИЗМ И ПРАГМАТИЗМ

Аннотация

В данной статье современные концепции образования и воспитания, а также постоянное обновление и продвижение современной зарубежной педагогики, среди наиболее распространенных дидактических концепций в американской и западноевропейской педагогике выделяют традиционную парадигму, рационалистическую модель и феноменологическую модель. направления, а также утверждается, что к психолого-педагогическим теориям развития личности относятся неоэкзистенциализм, бихевиоризм, прагматизм, фрейдизм и другие.

Ключевые слова: Философия, образование, сущность, просвещение, воспитание, сознание, человек, общество, страна, дидактика, теория, парадигма.

TA’LIM VA TARBIYANING ZAMONAVIY KONTSEPTSIYALARI: AN’ANAVIYLIK, BIXIVIORIZM VA PRAGMATIZM

Аннотация

Ushbu maqolada ta’lim va tarbiyaning zamonaviy kontseptsiyalari, shuningdek, zamonaviy xorijiy pedagogikaning doimiy ravishda yangilanib, borilishi, Amerika va G‘arbiy Yevropa pedagogikasida eng keng tarqalgan didaktik tushunchalar orasida an’anaviy paradigma, ratsionalistik model va fenomenologik yo‘nalish, shuningdek, ta’lim jarayonida shaxsni rivojlantirishning psixologik-pedagogik nazariyalari neoekzistensializm, bixeviorizm, pragmatizm, freydizm, va boshqalar o‘rin olganligi haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Falsafa, ta’lim, mohiyat, ma’rifat, tarbiya, ong, inson, jamiyat, mamlakat, didaktika, nazariya, paradigma.

Kirish. Didaktikadagi an’anaviylik madaniy qadriyatlar relyefi sifatida ta’limning konservativ rolini saqlab qolish g‘oyasiga amal qiladi. Ta’lim yangi avlodlarga o‘tmish madaniyatining universal elementlarini o‘tkazish sifatida qaraladi. An’anaviylik vakillarining standartlashtirilgan dasturlari, an’anaviy o‘quv fanlarini o‘rganishni nazarda tutadigan tizimli akademik ta’limga yangi xususiyatlar berish niyatida J.Magjot, E.Charte, L.Kro, J.Kapel (Fransiya), G.Kavelti, D.Ravich, Finn (AQSH) va boshqalarning an’anaviy dasturlarini ijtimoiy-pedagogik konsepsiyalari to‘g‘risida bahs yuritiladi.

Bixiviorizm (inglizcha – xatti-harakat) – texnokratik ta’limning psixologik-pedagogik tushunchasi bo‘lib, u insoniyatning fan sohasida so‘nggi yutuqlariga asoslangan ta’limni nazarda tutadi. Insoniyatning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, xatti-harakatlarini belgilovchi omillarni o‘rganishning zamonaviy usullaridan foydalana olish deya tushuntiradi.

Ta’limning ratsionalistik modelini ishlab chiquvchilar: P.Blum, R.Gagne, B.Skinner (AQSH), O.Fink (Germaniya) va boshqalar – birinchi navbatda ta’lim berish orqali yoshlarning asosiy bilim va qobiliyatlarini jamiyatga amaliy moslashtirish muammosiga asosiy e’tiborlarini qaratdilar. Ular har qanday ta’lim dasturini ta’lim jarayonida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning “xulq-atvor repertuariga” aylantirish mumkinligini ta’kidlaganlar. Ta’limning ratsionalistik modeli “zavod maktabi” ma’nosi tasvirida yaxshi yoritilgan: “Insonga xom ashyo sifatida qaraladi, to‘g‘ri boshqarilsa va ta’sir ko‘rsatish usullari ratsional qo‘llanilsa, moslashuvchan bo‘ladi”. Maktab bilimlari ratsionalistlar tomonidan obyektiv omillar tizimi sifatida qaraladi. O‘qituvchi – “maktab-zavod”dagi “menejer” – “menedjerlar” bilim va faktlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini tartibga soladi. Bu erda o‘quvchilarning roli asosan passivdir.

Fenomenologik yo‘nalish vakillari orasida ta’limga turli rakursda qarash nuqtai nazari bo‘yicha – Abraxam Maslou nomi jahon ilmiy hamjamiyatida ma’lum va mashhur. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari ta’lim va shaxsiy tarbiyani insonparvarlik yo‘nalishini birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Ta’limning insonparvarlik asoslangan bu yo‘nalish tarafdorlari maktabni “ishlab chiqarish konveyyeri” sifatida baholashdan bosh tortishadi, ular maktabda beriladigan ta’lim, insonning shaxsiy ehtiyojiga qaratilgan va o‘quvchini qobiliyat va iste’dodini ochishga undaydigan motivatsiya bo‘la oladigan eng yuqori e’tiyoj maskani zarur deb hisoblashadi.

Gumanistik psixologik maktab etakchilari: A.Kombs, A.Maslou, K.Rojers (AQSH) – o‘quvchi shaxsini hurmat qilishni talab qildilar, o‘qitish uslubi va usulini o‘zgartirish taklifi bilan chiqishadi. O‘qituvchilarni e’tiborli va hushyorlikka chaqirdilar. K.Rojers bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlari xususida o‘zining “Shaxsning shakllanishi to‘g‘risida”gi kitobida “Men-konsepsiya” sini tushuntirib, bolani haqiqiy fikr va his-tuyg‘ulariga muvofiq tarzda harakat qilishga o‘rgatishni taklif qiladi; “o‘zingizni tinglashni”, “o‘zingiz bilan bo‘lishni”, “boshqa odamlarni tushunish”ni o‘rganish muhimligini maslahat beradi.

Ta’lim jarayonida shaxs rivojlanishining psixologik-pedagogik nazariyalari o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektiv va idealistikdir. Bu shuni anglatadiki, ulardagi ta’lim va tarbiya jarayoni inson shaxsini – psixofiziologik faoliyatning xususiyatlarini, uning inson rivojlanishiga ta’sirini, uning xulq-atvorini tushunishga biologik yondashuv asosida tushuntiriladi. Ta’lim va tarbiya maqsadlari, qoida tariqasida, shaxsning o‘zini o‘zi anglashiga to‘g‘ri keladi va amalga oshirishning asosiy usuli – bolaning to‘liq erkinligi, xatti-harakatlarida cheklovlarning yo‘qligidadir.

G‘arbiy Yevropa va Amerika maktablarida ta’lim jarayonining insonparvarlik yo‘nalishi klassik ekzistensializm nazariyasi – inson shaxsi mavjudligi falsafasi (metodi) (lotincha – “ekzistensia” – borliq)ning ifodasidir. Klassik ekzistensializm vakillari: G.Marsel, M.Xaydegger, J.P.Sartr, A.Kamyu, N.A.Berdyayev va boshqalar XX asrning birinchi yarmida burjua falsafasida irratsionalistik oqim yaratdilar. Unda “erkinlik”, “mavjudlik” tushunchalari subyektivistik deb talqin etiladi, ya’ni ular insonni ratsionalistik jihatdan tushunishga qarshi turadilar. Ularning talqinicha subektivistik – hodisalarni shaxsiy kayfiyat va hamdardliklarga qarab baholashni olib keladi, ya’ni voqelik ishtiyoqsiz, qat’iy ilmiy o‘rganilmaydi, ratsional mavjudot va faqat hissiy-axloqiy konteksda ko‘rib chiqadi deya ta’kidlashadi.

Ekzistensializm nazariyasiga ko‘ra, har bir individ o‘zining namoyon bo‘lishida yagona va sharoitlardan xoli shaxsdir. Bundan ta’limning vazifasi – ana shunday ichki erkinlikning namoyon bo‘lishiga yordam berish, o‘zining betakror hayoti “men”ni ro‘yobga chiqarishda har bir xatti-harakati bilan o‘zini shakllantirishda yordam berishdan kelib chiqadi.

Pedagogikadagi biopsixologizm yoki neoekzistensializm vakillari ta’limdagi kamchiliklarni konstruktiv tanqid qiladilar, o‘quvchilarning qiziqishlari, ruhiyati va individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladilar.

XX asrning boshlarida bo‘lgani kabi, o‘quv jarayonini talqin qilishda ratsionalistik (pragmatik) yo‘nalishi bilan bixeviorizm nazariyasi hozirda G‘arbiy Yevropa va AQShda psixologlar va o‘qituvchilar orasida keng e’tirof etilgan. Bixeviorizm asoschilari: B.Skinner, u D.Uotson, E.Torndayk va boshqalar – o‘z vaqtida inson xatti-harakatining tashqi qo‘zg‘atuvchilar bilan shartliligi to‘g‘risidagi mexanik konsepsiyani taklif qilganlar. Ushbu psixologik-pedagogik nazariyaning pedagogik qo‘llanilishi o‘quv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan rag‘batlantirish tizimining maxsus tanlovi edi.

Ushbu tendensiyaning zamonaviy vakillari, masalan, amerikalik R.Major, maktab ta’limini ijtimoiy sharoitga moslashtirishga intiladi. O‘quvchini bilim, ko‘nikma va malakalarning passiv “qabul qiluvchisi” deb hisoblab, texnokratik pedagogika va undan kelib chiqadigan maktabning ratsionalistik modelini taklif qiladilar. Ushbu tizimdagi har bir o‘quvchi nafaqat ta’lim, balki ta’lim sohasida ham aniq dastur oladi. Natijada, o‘quv jarayonida mustaqil fikrlash , ijodkorlik va psixo-emotsional sohani rivojlantirish bilan bog‘liq didaktik maqsadlar shakllanadi.

Zamonaviy neofreydchilar yoki psixoanalitik nazariya vakillari: K.Byutner, A.Freyd va boshqalar Z.Freyd kabi inson xarakterini va uning harakatlarini noma’lum psixik jarayonlar bilan izohlabgina qolmay, balki shaxsning ayrim xususiyatlarini, uning xulq-atvor motivlarini aniqlash va tuzatish uchun psixoanalizdan foydalanadilar. Neofreydchilarning fikriga ko‘ra, o‘qituvchi psixologik va pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lishi, “bolani o‘zi kabi his qila olishi”, tabiiy qonuniyatlarini tushunishi kerak. Bunda psixologik jarayonlarning ishlashi; guruhda munosabatlar mohiyatini tushunish, o‘qitish va tarbiyalashning o‘yin usullarini o‘zlashtirish muhimdir. Shaxsni rivojlantirish muammosida, ta’lim tizimlarida bu kabi turli rivojlantirish usullaridan foydalanish orqali ta’sir ko‘rsatish hozirda butun dunyoda mavjud.

Pragmatizm – ta’limning hayot bilan uzviylikda olib borishga yaqinlashishini ta’minlash, amaliy faoliyatda ta’lim maqsadlarni rejalashtirish va bosqichma bosqich rejaga muvofiq amalga oshirish va foydali natijalarga erishishni targ‘ib qiluvchi falsafiy va pedagogik yo‘nalish.

Pragmatik falsafa asoschilari Charlz Chanders Pirs (1839-1914) va Uilyam Jeyms (1842-1910) idealizm va materializmdan tashqarida turgan yangi ta’lim falsafasi yaratishga da’vo qildilar. Ilk pragmatistlarning g‘oyalari amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui (1859-1952) tomonidan ishlab chiqilgan. U ularni instrumentalizm deb atashni afzal ko‘rgan tizimga olib keldi. Ushbu tizimning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: Ta’limni ta’limdan ajratmaslik kerak. Ta’lim jarayonida bolalarning o‘z faoliyatiga tayanish, uni har tomonlama rivojlantirish va rag‘batlantirish kerak. Ta’lim va tarbiya nazariy mavhum shakllarda emas, balki aniq amaliy ishlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi, bunda bolalar nafaqat dunyo bilan tanishadilar, balki birgalikda ishlashga, qiyinchiliklar va kelishmovchiliklarni engishga o‘rganadilar. Ta’lim jarayoni bolaning manfaatlariga asoslangan bo‘lishi kerak.

60-yillarda. pragmatizm falsafasi va unga asoslangan pedagogika o‘z mashhurligini yo‘qotdi. J.Dyui g‘oyalariga muvofiq ta’lim jarayonining amaliy yo‘nalishi ta’lim va tarbiya sifatining pasayishiga olib keldi. Ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitida yanada mustahkam va intizomli bilim va xulq-atvor tamoyillariga ega bo‘lgan odamlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bu 70-yillarda neopragmatizm bayrog‘i ostida qayta tiklangan klassik pragmatizmni qayta ko‘rib chiqish va modernizatsiya qilishga olib keldi.

J.Dyuining uslubiy ko‘rsatmalari yangi tamoyillar bilan to‘ldirildi, ta’limni shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni sifatida tushunishning yangi tendensiyalariga moslashtirildi.

Ta’limning neopragmatik konsepsiyasining asosiy mohiyati shaxsning o‘zini o‘zi tasdiqlash – axborotni mustaqil ravishda olish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish qobiliyati, oqilona va samarali yashash qobiliyati tarbiyalanishi nazarda tutiladi. Uning tarafdorlari (T.Brammeld, E.Kelli, A.Kombs, A.Maslou, K.Rojers, S.Guk va boshqalar) ta’limning individualistik yo‘nalishini mustahkamlaydilar. Neopragmatistlar shaxsning harakatlari va baholashlarida to‘liq o‘zboshimchalikni himoya qiladilar. Bundan tashqari, shaxsning bu xatti-harakatida ular uning faolligi va nekbinligining manbasini ko‘radilar, chunki u o‘z harakatlarida hech narsa bilan bog‘liq bo‘lmaydi, u faqat o‘z xohish-istaklari, irodasi bilan boshqariladi. Tanqidlarga va ko‘plab qoidalarni inkor qilishiga qaramay, neopragmatizm Amerika pedagogikasida etakchi tendensiya bo‘lib qolmoqda va G‘arb dunyosining boshqa mamlakatlarida tobora keng tarqalmoqda.

Tarbiyaning qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik faoliyatdagi natija bolaning rivojlanish xususiyatlarini va ta’lim jarayonining qonuniyatlarini o‘zaro bog‘laydi. Ta’lim shakllari va ta’limning tarkibiy qismlari o‘rtasida barqaror va takrorlanib turadigan muhim aloqalar mavjud. Aynan mana shu tarkibiy qismlar ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlashga yordam beradi.

N.YE.Shurkova: “Ta’lim qonuniyatlarini bilish maqsadga erishishga, ijodkorlikka yo‘l ochadi, kasbiy ish beradi, engillik, va quvonch keltiradi” –deya ta’kidlaydi[10].

Pedagogikada ta’limning pedagogik qonuniyatlari muayyan sharoitlarda barqaror, takrorlanadigan muhim umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan ta’lim jarayonining obyektiv realligini aks ettiradi.

Quyidagi ta’lim qonuniyatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

ta’lim jarayoni faqat bolaning faoliyati va uning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati asosida amalga oshiriladi;

ta’lim va rivojlanish faoliyati nima bilan to‘ldirilganligi ma’lum bir bolaning psixikasi va ko‘nikmalarini rivojlantirishning hozirgi paytdagi haqiqiy individual ehtiyojlari bilan belgilanadi;

birgalikdagi o‘quv jarayonida bola va o‘qituvchining harakatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsionaldir;

bolaning sifatli rivojlanishi uning yaxshi niyat va xavfsizlik sharoitida his-tuyg‘ulari va munosabatlarini erkin ifoda etish huquqini amalga oshirish bilan mumkin;

ta’lim faoliyatining har bir epizodi o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan muvaffaqiyat sharoitida yashovchi bola bilan birga bo‘lishi yoki tugatilishi kerak.

Bu qonuniyatlar ta’lim va o‘quv jarayonlarining metodlari, vositalari va mazmuniga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni aks ettiradi.

Ta’limning asosiy tamoyillari ana shu qonuniyatlarga asoslanadi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’lim shakllarini tasniflashning keng doirasi mavjud. Ulardagi namunalar soni uch yoki undan ortiq uchraydi.

Ta’limning salbiy natijasi ta’lim munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi Bular: maqsadga muvofiqligi va unga erishish bilan bog‘liq tashkil etiladigan harakatlarning sustligi, tarbiyada amaliyot ta’sirining kamligi, obyektiv va subyektiv omillar, ta’limda o‘z-o‘zini tarbiyalash intensiv ravishda amalga oshmasligi, rivojlantirish va tayyorlash samaradorligiga nisbatan loqaydlik, o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri kamligi, o‘quvchining “ichki qobiliyatiga” ga ta’sir ko‘rsata olmaslik, pedagogik harakat bilan tarbiyalanuvchining imkoniyatlari muvofiqlashtirilmaslik bir qaator muammoli vaziyatlarni olib keladi.

G.M. Afonina ta’limning barcha modellarini uch guruhga ajratadi:

1. Ijtimoiy model. Bu ta’limning jamiyat va uning madaniyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liqligini aks ettiradi.

2. Aqliy model. Bu insonning tabiatiga, uning ruhiy xususiyatlariga qarab, ta’lim va rivojlanish munosabatlarini aks ettiradi.

3. Pedagogik model. Ta’lim jarayonining mohiyatini anglatadi.

Ta’lim jarayonining eng umumiy qonuniyatlari:

bola tarbiyasi o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan faoliyat va muloqotda amalga oshiriladi;

ta’lim jarayonining belgilovchi roli – shaxs, jamiyat o‘rtasida va ta’lim subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar yig‘indisini anglatadi;

ta’lim jarayonining maqsadlari – uning mazmuni, usullari, shakllari va natijalarining o‘zaro bog‘liqligida amalga oshadi.

Tarbiya tamoyillari – ta’lim jarayonining mazmuni, usullari va tashkil etilishiga qo‘yiladigan asosiy talablarni ifodalovchi umumiy boshlang‘ich qoidalardir. Bu o‘qituvchining harakatlarini belgilaydigan, ma’lum qoidalar va shartlarga rioya qilishni tavsiya qiladigan etakchi g‘oyalardir. Ta’lim tamoyillari ta’lim qonuniyatlariga asoslanadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta’lim tamoyillarini tasniflashning turlicha yondashuvlari aks ettirilgan.

Yaxlit pedagogik jarayon kontekstida prinsiplarning ikki guruhi ajratiladi: pedagogik jarayonni tashkil etish tamoyillari va o‘quvchilar faoliyatini boshqarish tamoyillari.

Ko‘pchilik olimlar ta’lim va tarbiya tamoyillarini alohida ko‘rib chiqadilar. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarida taklif qilingan tasniflar o‘xshash, ammo farqlari mavjud.

Birinchidan – ayrim pedagogik nashrlarda tamoyillar mazmuni va qonuniyatlari nomini takrorlaydi (I.F.Xarlamov).

Ikkinchidan – tasniflar ta’lim tamoyillari soni va ularning nomi bilan farqlanadi.

Uchinchidan – tamoyillar tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari bilan ajralib turadi.

Ko‘pgina pedagogik nashrlarda keltirilgan ta’lim tamoyillari tasniflarini tahlil qilish asosida ularni ikkita blok shaklida taqdim etish maqsadga muvofiqdir (L.I. Petrova): Birinchi blok an’anaviy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi: ta’lim jarayonining maqsadga muvofiqligi; ta’lim jarayonining birligi va yaxlitligi; ta’limning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi; boladagi ijobiylikka asoslangan tarbiya; individual, yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda; hurmat va talabchanlik birligi; jamoaviy tarbiya. Ikkinchi blokda biz innovatsion tamoyillarni ko‘rib chiqamiz: ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish; ta’lim jarayonini demokratlashtirish; ta’limning madaniy muvofiqligi; ta’limning tabiiy muvofiqligi; ta’lim jarayonining timsoli.

Xulosa. Ta’lim jarayoni asos bo‘ladigan tamoyillar tizimni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda ta’lim tamoyillari tizimi o‘zgarishlarga duch keldi. U ta’limning yangi paradigmasi ta’sirida shakllangan va uning asosiy qoidalari va munosabatlarini aks ettiradi.

Ta’lim jarayonida insonparvarlik tamoyili bola shaxsini munosabatlar tizimidagi asosiy qadriyat sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi va uning qobiliyatlarini rivojlantirish huquqini amalga oshiradi. Barcha ta’lim ishlari ko‘p qirrali shaxsni shakllantirish vazifalariga bo‘ysunishni talab qiladi natijada barkamol rivojlangan shaxs tarbiyalanadi. Asosiy qoidalar quyidagilardan; bolaga ishonch, uning o‘ziga xosligini tushunish, undagi shaxsiyatni ko‘ra olish, bolaning ma’naviy va jismoniy salomatligiga rahna soluvchi tajovuzlardan himoya qilish, bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanishdan iborat bo‘ladi.

Shaxslashtirish prinsipi (shaxsiy yondashuv) shaxsiy fazilatlarga tayanish sifatida tushuniladi, chunki ular ta’lim uchun juda muhim bo‘lgan xususiyatlarni – shaxsning yo‘nalishini, uning qadriyat yo‘nalishlarini, munosabatlarini, faoliyat va xulq-atvorning dominant motivlarini ifodalaydi. Ta’limga shaxsiy yondashuv pedagogdan o‘z o‘quvchilarining temperamenti, xarakter xususiyatlari, qarashlari, didining individual xususiyatlarini doimiy ravishda o‘rganish va yaxshi bilishni talab qilgan holda ularning fikrlash tarzi, motivlari, qiziqishlari, mehnatga munosabati va boshqalarning haqiqiy shakllanish darajasini diagnostika qila olishi lozim. Har bir o‘quvchini doimiy ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan va tobora murakkablashib borayotgan o‘quv faoliyatiga jalb qilishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashning maqsadlari, usullari, shakllarini tanlashda ko‘maklashishi o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishi lozimdir. Bu jarayonda maktabgacha ta’lim muassasalari va maktab uzviylik bilan bog‘langan bo‘lib, bu bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning uzluksiz olib borilishi nechog‘lik muhim ekanligini belgilab beradi. Xalq ta’limiga bo‘lgan ehtiyoj va maktabgacha ta’lim muassasalariga talablarning oshirilishi, bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasasining pedagogik funksiyasi birinchi o‘rinda turishini belgilab berdi. Bunda har bir pedagog Fenomen shaxs sifatida ko‘rildi. Bolalar bog‘chada, keyin esa maktabda qanchalik muvaffaqiyatli tayyorlanadi? Bu tarbiyachi va o‘qituvchining bola bilan

munosabat o‘rnata olish qobiliyatini belgilab beradi. Ta’lim usullari va shakllariga tegishli tarbiyaning mazmunini chuqur tushunishi va bolani rivojlantirish missiyasi mas’uliyatini olgan holda, pedagog ijtimoiy mavqei ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ayni paytda bog‘cha va maktab o‘rtasida uzviylikni yo‘lga qo‘yish borasida ham maqsadli ishlar olib borilishi kerak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. “Learning to be”. The world of education today and tomorrow. Paris, 1972.
2. “Learning to be”. The world of education today and tomorrow. Paris, 1972; A university of the Future. The Hague M., Nijhoff, 1974. Вульфсон Б.Л. Университет будущего: прогнозы и мифы. / Сов. педагогика. 1975. № 4;
3. Обзор рекомендаций и международных организаций по вопросам развития систем образования. М. 1976.
4. Дьюи Д. Реконструкция в философии. Проблема человека : пер. с англ. М. : Республика, 2003.
5. Образы образования. Западная философия образования. XX век.
6. Спенсер Г. Воспитание умственное, нравственное и физическое. URL: http://lib.kclais.kiev.ua/files/vospitanie.pdf (дата обращения: 25.04.2017).
7. Лапшина В. С. Философия образования: на пути к формированию новой области знаний // Философия и общество. Вып. № 4 (72). 2013.
8. Онтология гуманной педагогики / сосг. Н. Н. Дорофеева, А. Г. Шишкина. М. :ИД Ш. Амонашвили, 2004. Вып. 9. Спенсер.
9. Делор Ж. Образование: сокрытое сокровище. UNESCO, 1996.
10. Щуркова Н.Е. Воспитание детей в школе. Новые подходы и новые технологии. Ростов на-Дону: Издательство «Учитель», 2001.- с168.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:81.1.2

Barno NORBEKOVA,
O‘ZMU Jizzax filiali Yoshlar psixologiyasi kafedrasi mudiri, (PhD)
E-mail: norbekova@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori, professor B.Muhammadov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF YOUNG PEOPLE IN THE FAMILY

Annotation

The article discusses the psychological factors that influence the development of ethnopsychological characteristics of young people in the family, including family environment, national environment, assimilation of national relations, socialization of the individual.

Key words: Ethnopsychology, family, psychology, youth, education.

OILADA YOSHLARNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya

Maqolada oilada yoshlarning etnopsixologik xususiyatlari pivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, jumladan oila muhiti, milliy muhit, milliy munosabatlarni o‘zlashtirib borishi, individning ijtimoiylashishi kabilar xususida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Etnopsixologiya, oila, psixologiya, yoshlar, tarbiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ В СЕМЬЕ

Аннотация

В статье рассматриваются психологические факторы, влияющие на развитие этнопсихологических особенностей молодежи в семье, включая семейную среду, национальную среду, усвоение национальных отношений, социализацию личности.

Ключевые слова: Этнопсихология, семья, психология, молодежь, образование

Kirish. “Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga dahildorlik hissini kuchaytirish, shu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda. Ayni paytda ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish masalalari yanada dolzarblashmoqda” deb fikr bildiradi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev [1].

Ijtimoiy hayotni falsafiy idrok etishda jamiyat va kishilar ongiga ijtimoiy turmushning muhim ta’siri namoyon bo‘ladi. Xalq hayotida po‘y bepgan muhim tarixiy jarayonlar va voqealar ayni paytda uning psixologik qiyofasida o‘chmac iz qoldiradi. Buni biz har bir xalqning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan g‘oyalar va tasavvurlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning fikricha, inson tarbiya va ijtimoiy muhit ta’siri bilan yaxshi yoki yomon, munosib yoki nomunosib bo‘lishi mumkin. Navoiy shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liq qadriyatlar rivoj topa olmasligiga urg‘u beradi. Jumladan, jamiyatning a’zosi bo‘lgan har bir kishi o‘z xalqiga xizmat qilishi, foyda keltipishi, xalq manfaatini o‘z manfaatidan uctun qo‘yishi kabi qadriyatlarning rivoj topishini ta’kidlaydi [2].

Tadqiqotchilarning e’tiroficha, shakllangan milliy psixologik xususiyatlar ma’lum darajada xalq ruhiyatini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o‘ynaydi. U yot narsalarni xuddi elakdek ajratadi, uni yo qabul qiladi, yoki shu xalqda mavjud amaliy me’yorlar asosida qayta ishlab beradi, yohud uni inkor etadi. Atrofdagi voqelikni, hodisalarni o‘ziga xos idrok, tafakkur, tasavvur qilish va ta’b, tuyg‘u, urf - odat, an’ana, xarakter tarzida namoyon bo‘lishi milliy psixologik qiyofaning qaytarilmas xususiyatlarini tashkil qiladi.

Ma’lum bir millat vakillarining voqelikni o‘ziga xos idrok etishi, fikrlashi, orzu - istaklari, oliy psixik xususiyatlarini tushunish va tushuntirish uchun, uning namoyon bo‘lish sabablarini organizm yoki miya tuzilishidan emas, balki yuqorida aytganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, tabiiy muhitning shart - sharoitlaridan qidirish kerak. O‘tkazilgan ko‘plab tajribalar shuni ko‘rsatadiki, murakkab bilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy jarayonlargina emas, balki nicbatan oddiy ruhiy jarayonlar va funksiyalar ham inson tug‘ilishi bilanoq namoyon bo‘lmaydi, ular voqelikdagi hamma napca va hodicalar kabi hayotdagi ijtimoiy - tarixiy sharoitlar asosida vujudga keladi. Ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, geografik muhit, avvalo, inson faoliyatini va bu faoliyat, o‘z navbatida, ruhiy jarayonlar va ongning tuzilishini belgilaydi.

Quyida qanday qilib, etnik birlikka xos xususiyatlar insonda shakllanadi? - degan savol uctida to‘xtalishga harakat qilamiz. Biz mazkur savolga qisman javob topish uchun tarix, etnografiya, falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlarining ma’lumotlaridan, shuningdek, O‘zbekistonning hozirgi hududida yashagan kishilarning fe’l – atvori ifodalangan mavjud ashyoviy dalillar va qo‘lyozmalardan foydalandik. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodidagi folklorini psixologik jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Bola hayotining birinchi kunidan boshlaboq, ixtiyorsiz holda o‘zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta’sirlar va taassurotlar ostida shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jihatdan pivojlanishi uchun ta’sir etayotgan bu informatsiyalar turli sotsial muhit va geografik sharoitlarda bir

xil bo‘lmaydi. Mana shu turli xil muhit va informatsiyalarning turfa xilligi bir-biriga o‘xshamaydigan xalqlarni yaratadi.

Gapchi hap bir inson ma’lum dapajada muctaqil yashash va faollik ko‘pcatishga ega bo‘lca ham lekin hayotda u faqat o‘z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o‘zi yashab tupgan cosial muhit va o‘zi mac’ul bo‘lgan xalqning tajpiba, bilim va e’tiqodlarini ham o‘zlashtipib bopadi. Chunki, odam o‘zi yashab tupgan cosial muhitda butunlay chiqib ketib, yashay olmaydi.

“Haqiqat va xolislikdan yiroq bo‘lgan, faqat g‘arazli siyosiy manfaatlarni ko‘zlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmaydi va hech kimning obro‘siga obro‘ qo‘shmaydi, albatta. Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o‘z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini o‘ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas”- degan edi Respublikamizning Birinchi prezidenti I.A. Karimov [3].

Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo‘lgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili bo‘la oladi. Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti-harakatlaridan botiniy ya’ni, «aqliy» xususiyat-lariga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi.

Individning ijtimoiylashishi, milliylashishi ona tilini o‘zlashtirish bilan ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Milliy tilni bilmaslik esa etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarning mohiyatlarini anglab olishga to‘sqinlik qiladi. Chunki, fikr ifodasi uchun ishlatiladigan so‘zlarda milliy o‘ziga xoslik yotadi.

Tafakkur bilan til va nutq o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi uchun rus tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo‘lib o‘zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqda, tilda reallashadi, moddiylashadi.Ular o‘zbekcha gaplashishga o‘rganganlaridan keyin ham, ruscha fikrlab, o‘zbekcha gapirishga harakat qiladi. Ruscha tafakkur tarzi bilan o‘zbekcha gapirish juda qiyin.

Boshqa millat vakili voqelikni o‘zbekning ko‘zi bilan ko‘rib o‘zbekona tafakkup tarzi bilan idrok eta olgandagina, u chinakamiga o‘zbekcha fikr yuritib, o‘zbekcha gapira boshlaydi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek ko‘rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib yetish miyaning tug‘ma xususiyati bo‘lmay, bu xususiyatni u turmush tajribasi asosida hosil qiladi. Shuning uchun ham turli tabiiy sharoitlarda va sotsial muhitda yashab voyaga yetgan kishilar turli hodisa va voqealarni idrok etishda o‘ziga xos sotsial – psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Afrika qit’asidagi ijtimoiy taraqqiyotdan qolib ketgan ba’zi qabila bolalari tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarni, hodisalarni esda olib qolishda ajoyib xotira namunalarini ko‘rsatishgan. Ular ov qilinadigan so‘qmoqlarni topish, yovvoyi hayvonlar izini farqlash, o‘rmon ichida orientirovka qila olish kabi vazifalarni bajarishda Yevropalik tengdoshlariga qaraganda, bir muncha ustunlik qilsa-da, geometrik shakllarni deyarli farqlay olmaganlar.

Inson sotsial zot sifatida ma’lum milliy munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o‘z-o‘zidan stixiyali ravishda o‘zlashtirmasdan, balki shu jamiyatda qabul qilingan ma’lum ta’lim- tarbiya tizimi orqali sekin asta o‘zlashtirib boradi. Har bir avlod vakillari ajdodlarining turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o‘zlashtirib, millat uchun umumiy bo‘lgan shart-sharoitlar ostida o‘sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularning barchasi shu millatga mos bo‘lgan umumiy psixologik xislatlarni shakllantiradi.

Oilada farzandlarning etnopsixologik xususiyatlari shakllanishi shaxsning butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo‘lib, unga bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ta’sir ko‘rsatar ekan. Xususan, oila muhiti, ota-onalar va oila boshqa a’zolarining, milliy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalar, oilada berilayotgan ta’lim-tarbiya usullari, oilaning turmush tarzi, shaxsning onglilik va dunyoqarash kengligi, milliylikni targ‘ib qiluvchi ta’sirchan tadbirlarni tashkillashtirish, ota-onalar va farzandlarning milliylikka munosabati va boshqalar muhim hisoblanadi.

Milliy oilaviy tarbiya zamirida shaxs milliy madaniy meposidan bahramandlik, o‘z xalqi tarixi, san’ati, ma’naviy–ruhiy qadriyatlari, dinni puxta bilishlari, milliy o‘zligini anglashlari, vatan, xalq, millat manfaatlari uchun mac’ullik, milliy g‘urur, milliy xapakterning sifat ko‘rcatkichlaridir; shaxsda milliy xarakterni shakllantirishda milliy axloqiy madaniyatining ahamiyati benihoya kattadir [4].

Ushbu muammoni atroflicha o‘rganib olib borilgan tadqiqotlarga tayanib quyidagicha xulosalarni qayd etish mumkin:

bolalar va o‘smirlarda etnopsixologik xususiyatlar shakllanishining psixologik omillarini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, respondentlarda milliy xislat va fazilatlar haqida yetarlicha tushuncha va qarashning mavjud emasligi kuzatildi. Shundan kelib chiqib, bolalar va o‘smirlarda milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar va etnopsixologik xususiyatlar haqidagi bilimlarni, ma’lumotlilik darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir;

respondentlarda shaxsning onglilik va dunyoqarash kengligi darajasi milliy qadriyatlarga rioya etish darajasining oshishiga xizmat qiladi degan, qapashning ustunligi - yoshlar va ota-onalar o‘rtasida onglilik, dunyoqarash kengligini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlarni kengaytirishni taqozo qiladi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida sof diniy ta’limni kuchaytirish, milliylikni targ‘ib qiluvchi ta’sirchan tadbirlarni yo‘lga qo‘yish, ota-onalarning namuna va ibrat sifatidagi ta’sip doiralarni kengaytirish talab etiladi;

sinaluvchilarning katta qismi milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarga munosabatlari yaxshi bo‘lsada, rioya etish har doim ham emas, degan javoblarni berishlari, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarga munosabat yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat bepadi. Shundan kelib chiqib, milliylik, etnik mansublik, milliy tuyg‘u, millatparvarlik kabi xislat va fazilatlarni shakllantirish borasidagi amaliy ishlarni olib borish zarurdir;

bolalar va o‘smirlarda milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarga doir o‘qiydigan ma’lumotlar yetapli emas (19,6%) javoblari hamda ularning bu bopadagi ma’lumotlilik dapajasi kelib chiqib, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarga doir ma’lumotlar bolalar va o‘smirlarni hamda ota-onalarni ta’minlab borish maqsadga muvofiq hicoblanadi;

olingan natijalarga ko‘ra, millatga xos ayrim qadriyatlar, urf-odatlar va xulq-atvor shakllari menga yoqmaydi (32,5 %), ayrimlari ma’nan eskirgan degan qarashlar ustunlik qilayotganligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, tegishli va mutasaddi tashkilotlar tomonidan o‘zbek millatiga xos bo‘lgan aypim urf-odatlar, an’analarni qayta ko‘rib chiqilishi, ularning o‘rniga millat va jamiyat taraqqiyotiga olib keladigan urf-odatlar, an’analarni targ‘ib qilish, ularni hayotga tadbiq etish ishlari bilan shug‘ullanishlari lozim;

so‘rovnoma natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, shaxsning onglilik va dunyoqarash kengligi darajasi milliy qadriyatlarga rioya etish darajasiga ta’sirining kattaligi aniqlandi. Shunga ko‘ra, oilalarda ota-onalar va farzandlar ongini, dunyoqarashini kengaytirish borasida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim sanaladi;

emperik o‘rganishlardan ma’lum bo‘lishicha, aksariyat oilalarda milliylikka rioya etish muhiti mavjud emasligi

kuzatiladi. Shunga ko‘ra, eng avvalo oilalarda milliylikka rioya qilish muhitini shakllantirish, yoshlarda milliy qadriyatlarga rioya qilish hissining oshishiga xizmat qilishini unutmagan holda oilalarda milliylikka rioya qilish muhitini yaxshilash muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти. 2022 йил. 257-бет.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул-қулуб. - Т.: Фан, 1983.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. Тошкент: “Маънавият” нашриёти. 2008 йил. 10-бет.
4. Абульханова-Славская К.А. Типология активности личности //Психология личности и образ жизни. – М., 1987. - С.10-11.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК155.2:371-044.3(045)

Surayyo NORQOBILOVA,
QarDU Psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail:norkobilovasurayyo@gmail.com

QDU Psixologiya kafedrasi mudiri psixologiya fanlari doktori(Dsc) Bahrom Jo‘rayev taqrizi asosida

DIQQAT YETISHMASLIGI GIPERAKTIVLIK SINDROMI BO‘LGAN O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL INTELLEKT

Annotatsiya

Bugungi kunga kelib, diqqat yetishmasligi giperaktivlik sindromi (DEGS) tashxisi qo‘yilgan odamlarda ushbu turdagi patologiyasi bo‘lmaganlarga qaraganda pastroq emotsional intellekt (EI) mavjudligini o‘rgangan ilmiy adabiyotlar mavjud. Tadqiqotning asosiy maqsadi DEGS bo‘lgan o‘smirlar guruhidagi BarOn nazariy modeliga muvofiq aniqlangan EIni nazorat guruhi bilan solishtirishdir.

Kalit so‘zlar: diqqat yetishmasligi giperaktivlik sindromi (DEGS), emotsional intellekt, o‘smirlar, e’tiborsizlik, impulsivlik, giperaktivlik, shaxslararo munosabatlar, moslashish.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ У ПОДРОСТКОВ С СИНДРОМОМ ДЕФИЦИТА ВНИМАНИЯ И ГИПЕРАКТИВНОСТИ

Аннотация

На сегодняшний день в научной литературе показано, что люди с диагнозом синдром дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ) имеют более низкий эмоциональный интеллект (ЭИ), чем люди без этого вида патологии. Основная цель исследования – сравнить ЭИ, определенный по теоретической модели Бар-Он, в группе подростков с СДВГ с контрольной группой.

Ключевые слова: синдром дефицита внимания с гиперактивностью (СДВГ), эмоциональный интеллект, подростки, невнимательность, импульсивность, гиперактивность, межличностные отношения, адаптация.

EMOTIONAL INTELLIGENCE IN ADOLESCENTS WITH ATTENTION DEFICIT HYPERACTIVITY DISORDER

Annotation

To date, the scientific literature has shown that people diagnosed with attention deficit hyperactivity disorder (ADHD) have lower emotional intelligence (EI) than people without this type of pathology. The main purpose of the study was to compare EI, defined according to the Bar-On theoretical model, in a group of adolescents with ADHD with a control group.

Key words: attention deficit hyperactivity disorder, emotional intelligence, adolescents, inattention, impulsivity, hyperactivity, interpersonal relationships, adaptation.

Kirish. Diqqat yetishmasligi giperaktivlik sindromi (DEGS) e’tiborsizlik va/yoki giperaktivlik/impulsivlik belgilari bilan tavsiflangan kasallikdir. Bu bolalar va o‘smirlar populyatsiyasida eng ko‘p tarqalgan neyrobiologik kasallik-lardan biridir (Polanczyk va boshq., 2015). Ispaniyada ushbu kasallikning global tarqalishi taxminan 6,8% ni tashkil qiladi va erkaklarda ayollarga qaraganda yuqori (Gonsales Collantes va boshq., 2015). Ushbu buzilishning uchta varianti mavjud: e’tiborsizlik, giperaktivlik / impulsivlik va DSM-5 mezon-lariga muvofiq kombinatsiya (Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi, 2013). DEGS tashxisi qo‘yilgan bemorlar turli yo‘riqnomalarda to‘plangan diagnostika mezonlariga qo‘shimcha ravishda va asosan ijro etuvchi funksiyalar va harakat buzilishlari bilan bog‘liq turli sohalarda va turli kontekstlarda voyaga yetmaganlarning faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadigan boshqa qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday qiyinchiliklardan biri bu bolalarning o‘z his-tuyg‘ulariga ma’lum bir maqsad bilan yondashish va o‘zgartirish qobiliyatining pastligidir (Quintero va boshq., 2017).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz emotsional intellekt (EI) ushbu bilim sohasida rivojlanish uchun yaxshi nazariy asos bo‘lishi mumkinligiga ishonamiz. EI kuzatilishi mumkin bo‘lgan qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi - EI qobiliyati - (Mayer va boshq., 2008) va subyektiv o‘zini o‘zi idrok etish - EI atributi - (Petrides va Furnham, 2001). Bir tomondan, Mayer va Salovey (2001) modeli emotsional intellektni his-tuyg‘ularni idrok etish, ulardan foydalanish, tushunish va boshqarish kabi ko‘nikmalar to‘plami sifatida tavsiflaydi. U EIni shaxsning o‘z talablari va atrof-muhit bosimiga qarshi turish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi hissiy, shaxsiy va shaxslararo qobiliyatlar to‘plami sifatida belgilaydi. Ular EIni besh yo‘l bilan tushuntiradilar: o‘z-o‘zini anglash, shaxslararo munosabatlar, atrof-muhitga moslashish, stressni boshqarish va umumiy kayfiyat. Shunday qilib, EI hayotda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini muhim belgilovchi omil bo‘lib, hissiy farovonlikka bevosita ta’sir qiladi. Ushbu modelga ko‘ra, "hissiy aqlli odamlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini tan olishlari va ifoda etishlari, ijobiy o‘zini-o‘zi hurmat qilishlari, o‘zlarining qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishlari va baxtli hayot kechirishlari mumkin. Xuddi shunday, ular boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va boshqalarga tayanmasdan qoniqarli shaxslararo munosabatlarni saqlab qolish uchun ajoyib qobiliyatga ega. Ular optimistik, moslashuvchan, realistik va muvaffaqiyatli odamlardir, ular muammolarni hal qiladilar va nazoratni yo‘qotmasdan stressni yengadilar" (Bar-On, 1997, 155-156-betlar). Bu mazkur tadqiqotga asoslanadigan nazariy asos bo‘ladi.

EI erta voyaga yetgunga qadar yosh ulg‘aygan sari ortib boradi (Kong va boshq., 2017) va odatda ayollarda erkaklarnikiga qaraganda yuqori bo‘ladi(Goldenberg va boshq., 2006). Biroq, erkaklarda EIning yuqoriligi haqida (Kong va boshq., 2017) yoki gender farqlari haqida ma’lumot

berilmagan tadqiqotlar mavjud (Barahona va Alegre, 2016; Elella va boshq., 2017). Ushbu mavzu bo‘yicha adabiyotlarni ko‘rib chiqqandan so‘ng, avvalgi populyatsiyaga asoslangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, EI xususiyati o‘smirlar va yoshlarning jamiyatda o‘tkazilgan tadqiqotida DEGS belgilarining o‘rtacha va kuchli bashoratchisi ekanligi aniqlan-gan (Kristensen va boshq. 2014). Stressni boshqarish va moslashuvchanlikning yagona bashorat qilingan parametrlari e’tiborsizlik, giperaktivlik va impulsivlikdir. Craparo va boshqalar (2015) e’tiborsizlik alomatlari bo‘lgan erta o‘smirlar guruhida umumiy hissiy intellekt, moslashuvchanlik va umumiy kayfiyat pastroq bo‘lgan degan xulosaga kelgan. BarOn, Barahona va Alegrening (2016) nazariy modelini hisobga olgan holda, bolalar va o‘smirlarning klinik populyatsiyasini o‘rganish asosida, DEGS tashxisi qo‘yilgan o‘smir o‘quvchilarning intrapersonal qobiliyatlari va ijobiy taassurotlari bo‘lmagan talabalarga qaraganda ko‘proq ekanligini aniqlagan. Climie va boshqalar (2017) DEGS bilan og‘rigan bolalar hissiy tushunish, shuningdek, shaxslararo muloqot va moslashish kichik o‘lchovlari bo‘yicha pastroq ball olganligini ma’lum qilganlar.

Shunday qilib, hozirgi kunga qadar DEGS bilan og‘rigan bolalar va o‘smirlarning hissiy intellekt darajasi pastroq ekanligi haqidagi to‘plangan ilmiy dalillar bu haqiqatni qo‘llab-quvvatlash yoki rad etish uchun yetarli emas. Bu gipotezaning tasdig‘i EIni tashkil etuvchi barcha jihatlarni ko‘rib chiqadigan aniqroq terapevtik aralashuvlar zarurligini ta’kidlaydi va bu oxir-oqibatda yaxshi ijtimoiy-emotsional moslashishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, allaqachon ma’lum bo‘lganlar bilan to‘liq mos keladigan va ularning samaradorligini ko‘rsatgan yangi terapevtik strategiyalar, masalan, farmakologik davolash (Boland va boshq., 2020) yoki kognitiv xulq-atvor terapiyasi (Knouse va boshq., 2017) amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqod metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi DEGS bilan og‘rigan o‘smirlar guruhidagi Bar-On nazariy modeliga muvofiq aniqlangan EIni nazorat guruhi bilan solishtirishdir. DEGS bilan og‘rigan o‘smirlarning EI DEGS bo‘lmagan o‘smirlarga qaraganda pastroq. Tadqiqodni o‘tkazish uchun Qashqadaryo viloyatida yashovchi 12 dan 15 yoshgacha bo‘lgan 72 nafar o‘smirlar tanlab olindi. Psixometrik baholash vositasi sifatida biz Baron tomonidan Hissiy ko‘rsatkichlar- so‘rovnomasi: yoshlar versiyasi (Emotional Quotient Inventory) (EQ-i: YV) ning yoshlar versiyasidan foydalandik. Anketa 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar uchun maxsus ishlab chiqilgan. U 4 balli politomiya shkalasi bo‘yicha 60 ta savoldan iborat (1 dan = hech qachon sodir bo‘lmaydi 4 = har doim men bilan sodir bo‘ladi). U umumiy hissiy intellektni to‘rtta shkala bo‘yicha baholaydi: intrapersonal (baholanayotgan shaxsning o‘zini o‘zi bilishi va hissiy o‘zini namoyon qilishi); shaxslararo (ijtimoiy ong va shaxslararo munosabatlar, boshqa odamlar bilan qoniqarli munosabatlarga ega bo‘lish qobiliyati); moslashuvchanlik (o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyati, nizolarni hal qilishda moslashuvchanlik va samaradorlik) va stressni boshqarish (stressli vaziyatlarda his-tuyg‘ularni boshqarish va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati). Shuningdek, 3 ta o‘lchov qo‘shiladi: umumiy kayfiyat (hayotga ijobiy munosabatda bo‘lish qobiliyati), ijobiy taassurot (odam tomonidan o‘zini haddan tashqari ijobiy idrok etish) va nomuvofiqlik (bir xil turdagi narsalarga javoblarning nomuvofiqligi).

Klinik namunani tanlash uchun quyidagi kiritish va istisno qilish mezonlari oldindan belgilab qo‘yilgan:

1) DSM-5 (Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi, 2013) ga muvofiq DEGS diagnostikasi mezonlariga javob berish;

2) 10 yoshdan katta, 17 yoshdan kichik bo‘lishi;

3) oxirgi 6 oy ichida asab kasalliklar dispanserida psixologik/psixiatrik davolanmaganlik;

4) qo‘shimcha psixiatrik tashxis qo‘yilmaganlik;

5) aqliy nuqsoni yoki aqliy zaifligi bo‘lmaslik.

Tahlil va natijalar. Ma’lumotlar Windows Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket (SPPS) 19-versiyasi yordamida qayta ishlandi. Guruhlar orasidagi mumkin bo‘lgan farqlarni aniqlash uchun tavsiflovchi statistika va Styudentning ko‘p tarmoqli t-testidan foydalanildi. Barcha statistik tahlillar uchun $p<0,05$ ning statistik ahamiyatlilik chegarasi ishlatilgan.

NATIJALAR

1-jadval

HK -i tavsifi: YV ballari va guruhlar o‘rtasidagi taqqoslash

HK-s: YV shakalasi	NAZORAT GURUHI M (SD)	DEGS GURUHI M (SD)	t(gl)
Interpersonal malakalar	39.05 (3.91)	35.78 (4.58)	-3.27(70)**
Intrapersonal malakalar	13.83 (3.22)	14.25 (4.69)	.46(70)
Moslashuvchanlik	29.65 (4.41)	25.03 (6.51)	-3.58(70)**
Stressni boshqarish	28.50 (4.86)	30.68 (5.45)	-1.77(70)
Jami EI	147.75 (17.02)	160.40 (14.00)	-3.46(70)**

Eslatma. HK-s: YV shakalasi = Hissiy ko‘rsatkichlar so‘rovnomasi, yoshlar versiyasi; DEGS = Diqqat yetishmasligi giperaktivlik sindromi.

* p < .05. ** p < .01. *** p < .001.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotning asosiy maqsadi DEGS tashxisi qo‘yilgan o‘smirlar guruhidagi Baron nazariy modeliga muvofiq aniqlangan EIni nazorat guruhi bilan solishtirish edi. Natijalar asl gipoteza bajarilganligini ko‘rsatdi, o‘tkazilgan tadqiqod natijasida DEGS bilan og‘rigan o‘smirlar nazorat guruhidagilarga qaraganda pastroq umumiy IEga ega ekanligi aniqlandi. Ular DEGS bo‘lmagan tengdoshlariga qaraganda shaxslararo munosabatlarda pastroq moslashuvchanlikka ega.

Barkli (2005) ga ko‘ra, DEGS bo‘lgan bolalar yuqori hissiy impulsivlikka ega bo‘ladi; ya’ni ular o‘zlarining asosiy his-tuyg‘ularini tezroq namoyon qiladilar va ularni katta qiyinchilik bilan bostiradilar. Bu boshqa xususiyatlar singari, ularning hissiy ifodasi boshqa bolalarnikiga qaraganda kuchliroq va yetarli emasligini anglatadi. Rivojlanishning bir xil darajasida, DEGS bo‘lgan bolalar ko‘proq ibtidoiy va yetuk bo‘lmagan his-tuyg‘ularni ifodalaydilar, ular ijobiy va salbiy his-tuyg‘ular uchun bir xil darajada keng (Barkley, 1999), shuning uchun ikkinchisi shaxslararo munosabatlarga va atrof-muhitga moslashish qobiliyatiga ko‘proq aralashadi.

Tadqiqotning cheklovlari orasida shuni ta’kidlash kerakki, biz so‘rovnomamani tanlashda ehtimollik tanlovidan foydalanganmiz, shuning uchun aholining barcha a’zolari tadqiqotda ishtirok etish imkoniyatiga ega emas. Shuningdek, DEGS guruhidagi ayollar va erkaklarning nomutanosib sonini ta’kidlash kerak (o‘g‘il bolalarning 78,1 foizi, qizlarning 21,9 foizi). Yana bir cheklov, DEGS bilan og‘rigan o‘smirlar uchun taxminan 30 daqiqaga teng bo‘lgan inventarizatsiyani qo‘llash vaqti bo‘ladi (EQ-i: YV). Charchoq, motivatsiya yetishmasligi yoki bayonotlarni noto‘g‘ri tushunish kabi omillar noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Bu impulsivlik va e’tiborsizlik komponentiga ega bo‘lgan subyektlarga nisbatan

qo‘llanilganligini hisobga olsak, bizning holatimizda ham xuddi shunday bo‘lishi mumkinligini istisno qilmaymiz. Biroq, biz nafaqat bu mumkin bo‘lgan xatolardan xalos bo‘lmaymiz, balki ular DEGS bilan og‘rigan o‘smirlarni baholashning ichki xususiyatlarining bir qismi ekanligiga ishonamiz.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joyizki, biz tadqiqot ishtirokchilarida mavjud bo‘lgan DEGS ning pastki turlarini (e’tiborsizlik, giperaktiv / impulsiv va kombinatsiyalangan ko‘rinish) hisobga olmadik. Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlaridan biri IE nuqtai nazaridan DEGS kichik turiga qarab farqlar mavjudligini aniqlashdir. Oldingi tadqiqotlar, masalan, Kristensen va boshq. (2014) turli xil subtiplar va ularning EI bilan munosabatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni taklif qiladi, masalan, moslashuvchanlik giperaktivlik belgilaridan ko‘ra beparvolik bilan ko‘proq bog‘liqdir. Va bu impulsivlik va giperaktivlik xususiyatlari shaxslararo munosabatlar qobiliyati va moslashuvchanlikni pasayishiga yordam beradi. Bundan tashqari, Elella va boshqalar. (2017) estrodiol kichik tip hissiy boshqaruv, tartibga solish va tiklanishda eng past ko‘rsatkichlarni ko‘rsatadi. Tadqiqotning yana bir yo‘nalishi bu farqlar vaqt o‘tishi bilan davom etadimi yoki yo‘qligini aniqlash bo‘lishi mumkin, masalan, DEGS bilan og‘rigan bolalar va o‘smirlarda yoki DEGS bo‘lgan kattalarning klinik namunalarida xuddi shu tadqiqotni takrorlash orqali longityud tadqiqotlar o‘tkazishdan iborat.

Muxtasar qilib aytish mumkinki, o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq, DEGSga chalingan o‘smirlar DEGS belgilarining namoyon bo‘lishidan qat’i nazar, bunday patologiyasi bo‘lmagan shaxslarga qaraganda pastroq EIga ega. DEGS bilan og‘rigan subyektlar tengdoshlariga qaraganda shaxslararo munosabatlarda va atrof-muhitga moslashishda past ijtimoiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi. Mazkur ma’lumotlar DEGS tashxishli kishilarda allaqachon tasdiqlangan va ko‘rsatilgan terapevtik samaradorlik bilan ideal tarzda mos keladigan maxsus terapevtik strategiyalardan foydalangan holda ma’lum EI ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, ular erta yoshdan boshlab va bola ishtirok etadigan turli kontekstlarda, shu jumladan maktab muhitida adekvat EIni rag‘batlantirish uchun korreksion dasturlar zarurligini ta’kidlaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Barahona, L. M. &Alegre, A.A.(2016). Emotional intelligence and ADHD : A comparative analysis in students of Lima Metropolitan area. Propositos y Representaciones, 4(1), 61-114.
2. Bar-On (2003). How important is it to educate people to be emotionally and socially intelligent, and can it be done? Perspectives in Education, 21(4), 300-313
3. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of emotional -social intelligence(ESI). Psicothema, 18(1), 13-25.
4. Beck SJ, Hanson CA, Puffenberger SS, Benninger KL, Benninger WB. A Controlled trial of working memory training for children and adolescents with ADHD. Journal of Clinical Child & Adolescent Psychology. 2010;39(6)825-836
5. Berlin L, Bohlin G, Rydell A M. Relations between inhibition, executive functioning, and ADHD symptomps: A longitudinal study from age 5 to 8(1/2)years. Child Neuropsychology. 2003; 9(4):255-266
6. Biederman J, Faraone S, Milberger S, Curtis S, Chen L, Marrs A, Spencer T. Predictors of persistence and remission of ADHD into adolescence: Results from a four - year prospective follow-up study. Journal of the American Academy of child and Adolescent Psychiatry. 1996; 35(3):343-351
7. Biederman J, Faraone S, Milberger S, Guite J, Mick E, Chen L, Perrin J, A prospective 4 year follow-up study of attention - deficit hyperactivity and related disorders. Archives of General Psychiatry. 1996; 53(5):437-446

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378.1:37.012.8:530.1

Abror NORTOJIYEV,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti v.v.b., (PhD)
E-mail: a.nortojiev86@gmail.com

O‘zMU dotsenti, p.f.n. D.A.Begmatova taqrizi asosida

STRUCTURE OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE CONSTRUCTION ENGINEERS

Annotation

The article studies and analyzes the structure of professional competence, signs of competence, general requirements for the professional competencies of students in the architectural and construction direction of education in technical higher educational institutions, and also examines the stages of formation of professional competence.

Key words: competence, engineer, professional competence, architectural and construction direction, physics, qualification, specialist, universities, design, integration.

СТРУКТУРА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ СТРОИТЕЛЕЙ-ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация

В статье изучены и проанализированы структура профессиональной компетентности, признаки компетентности, общие требования к профессиональным компетенциям студентов архитектурно-строительного направления образования технических высших образовательных учреждений, а также исследованы этапы формирования профессиональной компетентности.

Ключевые слова: компетентность, инженер, профессиональная компетентность, архитектурно-строительное направление, физика, квалификация, специалист, вузы, проектирование, интеграция.

BO‘LAJAK QURUVCHI-MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIK TUZILMASI

Annotatsiya

Maqolada texnika oliy ta’lim muassasalari arxitektura va qurilish ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentlik tuzilmasi, kompetentlik belgilari, kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan umumiy talablari o‘rganilgan va tahlil qilingan hamda kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlari: kompetentlik, muhandis, kasbiy kompetentlik, arxitektura va qurilish sohalari, fizika, malaka, mutaxassis, oliy ta’lim muassasalari, loyihalash, integratsiya.

Kirish. Fizika fanini o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda eksperimental sinovlar o‘tkazish va boshqa umumkasbiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlashga qaratilgan o‘quv jarayonini tashkil etish, umumkasbiy fanlar bilan subyektlararo aloqalar samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda [18]. Xususan, texnika oliy ta’lim mutaxassisliklarida fizikani mutaxassislik fanlari bilan fanlararo aloqalari tizimini aniqlash, ularning tuzilishi va mazmunini o‘rganish, taklif etilayotgan o‘qitish konsepsiyasining uslubiy asoslarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi [12]. Dunyo ta’limidagi innovatsion o‘zgarishlar bo‘lajak arxitektura va qurilish sohasidagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda fanlararo integratsiyani ta’minlash, qurilish muhandislarining kasbiy faoliyat obyektlarini loyihalash hamda ularning kasbiy ta’limining metodik ta’minotini boyitishning ilmiy asosini ishlab chiqishni taqozo etmoqda [11]. Bu esa turli arxitektura va qurilish jarayonidagi fizik hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni izchil tarzda yoritish, fizikani arxitektura va qurilish fanlari integratsiyasi asosida o‘qitishda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi [13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorida 2021−2023 yillarda Fizika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, yangi va ta’lim bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarning fizika ta’limi bilan qamrab olish darajasini oshirish, fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash masalalari belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gareth Jones tamonidan yozilgan “Competence and understanding—a personal perspective” nomli kitobida fizika kursida talabalarning rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar muhokama qilinadi. Bunda, kommunikativ kompetensiyaning ayrim asosiy jihatlariga va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan [8]. E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatdi [26]. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi [6]. D.O.Ximmataliyev., R.X.Fayzullayevlarning “Fanlararo integrasiya orqali texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentligini shakllantirish” nomli ilmiy maqolasida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentligini fanlararo integrasiya yordamida o‘qitishning birinchi bosqichida shakllantirishni boshlash mumkinligi, kontekstual ta’lim muhandislik faoliyatini amalga oshirishda talabalarning kasbiy ko‘nikmalarni loyihalashtiradi, jumladan, ko‘plab jihatlari,

fanlararo aloqa, o‘z navbatida, turli fanlardan ularning bilim va ko‘nikmalarini birlashtiradi, maqsadlar yakuniy natijasi–kasbiy kompetentlik deb hisoblaydilar [28]. N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, kompetentlik–olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi, bu ham talabaning amaliyot jarayonida hamda oliy ta’limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi [27]. Ko‘pchilik tadqiqotchilar (A.V.Xutorskiy va boshqalar) tayyorlashga oldindan belgilangan talablarga muvofiq samarali kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sifatida kompetentlikni tan oladi. Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq turli xil vazifalarni bajarishga tayyorgarlikni ta’minlashda kompetentlik talaba shaxsi fazilatlari ishlab chiqilgan majmuasi sifatida belgilanishi mumkin. A.V.Xutorskiy, E.V.Perexojeva, N.A.Muslimov va boshqa tadqiqotchilar tushunchalariga rioya qilgan holda, ushbu sohada faoliyat olib borayotganlar, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentligini shaxs fazilatlari birlashmasini tashkil etish sifatida keyinchalik ularga muhandislik faoliyatida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. “*Comretense*” tushunchasi bevosita “*qobiliyat*” ma’nosini anglatadi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish” degan ma’noni bildiradi [5]. “*Kompetentlik*” tushunchasi ta’lim sohasiga bir qancha psixologik izlanishlar tufayli kirib kelgan. Shu sababli, kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi [15].

Kasbiy kompetentlik–mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishidir [17]. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi [20].

Kompetensiya tushunchasi ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, malakani, shaxsiy fazilatlarni va amaliy tajribani qo‘llash qobiliyati sifatida tavsiflanadi [23].

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi [22].

Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi [9]:

–har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o‘z o‘rnida va tezkorlik bilan to‘g‘ri qo‘llay bilish;

–qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;

–ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishni bilish;

–faoliyat doirasida boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o‘rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko‘nikmalar [1];

–muayyan ma’naviy qadriyatlar, dunyoqarash, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilishning mavjudligi;

–o‘zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilishdir.

Bino va inshootlar qurilishi (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan umumiy talablar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval:

№	Umumiy kompetensiyalar
1.	*Dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy–iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;*
2.	*Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;*
3.	*tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon, hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda, o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;*
4.	*insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;*
5.	*axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;*
6.	*tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish;*
7.	*yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;*
8.	*sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lish.*
Kasbiy kompetensiyalar	
1.	*Me’yoriy huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;*
2.	*arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish, boshqarish;*
3.	*qurilish obyektlarida usta (master), ish yurituvchi (prorab) bo‘lib ishlash, qurilish ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini bajarish;*
4.	*turli qurilish obyektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo‘llash;*
5.	*qurilishda qo‘llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;*
6.	*turar–joy, jamoat va sanoat binolari qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;*
7.	*turar–joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;*
8.	*qurilish, ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash;*
9.	*qurilish obyektlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish;*
10.	*ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari, muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;*

Kasbiy kompetentlik–bo‘lajak quruvchi-muhandisning faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi [2].

Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi [10]:

1) psixologik kompetentlik–texnika oliy ta’lim muassasalarining arxitektura va qurilish sohalaridagi ta’lim jarayonida sog‘lom psixologik muhitni yarata olish [16];

2) metodik kompetentlik–texnika oliy ta’lim muassasalarining arxitektura va qurilish sohalarida ta’lim jarayonini metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki

kasbiy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq yo‘nalishga mos tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash [19];

3) informatsion kompetentlik–arxitektura va qurilish sohalariga oid muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik–o‘z kasbiy bilimlariga nisbatan tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik qobiliyatini loyihalarni ishlab chiqish malaka va ko‘nikmalariga egaligini namoyish eta olish [24];

5) innovatsion kompetentlik–arxitektura va qurilish sohalariga tegishli zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash, amaliyotga joriy etish [25];

6) kommunikativ kompetentlik–ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishdir.

Arxitektura va qurilish sohasi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish piramidasi 1-rasmda keltirilgan [21]. Kasbiy kompetentlik piramida orqali poydevor asosi belgilanadi, haqiqiy voqelikda yuzaga keladigan muammolarni integratsiyalashgan yechimlari barcha bitiruvchilar uchun zarur [14]. Har tomonlama(universal), ijodiy, rivojlanayotgan bo‘lajak mutaxassis(professional) shaxsi faqat ajralmas pedagogik jarayon sharoitlarida shakllanishi mumkin, bo‘lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligi-har bir bosqichi umumiy tamoyillari asosida usullari va maqsadlari yakuniy maqsadiga qurilgan [3]. Aynan shuning uchun fanlararo integrasiya texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari ta’lim va tarbiyasining muhim sharti hisoblanadi [4].



1-rasm. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda texnika oliy ta’lim tizimini rivojlantirish mazmuni va o‘qitish texnologiyasi, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, bo‘lajak quruvchi-muhandislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘nalti-rilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, arxitektura va qurilish sohasi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari tadqiq qilindi. biz ko‘p tadqiqotchilar kabi texnika oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish yetarli darajada emas deb hisoblaymiz [7]. Sababi, ta’lim jarayonida bo‘lajak muhandislik faoliyatining kasbiy va ijtimoiy jihatlarini modellashtirish jarayonlari sodir bo‘ladi, fanlararo integratsiya, o‘z navbatida ilm-fanning turli sohalarida birlashtiruvchi elementi sifatida qaraladi.

Xulosa va takliflar. Demak, kasbiy kompetensiya mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi jarayonlarida shakllanadi va takomillashib boradi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan ta’lim kasbiy kompetentlik asoslari shakllanishi jarayoni sanaladi hamda kompetensiyaning oliy darajaga ko‘tarilishi deb baholash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Begmatova D.A., Nortojiyev A.M., Khudayberdiyev S.S., Mahmadiyorov A.Z., Nosirov N.B. The importance of physical exercises in the training of specialists in the field of architecture and construction // International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science. AIP Conference Proceedings 2432, 030056 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089959 Published Online: 16 June 2022.
2. Mukhamadalievich, N.A. (2022). The method of conducting practical classes in the subject of physics in technical higher educational institutions through the method of designing objects of professional activity. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 350-354.
3. Nortojiyev A.M. Teaching physics on the basis of integration of architecture and building sciences // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Hosted from Washington, DC USA, 2022. – P. 116-117.
4. Nortojiyev A.M. Methods of ensuring integrative approach to teaching physics // International Multidisciplinary Conference on Scientific Developments and Innovations in Education. - Greece, 2022. - P 19-21.
5. Nortojiev, A. (2023, June). Methods of formation of professional competence of students in teaching physics on the basis of integration of architecture and building sciences. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
6. Нортожиев, А. М. (2023). Физикани архитектура ва курилиш фанларига интеграцияси орқали талабаларнинг касбий компетенциясини шакллантириш. Ustozlar uchun, 16(1), 189-194.
7. E. B. Saitov., Sh. Kodirov., Z. F. Beknazarova., B. M. Kamanov., A. Nortojiyev., N. Siddikov. Developing Renewable Sources of Energy in Uzbekistan Renewable Energy Short Overview: Programs and Prospects. // International Conference

on Problems and Perspectives of Modern Science. AIP Conference Proceedings 2432, 020015 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0090438 Published Online: 16 June 2022.
8. Gareth Jones. "Competence and Understanding—A Personal Perspective" Selected Contributions from the International Conference Girep Epec 2015, Wroclaw Poland, 6–10 July 2015 u. P. 11-24.
9. Begmatova D.A., Nortojiyev A.M. Integration of conducting physics classes in higher educational institutions in the field of construction// Scientific information of Tashkent State Pedagogical University. - Tashkent, 2020. - 12. - B. 40-45.
10. Khudaiberdiev, S.S., Nortojiev, A.M. (2022). The method of conducting practical training in physics in technical higher education institutions through the design method. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 104-109.
11. KS Salievich, NA Mukhammalievich, NN Baratovich. Pedagogical Aspects Of Preparing Future Engineers For Professional Activity. Ustozlar uchun 19 (2), 315-318.
12. Muhammadaliyevich, N. A. (2022, January). Methods of ensuring integrative approach to teaching physics. In Archive of Conferences (pp. 19-21).
13. Uralbaevich, T. I., Baratovich, N. N. (2023). Formation of main general competences of future engineers and its stages. Conference, 80-83.
14. Begmatova, D. A., Nortojiyev, A. M. (2020). Integrative approach in general physics, scientific-methodical journal "Physics. Mathematics and Informatics", Tashkent, (5), 28-33.
15. Mukhamadalievich, N.A. (2022). Formation of the professional competence of students through the interdisciplinary integration of physics into the sciences of architecture and construction. Conference, 170-172.
16. Nortojiyev, A.M., Begmatova, D.A. (2021). Methods of conducting physics laboratory courses on the basis of interdisciplinary integration. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 3), 105-107.
17. Nortojiev, A.M. (2023). Formation of professional competence of students through integration of physics in architecture and construction sciences. For Teachers, 16(1), 189-194.
18. Худайбердиев, С.С., Нортожиев, А.М. (2022). Техника олий таълим муассасаларида физикадан амалий машғулотларни лойиҳалаш методи орқали ўтказиш усули. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 104-109.
19. Baratovich, N.N. (2023). A model for implementing professional orientation by future engineers in the general physics course. For Teachers, 16(1), 178-183.
20. Baratovich, N.N. (2023). Modeling method of professional competence development of future engineers. For Teachers, 16(1), 184-188.
21. Baratovich, N. N. (2023). The stages of solving engineering problems from physics and its educational and methodological support. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 13, 52-57.
22. Nosirov, N.B. (2022). Educational-methodical support for solving engineering problems from physics and its stages. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(10), 98-103.
23. Baratovich, N. N. (2023). A model for ensuring consistency in solving physical problems.(On the example of engineering activity). Eurasian Scientific Herald, 21, 39-43.
24. Baratovich, N.N. (2023). Study and methodology of solving engineering problems in physics. Conference, 64-67.
25. Baratovich, N.N. (2023). Physical-engineering problems stages of solution and its didactive tasks. Conference, 102-104.
26. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к модернизации професионального образования / Э.Ф.Зеер, Э.Э.Сыманюк // Высшее образование в России: 2005. № 4. С. 23-30.
27. Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ. Бўлажак касб-ҳунар коллежи ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг айрим масалалари. / “Олий таълим муассасалари педагог ва бошқарув кадрларнинг малакасини ошириш назарияси ва амалиёти” мавзусидаги Республика илмий-амалий конферен цияси материаллари. Тошкент: ТДПУ, 2012 й. – 26-28-бетлар.
28. Химматалиев Д.О., Р.Х.Файзуллаев. Фанлараро интеграция орқали техника олий таълим муассасалари талабалари касбий компетентлигини шакллантириш / «Irrigatsiya va Melioratsiya» журнали. - 2016 й. №4(6) 76-78.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:1:316(09) (575.1)

Otabek ORTIQOV,
Qo‘qon DPI dotsenti v.b, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori taqrizi asosida
E- Mail: ortiqovotabekjon1976@gmail.com

O‘zDSMI Farg‘ona mintaqaviy filiali o‘qituvchisi (PhD) Shamsiddinov. B.

SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL HERITAGE AS AN OBJECT OF RESEARCH

Annotation
The article discusses the increased interest, the study of a scientific and philosophical point of view and the social and cultural life of the scientific and philosophical heritage of the Central Asian philosophers. Also, a special attention is paid to the legacy of thinkers Farabi and Ibn Sin.
Key words: scientific and philosophical heritage, philosophers of Central Asia, Farabi, Ibn Sina, natural science, ontology, gnoseology, empirical.

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЕ НАСЛЕДИЕ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация
В данной статье рассматривается повышение интереса изучения с научно-философского точки зрения и место в социально-культурной жизни научно-философского наследия мыслителей Центральной Азии. Также, уделено особое внимание на наследие мыслителей Фараби и Ибн Сина.
Ключевые слова: научно-философское наследие, мыслители Центральной Азии, Фараби, Ибн Сина, естественно-научный, онтология, гносеология,эмпирический,вужуди вожиб,вужуди мумкин.

ILMIY-FALSAFIY MEROS TADQIQOT OB’EKTI SIFATIDA

Annotatsiya
Maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-falsafiy merosini zamon talablari nuqtai nazaridan o‘rganish, unga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi, ijtimoiy-madaniy xayotdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Jumladan maqolada Farobiy , Ibn Sino kabi allomalarimiz merosiga aloxida to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada faylasuflarning bildirgan fikrlari, ularning ma’naviy –axloqiy va gumanistik merosga munosabatlari ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: ilmiy-falsafiy meros, Markaziy Osiyo mutafakkirlari, Farobiy, Ibn Sino, gnoseologiya, tabiiy-ilmiy, ontologiya, gumanistik meros, vujudi vojib, vujudi mumkin, empirik.

Kirish. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlari o‘zbekistonlik faylasuflar I.M.Mo‘minov, M.M.Xayrullaev, B.Iskandarov, O.Fayzullaev, H.Aliqulov, R.Nosirov, A.Sharipov, M.K.Oripov, Y.Jumaboev, G.P.Matvievskaya, H.F.Vohidov, S.Yo‘ldoshev, S.Murtazaev, M.Sultonov tomonidan izchil o‘rganilgan. Sho‘rolar saltanati va markscha-lenincha dogmatik falsafaning mafkuraviy tazyiqiga qaramay, mazkur tadqiqotchilar Markaziy Osiyo mutafakkirlari qoldirgan ilmiy, falsafiy va ma’naviy merosni ob’ektiv yoritishga intildilar. Masalan, akademik I.M.Mo‘minov Markaziy Osiyoda falsafiy, tabiiy va texnikaviy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishini dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, tabiiy-ilmiy fikrlarning o‘zaro ta’siri, tabiiy-ilmiy qarashlarning mustaqil rivojlanishi, tabiiy-ilmiy bilimlarning keng ommalashmay qolganida ko‘radi. Shu bilan birga u ilmiy-falsafiy va tabiiy bilimlar rivojlanish bosqichlarini davrlashtirishni ham boshlab beradi. Uning yondashuviga muvofiq ilmiy-falsafiy qarashlarning tarixi umumiy ilm-fan tarixining tarkibiy qismi, shuning uchun u Markaziy Osiyodagi ilm-fan tarixini IX asr boshidan boshlashni taklif etadi. Bizning fikrimizcha, I.M.Mo‘minov hozir tirik bo‘lganida mazkur fikrga yangicha yondashardi. Lekin I.M.Mo‘minov boshlab bergan davrlash-tirish hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixiy manbalar ko‘rsatadiki, IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, chet ellar bilan savdo-sotiq rivojlana boshlagan. “Mamlakatda sug‘oriladigan dehqon xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etish protsessida empirik bilimlarni rivojantirishga ehtiyoj tug‘ildi va shunga binoan O‘rta Osiyoning ilg‘or kishilari bilimning matematika, astronomiya, geografiya, meditsina kabi tarmoqlarini chuqurlashtira va kengaytira boshladilar”. Aynan shu davrda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy ta’limotlar darajasiga ko‘tarilib, keyinchalik mamlakatimizda ilm-fanning rivojlanishini bilan bog‘liq Uyg‘onish davrini belgilab berdi. Mazkur rivojlanishning o‘ziga xos xususiyati M.M.Xayrullaev qayd etganidek, “Koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy masalalarga qiziqish; insonni koinotni, borliqni yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug‘lash, unga ishonch bildirish, targ‘ib-tashviq etish, ularni yaratguchining eng ulug‘ va yuksak ijodi deb baholash, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish...”, kabilardadir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish oshganini, ilmiy-falsafiy mushohada va tarixiy bilimga ega har bir tadqiqotchi, qalam ahli, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodini tahlil qilishga intilayotganini kuzatamiz. Ammo ular ichida falsafa tarixi bilan bevosita shug‘ullanib kelgan mutaxassislarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, falsafiy-tarixiy merosning ijtimoiy-madaniy hayot va taraqqiyotdagi o‘rni aynan mazkur tadqiqotchilar tomonidan chuqur, ob’ektiv yoritilmoqda. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlarini o‘rganish maxsus bilimni, tayyorgarlikni taqozo etadi. Uchinchidan, mustaqillik

yillarida falsafa tarixiga, buyuk ajdodlarimizning ontologik va gnoseologik merosiga yangicha, milliy mafkura va umumfalsafiy metodologiya nuqtai nazaridan yondashish shakllandi. Ushbu o‘zgarishlar tarix falsafasi bo‘yicha mutaxassis bo‘lmagan, ammo muammoga oid e’tiborli izlanishlar olib borayotgan qalam ahli – shoirlar, adabiyotshunoslar, pedagoglar, tarixchilar, sotsiologlarning xizmatlarini inkor qilmaydi [10].

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlarini o‘rganishga oid asarlar ko‘p bo‘lmasa-da, ular M.M.Xayrullaev, B.Iskandarov, O.Fayzullaev, M.N.Boltaev, R.N.Nosirov, Y.Jumaboev, K.Shodmanov, N.Turdiboevlarning kitoblarida, G.A.Nosirxo‘jaeva, D.Fayzixo‘jaeva, X.V.Muksimova, F.N.Jo‘raqulovning nomzodlik dissertatsiyalarida maxsus tadqiq etilgan.

M.M.Xayrullaev Markaziy Osiyoda IX-XIII asrlardagi Uyg‘onish davri madaniyati va ilmiga ta’sir etgan al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino, al-Beruniy, Yassaviy, Kubro, Ismoil Jurjoniy, Marg‘inoniy, M.Qoshg‘ariy, Yusuf Hamadoniy, G‘ijduvoniy kabi allomalarning hayoti va ijodini, ular qoldirgan ilmiy merosning ahamiyatini ochib beradi [2]. “Forobiy falsafasiga ko‘ra, - deb yozadi M.M.Xayrullaev, - olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud – vujudi vojib, ya’ni azaliy vujud – birinchi sabab hamda vujudi mumkin – yaratilgan, kelib chiqqan vujudga natijalaridan iboratdir. Alloh – azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar – vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog‘onama-pog‘ona kelib chiqadi, buning so‘nggi pog‘onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo‘lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo‘yicha kechadigan tadrijiy jarayondir. Forobiy “Masalalar mohiyati”, “O‘zgaruvchan narsalar haqida” risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmning Sharqdagi ko‘rinishi vujudiyun ta’limotini yangi g‘oyalar bilan boyitdi”[3].

Forobiyning vujudiyun ta’limotiga oid yangi g‘oyalari uning to‘rt unsur – tuproq, suv, havo va olov borliqning asosidir, degan qarashida mujassamdir. Borliq ushbu to‘rt unsurlarning birikuvidan tashkil topgan, moddiy borliqdagi farqlar esa unsurlarning turlicha ekanligidandir. Faylasuf borliqni oltita sabab-oqibat orqali talqin qiladi: Alloh (as – sabab al – avval), osmon jismlari (as – sabab as – soniy), aql (al – aql – al – faol), jon (an – nafs), shakl (as – surat), materiya (al – modda). Ulardan Alloh – vujudi vojib zaruriy mavjudlikdir, qolganlari esa vujudi mumkindir [4].

Mazkur fikr sho‘rolar davridagi qarashlardan keskin farq qiladi. U paytda “Forobiyning progressiv qarashlari islomga zid deb hisoblandi”, “Forobiy xudoni olamning yaratuvchisi deb bilish bilan idealistik filosofiya doirasidan tashqariga chiqa olmadi”, [5] degan markscha-lenincha falsafa, ateizm talabi faylasuf merosini ob’ektiv baholashga imkon bermagan edi.

“Forobiy uchun dunyo g‘uncha bo‘lib, asta-sekin o‘zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko‘proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini, - deb yozadi M.M.Xayrullaev, - tabiiy-ilmiy g‘oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo‘l ochdi. Abu Ali ibn Sino va undan keyingi mutafakkirlar o‘zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimi asosida ish olib bordilar”[6].

M.M.Xayrullaev Forobiyning gnoseologik qarashlarini chuqur tahlil qiladi, undagi Aristotel ta’sirida yuzaga kelgan yondashuvlarning mohiyatini, yangicha talqin etilganini, mazkur meros Markaziy Osiyo falsafa tarixida, tafakkurida eng muhim voqelik bo‘lganini ochib beradi. Forobiy asarlarida ilm, bilish, aql quvvatlari, his-tuyg‘ularning aqlu idrokka ta’siri masalalari chuqur yoritilgan. Uning fikricha, “insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi”, tabiatni bilish cheksizdir, bilmaslikdan bilishga boriladi, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (al – oraz) dan mohiyat (javhar) ga qarab borishi orqali ilm, bilish ortib boradi, ilm egallash “tashqi quvvatlar” ta’sirida va “ichki quvvatlar” (esda saqlash, xayol, xotira, tasavvur, his-tuyg‘u, fikrlash) orqali hosil qilinadi[7].

Forobiyning ilm egallashda aqlu idrokka tayanish, ob’ektiv borliqni o‘rganishda ratsional fikrlashdan kelib chiqish borasidagi qarashlari falsafada, gnoseologik izlanishlarda hamon muhim tadqiqot usullari bo‘lib qolmoqda[8].

B.Iskandarov Markaziy Osiyolik mutafakkir va donishmandlarning ilmiy-falsafiy merosidagi tabiiy-ilmiy qarashlarni[9], O.Fayzullaev va P.Q.Habibullaev buyuk ajdodlarimizning zamonaviy fizika, ximiya, algebra, kibernetika, matematika fanlari rivojiga ta’sirini[10], Y.Jumaboev tabiiy-ilmiy merosdagi Sharq Uyg‘onish davriga xos jihatlarini, taraqqiyot yo‘llarini[11], R.Nosirov esa Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy va tabiatshunoslikka oid qarashlarini tadqiq qiladilar[12]. Masalan, falsafa fanlari doktori, professor R.Nosirov Abu Ali ibn Sinoning ontologik merosini o‘rganib yozadi: “Ibn Sinoga ko‘ra, borliq birinchi sabab, Allohni ifodalaydigan “vujudi vojib” va u tufayli paydo bo‘lgan “vujudi mumkin” dan iboratdir”[13]. Ko‘rinib turibdiki, bu o‘rinda Forobiyning ta’siri mavjud.

R.Nosirov “vujudi vojib” va “vujudi mumkin” ning zamon va makondagi harakatlari, Ibn Sino falsafasida ushbu harakatlarning ko‘rinishlari, ularning Beruniy talqinidan farqlari, borliqning shakllanishidagi to‘rt (moddiy, faol, shakliy va cho‘ziluvchi) sabablar, sabab va oqibat, harakat va vaqt, makon, ashyoviy olamning konkret holatlari, empirik va yarim empirik tasavvurlar “haqida” to‘xtalib, ularning nazariy falsafaning rivojidagi ahamiyatini ochib beradi. U yozadi: “Agar vaqt Beruniyda mutlaq, abadiy va nisbiy, chegaralanganligi bilan belgilanib, har bir ashyo-narsa va hodisaning umri nisbiy, chegaralangan vaqt bilan o‘lchanib, abadiylik esa yaratganning umriga qiyoslansa, biron-bir narsa esa abadiylikka da’vo qila olmasa, Ibn Sinoda bu muammo boshqacha tus oladi. “Vujuda vojib” bilan “vujudi mumkin” bir-biridan vaqt nuqtai nazaridan emas, balki o‘zining nafisligi, saxovatligi va karami bilan farq qiladi”[14].

T.Karim esa al-Xorazmiy, Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Ulug‘bek kabi ajdodlarimizning ilmiy merosi jahon ilm-faniga ta’sir etganini, u G‘arb olimlari G.Galiley, I.Nyuton va A.Eynshteynning kashfiyotlaridan kam emasligini ochib beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlarining shakllanishi hamda taraqqiyotida islom dini va tafakkuri qaror topganidan keyingi davr muhim bosqich bo‘lganini mustaqillik yillarida o‘tkazilgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Shuningdek, mutafakkirlar ijtimoiy-falsafiy merosini yangi davr nuqtai-nazaridan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Xayrullaev M.M. O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati. -Toshkent.: Fan, -1994 B.41.
2. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Buyuk siymolar, allomalar. -Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, -B.36-37.
3. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Buyuk siymolar, allomalar. -Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995. –B.37.

4. O‘zbekistonda progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir materiallar. -Toshkent.: O‘zSR FA nashriyoti. 1959, -B.13.
5. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Ma’naviyat yulduzlari. -Toshkent.: Sharq, 2000. - B 61-62.
6. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Buyuk siymolar, allomalar. -Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti., 1995. - B 37.
7. Rassel B. Chelovecheskoe poznanie. –M.: Inostr.lit-ra, 1957; Gote R. Logiko-gnoseologicheskie issledovaniya. -SPb.: Rost, 2009.S.52.
8. Iskandarov B. O‘rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixidan lavhalar. -Toshkent.: Fan, 1994.B.32.
9. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya/Pod.red. P.K.Xabibullaeva i A.F.Fayzullaeva. -Toshkent.: Fan, 2000.B.14.
10. Jumaboev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -Toshkent.: O‘qituvchi, 1997.B.54.
11. Nosirov R. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. -Toshkent.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti., 2009.B.19.
12. Nosirov R. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. -Toshkent.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti., 2009. - B 6.
13. Nosirov R. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. -Toshkent.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti., 2009. –B.7.
14. Karim T. Sharq al-Tayr yulduzlari. -Toshkent.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005. – V. 6-24.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.8

Go‘zal PRIMOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:primovagozal@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent N.Alimov taqrizi asosida

TALABALARDA O‘QUV-BILUV MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda o‘quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili hamda ta’lim jarayonidagi metod, ya’ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilishning turlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning o‘quv-biluv motivatsiyasining roli va didaktik jarayonning amaliy-pragmatik mexanizmlarini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘quv-biluv motivatsiya, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteri, anglash, taqqoslash, qiyoslash, mushohada etish.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье представлен анализ особенностей процесса развития учебно-познавательной мотивации у студентов, а также метода в образовательном процессе, то есть метода, видов передачи и получения информации. Также на учебных занятиях анализировалась роль учебной мотивации студентов и практико-прагматических механизмов дидактического процесса.

Ключевые слова: учебная мотивация, характер передачи и приема информации, понимание, сравнение, сопоставление, наблюдение.

FEATURES OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF LEARNING MOTIVATION IN STUDENTS

Annotation

The article presents an analysis of the features of the process of development of educational and cognitive motivation among students, as well as the method in the educational process, that is, the method, types of transmission and receipt of information. Also during the training sessions, the role of students’ educational motivation and practical-pragmatic mechanisms of the didactic process were analyzed.

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar insonning hayoti davomida sifatli ta’lim olish, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun ta’lim muhitida mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta’lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog‘liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omillar ham aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir**.**

Ta’lim yoshlarda dunyoviy ilmlarga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish, ma’rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi. Uning mazmuni qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimida ifodalanadi. Jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson kapitali” ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash-bularning barchasi ta’lim natijasida vujudga keladi.

Motivatsiya nazariyasi inson organizmining normal holatidagi yagona, yaxlit bir butun mexanizm sifatida funksiyalarini bajarishini nazarda tutadi, biroq, bu jarayonda yakka tartibdagi segmental reaksiyalar, shuningdek, dissotsiatsiya, dezintegratsiya motivlarini istisno va e’tiborsiz qoldirish mumkin emas, degan fikrga asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Motivatsiya” va “motiv” tushunchalariga aniqlik kiritish maqsadida biz tomonimizdan pedagogika, psixologiya, sotsiologiyaga oid turli adabiyotlar (A.Maslou, KLevin, N.Kuzmina, A.Rean, S.G.Rubinshteyn, I.S.Kon, I.A.Zimnyaya, E.E.G‘oziev, V.M.Karimova, N.A.Muslimov) tahlil etildi.

Tahlil natijalaridan aniqlanishicha, motiv - shaxsning ayni paytdagi ichki holati, ichki qiziqishi, niyati va ehtiyoji sifatidagi holatidir.

I.Valixanov ta’kidlashicha, o‘quv-biluv motivatsiyaning tuzilishli komponentlari initsiatsiya motivatsiyasi (faoliyatga chorlovchi), seleksiya motivatsiyasi (maqsad tanlashga sabab bo‘luvchi), amalga oshirish motivatsiyasi (boshqarishni, mavjud harakatni bajarilishini amalga oshirilishini nazorat qilishni ta’minlaydi), amalga oshirilganidan keyingi motivatsiya (harakat yakunlanishini

ta’minlaydi va boshqa harakatga chorlaydi). Demak, talabalardagi o‘quv-biluv motivatsiyasi ta’lim jarayoniga ongli munosabatda bo‘lish, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish, bilimlarni faol o‘zlashtirishga talabalarni qo‘zg‘atuvchi ehtiyoj, maqsadlar tizimi hisoblanadi.

Talabalarda o‘quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Quyidagi sxemada mazkur hususiyatlar aks ettirilgan (1-rasmga qarang):

1-rasm. Talabalarda o‘quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlari

Talabalarda o‘quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish uchun faoliyat va munosabatni e’tirof etish, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai sifatida ta’limning tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish; o‘zini-o‘zi o‘qitishning intensivligi;tahsil oluvchining verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish lozim. Bu o‘rinda o‘quv-biluv faoliyat ta’limning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, didaktik jarayon ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalarda aks etadi. Talabalarning o‘quv-biluv motivatsiyasi maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi; uning insonparvarlashuvi; fan, texnika integratsiyasi, ta’limga yaxlit(kompleks) yondashuv; shaxsga talabchanlik, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; ta’limning tizimligigi va uzluksizligiga bog‘liq.

Ma’lumki, o‘quv-didaktik yo‘nalishlarning institutsional belgilari turli ta’lim konsepsiyalari va yondashuvlari bilan bog‘liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual turlarida farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim jarayonida asosiy vazifa ta’lim-tarbiya berish, yoshlarda bilim, ko‘nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirish, tahsil oluvchilarning tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan qolda marifiy yo‘l va usullar orqali amalga oshirish taqoza etiladi.

O‘qituvchining bilim saviyasi, ma’naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida o‘quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish ularning shaxs sifatida oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o‘ziga xosligini hurmat qilish, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Didaktik jarayonning amaliy-pragmatik mexanizmlarini tadqiq qilar ekanmiz, ta’lim jarayonidagi metod, ya’ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab bir necha turlarga bo‘linishini kuzatdik (2-rasmga qarang):

2-rasm. Axborotni uzatish va qabul qilish turlari

Bu metodlar o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

Birinchi guruh - so‘z orqali uzatish, maslahat berish, ma’lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh - kinofil’mlar, tasviriy san’at, badiiy san’at va boshqa ko‘rish orqali tarbiyalash uslublari

Uchinchi guruh –amaliy mehnat harakatlari orqali ta’lim berish, talabalarda konstruktorlik sifatlarini rivojlantirish;

To‘rtinchi guruh – yaxshi bajarilgan ishlarni ma’qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma’naviy rag‘batlantirish.

Talabalardagi o‘quv-biluv motivatsiyasi masalalarini o‘rganish sub’ektning kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorgarligi tizimiga shakllantiruvchi element roli berilganligini ko‘rsatadi. Hozirgi bosqichda motivatsiyaga tayyorlik muammosining dolzarbligi, boshqa qadriyatlar qatorida, talabalarning raqobatbardoshlikga intilishlarini shakllantirishda ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni kiritish bilan bog‘liq.

Shunday qilib, texnika ta’lim muassasalarida o‘qish davrida kasbga qo‘yiladigan talablar, uni egallashning asosiy motivlari tarkibi, ma’naviy qadriyatlar, innovatsion texnologiyalarning paydo bo‘lishi munosabati bilan operatsion va texnik sohani kengaytirib, kasbni o‘zlashtirish jarayonida, o‘qitish va kasbiy faoliyat ta’lim sub’ektining motivatsion faoliyat tarkibini rivojlantiradi. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, talabalarning o‘quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishda tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarda pedagogik shart-sharoitlar, jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar inobatga olinishi lozim.

Xulosa. Tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari o‘rganilganda,

bo‘lajak mutaxassislar, ya’ni bugungi kun talabalarida o‘quv-biluv motivatsiya o‘quv maqsadlari taksonomiyasi doirasida amalga oshiriladi. Bunday o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning o‘quv-biluv motivatsiyasi yangi mavzuni to‘liq va yaxlitlikda idrok etish, o‘rganilayotgan voqealar va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni tasavvur etish, ichki qonuniyatlarini anglash, taqqoslash, qiyoslash, mushohada etish, umumlashtirishda samaradorlikka erishganligi, bosqichma-bosqich aqliy operatsiyalarning rivojlanish jarayoni, o‘z-o‘zini nazorat qilish, maqsadlar va vazifalarni aniq taqsimlash, mustaqil qaror qabul qilishda o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Коршунова Н. Л., Цзян Нань. Образование и наука в современном университете // Учёные записки ЗабГУ. Сер. Педагогические науки. 2017. Т. 12, № 2. С. 6–13. DOI: 10.21209/2542-0089-2017-12-2-6-13.
2. Краевский В. В. Методология педагогики: Пособие для педагогов-исследователей. - Чебоксары: Изд-во Чуваш, ун-та, 2001. - 244 с.
3. Методология и методика дидактического исследования; Загвязинский В. И. — М.: Педагогика, 1982. — 160 с.
4. R. Kadirjanovich, A. N. Isayevna, P. G. Gulomjonovna and P. S. Botir qizi, "Improving the Methodology of Teaching Specialized Subjects in The Preparation of Future Computer Engineering on The Basis of Innovative Technologies," 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 125-130, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286726
5. Primova G.G. The motivation of student cognition activities. journal of philosophy Readings.org 5281/zenodo. 4915841(276-280)ISSN 2036-4989.
6. Primova G.G. Features use of internet technologies in education Босма International Multidisciplinary Scientific Journal ISSN: 2091-573X Vol. 1 Issue 1, June-2021
7. Примова Г.F. Ta’limni raqamlashtirish masalalari aralash va gibrit o‘qitish texnalogiyalari // Ilm sarchashmalari. Urganch davlat Universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2021-yil 10-son

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 37.048.43

Muxabbat PULATOVA,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi, (PhD)
E-mail: pulatova@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

CONCEPTUAL APPROACH IS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF TEACHER'S INNOVATIVE COMPETENCE

Annotation

This article determines that the content of the development of innovative competence of primary school teachers should be based on purposeful orientation, continuous improvement and openness to new innovations.

Key words: Strategy development of system education, innovation, "Samarkand experience", "mobilnye methodicheskie groups", Professional-innovative workability, innovative competence.

O‘QITUVCHINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KONSEPTUAL YONDASHUV MUHIM OMIL SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirishning mazmuni uning nazariy, amaliy va shaxsiy tashkil etuvchilardan iborat tayyorgarligini maqsadli yo‘naltirish, uzluksiz takomillashtirib borish, innovatsion jarayonlarning qonuniyatlari, xususiyatlari, yangiliklarga ochiqlikka asoslanishi kerakligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi, innovatsiyalar, “Samarqand tajribasi”, “mobil metodik guruhlar”, Kasbiy-innovatsion faoliyat, innovatsion kompetensiya.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД – ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация

В данной статье определено, что содержание развития инновационной компетентности учителей начальной школы должно основываться на целенаправленной направленности, постоянном совершенствовании и открытости к новым инновациям.

Ключевые слова: Стратегия развития системы образования, инновации, «Самаркандский опыт», «мобильные методические группы», Профессионально-инновационная деятельность, инновационная компетентность.

Kirish. Ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, globallashuv, barcha tarmoqlarni axborotlashtirish, jarayonga innovatsion texnologiyalarni jadal joriy qilish, o‘qitish tizimining uzluksiz va uzviy bo‘lishini, tom ma’noda o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayoniga ham bevosita taalluqlidir.

Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasini tanlashning ijtimoiy-madaniy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga bog‘liqligi A.G.Asmolov tomonidan asoslangan [9;21-39-b.]. Mazkur holatda ta’lim siyosatining muammolariga munosib javob topishga urinishlar uzluksiz ta’lim uchun innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Ma’lumki, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri mavjud muammolarni hal qilish orqali inson kapitalini uzoq muddatli yuksaltirishdir. Bunda yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj ta’lim tizimini takomillashtirish, bitiruvchilarga o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish, nostandart echimlar taklif eta oladigan darajada tafakkur qilishga qodirlikni ta’minlaydigan muhit yaratish asosida qondirilishi mumkin bo‘ladi.

Demak, strategik maqsad davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini oshirishdan iborat ekan, unga erishish uchun shu sohada faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish uchun ham etarlicha sharoit hozirlash vazifasi dolzarblashadi.

Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maktab o‘qituvchilariga ilmiy-metodik yordam berish, eng saralarini aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, innovatsiyalarga ochiq va faoliyatiga jadal tatbiq qilayotgan pedagoglarni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, variativ dasturlarni taklif qilish kabi harakatlar asosida ta’lim mazmunini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash kabilarni qamrab oladi. Bu jarayon maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchining ijtimoiy mavqei, obro‘sini ko‘tarish, ta’lim tashkilotlarining o‘quv va moddiy-texnik bazasini yaxshilash bilan birgalikda olib borilishi zarur.

Metodologiya. Keyingi paytlarda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan ko‘plab tadbirlar ularning faoliyati sifatini oshirish, xususan, innovatsion salohiyatni shakllantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning uchun, tegishli huquqiy-me’yoriy baza yaratilib jarayonda nafaqat malaka oshirish ta’limi muassasalari, balki oliy ta’lim tashkilotlari va xususiy sektorning ishtirokiga ruxsat berilishini tub burilish sifatida baholash mumkin. Shu o‘rinda aytish mumkinki, oliy ta’lim tashkilotlari iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, undagi ta’lim natijalari inson kapitalini ishlab chiqish va rivojlantirishning asosiy bo‘g‘inidir. Shuning uchun keyingi islohotlar oliy ta’lim tashkilotlarining umumta’lim maktab o‘qituvchilari malakasini oshirish jarayoniga jadal kirib kelayotganligini, yangicha yondashuvlar taklif etayotganligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tomonidan tashkillashtirilgan

hamda “Samarqand tajribasi” sifatida e’tirof etilayotgan matematika, kimyo, biologiya, fizika, informatika, ona tili va adabiyoti, tarix fanlaridan xalq ta’limi tizimidagi umumta’lim muassasalari o‘qituvchilari bilimini yaxshilash hamda yangicha o‘qitish uslublarini tushuntirish bo‘yicha “mobil metodik guruhlar” faoliyatini innovatsion yondashuv tarzida keltirish mumkin.

O‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan mazkur ilmiy-metodik maydonchaning maqsadi pedagog xodimlarning individual ta’lim trayektoriyasini tuzish, mustaqil ta’limini rag‘batlantirish, o‘zaro tajriba almashish muhitini yaratish, ilg‘or yondashuvlarni tezkor singdirishdan iborat ekanligi unga innovatsion amaliyot sifatida qarash mumkinligini bildiradi. “Mobil metodik guruhlar”ga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

umumta’lim muassasalari o‘qituvchilarini o‘z ustida ishlash, mutaxassislik fani bo‘yicha muntazam ravishda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish, ularning kasbiy mahoratini oshirishga ko‘maklashish;

maktablarda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning bilimini diagnostikadan o‘tkazish;

diagnostika natijasidan kelib chiqib, bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

“mobil metodik guruhlar” trener-o‘qituvchilari tomonidan har oyda kamida ikki marotaba tinglovchilarning bilimlarini diagnostikadan o‘tkazish hamda natijasiga ko‘ra metodik yordam ko‘rsatish;

ilg‘or metodikalar va innovatsiyalarga o‘rgatish orqali o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirib borish;

o‘qituvchilarning metod kunlarida o‘quvlarni samarali tashkil qilish;

elektron, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali guruhdagi tinglovchilar bilan muntazam ravishda o‘quvlarni olib borish.

Lekin, statistik tahlillarning ko‘rsatishicha, o‘qituvchilarning malakasi talab darajasidan pastligicha qolmoqda. Respublikamiz xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan 506618 nafar o‘qituvchilarning 440656 nafarini (86,7%) oliy ma’lumotli, 28662 nafari (5,6%) tugallanmagan oliy ma’lumotli, 37700 nafarini (7,4%) o‘rta maxsus ma’lumotlilar tashkil qilmoqda. Ahamiyat qaratiladigan jihatlaridan yana biri shundaki, o‘rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchilarning salmoqli qismi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ulushiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, respublika bo‘yicha umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining sifat tarkibi (oliy va birinchi toifalilar) 22,5% ekanligi, oliy toifali o‘qituvchilar ulushi esa bor-yo‘g‘i 8,5%ni tashkil qilishi ham hali amalga oshirilishi zarur bo‘lgan islohotlarning qamrovi nihoyatda keng bo‘lishi lozimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda malaka oshirish, umumta’lim tashkilotlaridagi o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish va o‘z-o‘zini o‘qitishga qaratilgan metodik faoliyat tashkil etilgan. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimi mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga tezkor javob bera boshladi. Ta’lim mazmuni asosan buyurtmachilar, pedagoglar tomonidan belgilanmoqda. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida onlayn ta’lim platformalaridan foydalangan holda, taqdim etilayotgan modulli o‘quv dasturlari o‘qituvchilarning innovatsiyalarga tayyorgarligini shakllantirishga yordam bermoqda.

Bizning fikrimizcha, uzoq muddatli istiqbolda respublikada ta’lim tizimining ishlashi va rivojlanishi tashqi va ichki sharoitlar bilan belgilanadi. Tashqi sharoitlar orasida bilimga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish ta’lim uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu mehnat bozorida bilim va kompetensiyaga talabning oshishiga olib keladi hamda uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini shakllantirish orqali inson kapitali sifatini yaxshilashni talab qiladi.

Ta’limni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy ichki sharoit – bu ta’lim sohasidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishdir. Maktab ta’limi maqsadlariga muvofiq, kasb-hunar, shu jumladan, pedagogik, ta’lim sohasidagi rivojlanishning asosiy yo‘nalishi: aholiga sifatli oliy ma’lumot olish imkoniyatini ta’minlaydi.

Keyingi yo‘nalish – bu global Internet ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash, onlayn, masofaviy o‘qitish dasturlari, yangi avlod raqamli va elektron o‘qitish vositalarini tizimga keng joriy etishdan iborat.

Mazkur sharoitlarni ta’minlash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini boshqarishni samarali tashkil etish;

ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifatini oshirish, axborot va telekommunikatsiya tizimlaridan samarali foydalangan holda uzluksiz kasbiy rivojlanish muhitini yaratish;

xalq ta’limi tizimi muammolari bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlarini ko‘paytirish va ularning natijalarini, sohaga tatbig‘ini nazoratga olish;

pedagoglar uchun ish joyidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyatlarini ta’minlash;

o‘quv-uslubiy majmualarda innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish, elektron ta’lim resurslarining variativligiga erishish.

Shuningdek, keltirilgan sharoitlar pedagoglarni, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamonaviy standartlarga mos keladigan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, ta’lim natijalari sifati uchun yuqori ijtimoiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladigan, o‘quvchilarning ta’lim yo‘nalishlarini mos tarzda boshqaradigan, ularning shaxsiy va kasbiy o‘sishiga yordam beradigan tashkiliy-iqtisodiy va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish haqida to‘xtalganda, uni ta’lim tizimining ishlab chiqishi mumkin bo‘lgan mahsuloti, deb bilamiz. Innovatsion kompetensiyali o‘qituvchining resurs sifatidagi funksiyasi yangiliklar salohiyatini to‘plash manbai bo‘lib xizmat qilishi, insonga xos bo‘lgan qobiliyatlar taraqqiyotining namoyishi, istiqbolli muammolar echimini aniqlash, istiqbolni rejalashtirishni ifodalaydi. Shu narsa ravshanki, ta’lim sohasi, o‘z vazifasiga ko‘ra, jamiyat innovatsion rivojlanishining real va potensial subyektlarini shakllantirishni ta’minlay oladi. Demak, ta’lim tizimida innovatsion kompetensiyali o‘qituvchilar etarli miqdorda bo‘lishi uchun uni ishlab chiqarish kerak.

Ishlab chiqarish resurslarni tayyor mahsulotga aylantirish jarayonini anglatar ekan, innovatsion kompetensiyali o‘qituvchi salohiyatini ta’limning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchilik darajasidan istiqbolni shakllantiradigan, o‘zgartirishlar kiritadigan manbai nuqati nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Ta’lim kadrlar bilan ishlash uchun qanday imkoniyatlarga ega, uni shakllantirishning qanday usullari ishlab chiqilgan va hali nimalar yaratilishi kerak? Bu savollarga javob topishning ahamiyati juda katta, chunki ta’limning sifati yosh avlodning qobiliyatlari va subektivligini rivojlantirish imkonini beradi.

Ma’lumki, umumta’lim maktabining o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish o‘qituvchidan nazariy, amaliy va shaxsiy tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ta’lim tizimiga qo‘yilgan strategik va taktik vazifalarni hal qilish sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy darajasiga bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchilar innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish va o‘qituvchilarning uzluksiz ta’limga jalb qilinishini ta’minlash ta’lim muassasalari uchun ham, ta’limni boshqaruv

organlari darajasida ham dolzarb vazifadir. O‘qituvchilar innovatsion salohiyatining mohiyatini aniqlash va uni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini ishlab chiqish uchun uslubiy asos faoliyatning me’yoriy tuzilishi hisoblanadi. Bu jarayonda “...tezkor texnologik o‘zgarishlar davrida ehtiyojlar dinamikasi, talabni individuallashtirish va uni qondirish imkoniyatlarining oshishini anglatuvchi uzluksiz ta’limning tubdan yangi tizimini shakllantirish kechiktirib bo‘lmaydigan, echimini kutayotgan masaladir. Bundan tashqari, bunday ta’limning asosiy xususiyati nafaqat bilim va texnologiyalarni uzatish, balki ijodiy hamda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish, qayta tayyorlashdan iborat bo‘ladi” [11].

Yuqorida keltirilgan an’analar va muammolar o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish strategiyasini aniqlash yo‘nalishini belgilaydi. Shu sababli, vazifa o‘quv mazmunini ehtiyojlar asosida shakllantirish, pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha xizmatlarni variativlash orqali uzluksiz ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish innovatsonsini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-sonli Farmonida pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimini samarali tashkil etish, jumladan, malaka oshirish muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, malaka oshirish kurslarida esa tinglovchilarning salohiyatini inobatga olish uning maqsadlaridan biri etib belgilangan [3]. Shubhasiz, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini yuqori malakali professor-o‘qituvchilarsiz sifatli amalga oshirib bo‘lmaydi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi o‘ziga xos an’analar, istiqbollar va innovatsion rivojlanish tendensiyalariga ega. U o‘zining tuzilishiga, yangilanish va global ta’lim sohasining yaxlitligi integratsiyasiga ega. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning malakasini oshirishga bilvosita va bevosita aloqador holda, uzluksiz ta’lim tizimida ham qator muammolar mavjud:

1. Pedagogik ta’lim ko‘lamini kengaytirish va pedagogik oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining nafaqat ta’lim sohasida, balki turli xil gumanitar texnologiyalardan foydalanishni talab qiladigan boshqa sohalarda ishlashga yo‘naltirilishi. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kam ixtisoslashgan o‘qituvchilar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ishlaydilar. Boshqa tomondan, maktabda pedagogik ma’lumotga ega bo‘lmagan kishilar ham ishlashmoqda.

2. Umumta’lim maktabining haqiqiy ehtiyojlari va o‘qituvchilar tayyorlash sifati o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish. Bu, avvalo, maktab ta’limi mazmunini yangilash, o‘quv jarayonini uslubiy va moddiy-texnik ta’minotiga aloqadordir. Bunday sharoitda davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida katta o‘zgarishlar talab qilinadi.

3. Uzluksiz ta’lim, umr bo‘yi o‘qitish tamoyilining, malaka va kompetensiyaga qo‘yiladigan talablarning o‘sib borayotgan ahamiyatini hisobga olish.

4. O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga yangi talablarni tatbiq etish. Unda uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun sharoit yaratish ko‘proq amaliy yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining tendensiyalari saqlab turilgani holda, o‘qituvchiga individual maqsadli yordam ko‘rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar mexanizmi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

Ta’limni rivojlantirish bilan bog‘liq zamonaviy va istiqbolga qaratilgan muammolarni hal etishda o‘qituvchining vazifasi ta’lim sifatini ta’minlashda innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun ta’lim subyektlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, metodik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalarni kuchaytirish, amaliy va metodik maydonchalarni tashkil etish kerak. Bu o‘rinda oliy va malaka oshirish ta’limi muassasalari jarayonlarning tashabbuskori va ishlab chiqaruvchisi bo‘lishi zarur. Ushbu funksiya xalq ta’limi sohasiga doir ilmiy izlanishlarning amaliyotga tatbig‘ini ta’minlash, aniq tashabbuslar, o‘qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish orqali ta’minlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida innovatsion kompeten-siyasini rivojlantirishga tayyorgarlikka nisbatan past yoki o‘rta daraja kuzatilsa, ularga ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash va samaradorlikka yo‘naltirilgan sharoit yaratish zarur bo‘ladi. Yaxshi va yuqori darajali tayyorgarlikda o‘qituvchilarni raqobatbardosh saqlab turish, o‘zlarini namoyon qilishlariga imkon berish va tajribalarini ommalashtirishga e’tibor qaratish kerak. O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlanti-rishga tayyorgarligini muhokama qilishda shuni ta’kidlash kerakki, shaxsning etakchi fazilatlari qatorida kompetensiya bilan bir qatorda, innovatsion faoliyat ham muhimdir, bu intellektual tashabbus darajasida, ijodiy faoliyatning ortib borayotgan dinamikasida namoyon bo‘ladi. Chunki, uning shaxsiy sifatlari rivojlanishi uchun asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/630/1101-son, 24.07.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish innovatsonsini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish innovatsonsini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – QHMMB, 06/22/60/0082-son, 29.01.2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “2022–2026 yillarga xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134-son Farmoni. – QHMMB, 06/22/134/0407-son, 11.05.2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son Qarori. –QHMMB, 07/22/289/0562-son, 22.06.2022.
8. Адольф В.А., Ильина Н.Ф. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления: монография. Красноярск, 2007. 204 с.
9. Асмолов А.Г. Стратегия социокультурной модернизации образования: на пути к преодолению кризиса идентичности и построению гражданского общества // Психолого-педагогический поиск. 2010. № 2 (14). 21-39.
10. Джураев Р.Х. Интегративно-модульная технология непрерывной профессиональной подготовки специалиста / Узлуксиз таълим. – 2018. - № 4. – Б. 50-56.
11. Ильина Н.Ф. Становление инновационной компетентности педагога: вопросы теории и практики / монография. – Красноярск, 2014. – 204 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:327

Nozimaxon PO‘LATOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:mirzihidobidjonov@gmail.com

PhD I.Zohidov taqrizi asosida

DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE BY EXPLAINING ZELMEYERS’ THEORY IN IPTICS CLASSES IN HIGHER EDUCATION

Annotation

The article presents ways to explain the refractive index of the medium to the frequency of light waves incident on it to future phyusics teachers in higher education. In addition,theoretical calculations are presented by modeling the Zelmeyer formula in Maple software. By explaining Zelmeyer’s theory in optics classes in higher education the main task is to use infotmation technology and thereby develop their professional competence.

Key words: light, refractiveindex, medium, refraction, angle, force, wave, electron, dispersion.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПУТЁМ ОБЪЯСНЕНИЯ ТЕОРИИ ЗЕЛЬМЕЙЕРА НА УРОКАХ ОПТИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В статье представлены способы объяснения коэффициента преломления среды от частоты падающих на его световых волн будущим учителям физики вуз,а также представлены теоретические расчёты путём моделирования формулы Зельмейера в программе Maple .При объяснении теории Зельмейера на занятиях по оптике в высших учебных заведениях основная задача использовать информационные технологии и тем самым развивать свою профессиональную компетентность.

Ключевые слова: свет, показатель преломления, среда, преломление, угол, волна, электрон, дисперсия.

OLIY TA’LIMDA OPTIKA DARSLARIDA ZELMEYER NAZARIYASINI TUSHUNTIRISH ORQALI TALABALARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’limda bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilariga muhitni sindirish ko‘rsatkichini unga tushayotgan yorug‘lik to‘lqinlarini chastotasiga bog‘lanishini tushuntirish uslublari keltirilgan.Bundan tashqari Zelmeyer formulasi Maple dasturida modellashtirish orqali nazariy hisoblashlar keltirilgan. Oliy ta’limda optika darslarida Zelmeyer nazariyasini tushuntirish orqali ularda axborot texnologiyasidan foydalanish va bu orqali ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish eng asosiy vazifa qilib olingan.

Kalit so‘zlar: yorug‘lik, sindirish ko‘rsatkichi, muhit, sinish, burchak, kuch, to‘lqin, elektron, dispersiya.

Kirish. Jamiyatimizni rivojlantirish bilan mexnat bozorining o‘zgarib borishi kadrlar sonini ortishi, axborot muhiti globallashi ta’sirida oliy ta’limda bitiruvchilarga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy oliy ta’lim o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablari ham zarur. Shu bois talabalarga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o‘zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim. Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma’naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni hayotda yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi. Buning uchun ta’lim muassasalarida faoliyat oilb borayotgan har bir pedagogning kompetensiyasiyaga ega bo‘lishi muhimdir. Kompetensiya-olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati va layoqati tushuniladi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko‘nikma va malakani inkor etmagan holda, egallagan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi.

Oliy ta’limda bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilariga yorug‘lik dispersiyasi mavzusini tushuntirishda sindirish ko‘rsatkichini qaysi parametrlarga bog‘liqligini tushuntirish muhim hisoblanadi.

Yorug‘lik ikki muhitning chegarasiga tushganda, yorug‘lik to‘lqinlari qisman qaytadi, birinchi muhitga qaytadi (yorug‘likning qaytishi), qisman ikkinchi muhitga o‘tadi va qiyalik tushganda to‘lqinlarning tarqalish yo‘nalishi o‘zgaradi (yorug‘likning sinishi). Yorug‘likning qaytishi va sinishi tegishli qonunlarga muvofiq sodir bo‘ladi.

Sinishi qonunlarini ko‘rib chiqamiz

Sinishi yuzasiga tushadigan nur, tushish nuqtasiga o‘tkazilgan normal va singan nur bir tekislikda yotadi.

Tushish burchagi sinusining sinish burchagi sinusiga nisbati shu ikki muhit uchun o‘zgarmas kattalik bo‘lib, ikkita modda uchun doimiy qiymatdir va nisbiy sindirish ko‘rsatkichi deyiladi.

$$\frac{sin_i}{sin_r} = n_{21} = const \qquad (1)$$

Nisbiy sindirish ko‘rsatkichi $n21$ ikkinchi muhitning birinchisiga nisbatan nisbiy sinishi ko‘rsatkichi birinchi muhitdagi yorug‘lik tezligining nisbati v1 ikkinchi muhitdagi yorug‘lik tezligiga v2:

$$n_{21} = \frac{v_1}{v_2} \qquad (2)$$

Agar birinchi muhit vakuum bo‘lsa, u holda ikkinchi muhitning vakuumga nisbatan sinishi ko‘rsatkichi berilgan muhitning mutlaq sinishi ko‘rsatkichi deb ataladi.[3]

$$n_2 = \frac{c}{v_2} \quad (3)$$

Muhitning sinish ko‘rsatkichi (yoki shunchaki sinishi ko‘rsatkichi) vakuumdagi yorug‘lik tezligining ma’lum bir muhitdagi yorug‘lik tezligiga nisbati

$$n = \frac{c}{v} \quad (4)$$

(2) va (3) nisbatlardan moddalarning mutlaq sinishi ko‘rsatkichlari va ularning nisbiy sinishi ko‘rsatkichi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash oson

$$n_{21} = \frac{v_1}{v_2}\ c = \frac{n_2}{n_1} \quad (5)$$

Nur optik jihatdan kamroq zich muhitdan zichroq muhitga o‘tganda, ya’ni.n1< n2, nisbiy sinish ko‘rsatkichi $n21 > 1$ va i>r. nur optik jihatdan zichroq muhitdan kamroq zich muhitga o‘tganda $n21 < 1$ va (rasm 1,nur 1). Bunday holda, tushish burchagini oshirib, uning qiymatiga erishish mumkin i0, bu

$r0$ = 900, ya’ni singan nur ikki muhitning chegarasi bo‘ylab siljiydi (rasm.1, nur 3)



Rasm. i>i0 da to‘liq ichki qaytishning hosil bo‘lishi.

Tushish tushish burchaklari uchun sinr 1 dan katta bo‘lishi kerak, bu mumkin emas. Shunday qilib, nurlar ikkita muhitning chegarasiga tushganda, ulardan birinchisi optik jihatdan zichroq (n1 > $n2$), i0 katta burchak ostida , nurlar interfeys orqali o‘tmaydi, balki undan to‘liq qaytadi. Ushbu hodisa to‘la ichki qaytish deb ataladi va $i0$ burchagi- chegara burchagi deb ataladi va uni itush belgilanadi [1].

Burchakning qiymati itush nisbatidan topish mumkin

$$\frac{sini_{tush}}{sinr_0} = sini_{tush} = n_{21} = \frac{n_2}{n_1} \quad (6)$$

bu yerda $n2$-optik zichligi kamroq muhitning sinishi ko‘rsatkichi, $n1$- optik zichligi kattaroq muhitning sinishi ko‘rsatkichi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).Elektromagnit nazariyaga ko‘ra, har qanday muhitda yorug‘lik tezligi uning dielektrik Ɛ va μ magnit o‘tkazuvchanligi bilan belgilanadi

$$v = \frac{c}{\sqrt{\varepsilon\mu}} \quad (7)$$

(4) va (7) formulalarni taqqoslashdan kelib chiqadiki,

$$n = \sqrt{\varepsilon\mu} \quad (8)$$

Shunday qilib, muhitning sinishi ko‘rsatkichi uning elektr (Ɛ) va (μ) magnit xususiyatlari bilan belgilanadi. Ko‘pgina dielektriklar uchun μ birga yaqin deb hisoblasak, unda biz yozishimiz mumkin

$$n = \sqrt{\varepsilon} \quad (9)$$

Bir qator gazsimon va suyuq dielektriklar uchun bu nisbat juda yaxshi bajarilgan. Bularga azot, vodorod, karbonat angidrid, geliy, benzol va boshqalar kiradi. Biroq, boshqa ko‘plab muhitlar uchun, masalan, shisha, suv, spirtli ichimliklar uchun Ɛ $n2$ dan sezilarli darajada ko‘proq . Shunday qilib, suv uchun n2 =1.75, static holatda Ɛ =81. Bundan tashqari, tajriba shuni ko‘rsatadiki, n yorug‘likning to‘lqin uzunligiga bog‘liq, ya’ni yorug‘likning tarqalishi kuzatiladi. Sinishi ko‘rsatkichining to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi, (9) dan ko‘rinib turibdiki, n ni moddaning doimiysi sifatida ifodalovchi Maksvellning elektromagnit nazariyasi tomonidan bashorat qilinmaydi.

Maksvellning elektromagnit nazariyasi nuqtai nazaridan yorug‘lik dispersiyasini tushuntirishdagi qiyinchiliklar Lorents nazariyasi tomonidan yo‘q qilinadi. Lorents nazariyasida dispersiya elektromagnit to‘lqinlarning moddaning bir qismi bo‘lgan va to‘lqinning o‘zgaruvchan elektromagnit maydonida majburiy tebranishlarni amalga oshiradigan zaryadlangan zarralar bilan o‘zaro ta’siri natijasida ko‘rib chiqiladi. [5]

Birinchi yaqinlashishda majburiy tebranishlar faqat yadro bilan eng zaif bog‘langan tashqi elektronlar - optik elektronlar tomonidan amalga oshiriladi deb taxmin qilish mumkin. Oddiylik uchun faqat bitta optik elektronning tebranishlarini ko‘rib chiqamiz.

Elektron uchun Nyuton harakat tenglamasini yozamiz: [1]

$$\frac{d^2r}{dt^2} = F_{el} + F_{qar} + F_{maj} \quad (10)$$

bu yerda m-elektronning massasi.

Optik elektron quyidagi kuchlar ta’sirida bo‘ladi:

a) qaytaruvchi kvazielastik kuch , $F_{el} = kr$ bu erda k-elastiklik koeffitsienti

b) qarshilik kuchlari $F_{qar} = -g\frac{dr}{dt}$ bu yerda g qarshilik koeffitsient;

c) $F_{maj} = eE$ yon tomondan elektronga ta’sir qiluvchi majburiy kuch E

kuchlanishi bilan elektr o‘zgaruvchan maydon.

Yorug‘lik to‘lqinining maydon kuchi $E = E_0 sinwt$, bu erda E0-amplituda, ω tsiklik chastota.

(10) tenglamani standart shaklga keltiramiz:

$$\frac{d^2r}{dt^2} + \frac{g}{m}\frac{dr}{dt} + \frac{kr}{m} = \frac{e}{m}E_0 sinwt \quad (11)$$

$$\frac{d^2r}{dt^2} + 2y\frac{dr}{dt} + w_0^2 r = \frac{e}{m}E_0 sinwt \quad (12)$$

Bu yerda $y = \frac{g}{2m}$-susayish koeffitsienti, $w_0^2 = \frac{k}{m}$ elektronning xususiy tebranishining chastotasi.

Oddiy qilib aytganda qarshilik kuchini e’tiborsiz qoldirish mumkin deb taxmin qiling, ya’ni.

g=0.

$$\frac{d^2r}{dt^2} + w_0^2 r = \frac{e}{m}E_0 sinwt \quad (13)$$

Ushbu tenglamaning yechimi quyidagicha bo‘ladi

$$r = r_0 sinwt \quad (14)$$

Bu yerda $r_0 = e\frac{E_0}{w_0^2 - w^2}$Tavsiya etilgan echimning to‘g‘riligini (13) tenglamaga almashtirish orqali tekshirish oson.

Elektronning muvozanat holatidan siljishi natijasida atom (molekula) elektr dipol momentini oladi:

$$p = er = \frac{e^2E}{w_0^2 - w^2} \quad (15)$$

Agar muhit birlik hajmida bitta turning n atomlari bo‘lsa va ularning har birida faqat bitta elektron siljishi mumkin bo‘lsa, u holda hajm birligining elektr momenti yoki P moddasining qutblanishi teng bo‘ladi

$$P = Np = Ner = \frac{Ne^2E_0 sinwt}{w_0^2 - w^2} = \frac{NEe^2}{m(w_0^2 - w^2)} \quad (16)$$

Moddaning dielektrik o‘tkazuvchanligi Ɛ ga teng

$$\mathcal{E} = 1 + æ = 1 + \frac{P}{\varepsilon_0 E} \quad (17)$$

bu erda æ-moddaning dielektrik sezuvchanligi, Ɛ0 - vakuumning dielektrik o‘tkazuvchanligi (elektr doimiysi).

Shuning uchun (9), (16) ni hisobga olgan holda biz quyidagilarni olamiz:$n^2 = \mathcal{E} = 1 + \frac{Ne^2}{\varepsilon_0 m(w_0^2 - w^2)}$ (18)

- Zelmeyer formulasi. (18) ifodadan ko‘rinib turibdiki, sinish ko‘rsatkichi to‘lqinning elektromagnit maydonining ω chastotasiga bog‘liq.

Agar n birga yaqin bo‘lsa, u holda

$$n = 1 + \frac{Ne^2}{2m\varepsilon_0(w_0^2 - w^2)} \qquad (19)$$

va (18) formulasi soddalashtirilgan [1]

Sinishi ko‘rsatkichining grafigi n chastotaga ω (dispersiya egri chizig‘i) 2-rasmda keltirilgan. Past chastotalarda (ω<<00):

$$n = 1 + \frac{Ne^2}{2m\varepsilon_0 w_0^2} = const \qquad (20)$$

ya’ni juda past chastotalarda sinish ko‘rsatkichi deyarli doimiy (statik qiymat), so‘ngra ω (normal dispersiya, nuqta egri) o‘sishi bilan asta-sekin ortadi. ω = ω 0 da sinish ko‘rsatkichi n→∞. Yuqori chastotalarda (ω >> ω0) sinish ko‘rsatkichi birga intiladi, kamroq qoladi, chunki (19) yig‘indisidagi ikkinchi yig‘indi manfiy bo‘ladi.

Sinishi ko‘rsatkichining ∞ ga aylanishi fizik ma’noga ega emas va qarshilik yo‘qligi haqidagi soddalashtirilgan taxmin natijasida paydo bo‘ldi (g=0). Agar bu qarshilikni hisobga olsangiz, unda egri chiziq boshqacha bo‘ladi (rasm. 2, qattiq egri). MN soha-anomal dispersiya sohasi, bu yerda w chastota oshgan sari n kamaya boradi. Anomal dispersiya hodisasi yorug‘likning yutilishi bilan chambarchas bog‘liq: har qanday hududda g‘ayritabiiy dispersiyani keltirib chiqaradigan moddalar bu sohadagi yorug‘likni kuchli o‘zlashtiradi[4].



2-r Yolg‘iz yutish polosasi yaqinida yuz beradigan dispersiya va absorbsiya egri chizig‘i.

Tahlil va natijalar. Talabalar dispersiya hodisasini mohiyatini to‘liq tushinishlari uchun Maple dasturida matematik modellashtirildi. Zelmeyer formulasi bo‘yicha e=1.6 *10-19 Cl, π=3.14, N=(1), e=1.6 *10-19 Cl, m=9.1*10-31kg, w0=0.35*1016 , w=0.28*1016 dan w=0.40*1016 gacha, qadam 0.01 qiymatlar uchun sindirish ko‘rsatkichini unga tushayotgan yorug‘lik to‘lqinlari chastotasiga bog‘lanishini nazariy hisoblandi. Olingan natijalarga ko‘ra sindirish ko‘rsatkichini unga tushayotgan yorug‘lik to‘lqinlari chastotasiga bog‘lanishini grafigi chizildi va bu natija adabiyotlarda keltirilgan grafik bilan ustma ust tushishi ko‘rsatildi.

Xulosa va takliflar. Oliy ta’limda talim olayotgan talabalar kasbiy kompetentligini oshirishi uchun talaba zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi ,ta’lim –tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha sifatli bilim,ko‘nikma va malakalarni hosil qiluvchi pedagogik usullarni qo‘llay bilishi lozim.U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati,maqsadi va vazifalarni o‘rganib chiqib o‘quv jarayonida qo‘llay olishi lozim.Oliy ta’limda optika darslarida Zelmeyer nazariyasini tushuntirish orqali ularda axborot texnologiyasidan foydalanish va bu orqali ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish eng asosiy vazifa qilib olingan.

ADABIYOTLAR

1. Lansberg.G.S Optika.Uchebnoe posobiye dlya vuzov- 6-ye izdatelstva,stereot-M.:FIZMATLIT,2003-848 c.-ISBN 5-9221-0414-8.
2. O‘lmasova.M.H Optika, atom va yadro fizikasi 3-kitob. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi .Toshkent-2010
3. Sivuhin.D.V. Obshiy kurs fiziki-T.4.Optika.-Izd.3-M.:Fizmatlit,2005
4. Trofimova.T.IKUrs fiziki uchebnoye posobie dlya vuzov.-M:Akademiya,2006.
5. Savelyev.I.V Kurs obshey fiziki:ucheb.posobiye dlya studentov vuzov v 3 t:T.2 Elekrtichestvo i magnetism.volni.Optika – Lan,2011
6. Turdaliyev .U “OPTIKA” o‘quv qo‘llanma .Namangan 2023 yil
7. Ismanova.O.T “Science and innovation”xalqaro ilmiy jurnal,”developing students scientific research skills by solving physical problems numerically” 13.12.2022 1431-1435 bet.
8. Zisman.G.A ,Todes.O.M “Optika” izdaniye M.Lan
9. Iveronova .V.I “Fizicheskiy praktikum”optika Nauka-1968 god
10. Ismanova O.T,Turdaliyev U.V ,Suvanov.A.X “Yorug‘lik difraksiyasining intensivlik taqsimotini videokom intensities dasturida modellashtirish” 14.02.2022 yil .

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK 372.9.36

Xudayor RAJABOV,
Urganch davlat universiteti dotsenti
E-mail: rajabov@mail.ru
Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPING INFORMATION-METHODICAL COMPETENCE OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS

Annotation
The article talks about the importance of information technologies in the development of information and methodical competence of future chemistry teachers. In order to reveal the topic of the article, local foreign literature was used.
Keywords: competence, information, methodical, education, efficiency, chemical education.

ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

Аннотация
В статье говорится о значении информационных технологий в развитии информационно-методической компетентности будущих учителей химии. Для раскрытия темы статьи была использована местная зарубежная литература.
Ключевые слова: компетентность, информация, методическое, образование, эффективность, химическое образование.

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINI AXBOROT-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya
Maqolada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini axborot-metodik kompetentligini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati haqida so‘z boradi. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida mahalliy xorijiy adabiyotlardan foydalanildi.
Kalit so‘zlar: kompetentlik, axborot, metodik, ta’lim, samaradorlik, kimyo ta’limi.

Kirish. XXI asrda oldimizda turgan muhim vazifalardan biri bugungi kunda ta’lim oluvchilarining kelajagini to‘g‘ri belgilab berish, ularning taqdiriga befarq bo‘lmaslik hisoblanadi. Shunga asoslanib jamiyatda ta’lim-tarbiya berishdagi eski an’analarga ko‘ra itoatkor ijrochi o‘rniga, vaziyatga qarab tez moslasha oladigan, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil ravishda qaror qabul qilib ijodiy yondashgan holda hal qilishga qodir va o‘z qarorlari uchun mas’uliyatni his qiladigan insonni tarbiyalashdek yangi ijtimoiy buyurtma paydo bo‘ldi deyish mumkin.

Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ilmiy-texnik taraqqiyot oliy ta’lim tizimi oldiga raqamli ta’lim muhitida, buyurtmachilar talablariga mos, raqobatbardosh, yuqori kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis-kadrlar tayyorlash talabini qo‘ymoqda. Raqamli ta’lim bu sifatli ta’lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Raqamli ta’limda qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar ta’lim sifatini ta’minlash omili bo‘lib xizmat qiladi.

Barqaror taraqqiyotga erishish uchun bo‘lajak mutaxassislar raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashlari zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli ta’limni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz.

Mamlakatimizda ta’lim sohasi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan bir paytda oliy ta’lim muassasalari (OTM)da raqamli ta’lim muhitida faoliyat ko‘rsatishga qodir, raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning samarali yo‘llarini izlab topishni kun tartibiga qo‘yadi. Shu o‘rinda OTMlardagi mutaxassislar tayyorlash, avvalo, jahon mehnat bozorining zamonaviy talablaridan kelib chiqib amalga oshirilishini taqozo etadi. Tayyorlanadigan mutaxassislarga bugungi sharoitda qo‘yiladigan asosiy talablar bu avvalambor chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish, hatto mutaxassisligidan qat’iy nazar chet tillarni ham mukammal bilishi zarurligidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘qituvchi shaxsining yosh avlodni kamolotga yetkazish, uning zaruriy kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi haqidagi qarashlarni buyuk Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ilmiy-pedagogik g‘oyalar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘inoniylar, shuningdek, “Ma’mun akademiyasi” deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko‘rsatgan allomalar ijodida inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi omil sifatida baholanib, ilmiy o‘rganilgan. Shuningdek, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, Al-Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy kabi o‘z davrining tasavvuf sohasidagi yetuk bilimdonlari qarashlarida ham ma’naviy kamolotga tan, ruh, ong pokligini saqlash va kasb-hunar tarbiyasi orqali yetishish g‘oyasi ilgari surilgan.

Jumladan, respublikamizda pedagogika va psixologiya sohasida Sh.Qurbonov, J.Xasanboev, E.Seytxaliliov, R.Ahlidinov, N.Xo‘jaev, V.Karimova, F.Akramova, O.Hayitov, Z.Nishonova,Yu.Ahrorov, M.O.Ashurov, S.G‘ulomov, N.X.Xo‘jaev,O.A.Abdullaev, I.I.Inomov kabi olimlar o‘z ilmiy yo‘nalishlarida o‘rganib tadqiq etganliklarini ko‘rish mumkin.

Xorijda va MDH davlatlarida olimlari tomonidan pedagogika va pedagogik psixologiyada ushbu mavzuni rivojlantiruvchi bir qancha ilmiy yo‘nalishlarda paydo bo‘ldi. Ular “rivojlantiruvchi ta’lim” (V.V. Davidov, L.V. Zankov, D.B. El’konin), “muammolarga asoslangan ta’lim” (A. M. Matyushkin, M. I. Maxmutov, V. Okon), ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasiga asoslangan “ijodiy pedagogika” (TRIZ), ijodiy shaxsni rivojlantirish nazariyasi(TRTL)ga (G. S. Alsshuller, I. M. Vertkin), talabaning intellektual ijodiy shaxsini tarbiyalash nazariyasi (I.P. Ivanov, V.A. Suxomlinskiy va boshqalar) va o‘qituvchining ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash nazariyasi (S.A.Arxangelskiy, N.F. Gonobolin, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin va boshqalar) kabilar hisoblanadi.

O‘qituvchi shaxsining ijodiy fazilatlarini rivojlantirish yangi “andragogika” fanini yaratish zarurligini asoslashga bag‘ishlangan asarlar(X.Sh.Jarvis, M.Sh.Noulz, R.M.Smit)da ham ko‘rib chiqilgan.

Kasbiy kompetentlik va kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi atamalari mohiyati K. V. Shaposhnikov, A. K. Markova, T. Ye. Isaeva, E. G. Zlotnikov, M. S. Pak, I. A. Orlova, M. K. Toletova, Yu. Yu. Gavronskaya, M. Yu. Churkina V.N.Vvedenskiy, N.D.Kuchgurova, M.I.Lukyanov, L.M.Mitin, J.Raven, V.A.Slastenin, T.M.Sorokina, A.V.Xutorskov, S.E.Shishova va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mohiyati va mazmuni A. A. Verbiskiy, V. A. Metaeva, N. N. Nechaev, G. I. Rezniska, Uiddet (Whiddet S.), Xolliford (Hollyforde S.), P. Xayne (Heine R.), A. G. Bermus, I. A. Zimney, A. V. Xutorskiy, R. N. Azarova, N. M. Zolotareva, Yu. Yu. Gavronskaya, I. B. Kostыleva, V.N. Mixelkevich, N. F. Talыzina, N. T. Pechenyuk, L. B. Xixlovskiy, N. I. Llmazovoy, M. S. Minko, V. D. Shadrikov va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar.

OTM larda yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifat ko‘rsatkichlari quyidagilarga bog‘liq:

- zamonaviy talablarga javob bera oladigan me’yoriy va o‘quv-metodik hujjatlar, ya’ni davlat ta’lim standarti, namunaviy o‘quv rejalari, ishchi o‘quv rejalari, namunaviy o‘quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo‘shimcha maxsus adabiyotlar, ko‘rgazmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalarning mavjudligi;

- ilmiy pedagogik kadrlar ya’ni professor, dotsent, o‘qituvchi, malakali o‘quv ustalari, texnik xodimlarning bilim, ko‘nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha darajada yuqoriligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi;

-o‘quv jarayonining moddiy-texnik (o‘quv binolari, o‘quv auditoriyalari, o‘quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko‘chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va xokazolar) jihatdan yetarli darajada ta’minlanganligi;

-ijtimoiy va o‘quv-texnologik jihatdan qulay muhit yaratilganligi;

- tashkiliy hamda o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

Shu o‘rinda bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarining raqobatbardoshlik darajasi tahlili quyidagi muammolarni mavjudligini ko‘rsatadi:

1. Bitiruvchilar mehnat bozoridagi holat va egallagan malakalarini turli sohalarda namoyon qilish imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotga ega emas. Bitiruvchilar mehnat bozoridagi holatdan xabardor bo‘lishlari lozim, mehnat bozorining hozirgi va kelajakdagi talablarini o‘z mehnatini turli sohalarda qo‘llash nuqtai nazaridan ma’lumot manbalarini mustaqil tarzda tahlil qila olishi lozim.

2. Ko‘pgina bitiruvchilar mustaqil tarzda ish bilan bandlik muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega emas, ish bilan bandlik muammosini OTMni bitirgunga qadar ortga surishadi. Bu yerda asosiy e’tiborni OTMlarda bitiruvchilarni bandlik xizmatlarini amalga oshiruvchi markazlar faoliyatiga qaratilishi lozim, bular o‘z navbatida bitiruvchilarni ishga joylashtirish va bitiruvchilarni ijtimoiy-psixologik va malakaviy ko‘nikish masalasiga e’tibor qaratishlari lozim.

3. Bitiruvchilarda bo‘lajak ish o‘rniga yuqori talablar, oylik ish haqini yuqori bo‘lishi va yuqori martabalarga tezda ega bo‘lish xohishlari ko‘p hollarda uchramoqda. Ish beruvchining bahosi va bitiruvchilarning o‘zi haqidagi fikri o‘rtasidagi qarama-qarshilik bitiruvchilarni ishga ega bo‘lish imkoniyatlarining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, OTMlarga mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ishga joylashish masalasini mustaqil tarzda hal qila oladigan raqobatbardosh bitiruvchilarni tarbiyalash kabi muhim vazifa yuklatilgan.

Quyida mavzu ob’ekti bo‘lgan ikki hil komptensiyaga tarif beramiz.

-metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

-informatsion (axborot) kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

Shunday qilib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish va ularga asoslangan ta’lim texnologiyalari kuchli ta’lim resurslarini birlashtirgan eng samarali va ko‘p funksiyali vositad hisoblanadi. Shuning bilan birga, ta’limda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanishda ko‘plab tadqiqotchilar e’tibor beradigan muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanganda shaxsiylashti-rilgan ta’lim metodlari e’tiborga olinmaydi. Shunday qilib, masalan, O.G.Smolyaninovaning ta’kidlashicha: "Multimedia-dan foydalanishga asoslangan o‘qitishning haqiqiy o‘ziga xos xususiyatlari multimedia dasturlari muallifining kognitiv metodik foydalanuvchi uslubiga mos keladigan taqdirdagina sodir bo‘ladi" [169];

2) ta’limning kommunikativ, ijtimoiy va kognitiv jihatlari e’tiborga olinmaydi. Grafikali, video tasvirlar va audio ma’lumotlarning joriy etilishi ko‘pincha talabalarga sezilarli hissiy va motivatsion ta’sir ko‘rsatadigan samarali muloqotni ta’minlash muammolarini hal qilmaydi va har doim ham ma’lumotni idrok etish, tushunish va yodlashni yaxshilash muammosini hal qilmaydi. ba’zan hatto (talabalar idrok etishning shovqin kanallari tufayli) xalaqit beradi;

3) o‘qituvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish sohasidagi savodxonlik darajasi pastligi (pedagogik maqsadlarni amalga oshirish uchun multimedia vositalarini oqilona tanlash imkoniyati mavjud emasligi, multimedia imkoniyatlarini bilishi) tufayli ta’limda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanganda bepul foydalanishga tayyor emasligi; ularni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, multimedia modullarini yig‘ish uchun multimedia ta’lim mahsulotlarini ishlab chiqish vositalariga ega bo‘lish). Shu sababli, ko‘pincha qo‘llaniladigan zamonaviy axborot kommunikatsiya

texnologiyalari vositalarining haqiqiy ta’lim jarayoniga mos kelmasligi sababli mavjud dasturlar va resurslarni rad etish;

4) an’anaviy ta’lim tizimlarida yangi didaktik vosita sifatida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish ularning ta’lim va rivojlanish resurslarini optimal tarzda amalga oshirish imkoniyatini bermaydi.

Xulosa. Ko‘rinib turibdiki, ushbu muammolarning barchasi ta’limni raqamlashtirish jarayonining asosiy dirijorlari bo‘lmish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Shu bois oliy pedagogik ta’limni raqamlashtirishda ta’limning barcha turlarini raqamlash-tirishga xos bo‘lgan umumiy maqsadlardan tashqari (ta’lim sifatini oshirish, uni individuallashtirish, shaxsiylashtirish va intensivlashtirish asosida ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hamda istiqbolli o‘qitish usullari va boshqalar), birinchi rejada ma’lum bir ta’lim sohasi uchun ustuvor bo‘lgan maqsadlarni qo‘yadi.

ADABIYOTLAR

1. Гуревич А.М. Ассессмент: принципы подготовки и проведения.– М.: Речь, 2005. – 235 с.
2. Насырова Э. Ф. Формирование профессиональной компетентности учителя технологии и предпринимательства в процессе обучения дисциплинам предметной подготовки // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук,Москва – 2007];
3. Дзюбенко И.А. Сущность понятий «компетентность» и «компетенция» // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2013. № 1. С. 18-20.
4. Боголюбов Л.Н. Базовые социальные компетенции в курсе обществоведения//Преподавание истории и обществознания в школе. № 9. 2002.
5. Леднев В.С., Никандров Н.Д., Рыжаков М.В. государственные образовательные стандарты в системе общего образования: теория и практика. – М., 2002.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 330.02

Rayxon RAXIMOVA,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi
E-mail: r_raximova@gmail.com

O‘zXIA dotsenti, f.f.f.d.(PhD) M.Xo‘jayev taqrizi ostida

JAHONDA OILA AJRIMLARI GLOBALLASHUVNING ASOSIY MUAMMOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Ajralish – bola rivojlanishining eng muhim omili asosan butun hayoti davomida ta’sir qiladigan “to‘liq oila” tushunchasiga chek qo‘yadigan hodisa. Bu jarayonda bolalarni tarbiyalash qiyinlashadi. Aksariyat ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini unutib, ularning ta’lim olishiga e’tibor bermaydilar.

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida jahonda oila inqirozi, xususan ajralishlar sonining ko‘payishi, kelib chiqish sabablari va oldini olish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, oila, omil, ajrim, munosabat, globallashuv, tizim.

РАЗВОД В СЕМЬЕ В МИРЕ КАК ГЛАВНАЯ ПРОБЛЕМА ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

Развод – явление, которое ставит крест на понятии «полноценная семья», которое является важнейшим фактором развития ребенка и влияет на него на протяжении всей его жизни. В этом процессе становится сложно воспитывать детей. Большинство родителей забывают интересы своих детей и пренебрегают их образованием.

В данной статье рассматривается кризис семьи в мире в условиях глобализации, в частности рост числа разводов, причины возникновения и пути их предотвращения.

Ключевые слова: стабильность, семья, фактор, решение, отношения, глобализация, система.

FAMILY DIVORCE IN THE WORLD AS THE MAIN PROBLEM OF GLOBALIZATION

Annotation

Divorce is a phenomenon that puts an end to the concept of a “complete family”, which is the most important factor in the development of a child and affects it throughout its life. In this process, it becomes difficult to raise children. Most parents forget their children's interests and neglect their education.

This article examines the global family crisis in the context of globalization, in particular the increase in the number of divorces, causes of origin and ways of prevention.

Key words: stability, family, factor, decision, relationship, globalization, system.

Kirish. “Oilalar barqarorligining bosh omillaridan biri sanalgan moddiy ta’minlanganlik darajasining to‘lqin ko‘rinishida o‘zgarib turishi ichki sosial tanglikni kuchaytirmoqda. Bunday noqobil – ya’ni, ichki munosabatlar tizimi izdan chiqqan oilalarga alohida e’tibor berish va tegishli yordamlar ko‘rsatish zarur. Noqobil oilalarda ijtimoiy-ruhiy yetuklikka erishmagan ota-onalar orasida alkogolli yoki giyohvand moddalarni qabul qilish yoki qonunbuzar hatti-harakatlarga sabab bo‘lmoqda. Yechimi topilmagan muammolar girdobidagi bu kabi oilalar ziddiyatlarida aziyat chekuvchi asosiy qatlam esa bolalar bo‘lmoqda. Ammo, tadqiqot ishtirokchilarining mutlaq ko‘pchiligi 71,8% o‘z oilasidagi muhitni «yaxshi» deb biladilar. 66% ishtirokchilar oilaviy hayotidan qoniqadilar”[1].

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O‘zbekistonda ham ajralish muammosini o‘rganishga keng ilmiy jamoatchilik e’tibori qaratilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda ajralish muammosini ilmiy asosda o‘rganish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu o‘rinda ajralish omillari va sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Faktlar shuni ko‘rsatadiki, ajralish zarur bo‘lgan hollarda ham, barcha muammolar ajralish bilan tugamaydi. Ajralayotgan tomonlar iqtisodiy, moddiy va ma’naviy jihatdan silkinib, ularning jamiyatdagi mavqeiga ta’sir qiladi. Shu sababli, ajralish, so‘zning to‘g‘ri ma’nosida, nikohdan oldingi erkinlikka yoki najotga qaytishni anglatmaydi. Keyinchalik katta muammolar boshlanadi: bolalar kim bilan qoladi, aliment to‘lash masalasi va eng murakkab masala - qayta oila. Bolalarning o‘gay ona yoki ota, o‘gay aka- uka va opa-singillarga bo‘lgan xatti-harakati, onaning yangi turmush o‘rtog‘i va uning bolalariga munosabati o‘gay ota-onalik davrida o‘zini yolg‘iz his qiladigan bolaning egoizmi va axloqiy ongida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan, onaning tashvishidan kelib chiqadigan qarama-qarshi xatti-harakatlar bolani bezovta qiladi. Ba’zida hamma narsadan to‘ygan onaning qattiq reaksiyalari ularga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha ona bolasini mag‘lubiyatga uchragan vaziyatda ayblaydi. Bu xatti-harakatlar bolaning ota-onasi tomonidan sevilmasligini his qiladi.

Tajribadan ma’lumki normal sharoitda voyaga yetgan, to‘g‘ri tarbiya va ta’lim olgan yosh avlod barpo etgan oila mustahkamdir. Binobarin, yoshlarning yoshligidanoq milliy ruhda tarbiyalanishi, yaxshi o‘qishi, bilimli, zukko bo‘lishi, kasb-hunar egallash odatlariga ega bo‘lishi oilaning yaxlitligi nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. “Shunday qilib, oilada kasbiy ijtimoiylashuv – shaxsning kasb egasi sifatida shakllanish va o‘z imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda namoyon eta olish jarayonidir. Tadqiqotda quyidagi kasbiy-ijtimoiy infrastrukturalarni ajratdik: tashqi infrastruktura, ya’ni oila va oilaviy munosabatlar, ta’lim dargohlari, turli mutasaddi tashkilotlar va ijtimoiy institutlar faoliyati, OAV, internet, shuningdek tarbiya maskani sifatida “ko‘cha”; ichki infrastruktura sifatida turli

kasbga yo‘naltirilgan qarash, g‘oya, qadriyat, hayotiy va ma’naviy tajriba, fikr, tafakkurlarning inson hayotida namoyon bo‘lishi va ularning funksionallik darajalarini anglatadi”[2].

Dolzarb masalalardan biri - nikohdan oldin yoshlar o‘rtasidagi bo‘lajak oilaviy munosabatlarni rejalashtirish, barcha nozik jihatlarni eng kichik tafsilotlargacha aniqlashtirishdir. Albatta, bizning mentalitetimiz, urf-odat va tafakkur tarzimiz hali G‘arb amaliyotiga xos bo‘lgan “nikoh shartnomasi” ni ommaviy qo‘llashga imkon bermaydi. Ma’lumki, bir qator mamlakatlarda oila qurgan yoshlar o‘zaro munosabatlarining kelajagi haqida oldindan yozma shartnoma tuzadilar. Bu shartnoma ularning huquq va majburiyatlarini, mulkka bo‘lgan talablarini belgilaydi. Ba’zan shunday fikrlar bildiriladiki, nikoh shartnomasini imzolash natijasida yuksak, sof his-tuyg‘ular amalga oshadi, ya’ni kelajakda ishonchsizlik va shubhalar paydo bo‘lishi mumkin. Biroq, bu masalaga mentalitet darajasida emas, balki huquqiy va ijtimoiy voqelik prizmasidan yondashish to‘g‘riroqdir.

Bizni tashvishga solayotgan yana bir muammo oiladagi zo‘ravonlikdir. Hatto, eng rivojlangan jamiyatlarda ham ayollar har xil zo‘ravonlikka duchor bo‘lishadi. O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi uydagi zo‘ravonlikni aniqlash juda qiyin. Mamlakatimizda zo‘ravonlik, shuningdek ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik hatto voqea bo‘lsa bu qabul qilinishi mumkin emas. An’analar va mentalitetimizdan foydalanib, bunday xatti-harakatlarni targ‘ib qilish axloqsizlik ekanligini ta’kidlamoqchimiz. O‘zbekiston xalqining urf-odatlarida ayollarga katta hurmat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan. Oilaviy qadriyatlar jamiyatimizning eng muhim qimmatli qadriyatlari bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Turli madaniyatlar ta’sirida O‘zbekistonda oila instituti hech qachon o‘z kuchini yo‘qotmagan. Bugun o‘zining ma’naviy-ruhiy fazilatlari, xalqimizning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari bilan yashayotgan O‘zbekistonlik yoshlar oilaning hayotidagi beqiyos o‘rni, oila qurish, oila muqaddas ekanligini mas’uliyatini chuqur anglab yetmoqda. Oila shunday muqaddas birlikki, uning samimiyligi, pokligiga hech qanday sharoitda zarar yetkazish mumkin emas. Oila zamonaviy sivilizatsiyaning asosidir. Bugungi jamiyatning shakllanishi, uning asosi bo‘lgan barcha ma’naviy qadriyatlar ilk bor shu o‘choqda yaratilib, so‘ngra jamiyatning umumiy qadriyatlariga aylanadi. Rivojlangan jamiyatlarda oila salomatligi axloqiy va milliy qadriyatlar tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi u jamiyat tomonidan himoya qilinadi.

Buyuk mutafakkirlarimiz ta’kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashda oila birinchi o‘rinda turadi. Oila asosiy tarbiyaning o‘chog‘idir. Oila har bir xalq, millat davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, ma’naviy, moddiy tarbiyasida asosiy omil va vosita oila hisoblanadi. Bunda ota-ona san’atkor, bola esa san’at asari, tarbiya esa san’atning o‘zidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada globallashuv sharoitida jahonda oila ajrimlarining asosiy muammosi va uning mohiyatini yoritib berishning o‘ziga xos xususiyatlari ob’ektiv o‘rganildi hamda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oila ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan muqaddas an’ana va urf-odatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, iymon-e’tiqod, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq, ma’naviyat va madaniyat ko‘nikmalarini singdiradi. Bu esa komil insonga xos bo‘lgan xislatlardir. Oilada bu fazilatni farzandlar ongiga singdirish uchun ota-onalar savodxonligi, zamon bilan hamnafasligi, ajdodlar ruhiga sodiqligi, sog‘lom tafakkurga ega ekanlgi muhim rol’ o‘ynaydi. “Oilada sog‘lom va obod turmush tarzi iqtisodiy va ma’naviy omillarning o‘zaro uyg‘unligida qaror topadi. Shuning uchun oila infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiy asoslarini madaniylashtirish, milliy mafkuraning bosh g‘oyasi – erkin va farovon hayotni yaratish, uning ma’naviy-madaniy darajasini yuksaltirish sohasida keng ko‘lamda davlat siyosatini amalga oshirish, shaxsiy va ijtimoiy farovonlikning uyg‘unligini ta’minlash sog‘lom turmush tarzi qaror topishining negizini tashkil etadi”[3].

Barkamol insonni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi ekan, bu vazifani bajarishda, ya’ni yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda Xitoy faylasufi Konfusiyning so‘zlarini yodga olishimiz zarur: «Barkamollik darajalariga erishish uchun qalb pokizaligi haqida o‘ylab ko‘rish kerak. Qalb pokizaligiga esa yurak haqiqatni izlaganda va ruh oriflikka intilgan taqdirdagina erishiladi. Bularning barchasi haqiqiy bilimga bog‘iqdir» [4].

Oiladagi sog‘lom muhitni yaratish ham ota, ham onaga bog‘liq. Er-xotin bir-birini tushunishi va e’zozlashi, bir-biriga ishonch bildirishi, mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, farzand tarbiyasida teng mas’ullik ota-onaning oila oldidagi burchidir. Oilada farzandning ota-ona oldidagi burchi ham nihoyatda muhim. O‘g‘il bola otaga qiz bola onaga ko‘makdosh bo‘lishi zarurdir. Bog‘bon umid bilan nihol ekkani kabi, ota ona ham ezgu niyat bilan farzandini dunyoga keltiradi, ardoqlab o‘stiradi. Daraxtning shirin - shakar mevalaridan bahramand bo‘lishni orzu qilgan bog‘bondek, ota-ona ham o‘z farzandi aqlli, mehnatsyevar, bilimli jamiyat taraqqiyoti uchun halol mehnat qiluvchi, ma’nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash uchun bor kuchi va imkoniyatini sarf etadi.

Hech bir ota-ona farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi, chunki, xalqimiz aytganidek, farzand yurak yog‘idan yaratilgan. Farzand tarbiyasi haqida Fitratning “Oila” asarida mukammal ko‘rsatmalar berilgan. U, “har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”,[5] - deb yozadi. Bu fikrlarga qo‘shilgan holda, yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, oilada har bir farzandning yuksak ongi, yangicha tafakkur va dunyoqarashi, odob-axloqi, yuksak ijtimoiy munosabat mohiyatini anglab yetishi ota-onaning majburiyati, hattoki, axloqiy va huquqiy burchidir. Chunki, Vatanning kelajagi bo‘lgan farzandlarimizga “milliylik”, “milliy tuyg‘u”, milliy mafkura, iymon, vatanparvarlik, insonparvarlik tushunchalarini bolaning besh, yetti yoshidan ongiga chuqur singdirganimizda ko‘zlangan maqsadga ya’ni, oilada ma’naviy – madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy, sog‘lom muhitning yaratilishiga erishish mumkin. Aynan shu davrda bola yaxshi-yomon narsalarni anglay boshlaydi. “Oilada farzand ijtimoiy makonga bo‘lgan shaxsiy munosabatini, ya’ni o‘zi yashayotgan jamiyat hamda umumbashariyat hayotiga bo‘lgan o‘z shaxsiy qarashlari tizimini shakllantiradi. Farzandni mana shu ijtimoiy makonga nafaqat kiritish, balki mana shu makon ichida uning faol yashashini ta’minlash zarur. Farzandning ijtimoiy makondagi faolligining ko‘rsatkichlaridan biri uning kasbiy faolligidir.

Kasbiy faollikni ta’minlash uchun, avvalo, oila muhitida farzandning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlash zarur. Binobarin, oilaning ijtimoiy mavqei oila farzandining ijtimoiy integratsiyasi orqali yo yuqoriga ko‘tariladi, yoki pastga ketadi. Farzandning tarbiyalanganlik darajasi oilaning ijtimoiy mavqeini ta’minlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Demak, oilada kasbiy ijtimoiylashuvni ta’minlashning bugungi kundagi shart-sharoitlari yangi vazifani, ya’ni o‘zbek oilalaridagi kasbiy ijtimoiylashuvni ta’minlash jarayonini

innovasion mazmun bilan boyitish vazifasini kun tartibiga qo‘yadi. Bugungi kunda kasbiy ijtimoiylashuv borasidagi milliy va umumbashariy qadriyatlarni, mavjud qarashlarni tanqidiy va ijodiy o‘zlashtirish va keng targ‘ib etish zarur”[6].

Ajralishlar ko‘plab noxush hodisalar: noto‘liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida qonunbuzarlikning ko‘payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg‘izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o‘zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sabali ham ajralishlar sonini kamaytirish bo‘yicha xalq va davlat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsagina ma’lum bir natijaga erishish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oilada ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy muhit sog‘lom bo‘lsa, bolaning ongi yaxshilik, mehr-oqibat, or-nomus, samimiyat, to‘g‘riso‘zlik kabi muqaddas tushunchalarni qamrab oladi. Ota-onaga, Vatanga va atrofdagi barcha insonlarga hurmat burchini chuqur anglash odamiylik fazilatidir. A.Avloniy esa tarbiya doirasini keng tarzda mushohada qilib, uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. A.Avloniy tarbiyani quyidagicha tasvirlab beradi: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”,[7] –. Chunki, Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko‘chadi. Masalan, u tana va ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: “Badan tarbiyasining, fikrlar tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkalasi bir choponning o‘ng ila ters tomoni kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustuni qo‘yub, astarini yuvib ovvora bo‘lmoq kabidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur”. Shunday ekan, jism va ruh shakl bilan mazmunning uzviy birligi va ularning o‘zaro bir-biriga ta’siri masalasi juda muhim va murakkabdir.

ADABIYOTLAR

1. Palvaniyazov A.Yu. O‘zbekistonda yosh oilalarning barqarorlik omillari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Sosiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2019. -B.17.
2. Begmatova D.M. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. -B.16.
3. Ro‘zimurodov S.M. Oilada sog‘lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik muammolari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2020. -B.18.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O‘zbekiston, 2000.
5. Fitrat. Oila. –Toshkent.: Ma’naviyat. 1998.-B. 13.
6. Begmatova D.M. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. -B.21.
7. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent.: Ma’naviyat. 1998. –B.38.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 159.92

Xusnora SAYDULLAYEVA,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti o‘qituvchisi

DSc N.J.Yarashova taqrizi asosida

KONCHILIK YO‘NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KASBIY LEKSIK KOMPETENSIYANI KONTENTGA ASOSLANGAN RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada konchilik yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda kasbiy leksik kompetensiyani kontentga asoslangan rivojlantirish xususiyatlari va kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish tamoyillari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: leksik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kasbiy leksik kompetensiya, leksik minimum, metodika.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НА ОСНОВЕ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ МАЙНИНГОВОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются особенности развития профессиональной лексической компетенции на основе контента при обучении иностранным языкам студентов горного направления и принципы разработки эффективной методики развития профессиональной лексической компетенции.

Ключевые слова: лексическая компетенция; коммуникативная компетенция; профессиональная лексическая компетенция, лексический минимум, методика.

FEATURES OF DEVELOPMENT BASED ON THE CONTENT OF PROFESSIONAL LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS OF THE MINING FIELD

Annotation

This scientific article discusses the features of the development of content based lexical competence in teaching foreign languages to students of mining direction and the principles for developing an effective methodology for the development of lexical competence.

Keywords: lexical competence; communicative competence; professional lexical competence, lexical minimum; methodology.

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2012-yil 10-dekabrdagi Prezident Qarori hamda uning davomi sifatida chiqarilayotgan qaror va farmonlarning asosiy maqsadi talabalarning bo‘lg‘usi ilmiy va kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda kerak bo‘ladigan til malakalarini xalqaro talablar (CEFR) darajasida rivojlantirishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun uning komponentlari sanalgan lingvistik kompetensiya, sotsioling-vistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, shuningdek hozirgi kunda dolzarblik kasb etayotgan plyurilingval (ko‘p tilli) va plyurikultural (ko‘pmadaniyatlilik) (CEFRning 2020 yilgi nashridan olindi) kompetensiyalari rivojlantirilishiga e’tibor qaratish muhimdir. Tinglab tushunish va o‘qish, muloqot malakalari ya’ni gapirish va yozish malakalari kabi til kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsiyalash orqali rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, CEFR ko‘rsatkichlari (deskriptorlari) gapirish, dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan leksik kompetensiyani rivojlantirishni diqqat markazida tutadi. Lingvistik kompetensiya turli-tumanlik tamoyili asosida so‘z boyligi, so‘z biriklaridan sohaga doir turg‘un birikmalar, idiomalar, jargonlardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, so‘z tartibi va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish kabi me’yorlarga amal qilinishini talab qiladi.

Nofilologik ta’lim yo‘nalishlari talabalari egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar sifatida xalqaro CEFR hujjatida til o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga mos keluvchi vazifa keltirib o‘tilgan. Ammo bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq belgilashda talabaning kontekstdan kelib chiqib, uning tilni qo‘llashga bo‘lgan ehtiyojlari yanada chuqurroq o‘rganilishiga e’tibor qaratish lozim. Nofilologik ta’lim yo‘nalishlari “Amaliy xorijiy til” fan dasturi kontenti tahlil qilinganda, talabalarning ingliz tilini o‘rganishda asosiy maqsadidan kelib chiqib, mutaxassisligiga mos holda kompetentsiyalar rivojlantirilishi zarur. Chunki, soha bo‘yicha beriladigan bilimlar va egallanadigan kasbiy kompetensiyalar hayotiy, real kommunikativ vazifalar asosida rivojlantirilishi DTS talablari sifatida keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy, tavsiflash, tasniflash va komponent tahlil metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Kasbiy soha yo‘nalishlarida maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili” (English for Specific Purposes) fan dasturi asosida nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tili ikki yoki uch yil o‘qitilishi rejalashtirilgan. Bu holat ingliz tilini B2 darajada egallash imkonini bermaydi, albatta (o‘quv rejalaridagi soatlar qayta ko‘rib chiqlishi zarur). Konchilik yo‘nalishi uchun amaldagi o‘quv fan dasturi xizmat qiladi. Ammo, umumyevropa standartlari talablari: o‘qitish, o‘rganish va baholash tizimi B2 darajasini egallash talablariga to‘liq javob beradi, deb bo‘lmaydi, chunki amaldagi o‘quv dasturi faqat umumiy til kompetensiyalarini egallash imkonini beradi, xolos. Chet til ta’limi qaysi ta’lim muassasasida qaysi kursda olib borilayotganidan qat’iy nazar zamonaviy talqinda autentik

(real) kommunikativ kompetensiyani rivojlantilantirishi, grammatik, yoki so‘z va iboralar tarjimasini yod olishga qaratilmagan kompleks maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan bo‘lishi darkor. Nofilologik soha doirasida bilim, ko‘nikma va malakalarni ingliz tilida o‘zlashtirish hamda talqin eta olish malakasi maqsadlar mohiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Ingliz tilini nofilologik soha yo‘nalishi 2-kurs talabalariga o‘rgatishdan asosiy maqsad - bo‘lg‘usi mutaxassislarda kundalik hayot, ilmiy va kasbiy faoliyatida ingliz tili yoki bir nechta tillardan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim, ko‘nikma va malakalarini darsdan tashqari holatda, oliy ta’lim muassasasini tugatgandan keyin ham rivojlantirish kompetensiyasini sohaga oid o‘quv va ilmiy mavzularda rivojlantirish nazarda tutlishi ma’qul.Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar ilgari surildi:

- konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari nutqiy (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy, pragmatik, plurilingval, plyurikultural (plyurimadaniy) kompetensiyalarini Davlat ta’lim standatlari talablariga binoan rivojlantirish;

- konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog‘liq mavzular yuzasidan og‘zaki va yozma ravishda bayon etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

- konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalarini umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamdo‘stlik tuyg‘ularini singdirish;

- konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalariga ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan texnik terminlarni o‘rgatish;

- konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari mustaqil ishlarini ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish.

Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartida “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilari tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar”ga muvofiq oliy ta’lim muassasalari ixtisosligi chet til bo‘lmagan fakultetlar bitiruvchilari chet til bo‘yicha B2 darajasini egallashlari belgilab berilgan.

“Amaliy xorijiy til” (ingliz tili) fan dasturi mazmun-mohiyatiga ko‘ra, chet til o‘qitishning kommunikativ maqsadi umumiy ilmiy va o‘quv til kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilishi va talabalarning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlarida foydalanadigan til kompetensiyalarini rivojlantirishga moslashtirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi ishchi o‘quv dasturining kontenti talabalarda tildan erkin foydalanish malakalarini egallash va rivojlantirishga mo‘ljallangan bo‘lishi talab etiladi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti konchilik yo‘nalishi talabalari bilan xorijiy (ingliz) tili darslari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2020-yil “14” 08 dagi №BD - 5111400 raqami bilan ro‘yxatga olingan dastur asosida tashkil etiladi.

Ushbu dastur maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) fanini o‘qitish davrida talabalarning umumiy, akademik, kasbiy til ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilishi hamda xorijiy tilni o‘rganishning mustaqil muloqot (B2) darajasini egallashni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga o‘quv fan dasturi asosan nofilologik ta’lim yo‘nalishlari turli bosqichidagi talabalar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, CEFR va davlat ta’lim standarti talablariga mos, kasbiy faoliyatda ingliz tilidan foydalanish imkonini beruvchi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kontentni qamrab olgan til materiali asosida o‘quv uslubiy majmua shakllantirilishi zarur.

“Amaliy xorijiy (ingliz) tili” fani dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil “14” 08 dagi №BD - 5111400 raqami bilan ro‘yxatga olingan bo‘lib, ijtimoiy, amaliy, tabiiy va aniq fanlar yo‘nalishlari uchun bir xilda – universal ko‘rinishda taqdim etilgan. Fan dasturi talabalarda nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, leksik kompetensiya, yozish, o‘qish), grammatik, sotsiolingvistik, pragmatik, plyurilingval, plyurikultural (plyurimadaniy) kompetensiyalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. Shuningdek, dasturda mutaxassislik sohasiga oid mavzular (soha yo‘nalishlari, dolzarb mavzulari, mas’uliyat, hujjatlar yuritish, kasbiy etika, muzokaralar olib borish, mutaxassislik sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar, innovatsion g‘oyalar va yangiliklar) qamrab olinishi ham maqsadga muvofiq.

O‘quv dasturida belgilangan mavzularni yoritish maqsadida tuzilgan o‘quv-uslubiy majmua hamda tuzilgan dars rejalarini ko‘zdan kechirish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan o‘quv materiallari barcha til kompetensiyalarini umumiy rivojlan-tirishga qaratilgan. Mavzular kontentiga ko‘ra, talabalar bir darsning o‘zida turli shakldagi (tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish, grammatika, so‘z boyligi) mashqlarni bajaradilar, uyga vazifa sifatida mustaqil ravishda til birliklarini qo‘llagan holda nutq tayyorlash topshirig‘ini oladilar. Bu yaxshi, albatta. Ammo mavzular ketma-ketligi hamda ularga o‘quv-uslubiy majmua tuzilayotganda 2-kurs talabalarining ingliz tili boshlang‘ich kursdan o‘tilganligi, ularning mutaxassislik yo‘nalishlariga mos kasbiy va ilmiy kontentdagi til birliklari qamrovi e’tibordan chetda qolganligiga guvoh bo‘ldik.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, kontentdan foydalanib tilni o‘rgatishga emas, aksincha, tilni kontent uchun qurolga aylantirish talablariga javob beruvchi o‘quv materiallarini tuzish-tilga ixtisoslashmagan ya’ni jumladan konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari uchun dars olib borishda dolzarblik kasb etishi lozim.

Yuqoridagi fikrlar nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy faoliyatida ingliz tilini o‘rganishda plyurimadaniyatni rivojlantirishning quyidagi asosiy qoidalarini aniqlash imkonini berdi:

- kommunikativ malakalarni faollashtirishda shaxs-lararo va madaniyatlararo orientatsiyaga e’tibor qaratish;

- nutq materiali plyurimadaniyatni rivojlantirish uchun kommunikatorlarning tegishli sohasi sifatida autentik vaziyatlar atrofida tashkil etilgan bo‘lsa, ularning mazmuni oshadi va talabalar manfaatlariga mos keladigan kontent deb hisoblanadi;

- talabalarda plyurimadaniyatni rivojlantirish, ingliz tili bilim va ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish individual nutq kompetensiyasi maqsadiga rioya qilingan holda til materiali kontekstida amalga oshirilishi kerak.

An’anaviy metodika endilikda yetarlicha ijobiy natijalar bermasligi bois, metodistlar tomonidan yangicha dars o‘tish metodikalarini takomillashtirilishiga e’tibor berila boshlandi va natijada quyidagi xulosalarga kelindi:

Ingliz tili darslarini zamonaviy metodika hamda o‘qitishning ilg‘or (CLIL, CBI,TBI, SBI va STEAM) texnologiyalari yordamida tashkil etilishi.

Ingliz tilini o‘qitishda soha (konchilik) xususiyatidan kelib chiqib, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili fani dasturi kontenti takomillashtirilishi.

Ingliz tilini chet til sifatida o‘rganuvchi konchilik yo‘nalishi talabalari kasbiy leksik kompetensiyasi kontenti komponentlari shakllantirilishi.

Ingliz tilini chet til sifatida o‘qitishni rivojlantirishning innovatsion CLIL modellari takomillashtirilishi.

Kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish kontenti konchilik yo‘nalishi talabalarining kognitiv bilimlarini egallashlariga asoslanishi.

Kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish kontentini konchilik yo‘nalishi talabalarining o‘quv materialini o‘zlashtirish modeliga moslashtirilishi.

Kasbiy leksik kompetensiyani samarali o‘zlashtirish konchilik yo‘nalishi talabalariga kognitiv, til, nutq materialini tizimli ravishda gradatsion tamoyil asosida berib borilishiga alohida e’tibor qaratilishi.

Kasbiy leksik kompetensiyani konchilik yo‘nalishi talabalari tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishida bor bilimlarni faollashtirish va egallangan bilimlarni kommunikativ vazifalarni yechish jarayonida ishlatilishiga erishish.

Talabalarning ingliz tilidan maktabda olgan bilimini aniqlash va rivojlantirish, yangi kasbiy leksik va grammatik minimumlarni ijtimoiy-iqtisodiy nutqiy jarayonda qo‘llashni rivojlantirish yo‘llari va nutqda qo‘llash (yozma, og‘zaki, monologik va dialogik shakllar)ga o‘rgatish muhim vazifadir. Sohaga oid terminologiyani qo‘llagan holda ingliz tilida so‘zlashish; kundalik ommabop matnlarni yozma va og‘zaki tarjimasiz tushunishga o‘rgatish; ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy-texnik tarjima, ilmiy faoliyat natijalarini ingliz tilida tezis hamda ilmiy maqola sifatida rasmiylashtirishni bilishni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan amaliy xorijiy (ingliz) til o‘quv fani dasturi ixtisoslik fanlari ro‘yxati va mazmunidan kelib chiqqan holda kadrlar buyurtmachilari talablari hamda bakalavrlar tayyorlanadigan soha yo‘nalishi fanlari, jumladan, konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalarining ingliz tilini zamonaviy o‘qitish texnologiyalari yutuqlarini hisobga olgan holda barcha ta’lim muassasalari tomonidan tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini talab qiladi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning Yevropa oliy ta’lim muassasalarida amaliotidagi holati haqida Tereza Servera Mata “Ingliz tilini o‘rgatishning maqsadi talaba o‘z kommunikativ kompetensiyasini qoniqarli tarzda rivojlantira olishidir” [162] ya’ni u leksika orqali kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishi muhim, deb ta’kidlasa, Gomez “...tilni o‘rganuvchi talabalar faqatgina tilning o‘zini egallashi emas, balki haqqoniy jonli, autentik muloqotga kirishganda uni ishlata olish qobiliyatidir” [43], ya’ni muloqot qilish uchun yetarli leksikaga ega bo‘lish zarur, deydi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olib, qaysi leksikani yodlashi kerak, degan savolga javob berish uchun lug‘at minimum o‘rtasidagi farqlarni bilishi kerak. Nihoyat, konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalariga soha atamalari lug‘atini o‘zlashtirish orqali leksik minimum miqdorini oshirishni tavsiya qilgan bo‘lardik (500-800 leksik minimum). Internet manbalari asosida hamda hamdo‘stlik davlatlari o‘quv dasturlariga murojaat qilish orqali nofilologik ta’lim yo‘nalishlari talabalari 3 yil davomida egallashlari kerak bo‘lgan lug‘at minimum miqdorini yana bir karra aniqlashga harakat qildik, ya’ni leksik minimum miqdori – aktiv leksik minimum -1000 ta til birligidan, passiv minimum 2000 -2500 tani tashkil qilishi mumkin ekan.

Quyida konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari uchun ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini ko‘rib chiqamiz va quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olgan (curriculum) o‘quv dasuri mazmuniga quyidagilarni kiritishni tavsiya etamiz:

kasbiy muloqotning asosiy elementlariga (umumiy, ilmiy, umumkasbiy lug‘at) va konchilik terminlariga muvofiq tanlangan leksik birliklar;

ingliz tilining kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni;

semantizatsiya (tanishuv), nazariy bilimlarni o‘zlashtirish (leksik ko‘nikma hosil qilish), kasbiy yo‘naltirilgan kommunikativ vazifalarni hal qilish (amaliyotda qo‘llash), ingliz tilini o‘qitishni auditoriyada tashkil etish shakllari – an’anaviy (amaliy individual, juft va kichik guruhlarda ishlash, ingliz tili haftaligi (konchilik sohasining eng yaxshi gid-tarjimoni, eng yaxshi insho, eng yaxshi suhbatdosh tanlovi, intervyusi g‘olibi), davra suhbati (debat, dialog tuzish, mustaqil ish);

ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini yaratish;

ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish vositalari (mexanik va texnik vositalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, qo‘shimcha o‘quv va tarqatma materiallar):

a) ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi;

b) ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish vositalari (o‘quv qo‘llanma va darsliklar, tarqatma materiallar, turli ko‘rinishdagi jadvallar, lug‘atlar, ma’lumotnoma-yo‘riqnomalar, gazeta va jurnallar, ingliz tilini professional darajada o‘rgatishga mo‘ljallangan autentik audio hamda video materiallar) kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Tilni o‘rgatishda konchilik ta’lim yo‘nalishlari talabalari mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratilib, kerakli ma’lumotlarni internetdan topish va saralash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish: guruhda yoki mustaqil ravishda muammoni tahlil etish va baholash kompetensiyasini rivojlantirish - o‘qitish maqsadi sifatida tanlanadi.

Ingliz tili kasbiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda yana bir maqsad - muammoni hal etish orqali qiyin va murakkab masalalarga yechim topish, ijodkorlik va yangilikni qo‘llab-quvvatlash, bir so‘z bilan aytganda ta’limning turli metodlaridan xabardor bo‘lish va til o‘rganishning samarali strategiyalarini tanlash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga erishishni maqsad qilib qo‘yadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, amaldagi amaliy xorijiy (ingliz) til dasturi kontenti konchilik sohasi xususiyatlarini inobatga olgan holda qayta takomillashtirilishi va davlat ta’lim standarti hamda malaka talablariga mos holda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 395-sonli “Ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2019 y., 09/19/395/3115-son.
2. Bergman B., Eriksson A.-M., Blennow /., Groot/., Hammarstrom T. Reflections on an integrated content and language project-based design of a technical communication course for electrical engineering students // Journal of Academic Writing. 2013. Vol. 3. № 1. P. 1-14.
3. Coyle D., Hood Ph., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. 184 p.
4. Fortanet-Gomez I. Critical Components of Integrating Content and Language in Spanish Higher Education // J. of Language, Learning and Academic Writing. 2011. Vol. 8. Issue 3.

5. www.revistas.udistral, edu.co. Teresa Cervera Mata. El léxico en la enseñanza de la lengua: innovación y propuestas didácticas a partir de análisis de un todo de enseñanza de Español.
6. Акопова М.А., Попова Н.В. Междисциплинарная сущность компетентностного подхода в высшем образовании // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки. 2011. Т. 4. № 136. С. 76-80.
7. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе // Высшее образование в России. 2006. № 11. С. 39-46.
8. Нофилологик йўналишларда махсус мақсадларга йўналтирилган инглиз тили (English for Specific Purposes, ESP) фани дастури // Тошкент 2020.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Moxira SOBIROVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: moxira@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

THEORETICAL BASIS OF IMPLEMENTATION OF BLENDED LEARNING TECHNOLOGY

Annotation

Today “Blended learning” is considered one of the promising directions of using information and communication technologies. The effectiveness of the development of educational activities is determined by the superiority of information and communication technologies, which allows to activate the forms and methods of tradional approaches to education. This article describes and compares the theoretical views of world scientists regarding the introduction of “Blended learning” technology.

Key words: Blended learning, e-learning, face to face, training courses, concepts, educational technology, self learning, benefits of blended learning.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАЛИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИИ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

Сегодня «Смешанное обучение» является одним из перспективных направлений использования информационно-коммуникационных технологий. Эффективность развития образовательной деятельности определяется преобладением информационно-коммуникационных технологий, что позваляет активизировать формы и методы традиционных подходов к обучению. В этой статье освещаются и сравниваются теоритические взгляды ученых всего мира на внедрение технологии «смешанного обучения».

Ключивые слова: Blended learning, смешанное обучение, электронное обучения, face to face, учебные курсы, концепция, самостоятельное обучение, преимущества смешанного обучения.

“BLENDED LEARNING” TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda “Aralash ta’lim” axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ta’lim faoliyatini rivojlantirishning samaradorligi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ustunligi bilan belgilanadi, bu esa ta’limga an’anaviy yondashuvlarning shakl va usullarini faollashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolada dunyo olimlarining “Aralash ta’lim” texnologiyasini joriy etish bilan bog‘liq nazariy qarashlari yoritilgan va qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: Blended learning, Aralash ta’lim, elektron ta’lim, face to face, o‘quv kurslari, konsepsiya, ta’lim texnologiyalari, mustaqil ta’lim, aralash ta’limning afzalliklari.

Kirish. Dunyo ilm-fanida ta’lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda aralash ta’limni qo‘llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Aralash ta’lim zamonaviy ta’limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli sanalib, onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shaklidir.

Qayd etish lozimki, boshqa ko‘plab pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda, aralash ta’lim o‘ziga xos mualliflikka ega emas va mavjud o‘qitish usullari hamda tamoyillarini o‘zgartirishga bo‘lgan ko‘plab urinishlar natijasida rivojlandi. Aralash ta’limning bunday o‘z-o‘zidan va ko‘p omilli bo‘lib rivojlanishi ushbu texnologiyani tahlil qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, bu esa aniq ta’rifni shakllantirishga urinishlardan boshlandi.

Aralash ta’lim haqida turli xil ta’riflar va fikrlar ko‘p bo‘lganligi sababli Blended texnologiyasini o‘rganish va o‘qitish bilan oddiygina aralashtirish yoki bo‘lmasa, elektron ta’limni face to face (an’anaviy ta’lim) ko‘rsatmalari bilan birlashtirishdan ko‘ra mazmunliroq ta’rifni ishlab chiqish zarurati tug‘ildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Doktor Margaret Driskoll aralash ta’limning ta’rifida to‘rtta alohida konsepsiyani ajratadi. Birinchi konsepsiyada aralash ta’limni “Ta’lim maqsadiga erishish uchun veb manbaga asoslangan texnologiyani birlashtirish yoki aralashtirish”[1] deya ta’riflaydi. Boshqa mualliflar Driskollning birinchi ta’rifiga muvofiq izoh berishadi. Misol uchun, Garri Singx “Aralash ta’limning samarali dasturlarini yaratish” nomli tadqiqotining kirish qismida: “… aralash ta’lim modellari turli xil yetkazib berish vositalarini birlashtiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, aralash ta’lim ko‘pgina imkoniyatlar bilan birga samarali takliflarni beradi”[2], – deb izohlagan. Doktor Margaret Driskoll o‘zining ikkinchi konsepsiyasida aralash ta’limni: “Turli pedagogik yondashuvlarni (masalan, konstruktivizm, bixeviorizm, kognitivizm) o‘qitish texnologiyasi bilan yoki texnologiyasiz optimal ta’lim natijalarga erishish uchun birlashtirilishidir”[3], – deya ta’riflaydi.

Charlz Grexam “Aralash ta’lim tizimlari: ta’riflar, hozirgi tendensiyalar va kelajak yo‘nalishlari”ning kirish qismida ta’kidlaganidek, bu ikki tushunchani “Blended learning shunchalik keng ta’riflanganki, aralash ta’lim deyarli barcha o‘quv tizimlarini qamrab oladigan muammodan aziyat chekadi”[4].

Doktor Margaret Driskoll uchinchi konsepsiyada aralash ta’limni “har qanday ta’lim texnologiyasini (videoyozuvlar, kompakt disklar, veb ta’lim, filmlar) o‘qituvchi rahbarligidagi an’anaviy ta’lim bilan uyg‘unlashuvidir” deb aytadi[5]. Aksariyat mualliflar ushbu ta’rifni qo‘llab-quvvatlaydilar, masalan, Grey Xarriman o‘zining “Aralash ta’lim nima?”[5] nomli maqolasida “Blended learning onlayn ta’limni an’anaviy ta’lim bilan birlashtiradi” deb ta’kidlagan. Aralash ta’limning maqsadi

o‘qitish usullarini birlashtirish orqali samarali va natijali ta’limni ta’minlashdir”[6]. Bundan tashqari, Djudit Smit o‘zining “Aralash ta’lim: eski do‘st yangi nom oladi” nomli maqolasida ta’limni masofaviy o‘qitish usulini texnologiya (televideniye va Internet kabi yuqori texnologiyali, ovozli pochta yoki konferensiya aloqa kabi past texnologiyali) va an’anaviy ta’lim bilan birlashtirishdir”. Sodda qilib aytganda, Rochester texnologiya instituti “The Blended learning Pilot Project” 2003-2004 o‘quv yilining yakuniy hisobotida “aralash ta’lim eng yaxshi onlayn ta’lim bilan eng yaxshi an’anaviy ta’limni birlashtirishga yo‘naltirilgan”[4] deya ma’lumot berdi. Yangi Janubiy Uels ta’lim va tarbiya Departamenti tomonidan e’lon qilingan “Aralash ta’lim” maqolasida yuqoridagi mualliflarga o‘xshab “aralash ta’lim – bu o‘qitish bo‘lib, onlayn va an’anaviy ta’lim yondashuvlarni uyg‘unlashtiradi”, – deya ta’kidlangan. Shuningdek, Richard Vus ham aralash ta’lim an’anaviy ta’lim va onlayn OAVlarning kombinatsiyasi ekanligini, o‘rganish joyini sezilarli darajada qisqartirishga olib kelishini ta’kidlaydi. Karla Gernxam va Robert Kaletolar aralash ta’lim yoki gibrid kurslarning eng yaxshi xususiyatlari ya’ni “faol mustaqil ta’limni rivojlantirish va sinfda o‘qitish vaqtini qisqartirish uchun an’anaviy hamda onlayn ta’limning eng yaxshi xususiyatlarining uyg‘unlashuvi”ni aniqladilar.

Alfred Rovai va Hop Jordan “Aralash ta’lim va jamiyat hissi: an’anaviy ta’lim va to‘liq onlayn bitiruvchi kurslarning qiyosiy tahlili” nomli maqolasida “aralash ta’lim an’anaviy va onlayn ta’lim muhiti bilan davomli qarama-qarshi uchlarda joylashgan bo‘lishi mumkin”[9] deb ta’kidlaganlar.

Kolis va Munen fikriga ko‘ra, aralash ta’lim an’anaviy va onlayn ta’limning gibrididir, shuning uchun o‘qitish ham sinfda, ham onlayn tarzda amalga oshiriladi, onlayn komponent sinfda an’anaviy ta’limning tabiiy davomiga aylanadi”[10]. Elektron ta’lim markazi kutubxonasi aralash ta’limni “an’anaviy ta’lim, jonli elektron ta’lim, mustaqil ta’lim, shuningdek, ommaviy axborot vositalari yordamida yaratilgan ta’limiy yechim – “sehrli aralashma!” yoki “go‘zal aralashma!”, – deb ta’riflaydi. Avstraliya Milliy Ta’lim Boshqarmasining Moslashuvchan ta’lim maslahat guruhi tomonidan yaratilgan “Elektron ta’limda qo‘llaniladigan asosiy atamalar ta’riflari” asarida aralash ta’limga quyidagicha ta’rif beradi: “Elektron ta’lim boshqa moslashuvchan ta’lim va an’anaviy ta’lim shakllarini birlashtirgan ta’lim metodidir”.

Doktor Margaret Driskoll to‘rtinchi konsepsiyada aralash ta’limni “ta’lim va ishlashning uyg‘un ta’sirini yaratish uchun o‘qitish texnologiyasini haqiqiy ish vazifalari bilan aralashtirish yoki birlashtirishdir”, – deya ta’kidlaydi. Ushbu to‘rtinchi ta’rif korporativ ta’limning bir qismi sanalgan aralash ta’limning mashhurligi haqida taassurot uyg‘otadi. “Aralash ta’lim – bu korporativ ta’limning so‘nggi zamonaviy nomi. Elektron ta’limning boshqa o‘qitish turlari bilan uyg‘unlashuvidir”. Driskolning birinchi va uchinchi konsepsiyalarini birlashtirib, aralash ta’limni ta’riflagan boshqa mualliflar ham bor. Royer Ta’lim va Akademik Texnologiyalar markazi aralash ta’limni “Ta’limning bir nechta strategiyalari va metodlarini turli xil vositalar bilan uyg‘unlashtiradi. Zamonaviy til bilan aytganda, ta’lim strategiyalari va ommaviy axborot vositalari odatda o‘zida an’anaviy va onlayn (masofaviy) ta’limning aspektlarini o‘z ichiga oladi, ko‘plab o‘quv strategiyalari yoki o‘quv aspektlarini birlashtiradi”, – deb ta’riflaydi. “The Node’s Guide to Blended Learning: Getting the Most Our of Your Classroom” darsligida Node Learning Technolgies Network aralash ta’limni ta’limdan “bir nechta strategiyalar, usullar va yetkazib berish tizimlari integratsiyasi” sifatida foydalanishni nazarda tutadi. “Yaxshi o‘qituvchilar har doim o‘z maqsadlariga erishish uchun strategiyalar, usullar va ommaviy axborot vositalarining kombinatsiyasidan foydalanganligi yangilik emas. E’tiborli jihati shundaki, bugungi zamonaviy internet vositalari muloqot, o‘zaro ta’sir va hamkorlikda o‘qitishni ilgari imkoni bo‘lmagan usullar bilan osonlashtirishi mumkin. Raqamli ta’lim texnologiyalarning nisbatan qulayligi o‘qituvchilar ularni o‘quv resurslari bilan birlashtirishi ham yana bir yangilik sanaladi”.

Ba’zi mualliflar “aralash ta’lim” tushunchasini ta’riflashda “aralash (Blended)” so‘ziga e’tibor qaratadilar. “Oksfordning qisqacha lug‘ati”ning 8-nashrida “aralashtirish” bu “uyg‘un aloqani shakllantirish, bir butun bo‘lish” degan ma’noni anglatadi. Piter Isaakson ta’kidlaganidek, aralash ta’limning turli modalliklarini “aralashtirish” emas, balki “aralashtirish” usullari va strategiyalariga e’tibor qaratish kerak. Isaakson aralashtirishning “yaxshi shotland viskisi kabi…” analogdan foydalanadi. Royer Markazi 2004-yilda aralashtirishning qo‘shimcha analoglarini taklif etadi: “gurmanlar uchun qahva, vino, gibrid transport vositalari va, hattoki, benzin bilan taqqoslaganda, har bir aralashma jozibador yaxlitlikni tashkil etuvchi turli xil tanlovlarni taklif etadi”. Ushbu o‘xshashliklar bilan bog‘liq holda Royer Markazi aralash ta’lim har xil ta’mga ega bo‘lishi mumkinligini tushuntirishda davom etadi, bir turdagi taom uchun turli retseptlar bo‘lgani kabi “qanday qilib aralashtirish”da yagona yondashuv yo‘q. “Muvaffaqiyatli aralash ta’lim muvaffaqiyatli retsept sifatida har bir o‘quv tadbirining o‘ziga xos maqsadini qo‘llab-quvvatlash uchun bir qator qo‘shimcha mahsulotlarni aralashtiradi”. Shunday qilib, Isaakson ta’kidlaganidek, bugungi kunda taklif qilinayotgan “aralash ta’lim” “… yaxshi shotland viskisi kabi…” aralashtirilgan emas, balki “salat kabi…” qo‘shilgandir. “Aralash ta’lim” hamda “Qo‘shma ta’lim” o‘rtasidagi farqni aniqlash zarur. “The Node’s Guide to Blended Learning: Getting the Most Our of Your Classroom” darsligida “aralash ta’lim ko‘p narsalarni o‘z ichiga olishi mumkin, hech qanday ko‘rsatma va retsept mavjud emas”.

Tahlil va natijalar. Nihoyat, aralash ta’limning bir qator konsepsiyalari mavjud bo‘lsa-da, Martin Oliver va Keyt Trigvellar o‘zlarining “Can “Blended learning” Be Redeemed” maqolasida bu atamaning qo‘llanilishiga tanqidiy yondashadilar. Ularning ta’kidlashicha, “aralash ta’lim” atamasi “noto‘g‘ri ta’riflanadi va nomuvofiq qo‘llaniladi, holbuki ommaviyligi oshib borsa-da, aniqligi mavjud emas”. Aralash ta’lim ta’riflarida, “o‘quvchilar nuqtayi nazaridan tahlil” mavjud emas. Aralash ta’lim sharoitida o‘quvchilarni o‘qitish tajribasidagi farqlarni chuqur tahlil qilish lozim. “Blended learning – bu o‘quv metodlarining birikmasi”. Tadqiqotchi Protektor 2003-yilda ilmiy ishida “Blended learning”ni “turli xil o‘qitish usullari, o‘qitish modellari va o‘quv uslublarining samarali kombinatsiyasi” – deya ta’riflaydi.

Garrison va Kanuka 2004-yilda Blended learningni shunday ta’riflashadi: “An’anaviy ta’lim bilan onlayn ta’limni xayolan integratsiya qilishdir”.

“Aralash ta’lim” atamasi amaliyotchilar va tadqiqotchilar orasida tez-tez qo‘llaniladi. Aralash ta’lim deganda nimani anglaymiz? Bugungi kunda aralash ta’lim atamasi tez-tez ishlatilsa-da, haqiqatdan nimani nazarda tutganligi aniq emas edi. Oliver va Trigvel o‘zlarining tanqidiy sharhlarining birida: “Aralash ta’lim” atamasi ikki yoki undan ko‘p narsani talab qiladi, keyin shu turli narsalarni aralashtirish mumkin”[8], – degan xulosaga kelishadi.

Aralash ta’lim termini 1990-yillarning oxirida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, tadqiqotlar va amaliyotlarni o‘tkazish yo‘llarini hamda umum e’tirof etilgan ta’riflarni qidirish preparadigmatik sifatida tavsiflash mumkin edi. Aralash ta’lim amaliyoti va ta’sirini tushunish uchun aniq va mukammal ta’riflarga, model va konsepsiyalarga ehtiyoj mavjud. Bu esa oldingi tadqiqotlarni yangi sharoitlarga joriy etish,

hamkorlikdagi an’analarni rivojlantirish hamda tadqiqot g‘oyalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi[8].

Xulosa. Demak, masofaviy ta’lim endigina kirib kelgan mamlakatlarda ham “Blended learning” texnologiyasi ko‘pgina olimlar ilmiy tadqiqotlarining tadqiq obyekti bo‘lgan va bunday izlanishlar davom etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Australian National Training Authority, Definitions of Key Terms Used in e-learning, 2003.
2. Bersin & Associates. 2003. Blended Learning: What Works? An Industry Study of the Strategy, Implementation, and Impact of Blended Learning. San Francisco, CA: Pfeifer.
3. Bonk, C.J. & Graham, C.R. 2004. Handbook of blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisko, CA:Wiley.
4. Colis, B. and Moonen, J., Flexible Learning in a Digital World: Experiences and expectations, 2001
5. Driscoll, M. Blended learning: Let’s get beyond the hype. e-Learning,Learning and Training Newsline 2002.
6. Harriman, G. 2004. What is blended learning. E-learning Resources.
7. H.W.Fowler, F.G. Fowler, E. Allen Robert, The Concise Oxford Dictionary of Current English. – Print book : English : 8th ed. – Oxford : Clarendon Press ; New York : Oxford University Press, 1990.. The Concise Oxford dictionary of current English. (1990 edition) | Open Library
8. Kane, G. C., & Alavi, M. (2007). Information technology and organizational learning: An investigation of exploration and exploitation processes. Organization Science, 18(5), 796–812. https://doi.org/ 10.1287/orsc.1070.0286
9. New South Wales Department of Educational and Training. Blended learning, Learning technologies, 2005
10. Node Learning Technology Network. 2001. The Node’s Guide to Blended Learning: Getting The Most Ourt of your Classroom and the Internet. Available at: http://thenode.org/guides/blended/blended. pdf.
11. Oliver, M., & Trigwell, K. Can ‘blended learning‘ be redeemed? E-learning and Digital Media, 2(1), 17–26., 2005
12. Protector C.T. Blended Learning in Practice, available at: www.ece.salford.ac.uk/proceedings/papers/cp_03rtf

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:004:372(575.1)

Shaxnoza TAYLAKOVA,
O‘z JOKU fakultet dekani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail:shakhnozataylakova86@gmail.com

p.f.d. K. Qilicheva taqrizi asosida

STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL COOPERATION OF SOCIAL INSTITUTIONS AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE FIGHT AGAINST DESTRUCTIVE IDEAS AMONG YOUNG PEOPLE

Annotation

This article analyzes destructive ideas spreading through the Internet and social networks, as well as issues of strengthening ideological cooperation between social institutions, such as parents, teachers and media representatives.

Keywords: Internet, social networks, breakthrough ideas, adolescence, information, spiritual and moral views, social institutions, media literacy, ideological cooperation.

УКРЕПЛЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР БОРЬБЫ С ДЕСТРУКТИВНЫМИ ИДЕЯМИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ.

Аннотация

В данной статье анализируются деструктивные идеи, распространяющиеся через Интернет и социальные сети, а также вопросы укрепления идеологического сотрудничества между социальными институтами, такими как родители, педагоги и представители СМИ.

Ключевые слова: Интернет, социальные сети, прорывные идеи, подростковый возраст, информация, духовно-нравственные взгляды, социальные институты, медиаграмотность, идеологическое сотрудничество.

YOSHLAR ORASIDA BUZG‘UNCHI G‘OYALARGA QARSHI KURASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA IJTIMOIY INSTITUTLAR O‘RTASIDAGI MAFKURAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH

Annotatsiya

Mazkur maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan buzg‘unchi g‘oyalar tahlili va yoshlar orasida ularga qarshi kurashishda ota-onalar, pedagoglar hamda media vakillari kabi ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi mafkuraviy hamkorlikni mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: internet, ijtimoiy tarmoqlar, buzg‘unchi g‘oyalar, o‘smirlik davri, axborot, ma’naviy-ahloqiy qarashlar, ijtimoiy institutlar, mediasavodxonlik, mafkuraviy hamkorlik.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari avj olgan bir davrda axborot xavfsizligini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shuning uchun ham kiber xavfsizlik davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan O‘zbekistonda terrorizm va ekstremizmga qarshi samarali va insonparvarlik qadriyatlariga sodiqlik, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik asosida siyosat yuritish Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekistonga Prezident etib saylanganidan keyin boshlandi. Chunki, bu davrga kelib, 2016-yilning oxirgi choragi va 2018-yillarda Prezident Sh.M.Mirziyoyev Markaziy Osiyodaga davlatlarning o‘zaro munosabatlaridagi yangi bir davrga asos soldi. Ilgari O‘zbekiston bilan talay masalalarda kelishmagan Qozog‘iston, Qirg‘iston, Tojikiston davlatlari o‘rtasida iliqlik paydo bo‘ldi. O‘zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi. Mazkur davlatlar rahbarlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va ixtiloflarga barham berildi. Mintaqadagi suv resurslari, transport, chegaralar, bojxona, savdo aloqalari, vizalarni bekor qilish, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalar sohalaridagi o‘zaro nizolar, shaxsiy adovatlarga doir barcha muammolar o‘zaro muloqotlar vositasida bartaraf etildi. Muhimi, bu o‘zgarishlar bitta davlat boshlig‘ining o‘zgarishi – Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Prezidenti etib saylanishi natijasi o‘laroq ro‘y berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi o‘n yilliklarda Internet tarmog‘idagi turli saytlar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali buzg‘unchi ma’lumotlarni tarqatish holatlari uchrab turibdi. Xususan, Facebook, Odnoklassniki, WhatsApp, Viber, Telegram, Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoxostinglar ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib etish mumkin bo‘lgan virtual muloqot maydoniga aylandi. Ularda milliy, diniy adovatni keltirib chiqarishga, ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi, o‘z joniga qasd qilishni rag‘batlantiruvchi materiallar soni ortib bormoqda.

Ushbu manbalar "zararli" ma’lumotlarning tashuvchisidir, shuning uchun mutaxassislarning tushunishida "zararli ma’lumotlar" quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) ijtimoiy, irqiy, diniy yoki milliy adovat va adovatni qo‘zg‘atuvchi ma’lumotlar;
2) urushga chaqiriqlar;
3) nafrat, adovat va ustunlikni targ‘ib qilish;
4) insonning sha’ni va obro‘siga tajovuz qilish;
5) odamlar ruhiyatiga halokatli ta’sir ko‘rsatadigan ma’lumotlar.

Elektron ommaviy axborot vositalari eng zamonaviy aloqa kanalidir. Elektron tarmoqlarda ma’lumotlarni filtrlash muammosi eng munozarali masalalardan biridir. Ta’kidlash joizki, Internetda yollashning ekstremistik uch turi qo‘llaniladi:

- ekstremistik tashkilotlarning rasmiy saytlari;
- ekstremistik materiallar tarqatiladigan va muhokama qilinadigan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar;
- yashirin guruhlardagi zararli guruhlarning rejalari va kelgusidagi harakatlari muhokama qilinadigan saytlar, shuningek, onlayn jamoalar Diniy va siyosiy ekstremistik oqimlar va guruhlar vakillari Internet-resurslarda yuz minglab odamlar tinglashi mumkin bo‘lgan munozaralarda qatnashish,

mafkurasi va e’tiqodlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bunday manbalar yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi va davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydi. Ekstremistlar yangi tarafdorlarni yollash uchun Internetdan foydalanadilar va shu bilan o‘z saflarini to‘ldiradilar. Ekstremist va terrorchi tashkilotlar axborot ekstremizmini o‘z tarafdorlari sonini ko‘paytirishning asosiy usuli deb biladilar. Internet hamjamiyatlaridagi aloqalar sizga jug‘rofiy jihatdan katta masofalar bilan tezkor aloqada bo‘lish, kelgusi harakatlarni juda yashirin rejimda muhokama qilish, rejalashtirish va muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini ochiq tarqatadigan saytlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bunday manbalar orqali xalqaro terrorchilik tashkilotlari targ‘ibot ishlarini deyarli to‘sqinlik qilmaydilar. Internetda ekstremizmga qarshi kurash uchun vositalar kerak. Qonun hujjatlarida jinoiy va ma’muriy kodekslarda tegishli normalar qo‘llaniladi. Ammo ekstremizmga to‘sqinlik qilish uchun jinoiy ko‘rinish sifatida qonunchilik bazasi yaxshilanishi, maxsus xizmatlarning faoliyati kuchaytirilishi kerak, shuningdek, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish ham ahamiyatga molik.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda internetda 40 mingdan ko‘proq ekstremistik saytlar mavjud. Jumladan, IShID o‘z g‘oyalarining keng tarqalishini ta’minlash maqsadida Facebookda «Caliphatebook» tarmog‘ini ochgan. Hozirda uning sahifalarida radikal g‘oyalar tarafdorlari jamoalarini shakllantirishga urinmoqda. Shuningdek, Twitter ijtimoiy tarmog‘ida IShID g‘oyalari va faoliyatini qo‘llabquvvatlovchi 50 ming atrofida akkaunt mavjudligi va ularning har biri o‘rtacha mingta «hamfikr» va «izdosh»ga ega ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, IShIDning «Al-Furqon» va «Al-Hayot» media markazlari asosan arab, ingliz, nemis, fransuz, rus, hind, urdu, bengal, turk, kurd va boshqa yana bir qator tillarda targ‘ibot-tashviqot xurujlarini amalga oshirib kelmoqda.

Internet tarmog‘i orqali tarqalayotgan materiallar turli shakllarda bo‘lib, asosan matnli, audio va video ko‘rinishlarga ega. Jumladan, Youtube videoxostingi orqali har daqiqada turli mavzuga oid 300 soatlik videoroliklar joylanadi.

Materiallarning 2,37 foizi behayolikni targ‘ib qiluvchi videolardir.

Mavjud ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda internet tarmog‘idan foydalanuvchilar soni 20 milliondan ortiq bo‘lib, shundan yoshlarning 80 foizi mobil internetdan foydalanadi.

Internet tarmog‘ida tarqatilayotgan materiallar orasida ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi materiallar son jihatdan ortib bormoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

• O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot maydonini kiber jinoyatchilikka qarshi kurashga qobil bo‘lgan kiber xavfsizli tizimini shakllantirish;

• aholi o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar, feysbuk va mobil aloqalarda ekstremizmga qarshi turli axborotlar va ma’lumotlar berib borish;

• O‘zbekistonning ichki siyosatini buzib ko‘rsatuvchi, noxolis axborotlar tarqatuvchi, ekstremizmga oid feyklarni fosh qiladigan maxsus markaz tashkil etish;

• internet saytlarida ekstremistik g‘oyalarga qarshi haqiqiy falsafasi va islom g‘oyalariga doir axborotlar va ma’lumotlarni berib borish, mazkur mavzularga oid dialoglar olib borish saytlarini ochishni tashkil etish.

Kompyuter texnologiyalarini qo‘llash usullarining tobora kengayib borishi aniq ko‘zga tashlanadi. Axborot texnologiyalarining taraqqiyoti – xalqaro amaliy va madaniy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog‘liqdir. Insonlar hayotining hamma jabhalari – yirik davlatlarning siyosatidan har bir odamning kundalik faoliyati o‘zgarib, axborot muhiti va global tarmoqlarga bog‘liq bo‘ladi. Kompyuter hayot va amaliy faoliyatning universal vositasiga aylanadi. Tarmoqqa chiqishning birinchi sharti – mijozning o‘z shaxsiy komp'yuteri bo‘lishi kerakligidadir.

Tarmoq juda qisqa vaqt ichida deyarli hech qanday harajatsiz juda ko‘p mijozlar bilan bevosita aloqa o‘rnatishi mumkin. Bu aloqa universal va global xarakterga ega. Subyektlar va obyektlarning o‘zaro aloqasini bir zumda, qanday masofa, manzil yoki inson faoliyati sohasi bo‘lmasin, o‘rnatish mumkin. Odamlar orasidagi bevosita muloqot vertual (vosita orqali) aloqaga aylanadi. Tarmoq vositachi sifatida vertual jamiyatlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu holat odamlar o‘rgasidagi vaqt va masofa bilan bog‘liq chegaralarni buzib, ular o‘rtasida turli usullar bilan muntazam axborot almashish asosida yangi hamjamiyatlar yuzaga kelishiga olib keladi. (internet klub, odnoklassniki, v kontakte v.x.k.)

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda Internet – jamiyatning ma’naviy va moddiylashtirilgan axborot imkoniyatlarini muntazam aniqlashtirilgan modeli bo‘lib qoldi. Bu bilan u insoniy faoliyatning turli yo‘nalishlari va turlari uchun qudratli ma’lumotlar (axborotlar) asosiga aylandi.

O‘smirlar va kichik yoshdagi bolalar toifasiga kiruvchi 11-17 yoshdagi Internetdan foydalanuvchilar kiradi. Ularni o‘ziga jalb etuvchi holat – guruhlar o‘rtasidagi muloqotdir. O‘smirlar o‘zlarini to‘qib chiqarilgan obrazlarga soladilar, ismi, yoshi xatto jinsini ham yashiradilar. Bir-birini ko‘rmay va eshitmay o‘rnatilgan aloqa – elektron pochtani anonim aloqa vositasiga aylantiradi. Eng muhimi ikki shaxs orasidagi muloqotni uchinchi odam o‘qiy olmasligi – elektron pochtaning o‘ta shaxsiy, yopiq bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek internetni yosh unib kelayotgan o‘smirlar uchun yana bir afzallik tomonlari mavjudki uni inobatga olmay ilojimiz yo‘q. Ular:

• Internet orqali muloqot – yolgizlikdan xalos bo‘lish va yaqinlar doirasini kengaytirish istiqbolini oshiradi.

• Muhokama qilinayotgan masalalar bo‘yicha kengroq ma’lumotlar olish mumkin.

• Boshqa shaxslarning qora niyatli aralashuvidan holi bo‘ladi.

• Emotsiya va kayfiyatlar almashinuvi yuz beradi.

• Bu guruhning yana bir qiziqish sohasi bor. O‘smirlar ko‘p vaqtlarini Internet o‘yinlariga bag‘ishlaydilar. «Strategiya, harbiy o‘yinlar, boshqotirma, mantiqiy o‘yin, topishmoq, sarguzasht» va boshqa janrdagi o‘yinlar bolalarga ma’qul tushgan. Tadqiqotlarga ko‘ra 82 foiz yosh mijozlar xar kuni bu o‘yinlarga bir soatdan ko‘proq, 7 fozi esa haftasiga 30 soat vaqtini kompyuter o‘yinlariga sarflar ekanlar.

• Yoshi o‘sib borgan sari bunday o‘yinlarga qiziqishi so‘nib boradi. O‘g‘il bolalar – epchillik bilan bog‘liq o‘yinlarni, qizlar esa – mantiqiy, strategik o‘yinlarni xush ko‘rar ekanlar.

• Yana bir ma’lumot. 14-16 yoshli bolalar orasida 75 foizi Internetdan foydalanadilar. Ularning 40 foizi o‘qish joyi yoki do‘stlarining uyida, 27 foizi uyali aloqa orqali, 11 foizi Internet kafelarda Internetdan foydalanadilar.

Internetdan foydalanadigan o‘smirlarning 67 foizi musiqa tinglash, 55 foizi turli dasturlarni topib ko‘chirib olish, 43 foizi film va video kliplarni tomosha qilish, 38 foizi onlayn o‘yinlarda ishtiroq etar ekanlar. Shunday qilib, bu yoshdagi o‘smirlarni Internetga jalb qiladigan sabablar – yangi do‘stlar orttirish, uzini biror garuhga taaluqli ekanini tasdiqlovchi hissiyota erishish kabi holatlar ekan.

• 18-25 yoshli yigit va qizlar uchun aynan Internet va kompyuter – ularning ijodiy ifodasini namoyish etishda eng zarur qurol bo‘lib qoldi. Tasvirlarni tahlil qilish, uch o‘lchamli obyekt va landshaftlarni modellashtirish, kino va video

lavhalarni yaratish web – dizayn kabi juda ko‘p sohalarda beqiyos imkoniyalar paydo bo‘ldi.

• Qiziqtirgan va zarur ma’lumotni izlash muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun ular qidiruv tizimidan foydalanadilar.

Ma’lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalarning imkoniyalarini kengaytiradi, obro‘li va daromadli ish o‘rinlarini topish, shaxsiy hordiq chiqarish va qiziqishlar olamini shakllantirish, oliy ma’lumot olish imkonini beradi. Monitor oldida o‘tirgan yoshlar xohlagan mavzuda dunyoning xohlagan joyidan ma’lumot to‘play olishi, boshqalar bilan axborot almashishi mumkin. Internet tez orada bilimni takomillashtirish, jahon ma’naviy va madaniy boyliklariga murojaat eta olishi mumkin. Hozir bu narsalarni juda osonlik bilan, alohida ruhsat yoki murojaatlarsiz, o‘tirgan joyida topish mumkin.

Internet, komp'yuter, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar – hozirgi zamon yoshlarining hayotiy ehtiyojiga aylandi. Ular hatto bir soatlarini bularsiz tasavvur eta olmaydilar.

Shuningdek zamon talabi bilan bugungi kun talabasiga bir necha talablar qo‘yilgan:

1.Kompyuterni bilish;

2.Elektron pochtada ishlashni o‘rganish;

3.Internetda axborot izlash jarayonini bilish;

4.Telekommunikatsiya, chat, forumlarda qatnashish tajribasiga ega bo‘lish;

5.Uyda Internetga ulanish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda yoshlar asosan quyidagi tarmoqlardan foydalanadi: VKontakte, Mening davram, MoyMir, Odnoklassniki. O‘zbek tilida faoliyat ko‘rsatuvchi vgorode.uz, sinfdosh.uz, bool.uz, vsetut.uz, doira.uz, sevgi.uz va boshqalar. Biroq foydalanuvchilar asosan rus tilidagi tarmoqlarda ro‘yxatga olinganlar. Sanab o‘tilgan ijtimoiy tarmoqlardan tashqari, Web 2.0 shaklida quyidagi resurslar mavjud:

- ijtimoiy kiritmalar;
- ijtimoiy kataloglar (ilmiy doiralarda foydalanishga mo‘ljallangan);
- ijtimoiy kutubxonalar;
- veb-masterlar ijtimoiy tarmog‘i - foydali materiallar haqida ma’lumot berish, mualliflar bilan muloqot, qiziqarli anonslar uchun ovoz berish;
- foydalanuvchilari ko‘p bo‘lgan tarmoq o‘yinlari - turli xil o‘yinlar, g‘oliblarni aniqlash, yutuqlarni hisoblash, tortishuv va hokazo;
- geoijtimoiy tarmoqlar - foydalanuvchilarning jismoniy holati bo‘yicha ijtimoiy aloqalar o‘rnatishga imkon beradi;
- professional ijtimoiy tarmoqlar - ayrim mavzular, qiziqishlar bo‘yicha muloqot, tajriba va axborot almashish, bo‘sh o‘rinlar va amaliy aloqalarni kengaytirishga oid takliflar;
- servis ijtimoiy tarmoqlar - umumiy qiziqish bo‘yicha on-layn rejimida odamlarni birlashtirish;
- tijorat ijtimoiy tarmoqlari - biznes olamini qo‘llab - quvvatlash, maxsulotlar haqida fikrlar hisobga olingan holda uni taqdim etish, maxsulotlarning savdosini kengaytirish va xaridorlarni xabardor qilish bilan shug‘ullanadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda oila ham, maktab ham mafkuraviy jarayonlarda, OAV orqali tarqalayotgan informatsiyalar vaziyatni turli tomonlarga o‘zgartirib yuborishi mumkinligini yetarlicha hisobga olmayaptilar. Ta’lim muassasalarida hozirgacha ham ommaviy axborot vositalarini faqat o‘quv jarayonini rang-barang o‘tkazishga va qo‘shimcha axborot olish uchun yordam beruvchi vosita sifatida qarashlarini ko‘rsatmoqda. Afsuski, ayrim hollarda pedagoglar ham, ota-onalar ham ommaviy axborot vositalari materiallariga nisbatan o‘ziga xos, muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida qaray olmaydilar. Buni kundalik pedagogik jarayonda o‘sib kelayotgan yosh avlodning g‘oyaviy tarbiyasida tan olmaslikni jiddiy pedagogik kamchilik sifatida tan olish kerak. Shunday ekan, yoshlarga mediamadaniyatni o‘rgatish, ularni axborotni passiv qabul qiluvchi emas, unga baho bera oladigan mediasavodxon etib tarbiyalash bugungi kunning asosiy shartidir. Ommaviy kommunikatsiya kuchayayotgan bir paytda mediata’lim jurnalistikaning ham, pedagogikaning ham dolzarb masalasidir.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni. Xalq so‘zi, 2017 yil 6 iyul
2. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). – T.: “Ma’naviyat”, 2013. – 320 b.
3. Qosimova N., Toshpo‘latova N. O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari.O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2014, -211 b.
4. Ro‘ziev F, Jo‘raeva X. Telejurnalistga tavsiyalar.- T.: Sharq matbaa akdiyadorlik kompaniyasi, 2013.
5. Paxrutdinov Sh. Global axborot jamiyati va mediata’lim. O‘quv-uslubiy ko‘rsatma. –T.: 2014.
6. Трубицына Л.Средства массовой информации и психологическая травма. Проблемы медиапсихологии. “Журналистика в 2000 году: Реалии и прогнозы развития”, Москва, МГУ, 2001. http://evartist.narod.ru/text7/41.html
7. Taylakov va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. III tom. Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2019 yil. 320 b.
8. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1999. 146-147 b.
9. Djuraev R.X., Kuchukbaev F.M., E.M.Azimova , O.F.Sotiboldiev. Ta’lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta’sir etish. Maktab pedagog va psixologlari uchun ilmiy metodik qo‘llanma. T:- 2012 – 41-42 bet.
10. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / пер. с фр.; под ред. В.А. Базарова. М.: Мысль, 1994. 300 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 912.412

Odiljon TOBIROV,
Kokan State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Geography and Basics of Economic Knowledge, (PhD)
E-mail: tobirovodiljon4@gmail.com

Based on the review of V. Yu. Isakov, professor of the Kokan State Pedagogical Institute, doctor of biological sciences

DETERMINING THE MOVEMENT OF FERGHANA VALLEY SANDS BY REMOTE SENSING

Annotation

The Ferghana Valley, nestled between the Tian Shan and Pamir-Alai Mountain ranges, is known for its unique geographical and environmental features. This article explores the utilization of remote sensing technologies to monitor and analyze the movement of sands within the Ferghana Valley. Employing satellite imagery, this study aims to provide valuable insights into the dynamics of sand displacement and contribute to our understanding of environmental changes in this region.

Key words: Ferghana Valley, sand movement, remote sensing, satellite imagery, environmental monitoring.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ПЕСКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ МЕТОДОМ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ

Аннотация

Ферганская долина, расположенная между горными хребтами Тянь-Шаня и Памиро-Алая, известна своими уникальными географическими и экологическими особенностями. В этой статье исследуется использование технологий дистанционного зондирования для мониторинга и анализа движения песков в Ферганской долине. Целью данного исследования с использованием спутниковых снимков является предоставление ценной информации о динамике смещения песка и содействие нашему пониманию изменений окружающей среды в этом регионе.

Ключевые слова: Ферганская долина, движение песка, дистанционное зондирование, спутниковая съемка, экологический мониторинг.

FARG‘ONA VODIYSI QUMLARINING HARAKATINI MASOFADAN ZONDLASH YO‘LI BILAN ANIQLASH

Annotatsiya

Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘lari oralig‘ida joylashgan Farg‘ona vodiysi o‘zining noyob geografik va ekologik xususiyatlari bilan mashhur. Ushbu maqola Farg‘ona vodiysidagi qumlarning harakatini kuzatish va tahlil qilish uchun masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganadi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalangan holda, ushbu tadqiqot qumning siljishi dinamikasi haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etish va ushbu mintaqadagi ekologik o‘zgarishlarni tushunishimizga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, qum harakati, masofadan zondlash, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, atrof-muhit monitoringi.

Introduction. The Ferghana Valley, located in Central Asia, is a region of significant ecological importance. The dynamics of sand movement in this area can have profound effects on the local environment, including agriculture and infrastructure. Remote sensing technologies offer a non-invasive and efficient means to study these changes over time, providing a valuable tool for environmental monitoring and management.

Literature Review. Previous studies have highlighted the susceptibility of the Ferghana Valley to desertification and the shifting patterns of sand dunes. Traditional ground-based methods have limitations in monitoring large-scale changes, making remote sensing an indispensable tool. Various studies around the world have successfully employed remote sensing techniques to study desertification, sand dune migration, and environmental changes.

Study Area. The Ferghana Valley spans parts of Uzbekistan, Kyrgyzstan, and Tajikistan, covering an area of approximately 22,000 square kilometers. The region’s geography is characterized by fertile plains interspersed with sand dunes, making it a unique and diverse ecosystem [9,14].

Materials and Methods. The success of any remote sensing study hinges on a robust methodology that effectively captures and analyzes relevant data. The following section outlines the materials and methods employed in the investigation of sand movement in the Ferghana Valley, utilizing remote sensing technologies [1,2,3].

1. Satellite Imagery: Sources: High-resolution satellite imagery from reputable sources, including Landsat and Sentinel, forms the backbone of the data acquisition process. The selection of appropriate satellite imagery accounts for factors such as spatial resolution, revisit frequency, and the ability to capture the dynamic nature of sand movement.

2. Geographic Information System (GIS) Data: Base Maps: Utilization of GIS base maps, including topographic maps and land cover data, facilitates the contextualization of satellite imagery. These base maps aid in identifying key features, such as water bodies, vegetation, and infrastructure, providing a comprehensive backdrop for sand movement analysis.

3. Image Processing Techniques: Pre-processing: Calibration and correction of satellite imagery are conducted to eliminate atmospheric interference and enhance the accuracy of subsequent analyses. Radiometric and geometric corrections are applied to ensure consistency across different images [4,5].

Spectral Analysis. Leveraging the spectral bands of satellite imagery allows for the identification of distinct features and changes in land cover. This spectral analysis aids in differentiating sand dunes from surrounding terrain, forming the basis for quantitative assessments.

4. Change Detection Algorithms: Image Differencing: Temporal changes in sand movement are detected through image differencing techniques. By comparing multiple images

acquired over different time periods, variations in sand distribution and morphology are identified.

Vegetation Indices: Incorporation of vegetation indices, such as NDVI (Normalized Difference Vegetation Index), aids in differentiating between vegetated and non-vegetated areas. This is crucial for understanding the impact of sand movement on the local ecosystem [6,7,8].

Results. The application of remote sensing technologies to monitor sand movement in the Ferghana Valley has yielded insightful results, shedding light on the dynamic changes in the landscape over the study period. The following section presents the key findings derived from the analysis of satellite imagery, ground-truth data, and various quantitative metrics.

1. Spatial Distribution of Sand Movement: The spatial analysis of satellite imagery reveals distinct patterns of sand movement across the Ferghana Valley. Hotspots of sand migration are identified, indicating areas with higher rates of change in dune morphology and distribution (figure 1).



Figure 1. Remote Sensing Analysis of Sands in ArcGIS.

2. Temporal Trends in Sand Dynamics: Time-series analysis of satellite imagery exposes temporal trends in sand movement. Seasonal variations and long-term shifts are discerned, providing a nuanced understanding of the cyclical and continuous processes influencing sand dynamics.

3. Identification of Influencing Factors: The integration of GIS data and satellite imagery has facilitated the identification of factors influencing sand movement. Anthropogenic activities, land-use changes, and climatic variations emerge as significant contributors to the observed shifts in sand distribution [10,11].

4. Quantitative Metrics: Various quantitative metrics, including rates of sand movement and changes in dune size, provide numerical insights into the extent and magnitude of sand dynamics. Statistical analyses further validate the significance of observed trends.

5. Impact on Vegetation and Ecosystems: The study highlights the impact of sand movement on local vegetation and ecosystems. Areas experiencing significant sand migration show a decrease in vegetation cover, potentially leading to ecological imbalances and challenges for agriculture [12,16].

6. Predictive Modeling: The application of predictive modeling techniques enhances the study’s foresight capabilities. Models developed using machine learning algorithms offer projections of future sand movement trends, aiding in the formulation of proactive environmental management strategies.

7. Implications for Sustainable Land Management: The findings have broader implications for sustainable land management practices in the Ferghana Valley. By understanding the dynamics of sand movement, stakeholders can implement adaptive strategies that balance environmental conservation with human activities.

Discussion: The observed changes in sand movement patterns can have wide-ranging implications, including impacts on agriculture, water resources, and local ecosystems. Understanding the driving forces behind these changes is crucial for developing effective mitigation and adaptation strategies. Human activities, climate change, and land-use patterns may all play roles in shaping the dynamics of sand movement in the region [13,15].

Conclusion. Remote sensing proves to be a powerful tool for monitoring and analyzing sand movement in the Ferghana Valley. The integration of satellite imagery with ground-truth data enhances the accuracy and reliability of the results. The findings of this study contribute to the broader understanding of environmental changes in the region and can inform sustainable land management practices.

REFERENCES

1. Asner, G. P., Knapp, D. E., Kennedy-Bowdoin, T., Jones, M. O., Martin, R. E., Boardman, J., ... & Field, C. B. (2011). Carnegie Airborne Observatory: in-flight fusion of hyperspectral imaging and waveform light detection and ranging for three-dimensional studies of ecosystems. Journal of Applied Remote Sensing, 5(1), 053537.
2. Baatz, M., & Schäpe, A. (2000). Multiresolution segmentation: an optimization approach for high-quality multi-scale image segmentation. Stuttgart: Institute for Photogrammetry and Remote Sensing, University of Stuttgart.
3. Huete, A., Didan, K., Miura, T., Rodriguez, E. P., Gao, X., & Ferreira, L. G. (2002). Overview of the radiometric and biophysical performance of the MODIS vegetation indices. Remote Sensing of Environment, 83(1-2), 195-213.
4. Jensen, J. R. (2007). Remote Sensing of the Environment: An Earth Resource Perspective. Pearson Education.
5. Kuenzer, C., & Knauer, K. (2013). Remote sensing of glacier- and permafrost-related hazards in high mountains: an overview. Natural Hazards, 65(3), 1541-1573.
6. Levin, N., Lechner, A. M., Brown, G., Mörtberg, U. M., & Lechner, A. M. (2017). A review of methods for measuring spatial patterns in plant communities. Remote Sensing, 9(12), 122.
7. Nigmatov A.N., Tobirov O.Q. Classification Of Geosystem For The Purpose Of Tourist Zoning And The Role Of Natural Geographical Approach. N Y Sci J 2022;15(2):7-13
8. Nigmatov Askar Nigmatullaevich, and Tobirov Odiljon Kobiljon Ugli. "The necessity to develop geographical tourism in diversification of tourism industry" European science review, no. 5-6, 2021, pp. 9-16.

9. Nigmatov, Askar Rasulov, Anvar Tobirov, Odil Methodology for assessing the tourist potential of the nature of the Fergana Valley using GIS technologies and experimental methods Journal of Pharmaceutical Negative Results 2268-2286 2022
10. Tobirov Odiljon Kobiljon ugli. The Necessity To Develop Geographical Tourism In Diversification Of Tou rism Industry. N Y Sci J 2021;15(5):31-38
11. Tobirov O. K. "Reasonable use of transboundary water resources and streams". European Science. 2017; 3 (25): 31-36.
12. Tobirov Odiljon. “ГАТ ёрдамида баҳоланган табиат компонентлари ва комплексларини дала- экспедициявий тадқиқотлар билан таққослаш”. Natural Sciences, 2022.
13. Tobirov Odiljon. “ГАТ технологиялари ёрдамида туристик-рекреацион зонарни ажратиш (Фарғона водийси мисолида)”. Natural Sciences, 2022.
14. Исаков, В. Ю. Глава 2. Эколого-мелиоративное состояние земель Ферганской долины и пути их улучшения / В. Ю. Исаков М. А. Юсупова, О. Қ. ў. Тобиров // Innovations in technical and natural sciences / Ed. by P. Busch. Том Volume 4. – Vienna, Austria: "East West" Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH, 2017. – С. 15-30. – EDN YJNATJ.
15. Тобиров Одилжон Кобилжон Угли. "Разумное пользование трансграничными водными ресурсами и потоками" European science, no. 3 (25), 2017, pp. 31-36.
16. Тобиров, О. «Фарғона водийси табиат компонентларининг туристик имкониятларини Г.А.Т ёрдамида комплекс баҳолаш». Евразийский журнал академических исследований, т. 2, вып. 12, ноябрь 2022 г., сс. 1019-27

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Jaxongir TOJIBOYEV,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail:jahongir@mail.ru

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent N.Alimov taqrizi asosida

SPECIFIC ASPECTS OF THE CREATIVE APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE OF STUDENTS

Annotation

This article focuses on the issues of the development of artistic-aesthetic competence in students, highlighting the peculiarities of the creative approach in the implementation of this process. It is also mentioned that the use of a creative approach in the development of artistic-aesthetic competence in future teachers of Fine Arts is important in the education of Fine Arts.
Key words: artistic-aesthetic, creative, competence, approach, innovative, individual, creativity, interpersonal communication.

TALABALARNING BADIIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda badiiy-estetik kompetenlikni rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayonni amalga oshirishda kreativ yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishda kreativ yondashuvni qo‘llashning tasviriy san’at ta’limida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: badiiy-estetik, kreativ, kompetentlik, yondashuv, innovatsion, individual, ijodkorlik, shaxslararo muloqot.

СПЕЦИФИКА КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье основное внимание уделено вопросам развития художественно-эстетической компетентности у учащихся, освещены особенности креативного подхода к осуществлению этого процесса. В нем также говорится о важности применения творческого подхода к развитию художественно-эстетической компетентности у будущих учителей изобразительного искусства в художественном образовании.
Ключевые слова: художественно-эстетический, креативный, компетентность, подход, инновационный, индивидуальный, креативность, межличностное общение.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda san’at sohasidagi islohotlar jamiyatning ijtimoiy ma’naviy ta’limiy badiiy-estetik talab va ehtiyojlari asosida amalga oshirilmoqda. Chunki bugungi yoshlar davlatimiz tomonidan tashkil etilgan bolalar musiqa va san’at maktablaridan tashqari litsey – kollejlar, san’at va madaniyat oliy ta’lim muassasalari hamda pedagogika universitetlarida san’atning o‘zi tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha mukammal bilim olish imkoniga egalar. Bundan tashqari eng chekka hududlarda ham bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyat ko‘rsatayotgani san’at va madaniyat sohasida yuksak badiiy-estetik kompetensiyaga ega bo‘lgan, kreativ fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Respublikadagi barcha bolalar musiqa va san’at maktablari hamda maktabdan tashqari ta’lim muassasalari zamonaviy o‘quv jihozlari bilan to‘liq ta’minlangan. Shuningdek, mamlakatimizdagi barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham bugungi kunda san’at sohasidagi yetuk mutaxassis kadlar faoliyat olib bormoqda. Yaratilgan imkoniyatlar esa pedagoglardan yanada mas’uliyatliroq bo‘lishni, o‘quvchilar ongiga, ruhiyatiga tasviriy sanatining barcha qirralarini singdirishni talab etadi. Buning uchun esa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining bilimi tafakkuri, zarur pedagogik kompetentligi qatorida badiiy-estetik kompetentligi rivojlangan bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa ularda kreativ fikrlash kompetensiyasiga ega pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish alohida e’tibor talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilk bor kreativ yondashuv (ingl. “creative” – ijod, ijodiy, lot. “creatio” – yaratish, bunyod etish) tushunchasi D. Simpson tomonidan 1922-yilda insonning qolipli fikrlash usulidan voz kechish xususiyatini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi”[1].

Talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishda kreativ yondashuvni qo‘llash uchun quyidagilar muhim bo‘lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o‘z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonchning mavjudligi.

Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish modeli va texnologiyalarini takomillashtirish mazkur jarayonni tashkil etishga doir izlanishlar hamda tamoyillarini aniqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, bizningcha, har qanday ilmiy ishning eng ustuvor vazifalaridan biri, aniq tadqiqotning dastlabki nuqtai nazarlari va amalga oshirish usullarini aniqlash hamda tahlil qilish, ularning kelajakdagi istiqbollarini to‘g‘ri baholash, keyinchalik bilish vositasi

sifatida foydalanishdan iborat. Bu esa bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga oid yondashuvlar mohiyati va imkoniyatlarini tahlil qilish bilan bevosita bog‘liq[2].

Mazmuniga ko‘ra “yondashuv” atamasi ko‘p qirrali bo‘lib, quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi:

- ta’lim ishtirokchilarining ijtimoiy ong va o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi g‘oyaviy kategoriya;
- ta’lim jarayoni, uning komponentlari, pedagogik munosabatlarning subyektlari – pedagog va ta’lim oluvchilrning o‘zaro faoliyatini tizimli tashkil etish;
- tadqiqot obyektini ifodalaydigan tushunchalar sifatida fundamental metodologik yo‘nalish;
- faoliyatning asosiy mazmuni va yetakchi g‘oyalarini belgilaydigan tamoyillar yig‘indisi;
- o‘qituvchining o‘quvchilar va sinf jamoasi bilan o‘zaro muloqotdagi madaniyatini belgilaydigan asosiy aksiologik yo‘nalganlik.

Muhokama va natijalar. Biz tadqiqotimizda nazariy va amaliy ahamiyatga ega materiallarni o‘rganish asosida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga doir kreativ yondashuvni aniqlashtirdik. Demak yondashuvning yuqorida keltirilgan komponentlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kreativlik elementlari tatbiq etilsa badiiylik, ijodiy yo‘nalganlik imkoniyatlari ortadi[3].

Auditoriya va auditoriyadan tashqri faoliyatda individual kreativ muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini nafaqat turli xil bilimlar bilan boyitadi, balki u bilan o‘zining hayotiy va kasbiy tajribasi, dunyoning o‘ziga xos hissiy qarashlari bilan o‘rtoqlashadi. Ushbu jarayonda eng muhimi, san’at asarlarini mustaqil ravishda tahlil qilishga o‘rgatish, ularning oldida ulkan san’at dunyosini, jahon san’at madaniyatini kashf etish va ijodiy o‘zini o‘zi qadrlashning yuqori mezonlarini shakllantirishdir. Bu esa shuni anglatadiki, yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasiga qo‘shimcha ravishda, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi boy tasavvurga, moslashuvchan nostandart fikrlashga, ongning birgalikdagi faoliyati uchun rivojlangan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak, ya’ni, ijodiy fazilatlarga ega - kreativ shaxs bo‘lishi kerak.

Kreativlikni shaxsning o‘ziga xos xususiyati va uning aql-idrokining ko‘rsatkichi namoyon bo‘lishi sifatida taqdim etishda, avvalambor, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlash kerak: san’at asarlariga tashabbuskor yondoshish, ijodiy g‘oyalarni yaratish qobiliyati, badiiy asarning rivojlantiruvchi qiyofasini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati, bu yangi badiiy tafsilotlarni kiritish bilan bog‘liq yoki aksincha, badiiy tasvirning yaxlitligini buzadigan barcha kamchiliklarni bartaraf etishdir. Shu sababli, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kreativligi san’at asarining badiiy-majoziy mazmunli mohiyatini mustaqil ravishda anglash va kompozitsiyaning badiiy kontseptsiyasini aktuallashtirishning dolzarb muammolarini mustaqil ravishda hal qilish, avvalgi san’at asarlari tajribasidan foydalanish va o‘zgartirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi[4].

Ta’limiy va tarbiyaviy jarayonda pedagogik kreativlik talaba shaxsining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi ijodiy fazilatlar to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi, bu uning maktab o‘quvchilari bilan ishlashning maqbul shakllarini innovatsion izlashda o‘z ifodasini topadi, natijada uning kasbiy faoliyatida ijodiy yondashuv asosida yuqori samaradorlikka erishishi ta’minlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kreativligi mash'ala sifatida uning ijodiy ishining barcha jihatlarini – ijro etuvchi va pedagogik masalalarni yoritib beradi hamda uning o‘quvchilarining shaxsiy faoliyati bo‘yicha fazilatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ularning tasviriy yutuqlarini rag‘batlantiradi va ularning ijodiy natijalarining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun talabaning shaxsiyati qanchalik yorqin va iste’dodli bo‘lsa, uning ta’siri shunchalik kuchli va samaraliroq bo‘ladi, bu esa tasviriy san’at o‘qituvchilarini ijodiy mustaqillikka intilishlarini rag‘batlantiradi[5].

Tasviriy san’atga innovatsion yo‘naltirilgan ta’lim individual ijodiy yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun o‘quvchilarida kreativik fazilatlarini shakllantirishdan oldin bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining kreativ individualligining barcha qirralarini aniq bilishi, shaxsiy fazilatlari va kasbiy ko‘nikmalarini, ayniqsa, muqarrar tuzatishga muhtoj bo‘lganlarini yetarli darajada baholashi kerak. Doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj o‘qituvchining innovatsion faoliyatiing asosiy, asosiy sifati bo‘lishi kerak. Chunki talabalar uchun uning shaxsiy va ijodiy qiyofasi asosan ularning hayotiy va ijodiy yo‘nalishlari va da’volarini belgilaydigan standartga aylanadi.

Shunday qilib, tasviriy san’at ta’limini innovatsion tizimining asosi tasviriy san’at darslarida talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga nisbatan kreativ pedagogik yondashuv bo‘lishi mumkin. Bu esa tadqiqotimizda maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida ishlaydi, uning davomida tasviriy san’at talabalarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga nisbatan ijodiy pedagogik ta’sirning murakkab nisbati va uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizda ilgari surilgan bu pedagogik yondashuvning eng muhim jihati shundaki, u talabalarni tasviriy san’at darsida o‘qituvchi bilan birgalikda muloqotga asoslangan samarali jarayonga chuqur jalb qilishga yordam beradi va dars paytida talabalarning o‘zini o‘zi anglashining yangi usullari va uslublarini izlashga undaydi. Shuning uchun tadqiqotimizda "o‘z-o‘zini anglash" tushunchasi talabaning kasbiy o‘sishi va o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan doimiy istagi tufayli potentsial ijodiy imkoniyatlarini, xususan, kreativlik salohiyatini rivojlantirishning pedagogik boshqariladigan jarayoni sifatida talqin etiladi.

Yuqoridagi qoidalar kreativ yondashuvning kontseptual platformasi bo‘lib, uning asosiy mazmuni va mohiyatini aks ettiradi. Kreativ pedagogik yondashuvga asoslangan didaktik kompleks doirasidagi pedagogik ta’sir bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pedagogik jarayonga ijodiy munosabatiga asoslanadi. Bunday pedagogik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogik kreativlik va har bir dars davomida evristik qidiruv holatini yaratish, uning muhitida har bir talaba deyarli tasvirlash vazifalarini mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini, badiiy asar ustida ishlash jarayonida tasvirlashga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalardan foydalanish qobiliyatini egallashga majbur bo‘lishini taqazo etadi. Ongning samarali kombinatsion faoliyatining ushbu jihatlari allaqachon kreativ mustaqillikning elementlari hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, tasviriy san’at darslarida o‘qitishning samarali modeli har bir talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uning ijodiy mustaqilligini shakllantirish, individual qobiliyatlari vositasida badiiy ifodalashning o‘ziga xosligini tasvirlay olish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni ustuvor maqsad qilib qo‘yishi kerak. Yuqorida ta’kidlanganlarga asoslanib, talabalarning kreativ mustaqilligini faollashtirish jarayoni, asosan o‘qituvchining shaxsiy ijodkorligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham pedagog tasviriy va pedagogik faoliyat sohasida yuqori darajadagi kompetentsiya va professionallikka ega bo‘lishi talab etiladi. Binobarin, pedagogik mahorat omili tasviriy san’at sohasida ta’lim olayotgan talabalarining ijodiy mustaqilligini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Guilford J.P. Demos G.D. Torrance E.P. Factors That Aid and Hinder Creativity // Creativity Its Educational Implications. John Wiley and Sons, Inc. N.Y., 1967. 336 p.
2. Хеллер К.А. Роль креативности в объяснении одаренности и выдающихся достижений // Актуальные проблемы психологии Том 6. Психология одаренности / Под ред. Р.А. Семеновой Пономаревой. - К., 2002. - Вып. 1. - С. 104-120.
3. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 585-594.
4. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students’ Aesthetic Culture in the Process of Globalization.International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.
5. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 60-64.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Dilnura TOSHTEMIROVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: dilnur@mail.ru

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori M.Boltayeva taqrizi asosida

FOSTERING PROCESS FORMATION SKILLS THROUGH THE INTRODUCTION OF CHILDREN TO NATURE IN FUTURE EDUCATORS

Annotation

In an era marked by the increasing disconnect between children and the natural world, the role of educators in bridging this gap is becoming ever more critical. This scientific article explores the concept of process formation skills and their development through the introduction of children to nature in future educators. We delve into the theoretical foundations of process formation skills, discuss the importance of nature-based experiences in education, and provide insights into how educators can be equipped to nurture these skills in the next generation. By emphasizing the symbiotic relationship between nature and education, we aim to highlight the significance of integrating nature-based learning into teacher preparation programs.

Key words: Process formation skills, nature-based education, future educators, teacher preparation, childhood development.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЧЕРЕЗ ПРИВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ К ПРИРОДЕ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Аннотация

В эпоху, характеризующуюся растущим разрывом между детьми и миром природы, роль педагогов в преодолении этого разрыва становится все более важной. В данной научной статье исследуется понятие процесса формирования умений и их развития через приобщение детей к природе у будущих педагогов. Мы углубляемся в теоретические основы формирования навыков процесса, обсуждаем важность природного опыта в образовании и даем представление о том, как преподаватели могут быть подготовлены к развитию этих навыков в следующем поколении. Подчеркивая симбиотическую связь между природой и образованием, мы стремимся подчеркнуть важность интеграции обучения на природе в программы подготовки учителей.

Ключевые слова: Процесс формирования умений, природное образование, будущие педагоги, подготовка учителей, развитие детей.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH JARAYONNI SHAKLLANTIRISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Bolalar va tabiat o‘rtasidagi uzilishlar kuchayib borayotgan bir davrda bu bo‘shliqni bartaraf etishda o‘qituvchilarning roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ilmiy maqolada bo‘lajak pedagoglarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari va ularni rivojlantirish tushunchasi yoritilgan. Biz jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarining nazariy asoslarini o‘rganamiz, ta’limda tabiatga asoslangan tajribalarning ahamiyatini muhokama qilamiz va o‘qituvchilarni kelajak avlodda bu ko‘nikmalarni tarbiyalash uchun qanday jihozlash mumkinligi haqida tushuncha beramiz. Tabiat va ta’lim o‘rtasidagi simbiotik munosabatni ta’kidlab, biz tabiatga asoslangan ta’limni o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga integratsiyalashning ahamiyatini ta’kidlashni maqsad qilganmiz.

Kalit so‘zlar: Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari, tabiatga asoslangan ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchilar, o‘qituvchi tayyorlash, bolalikni rivojlantirish.

Kirish. Tez texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya bilan tavsiflangan asrda bolalar va tabiiy dunyo o‘rtasidagi aloqani uzib qo‘yishdan xavotir kuchaymoqda. Bu otryad yosh avlodimizning jismoniy, hissiy va kognitiv rivojlanishi uchun juda katta oqibatlarga olib keladi. Ushbu masalaga javoban ushbu ilmiy maqola jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari tushunchasini va ularning bolalar rivojlanishidagi asosiy rolini o‘rganadi. Xususan, biz bolalarni tabiat bilan tanishtirish kelajakdagi o‘qituvchilarda ushbu muhim ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini o‘rganamiz.

"Jarayonlarni shakllantirish ko‘nikmalari" atamasi murakkab tizimlar va jarayonlarni tushunish va ular bilan shug‘ullanish uchun asosiy bo‘lgan kognitiv, hissiy va amaliy kompetentsiyalarning keng doirasini o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalarning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish orqali biz ularning tabiatga asoslangan ta’lim kontekstidagi ahamiyatini tushunish uchun asos yaratamiz.

Bizning tadqiqotimiz tizimli fikrlash va kuzatishdan tortib muammolarni hal qilish va hissiy intellektgacha bo‘lgan jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarining turli tarkibiy qismlarini ajratishdan boshlanadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ekologik savodxonlik uchun, balki har tomonlama barkamol va barkamol avlodni tarbiyalash uchun ham zarurdir.

Bundan tashqari, biz tabiatga asoslangan ta’limning ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun kuchli vosita sifatida ahamiyatini yoritib beramiz. Ushbu pedagogik yondashuv nafaqat tabiatni qadrlashni, balki bolalarga atrof-muhitni samarali boshqarish va himoya qilish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni kuchaytiradi. Tabiatga asoslangan ta’lim tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hissiy farovonlikni rivojlantirish, atrof-muhit haqida xabardorlikni rivojlantirish va ijodkorlikni rag‘batlantirish uchun ko‘rsatildi.

Ushbu kontekstda o‘qituvchilarning muhim rolini e’tirof etgan holda, biz bo‘lajak o‘qituvchilarni tabiatga asoslangan ta’limni o‘qitish amaliyotiga integratsiyalash

uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish strategiyalarini taklif qilamiz. Tabiatga asoslangan o‘quv dasturini o‘z ichiga olgan holda, tajribaviy o‘rganishni osonlashtiradigan, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taklif qilgan holda va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari o‘qituvchilarning keyingi avlodi bolalar bilan mazmunli o‘zaro ta’sir qilish orqali jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yaxshi tayyorgar-lik ko‘rishini ta’minlaydi. tabiiy dunyo.

Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari: nazariy asos

Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qator kognitiv, hissiy va amaliy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi, ular shaxsning murakkab tizimlar va jarayonlarni tushunish va samarali o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatining ajralmas qismidir[1]. Ta’lim, xususan, tabiatga asoslangan ta’lim kontekstida bu ko‘nikmalar bolalarda har tomonlama rivojlanishni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va ekologik savodxonlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo‘limda biz jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarining nazariy asoslarini ko‘rib chiqamiz va ularning turli tarkibiy qismlarini o‘rganamiz.

Tizimli fikrlash:

Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarining asosida tizimli fikrlash yotadi, bu odamlarga tabiiy ekotizimlardagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro bog‘liqliklarni tan olish va tushunishga imkon beradigan kognitiv qobiliyatdir[2]. Tizimli fikrlash dunyoni o‘zaro bog‘langan komponentlar tarmog‘i sifatida ko‘rishni o‘z ichiga oladi, bu yerda bir qismdagi o‘zgarishlar butun tizimga to‘lqinli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. U odamlarni organizmlar, ekotizimlar va atrof-muhit jarayonlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishga undaydi. Tizimli fikrlash orqali bolalar murakkab ekologik muammolarni tahlil qilish va kengroq ekologik kontekstni hisobga olgan holda ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Kuzatish va so‘rov:

Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari qiziquvchanlik va ilmiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan kuzatish va izlanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bolalar tabiatan qiziquvchan bo‘lib, ularni tabiat olami haqida kuzatishlar o‘tkazishga, savollar berishga va javob izlashga undash orqali o‘qituvchilar ularda chuqur hayrat tuyg‘usini, tevarak-atrofni o‘rganishga intilishni rivojlantirishga yordam beradi[3]. Kuzatish va izlanish ko‘nikmalari tanqidiy fikrlashni, gipotezalarni shakllantirishni va tadqiqot usullarini rivojlantirishni ta’minlaydi, bu ilmiy ishlarda ham, kundalik muammolarni hal qilishda ham qimmatlidir.

Muammoni hal qilish:

Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari muammolarni hal qilishda qo‘llaniladi, bunda odamlar o‘zlarining ijodiy va tahliliy qobiliyatlarini atrof-muhit muammolari va saqlash va barqarorlik bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun qo‘llaydilar. Jarayonni shakllantirishning bu jihati bolalarda vakolat va vakolat tuyg‘usini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ularga mahalliy tabiatni muhofaza qilish tashabbuslaridan tortib global barqarorlik sa’y-harakatlarigacha ekologik muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi[3]. Atrof-muhitning bo‘lajak boshqaruvchilari sifatida kuchli muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan bolalar 21-asrning murakkab ekologik muammolarini hal qilishga ko‘proq tayyor.

Hissiy intellekt:

Hissiy intellekt, ayniqsa, tabiatga asoslangan ta’lim kontekstida jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarining ajralmas qismidir. Bu tabiatga nisbatan empatiya va hissiy aloqalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, bu atrof-muhitni boshqarish uchun kuchli turtki bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yuqori hissiy intellektga ega bo‘lgan bolalarda tabiiy dunyoga chuqur muhabbat paydo bo‘lishi ehtimoli ko‘proq bo‘lib, uni himoya qilish va asrab-avaylash uchun umrbod intilishga olib keladi. Hissiy intellekt, shuningdek, atrof-muhit uchun mas'uliyat hissini rivojlantiradi, bolalarda ular atrofdagi dunyoga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligiga ishonch hosil qiladi.

Amaliy ko‘nikmalar:

Kognitiv va hissiy qobiliyatlardan tashqari, jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari tabiiy dunyo bilan samarali aloqa qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi[5]. Ushbu ko‘nikmalar ochiq havoda omon qolish texnikasi, o‘simliklarni aniqlash, cho‘lda navigatsiya va tabiatga asoslangan san'at va hunarmandchilikni o‘z ichiga olishi mumkin. Amaliy ko‘nikmalar nafaqat bolaning tabiat bilan muloqot qilish qobiliyatini oshiradi, balki tashqi muhitda o‘zini o‘zi ta’minlash va o‘ziga ishonchni oshiradi. Bundan tashqari, ular bolalarga atrof-muhit bilan aloqalarini chuqurlashtiradigan aniq tajribalar beradi.

Jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari yaxlit rivojlanish va ekologik savodxonlik uchun keng qamrovli asosni ifodalaydi. Ushbu ko‘nikmalar tizimli fikrlash, kuzatish va izlanish, muammolarni hal qilish, hissiy intellekt va amaliy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Tabiatga asoslangan ta’lim orqali ushbu ko‘nikmalarni tarbiyalash orqali o‘qituvchilar bolalarni sayyoramiz oldida turgan murakkab muammolarni hal qilish uchun jihozlangan bilimdon, rahm-shafqatli va atrof-muhitga mas'uliyatli shaxslar bo‘lishlari mumkin[6].

Tabiatga asoslangan ta’limning ahamiyati

Texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya tobora kuchayib borayotgan dunyoda tabiatga asoslangan ta’limning ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Tabiatga asoslangan ta’lim bolalarni o‘rganish va kashf qilish uchun tabiiy muhitga cho‘mtirishni o‘z ichiga oladi, bu bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadigan keng ko‘lamli imtiyozlarni beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

Tabiatga asoslangan ta’lim bolalarni amaliy, izlanishga asoslangan o‘rganishga undaydi. Bolalar tabiiy muhitni o‘rganayotganda, ularga savollar berish, kuzatishlar va atrofdagilar bilan tajriba qilish imkoniyati taqdim etiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki bolalar tabiatdagi tajribalarini tahlil qilish va sharhlashni o‘rganadilar[4]. Ularda tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari bo‘lgan real muammolarga xulosalar chiqarish, farazlar qilish va yechim izlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Hissiy farovonlikni oshirish:

Tabiiy sharoitda vaqt o‘tkazish bolalarning ruhiy salomatligi va hissiy holatini yaxshilash bilan bog‘liq. Tabiat stress va tashvish darajasini kamaytiradigan tinch va oziqlantiruvchi muhitni ta’minlaydi. Bundan tashqari, bolalar tabiatda tez-tez boshdan kechiradigan hayrat va qo‘rquv hissi ijobiy hissiy rivojlanishga yordam beradi. Tabiatga asoslangan ta’lim tabiiy dunyo bilan chuqur aloqani rivojlantiradi, bu esa hissiy barqarorlikni oshiradi va baxt va qoniqish hissini oshiradi.

Ekologik ongni rivojlantirish:

Tabiatga asoslangan ta’lim ekologik ong va mas’uliyat hissini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi[7]. Bolalar tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazar ekan, ularda atrof-muhit bilan chuqur bog‘lanish, uning go‘zalligi va murakkabligini chinakam qadrlash hissi paydo bo‘ladi. Bu bog‘liqlik ekologik savodxonlik uchun asos yaratadi, bu esa ekologik mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolalarga ekotizimlar, biologik xilma-xillik va tabiiy sharoitlarda tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida ma’lumot berish sayyoramizni himoya qilishga sadoqat va sadoqat hissini uyg‘otadi.

Ijodkorlikni rag‘batlantirish:

Tabiiy muhit ijodiy faoliyat uchun mo‘l-ko‘l ilhom manbai bo‘ladi. San’at, ertak yoki xayoliy o‘yin orqalimi, tabiat bolalarning ijodi va tasavvurini uyg‘otadi. Tabiatga asoslangan ta’lim bolalarni dunyoni boshqa ob'ektiv orqali ko‘rishga undaydi, ularni innovatsion usullarda o‘zini namoyon qilishga ilhomlantiradi. Tabiiy materiallar va landshaftlar bilan shug‘ullanish orqali bolalar badiiy mahorat va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradilar, ijodkorlikni umrbod qadrlashni rivojlantiradilar.

Jismoniy salomatlikni mustahkamlash:

Tabiatga asoslangan ta’lim ko‘pincha piyoda yurish, toqqa chiqish va tabiiy landshaftlarni o‘rganish kabi jismoniy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu mashg‘ulotlar jismoniy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi. Toza havo va tabiiy elementlarga ta’sir qilish bolalarning immunitetini va umumiy farovonligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, tabiiy muhitda ochiq o‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan vosita qobiliyatlari va fazoviy ongni rivojlantirishga imkon beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish:

Tabiatga asoslangan ta’lim hamkorlikni, jamoada ishlashni va ijtimoiy hamkorlikni rag‘batlantiradi. Bolalar tabiatni birgalikda o‘rgansa, ular muloqot qilishni, baham ko‘rishni va muammolarni guruh sifatida hal qilishni o‘rganadilar. Ushbu tajribalar ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi. Tabiatga asoslangan dasturlar, shuningdek, jamiyat va o‘zaro bog‘liqlik hissini rivojlantiradi, chunki bolalarda atrof-muhitga umumiy minnatdorchilik va uni birgalikda himoya qilish istagi paydo bo‘ladi.

Tabiatga asoslangan ta’lim bolalik rivojlanishiga kognitiv, hissiy, jismoniy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi yaxlit yondashuvni ta’minlaydi. Bu tanqidiy fikrlash, hissiy farovonlik, atrof-muhitni bilish, ijodkorlik, jismoniy salomatlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni oshiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar sifatida tabiatga asoslangan ta’limning ahamiyatini tan olish juda muhim, chunki u bizni bolalarga nafaqat shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiradigan, balki tabiiy dunyo uchun mas'uliyat va boshqaruv hissini uyg‘otadigan o‘zgaruvchan ta’lim tajribalari bilan ta’minlaydi. Tabiatga asoslangan ta’limning o‘qitish amaliyoti va o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga kiritilishi kelajak avlodlar uchun yanada yorqin va barqaror kelajak yaratish yo‘lidagi qadamdir.

Xulosa. Bolalarda tabiat bilan tanishish orqali jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish yaxlit ta’limning muhim jihati hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar ekologik savodxonlikni oshirish va ekologik mas’uliyatli fuqarolarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu ko‘nikmalarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Tabiatga asoslangan ta’limni o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga integratsiyalash va o‘qituvchilarni ochiq havoda mazmunli tajriba o‘tkazishga yordam beradigan bilim va ko‘nikmalar bilan jihozlash orqali biz bolalar va tabiiy dunyo o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishimiz va kelajak avlodlar uchun yanada yorqin va barqaror kelajakni ta’minlashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Louv, R. (2005). Last Child in the Woods: Saving Our Children from Nature-Deficit Disorder. Algonquin Books.
2. Kellert, S. R., & Wilson, E. O. (Eds.). (1993). The Biophilia Hypothesis. Island Press.
3. Sobel, D. (2008). Childhood and Nature: Design Principles for Educators. Stenhouse Publishers.
4. Chawla, L. (1999). Life Paths into Effective Environmental Action. The Journal of Environmental Education, 31(1), 15-26.
5. Orr, D. W. (1992). Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World. State University of New York Press.
6. Palmer, J. A. (1998). Environmental Education in the 21st Century: Theory, Practice, Progress, and Promise. Routledge.
7. Wilson, E. O. (1984). Biophilia. Harvard University Press.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 378:004.06

Shoxrux TURDIYEV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, p.f.d
E-mail:shoxruxturdiyev77@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori pfd. R.D.Shodiyev taqrizi asosida

OLIY O‘QUV YURTLARIDA STEAM FANLARI TA’LIMINI MODELLASHTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada STEAM fanlari ta’limini modellashtirish orqali rivojlantirish nazariyasi haqida so‘z borgan bo‘lib, unda STEAM fanlarini raqamlashtiruvchi bir qancha dasturlar va ulardan foydalanish hamda ularni ta’lim jarayonlarida qo‘llash haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: MatCad, MatLab, Maple, Srocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics, STEAM fanlar, modellar.

ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ НАУЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ STEAM В ВУЗАХ ПОСРЕДСТВОМ МОДЕЛИРОВАНИЯ

Аннотация

В этой статье рассматривается теория развития образования STEAM посредством моделирования, а также обсуждаются несколько программ, оцифровывающих STEAM, а также их использование и применение в образовательных процессах.

Ключевые слова: MatCad, MatLab, Maple, Srocodile Physics, Electronics Workbench, интерактивная физика, предметы STEAM, модели.

THEORY OF DEVELOPMENT OF STEAM SCIENCE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS THROUGH MODELING

Annotation

This article discusses the theory of developing STEAM education through modeling, and discusses several programs that digitize STEAM and their use and application in educational processes.

Key words: MatCad, MatLab, Maple, Srocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics, STEAM subjects, models.

Kirish. Mamlakatimizda tashkil etilgan Prezident maktablarining o‘quv jarayoni STEAM ta’limiga asoslanganligi hamda “O‘zbekiston Respublikasini oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injenering, ijodiy san’at va matematika) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish”[1] ustuvor vazifa sifatida belgilanganyangi va zamonaviy STEAM ta’limini amalga oshirishda modellashtirish va modellar asosiy tushuntiruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bunda STEAM ga asoslangan ta’lim o‘qituvchi va talabalarga tushunarli bo‘lishida modellashtirish va modellarning strategiyalarini puxta ishlab chiqilishi muhim sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. STEAM fanlar ta’limini amalga oshirish muammosi o‘tgan o‘n yil ichida ko‘pchilik tadqiqotchilarni e’tiborini o‘ziga jalb qilgan xususan, rossiyalik olimlar S.A.Lovyagin va A.S.Obuxov STEAM fanlar integratsiyasi orqali amaliy topshiriqlarni bajarishga qaratilgan amaliyotlarni yaratishni boshladilar va MDPUda fizika va STEAM ta’limi bo‘yicha magistrlik dasturini ishga tushirdilar. Muallif S.A.Lovyagin STEAM fanlar ta’limini fanlararo modellashtirish integratsiyasi orqali talabalarning fundamental va ijodiy yondashuvli dasturlarni ishlab chiqdi. V.S.Xamidovning Fizika fanini o‘qitishda interactive physics dasturidan foydalanish O‘quv qullanmasida bir qancha dasturlash tillari keltirib o‘tilgan. Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga:

MatCad, MatLab, Maple, Srocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics kabi dasturlar va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Axborot texnologiyalari imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o‘quv jarayonlarida foydalanish o‘zining samarasini beradi. Kompyuter modellarini o‘quv jarayonlarida qo‘llash tamoyillari quyidagilar:

1. Kompyuter dasturi tajribani o‘tkazish mumkin bo‘lmagan yoki tajriba kuzatib bo‘lmas darajada harakatlangan paytda qo‘llanilishi lozim.
2. Kompyuter dasturi o‘rganilayotgan detalni aniqlashda yoki echilayotgan masalaning illyustratsiyasida yordam berishi kerak.
3. Ish natijasida o‘quvchilar model yordamida hodisalarni xarakterlovchi kattaliklarning ham sifatiy, ham miqdoriy bog‘lanishlarini ko‘ra bilishlari kerak.
4. Dastur bilan ishlash paytida o‘quvchilarning vazifasi turli qiyinlikdagi topshiriqlar ustida ishlashdan iborat, chunki bu o‘z ustida mustaqil ishlashga imkon beradi [6].

Interactive Physics - aslida inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbekchada jonli fizika degan ma’noni anglatadi. Bu dastur paketi fizika o‘qituvchilari va kompyuter dasturchilarining 10 yillik mehnatlari mahsulidir. Interactive Physics dastur paketidagi harakat instrumentlaridan foydalanish mumkin va talabalarning o‘zlari mustaqil ravishda injener yoki ilmiy mutaxassislar kabi fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatiga egadirlar. Bu dastur davlat ta’lim standartlariga va o‘quv muassasalarida ta’lim berilayotgan adabiyotlarga mos kelganligi bilan muhim pedagogik qurol hisoblanadi. Ma’lumki, ba’zi bir jarayonlar yoki fizik modelning tasnifi chizma plakatlarda to‘liq o‘z aksini topmaydi. Buning ustiga jarayonning o‘zgarishini ko‘rish

imkoniyati umuman mavjud emas. Kompyuter modeli bunday hollarda qo‘l keladi. Albatta, fizik jarayonlarning barcha elementlarini o‘zida aks ettirgan o‘quv filmlari mavjud, lekin bunday o‘quv filmlarni talaba passiv tomoshabin sifatida kuzatadi. Jarayonning kompyuter modelida esa o‘rganuvchi fizik jarayonga bevosita “aralashib” turishi, uning parametrlarini o‘zgartirib, unda amal qilinayotgan qonuniyatga qanday ta’sir qilayotgani to‘g‘risida xulosalar chiqarish, ya’ni bilim olish va uni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlarimizda biz bu modellashtirish strategiyalarni qo‘yidagicha ko‘rinishlarda ifodaladik STEAM-ta’limi yondashuvini haqiqiy modelga asoslanib o‘rgatish uchun o‘qituvchilari talabalarga mavzularning qanaqa va qanday model ekanligini ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi. Buni amalga oshirishda o‘qitiladigan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, unga mos bo‘lgan modeldan foydalanishni tanlash, ishlab chiqish yoki o‘zgartirish, turli modellarning ko‘lami va cheklovlarini ko‘rsatish, o‘quvchilarning faol model qurishni o‘z ichiga olgan mazmunli modellashtirish faoliyatini loyihalashga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

Haqiqiy STEAM o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda, modellar va modellashtirishni integratsiya qilish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

Birinchidan, modellar va modellashtirishni integratsiyalash fan o‘qituvchilarini modellarning aniq tabiati va roliga o‘rgatish orqali STEAM o‘quv dasturlarining amalga oshirishi mumkin. STEAM o‘quv dasturlarida modellarni integratsiyalash va modellashtirishni talabalarda modellardan foydalanish, modellarni qayta ko‘rib chiqish, modellarni qayta qurish va yangi modellarni qurishni o‘rgatish orqali targ‘ib qilish mumkin.

Ikkinchidan, STEAM ta’limini amalga oshirishda modellardan vosita sifatida foydalanish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanib, uni amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi:

-har qanday fan bir qancha mavzulardan iborat bo‘lishi;

-ma’lum bir mavzuning modelni ishlab chiqishning tarixiy ketma-ketligiga rioya qilishga katta e’tibor qaratish;

-qanday foydalanish;

-modellashtirishda kognitiv qayta qurish;

-modellarning kuchli va kuchsiz tomonlarini to‘g‘ri baholash.

Uchinchidan, ilm-fan va texnologiya ta’limini qamrab oluvchi STEAM ta’limni targ‘ib qilish uchun modellar va modellashtirishni amalga oshirish o‘quvchi kontekstining muhimligini tushunishni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, yondashuvlar va o‘quv dasturlari maqsadli, ishonchli va shaxsan mazmunli bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarga fan va texnologiya mazmuni o‘rtasidagi munosabatlarni idrok etish va bilimlarni real muammolarga echim topishda qo‘llash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda shiddat bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan yutuqlarini raqamlashtirilgan fanlar va texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kompyuter texnikalarining va dasturlarini rivojlanishi obyektni 3 D modellarini yaratish imkonini bermoqda. Obyektni 3 D modellarini yaratishda fundamentallik baribir STEAM fanlarni modellashtirishiga tayanadi. Bunda matematik modellashtirish, fizik modellashtirish, kimyoviy modellashtirish, biologik modellashtirish, texnik modellashtirish va boshqa modellashtirishlardan foydalaniladi.

Hozirda biz matematik modellashtirish va fizik modellashtirish to‘g‘risida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz va qolgan modellarni keyingi maqolalarimizda yoritishga harakat qilamiz:

Matematik modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga: MatCad, MatLab, Maple, va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Bu dasturlar matematik formulalar va matematik qonuniyatlarni raqamlashtirish imkonini beruvchi dasturlar hisoblanadi va matematik modellashtirish metodidan matematika ta’limida ikki shaklda foydalaniladi.

Birinchidan, birorta ham modellar sxemasiga joylashmaydigan modelga olib keladi, bu holda yangi sinf modellarini tadqiqot qilishning ichki matematik muammosi paydo bo‘ladi, u mavjud matematik nazariyaning rivojlanishiga yoki yangi nazariyaning paydo bo‘lishiga olib keladi[2]. Matematik modellashtirish metodining ushbu shaklidan, aksariyat hollarda, ma’ruza vaqtida foydalaniladi va u quyidagi tuzilmaga ega:

-yangi matematik tushunchaga olib keluvchi kasbiy mazmundagi masalalarni qarash – modelni tuzish;

-yangi mavzu, yangi bo‘lim (tushuncha, teoremalar, isbotlash metodlari) asosiy mazmunini bayon qilish;

-hosil qilingan modelni yangi matematik apparat yordamida tadqiq etish;

-tuzilgan model yordamida kasbiy mazmundagi masalani echish bo‘yicha namuna keltirish va natijani mazkur masala tiliga o‘tkazish.

Ikkinchidan, ma’lum ko‘rinishdagi matematik modelga keltirish bo‘lib, u materialni mustahkamlash uchun asosan, amaliy mashg‘ulotlarda tatbiq etiladi yoki ilgari ifodalangan kasbiy mazmundagi masalalarni echish uchun ma’ruza oxirida foydalaniladi. Bu holda mashg‘ulotning tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

-masalaning qo‘yilishi;

-ma’lum modellar orasidan uning matematik modelini tanlash;

-modelni tadqiq etish;

-natijani mazkur masala tiliga o‘tkazish.

Matematika fanida matematik modellashtirish elementlarini aks ettirish qator muhim pedagogik vazifalarni echish imkoniyatini beradi:nazariy olingan bilimlarni amaliyotga yo‘naltirishni mukammallashtiradi;

-nazariy olingan bilimlarni amaliyotga yo‘naltirishni mukammallashtiradi;

-matematikni muhandislik faoliyatida qo‘llashni shakllantiradi;

-fanlararo bog‘liqlikni o‘zlashtiradi va boshqalar.

Modellashtirish jarayoniga bo‘ysunuvchi, modellashtirish postulatlari deb atalgan quyidagi prinsiplarda ajratib ko‘rsatilgan[4]

Model hech qachon qaralayotgan obyektning barcha xossalari va o‘ziga xos jihatlarini aks ettirmaydi, unga nisbatan ayniy bo‘lmaydi. U soddalashtirishga, ideallashtirishga asoslangan bo‘lib, obyektning taxminiy aks ettirilishidir”.

Modellashtirishning quyidagi funksiyalari mavjud:

gnoseologik – fandagi obyektlarni soddalashtirib tadqiq etishni, ularni bevosita o‘rganish u yoki bu sababga ko‘ra imkoniyati mavjud emas;

illyustratsiyali – analiz va umumlashtirish uchun tayanch sezgini hosil qilish;

evristik – yangi bilimlarni olish;

integrativ yoki sintezlovchi –bilimning yagona modelini o‘rnatish [4].

STEAM fanlar ta’limida talabalar nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash orqali fizik yoki matematik modellarini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari tashkil etilishining alohida shakl va metodlari haqida quyidagilarni aytib o‘tishimiz mumkin.

Talabalar fizik yoki matematik modellarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilishining muhim

qismi tadqiqotchilik elementlari bilan bog‘liq obyektning muammosini o‘rganish hisoblanadi [3].

Tahlil va natijalar. Ushbu ko‘rinishdagi tadqiqotlar talabalar va o‘qituvchidan hech qanday ortiqcha vaqtni talab etmaydi va barcha talabalarni birday qiziqtiruvchi mashg‘ulot sifatida qamrab oluvchi o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu erda biz murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan, nostandart yondashuvlarni talab etuvchi va ularni STEAM fanlarini modellashtiruvchi tadqiqotlar obyektini tashkil etishga imkon beruvchi muammolar yechimlarini qarab chiqamiz.

STEAM fanlarini modellashtiruvchi tadqiqotlarni o‘tkazish natijasida, har bir talabada mazkur obyekt yoki hodisani tashkil etuvchi muhim va muhim bo‘lmagan jihatlarni bir-biridan ajrata olish, tadqiqot ketma-ketligini birlashtira olish, tizimlashtirish, farazlarni ayta olish va shu kabi boshqa ko‘nikmalar shakllanadi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, bunday masalalar echimini izlash jarayonida tafakkur qobiliyatlarining intensiv rivojlanishi davom etadi va natijada talabalarda abstrakt tafakkur shakllanadi.

Talabalar STEAM fanlarini modellashtiruvchi tadqiqotlar jarayonini tashkil etish uchun, yaxshi masalani tanlash etarli emas, balki uni echish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish zarurdir. Eng avvalo, masala echish bosqichlari ketma-ketligini pedagogika jihatidan maqsadga muvofiqligini farqlash lozim bo‘ladi. An’anaviy amaliyotning aksariyat hollarida, masalaga xos echimlari ustida ishlash bilan boshlanib, shu bilan tugaydi hamda ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun eng muhim bosqichlari – masalani tushunish, uning echimini izlash va uni umumlashtirish kabi muhim jihatlar amalga oshirilmaydi. Bunday metodikada maqsad faqat masalaning echimini topish bo‘lib, ta’lim oluvchilarni yechimni izlash va tadqiq qilish metodlariga o‘rgatilmaydi.

Masala ustida ishlashnish, eng avvalo, echimni izlashning umumiy usullarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bunga evristik ko‘rsatmalar tizimidan doimiy foydalanish echimni muvaffaqiyatli izlashga ko‘mak beradi. Shunday ekan STEAM fanlar ta’limida talabalar nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash orqali fizik yoki matematik modellarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari quyidagi maqsadlarga erishish uchun:

-yuqori malakali, ijodiy fikrlovchi talabaning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini mukammallashtirishga talabalarning ijodiy qobiliyatlarini va shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘p tarmoqli ta’lim sifatida yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni 1-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. Carnevale A. P., Smith N., Melton M. STEM. Executive summary. [Elektronnыy resurs]. 2014. URL: https://cew.georgetown.edu/wpcontent/uploads/2014/11/stem-execsum.pdfsvobodnыy (data obraщeniya: 15.09.2015).212
3. Krayevskiy, V.V. Didakticheskiy prinsip kak strukturnыy element nauchnogo obosnovaniya obucheniya. Prinsipы obucheniya v sovremennoy 203 pedagogicheskoy teorii i praktike Tekst. / V.V. Krayevskiy. Chelyabinsk : CHPU, 1985.
4. Kudryavsev, L.D. Osnovnыe polojeniya prepodavaniya matematiki / L.D. Kudryavsev // Matematika v vыsshem obrazovanii. 2004. - №2. - S. 121-139.
5. Krayevskiy, V.V. Problemы nauchnogo obosnovaniya obucheniya (Metodicheskiy analiz) Tekst. / V.V. Krayevskiy ; NII obshey pedagogiki APN SSSR. M. : Pedagogika, 1987. - 264 s.
6. Xamidov V.S, 2008 y Fizika fanini o‘qitishda interactive physics dasturidan foydalanish./ O‘quv qullanma Toshkent. 2008
7. Turdiyev Sh. R. STEAM fanlar ta’limi va integratsiyasini yuzaga kelishi modeli //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 4. – S. 571-575.
8. Shadiev, R., Khimmataliev, D., Fayzullaev, R., & Chorshanbiev, Z. (2020). Professional culture of the future teacher of vocational education: a communicative aspect. Journal of Critical Reviews, 7(4), 399-400.
9. Turdiyev, Shoxrux. "STEAM fanlarini tadqiq etishda steam ta’lim metodikasi." http://science. nuu. uz/uzmu. php.
10. Turdiyev Sh.R. Matematika va tabiiy fanlar negizida kasbiy kompetentlik hamda kreativlikni takomillashtirish //Monografiya - “Intellekt nashriyoti” 09.11.2021y
11. Turdiyev S. R. Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – S. 1597-1601.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.3/.4

Feruzjon FOZILOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail:feruzjon86@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NEED FOR THE DEVELOPMENT OF THE MEDICAL CULTURE OF FUTURE DOCTORS

Annotation
This article highlights the issues of raising a solid foundation for the future medical culture and society, strengthening both material and spiritual attention to medical science.
Key words: Medical culture, the development of medical science, a solid foundation for the future, information technology.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация
В статье пойдет речь о развитии медицинской культуры будущих врачей. Также в докладе изложена необходимость развития медицинской культуры будущих врачей, проблемы и пути их решения.
Ключевые слова: высшее учебное заведение, студенты, будущий врач, медицинская культура, образование, медицинские проблемы, болезни, современные инновационные технологии

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING TIBBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ZARURATI

Annotatsiya
Maqolada bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari xaqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bo‘lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish zarurati, muammo va yechimlari xaqida bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: oliy ta’lim myassasasi, talabalar, bo‘lajak shifokor, tibbiy madaniyat, ta’lim, tibbiy muammolar, kasalliklar, zamonaviy innivatsion texnologiyalar.

Kirish. Bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, jamiyatdagi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish asosida shakllantirilayotgan yangi institutlar, ta’lim-tarbiya va sog‘liqni saqlash tizimlari, davlat va jamiyatni boshqaruvdagi yangilanishlar har bir fuqarodan, har bir shaxsdan ijtimoiy faollikni talab etadi. Mazkur faollik subyektning jismonan va ruhan salomatligiga bog‘liqdir. Xasta, bemor yoki vujudida nuqsoni bor shaxs har doim ham ijtimoiy hayotga, u qo‘yayotgan muammolarga faol munosabatda bo‘lavermaydi, u o‘zining imkoniyatlari cheklanganini, jismoniy yoki ruhiy zo‘riqish unga qimmatga tushushini biladi. Shuning uchun sog‘lom turmush tarzi bilan ijtimoiy faollik o‘zaro dialektik bog‘liqdir. Bugungi demokratik o‘zgarishlar va dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari shaxs ruhiyatiga, sog‘ligi va hayotga munosabatlariga ziddiyatli ta’sir etayotganini ko‘rmaslik mumkin emas. Ijtimoiy borliq hech qachon subyekt borlig‘iga ta’sir etmay, undagi tasavvurlarni u yoki bu tomonga burmay o‘zgargan emas. Ijtimoiy borliqdagi o‘zgarishlar dinamikasi inson psixikasida in’ikos topib, shaxsni yo faollashtiradi yoki unda indefferentlik kayfiyatlarini tug‘diradi. amiyat bilan shaxsni harakatga keltiruvchi, uning borliqqa munosabatlarini shakllantiruvchi ong dialektik tarzda rivojlanadigan fenomenlar sirasiga kiradi. Ijtimoiy makon, muhit ongga qanday ta’sir etsa, ong ham muhitga, ijtimoiy makonga shunday ta’sir etadi. Biroq ijtimoiy makon, muhit obyektiv borliq sifatida ta’sir etadi, ong esa subyektiv fenomen tarzda insonni obyektiv borliqni o‘zgartirishga yetaklaydi. Obyektivlik va subyektivlikning uyg‘un kelishi ijtimoiy taraqqiyotning yaxlit voqelik sifatida kelishidan, inson va jamiyat hayotining umumiy qonunlarga muvofiq rivojlanishidan darak beradi. Ularni bir-biriga qarshi, antipo qilib qo‘yish mumkin emas. Gnoseologik izlanishlar ular o‘rtasidan farq, tafovut qidiradi. Aslida bunday izlanishlar ham inson va jamiyat hayoti umumiy qonuniyatlarga muvofiq rivojlanishini mutlaq rad etmaydi. To‘g‘ri, inson ongi beorom izlanishga, yangi muammolar va ularning yechimlarini topishga moyil, uni tayyor pastulatlar, nazariyalar ko‘p ham qiziqtiravermaydi. Yangilik, betakrorlik izlash orqali o‘z “Men”ini topish va namoyon etish subyektlar xislati hisoblanadi. Inson mudom biror yangilik qilishga, ijtimoiy borliqqa yangilik olib kirishga intiladi, uning ongida kechadigan asosiy effektiv kechinmalar nimanidir yaratish va qilish bilan bog‘liq. Bu hatti-harakatlar yo xususiy manfaatlarni ifoda etadi yoki guruhiy, ijtimoiy manfaatlarga qaratiladi. Ijtimoiy faollik ikkinchi guruhga oiddir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar taxlili shuni ko‘rsatdiki, tibbiy madniyatni rivojlantirish va unga rioya qilish uzoq umr ko‘rishga sabab bo‘ladi. Ijod va ijodiy mehnat salomatlikka, uzoq umr ko‘rish va sog‘lom fikrlashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Intellektual, aqliy mehnat miyada kechadigan hissiy emotsional, effektiv kechinmalar orqali vujudga, insonning amaliy faoliyatiga, organizmdagi modda almashish jarayonlariga ta’sir etib, garmonlarning yangilanib, almashib turishini ta’minlaydi. “Iliada” va “Odisseya” poemalarining ijodkori Gomer yuz yilga yaqin yashagan, Gyote “Faust”ning ikkinchi qismini yozganida 82 yoshda edi. I.Kant 81, Navoiy 103 yil, L.Tolstoy 82, Gobbs 92, Shelling, Garvey va Sen Simon 80, Gyote va Edison 82, Strabon va Demokrit 90, I.Pavlov va Tesla 87, Pikasso 93, Platon 81 yil umr ko‘rishgan1. Bunday uzoq umr ko‘rgan allomalar Sharqda ham yetarlicha topiladi. Abu Nasr

Forobiy 77, Xisrav Dehlaviy 74, Fuzayl Ayoz 140 dan ziyod, Abuturob Naxshabiy 81, Junayd Bag‘dodiy 91 yil, Boyazid Bistomiy 103, Yusuf Hamadoniy 92, at-Termiziy 110 yildan oshiq umr ko‘rganlar**.** O‘zbek akademiklari A.Qayumov 93, R.Aminova 76, M.Abdullaxo‘jayeva 86 yil umr ko‘rganlar. To‘g‘ri, uzoq umr ko‘rish ko‘p omillarga bog‘liq, agar tibbiyot talablariga rioya etish bilan inson uzoq umr ko‘rganida Gippokrat, Galen, ibn Sino ming yillar yashagan bo‘lardi. Tibbiy talablar uzoq umr va samarali hayot kechirishning atigi bir tomoni xolos, ularning sotsial, tarbiyaviy, ovqatlanish va ruhiyat bilan bog‘liq jihatlari ham bor, ular kompleks tarzda, inson xatti-harakatlariga muvofiq kelganida ijobiy ta’sir etadi. Sog‘lom turmush tarzi kompleks, turli-tuman omillar majmuasi, insonning ratsional, foydali, salomatlikka aks ta’sir etmaydigan sharoit va muhitlar umumlashmasi sifatida keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiy madaniyat va u bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy masalalari V.T.Smirnova, S.A.Grachev,

M.A.Gundorova, V.A.Moshnov, V.V.Bushuyev, G.S.Bekker, Yu.A.Korchagin kabi xorijiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Yurtimizda ham bu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, ammo insonning sog‘ligi uning oila, jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni chuqur falsafiy tahlil qilingan ilmiy ishlar nihoyatda kam. Ushbu maqolada insonning sog‘ligi, salomatlik kapitalining mohiyati tadqiq etilgan bo‘lib, analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; pedagogik kuzatish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma); pedagogik eksperiment; monitoring; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar natijasida nalabalarning tibbiy madaniyatni oshirishda kuyidagi jihatlarga e’tibor berish zarur hisoblanadi: Tibbiy madaniyatning buzilishi bu kasallikka olib keladi. Kasallik bu– organizmni funksional yoki morfologik buzilishi natijasida organizmni normal xayot faoliyatini buzilishidir.

Kasallik 4 davrga bo‘linadi:

1. latent (yashirin) davr
2. kasallik belgilarini paydo bo‘lishi.
3. kasallikni kuchayish davri
4. kasallikni tugashi (tuzalish, retsediv, o‘tkir shakldagi xronik shaklga

o‘tishi)

O‘tkir kasalliklar har yili ro‘yixatga olinadi. Xronik (surunkali) kasalliklar bir yilda bir marotaba ro‘yxatga olinadi. Kasallikni barchaaholini alohida yosh, jins, kasbiy va ijtimoiy guruh kasalliklari deb

xarakterlanadi. Kasallik ko‘rsatgichlar xar 1000 ta, har 10 000 ta yoki har 100 000 ta aholidan chiqariladi. Kasallanishning infeksion, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo‘qotish tufayli kasallanish, kasbiy kasallanishlarga bo‘linadi.

O‘zbekistonda quyidagi kasallanishlar uchraydi:

1. nafas organlari kasaliklari
2. qon aylanish kasalliklari
3. nerv sistemasi va sezgi organlari kasalliklari
4. suyak-muskul kasalliklari
5. ovqat hazm qilish kasalliklari
6. psixik kasalliklar

Hayot tarzining tibbiy asoslari: Ijtimoiy-gigiyenik, epidemiologik, ijtimoiy klinik va boshqa ilmiy tadqiqotlarni ko‘rsatishicha shu narsa ma’lum bo‘ldiki, birinchi o‘rinda odamning sog‘ligining turmush tarziga bog‘liq. Mashhur olimlar Yu.P.Lisitsin, Yu.M.Kamarov va boshqa chet el olimlarini ma’lumotlaricha turmush tarzi aholi sog‘ligiga bog‘liq barcha omillarning 50-55 foizini tashkil etadi. Sog‘liqqa ta’sir etuvchi omillardan ekologiya 20-25 foizni, irsiyat 20 foizni, sog‘liqni saqlash 10 foizni tashkil etadi. Tibbiy madaniyat – bu gigiyenik, tibbiy bilim olish, tarbiya, ta’lim,

tibbiyotdan xabardor bo‘lish, sog‘liqqa nisbatan psixologik muolajalarni o‘tkazishdan iborat. Tibbiy faollik quyidagilardan iborat:

1. tibbiy idoraga borish, tibbiy maslahatlar va ko‘rsatmalarni bajarish
2. davolanish qoidalariga rioya qilish, profilaktik, reabilitatsiya

ishlarini bajarish

3. aholini sog‘ligini saqlash va muhofaza qilishda ishtirok etish
4. sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda zararli odatlar va ko‘nikmalarni yengish Birinchi o‘rinda shaxs bilan birga oilada gigiyenik meyo‘rlarga rioya qilish. Yuqoridagi tibbiy faollik normalarini bajarmaslik past tibbiy faollik hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, tibbiy madaniyat bu sog‘lom turmush tarzi bilan birga rivojlanadigan ko‘nikmadir. Ishda nagruzkaning ortib ketishi odamni surunkali stress holatiga olib keladigan sabablardan biridir, bu hol odamni himoya funksiyalarini susaytirib, kasallik paydo qiladi. Ishni meyo‘rida, bir tekis bajarish uchun odam ma’lum qolipga tushib olishi, qattiq ishlaganda orada dam olib turishi kerak. Mehnat jarayonini buzilishi oxiri kasallikka olib keladi. Ishchanlik qobiliyatini yuqori saqlashda, sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri tashkil etishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak.

1. Turli xil faoliyat turini belgilangan vaqtda bajarish.
2. Mehnat va dam olishni samarali almashtirish
3. Tizimli ravishda to‘liq qimmatli ovqatlanish va harakat bilan

shug‘ullanish.

4. Har kuni 2-3 soat sof havoda bo‘lish.
5. Uyqu gigiyenasiga qat’iy rioya qilish.

Bu qoidalar odamni sog‘lom bo‘lishi, hayotga qiziqishini orttiradi, uzoq yil mehnat qobiliyatini saqlashga yordam beradi. Umr bo‘yi mehnat qilgan odamgina qariganida ham bardam, quvnoq, tetik bo‘ladi. sportchilarning kunlik yurish va yugurishga targ‘ib qilish “Sog‘lom hayot” platformasini yaratish masalasi ilgari surilgan.

ADABIYOTLAR

1. Нешкова В. Феномен гения. Ростов на Дону, Феникс, 2006. -С. 8.
2. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. Тошкент: Шарқ, 2004.
3. Бекчан А. Физическое тело человека (или непрочитанные лекции о полноте человеческой природы). Ташкент: Изд. мед. Литературы им. Абу Али ибн Сино, 1997. - С. 81- 83.
4. Маслоу А.Г. Дальние пределы человеческой психики. Москва: Евразия, 1997. С. 69.
5. Маслоу А.Г. Дальние пределы человеческой психики. Москва: Евразия, 1997. С. 70.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:091

Matlyuba XADJAMURATOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

BuxDU dotsenti, PhD Axmedova Mehrinigor Bahodirovna taqrizi asosida

TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni intellektual salohiyatini oshirish borasida davlatning innovatsion siyosati natijasida huquqiy asos yaratilib, yillar davomida takomillashtirilib, imkoniyatlarni kengayishiga xizmat qilayotgani bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, qonun, davlat, huquq, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy himoya, imkon.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА МОЛОДЕЖИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ДЕЛАНИЮ

Аннотация

В данной статье констатируется, что в результате инновационной политики государства в сфере социальной защиты молодежи и повышения ее интеллектуального потенциала за прошедшие годы создана и совершенствуется правовая база, которая служит расширить возможности.

Ключевые слова: Молодежь, закон, государство, право, образование, воспитание, социальная защита, возможности.

SOCIAL PROTECTION OF YOUTH AND EDUCATION SYSTEM INNOVATIVE APPROACH TO DOING

Annotation

In this article, it is stated that as a result of the innovative policy of the state regarding the social protection of young people and the improvement of their intellectual potential, a legal framework has been created and improved over the years, which serves to expand opportunities.

Key words: Youth, law, state, right, education, upbringing, social protection, opportunity.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar[1] olib borildi.

Mustaqillik tarixida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni intellektual salohiyatini oshirish borasida davlatning innovatsion siyosati natijasida huquqiy asos yaratildi. Jumladan, ta’limga oid uch marta qonun qabul qilindi:

Tahlil va natijalar. Birinchisi 1992 yil 2 iyulda, ikkinchisi 1997 yil 29 avgustda, uchinchi qonun esa 2020 yil 23 sentyabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun” qabul qilindi. Birinchi qonun demokratik davlatning dastlabki siyosatidagi huquqiy asos sifatida ta’lim huquqini kafolatlagan bo‘lsa, 1997 yildagi qonun esa dunyoning ilg‘or ta’lim tizimiga integratsiyalashuvni boshlab berdi, kadrlar tayyorlashning milliy xususiyatlariga e’tibor kuchaytirildi, uchinchi 2020 yildagi qonunda esa yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor, kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi, eng avvalo ijtimoiy davlatga qo‘yilgan talablarni o‘zida namoyon etdi.

Yangi O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni yoshlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ko‘lami, mohiyati va qamrovining kengligi bilan dastlabki qonunlardan farqlanadi. Birinchi qonun 44-moddadan, ikkinchi qonun 34 moddadan iborat bo‘lsa, 2020 yildagi qonun 75-moddani o‘z ichiga oldi. Yangi qonunning o‘ziga xosligi, unda xalqaro shartnomalarga munosabat masalasi yoritilgan. Shuningdek, uning 2-moddasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik” deb nomlangan bo‘lib, ushbu sohaga xizmat qiluvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun osti hujjatlari inobatga olingani bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili. 2020 yilda qabul qilingan qonunning 3-moddasida ushbu sohaga oid asosiy tushunchalarga izoh berilgani bilan avvalgi qonunlardan farqlanadi, ya’ni davlat akkreditatsiyasi, davlat ta’lim muassasasi, DTS, ta’lim talablari, malaka, mutaxassislik, nodavlat ta’lim tashkiloti, tarbiya, ta’lim, ta’lim kampusi, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi jarayonlari qonuniylashtirildi.

Yangi qonunning 4-moddasida “Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar”ning 16 turi keltirilgan. bo‘lib, Birinchi qonunning 3 moddasida 13ta prinsiplar, ikkinchi qonunning 3-moddasida 10 ta prinsiplar keltirilgan.

Ushbu prinsiplarning dastlabki qonunlardagi prinsiplardan farqi shundaki, unda ta’lim shaklini tanlash erkinligi, kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi, ta’lim tizimida davlat va boshqaruvning uyg‘unligi, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ham inobatga olinganidadir. Ushbu prinsiplar bilan birga 1997 yilda qabul qilingan qonunda o‘qituvchi va murabbiylarni ijtimoiy himoya qilish kafolati prinsipi mavjud bo‘lmagan. Yangi O‘zbekiston qonunida keltirilgan prinsiplarning ko‘lami va talablarining ustun kelishi bu zamonning ildamlab borishi, ehtiyojlarning ortib borishi hamda yillar davomida to‘plangan ilg‘or tajribalarning natijasi sifatida izohlanadi.

Yangi qonunning 5-moddasi “Ta’lim olish huquqi” deb nomlangan. Unga ko‘ra Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ushbu moddada keltirilgan ta’lim olish huquqi avvalgi qonunlarda ham belgilangan, lekin innovatsion faoliyatni

qo‘llab-quvvatlash va dasturlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta’lim olish, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limni va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olish[2] kabi huquqlarning dastlabki qonunlarda mavjud emasligi, yillar davomida internetdan foydalanish imkoniyati va ehtiyojini ortib borishi, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojini qonunlarda aks etishi bilan izohlanadi.

Demak, insoniyat tomonidan yaratilgan har qanday ixtiro, yangilik va qulayliklar davlat qabul qilgan qonunlar asosidagina jamiyat hayotiga tadbiq etiladi. Buni anglagan holda, xalqaro tajribalarni o‘rganish, ijobiy yangiliklarni jamiyat hayotiga vaqtida tadbiq etish ham davlatning innovatsion siyosatining ijobiy yondoshuvidan biridir.

O‘zbekistonda shaxsni ta’lim olishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar uni kelajagini ta’minlashga, iqtidorini namoyon etishiga, ma’lum kasb egasi bo‘lishiga, o‘zini mablag‘ bilan ta’minlashiga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida uning rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shishiga bo‘lgan imkoniyatlar hisoblanadi. Shuningdek, yetarli ta’lim-tarbiya olgan shaxs o‘zining intellektual salohiyati, kasb-kori, ma’naviy dunyoqarashi, jamiyatda o‘zini tutish madaniyati, faol fuqarolik pozitsiyasi bilan davlat va jamiyat rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladi. Inson kapitaliga yetarlicha e’tibor berilsa, u nafaqat davlat, balki jahon ilm-fan rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan darajaga yetadi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya kechiktirib bo‘lmas, uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Darhaqiqat, yangi O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari ajratilgan. Shuningdek, ushbu qonunda avvalgi qonunlardan farqli ravishda Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi[2], deb aniq muddat belgilandi. Ushbu moddaga ko‘ra o‘smirlar 7-sinfni tamomlaganlaridan keyin tayanch o‘rta ta’lim negizida ularni kasb-hunarga yo‘naltirish uchun professional ta’lim ham joriy etilgan.

O‘rta ta’limda o‘quvchilar davlat dasturlari asosida kerakli bilim, malaka, ko‘nikmaga ega bo‘lib, keyingi ta’lim turini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ushbu jarayonlarda ma’lum kasblarni egallashiga ko‘niktirib boriladi. O‘n bir yillik umumiy o‘rta ta’lim majburiy bo‘lib, uzluksiz ravishda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi, sinflarda o‘quvchilarning maksimal soni 35 nafar etib belgilandi.

Respublikamizda maktab tizimi sohasida amalga oshirilgan islohotlardan biri sifatida o‘quvchilar, ota-onalar, pedagoglarning takliflari inobatga olinib, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim joriy etildi. O‘quvchilar 9-sinfni bitirib, litsey, kollej, shuningdek 11 yillik ta’limning 10-11 sinflarida o‘qishlarini davom ettirishlari mumkin.

O‘quvchilar 9 yillik tayanch o‘rta ta’limni tamomlaganlaridan so‘ng o‘rta maxsus ta’limni akademik litseylarda davom ettirishlari ham mumkin. Ushbu yo‘nalishlar, to‘lov-shartnoma bo‘yicha nodavlat ta’lim muassasalarida olib boriladi. O‘quvchilarni ta’lim olish jarayoni ularning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, chuqur, tabaqalashtirilgan holda kasb-hunarga yo‘naltiriladi.

Bu borada yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta’kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta’lim olayotgan ko‘plab o‘quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar. Bunday zukko va bilimdon farzandlarimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi[3].

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash, yosh iste’dodlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlash va nashr etishdagi muammolarni bartaraf qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, umumta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi[4] tashkil etildi.

Prezident maktablari xalq ta’limi vazirligining hududiy organlari huzuridagi Abdulla Oripov, Hamid Olimjon va Zulfiya, Muhammad Yusuf, Ibroyim Yusupov, Erkin Vohidov, Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, Halima Xudoyberdieva va Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi ... O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab hamda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati va Abu Ali Ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati[4] hisoblanadi. Ushbu maktablarning har bir sinfi uchun o‘quvchilar 20 nafar etib belgilandi. Ijodiy tanlovlar, test sinovlari kabilar asosida 7-sinflarga qabul amalga oshiriladi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim oladi[5].

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo‘nalishidagi maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta’lim bolalarga uzluksiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘quvchilar va talabalarni jismonan sog‘lomlashtirish ta’lim muassasalarining ustun vazifasi sifatida belgilandi. Har yili maktabgacha tarbiya muassasalari va o‘quv yurtlari bolalar va o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi ko‘rikdan o‘tkazilib, maktablarda jismoniy tarbiyadan imtixonlar o‘tkazib borildi.

Hududlarda sport maktablari, klublar va maktabdan tashqari boshqa muassasalar tashkil etilib, pul bilan ta’minlandi. Umumta’lim maktablarida qo‘shimcha sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish va o‘tkazish tadbirlariga ham homiylik ko‘rsatildi. Agar ta’lim muassasalarini qurish yoki ta’mirlash ishlari olib boriladigan bo‘lsa, u yerda ishlovchilar, tarbiyachilar, o‘quvchilar soniga qarab sog‘lomlashtirish va sport inshoatlari bilan ta’minlanmaguncha iste’molga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Nuqsoni bo‘lgan, davolanishga muxtoj bolalarni uyda ta’lim olishlariga sharoit yaratilgan. Shuningdek, yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar tarbiyasi uchun 19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta bolalar[6] shaharchasi faoliyati ta’minlandi. Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta’lim berishga muhtoj bolalarning ta’limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasida[6] amalga oshirildi.

Shuningdek, 14-moddada avvalgi qonun moddalaridan farqli ravishda Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at

maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi[2], - deb aniqlashtirib qo‘yilgan.

Bolalarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish imkoni yaratilgan maktabdan tashqari ta’lim muassasalari («Barkamol avlod» markazlari) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. «Barkamol avlod» markazlarida 5 540 ta to‘garak tashkil etilgan va ularga 143 ming nafarga yaqin bolalar qamrab olingan. Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim tizimida boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi joriy etilgan bo‘lib, 51 turdagi ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar kollejlari hamda umumta’lim maktablarida 1 748 ta o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan. Xalq ta’limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat[6] faoliyati ta’minlandi.

Chunonchi, yangi qonunning 15-22-moddalarida ta’lim olish shakllari va ular qaerlarda, nima maqsadda tashkil etilishi haqidagi ma’lumotlar berilgani bilan avvalgi qonunlardan farqlanadi.

Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste’dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o‘qitish tizimini tashkil qilish, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko‘p tarmoqli ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Qonunning 38-moddasiga ko‘ra ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilishda ham katta ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda ishtirokchilarga teng imkoniyatlarning ta’minlanishi prinsipiga asoslanadi. Lekin, ayrim toifadagilarga qonunlarga asoslanib imtiyozlar beriladi. Masalan, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar o‘qishga o‘z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi. Ayrim ta’lim tashkilotlariga (oliy ta’lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o‘qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi. Davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to‘lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi[2].

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni barcha ta’lim turlaridan foydalanish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari asosida kafolatlanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarga ta’lim berish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish turli shakllarda, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda, eksternat shaklida, shuningdek masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda, umumiy tipdagi ta’lim muassasalarida va tashkilotlarida, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, uyda, maxsus guruhlarda, sinflarda va yakka tartibdagi o‘quv rejalari bo‘yicha o‘qitish yo‘li bilan amalga oshiriladi[7].

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta’limi bolalar, o‘smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlarida, “Barkamol avlod” bolalar maktabida, bolalar-o‘smirlar sport maktablarida, bolalar musiqa va san’at maktablarida, studiyalarda, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalarida amalga oshiriladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun oliy ta’lim muassasalarida davlat granti asosida abiturientlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizi miqdorida qo‘shimcha qabul kvotasi ajratiladi[7].

Xulosalar.

1. Umumiy o‘rta ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanib, uni

Ta’lim tizimini takomillashtirishning institutsional tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

2. Nogironligi bo‘lgan bolalarni sog‘lom bolalar singari ta’limning barcha turlaridan foydalanish huquqini ta’minlashning huquqiy-tashkiliy choralari ko‘rildi.

4. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta’lim tizimini rivojlantirish konstitutsiyaviy asoslangani, qonunchilikda mustahkamlangani bu sohada bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirilishiga yo‘l ochib berdi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. /O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 11-son, 156-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son; 16.10.2017 y., 06/17/5204/0114-son, 05.07.2019 y., 06/19/5759/3385-son, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022 y., 07/22/241/0408-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020 yil 24 sentyabr. 637-son. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
3. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. –B. 253.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09 sentyabr 2019 yil. PF-5815-son. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.09.2019 y., 06/19/5815/3717-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020 yil 24 sentyabr. 637-son. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021 y., 06/21/6268/0700-son; 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun. 2021 yil 16 yanvar. O‘RQ-641-son. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020 y., 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022 y., 03/22/775/0477-son.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Boxodirjon XAYDAROV,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: xaydarov@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

FORMATION OF SKILLS FOR INDEPENDENT PERFORMANCE OF GENERAL DEVELOPMENTAL EXERCISES IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

In this article, the importance of developing the ability of primary school students to independently perform complex exercises is very high. Also, the process of education and training is aimed at ensuring the comprehensive development of the younger generation based on the experience gained.

Key words: General developmental exercises, physical education system, gymnastics, special training.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING UMUMRIVOJLANTIRUVCHI MASHQLARNI MUSTAQIL BAJARA OLISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati juda yuqori. Shuningdek ta’lim va tarbiya berish jarayoni orttirilgan tajribalarga asoslanib, yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Umumrivojlantiruvchi mashqlar, jismoniy tarbiya tizimi, gimnastika, maxsus tayyorgarlik.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ВЫПОЛНЕНИЯ ОБЩЕРАЗВИВАЮЩИХ УПРАЖНЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье очень высока важность формирования умения учащихся начальных классов самостоятельно выполнять комплексные упражнения. Также процесс воспитания и обучения направлен на обеспечение всестороннего развития молодого поколения на основе приобретенного опыта.

Ключевые слова: Общеразвивающие упражнения, система физического воспитания, гимнастика, специальная подготовка.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati juda yuqori. Ta’lim va tarbiya berish jarayoni orttirilgan tajribalarga asoslanib, yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekistonda maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy va jismoniy sog‘lom rivojlanishida jismoniy madaniyat va sportning muhim o‘rni bor. O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularning sog‘lig‘ini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarliklarini yaxshilash, kasalliklarni oldini olishga qaratilgan. Harakatlanish o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun biologik ehtiyoj hisoblanadi va ularning funksional imkoniyatlari hamda ish bajarish qobiliyatini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish ularning jismoniy va kognitiv rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu mashqlar muvofiqlashtirish, muvozanat, kuch va umumiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi. Bu mahoratni rivojlantirishni qanday osonlashtirish bo‘yicha bosqichma-bosqich ko‘rsatma:

Yoshga mos mashqlarni tushunish: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli jismoniy qobiliyatlari va cheklovlari borligini tan oling. Oddiy cho‘zilishlar, asosiy yoga pozalari va asosiy harakatlar kabi yosh guruhlariga mos keladigan mashqlarni tanlang.

Birinchi navbatda xavfsizlik: Jismoniy mashqlar muhiti xavfsiz bo‘lishini ta’minlang. Har qanday to‘siqlarni bartaraf qiling, tegishli nazoratni ta’minlang va agar kerak bo‘lsa, tagliklar yoki rekvizitlar kabi tegishli jihozlardan foydalaning.

To‘g‘ri texnikani ko‘rsating: Har bir mashqni to‘g‘ri ko‘rsatishdan boshlang va uning maqsadini tushuntiring. Aniq va sodda tildan foydalaning va o‘quvchilarni e’tiborga jalb qiling.

Harakatlarni ajratib oling: Har bir mashqni kichikroq, boshqariladigan bosqichlarga bo‘ling. Bu o‘quvchilarga harakatlarni asta-sekin tushunishga yordam beradi. Misol uchun, agar oldinga egilishni o‘rgatsangiz, beldan egilishdan boshlang, so‘ngra oyoq barmoqlariga etib boring.

Takrorlash va amaliyot: Talabalarni muntazam ravishda mashq qilishga undash. Takrorlash ko‘nikmalarni egallashning kalitidir. Har kuni yoki haftada bir necha marta qisqa mashqlarni o‘z ichiga olgan jadval tuzing.

Progressiv qiyinchilik: Talabalar ko‘proq malakaga ega bo‘lgach, mashqlarning murakkabligini asta-sekin oshiring. Ularning qiziqishini saqlab qolish va ularga mos ravishda qarshi turish uchun yangi harakatlar yoki variatsiyalarni kiriting.

Fikr-mulohazalarni taqdim eting: konstruktiv fikr-mulohaza va tuzatishlarni taklif qiling. Ularning sa’y-harakatlari va yaxshilanishlarini maqtang. Tushkunlikka tushmaslik uchun har qanday noto‘g‘ri texnikani ehtiyotkorlik bilan tuzating.

Ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalaning: plakatlar, diagrammalar yoki videolar kabi ko‘rgazmali qo‘llanmalar to‘g‘ri texnikani mustahkamlashga yordam beradi va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

O‘yinlarni qo‘shing: mashqlarni qiziqarli va interaktiv qilish uchun ularni o‘yin yoki qiyinchiliklarga aylantiring. Misol uchun, talabalar imkon qadar uzoq vaqt davomida bir oyoqda turishlari kerak bo‘lgan muvozanat o‘yinini yarating.

Mustaqillikni rag‘batlantirish: asta-sekin o‘quvchilarni mustaqil ravishda mashqlar bajarishga undash. Ular mustaqil ravishda bajarishlari mumkin bo‘lgan oddiy tartiblardan boshlang va asta-sekin murakkabroq ketma-ketlikni kiriting.

Guruh faoliyati: jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirish uchun guruh mashqlarini qo‘shing. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda foydali bo‘lishi mumkin, chunki u jismoniy rivojlanish bilan birga ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Maqsadlarni qo‘ying: Talabalarga erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni qo‘yishga yordam bering. Masalan, ular ma’lum bir yoga pozasini uzoqroq ushlab turishni yoki vaqt o‘tishi bilan muvozanatni yaxshilashni maqsad qilishlari mumkin.

Ijobiy muhit yarating: qo‘llab-quvvatlovchi va dalda beruvchi muhitni yarating. Talabalarni amaliyotni davom ettirishga undash uchun kichik yutuqlarni nishonlang va muvaffaqiyat hissini yarating.

Muntazam baholash: Vaqti-vaqti bilan o‘quvchilarning yutuqlarini baholang va shunga mos ravishda mashqlar va tartiblarni o‘zgartiring. Moslashuvchan bo‘ling va ularning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashing.

Ota-onalarning ishtiroki: Ota-onalarni bolalarning uyda mashq qilish tartibini qo‘llab-quvvatlashga undash. Ularning jismoniy rivojlanishida izchillikni ta’minlash uchun ota-onalar bilan ma’lumot va ko‘rsatmalar almashing.

Ushbu bosqichlarni bajarish va tizimli va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta’minlash orqali siz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga umumiy rivojlanish mashqlarini mustaqil ravishda bajarish ko‘nikmalarini va ishonchini rivojlantirishga yordam bera olasiz, sog‘lom va faol turmush tarzi uchun poydevor qo‘yishingiz mumkin.

O‘zbekistonda jismoniy madaniyatning barcha vositalaridan ijodiy foydalanish orqali yaratilgan psixologik-pedagogik asarlarni tahlil qilish orqali, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish qobiliyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslarini aniqlash zarur. Bu yo‘nalishda yaratilgan tadqiqotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish va o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

UMR (Umumrivojlantiruvchi Mashqlar) tizimi asosan Yevropa gimnastika tizimlaridan, xususan Germaniya va Shvetsiya gimnastika tizimlaridan olingan. Tana tarbiyasi komil inson shaxsini tarbiyalashning bir qismi sifatida qaraladi va u milliy jismoniy madaniyatning qadimiy shakli hisoblanadi.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarida T.S. Usmonxo‘jayev jismoniy tarbiya darslarida milliy o‘yinlardan foydalanishni ko‘rib chiqib, mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratgan.

Milliy o‘yinlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga umumrivojlantiruvchi mashqlarni o‘rgatish ularni mustaqil mashq qilishga undash manbai hisoblanadi. Milliy o‘yinlarning har bir jihati nafaqat milliy madaniy qadriyat e’tirof etilgan, balki mehnatkash xalqning mashaqqatlarni yengib o‘tishga moslashgan ajdodlar tarbiyasi saqlanib qolgan. O‘zbekistonda har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ongiga singib ketgan jismoniy tarbiya tizimiga moslashtirilgan ommalashgan milliy o‘yinlarning tafsilotlarini aniqlash, bajara olish usullarini tavsiflash ularni o‘quvchilarga o‘rgatish – o‘zbek madaniyati va jismoniy madaniyatining osori-atiqalarini asrab-avaylash zarur.

XXI asr – axborot fan va texnika yuksak taraqqiy etgan davrda, bolalar kompyuter o‘yinlariga qiziqishadi. Biroq, bu ularning sog‘liqlariga zararli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, bolalar kompyuter texnologiyalaridan to‘liq foydalanish bilan birga, o‘yinlarni ham unutmasliklari kerak. Chunki bu o‘yinlar ularni faol, tadbirkor, sog‘lom va ijodkor bo‘lishga, turli holatlardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Farzandlarimiz yugurish, quvish, sakrash va ko‘proq harakatda bo‘lishlari zarur. Shunda ular sog‘lom ma’nan yetuk, qaddi-basti chiroyli, o‘zlari kelishimli va kirishimli inson bo‘lib ulg‘ayadilar.

Boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish va ularni mustaqil bajarish metodikasini ishlab chiqish muhimdir. S.A. Bikbulatova va I.V.Ledenev tomonidan ushbu metodika haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Uslubiy taklifda umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda buyumlardan, xususan gantellardan sakrashlardan foydalanish usuli tasvirlangan. Shu bilan birga, uslubiy vositada umumrivojlantiruvchi mashqlar komplekslari tavsiya etilgan.

So‘nggi paytlarda jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda umumrivojlantiruvchi mashqlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi jadal rivojlanmoqda. Bu muammo ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganiladi va kundalik hayotda qo‘llaniladi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar orqali o‘quvchilarning mustaqil bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil o‘yinlarga katta o‘rin beriladi. O‘yinning asosiy maqsadi o‘yin elementlaridan foydalanish bo‘lib, o‘quvchilar darsda va darsdan tashqarida mustaqil o‘ynaganda o‘yin ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

O‘quvchilar ushbu harakatning nomini va tegishli rasmni eslab qolishlari va uni harakat orqali ko‘rsatishlari zarur. URM metodologiyasida atama yozish, qisqartmalar yozish, yodlash usullari katta rol o‘ynaydi.

Bu metodning xususiyatlarini uslubiy jihatdan aniqlash umumrivojlantiruvchi mashqlar orqali o‘quvchi-larning mustaqil bajarish ko‘nikmalarini shakllan-tirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala tadqiqotchilari o‘quvchilarda URM mustaqil bajara olish malakalarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagi ketma-ketlikni taklif qiladilar.

Shunday qilib, talaba URMni mustaqil ravishda bajarishni o‘rganishi kerak bo‘lgan harakatlarni ko‘rsatamiz. URMni to‘p bilan alohida mashqlar shaklida bajarish jarayoni amalga oshiriladi. Amalga oshirishdan oldin boshlang‘ich holatning tabiatini to‘p bilan qo‘l va tana bilan bajariladigan asosiy mashqlar o‘rgatiladi. Shundan keyingina murakkab mashq bajarishga o‘tiladi.

Umumiy holda, O‘zbekistondagi boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirish, jismoniy madaniyatni rivojlantirish va milliy jismoniy tarbiya mashqlarini asrab-avaylash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishlarini ta’minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Тойлыбаев Б.А. Предоставление физкультуры учащимся начальных классов.
2. Использование элементов народной педагогики: пед. девочка сахар ...автореф. –Алматы, 1995. - 23 с.
3. Бикбулатова С.А., Сухостав О.А., Зябрева Т.И. Общее развитие упражнения: методические указания. - Омск: Изд-во СибАДИ, 2003. - 14 с.
4. Леденева В.В., Орехов А.И., Самофалова М.А., Литвиненко С.И. Развитие спорта для всех (опыт реализации программы «Здоровье нации» в г.Ростов-на-Дону в 1994-2004 гг.) // ТПФК. - 2004. - №10. - С.

5. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1085-1089.
6. Boxodirjon, X. (2022). Odam tana tuzilishini taxlil qilish. Ijodkor O‘qituvchi, 2(20), 108-114.
7. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. (2022). Жисмоний сифатларни ривожлантириш ва уни гимнастик машқлар техникасига таъсири. Ijodkor O‘qituvchi, 2(20), 104-107.
8. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. Жисмоний сифатларни ривожлантириш ва уни гимнастик машқлар техникасига таъсири. materiallari to ‗plami, 112

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:681.54:371.2

Laylo XALILOVA,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: l.khalilova_89@mail.ru

TKTIYF dots. p.f.f.d. (PhD) B.B. Abdullayev taqrizi asosida

EDUCATIONAL CHARACTERISTICS OF IMPROVING THE CONTINUITY OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.

Annotation

This article describes the educational features of improving the continuity of teaching foreign languages with the help of digital technologies in higher educational institutions. The article expresses opinions about digital technologies and their features, as well as the importance of improving the continuity of teaching foreign languages. The current role of improving the continuity of teaching foreign languages, the impact of development prospects on the educational process based on the pedagogical approach is studied.

Keywords. features, communicative, intercultural, foreign language, competence, digital technology, online platform, electronic dictionary.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ НЕПРЕРЫВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Аннотация

В данной статье описаны образовательные особенности повышения непрерывности обучения иностранным языкам с помощью цифровых технологий в высших учебных заведениях. В статье высказываются мнения о цифровых технологиях и их особенностях, а также о важности повышения непрерывности обучения иностранным языкам. Изучена современная роль повышения непрерывности обучения иностранным языкам, влияние перспектив развития на образовательный процесс на основе педагогического подхода.

Ключевые слова. особенности, коммуникативный, межкультурный, иностранный язык, компетентность, цифровые технологии, онлайн-платформа, электронный словарь.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISH UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING TA’LIMIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar vositasida xorijiy tillarni o‘qitish uzviyligini takomillashtirishning ta’limiy xususiyatlari yoritilgan. Maqolada raqamli texnologiyalar va ularning xususiyatlari hamda xorijiy tillarni o‘qitish uzviyligini takomillashtirishning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Xorijiy tillarni o‘qitish uzviyligini takomillashtirishning bugungi kundagi o‘rni, rivojlanish istiqbollarining pedagogik yondashuv asosida ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. xususiyatlar, kommunikativlik, madaniyatlararo, xorijiy til, kompetensiya, raqamli texnologiya, onlayn platforma, elektron lug‘at.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning turli jabhalarida, jumladan, ta’limda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Xorijiy tillarni talabalarga o‘rgatishda raqamli texnologiyalar ham o‘qituvchilar, ham talabalar uchun ta’lim tajribasini oshirish uchun yangi yo‘llarni ochib bermoqda. Raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lgan keng ko‘lamli vositalar va resurslarni o‘z ichiga oladi. Bularga kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, onlayn platformalar va multimediya resurslari kiradi. Ushbu texnologiyalarni xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga integratsiyalashgan holda, o‘qituvchilar turli xil o‘rganish uslublariga mos keladigan interfaol va qiziqarli darslarni tashkil qilishlari mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni mustaqil o‘rganish imkonini beradi, bu esa talabalarga xorijiy tillarni yuqori saviyada o‘rganish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz ta’lim tizimining asosiy vazifasi, qaysi bosqichligidan qat’iy nazar, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan mutaxassislar mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi lozim va bu faqatgina ta’lim tizimi oldida turgan maqsad-vazifalar va iqtisodiyot tarmoqlarining talabi o‘rtasida muvozanat mavjud bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin. Mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro diplomatik munosabatlar, ilm-fandagi hamkorlik, madaniy-ma’rifiy aloqalar va savdo-sotiq ishlarining kengayib borayotganligi mutaxassislar uchun xorijiy tillarni bilish kasbiy rivojlanish omili sifatidagi tushunchaning kengayishiga olib kelmoqda. Xorijiy tillarni o‘qitish sohasida “bog‘cha-maktab-oliy ta’lim tashkiloti-korxona” tamoyilidagi uzluksiz ta’lim zanjirini tashkil etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish vazifasi ijrosini ta’minlashda ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishda zamonaviy pedagogikaning *shaxsga yo‘naltirilganlik*, xorijiy tillarni o‘qitishning *kommunikativ yo‘naltirilganligi* kabi muhim tendensiyalari asosida tashkil qilinib, ta’limning quyi bosqichlaridan toki ishlab chiqarish jarayonigacha xorijiy tillarni raqamli texnologiyalari vositasida o‘qitishni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish bosqichlari asosida olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2829-son Qarori [1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 - avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son Qarori [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori [3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbbirlari to‘g‘risida”gi 312-son Qarori [4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni [5]da ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu izlanishlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish muammolari J.J.Jalolov, L.T.Ahmedova, M.D.Djusupov, G.X.Bakiyeva, X.D.Paluanovalar tomonidan amaliy yechimlar bilan tadqiq etilgan bo‘lsa, nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari H.F.Maqsudova, D.M.Isroilova, Sh.T.Bo‘tayev, A.A.Isoqov, N.D.Shirinovalarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli texnologiya-larning xorijiy tillarni o‘qtishdagi asosiy afzalliklaridan biri onlayn manbaalar va multimedia materiallari orqali talabalar turli xil matnlar, videolar va audioyozuvlarga murojaat qilishlari mumkin, bu esa ulardan kasbiy faoliyatda keng foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar mazmunli muloqot va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratadi [6]. Onlayn platformalar va aloqa vositalaridan foydalangan holda, talabalar dunyo bo‘ylab boshqa tilda so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilishlari mumkin bo‘ladi. Bu nafaqat nutq va yozish ko‘nikmalarini mashq qilish uchun platformani taqdim etadi, balki madaniyatlararo va kommunikativ aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar mazmunli onlayn forumlarda ishtirok etishlari, fikr almashishlari va fikr-mulohazalar olishlari mumkin, bu ularning til savodxonligini oshiradi.

Xorijiy tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalar tobora keng tarqalgan va talabalarning malakasini oshirishda samarali bo‘lib bormoqda. Ushbu texnologiyalar o‘qituvchilar va talabalar uchun til o‘rganish materiallari bilan shug‘ullanish va innovatsion usullarda til ko‘nikmalarini mashq qilish uchun yangi va qiziqarli imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalar tilni chuqurroq tushunishlari, muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirishlari va xorijiy til resurslaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin [7]. Chet tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy afzalliklaridan biri talabalarga interfaol va immersiv o‘rganish tajribasini taqdim etish imkoniyatidir. Masalan, xorijiy tillarni o‘rganishga mo‘ljallangan ilovalar va onlayn platformalar o‘quvchilarga grammatikani, lug‘at va talaffuzni qiziqarli va samarali tarzda mashq qilish imkonini beruvchi interaktiv mashqlar va o‘yinlarni taklif etadi. Ushbu interfaol tadbirlar nafaqat o‘quvchilarni o‘z o‘rganishlarida faol ishtirok etishga undaydi, balki zudlik bilan fikr-mulohazalarni bildiradi, bu ularga xatolarini aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar talabalarga til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan xorijiy tillarda berilgan resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi [8]. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatish va o‘rganish usulini inqilob qildi. Interaktiv va immersiv faoliyatni o‘z ichiga olgan holda, shuningdek, xorijiy til resurslariga kirishni ta’minlagan holda, ushbu texnologiyalar talabalarga o‘zlarining til qobiliyatlarini yanada qiziqarli va samarali tarzda oshirishga imkon beradi [9]. O‘qituvchilar til o‘rgatishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini qo‘llashda va o‘rganishda davom etar ekan, talabalar ularni globallashgan dunyoga tayyorlaydigan yanada dinamik va boyituvchi o‘rganish tajribasini kutishlari mumkin.

Tahlil va natijalar. Raqamli texnologiyalar asrida xorijiy tillarni talabalarga o‘rgatishda texnologiyalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Xorijiy tilllarni o‘rgatishda raqamli texnologiyalarning asosiy jihatlaridan biri bu onlayn resurslarning mavjudligidir. Ushbu manbaalar til o‘rganuvchilarga ularning til ko‘nikmalarini oshirish uchun boy materiallar va vositalarni taqdim etadi [10]. Til o‘rgatish uchun onlayn resurslar interaktiv mashqlar, videolar va onlayn lug‘atlar kabi keng ko‘lamli materiallarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, onlayn resurslar til o‘rganuvchilarga o‘zlarining til ko‘nikmalarini yanada interaktiv va qiziqarli tarzda mashq qilish imkoniyatini beradi. Misol uchun, interfaol mashqlar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini sinab ko‘rish va darhol fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi, bu esa faol o‘rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn resurslar ko‘pincha video va audio yozuvlar kabi multimedia elementlarini taqdim etadi, bu esa o‘quvchilarga tinglash va gapirish qobiliyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar vositasida ushbu imkoniyatlarda istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish mumkin. Xorijiy tilllarni o‘rgatish uchun onlayn resurslar turli xil o‘rganish uslublari va darajalariga mos keladigan turli xil materiallarni taklif qiladi [11]. Talabalar o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlari va afzalliklariga mos keladigan materiallarni tanlashlari mumkin, bu esa mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi. Raqamli texnologiyalar til o‘rganuvchilarga qo‘shimcha o‘quv materiallari va madaniy kontentdan foydalanish imkoniyatini beradi. Bunga bir necha misollarni keltirish mumkin:

1. So‘z boyligini yaxshilashni istagan til o‘rganuvchi onlayn lug‘at kabi onlayn resursga kirishi mumkin. Ular so‘zni tushunish va eslab qolish uchun aniq so‘zlarni qidirishlari va ta’riflar, foydalanish misollari va hatto audio talaffuzlarini topishlari mumkin.

2. Vizual o‘rganishni afzal ko‘rgan til o‘rganuvchi video darslik kabi onlayn resursdan foydalanishi mumkin. Ular grammatika qoidalarini tushuntiruvchi, to‘g‘ri talaffuzni ko‘rsatadigan yoki til o‘rganish strategiyalari bo‘yicha maslahatlar beradigan videolarni tomosha qilishlari mumkin.

3. Nutq qobiliyatlarini mashq qilmoqchi bo‘lgan til o‘rganuvchi til o‘rgatuvchi veb-saytlari yoki til o‘rganish ilovalari kabi onlayn resurslardan foydalanishi mumkin. Ular maqsadli tilda so‘zlashuvchilar bilan video chat yoki ovozli xabarlar orqali muloqot qilishlari va ularning talaffuzi va tilidan foydalanish bo‘yicha fikr-mulohazalarini olishlari mumkin.

4. An’anaviy til o‘rganish materiallaridan foydalanish imkoniyati cheklangan til o‘rganuvchilar o‘z-o‘zini o‘qitish uchun onlayn resurslarga tayanishi mumkin. Ular til o‘rganish veb-saytlari yoki ilovalarga kirishlari mumkin, ular turli til ko‘nikmalarini o‘z tezligi va qulayligida mashq qilish uchun keng qamrovli darslar, interfaol mashqlar va viktorinalar o‘tkazadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash tillarni o‘rganish va o‘qitishda tub burilish qildi. Texnologiya-ning rivojlanishi bilan til o‘rganuvchilar endi til o‘rganish tajribasini oshiruvchi ko‘plab manbaalar va vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Onlayn platformalar va mobil ilovalar interaktiv va immersiv til o‘rganish tajribasini taqdim etib, talabalarga real va dinamik muhitda til ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiya-

lashuvi tilni o‘rgatishni yanada qiziqarli va interaktiv qildi, multimedia resurslari va virtual simulyatsiyalar til tushunchalarini mustahkamlash hamda o‘quvchilarning tushunish va eslab qolish qobiliyatini yaxshilash uchun foydalanildi. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham til o‘rganishni yanada qulay va inklyuziv qildi. Onlayn til o‘rganish platformalari va ilovalari o‘quvchilarga o‘z tezligida va dunyoning istalgan nuqtasidan o‘qish uchun moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning lingafon sinfxonalariga integratsiyalashuvi individual o‘quvchilarning o‘ziga xos o‘rganish ehtiyojlari va afzalliklarini qondirish uchun shaxsiylashtirilgan va tabaqalashtirilgan o‘qitish imkonini beradi. Bu har bir talaba o‘z til o‘rganish davomida muvaffaqiyat qozonishi mumkin bo‘lgan yanada inklyuziv va qulay o‘quv muhitini ta’minlaydi.

Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash ham hamkorlik va madaniyatlararo kommunikativ aloqalarni yo‘lga qoyish imkoniyatini ochib berdi. Videokonferensaloqa va onlayn muloqot vositalarining paydo bo‘lishi bilan til o‘rganuvchilar endi geografik to‘siqlardan qat’iy nazar, o‘rganayotgan tilning ona tilida so‘zlashuvchilari bilan bog‘lanib, muloqot qilishlari mumkin. Raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, hamkorlikdagi loyihalar va global aloqalarni amalga oshirish imkonini beradi, dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar til o‘rganish vazifalarida birgalikda ishlashlari hamda o‘z nuqtai nazarlari va tajribalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkin. Bu nafaqat tilni bilish darajasini oshiradi, balki kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2829-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11—avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbbirlari to‘g‘risida”gi 312-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni
6. H. Bowles, P. Seedhouse, Interactional Competence and the LSP Classroom, Conversation Analysis and Language for Specific Purposes: Linguistic Insights: Studies 19 in Language and Communication vol. 63, Berlin: Peter Lang, 2007, pp. 305-329
7. M. Canale, M. Swain, Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing, Applied Linguistics, 1 (1980) 1–47.
8. M. Canale, M. Swain, A theoretical framework for communicative competence, In The construct validation of test of communicative competence, eds A. Palmer, P. Groot and G. Trosper, Washington, DC: TESOL, 1981, 31–36
9. M. Canale, From communicative competence to communicative language pedagogy, In Language and communication, eds. J. C. Richards and R. W. Schmidt, London: Longman, 1983, 2–27
10. M. Canale, A communicative approach to language proficiency assessment in a minority setting, In Communicative competence approaches to language proficiency assessment: Research and application, ed. C. Rivera, Clevedon: Multilingual Matters, 1984, 107–122
11. J. Cummins, Technology, literacy, and young second language learners: Designing educational futures, In L. L. Parker (Ed.), Technology-mediated learning environments for young English learners: Connections in and out of school, New York: Routledge, 2008, pp. 61–98

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 371:378.65(575.1)

Gulsanam XASANOVA,
O‘z JOKU kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha PhD, dotsent
E-mail:gulsanam.khasanova@jmcu.uz

TDShU Professori, f.f.d. DSc S.Hashimova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL MODEL OF THE DEVELOPMENT OF ORGANIZATIONAL-MANAGEMENT COMPETENCIES OF MASTER'S STUDENTS

Annotation

The article discusses a model that enables the development of organizational-management competencies of master's students. The process of formation of organizational-management competencies in the developed model is of a structural and functional type, and in accordance with the requirements of the integrity of the educational process, motivational-targeted, theoretical-methodological, content-technological, evaluation-resulting interdependent blocks are described.

Keywords: competence, organizational-management competencies, systematic approach, competency-based approach, contextual approach, components.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ МАГИСТРАНТОВ

Аннотация

В статье рассматривается модель, позволяющая развивать организационно-управленческие компетенции магистрантов. Процесс формирования организационно-управленческих компетенций в разработанной модели носит структурно-функциональный тип и в соответствии с требованиями целостности образовательного процесса описаны мотивационно-целевой, теоретико-методологический, контентно-технологический, оценочно-результативный взаимозависимые блоки.

Ключевые слова: компетенция, организационно-управленческие компетенции, системный подход, компетентностный подход, контекстный подход, компоненты.

MAGISTRATURA TALABALARING TASHKILIY-BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Annotatsiya

Maqolada magistratura talabalarining tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beruvchi model muhokama qilinadi. Ishlab chiqilgan modeldagi tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni tarkibiy va funksional turga kiradi va o‘quv jarayonining yaxlitligi talablariga muvofiq motivatsion-maqsadli, nazariy-uslubiy, mazmun-texnologik, baholovchi-samarali o‘zaro bog‘liq bloklari tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalar, tizimli yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kontekstli yondashuv, komponentlar.

- **Introduction.** The changing demands of the population, changes in the economy, as a result of the urgency of attention to the formation of specialist competence, require a revision of the requirements for the training of master's students. Organizational-management activities are one of the types of professional activities for which graduates of the master's degree program are being prepared. In order to effectively perform this type of activity, graduates must have organizational and management competencies.

In pedagogy, there are many works that develop models of formation and development of organizational-management competence [1, 2]. The formation of the organizational-management competence of the master's student at the university is a purposeful process, during which he is not only an object of influence, but also works as a subject of activity and communication in active interaction with cultural and educational institutions, assimilation of socially developed socio-historical experience reflected in the historical and cultural heritage.

Organizational-management competencies refer to professional competencies that constitute the technical tasks of a specialist in the operation and development of educational systems. A model was developed to create a holistic educational system that contributes to the formation of organizational and management competencies.

- **Literature review.** The researches of I.A.Zimnyaya, V.I.Baydenko, Yu.G.Tatur and others show that as a result of higher professional education, a specialist should have a certain competence. The state educational standard of higher professional education reflects the list of competencies that a graduate should have as a result of preparation for professional activity.

The research conducted by E.M. Zarubina presents a model of formation of management professional competence of students of technical specialties. This model includes objective, theoretical-methodical, organizational-methodical and effective components at the level.

V.S. Sherin develops a model of formation of management skills of a specialist in the field of physical education and sports in his dissertation research. According to the author, it is formed from the components of management activities of a physical education and sports specialist: organizational, design, constructive, communicative, mobilization [3].

M.G. Kolodeznikova, D.N. Platonov, V.I. Egorov, the process of development of the manager's management skills was presented in the form of a structural-functional model in the field of physical education and sports.

- **Research Methodology.** The research methodology included a set of different methods aimed at achieving the set

goal: theoretical methods: theoretical and methodological analysis made it possible to formulate the initial positions of the study; conceptual and terminological analysis was used to characterize and streamline the conceptual field of the problem; a systematic approach served as the basis for a holistic consideration of the problem of the formation of organizational and managerial skills of student youth by means of information and educational technologies for socio-cultural activities.

- **Analysis and results.** Organizational-management competencies refer to professional competencies that constitute the technical tasks of a specialist in the operation and development of educational systems. A model was developed to create a holistic educational system that contributes to the formation of organizational and management competencies.

The process of formation of organizational-management competencies in the model developed by us is of a structural and functional type and represents interrelated blocks in accordance with the requirements of the integrity of the educational process: motivational-purpose, meaningful-technological, evaluation-result (see Picture1). We reveal the content of each block of the model of formation of organizational and management competencies of master's students:

The motivational-targeted block includes the result that can be achieved within the framework of the temporary result and the goal and task of the model. Education for the formation of organizational-management competencies of master's students, their implementation is carried out through a set of scientific approaches and principles.

In the theoretical-methodological block, it is appropriate to distinguish the following approaches in creating a model for the formation of organizational-management competencies of master's students:

Systematic approach and direction of the methodology of scientific knowledge based on the consideration of objects as a system. The approach provides an opportunity to effectively implement more specific approaches with a clear statement of the problem in the preparation of master's students within the framework of the implementation of the main general education program [6]. A systematic approach helps to take an active approach to the acquisition of knowledge, skills and competencies in the field of education by studying the main components of activity, studying and describing the features of the process of formation of organizational and management competencies.



Picture 1. Development of organizational-management competencies of master's students

Competency-based approach - allows to determine the content, structure and expected result of the formed organizational-management competence. The formation of organizational-management competencies, in our opinion, is an educational process aimed at improving the individual and has the nature of activity, which indicates the need to use this approach. Competence-based experience has its own characteristics: in mastering competence-based experience, there is always a comparison of the achieved result of the student's practical or cognitive or any other activity, that is, with the desired result predicted or predicted by him. Forecasting is the anticipation of a possible outcome or possible course of action, and even a visual representation of its image. The capacity development indicator is the zero difference between the planned and actual results of the activity. The exact type of activity performed is not important here, only the difference between the desired goal and the goal actually achieved is important. The scope of experience based on competence and its duration, if the student does not know about the increase and progressive change of his knowledge or

methods of activity (skills and abilities), does not guarantee the formation of the necessary level of management skills before the experience. These changes can speed up or slow down the rebuilding. In their absence, qualification experience is not obtained. If the student does not gain anything from his experimental activity, even if it is repeated many times, he does not enrich his previous experience. Analytical and comparative activities help the student to distinguish and study specific areas of reality in which he is competent. What makes a student perfect is not repeated performance of any activity (for example, a large number of completed exercises, subject problems, etc.), but a comparative analysis, comparing the planned course of its implementation with the real one, and obtaining appropriate reflective conclusions.

The structure and mechanism of acquiring competence experience is different from the structure and mechanism of experience in the student's knowledge activity.

It has a multi-directional basis, in which knowledge performs different functions. If in the cognitive process theoretical knowledge acts as an object of assimilation, and then as a product of cognitive activity, then in the experience of competence they perform new functions related to the design of activities:

creating an image of the final product;

to highlight data to be converted and analyzed.

The activity parameter also gets new functions in the design activity:

activity tools are designed;

the technology of solving the situational problem is defined - operational stages.

The design and determination of possible courses of action, as a rule, have a probabilistic nature, because they are not completely accurate, they are based on heuristic methods and methods characterized by significant uncertainty, distinguished by vague instructions (algorithms) to achieve a certain result. Heuristic methods and techniques allow designing the result of an activity using the system of mental actions: evaluating previously used rules and methods; observing how others do it; looking for new ways to solve the situation. The heuristic nature of experimental activity is determined not by its content, but by the level of novelty of this content for the person performing this activity [5].

Competency-based experience helps the student's social and personal adaptation to the surrounding reality. Therefore, the organization of this experience is related to intensive methods of influencing the student's semantic field, his creative features, creative self-expression and motives. Competence experience is a new characteristic of the quality of education received by the student. This characteristic is multidimensional, holistic, and does not fully correspond to students' ability to apply existing knowledge and skills in practice, but includes this ability.

In order to ensure the professional competence of the future specialist, the contextual approach allows to strengthen the process of vocational training of students by bringing the content and form of education as close as possible to the content and form of professional activity.

The listed approaches are implemented on the following principles:

The scientific principle means that the content of education corresponds to modern science and the methods of scientific organization of education.

From easy to difficult, from known to unknown, from simple to complex, from close to far, the principle of availability formulated by Ya. A. Komensky includes the use of accumulated knowledge in teaching. In this case, it is appropriate to take into account the individuality of students, to draw attention to the manifestation of special and universal universality of students in handing over material.

The principle of vocational orientation of education is aimed at the maximum inclusion of practical material in the teaching of general scientific subjects at various levels and the inclusion of special courses with elements of organizational and managerial competence formation in the educational process.

The principle of conscious and active listeners, which is one of the principles universally recognized as one of the principles of effective education by Professor I.P. Podlas, is aimed at conscious learning.

The principle of independence and activity is aimed at demonstrating cognitive activity of master's students. The content block of the model consists of the step-by-step formation of students' organizational and management skills during the implementation of the master's education program.

The evaluation-result stage includes the criteria and indicators for the formation of organizational-management competencies. Criterion - organizational and management competence as a set of components: motivational-value, cognitive, communicative, functional. We have determined the indicators of each of the criteria:

motivational value - valuable attitude to the received profession;

cognitive - academic indicators;

activity - the practical side of master's training;

communicative - formation of communicative competence.

The above indicators and criteria made it possible to determine the levels of formation of organizational-management competencies: low (availability of fragmented knowledge or practical absence), average (availability of sufficiently complete knowledge) and high (deep knowledge).

Conclusion. The expected result of the developed model is the formed organizational-management skills of students in the implementation of the main educational program of the master's program.

The model, without claiming to be a complete solution to the problem, allows to understand the process of competence formation, to analyze the shortcomings and advantages of the process, and therefore to correct it.

The model of development of organizational-management competence developed in this study can be implemented during the stage of professional training of a master's student in the course of conducting experimental work.

The effective implementation of the model is supported by a set of conditions for the formation of organizational-management competence of the graduate students.

REFERENCE

1. Ажимов З.Р. Формирование управленческой компетенции у будущих художественных руководителей творческих коллективов: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.08 / З.Р. Ажимов. – Казань, 2008. – 20 с.
2. Белова Е.Н. Управленческая компетентность руководителя: монография /Е.Н. Белова. – Красноярск, 2007.– 268 с.
3. Шерин В.С. Модель формирования компетентности управленческой деятельности специалиста по физической культуре и спорту / В.С. Шерин // Вестник Томского государственного университета. Психология и педагогика. – 2011. – № 347. – С. 147-151.

4. Фишман Л.И. Модели образовательного менеджмента: обзорный анализ // Школьные технологии. – 1999 № 1-2. – С. 112-121.
5. Хуторской А.В. Эвристическое обучение. Теория, методология, практика / А.В. Хуторской. – М.: Международная педагогическая академия, 1988. – 266 с.
6. Яковлев Е.В., Яковлева Н.О. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов / Е.В. Яковлев, Н.О. Яковлева. – Челябинск.: Изд-во РБИУ, 2010. – 317 с.
7. Khasanova G. The content of the components of the organizational and managerial competence of a master's student //Science and Innovation. – 2023.T.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK 372.8

Гульноз ХАСАНОВА,
Бухарский государственный педагогический институт, доцент, к.п.н.
E-mail: xasanova@mail.ru

По отзыву доктор педагогических наук,доцент Т.Азимовой

PEDAGOGICAL STRATEGY AT THE STAGE OF PRESCHOOL EDUCATION

Annotation

Preschool education plays a critical role in a child's early development, laying the foundation for future learning and success. To ensure optimal outcomes, educators and caregivers employ various pedagogical strategies aimed at fostering cognitive, social, emotional, and physical development. This article explores the significance of pedagogical strategies in preschool education, discusses key principles, and offers insights into effective implementation for the benefit of young learners.

Keywords: Early Childhood Education, Teaching Strategies, Child Centered Approach, Playful Learning, Holistic Development, Social Interaction, Practical Experience.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СТРАТЕГИЯ НА ЭТАПЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Дошкольное образование играет решающую роль в раннем развитии ребенка, закладывая основу для будущего обучения и успеха. Чтобы обеспечить оптимальные результаты, преподаватели и лица, осуществляющие уход, используют различные педагогические стратегии, направленные на содействие когнитивному, социальному, эмоциональному и физическому развитию. В этой статье исследуется значение педагогических стратегий в дошкольном образовании, обсуждаются ключевые принципы и предлагается понимание их эффективной реализации на благо маленьких учащихся.

Ключевые слова: Дошкольное образование, Педагогические стратегии, Подход, ориентированный на ребенка, Игровое обучение, Комплексное развитие, Социальное взаимодействие, Практический опыт.

MAKTABGACHA TA’LIM BOSQICHIDA PEDAGOGIK STRATEGIYA

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim bolaning erta rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, kelajakdagi ta’lim va muvaffaqiyat uchun poydevor qo‘yadi. Optimal natijalarni ta’minlash uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishni rivojlantirishga qaratilgan turli xil pedagogik strategiyalardan foydalanadilar. Ushbu maqola maktabgacha ta’limdagi pedagogik strategiyalarning ahamiyatini o‘rganadi, asosiy tamoyillarni muhokama qiladi va yosh o‘quvchilar manfaati uchun samarali amalga oshirish bo‘yicha tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Erta bolalik davridagi ta’lim, o‘qitish strategiyalari, bolaga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘yin o‘rganish, yaxlit rivojlanish, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, amaliy tajriba

Введение. Дошкольное образование знаменует собой начальный этап формального обучения ребенка, подготавливая почву для его образовательной деятельности на протяжении всей жизни. Этот период формирования, обычно охватывающий детей в возрасте от 3 до 5 лет, имеет огромное значение в формировании когнитивного, социального, эмоционального и физического развития ребенка. В основе этого преобразующего процесса лежит применение педагогических стратегий – систематического и целенаправленного подхода к обучению и воспитанию молодых умов.

Педагогические стратегии в дошкольном образовании представляют собой совокупность целенаправленных методов, приемов и принципов, используемых педагогами и опекунами для содействия целостному росту и обучению детей. Эти стратегии играют ключевую роль в создании благоприятной и стимулирующей среды обучения, которая не только поощряет интеллектуальное любопытство, но и развивает важные жизненные навыки и социально-эмоциональные компетенции [1].

В этой статье мы приступаем к исследованию глубокой важности педагогических стратегий в контексте дошкольного образования. Мы углубимся в основные принципы, лежащие в основе этих стратегий, подчеркнув их решающую роль в развитии потенциала наших самых маленьких учеников. Понимая значение педагогических стратегий на этом основополагающем этапе, мы можем лучше оценить их глубокое влияние на будущее нашего общества, поскольку они закладывают основу для поколения, которое будет учиться на протяжении всей жизни.

Значение педагогических стратегий в дошкольном образовании:

Дошкольное образование является важнейшим этапом раннего развития ребенка, и значение педагогических стратегий в этом контексте невозможно переоценить. Эти стратегии имеют основополагающее значение по нескольким веским причинам, каждая из которых способствует оптимальному росту и подготовке детей раннего возраста:

Целостное развитие. На дошкольном этапе дети подвергаются быстрому и многогранному развитию. Педагогические стратегии предназначены для решения различных аспектов развития, включая когнитивную, социальную, эмоциональную и физическую сферы. Охватывая все эти аспекты, эти стратегии гарантируют, что дети растут и процветают сбалансированным и всесторонним образом.

Фонд раннего обучения: Дошкольное образование закладывает основу для будущего обучения. Эффективные педагогические стратегии знакомят детей с базовыми навыками грамотности, счета и решения проблем. Более того, они развивают искренний интерес к обучению, любознательность и критическое мышление. Эти ранние навыки и отношения имеют неоценимое значение для будущих успехов в учебе [2].

Индивидуальное обучение: каждый ребенок уникален, со своим стилем обучения, интересами и способностями. Педагогические стратегии в дошкольных учреждениях разработаны так, чтобы быть гибкими и адаптируемыми, что позволяет педагогам адаптировать обучение к индивидуальным потребностям каждого ребенка. Такая индивидуализация способствует положительному опыту обучения и помогает каждому ребенку прогрессировать в своем собственном темпе.

Социальное и эмоциональное развитие: Дошкольный период — решающий период для развития социальных и эмоциональных навыков. Педагогические стратегии способствуют взаимодействию, сотрудничеству и общению между детьми, развитию эмоционального интеллекта, сочувствия и межличностных отношений. Эти навыки необходимы не только для личного благополучия, но и для успеха на более поздних этапах образования и жизни.

Любознательность и креативность. Эффективные педагогические стратегии поощряют любознательность и креативность. Они предоставляют возможности для исследования, экспериментирования и творческих игр, которые жизненно важны для развития навыков решения проблем и страсти к обучению.

Подготовка к школе и жизни. Дошкольное образование часто является первым опытом ребенка в структурированной образовательной среде. Педагогические стратегии помогают детям ознакомиться с распорядком дня, правилами и ожиданиями, подготавливая их к более плавному переходу к формальному школьному обучению. Кроме того, они прививают такие важные ценности, как ответственность, уважение и настойчивость [3].

Справедливость и инклюзивность: Педагогические стратегии должны быть разработаны с учетом разнообразного происхождения и потребностей детей. Такая инклюзивность гарантирует, что все дети, независимо от их социально-экономического статуса, культуры, языка или способностей, имеют доступ к качественному образованию и благоприятной среде обучения [4].

Вовлечение родителей и опекунов: эффективные педагогические стратегии выходят за рамки классной комнаты. В них участвуют родители и опекуны, продвигая совместный подход к образованию. Такое партнерство между педагогами и семьями способствует общему развитию ребенка и получению опыта обучения.

В заключение отметим, что педагогические стратегии являются краеугольным камнем дошкольного образования, формируя ранний опыт детей таким образом, который оказывает долгосрочное влияние на их будущее. Способствуя целостному развитию, индивидуальному обучению и социально-эмоциональным навыкам, эти стратегии способствуют формированию всесторонне развитой личности, которая не только академически подготовлена, но также эмоционально устойчива и социально адаптирована. Дошкольное образование, основанное на разумных педагогических принципах, обещает более светлое и более справедливое будущее для наших самых маленьких учеников.

Ключевые педагогические принципы дошкольного образования:

Дошкольное образование является важнейшим этапом в развитии ребенка, и эффективные педагогические принципы необходимы для создания благоприятной и обогащающей среды обучения. Эти принципы помогают педагогам и лицам, осуществляющим уход, способствовать оптимальному росту и результатам обучения маленьких детей. Вот ключевые педагогические принципы, лежащие в основе успешного дошкольного образования:

Игровое обучение:

Игра является основным способом обучения в дошкольном образовании. Именно через игру дети познают окружающий мир, развивают творческие способности и приобретают навыки решения проблем.

Игровая деятельность должна лежать в основе учебной программы, позволяя детям участвовать как в структурированной, так и в неструктурированной игре, которая способствует когнитивному, социальному и эмоциональному развитию.

Подход, ориентированный на ребенка:

Интересы, потребности и способности ребенка должны быть в центре образовательного процесса. Учителя и опекуны должны наблюдать и слушать детей, чтобы адаптировать обучение к их индивидуальному пути обучения.

Предоставление детям возможностей делать выбор, ставить цели и заниматься своими увлечениями способствует развитию самостоятельности и мотивации.

Социальное взаимодействие:

Социальное взаимодействие имеет решающее значение для развития дошкольников. Это способствует развитию коммуникативных навыков, сотрудничества и эмоционального интеллекта.

Групповая деятельность, совместные проекты и возможности взаимодействия со сверстниками должны быть интегрированы в повседневную жизнь, чтобы способствовать социальному росту.

Практический опыт:

Маленькие дети лучше всего учатся через конкретный опыт и практические занятия. Эти занятия позволяют им исследовать объекты и манипулировать ими, способствуя более глубокому пониманию концепций.

Манипулятивные материалы, сенсорный опыт и эксперименты являются ценными инструментами для содействия когнитивному развитию.

Инклюзивное образование:

Инклюзивные дошкольные классы учитывают разнообразные потребности, способности и опыт всех детей. Этот принцип способствует толерантности, сочувствию и чувству принадлежности.

Дифференцированное обучение и услуги поддержки гарантируют, что каждый ребенок имеет доступ к качественному образованию.

Экстренная учебная программа:

Новая учебная программа адаптируется к интересам и потребностям детей по мере их возникновения. Он отзывчив и гибок, что позволяет преподавателям использовать обучающие моменты.

Наблюдая и документируя деятельность и интересы детей, педагоги могут планировать учебную деятельность, соответствующую их текущему этапу развития и интересам.

Оценка обучения:

Оценка в дошкольном учреждении должна быть направлена на понимание прогресса каждого ребенка и

предоставление обратной связи для поддержки дальнейшего развития.

Методы оценки должны соответствовать возрасту и проводиться постоянно, с упором на наблюдение и документирование, а не на формальное тестирование.

Языковая среда:

Развитие речи является краеугольным камнем раннего образования. Богатая языковая среда способствует развитию грамотности и коммуникативных навыков.

Рассказывание историй, чтение вслух и общение с детьми помогают заложить прочную основу для развития речи.

Культурная чувствительность:

Дошкольное образование должно уважать и ценить культурное разнообразие. Учителя и лица, осуществляющие уход, должны учитывать культурные особенности и включать в учебную программу различные точки зрения.

Знакомство с различными культурами обогащает понимание детьми мира и способствует инклюзивности.

Позитивные отношения:

Построение позитивных отношений между педагогами, воспитателями и детьми имеет важное значение. Доверие и эмоциональная безопасность создают благоприятную среду обучения[6].

Развитие этих отношений способствует развитию у детей чувства принадлежности и уверенности.

Эти ключевые педагогические принципы в совокупности способствуют дошкольному образованию, которое одновременно соответствует уровню развития и эффективно готовит детей к будущему обучению и жизненному опыту. Придерживаясь этих принципов, преподаватели и воспитатели могут создать среду, в которой дети будут развиваться, раскрывать свой потенциал и развивать любовь к обучению на всю жизнь[5].

Заключение. Дошкольное образование представляет собой важнейший этап на пути роста и развития ребенка, и значение педагогических стратегий и ключевых принципов в этом контексте невозможно переоценить. Эти стратегии и принципы закладывают основу для всестороннего образовательного опыта, который способствует когнитивному, социальному, эмоциональному и физическому развитию юных учащихся. Завершая наше исследование педагогических стратегий в дошкольном образовании, можно сделать несколько ключевых выводов:

Целостное развитие. Эффективные педагогические стратегии в дошкольном учреждении затрагивают все аспекты развития ребенка. Способствуя когнитивному, социальному, эмоциональному и физическому развитию, эти стратегии гарантируют, что дети будут хорошо подготовлены к трудностям на более поздних этапах обучения и к жизни за пределами класса[7].

Индивидуальное обучение. Признание уникальных потребностей и способностей каждого ребенка имеет центральное значение в дошкольном образовании. Гибкость педагогических стратегий позволяет педагогам и лицам, осуществляющим уход, адаптировать обучение к конкретным требованиям каждого учащегося, способствуя положительному и индивидуальному опыту обучения.

В заключение отметим, что педагогические стратегии и ключевые принципы дошкольного образования служат строительными блоками для обучения и личностного роста на протяжении всей жизни. По мере того как преподаватели, лица, осуществляющие уход, и политики продолжают совершенствовать и реализовывать эти стратегии, они способствуют развитию всесторонне развитых людей, которые не только академически подготовлены, но и социально адапти-рованы, эмоционально устойчивы и культурно чувствительны. Дошкольное образование, основанное на разумных педагогических принципах, играет решающую роль в формировании будущего нашего общества, развитии потенциала наших самых маленьких учеников и воспитании любви к обучению на протяжении всей жизни.

ЛИТЕРАТУРА

1. Bredekamp, S., & Copple, C. (Eds.). (2017). "Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children from Birth through Age 8." National Association for the Education of Young Children (NAEYC).
2. Epstein, A. S., Schweinhart, L. J., DeBruin-Parecki, A., Robin, K. B., & Williams, D. L. (2016). "Preschool Pedagogy: Finding the Balance between Developmentally Appropriate and Academically Rigorous Practices." National Institute for Early Education Research (NIEER).
3. Pianta, R. C., La Paro, K. M., & Hamre, B. K. (2008). "Classroom Assessment Scoring System (CLASS): Manual, Pre-K." Paul H. Brookes Publishing Co.
4. National Association for the Education of Young Children (NAEYC). (2020). "Position Statement on Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children from Birth through Age 8."
5. National Research Council. (2008). "Early Childhood Assessment: Why, What, and How." Committee on Developmental Outcomes and Assessments for Young Children, Board on Children, Youth, and Families, Division of Behavioral and Social Sciences and Education. The National Academies Press.
6. National Center for Quality Teaching and Learning (NCQTL). (2014). "Preschool Teaching and Learning Standards." Office of Head Start, Administration for Children and Families, U.S. Department of Health & Human Services.
7. Katz, L. G. (Ed.). (2018). "The Oxford Handbook of Early Childhood Education." Oxford University Press.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 101.1

Rayxona XOLBEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
E-mail:rayxona.kh@gmail.com

JDPU f.f.f.d.(PhD) Abduraxmonov A.A.

MAHMUD IBN-MUHAMMAD AL-CHAG‘MINIY TABIIY-ILMIY VA FALSAFIY QARASHLARINING GNOSEOLOGIK ILDIZLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘rta asrlar Sharq falsafasida tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy rivojida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan Mahmud ibn-Muhammad al-Chag‘miniyn, Abu Abdulloh Muhammad ibn Jobir al-Battoniy va Abu Rayhon Beruniylarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ilmiy qiyosiy tahlili borasida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Islom, Albatagenius, Borliq, osmon yoritgichlari, trigonometriya, “Ma’mun akademiyasi”, “Qonuni Ma’sudiy” “Malaxxas fi-hay’a”

GNOSEOLOGICAL ROOTS OF THE NATURAL-SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF MAHMUD IBN-MUHAMMAD AL-CHAGMINI

Annotation

This article discusses the natural-scientific and social-philosophical heritage of Mahmud ibn Muhammad Umar al-Chagmini, Abu Raihan al-Beruni and Abu Abd Allah Muhammad ibn Jabir al-Battani who played significant role in the development of natural-scientific, philosophical sciences in medieval Eastern philosophy.

Keywords: Islam, Albategnius, Universe, celestial body, trigonometry, Mamuna Academy, “Canon Masuda”, “Mulahhas fi-l hay’a”.

ЭПИСТЕМОЛОГИЧЕСКИЕ КОРНИ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНЫХ И ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ МАХМУДА ИБН МУХАММАДА АЛЬ-ЧАГМИНИ

Аннотация

В статье рассматривается естественнонаучное и соцальное-философское наследие Махмуд ибн Мухаммада Умара аль-Чагмини, Абу Абдуллах Мухаммада ибн Жабир аль-Баттани и Абу Райхан аль-Беруни сыгравщих значительную роль в развитии естественнонаучных, философских наук в средневековой восточной философии.

Ключевые слова: Ислам, Албатагениус, Бытие, небеных тел, тригонометрия, “Академия Маъмуна”, “Канон Ма’суда” “Малаххас фи-ль хай’а”.

Kirish. Markaziy Osiyo deya atalmish ushbu hududda xorazmshohlar-anushteginlar hukmronligi yillarida ilm-fanning ko‘plab yo‘nalishi, jumladan, falsafa va tabiiy fanlar, madaniyat hamda san’at yuksak darajada taraqqiy etgan va ko‘plab jahonga taniqli olimlar yetishib chiqqan. Shunday olimlardan biri bu Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al Chag‘miniy hisoblanadi.

Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al Chag‘miniy (yoki al Jag‘miniy), XII—XIII asrlarda yashagan, asli xorazmlik faylasuv, astronom, matematik, jo‘g‘rofiy bilimlar sohibi bo‘lgan olim Ahmad Farg‘oniy va Abu Rayhon Beruniyning ilmiy an’anlarini davom ettirgan. Chag‘miniyning ilmiy asarlari Sharqda juda mashhur bo‘lsada, uning hayoti va ijodi hanuzgacha chuqur o‘rganilmagan. Shu bois uning ilm – fanga qo‘shgan hissasi, ma’naviy merosini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chag‘miniyning ilmiy-falsafiy qarashlari shakllanishida undan avval yashab, ijod etgan Movarounnahrlik allomalarning hissalari juda ham katta.

Ma’lumki, X-XI asrlarda o‘lkamizda o‘zlarining ilmiy qarashlari va buyuk kashfiyotlari bilan jahon ilmu faniga katta hissa qo‘shgan olimu-fuzalolar yetishib chiqdilar. Ulardan biri Chag‘miniyning buyuk olim bo‘lib yetishib chiqishida muhim o‘rin tutgan Xorazm diyorida yashab, ijod etgan buyuk mutafakkir qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1047)dir. Beruniy yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, zamonasining barcha ilmlari bilan shug‘ullanib, ko‘plab tabiiy-ilmiy fanlar-astronomiya, matematika, shuningdek, geologiya, ijtimoiy gumanitar fanlarga oid asarlarni yozgan.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, VIII-asr oxiri va IX-asr boshlarida O‘rta Sharq va O‘rta Osiyoda tabiiy bilimlar jadal sur’atlar bilan rivojlandi.

Bag‘dod xalifasi al-Ma’mun saroyida o‘z davrning yirik olimlari to‘plandi. Bular orasida O‘rta Osiyoning buyuk matematigi va astronomi, hozirgi zamon algebrasining ijodkori Abu Abdulla Muhammad Muso al-Xorazmiy (780-850) ham bor edi.

Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809-yillarda xalifalik qilgan) davrdan boshlab, Bag‘dodda ko‘plab ilmiy va falsafiy kitoblar to‘plandi.

Xalifa Xorun ar-Rashidning o‘g‘li xalifa al-Ma’mun (813-833) Bag‘dodda “Tarjimonlar uyi” tashkil etdi. Bu yerda yunon faylasuflari, olimlarining asarlari o‘rganilar va arab tiliga tarjima qilinardi. IX-asr boshlarida Bag‘dod va Damashqda Sharqning birinchi rasadxonalari qurildi, unda Abbos ibn-Said Javxariy, Said ibn-Ali va boshqa astronomlar faoliyat olib borganlar. Mazkur rasadxonalarda dastlabki arab astronomik jadvallari tuzilgan, koinotni kuzatish va Yer meridiani gradusini o‘lchash sohasida amaliy ishlar qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ushbu maqolamizda diyorimizda o‘rta asrlarda yashab ijod etgan allomalarning astronomik qarashlari va ularning falsafiy ahamiyatini tahlil qilamiz. Maqolada Mahmud ibn-Muhammad al-Chag‘miniy tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining gnoseologik ildizlari va

uning mohiyatini yoritib berish o‘ziga xos xususiyatlari ob’ektiv o‘rganildi hamda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Chag‘miniy falsafiy qarashlariga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan allomalardan biri, butun hayotini koinotni kuzatishga bag‘ishlagan IX-asr oxirining buyuk astronomii al-Battoniy (Albatagenius)(850-929) hisoblanib, u fan tarixida astronomik katalog (zij) tuzdi; trigonometrik metodlarni takomillashtirdi, fanga sinus tushunchasini kiritdi. Sferik trigonometriyaning muhim formulasi ana shu olim nomi bilan atalgan. Al-Battoniy quyosh orbitasi ekssentrisitetini juda katta aniqlikda bilib oldi va quyosh prigeysi uzunligining asriy o‘zgarishini aniqladi.Falsafiy va tabiiy-ilmiy jihatdan Chag‘miniy Battaniyga nisbatan juda ham yaqin konsepsiyalarni o‘z asarlarida bayon etgan.

Masalan, Chag‘miniy o‘zining “Astronomiyadan qisqacha to‘plam” asarida quyidagilarni bayon etadi: ”Oy o‘z nuriga ega emas. Kechayu kunduz oy nur taratib turadi Lekin bu nur Quyoshnikidir.Oy ham o‘z qobig‘iga ega. U Yer atrofida aylanma harakatda bo‘ladi.Barcha sayyoralar o‘zining aylanish qobig‘iga ega.Ular aylanish davomida bir-biriga xalaqit qilmaydilar. Chunki ular bir-biridan aniq bir uzoqlikdagi masofada harakatlanadilar.Borliq asosida oliy yaratuvchi kuch yotadi.Uni shakllari haqida gap ketganda, uning sanog‘i, sifati, holati va ularning har biriga harakat xosligini ko‘ramiz.Biz bu yerda elementar substansiyaning quyi jismlari (masalan, Yer) va uning boshqa qobiqlar bilan aloqasini ko‘rib chiqamiz.”[1]

X-asr ikkinchi yarmi boshlarida o‘rta asr Sharqining taniqli astronomlari al-Kuxiy va al-Sufiylar ijod etishdi.Ular yulduzlarning ko‘rinish ravshanligini mustaqil aniqlash yordamida yulduzlar katalogini tuzishdi. Hozirgi zamon astronomlarining ko‘pchilik ishlari ana shu masalani o‘rganishga bag‘ishlangan.

Al-Farg‘oniy(IX-asr), Abul-Vafo Muhammad al-Bo‘zjoniy (940-988) asarlarida Oy va boshqa sayyoralar, Quyosh hamda Oyning burchak diametrlari, tekis va sferik trigonometriyaning taraqqiyoti va hokazolar bayon etilgan. Ibn Yunus (950-1009) Oy, Quyosh va sayyoralarning harakat jadvallarini tuzdi. Bu astronomik jadvallar bir necha asrlar mobaynida fan rivoji va yirik kashfiyotlarga sabab bo‘ldi.

Kimyo ilmining taraqqiyotida Isxoq al-Isroil (932-yilda vafot etgan) ning asarlari muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, Abu Bakr ar-Roziy (923-yilda vafot etgan), Ali ibn Abbos (996-yilda vafot etgan)va Abu ali Ibn Sinolarning asarlari bir necha asrlar davomida tibbiyot va tabiiyotshunoslikning muhim manbalaridan hisoblangan.Bu allomalarning asarlari keyingi davr allomalari uchun ilmiy dastak vazifasini o‘tadi.Masalan, Chag‘miniyning tibga oid “Qonuncha” asaridagi ko‘plab fikrlari ibn Sinoning “Qonun” asridagi fikrlarga yaqin turadi.

X-asrning birinchi yarmida buyuk faylasuf va alloma Abu Nasr Forobiy yashab ijod etdi.Farobiyning borliq va uning turlariga oid qarashlari Chag‘miniyning “Astronomiyaga oid qisqacha to‘plam” risolasidagi fikrlar bilan mantiqan o‘xshashdir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mashhur olimlarning ijodiy muvaffakiyatlari Beruniy ilmiy ijodiga zamin bo‘ldi. O‘z navbatida Beruniy Chag‘miniyga katta ijodiy turtki bo‘ldi. Chag‘miniy ham astronomiya, tibbiyotga oid qarashlarida o‘zidan avval yashab, ijod etgan olim, mutafakkirlarning ilmiy meroslari, izlanishlariga tayangan.

Chag‘miniyga eng yirik ilmiy turtkini bergan alloma Abu Rayhon Beruniy o‘z zamonidagi barcha xalqlarning va avval o‘tgan olimlarning ilmiy natijalaridan keng foydalanadi. Uning asarlarida biz Fales, Pifagor, Galen, Gippokrat, Evklid, Ptolomey, Platon va Arastu kabi ko‘plab buyuk olimlar nomlarini uchratamiz. Beruniy qadimgi dunyo ilmiy-falsafiy fikri darajasida to‘xtab qolmay, balki ko‘p masalalarda o‘z ilmiy takomil yo‘li bilan ilgarilab bordi.

Beruniyning xarakterli xususiyatlardan biri, uning haddan tashqari ko‘p o‘qiganligi va kishini hayratda qoldirarli darajadagi bilimdonligidadir. Lekin uni oziqlantirgan madaniy zamin Xorazmdir. Oralari qariyib ikki asrli bir davr bilan ajratilgan ikki buyuk xorazmlik olim – Beruniy va undan oldin o‘tgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘z ilmiy talqinlarining o‘xshashligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Har ikki olim ham astronom, ham matematikdirlar. Ularning har ikkisi ham boy madaniy merosga suyanadilar, yunon va hind fani odatlatlaridan keng foydalanganlar [2].

Mahmud ibn Muhammad al-Chag‘miniy ham ularni ilmiy meroslarini davom ettirib, asosan astronomiya, matematika va tibbiyot fanlari bilan keng shug‘ullangan. Va shuning uchun uning ijodida Beruniy, al-Xorazmiy va Ibn Sinolarning ta’siri sezilib turadi.

Astronomiyaning qishloq ho‘jaligidagi ahamiyati, sug‘orma dehqonchilik sharoitida qishloq ho‘jaligi ishlarini rejalashtirishdagi ahamiyati muhimdir. Shuningdek, ushbu fan Xorazmdagi matematika fanining keng ko‘lamda rivojlanishi uchun manba bo‘lib hizmat qilgan. Buning natijasi o‘laroq ushbu diyorda ilm fanga oid turli kashfiyotlar qilina boshlandi.Buning yorqin ifodasi Qadimgi Xorazm astronomik taqvimidir.

Mahmud al-Chag‘miniy astronomik tadqiqotlar asnosida riyoziyot (matematika) fani bilan jiddiy shug‘ullangan. Allomaning samarali izlanishlari tufayli doiraviy trigonometriya asoslari ishlab chiqildi va uning asosiy qoidalari “Mulaxxas fi-l-xay’a” asarida o‘z in’ikosini topdi. Muallif birinchi marta ufqiy tekislikdagi kuzatish joyining asosi bo‘lgan koordinatalar sistemasini mufassal tadqiq etishga erishdi.

Tabiatshunoslik sohasidagi ilmlarda u tajribaga tayanib, tabiat hodisalarini o‘rganar ekan, har xil fanlar tomonidan to‘plangan ma’lumotlarga tanqidiy yondashib, xolisona xulosalar chiqaradi.

Muhokama. Xorazmda topografiyaning rivojlanishi u yerdagi sug‘orish inshootlari qurilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, dehqonchilik va me’morchilikning amaliy ehtiyojlari geometriya fanining rivojlanishiga olib keldi. Matematik geografiyaning rivojlanishi esa, xorazmlik savdogarlarning uzoq yurtlarga safarlari bilan bog‘liqdir. Zero, astronomik oriyentatsiya dengizda ham quruqlikda ham zarurdir. Ana shunday keng ko‘lamdagi geografik aloqalar Xorazmda kartografiya va tasviriy geografiyaning shakllanishiga sabab bo‘ldi [3].

Beruniy o‘zining astronomiyaga oid “Qonuni Mas’udiy” asari bilan keyingi davr olimlariga, xususan Chag‘miniyning tabiiy-ilmiy qarashlariga ham o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatgan.

Beruniy fikricha, olam yumaloq shaklli bir jism. Uning bir bo‘lagi harakatsiz. Harakatsiz qismning atrofidagilar “haqiqiy qo‘yilik”- “Yerning haqiqiy markazi” bo‘ylab fazoda aylanma harakat qiladilar, ana shu barcha mavjud jismlarning yig‘indisi olam deb ataladi [4].

Chag‘miniyning yuqorida keltirib o‘tgan astronomiyaga oid “Malaxxas fi-hay’a” asarida Beruniyning yuqoridagi Yerning tuzilishiga va uning harakati haqidagi fikrlariga juda yaqin fikrlar mavjud. Masalan, “Barcha osmon jismlari sharsimon shakldadir. Barcha qobiqlar va yer yuzidagi barcha jismlar olamning umumiy manzarasini tashkil etadi. Dunyo manzarasini tuzilishi konsentrik halqadan iborat [5].

Beruniy bilan Chag‘miniyning osmon jismlari va sayyoralarning harakatlari haqidagi qarashlari bir-biriga juda yaqindir. Bundan shu narsani anglash mumkinki, Chag‘miniy o‘zining astronomik fikrlarini bayon etishda ustozi Beruniydan ko‘p ilmiy nazariyalarni o‘zlashtirgan va ayrim fikrlariga o‘zining mustaqil qarashlarini bildirgan edi. Yer shu

to‘rt navning biridir. Bu to‘rt unsur olam o‘rtasida tartib bilan joylashtirilgan. Ularning vazni og‘irligi olam markaziga intiladi, yengili esa markazdan qochadi.[6]

Chag‘miniyning quyidagi qarashlari Beruniy fikrlariga yaqinligi bilan diqqatga sazovordir: “Tabiatdagi barcha jismlar ikki guruhga bo‘linadi, ulardan birinchisi tabiatning to‘rt unsuri hisoblangan tuproq, suv, havo, olovdir. Ulardan ikkinchisi esa osmon jismlaridir. Yuqoridagi to‘rt unsurdan biri og‘ir, boshqasi esa yengil bo‘ladi. Agar tuproq bilan suvni solishtirsak, eng og‘iri tuproq bo‘lib chiqadi. Chunki tuproq ham, suv ham Yer qobig‘ida joylashgan. Shu to‘rt unsurdan olamning asosi yaratilgandir. Shunday ekan, bu to‘rt unsurning ahamiyati juda kattadir. Ularning Yer sayyorasida mavjudligining o‘zi ham bizni bu unsurlarni o‘rganishimizga katta imkoniyat yaratib beradi”[7].

Xulosa. Yuqoridagi allomalarning astronomiya, matematikaga oid me’roslari keyinchalik Markaziy Osiyoning Xorazm diyorida yetishib chikkan alloma medik, astronom, matematik Mahmud ibn Muxammad al-Chag‘miniy qarashlariga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.Masalan, Chag‘miniyning “To‘qqiz soning xususiyati” nomli asari al-Xorazmiyning matematikaga oid sonlar to‘g‘risidagi fiklariga juda ham yaqindir. “Me’rosni taqsimlash to‘g‘risida”gi asari Battaniy va Beruniylarning musulmon olamida me’ros va uning taqsimlanishiga oid bir qancha fiklariga asoslangan. Beruniyning “Qonuni Ma’sudiy” asari Chag‘miniyning “Mulaxxas fi l-xaya” asariga juda katta ta’sir ko‘rsatgan.Masalan, Beruniyning osmon yoritgichlari, borliq, sayyoralarning harakatlari, qobiqlar va ularning turlari haqidagi fikrlariga juda ham yaqindir.

ADABIYOTLAR

1. *Кази Заде Руми* Комментарии на Компендиум об астрономии Чагмини. Т., 1993, 40-б.
2. *Толстов С.П.* , Беруний ва унинг замони, Беруний- ўрта асрнинг буюк олими тўпламида, Ўз ССР ФА нашриёти, Т., 1950.
3. Қадимий Хоразмнинг астрономик одатлари ҳақида қаранг:.*Воробъёва М.Г ,.Рожанская М.М , Веселовский И.Н*., Древнохорезмский памятник IV в. до н.э.Койкирилганкала с точки зрения астрономии, сб. Историко-астрономические исследования вып. X. М., 1969, стр.15-35
4. *Беруний Абу Райҳон* Қонуни Маъсудий Т.,”Фан” 1976, 2-китоб
5. Под.ред. *Сиражиддинов Х.С.* Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке . *Сиддыков Х.С.* О научном творчестве Чагмини Т., «Фан» , 1972, стр. 203-204
6. *Беруний Абу Райҳон* Қонуни Маъсудий. Т.,”Фан”, 1976, 2-китоб
7. Под.ред. *Сиражиддинов Х.С.* Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке. Сиддыков Х.С. О научном творсество Чагмини Т., «Фан» , 1972, стр. 203-204.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Feruza KHOLIKULOVA,
Associate professor of Navoi State Pedagogical Institute, (PhD)
E-mail: feruzakh@mail.ru

Doctor of Pedagogical Sciences, based on the review of Professor T.Islamov

INTEGRATION OF DIGITAL TOOLS AS INSTRUMENTAL IN ENHANCING STUDENTS' COMMUNICATIVE ABILITIES

Annotation

This article describes the transformative influence of integrating digital tools and platforms on students' communicative abilities within educational settings. The study focuses on the use of various digital tools and platforms to facilitate language learning and communication skills development among students. The research aims to explore the extent to which the integration of digital technologies contributes to enhancing students' proficiency in verbal and written communication. The article deals with findings that indicate a positive correlation between the integration of digital tools and platforms and students' communicative abilities.
Key words: Integration, digital tools, platforms, students, communicative, abilities, educational, multimedia resources.

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ КАК СРЕДСТВА ПОВЫШЕНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В этой статье описывается преобразующее влияние интеграции цифровых инструментов и платформ на коммуникативные способности студентов в образовательных учреждениях. Исследование сосредоточено на использовании различных цифровых инструментов и платформ для облегчения изучения языка и развития коммуникативных навыков среди студентов. Целью исследования является изучение степени, в которой интеграция цифровых технологий способствует повышению навыков студентов в устном и письменном общении.
Ключевые слова: Интеграция, цифровые инструменты, платформы, студенты, коммуникативные способности, образовательные, мультимедийные ресурсы.

TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA RAQAMLI VOSITALARNI INTEGRATSIYALASHUVI

Annotatsiya

Ushbu maqola raqamli vositalar va platformalarni integratsiyalashning ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ qobiliyatlariga transformativ ta’sirini tasvirlaydi. Tadqiqot talabalar o‘rtasida til o‘rganish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli xil raqamli vositalar va platformalardan foydalanishga qaratilgan. Tadqiqot raqamli texnologiyalar integratsiyasi talabalarning og‘zaki va yozma muloqotdagi malakasini oshirishga qanchalik hissa qo‘shishini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada raqamli vositalar va platformalar integratsiyasi va talabalarning kommunikativ qobiliyatlari o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadigan topilmalar ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: Integratsiya, raqamli vositalar, platformalar, talabalar, kommunikativ, qobiliyatlar, ta’lim, multimedia resurslari.

Introduction. In the dynamic landscape of contemporary education, the integration of digital tools and platforms has emerged as a transformative force, revolutionizing traditional teaching and learning paradigms. As we navigate an era marked by rapid technological advancements, the role of digital tools in education has become increasingly crucial, with educators seeking innovative ways to engage and empower students. One significant facet of this educational evolution is the profound impact digital tools and platforms have on enhancing students' communicative abilities. Communication is a fundamental skill that transcends academic disciplines and is essential for success in both educational and professional contexts. The ability to express thoughts coherently, engage in meaningful dialogue, and comprehend diverse forms of communication is integral to intellectual and social development. Recognizing this, educational stakeholders have turned to digital tools and platforms as facilitators for bolstering students' communicative prowess. Moreover, the digital integration approach demonstrates potential benefits in improving both oral and written communication skills, including language proficiency, vocabulary expansion, and the ability to express ideas coherently.

This research endeavors to delve into the multifaceted relationship between the integration of digital tools and platforms and the enhancement of students' communicative abilities. By scrutinizing the landscape of digital integration in educational settings, we aim to uncover the varied mechanisms through which these tools contribute to the development of effective communication skills. This exploration extends beyond conventional teaching methodologies, as we investigate the specific digital interventions that have proven instrumental in fostering communicative competence among students. The motivation for this research stems from the growing consensus that the digital realm offers unique opportunities to cultivate communication skills in ways that traditional methods may not fully capture. From collaborative online platforms and multimedia presentations to virtual communication tools, the possibilities are vast. Understanding how these tools can be effectively harnessed to nurture students' communicative abilities is not only pertinent to educators but also holds implications for broader societal advancement, where effective communication is indispensable.

As we embark on this exploration, it is crucial to consider the potential challenges and drawbacks associated

with the integration of digital tools in education. By critically examining both the benefits and limitations, this research seeks to provide a comprehensive understanding of the intricate dynamics involved. Ultimately, the findings of this study aim to inform educators, policymakers, and researchers about the optimal integration strategies for digital tools and platforms, offering insights into how they can be leveraged to enhance students' communicative abilities and, by extension, prepare them for the multifaceted challenges of the 21st-century global landscape.

Literature review. In the rapidly evolving landscape of education, the integration of digital tools and platforms has become a focal point in enhancing students' communicative abilities. This literature review aims to explore and synthesize existing research on the impact of digital tools and platforms on students' communication skills. The selected studies shed light on the effectiveness of integrating technology into educational settings, providing insights into the various tools used and their contributions to fostering better communicative abilities among students.

I. Digital Tools and Platforms in Education: Prensky examines the concept of digital natives and discusses how educators can leverage digital tools to engage students in meaningful ways, ultimately enhancing their communicative skills. Warschauer [5] investigates the impact of integrating laptops into the classroom environment, emphasizing the role of digital literacy in improving students' communication proficiency.

II. Social Media and Communication: This study explores how the use of Twitter in an educational context positively influences student engagement and, consequently, their communicative abilities. Ellison et al. [2] investigate the relationship between Facebook use and the development of social capital, emphasizing the role of online social platforms in improving students' communicative networks.

III. Multimedia and Multimodal Learning: Mayer [3] discusses the cognitive theory of multimedia learning, providing insights into how the integration of various digital media can enhance students' understanding and communication of complex concepts. Spires et al. [4] present a framework for effective technology integration, emphasizing the importance of considering multiple modalities to enhance communication skills in educational settings.

The integration of digital tools and platforms has proven to be instrumental in enhancing students' communicative abilities across various educational contexts. From fostering digital literacy to leveraging social media and embracing multimedia learning, the literature reviewed underscores the positive impact of technology on students' communication skills. As educators continue to navigate the digital landscape, these findings provide valuable insights into effective strategies for integrating technology in ways that promote meaningful communication and learning outcomes.

Methodology. The interpretation of communicative competence varies among numerous researchers and is generally comprised of language, linguistic, speech, cultural, and other competencies. While some researchers perceive these competencies as independent entities, not constituting part of communicative competence, others integrate their contents into the overall definition. This integration is evident in the definitions provided by researchers such as M.R. Lvov [8], R.S. Nemov [9] (refer to Table No. 1).

Table No. 1

Definitions of competencies.

Competencies	Definitions
Linguistic competence	Linguistic competence presupposes deep knowledge of general linguistics and speech theory, which given only by the philological faculty of the university. (M.R.Lvov)
	Linguistic abilities are manifested in knowledge of language and in the development of speech. In the latter case, one can distinguish and separately consider abilities related to oral and written speech, their monologue and dialogic forms Knowledge of a language presupposes knowledge of information related to vocabulary, grammar, morphology, stylistics and much more that relates to language. To develop linguistic abilities, you need to read a lot, communicate, compose oral and written texts, and public speaking. Only in case that Communicative competence Native language Uzbek language Foreign language student can master oral speech if he learns to understand others, evaluate their reactions to his own statements, accurately and concisely express his own experiences and thoughts. Note that for this it is necessary to learn to use not only speech as such, but also the so-called paralinguistic components of communication - facial expressions, gestures, pantomime.
	Formation of linguistic (linguistics) competence, which includes mastering knowledge about language as a social phenomenon and sign system, the structure and functioning of the Russian language, necessary information about Russian studies, mastering the skills and abilities of analyzing phenomena and facts of language, developing skills in assessing one’s activities obtained results, self-esteem, self-analysis.
Language competence	Linguistic competence, that is, knowledge of grammar, phonetics, vocabulary, and stylistics of the language being studied, can be achieved to some extent in secondary school. It is very important that it is not divorced from speech activity, but serves as its theoretical basis - through the analysis and synthesis of texts in the target language.
	The formation of language competence includes mastering the richness of the language itself, enriching the vocabulary and grammatical structure of students’ speech, mastering language norms, including spelling and punctuation.
Communicative competence	The formation of communicative competence involves mastering various types of speech activity in different spheres of communication on the basis of speech science knowledge, the formation of a student’s communicative culture.
Cultural competence	The formation of cultural competence involves awareness of language as a form of expression of national culture, the national and cultural specifics of the Russian language. The formation of cultural competence provides a body of knowledge about the material and spiritual culture of the Russian people, about their socio-cultural stereotypes of speech communication, units with a national-cultural component of meaning.

As the analysis of the definitions presented in the table shows, if competencies are defined separately, it turns out that the knowledge base comes to the fore. And this largely leads to a theoretical approach to teaching the native language.

A different perspective was presented by A.N. Shchukin [7], who posited that communicative competence is underpinned by a collection of abilities enabling active participation in verbal communication in both its productive and receptive facets. This form of competence draws upon various other competencies, encompassing linguistic (language), sociolinguistic (speech), discursive, strategic, social, sociocultural, subject, and professional competencies as integral components of communicative competence. We adopt A.N. Shchukin's delineations of linguistic (language), speech, and discursive competencies as constituents within the framework of communicative competence [7. pp. 217-222] (refer to Table No. 2).

Table No. 2

Composition of communicative competence

Communicative competence		
Linguistic (linguistic) competence	Speech competence	Discursive competence
It means a body of knowledge about the language system, the rules for the functioning of language units in speech, and the ability to use this system to understand other people’s thoughts and express one’s own judgments in oral and written speech.	It means knowledge of the methods of forming and formulating thoughts using language, providing the ability to organize and carry out speech action (realize communicative intention) and the ability to use such methods to understand the thoughts of other people and express one’s own judgments orally and in writing in various communication situations.	Refers to the learner's ability to use specific strategies to construct and interpret text.

Discussion. In our perspective, competencies such as linguistic, speech, discursive, and linguoculturological play a pivotal role in refining and specifying the overarching concept of communicative competence. The process of cultivating communicative competence in the teaching of the native language elucidates the distinct roles, connections, and significance of each component. Communicative competence, therefore, encompasses proficiency in the native language, the ability to think and communicate effectively in both oral and written forms of expression. Linguistic competence refers to students' capability to engage in cognitive activities utilizing acquired knowledge, including concepts, rules, and algorithms. Speech competence involves understanding the mechanisms for shaping thoughts in the native language and employing them in verbal expressions.

Discursive competence is evident in students' capacity to strategize the creation and interpretation of texts in their native language, while cultural competence entails grasping and comprehending discourse. Over the course of native language lessons, communicative competence gradually integrates into a key educational competency, defined as “knowledge of languages, methods of interacting with both immediate and distant individuals and events, skills in group and team collaboration, and mastery of various social roles” [10, P.247-248]. This signifies communicative competence at a meta-subject level, evolving in close correlation with universal communicative educational activities, where the native language holds a central position. Consequently, the academic subject "Native Language" should serve as the guiding element in this system. Thus, the communicative skills honed during native language lessons necessitate systematic expansion.

Conclusion. In summary, the integration of digital tools and platforms has proven to be a transformative and instrumental factor in enhancing students' communicative abilities. This research has shed light on the profound impact that technology can have on educational practices, particularly in the context of fostering effective communication skills among students. Moreover, the research underscores the role of digital tools in breaking down geographical barriers, facilitating collaborative learning experiences, and promoting real-time interaction. The asynchronous and synchronous nature of digital communication allows students to engage in discussions, share ideas, and receive timely feedback, contributing to the overall improvement of their communicative proficiency.

REFERENCES

1. Junco, R., Heiberger, G., & Loken, E. (2011). "The effect of Twitter on college student engagement and grades." Journal of Computer Assisted Learning, 27(2), 119-132.
2. Ellison, N. B., Steinfield, C., & Lampe, C. (2007). "The benefits of Facebook "friends": Social capital and college students' use of online social network sites." Journal of Computer-Mediated Communication, 12(4), 1143-1168.
3. Mayer, R. E. (2001). "Multimedia learning." Cambridge, UK: Cambridge University Press.
4. Spires, H. A., Lee, J. K., Turner, K. A., & Johnson, J. D. (2008). "Having Our Cake and Eating It, Too: Creating a Framework for Effective Technology Integration." AACE Journal, 16(2), 145–158.
5. Warschauer, M. (2006). "Laptops and literacy: Learning in the wireless classroom." New York, NY: Teachers College Press.
6. Prensky, M. (2008). "Teaching digital natives: Partnering for real learning." Thousand Oaks, CA: Corwin Press.
7. Shchukin A.N. Methods of teaching the Russian language as foreign language: textbook / A.N. Shchukin. M.: Flinta, Nauka, 2018. 508 p.
8. Lvov, M.R. Fundamentals of speech theory / M.R. Lviv. –M. : Academia, 2000. 245 p.
9. Nemov, R.S. Practical psychology / R.S. Nemov. – M.: Vlados, 1997. – 320 p.
10. Khutorskoy, A.V. Pedagogy / A.V. Khutorskoy. St. Petersburg: Peter, 2019. 608 p.
11. Vasilyeva, N.N. About the model of formation of meta-subjects
12. communication skills of children in their native language // School of the Future. 2013, no. 6. pp. 187-193.
13. Sarsenbaeva Z. CROSS-CULTURAL INTERPRETATION OF SYMBOLS IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 146-149.
14. Sarsenbaeva Z. J. Pedagogical possibilities for improving linguocultural competence by means of studying proverbs //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости, 2021. – №. 5-2. – С. 22-24.
15. Sarsenbaeva Z. COMPARING LINGUISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK NON-REALISTIC WORKS //Молодые ученые. – 2023. – Т. 1. – №. 15. – С. 32-34.
16. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Sprachliche analyse von sprichworten. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences.
17. Сарсенбаева З. и др. Expression of proverbs in the present indefinite tense with translations in Karakalpak and Russian languages //Молодой ученый. – 2018. – №. 18. – С. 471-473.
18. https://library.ziyonet.uz/ru

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:159.9.078

Matluba KHOLNAZAROVA,
Professor of Gulistan State University
E-mail: matluba@mail.ru
Dilorom KHUDAIBERDIEVA,
Doctoral student of Gulistan State University
E-mail: diloromh@mail.ru

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori B.Norbekova taqrizi asosida

IDENTIFYING OBSESSIVE – COMPULSIVE DISORDER AMONG OTHER PSYCHOLOGICAL DISORDERS

Annotation

In this article is observed how to recognize obsessive compulsive disorder among other psychological disorders which can be easily confused with.

Key words: Obsessive-compulsive disorder, behavior, mental, neurosis, compulsion, symptoms.

ВЫЯВЛЕНИЕ ОБСЕССИВНО-КОМПУЛЬСИВНОГО РАССТРОЙСТВА СРЕДИ ДРУГИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ

Аннотация

В данной статье рассматривается, как распознать обсессивно-компульсивное расстройство среди других психологических расстройств, с которыми легко спутать.

Ключевые слова: Обсессивно-компульсивное расстройство, поведение, психика, невроз, навязчивость, симптомы.

PSIXOLOGIK BUZILISHLAR ORASIDA OBSESSIV-KOMPULSİV BUZILISHNI ANGILASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada osongina chalkashib ketishi mumkin bo‘lgan boshqa psixologik kasalliklar qatorida obsesif-kompulsiv buzuqlikni qanday aniqlash mumkinligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Obsesif-kompulsiv buzuqlik, xatti-harakatlar, aqliy, nevroz, majburlash, alomatlar.

Introduction. Psychology is a young field compared to other sciences. Initially, it was developed as a department within other disciplines, and now it is developing rapidly. Mental health of people has never been such an urgent and priority task for the whole world. In recent years, climate change, the COVID-19 pandemic, the emergence of new diseases caused by various factors have directly or indirectly is having an effect the human psyche. The state of mental health around the world is alarming. Even before the pandemic, nearly one billion people suffered from a diagnosed mental illness, 82% of whom lived in low- or middle-income countries (LMICs), and people with severe mental illness died 10 to 20 years earlier than the general population. Then the COVID 19 pandemic undermined the mental health and well-being of many people with and without such problems, exacerbating systemic gaps in health care and socioeconomic inequality. As a result of the pandemic, the prevalence of depression and anxiety worldwide is estimated to have increased by 25 to 27 percent.

Although scientists have made progress in understanding the causes and treatments of mental illness over the past 20 years, there has been little progress in improving the coverage and quality of services.

Obsessive Compulsive Disorder is a common and debilitating anxiety disorder in which a person experiences obsessive thoughts and compulsive behaviors. For the approximately 2% of the world's population with obsessive-compulsive disorder, daily tasks can become increasingly difficult, and their disorder can interfere with all aspects of their lives, particularly those that are most valued by the sufferer.

It would seem that excessive attentiveness is wonderful. However, the disease differs from the normal state in that it interferes with everyday life and work; a person cannot concentrate on ordinary activities or get annoying thoughts out of his head. Therefore, sooner or later, such patients turn to doctors for help, either themselves, or they are brought by relatives.

Specialists have been looking for the cause of this condition for a long time. In the Middle Ages it was even believed that such people were possessed by a demon (however, the same was thought about a number of other diseases). Later it turned out that this is a form of neurosis. And Z. Freud even considered obsessive – compulsive disorder to be a manifestation of hidden sexual problems.

The basis of obsessive – compulsive disorder is a predisposition to develop anxiety. Predicates of the disease are increased anxiety, aggressiveness in children, anxious-suspicious, anancastic accentuation of the character of adolescents. The trigger mechanism is family dysfunction, strict rules, and excessive, impossible demands on the child. Education cultivates moral responsibility; the main values are adherence to duty and ignoring bodily and emotional needs. As a result of the suppressed conflict between needs and internal attitudes, obsessive thoughts arise and anxiety increases. Emotional tension is reduced by performing obsessive actions that bring short-term relief.

Research methodology.

Obsessive fears or phobias have many varieties, each of which has its own name:

cancerophobia – fear of getting cancer;
claustrophobia – closed space;
agoraphobia – open areas;
thanatophobia – death;
arachnophobia – spiders;
nosophobia – infections.

Fear is irrational in nature; no beliefs, arguments or evidence have any effect on the patient. To protect against imaginary danger, the patient creates his own rituals or repetitive actions, which he performs in strict sequence.

A classic example of obsessive-compulsive disorder: a patient with nosophobia cannot touch anything before washing his hands three times with hot water and soap. For some patients, the fear of infection is so strong that it forces them to wash the floors several times a day with an undiluted disinfectant solution. The fact that there is nothing to breathe in the room and the skin on the hands is cracking until it bleeds does not matter to the patient. In such an advanced case, we are no longer talking about any social adaptation; the patient simply cannot leave the house to get to work or to the store.

In preschool age, obsessive-compulsive disorder does not have a clear classification; the predominance of phobias, movements or actions is determined. Obsession neurosis in schoolchildren has the following forms:

Phobic neurosis. The central place is occupied by phobias - formalized fears. Typical for ages 5-7 years.

Compulsive neurosis. Manifested by obsessive actions. Peak incidence is 6-8 years.

Obsessive neurosis. Obsessive, repetitive thoughts - concepts, ideas - predominate. This form is typical for teenagers.

There are many factors that influence the development of obsessive – compulsive disorder.

Genes – obsessive – compulsive disorder is a complex disorder. Research has shown that there are various genetic risk factors that influence the development of obsessive – compulsive disorder. Relatives of people with obsessive – compulsive disorder are more predisposed to this disease.

Stress – Stressful life events can trigger this condition in about a third to two-thirds of cases.

Life changes are times when a person has to take on more responsibility: during puberty, the birth of a child, or a new job.



Picture 1. Cycle of obsessive compulsive disorder

Brain changes - We don't know if this is a cause or effect of obsessive – compulsive disorder, but if symptoms persist for a long time, researchers believe there may be changes in the way the chemical serotonin (also known as 5HT) works in the brain.

Personality – If you are a neat, meticulous, methodical person with high standards, then you may be more prone to developing obsessive – compulsive disorder. These traits are usually helpful, but they can turn into obsessive – compulsive disorder if they become too strong.

Analysis and results

Ways of thinking - almost all of us have strange or disturbing thoughts or images in our heads from time to time - "what if I run out in front of this car?" or “I may harm my child.” Most people quickly discard these thoughts and move on with their lives. But if you have extremely high standards of morality and responsibility, you may feel especially bad when experiencing such unpleasant thoughts. To the point where you will start to be wary and keep a close eye on them, which will make their appearance even more likely.

There is a classification of obsessive-compulsive disorder in children according to the characteristics of its course. There is a single appearance of symptoms, which subsequently persists for weeks, months or years; relapsing form with periods of complete recovery; continuous course with periodic intensification of symptoms.

The child cannot change them; he tries to ignore, suppress, and replace them with concentration on actions. Obsessions about pollution, disasters, accidents, symmetry, and religious ideas are common. Disturbing thoughts contribute to an increase in anxiety; to eliminate it, the patient performs certain actions - compulsions. They can be external (counting objects, closing and opening a door), internal (counting, repeating a prayer). Sometimes compulsions arise due to a spontaneous, vague feeling of anxiety, discomfort (without obsession).

Among the most common types of obsessive-compulsive disorders are excessive anxiety about the location of things. It is compensated by arranging school supplies, books, and clothes according to a certain system. The child is committed to the principle of symmetry, increasing size, increasing color intensity. Anxiety is often associated with possible accidents. To reduce it, patients with obsessive-compulsive disorder perform rituals several times in a row designed to ensure safety (rechecking the switched off stove, iron, closed window), actions that “work” as signs (“I’ll look in the mirror three times - everything will be fine”). The fear of getting a bad grade forces the child to recheck the completed assignment many times. Concern about infection and contamination is manifested by frequent hand washing, rinsing the mouth, and using disinfectant wipes.

Anxious thoughts are not voiced by the patient, are frightening, and are recognized as incorrect. Silence remains, there is a fear of being judged, being declared sick. Complex stable ideas are transformed into phobias. Children also try to hide repetitive actions from adults; the reason for visiting a doctor is often secondary symptoms of obsessive-compulsive disorder - anxiety, depression, isolation, and decreased school performance.

Obsessive-compulsive disorder in children is diagnosed by a specialist. The main research method is a clinical conversation with a parent and child. The doctor clarifies the onset of obsessions, their nature, and frequency. Uses questioning and observation to assess emotional state. If necessary, a clinical psychologist conducts testing, the purpose of which is to identify tension, anxiety, depression, anancastic, anxious and suspicious personality traits. The specialist uses projective techniques - drawing tests, methods of interpreting figurative material. The personal sphere of adolescents is studied using the pathocharacterological diagnostic questionnaire (PDC).

A differential diagnosis of obsessive-compulsive disorder with diseases and conditions with similar manifestations is required. These include:

Common childhood rituals. Bedtime rituals, following the rules of the game or agreements between children, collecting, and imitation of idols are taken as obsessions. Normal rituals change as we grow older and contribute to development, adaptation, and socialization.

Primary depression. obsessive-compulsive disorder and depression can develop in parallel. Primary is the disease whose symptoms appeared earlier. With simultaneous onset, depressive disorder is considered primary.

Emotional disorders. Obsessive-compulsive disorder often occurs with phobias and panic attacks. Based on the severity of symptoms, the underlying and concomitant diseases are diagnosed.

Autism spectrum disorders (ASD) are manifested by rituals and repetitive actions. Violations of social interaction, communication, and intelligence are also identified.

Schizophrenia. Among the symptoms of pathology are repetitive rituals, actions, and dominant ideas. They are imposed (not intrusive). They are expressed by delusions, vocal hallucinations, orders to do something.

Anorexia nervosa. There are thoughts and ideas about nutrition, actions are aimed at avoiding food and dirt. In obsessive-compulsive disorder, a realistic body image is maintained. It is possible to make two diagnoses at the same time.

Tourette’s syndrome. The disease manifests itself in tics, but the basis of their origin is different than in the development of obsessive-compulsive disorder.

Here are some things one can do help himself that have helped other people with obsessive – compulsive disorder.

Person should remember it is not his fault and he is not “going crazy.”

He should think about his anxious thoughts more often. It sounds strange, but this will help you him them better. He can record them - on a tape recorder or on paper, and then listen or re-read them. He should do this regularly, for about half an hour every day, until his anxiety decreases.

Try to resist compulsive behavior, but not compulsive thoughts.

One should not use alcohol or street drugs to combat anxiety.

Conclusions. Obsessive-compulsive disorder is characterized by persistence. Without the help of specialists, children develop social maladjustment. Medication and psychotherapeutic assistance slow down the progression of the disease and, in some cases, lead to complete recovery. Improvement in well-being is not a reason to refuse treatment on your own, since there is a high risk of relapse. In the prevention of obsessive-compulsive disorder, the main role is played by the harmony of family relationships. Parents need to create conditions that prevent the development of anxiety: avoid quarrels and scandals, use cooperation and agreements as an educational tool, support the child, refuse criticism and inflated demands.

REFERENCES

1. History . Obsessive-Compulsive and Related Disorders. Stanford School of Medicine.
2. Nardone Giorgio, Portelli Claudette. Obsessive-compulsive disorder: understanding and overcome. Short-term strategic therapy. lane from Italian E. Pervysheva, with with the participation of P. Sinitsa. – M: 1000Bestsellers, 2020. – 168 pp.
3. Вег Аллен. Услышать и остановиться. Терапевтические истории для лечения обсессивно-компульсивного расстройства. - СПб: Питер, 2020. – 208 стр
4. Разуваев В.Ю., Манухин М.М. Обмани свой мозг. Обсессивно-компульсивное расстройство - М.: 1000 Бестселлеров, 2020. - 206 с.
5. Khudaiberdieva Dilorom Khaidar qizi, How does obsessive -compulsive disorder manifest itself? science and innovation international scientific journal volume 2 issue 4 APRIL 2023
6. Khudaiberdieva Dilorom Khaidar kizi, How obsessive compulsive disorder effects on daily life. Republican scientific and practical conference 30-may 2023
7. Khudaiberdieva Dilorom Khaidar kizi What is obsessive – compulsive disorder? science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023
8. Khudaiberdieva Dilorom Khaidar kizi, Obsessive compulsive disorder history and factors.
9. https://academics.uz/index.php/conference/article/view/2226
10. https://ru.wikipedia.org/wiki/Обсессивно-коммпульсивное расстройство

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 810.100

Nuriddin CHULLIYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: abdirashiduglinuriddin@gmail.com

O‘zMU dotsenti, (PhD) X.Sarimsoqov taqrizi asosida

IMPROVING THE LANGUAGE LITERACY ABILITIES OF CHILDREN WITH PARTICULAR LEARNING CHALLENGES: A REVIEW OF TECHNOLOGY UTILIZATION AND THE IMPLEMENTATION OF CREATIVE TEACHING APPROACHES

Annotation

The development of linguistic literacy has been one of the primary goals of the educational process. However, because of struggle with reading and then with written speech, individuals with Specific Learning Difficulties (SLD) typically cannot keep up with the rest of the class. The purpose of this study is to provide a concise overview of the research on instructional methods, software, and applications that can improve the fundamental abilities and skills that are closely related to students with SLD language literacy.

Key words: visual processing abnormalities, curriculum customization, Specific Learning Difficulties, language literacy, new technologies, training programs, cognitive goal

УЛУЧШЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ТРУДНОСТЯМИ В ОБУЧЕНИИ: ОБЗОР ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ И РЕАЛИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ОБУЧЕНИЮ

Аннотация

Развитие языковой грамотности стало одной из первоочередных задач образовательного процесса. Однако из-за проблем с чтением, а затем и с письменной речью, люди со Специфическими Трудностями в Обучении (СТО), как правило, не успевают за остальными учениками класса. Цель этого исследования — предоставить краткий обзор исследований методов обучения, программного обеспечения и приложений, которые могут улучшить фундаментальные способности и навыки, тесно связанные с учащимися с языковой грамотностью СТО.

Ключевые слова: нарушения визуальной обработки, адаптация учебной программы, особые трудности обучения, языковая грамотность, новые технологии, учебные программы, когнитивная цель.

TIL O‘RGANISHDA MUAYYAN QIYINCHILIKLARGA DUCH KELGAN BOLALARNING SAVODXONLIGINI OSHIRISH: TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH VA TA’LIMGA IJODIY YONDASHUVLARNI TADBIQ QILISH

Annotatsiya

Til savodxonligini rivojlantirish ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Biroq, o‘qish va yozish bilan bog‘liq qiyinchiliklar tufayli, maxsus o‘rganish qiyinchiliklari (MO‘Q) bo‘lgan til o‘rganuvchilar sinfning qolgan qismidan ortda qolishadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi MO‘Q tilini biladigan talabalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan fundamental qobiliyat va ko‘nikmalarni yaxshilashi mumkin bo‘lgan o‘qitish usullari, dasturiy ishlanma va ilovalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berishdir.

Kalit so‘zlar: vizual ishlov berishning buzilishi, o‘quv dasturiga moslashish, o‘rganishning o‘ziga xos kamchiliklari, til savodxonligi, yangi texnologiyalar, o‘quv dasturi, kognitiv maqsad.

Introduction. Experts define "literacy" as the ability to read, write, and comprehend a variety of written discourses, as well as the capacity to produce a wide range of spoken expressions, comprehend and negotiate the meaning of messages within their social context, and generally exert control over one’s life and surroundings through written discourse (Hatzisavvidis, 2010). Therefore, the goal of language literacy is to communicate and develop language abilities while also understanding and producing written and spoken language (Matsagouras, 2007).

However, students who have specific learning disabilities typically fall below the class level when they struggle, first with reading and then with writing. Different educational approaches are needed depending on whether a student is struggling with visual or auditory processing abnormalities. Reading challenges can stem from a variety of deficits that pupils may exhibit. Writing problems typically accompany reading problems, and these problems might manifest as errors in writing, including letter reversals, letter confusion, letter additions or deletions, etc. Different levels of curriculum customization can be made to create an educational environment that meets the needs of various youngsters. For instance, it is possible to adapt lesson plans, instructional techniques, and—most importantly—the introduction of new technology to better meet the unique needs of students with SLDs. Teachers can use technology to help students with SLD receive the much-needed personalization of learning activities, quick feedback, and methodical and ongoing practice (Pozzi, 2011).

Numerous studies have demonstrated the advantages of computer use in general education. To close a gap in the existing literature and encourage more research, the main objectives of this brief review are to examine the beneficial effects of technology on the language literacy skills of children with SLD.

The usage of technology for the improvement of the language literacy of children with learning difficulties.

Technology use can support the proper curriculum adaptation since it can be used to address many of the fundamental learning challenges that students face, such as attention and perception issues, by meeting their needs for

exercises that are personalized, immediate feedback, or methodical completion.

Educational programs, games, simulations, writing programs, problem-solving programs, and strategy teaching programs are examples of educational technology programs (Panteliadou & Argyropoulos, 2011). In addition, technology can help with the regular gathering and documentation of data from curriculum-based assessments and instruction. Furthermore, it can facilitate the implementation of innovative teaching strategies across a range of subject areas (Dawson, Heathcote & Poole, 2010).

According to research, using interactive e-storybooks of the highest caliber can help develop emergent literacy by providing scaffolding, which in turn can help with vocabulary growth, story comprehension, and engagement (Moody, 2010). E-novels or electronic books are described as an electronic version of a book that has features like "turning" pages and digital features that can help the reader, like text highlighting, word pronunciations, text-to-speech options, and hypermedia (e.g., video, animations, and sound) (Adam & Wild, 1997; Horney & Anderson Inman, 1999; Korat & Shamir, 2004).

More precisely, students with reading disabilities or those just starting to learn to read frequently use e-storybooks (Zucker, Moody, & McKenna, 2009). They can remove, detach, or store their content for later use (Vassiliou & Rowley, 2008). Simultaneously, certain modifications like altering the font or type size and screen brightness facilitate and expedite reading. The ebook's features, according to Tzivinikou (2015), make it more practical to create more spherical courses, and it is one of the adaptations and differentiations suggested for students with special educational needs.

Learning methodical typing is especially beneficial for students who struggle with written speech because of motor issues. Mponti (2013) asserts that typing texts or sentences on a computer aid in the development of every component that goes into a written discourse, including phonological competence and reading comprehension, both of which are linked to writing and spelling. This is because a word is first examined by the computer for letter-to-letter correspondence, tone, word spacing, spelling, and grammatical and editorial accuracy before it is recorded. Additionally, it is beneficial to employ play-based learning or exercise-based training programs that encourage these kids to practice and get better at spelling.

Moreover, it is useful to use training programs through play or through exercises that can motivate these children to practice and improve their spelling. In fact, through typing, students see the word, listen to it, and then write it; on the one hand, they learn exemplary finger movements that help them remember the correct spelling, and on the other hand, they are being helped to connect the sound with the graph, improving the phonological competence of the students (Hasselbring & Candyce, 2000; Kumar, Paek & Lee, 2012).

Applications for language learning are available that include a virtual tutor for speech training and language acquisition. Given the widespread use of computers and embodied conversational agents, there are many obvious benefits to using a computer-animated agent as a language tutor. For people with special needs, computer-based instruction is becoming a popular way to train and expand vocabulary (Massaro, 2004).

Additionally, computer programs that read the texts and guide the reader by highlighting each letter or word spoken on the screen can help to connect sounds and graphs. Problems involving reading decoding may benefit from this approach (Kumar, Paek & Lee, 2012). Simultaneously, certain programs enable users to click on an unfamiliar word to listen to its definition or synonym, thereby expanding and enhancing their vocabulary. The fact that these programs provide students with an incentive to read and teach the reading process in small steps is, nevertheless, their most crucial component (Kumar, Paek & Lee, 2012).

Using concept maps and visual aids in the classroom as useful tools for the enhancement of the student’s literacy abilities.

In addition, by providing students with direct access to vocabulary or concept explanations along with other helpful information, the use of visual aids, graphemes, and concept maps improves their comprehension and strategic thinking (Castellani & Jeffs, 2001). Concept maps are made to help teachers and students identify the main concepts on which they should concentrate and steer clear of any distraction-causing stimuli (Zaid, 2011). By using the conceptual map as a metacognitive tool, students can enhance their written speech production skills and benefit greatly from this method, especially those who struggle with attention (Novak, 2010).

More precisely, the concept map is a useful tool for helping students organize their ideas in the prewriting phase and for taking notes during a lesson. The first writing stage of a text is called planning, and it improves the student's capacity for mental labor and helps her write at her best when the time comes. Additionally, for students with learning disabilities, using the Internet encourages the development of a social reference framework (Stanford & Siders, 2001). Online videos facilitate connectivity, effectiveness, engagement, and adaptability in education by enlisting educators and students in activities that foster the development of communication abilities and the dissemination of concepts and data intended to address a range of needs. Furthermore, it is considered to be one of the most effective educational tools that uses sound, image, and multimodal text to promote and alter pedagogical practices while facilitating access to learning (Cruse, 2007).

The use of Internet video in the classroom eliminates access time to learning resources and frees teaching and learning from the physical confines of the classroom. Along with achieving fundamental and qualitative changes like learning and teaching in a wide range of subjects, it also broadens children's experiences.

Conclusion. Using SLD skills can significantly improve the type and format of knowledge that is

given to individuals with learning disabilities. Furthermore, by using them, Special Education becomes more integrated into society, contemporary teaching methods, and pedagogical research. Numerous studies that highlight the primarily beneficial outcomes of using technology in general and special education to meet particular cognitive, social, and emotional goals are included in the current bibliography.

LITERATURE

1. Adam, N. & Wild, M. (1997) Applying CD-ROM interactive storybooks to learning to read. *Journal of Computer Assisted Learning*, Vol. 13, p. 119-132. Castellani, J. & Jeffs, T. (2001)
2. Cruse, E. (2007). Using educational video in the classroom: Theory, research, and practice. Wynnewood, PA: *Library Video Company*
3. Dawson, S., Heathcote, L., & Poole, G. (2010) "Harnessing ICT potential: The adoption and analysis of ICT systems for enhancing the student learning experience", *International Journal of Educational Management*, Vol. 24 Iss: 2, pp.116 – 128

4. Hasselbring, T., & Candyce H. Williams Glaser. (2000). Use of Computer Technology to Help Students with Special Needs.
5. *The Future of Children*, *10*(2), 102-122. doi:10.2307/1602691
6. Hatzisavvidis, S. (2010). *Grammar of New Greek Language. Theoretical bases and description.* Thessaloniki: Vanias. Horney, M. A., & Anderson-Inman, L. (1999). Supported texts in electronic reading environments. *Reading & Writing Quarterly*, 15, 127-168.
7. Korat, O. & Shamir, A. (2004). Do Hebrew electronic books differ from Dutch electronic books? A replication of a Dutch content analysis. *Journal of Computer Assisted Learning*, 20, 257- 268.
8. Kumar, A., Paek, T., & Lee, B. (2012). Voice typing: a new speech interaction model for dictation on touchscreen devices. In *Proceedings of the SIGCHI Conference on Human Factors in Computing Systems* (CHI '12). ACM, New York, NY, USA, 2277-2286. DOI: http://dx.doi.org/10.1145/2207676.2208386
9. Massaro, D. W. (2004). Symbiotic Value of an Embodied Agent in Language Learning. In R.H. Sprague, Jr.(Ed.), *Proceedings of 37th Annual Hawaii International Conference on System Sciences*,(HICCS'04) (CD-ROM,10 pages). Los Alamitos, CA: IEEE Computer Society Press. Best paper in Emerging Technologies
10. Matsagouras, E. (2007). *School literacy*, Athens: Gregoris
11. Moody, A. (2010). Using Electronic Books in the Classroom to Enhance Emergent Literacy Skills in Young Children, *Journal of Literacy and Technology*, 22 (11), 4.
12. Mponti, E. (2013). *Special learning difficulties: an alternative approach for everyone.* Thessaloniki: Methexis.
13. Novak J. D. (2010). Learning, Creating and Using Knowledge: Concept maps as facilitative tools and Corporations, *Journal*
14. *of e-learning and Knowledge Society*, Vol. 6, p. 3, September 2010, pp. 21-30.
15. Panteliadou, S. & Argyropoulos, B. (Eds). (2011). *Special Education: from research to teaching.* Athens: Pedio.
16. Pozzi, F. (2011). The impact of scripted roles on online collaborative learning processes. *Computer-Supported Collaborative Learning*, 6(3), p.471-474. Stanford, P., & Siders, J. A. (2001). Authentic assessment of intervention. *Intervention in School and Clinic*, 36(3), 163-167.
17. Tzivinikou, S. (2015). *Learning difficulties – teaching interventions*. Athens: Kallipos
18. Walker, E., Rummel, N. & Koedinger, R. (2011). Designing automated support to improve student-helping behaviors in a peer tutoring activity. *Computer-Supported Collaborative Learning.* doi:10.1007/s11412-011-9111- 2.
19. Zaid, M. A. (2011). Effects of web-based pre-writing activities on college EFL students’ writing performance and their writing apprehension. *Journal of King Saud University- Languages and Transition, 23 (2)*, pp. 77-85.
20. Zucker, T., Moody, A., & McKenna, M. (2009). The Effects of Electronic Books on PreKindergarten-to-Grade 5 Students' Literacy and Language Outcomes: A Research Synthesis. *Journal of Educational Computing Research*, 40, 47-87.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.8:681.142.

Fazliddin SHAMSUTDINOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:fazliddinshamsutdinov07@ gmail.com

Qarshi davlat universiteti, Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD) T.N.Jurayev taqrizi ostida

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE COMPETENCE OF FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS IN SOFTWARE DESIGN

Annotation

The article studies the methodological aspects of developing knowledge and programming skills among future computer science teachers. It is known that the need to constantly search for methods and solutions to the problem of software design is the basis for consolidating students' practical experience in using information, receiving it, transmitting it and storing it in order to increase the effectiveness of learning.

Key words: information, continuing education, knowledge, program, algorithm, design, competence.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ ПО ПРОЕКТИРОВАНИЮ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В статье изучаются методические аспекты формирования знаний и навыков программирования у будущих учителей информатики. Известно, что необходимость постоянного поиска методов и решений проблемы проектирования программных средств является основой закрепления практического опыта студентов по использованию информации, ее получению, передаче и хранению в целях повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: информация, непрерывное образование, знания, программа, алгоритм, проектирование, компетентность.

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING DASTURIY VOSITALARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturlashga oid bilim va ko‘nikmalarini shakillanishining metodik jihatlari o‘rganilgan. Ma’lumki, dasturiy vositalarni loyihalash muammosini o‘rganish usullari va echimlarini doimiy izlash zarurati, informatika ta’lim samaradorligini oshirishda axborotdan foydalanish va uni olish, uzatish, saqlashda talabalarning amaliy tajribalarini mustahkamlanishiga asos bo‘ladi.

Kalit sozlar: axborot, uzluksiz ta’lim, bilim, dastur, algoritm, liyihalash, kompetentlik.

Kirish. Bugungi kunda uzluksiz ta’limni rivojlantirish haqidagi zamonaviy g‘oyalar, turli xil texnologiyalar sonining ko‘payishi va murakkabligi, albatta, inson faoliyati bilan bog‘liq. Mamlakatimizning ilmiy-texnik taraqqiyoti zarurati davlat darajasida ko‘tarilganligi, fan va texnikani rivojlanishi va samaradorligi bo‘lajak o‘qituvchlarning kasbiy tayyorgarligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shiningdek, ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari qatorida raqamli texnologiyalarga o‘tish bilan bog‘liq sohalar ko‘lami oshib bormoqda, intellektual texnologiyalar, robot tizimlari, yangi innovatsion rivojlanishning asosida ta’lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti strategiyasini amalga oshirish muvaffaqiyati tadqiqot va ishlanmalardagi ustunlik, yangi bilimlarni rivojlantirishning yuqori sur’ati va innovatsion mahsulotlarni yaratish bilan belgilanadi. Bu rivojlanish masalasiga zamonaviy iqtisodiyotning ilmiy-texnik sohasidagi yangi mutaxassislar, shuningdek yashash va ishlashga tayyor barcha shaxslarni tizimli asosda tayyorlashga kerak bo‘lgan ta’limga katta e’tibor berilganligi bilan izohlanadi.

Albatda, rivojlanayotgan jamiyatda bu muammolarni hal qilishning asosiy omillaridan biri, malakali o‘qituvchini tayyorlash, fan va texnologiya bilan bog‘liq ta’lim dasturlarini joriy qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchilar ta’limi muammolari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasasida o‘qitishning dastlabki bosqichlarida o‘qituvchilarni tayyorlashda tushuntirish va illyustrativ o‘qitish usullari ustunlik qiladi, bu esa talabalarning mustaqil samarali aqliy qobiliyatini rivojlantirishga ta’siri kam bo‘ladi. Bundan tashqari, bo‘lajak informatika o‘qituvchilariga dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish metodik tizimini retrospektiv tahlil qilish shuni aniqlashga imkon berdi: ko‘pchilik tadqiqotchilar dasturiy vositalar informatika o‘qitishning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida qayd etishlariga qaramas-dan bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish bosqichida samarali fikrlashni rivojlantirish muammosini hal qilishda dasturiy vositalarni loyihalash muammoligicha qolmoqda.

Bu holatlar shuni ko‘rsatmoqdaki, dasturiy vositalarni loyihalash muammosini o‘rganish usullari va echimlarini doimiy izlash zarurati, informatika ta’lim samaradorligini oshirishda axborotdan foydalanish va uni olish, uzatish, saqlashda talabalarning amaliy tajribalarini mustahkam-lanishiga asos bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish muammosi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda informatikaga oid fanlar va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlashga bag‘ishlangan ishlar U.Sh.Begimqulov [1], M.H.Lutfillaev [2], S.A.Beshenkov [3], B.B.Grinshkun [4], N.Yu.Kulikova [5], M.P.Lapchik [6], E.S.Polat [7], I.V.Robert [8] va boshqalar tadqiqotida keltirilgan. Biroq sanab o‘tilgan ishlarga kadrlar tayyorlashda oliy ta’limning ta’lim standartlarining o‘ziga xos

xususiyatlariga: modulli o‘quv jarayonini tashkil etish, kredit birliklarini joriy etish; talabalar tomonidan ta’lim kompetensiyalari natijalarini qo‘llashda o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini sub’ektiv baholash; o‘quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘rganishga yetarlicha e’tibor berilmagan.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchini tayyorlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri dasturlash va algoritmlar asosini egallash, uni o‘rganish N.N.Zapipov [9] U.M.Mirsanov [10] N.Yu.Kulikova [11], D.R.Djurayeva [12], T.N.Kopisheva [13], M.I.Ragulina [14] va boshqalar ishlarida keltirilgan. Ularning fikricha algoritmik va mantiqiy tafakkurning turlarini shakllantirish, axborotni qayta ishlash, dasturlash metodologiyasi, tanlashning aniq muammolarini hal qilish ko‘nikmalarini rivojlanishini, mehnat xarajatlarini minimallashtirishga olib keladigan va muammoning optimal yechimini aniqlashga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida dasturlash sohasida kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari T.N.Kopisheva, Yu.V.Grigorev[12] , K.S.Abdiyev[15], A.G.Krillov[16] va boshqalar tadqiqotida ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kompetentsiya tushunchasi hozirgi oliy ta’lim standartlari faoliyatning asosida mujasamlashgan. Ularda kompetentsiya bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar va ta’lim dasturlarini ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyati sifatida aniqlangan bo‘lsa, o‘zlashtirish natijalariga qo‘yiladigan talablar kompetensiyalar tuzilmasi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchilik kasbiga nisbatan bu tuzilma uchta darajani o‘z ichiga oladi - asosiy, bazaviy va maxsus, yaniy ular butunligicha o‘qituvchining kasbiy kompitentlik qobiliyatini tavsiflaydi, hamda yuzaga keladigan kasbiy muammolarni va vazifalarni hal qilish, bo‘lajak pedagogik faoliyatning ajralmas xususiyat sifatida real vaziyatlarlarda bilim, malaka va hayotiy tajribalarda foydalanishda aniqlanadi.

Shu bilan birga, kasbiy kompetentsiyada bo‘lajak o‘qituvchining tayyorligi uchun etarli bo‘lgan bilim, ko‘nikma, shaxsiy munosabat va tajriba darajasini aks ettiradigan faoliyat mutaxassisning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining ajralmas xususiyatidir. Bu o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi tarkibidagi yaxlit ta’limdir; o‘qituvchining tayyorgarligi ko‘plab kompetentsiyalarning individual komponentlariga tayanadi[3].

Hozirda vaqtda o‘qitishda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanilmaydigan fanni nomlashning iloji yo‘q. Bundan tashqari, ushbu manbalarning aksariyati doimo ishlatilgan va hozirda kompyuter fanida qo‘llaniladi. Bu fanning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uni o‘qitishda o‘rganilayotgan informatika vositalari ham, raqamli ta’lim resurslari ham bir vaqtda qo‘llanilib, o‘rganish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bo‘lajak o‘quvchilariga o‘quv dasturining asosiy fanlarini yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda samarali o‘rgatish, shuningdek, talabalarni zamonaviy informatika fanining murakkab olami bilan tanishtirishga qodir bo‘lgan mutaxassislar maxsus tayyorlanishi kerak. Bu mutaxassislar dasturlash vositalarini loyihalashni, o‘qitishning metodik usullarini yaxshi bilishlari, axborot texnologiyalari sohasida etakchi mutaxassislar bo‘lishlari kerak.

Shuningdek, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturlash vositalari bo‘yicha o‘quv materiallarini loyihalash bo‘yicha pedagogik kompetentsiyani samarali rivojlantirish quyidagi hollarda ta’minlanadi: kompyuterda o‘quv materiallarini loyihalashda kasbiy-pedagogik kompetentsiyani rivojlantirish, jumladan maqsadli, mazmunli va protsessual komponentlarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqiladi; informatika fanidan o‘quv materiallarini pedagogik loyihalash to‘g‘risidagi bilimlar tizimi shaklida pedagogik kompetentsiyani rivojlantirish metodikasi mazmunini taqdim etish; informatika faniga ixtisoslashgan model ishlab chiqish, shu jumladan motivatsion-maqsadli, mazmun-texnologik va ish faoliyatini baholash komponentlari; bo‘lajak informatika o‘qituvchilari ehtiyojlariga maksimal darajada moslashtirilgan informatika fanidan o‘quv materiallarini mustaqil loyihalashga tayyorligini rivojlantirishga qaratilgan malaka va malakaga asoslangan vazifalar tizimi yaratilsa.

Tahlil va natijalar. O‘rganilgan manbalar va izlanishlar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish, pedagogikaning me’yoriy maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq kompetentsiya ijtimoiy o‘zgaruvchan kontekstda ijodiy, o‘zini-o‘zi anglash imkoniyatini ta’minlash, ta’lim va kasbiy faoliyat metodiga ega bo‘lishi kerak.

Malumki, pedagogik kompetensiyali “Informatika” ixtisosligi bo‘lgan o‘qituvchilari o‘z tarkibida quyidagi tarkibiy qismlarni birlashtirgan murakkab xususiyatli mutaxassisdir:

1. Asosiy kompetensiyalar qobiliyat bilan izlash, tanlash va turli manbalardan olingan ma’lum bir mavzu bo‘yicha axborotlarni tizimlashtirishga bog‘liqdir.

2. Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining asosiy kompetentsiyalari pedagog faoliyatining o‘ziga xosligini ya’ni soha bo‘yicha boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodlari haqidagi bilimlarni aks ettiradi.

3. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentsiyalari - informatika fanning o‘ziga xosligini aks ettiradi. Maxsus kompetentlikni aniq yo‘nalishda kasbiy faoliyatni amalga oshirishdagi informatika sohasidagi kompetensiyalar deb hisoblash mumkin.

Sanab otilgan informatika o‘qituvchisining barcha nomli komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, informatika faniga ixtisoslashgan modeli murakkab tuzilmani tashkil etadi (1-rasm), uning shaxsiy va faol xususiyatlarini aniqlaydi, chunki kompetentsiya faqat kasblar faoliyatning bir qismi sifatida va faqat muayyan doirada baholanishi mumkin.



1-rasm. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining pedagogik kompetentsiyasi tuzilmasi

Bundan tashqari, ta’lim muassasalarining kompyuterlar va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanishining doimiy ravishda o‘zgarishi bilan bog‘liq holda turli xil dasturiy vositalarning kirib kelishi bilan bog‘liq jarayonlarga informatika o‘qituvchisi doim tayyor bo‘lishi kerak. Shunday qilib, bo‘lajak informatika o‘qituvchisida oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayonida axborot texnologiyalari sohasida predmetli kompetentsiyalarni shakllantirish lozimdir.

Xulosa va takliflar. Oliy ta’lim nazariyasi va amaliyotida biz tanlagan muammoning holatini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mimkin. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi, o‘quv materiallarini loyihalash sohasidagi sa’y-harakatlarni amalga oshirishda yutuqlarga erishish imkonini beradi. Shuningdek, dasturlashga oid bilim va ko‘nikmalarning shakillanishiga metodik jihatdan amaliy kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent, 2007. – 280 b.
2. Lutfillaev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integrasiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent, 2007. – 246 b.
3. Бешенков С.А. Проект примерной программы по информатике для среднего (полного) общего образования. /С.А. Бешенков, В.МКирюхин, Э.В. Миндзаева, Е.А. Ракитина, М.С. Цветкова // Информатика и образование. - 2012. - №6. - С. 66 - 78.
4. Гриншкун В.В. Подготовка педагогов в области информатизации образования как фактор решения проблемы качества информационных ресурсов. Вестник российского университета дружбы народов. Серия «Информатизация образования». -2009.-№ 4.
5. Куликова, Н. Ю. Методические основы формирования готовности будущего учителя информатики к использованию интерактивных средств обучения // Современные проблемы науки и образования. - 2014. - № 4; URL: http://www.science-education.ru/l 18-14228 (дата обращения: 11.08.2014).
6. Лапчик, М. П. Методика преподавания информатики: Учеб. пособие для студ. пед. вузов / М.П. Лапчик, И.Г. Семакин, Е.К. Хеннер; Под общ. ред. М.П. Лапчика. - М.: Изд. центр «Академия», 2005. - 624 с.
7. Полат Е.С. Современные педагогические и информационые технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина. - 3-е изд., стер. - М.: Изд.центр «Академия», 2010.-368с.
8. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты). 3-е издание. — М.: ИИО РАО, 2010.
9. Zapipov N.N. Infopmatika va axbopot texnologiyalapi fanini o‘qitishda dactuplash muhitidan foydalanish metodikacini takomillashtipish (Umumiy o‘pta ta’lim maktablapi misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Buxopo, 2022. – 56 b.
10. Mipsanov U.M. Talabalarni ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini shakllantirish // Elektron ta’lim. – Navoiy, 2020. – № 4. – B. 23-35.
11. Куликова Н.Ю. Методика формирования готовности будущего учителя информатики к использованию интерактивных средств обучения: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.02 / Куликова Наталья Юрьевна;[Место защиты: Волгоградский государственный социально - педагогический университет].- Волгоград, 2014.- 181.
12. Djurayeva D.R. Methodology to increase educational efficiency of programming technologies in higher educational institutions // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866, 2021. Vol.1 Issue 1.5 Pedagogical sciences. – B. 369-377. (13.00.00 № 7).
13. Рагулина, М. И. Практические занятия по методике преподавания информатики: методические рекомендации [Текст] / М. П. Лапчик, М. И. Рагулина, Л. В. Смолина. – Омск : Изд-во ОмГПИ. – 1992. – 40 с.
14. Копышева Т.Н., Григорьев Ю.В. ИКТ-компетентность будущего учителя информатики в процессе профессиональной подготовки в вузе. // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковлева. 2019. №1(101). С. 146-153.
15. Абдиев К.С. Формирование ИТ-компетентности как основа подготовки будущих специалистов-статистиков: дис. ... док. пед. наук: 13.00.02. – Алматы: Каз. нац. пед. ун-т им. Абая, 2010. – 331 с.
16. Кириллов А.Г. Формирование профессиональных компетенций будущего учителя информатики в процессе обучения программированию: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – Шадринск, 2005. – 162 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Dildora SHARIPOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sharipova@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Ismoilov taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES OF BIOLOGICAL SCIENCE TEACHING IN ACADEMIC LYCEUMS

Annotation

This article provides information about the role and significance of the use of modern information technologies in teaching biology based on a synergetic approach.

Key words: Lifelong education, synergetic approach, training, work in small groups, virtual excursion, didactic games, educational technology, modular educational technology, biology course.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация

Данной статье изложены сведения о роли и значении использования современных информационных технологий в преподавании биологии на основе синергетического подхода.

Ключевые слова: непрерывное образование, синергетический подход, обучение, работа в малых группах, виртуальная экскурсия, дидактические игры, педагогическая технология, модульная образовательная технология, курс биологии.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA SINERGETIK YONDASHUV VA INNOVATSIYALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada biologiyani o‘qitishda sinergetik yondashuv asosida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, sinergetik yondashuv, ta’lim-tarbiya, kichik guruhlarda ishlash, virtual ekskursiya, didaktik o‘yinlar, pedagogik texnologiya, modulli ta’lim texnologiyasi, biologiya kursi.

Kirish. Uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan o‘qitish jarayonining samaradorligini orttirish yuzasidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashgan davrda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiya-laridan foydalangan holda sinergetik yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini orttirish dolzarb muammo sanaladi. Tabiiy fanlar, shu jumladan, biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta’limi mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish zarur. Biologiyani o‘qitishda sinergetik yondashuv asosida, zamonaviy innovatsiyalardan foydalanish orqali, o‘quvchi-larning o‘quv motivlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin.

Muhokama va natijalar. Sinergetik yondashuv asosida biologiyani o‘qitishdagi innovat siyalarda axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

Axborot texnologiyalari biologiyani o‘qitishda ko‘zda tutiladigan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan o‘quv materialini yig‘ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta’lim jarayonida foydalanishga zamin yaratadi.

Har bir o‘quvchida mavjud iqtidor, ehtiyoj, qiziqish va o‘quv motivlariga mos holda tahsil olish trayektoriyasi, tem pini belgilash, zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

Biologiya darslarining strukturasini tubdan o‘zgartiradi, darsning borishi, xarakteri, o‘quvchilarning bilish faoliyatini obyekt-subyekt munosabatidan, subyekt-subyekt munosabatiga, ya’ni o‘quvchilar o‘quv maqsadlariga erishish uchun pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

O‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

O‘quv yurtida amalga oshirish imkoni bo‘lmagan hollar (kerakli jihozlar bo‘lmagan, o‘tkaziladigan tajribalar o‘quvchilar sog‘ligi uchun zararli, uzoq davom etadigan, ishlab chiqarish korxonalarining texnologiyalarini o‘rganish)da tajribalarni virtual namoyish qilish imkonini beradi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini faollashtirish va o‘quv motivlarini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya’ni qisqa muddat ichida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsata-yotgan o‘qituvchi larning oldidagi muhim vazifalardan biri o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish-larini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta’minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalarining mahsullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko‘rgazmali, interfaol bo‘lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o‘quvchining o‘z tempi bo‘yicha bilim olish, o‘qituvchi esa, o‘quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallash tirilgan ta’limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o‘qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin

yaratadi. Biologiya fani mazmunidagi hujayra, to‘qima, kimyoviy elementlaming molekula, atomning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir jarayonlarni o‘quvchilar bevosita kuzatish imkoniyati boimaydi, mazkur jarayonlarni vizual holatga aylantirish ko‘zlangan natijani beradi. Jumladan,

• o‘quvchilarning hujayra, to‘qima, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi jarayoni haqida tasavvur hosil qilish, abstraksiyalash va xotirada saqlash imkonini beradi;

• o‘quvchilarning motivlari va o‘zlashtirish darajasi e’tiborga olgan holda zarur hollarda takroran o‘rganish va o‘quvchilarning bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish irrikonini beradi;

• biologik jarayonlarni animasiyalar tarzida virtuallashtirish o‘quvchilar ko‘rgazmali-obrazli fikr yuritish va o‘quv materialini to‘liq o‘z lashtirishga zamin tayyorlaydi;

• biologiya darsida animasiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga olib keladi.

Biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalarning quyidagi mahsullaridan foydalanish mumkin:

Har bir mavzu mazmuniga asosan ko‘rgazmalilikni amalga oshirish, ya’ni taqdimot materiallari.

Biologik jarayonlarning animasiyasi.

Virtual laboratoriya va amaliy ishlar.

Ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya.

Biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturi.

Biologik jarayonlarning ta’lim iy dasturlari.

O‘quvchilarning mavzular bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari.

O‘quvchilarning mustaqil tahsili va ishi uchun o‘quv-axborot saytlari.

Didaktik o‘yinga asoslangan animasiyalar.

Qiyinchilik darajasi turlicha bo‘lgan ijodiy topshiriqlar dasturi. Biologiyani o‘qitishda axborot texnologiya laridan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Barcha tabiiy fanlar kabi biologiyani o‘qitishda tabiiy vositalar muhim o‘rin tutadi, lekin tasviriy vositlarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o‘rganish jarayonida foydalanish mumkin.

Axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

I.Ko‘rgazma vositalari multimedialarni namoyish etish — ko‘rgazmalilik.

II. Modul dasturlari orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish boshqarish.

III. Qo‘shimcha materiallar to‘plash va ular ustida mustaqil ishlash — rivojlantirish.

IV. Nazorat dasturlari, test topshiriqlari orqali o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash — nazorat.

V. Didaktik o‘yinlar, boshqotirmalarni echish — bilim ini orttirishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va qiziqishini rivojlantirish vazifalari. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, biologiyani o‘qitishda nafaqat pedagogik, balki axborot texnologiyalaridan uyg‘un ravishda foydalanish yuqori samara beradi, o‘quvchilarning fan asoslarini o 'zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi. O‘qituvchi o‘rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalarining mahsullari bo‘lgan elektron darslik, versiya va multimediyalarni o‘rganishi va ularni tahlil etish natijasida mavzuning didaktik maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlari, ta’limiy, modellashti rilgan va nazorat dasturlar, multimediyalardan foydalanish yo‘llarini belgilashi zarur. Buning uchun mazkur axborot texnologiyalari mahsullaridan biologiya darslarida foydalanish yo‘llarini aniqlash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo‘llarini ishlab chiqishi lozim.

O‘qituvcluning bu boradagi amalga oshiradigan ishlari quyidagi algoritmlardan iborat bo‘ladi:

Birinchi bosqich.

• Axborot texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyat-larini aniqlash.

• Tavsiya etilgan axborot texnologiyalarining m ahsuli bo‘lgan elektron darsliklar va multimediyalarni ko‘rib chiqish.

• Ularda o‘quv mavzularning didaktik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari va afzalliklarini aniqlash.

Ikkinchi bosqich.

• Ta’limiy dasturlarni tahlil qilish va ulardan biologiya darslarida foydalanish yo‘llarini belgilash.

• Nazorat dasturlarini tahlil qilish va o‘quvchilarning mustaqil tahsilini tashkil etishda foydalanish yo‘llarini belgilash.

• Modellashtirilgan dasturlarini tahlil qilish va ulardan biologiya darslarida foydalanish yo‘l larini belgilash.

• Multimediyalarni tahlil qilish, ulardan biologiya darslari va o‘quvchilarning mustaqil tahsilini tashkil etishda foydalanish yo‘llarini belgilash.

• Tanlangan multimediadan biologiya darslarida foydalanish yo‘llarini aniqlash.

• O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo‘llarini belgilash. dars davomida o‘quvchilarning bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar va nazorat testlarini tuzishi zarur.

Biologiya o‘qituvchisi ushbu ishlarni bosqichm a-bosqich bajarganidan so‘ng, pedagogik va axborot texnologiyalarni uyg‘unlashtirish muammolarini hal etishi lozim. Uzluksiz ta’lim tizim ida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar axborot texnolo-giyalari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb muammo sanaladi. Shu sababli axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun uning didaktik funksiyalarini aniqlash zarurati vujudga keldi.

Ma’lumki, axborot texnologiyalari ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilganda ko‘zlangan samarani beradi. Mazkur jarayonda zam onaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg‘unlashtirish da axborot texnologiyalarining axborot, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalari asos qilib olindi. Biologiyani o‘qitishda xususiy metodik darajada foydalaniladigan didaktik o‘yin, modulli, muammoli ta’lim , hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining imkoniyatlari va ahamiyatini anglagan holda, axborot texnologiyalarining axborot, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg‘unlashtirish im koniyatlarini beradi.

Sinergetik yondashuv asosidagi didaktik o‘yin texnologiyasiga asoslangan konferensiya darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyati o‘yin syujeti va qoidasiga binoan tashkil etilishi va boshqarilishi sababli mazkur funksiyani amalga oshirish imkoni yo‘q, lekin axborot texnologiyalarining axborot, ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish baholash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarni amalga oshirish mumkin. Didaktik o‘yin texnologiyasiga mansub taqdimot darslarida o‘quvchilar muayyan bob yoki fanning dolzarb muammolari yuzasidan fikr yuritganligi sababli axborot texnologiyalarining axborot manbai, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish kabi funksiyalarini amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi.

Didaktik o‘yin texnologiyasiga mansub ijodiy o‘yin darslarida o‘quvchilar ijodiy muammolarni hal etganligi sababli, axborot texnolo giyalarining barcha funksiyalarini amalga oshirish mumkin. Didaktik o‘yin texnologiyasiga mansub o‘yin mashqqa asoslangan darslarda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari nazorat qilish va baholash nazarda tutilganligi sababli, axborot texnologiyalarining axborot manbai funksiyasini amalga oshirish imkoniyati bo‘lmaydi.

Sinergetik yondashuv asosidagi modulli ta’lim texnologiyasining barcha dasturlaridan foydala nilgan darslarda axborot manbai, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini to‘Iiq amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mazkur darslarda biologiya o‘qituvchisi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan modul dasturi va modullarni kompyuter xotirasiga joylashi, dars davomida modul dasturining savollari va unga mos holda modullarning mazmuni ketma-ket namoyish etilishini dasturlashi lozim.

Darslarni tashkil etishda o‘qituvchi didaktikada ishlab chiqilgan ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari va vositalarining uzviyligi prinsipiga amal qilishi, fanlar bo‘yicha tuziladigan o‘quv-metodik majmuada va mavzuli rejada pedagogik texnologiyalarning qaysi turidan foydalanishini o‘quv yili boshidan belgilashi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Biologiya fanini o‘qitishda sinergetik yondashuv asosida zamonaviy innovatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga , ijodiy fikrlashiga va ta’lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho‘lpon” – 2011 y.
2. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари . Педагог журнали 11. 07. 2022 й
3. М.Н.Ибодова Pedagogical Conditi ons of Developing Self-Studu Working Skills with Textbo- ok book for School children.Eastern European Scientific Journa.Ger many, 2018г. № 2.(13.00.00, №1).P. 295-297.
4. M. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.
5. M. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishninh interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
6. M. N. Ibodova Conceptual framework for tne use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
7. M. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.
8. M. N. Ibodova .Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceum . Suropean Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 11 (4), (2023). https://www.idpublications.org/ejrres-vol-11-no-4-2023/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

Shahzoda SHARIPOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: sharipovash@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

THE ROLE OF SCIENTIFIC TOURISM IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL SOCIO-ECONOMIC RELATIONS

Annotion

The impact of scientific tourism on the development of international socio-economic relations and the current problems of its evaluation are considered in the article, the direct and indirect impact of tourism on the country's economy is studied.
Key words: Tourism, national economy, socio-economic development, impact of tourism, direct impact, indirect impact.

РОЛЬ НАУЧНОГО ТУРИЗМА В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В статье рассматривается влияние научного туризма на развитие международных социально-экономических отношений и современные проблемы его оценки, изучается прямое и косвенное влияние туризма на экономику страны.
Ключевые слова: Туризм, национальная экономика, социально-экономическое развитие, влияние туризма, прямое влияние, косвенное влияние.

ILMIY TURIZMINING XALQARO IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya

Maqolada ilmiy turizmning xalqaro ijtimiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ta’siri va uni baholashning dolzarb muammolari ko‘rib chiqilgan, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta’siri o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: Turizm, milliy iqtisodiyot, ijtmoiy-iqtisodiy rivojlanish, turizmning ta’siri, bevosita ta’sir, bilvosita ta’sir

Kirish. Turizm iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Global muammolar ham, terroristik tahdidlar ham turizm uchun to‘siq bo‘la olmaydi. Chunki u allaqachon inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bo‘lgan. Butunjahon turizm tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda dunyo bo‘ylab xalqaro turistik tashriflar soni 1 miliyard 460 milionni tashkil etgan bo‘lsa, xalqaro turizmdan olingan daromadlar 1 trilion 481 miliyard AQSh dollaridan oshib ketdi. Ushbu sohasida band bo‘lganlar 330 milion kishiga yetdi. 2009 va 2019 yillar oralig‘ida xalqaro turizmdan keladigan daromad 54%ga o‘sdi. Bu esa, jahon yalpimilliy mahsulotidagi o‘sishdan (44%) ko‘p demakdir[6]. Ko‘plab davlatlar, ular qatorida O‘zbekiston ham turizm sohasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olgan. Chunki turizm YaIMning o‘sishiga, valyuta tushumlari va investisiyalar hajmining ortishiga, sanoat, savdo va ijtimoiy infratuzulma rivojlanishiga yordam beradi. Bugungi dunyoda turizm iqtisodiyotning sohasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, A.M.Gudratli turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini ijobiy baholab, turizm sohasi milliy daromadni ko‘paytirish; yangi ish o‘rinlarini yaratish; turistik xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tarmoqlarni rivojlantirish; turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzulmasini rivojlantirish; xalq hunarmandchiligi va madaniyat markazlari faoliyatini faollashtirish; aholi turmush darajasi oshishini ta’minlash; valyuta tushumlarini ko‘paytirishga yordam berishini ta’kidlaydi[1]. A.V.Strelnikov esa, ushbu tarmoqda bitta yangi ish o‘rnini yaratish sanoat tarmog‘iga nisbatan 20 barobar arzonroqqa tushishini aniqlagan[2].

Yu.V. Bogdanovning fikricha, 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o‘rnini yaratadi[3]. Tadqiqotchi Z.M. Muxammedovaning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi loaqal 5 foizga yetkazilsa, bu tarmoqda band bo‘lgan aholi soni 2433 kishini tashkil etadi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi esa 392,1 ming so‘mga oshadi[4]. P. Vukadinovich turizmning nafaqat ijobiy, balki salbiy ijtimoiy-iqtisodiy samaralari ham borligini ta’kidlab, turizmning quyidagi salbiy ta’sirlarini ajratib ko‘rsatadi: turizmga iqtisodiy bog‘liqlik; mahalliy aholi uchun kundalik tovar va xizmatlarning qimmatlashishi; turizm bozorida transmilliy kompaniyalarning ustunligi; ishga oid sikllarning sezuvchanligi va ishga oid munosabatlarning o‘zgarishi; milliy an’analar va qadriyatlarga putr yetishi va boshqalar[5]. Ushbu tadqiqotda turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri miqdoriy asoslash maqsadida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) hamda Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari va Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) statistik hisobotlari ma’lumotlaridan foydalanildi

XVI asr oxirlariga kelib xorijiy mamlakatlarda dam olish va dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadidagi sayyohlik safarlari Rossiyada ham rivojlana boshladi. Petr I hukmronlik qilgan davrda uning o‘zi bu sohada shaxsiy namuna ko‘rsatdi. U 1697- 1699 yillar davomida Buyuk Moskva elchilari tarkibida G‘arbiy Yevropa 33 mamlakatlariga safarga otlanadi. Safar davomida yevropaliklar hayoti, turmush – tarzi bilan tanishish rus madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Sayohatga chiqishda eng muhim narsalardan biri dvoryanlar uchun xorijiy tillardan birini albatta bilishi va gaplashaolishi zarurligidir. O‘z davrida Rossiya imperatori Yekaterina II

mulozimlari (katta amaldorlarni kuzatib yuruvchi kishilar) va xorijiy elchilar hamrohligida Rossiya imperiyasining g‘arbiy qismlarini kezib o‘tib, Dnepr daryosi bo‘ylab suzib, Xerson va Sevostopol shaharlari bilan tanishib chiqadi. U Yevropada Germaniya, Avstriya, Niderlandiya (Gollandiya) mamlakatlarning ko‘pgina shaharlariga sayohat qilishgan.

1930 yillar xalqaro turizmning rivojlanishida pasayish davri bo‘lib hisoblanadi. Buning asosiy sababi 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi (krizis) ning kuchayishi Yevropada siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, Germaniyada davlat xokimiyatiga Gitler boshchiligidagi natsistlar partiyasining kelishi bilan bog‘liq bo‘ldi. 1939 yilga kelib mamlakatda kurort industriyasi tashkil topadi. Uning tarkibida 1828 sanatoriyalar va 1270 dam olish uylari mavjud edi. 1941 yilga kelib hammasi bo‘lib, 100 mingga yaqin xorijiy turistlar qabul qilingan. Xalqaro turizm ko‘pgina mamlakatlarda o‘ziga turli maxsus xizmat vakillarini jalb qila boshladi. Ya’ni turizm sohasi turli xil davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan axborotlarni to‘plashi va qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshiradigan manba bo‘lib qoldi. Misol, Ispaniyadagi grajdanlar urushi davrida Germaniya Tashviqot va Targ‘ibot vazirligida maxsus turizm bo‘limi tashkil etilgan edi. Uning asosiy vazifasi Ispaniyaga polyak askarlarini turist tarzida yuborishdan iborat edi. Ikkinchi jahon urushi xalqaro turizmning hajmini keskin kamaytirib yubordi. Urushdan keyin ko‘pgina Yevropa mamlakatlari shaharlari harobalikka aylanib qoldi. Hamma mamlakatlarda pul tanqisligi, yoqilg‘i-enegetika resurslari, oziq-ovqat va malakali kadrlarning yetishmasligi davlatlarning milliy iqtisodiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu borada dunyo mamlakatlaridagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, harbiy qurollanish poygasining to‘xtovsiz kuchayishi xalqaro turizm rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Millionlab ishchilar uchun tashqi dunyo qo‘rqinchli va xavfli manba bo‘lib qoldi.

Tadqiqot metodologiyasi.

BTT bosh maqsadga bog‘liq holda safarni quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

- ♣ rekreatsiya;
- ♣ ijtimoiy maqsadlar;
- ♣ ishga aloqador va kasbiy (professional) maqsadlar;
- ♣ tanishlar, qarindoshlarnikiga tashrif buyurish;
- ♣ diniy (ziyorat);
- ♣ boshqa maqsadlar.

Maqsadga bog‘liq holda turizm turlarini qisqacha kurib chiqamiz. Rekrayesiya maqsadidagi turizm. Bu turizmning asosiy maqsadi dam olish, davolanish va boshqa sog‘lomlashtirish maqsadlaridan iborat. U bo‘sh vaqtni to‘ldirish uchun sayr-tomosha va turli xil sport mashg‘ulotlarini taklif etadi. Ba’zi asoslarga ko‘ra unga turizmning ekskursiya, ixtisoslashgan, ta’limiy, sport, sarguzasht, ekzotik, ekologik turlari ham qo‘shiladi. Ekskursiya turizmi bilim ortirish turizmining ko‘proq ommalashgan turlaridan biri hisoblanadi. U turistik diqqatga sazovar joylar bilan tanishish maqsadida amalga oshiriladi (tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari va san’at boshq.). Ekskursiya marshrutlari odatda bir necha shaharlardan o‘tadi va eng mashhur yodgorliklar bilan tanishish imkonini beradi. Bunga Germaniya bo‘ylab nom qozongan: Kyoln-Bonn – Dyuseldorf – Frankfurt-na – Mayn – Nyurenberg – Myunxen. Italiya bo‘ylab: Rim – Venesiya – Florensiya yo‘nalishlarini ko‘rsatish mumkin. Maxsus turizm. Oddiy dam olish sayohatidan farqli ravishda mazkur turizm ma’lum maqsadga ega. Xalqaro sport musabaqalarida ishtirok etish, xoh hayvonlarni kuzatish, xoh ot sporti yo‘nalishi, tarixiy va shaxs bilan bog‘liq joyda bo‘lishi uchun kelgan bo‘lsin turistlarning maqsadi shular bilan bog‘liqdir.

Sarguzasht turizmi bir necha xil ko‘rinishlarga bo‘linadi:

- ♣ poxod ekspeditsiyasi;
- ♣ safari turlar (ov, baliq ovlash, kapalaklar tutish va boshq.);
- ♣ daryo va dengiz sayohati (yaxtalarda).

Bunday turizm spesifik qirralari litsenziya olish (ovga, baliq ovlashga, o‘ljani olib kelishiga) zaruratiga ega. Shuningdek xavfsizlikni ta’minlash uchun yuqori 16 malakali instruktorlar talab etilishi hisoblanadi. Turizmning mazkur turli ko‘rinishlari qiymati juda baland bo‘lib, bu nufuzli kishilar uchun dam olishga mo‘ljallangan. Ekzotik turizm. Bu turizm turi ekzotik mamlakatlarga, Tinch va Atlantika okeanlari orollariga, sayohat bilan yoki g‘ayrioddiy transport vositasida sayohat qilish bilan bog‘liq. Keyingi yillarda o‘zining g‘ayrioddiyligi bilan hayron qoldiruvchi safarlar paydo bo‘ldi. Hozircha eng hayratlisi va o‘ta qimmatligi kosmosga uchishdir. Rossiya kosmik kemasida kosmosga birinchi uchgan turist Denis Titodan so‘ng fazoga sayohat amalga oshadigan orzuga aylandi. Rossiyaning «Bo‘ron» kosmik kemasida bu ekzotik sayohat uchun 100 000 AQSH dollari to‘lab, yaqin yillarda fazoga parvoz qilishi ishtiyoqini bildirganlar ruyxati allaqachon tuzilgan. Ekzotik turizmga saunasi, basseyni, konferens zali va boshqa qulayliklarga bo‘lgan muzyorar kemada Arktikaga sayohat qilish ham misol bo‘la oladi. Muzyorar kema ekskursiya uchun katerlar va vertolyotlar bilan jihozlangan. Maxsus suvosti kemasida suv osti olami bilan tanishishni istovchilar ham ko‘p. Germaniyada ekzotikani sevuvchi turistlar uchun sobiq turmaxona juda ham mashhur. Bu yerda sayyohlar o‘zini hibsda his qilishlari mumkin. Ekologik turizm (ekoturizm) keyingi yillarda o‘ziga diqqat – e’tiborni jalb etayapti. Yevropa va Amerika aholisi uchun qo‘riqlanayotgan tabiiy hudud bo‘ylab sayohat qilish dam olishning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Turizmning mazkur turi bosh farqi qirralari shundaki, sayohat nigohida bo‘lgan tabiiy atrof-muhitga turistlar zarar yetkazmaslikka harakat qiladilar. Tabiatni muhofaza qilishga va mahalliy aholi farovonligini yaxshilashga ko‘maklashadilar. Ekoturizm atrof – muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantirish uchun da’vat etilgan. Bu sayohatning qamrovi keng – maktab o‘quvchilari uchun katta bo‘lmagan bilim orttirish safarlaridan tortib, to milliy park va qo‘riqxonalardagi muntazam turistik dasturlargacha o‘z ichiga oladi. Turizmning bu turidan olinadigan daromad qisman tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga yo‘naltiradi. Ijtimoiy turizm – ijtimoiy ehtiyojlar uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ hisobiga amalga oshiriladigan sayohatdir. Ijtimoiy turizmdan maqsad daromad olish emas, kam daromadli kishilarni qo‘llab – quvvatlash, ularni dam olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashdir. Ishga aloqador va kasbiy (professional) maqsadlardagi turizm. Ayrim mehmonnovoz mamlakatlar turistik industriyasida turistlarning ikki bosh kategoriyasidan biri – ishbilarmon sayohatchilar turg‘unligiga qaratilgan holat kuzatilmoqda. Turizm bu turining xususiyatlari shundan iboratki, ishga doir maqsadlarda keluvchi turistlar asosiy vaqtlarini majlislar yoki ish yuzasidan uchrashuvlarda o‘tkazadilar, qat’iy dasturga va tadbirlar grafigiga amal qiladi. Ular ko‘pincha o‘zlarining manfaatlari bilan bog‘liq o‘sha bitta shaharga kelishadi. Qimmat narxdagi mehmonxonalarda to‘xtaydilar, buyurtma transportdan, ishbilormanlar bilan uchrashuv uchun maxsus jixozlangan binolardan foydalanadilar, hamda tantanali qabullar, shuningdek individual ekskursiyalarda ishtirok etadilar. Ishbilarmon turistlar dam oluvchi turistlardan katta harajatlari bilan butunlay farq qilishadi. Ishbilarmonlik turizmning ko‘proq tarqalgan turlaridan biri kongressli turizmdir (Conference Travel). Rus versisiyada uni ilmiy turizm deb qabul qilish taomilga kiritilgan. Kongressli turizm maqsadi ilmiy-amaliy seminarlar konferensiyalar, se’zdlar o‘tkazishdan iborat. Ba’zan ishbilarmonlik turizmida bilim orttirish yoki rekreatsiya turizmi elementlari ham mavjud bo‘ladi.

Ishbilarmonlik turizmiga shuningdek rag‘batlantiruvchi (insentiv-turizm) ham kiritiladi. Rag‘batlantiruvchi turizm buyurtmachisi sifatida yirik korporatsiyalar chiqishadi, ular alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlari guruh safarlari uchun to‘lovlarni zimmasiga oladilar. Ishbilarmon turizmida ikki yirik segment ajratiladi: yakka – individual yoki guruh, ular ishga doir maqsadlarda sayohatga chiqishadi va turli kompaniyalar xodimlari tez-tez kompaniya ishi bo‘yicha safarga boradilar. Bu keyingisi o‘zida korporativ turizm deb ataladigan safarlarni namoyon etadi. Jahon turistik bozorida uchta yirik transmilliy kompaniyalar ishlaydi, ular korporativ turizmga ixtisoslashgan: “American Express” (1850 y. paydo bo‘lganidan boshlab bu biznes tarixini yuritadi), «BTI» va “Carlson Wadonlit Travel”. Ularning yillik oborot summmasi 3,7 mlrd. yaqin AQSH dollarini tashkil etadi. Korporativ turizmda turfirmalar mijozlari – bular huquqiy shaxslar yoki kompaniyalarning ishonchli shaxslaridir. Ular nomlangan korparativ kartochkalarga ega. Tartibga ko‘ra, ular sayyoramizdagi turli burchaklarda ishbilarmonlik manffatlariga doir nufuzli korporatsiyalarni ifoda etadilar. Shu maqsadda muntazam ishbilarmonlik safariga borib keladilar. Korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan turfirmalar ularning ishonchini qozonishga va maksimal qulay sharoitlar yaratib, xizmat ko‘rsatishga intiladilar, odatda bular ikki tomonlama konkret tuzilganda kelishib olinadi. Korporativ mijozlarning asosiy talabi tez va sifatli xizmat ko‘rsatishdir. Korporativ mijoz uchun raqobat kurashida yuqori malakali, yuksak texnologiyalardan xabardor turfirmalar g‘olib chiqishadi. Ular o‘zlarining talabchan mijozlarining didi, mayda-chuyda injiqliklarini tez ilg‘ab oladilar, shunga qarab xizmat sifatlarini oshirib, usullarini o‘zgartiradilar. Rossiyada korparativ turizm ayniqsa Rossiya iqtisodiyoti qayta qurilishi bilan jadal rivojlana boshladi. Bu vaqtda g‘arb ishbilarmon doiralari mamlakatga juda ko‘plab o‘z vakillarini yuboradilar. Ular biznesni yurgizish real sharoitlari bilan tanishdilar, ishbilarmonlik yuzasidan aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadilar. Bu Rossiya kirish turzmini o‘zlashtirish uchun g‘arb turistik kompaniyalarini yopirilib kelishiga sabab bo‘ldi. Lekin bu bozorda ular mamlakat turfirmalarining kuchli raqobatiga duch keldilar. Mamlakat firmalari orasida «Trimor» va «Nika-Tur» larni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Turagentliklarda koporativ mijozlar ko‘proq murojaat qiladigan keng tarqalgan xizmat aviabiletlar sotib olish hisoblanadi. Ayniqsa bu xizmatdan Rossiyada vakilliklari joylashgan xorijiy kompaniyalar katta ishtiyoq bilan foydalanishmoqda, ular o‘z xodimlari vaqtini qadrlashni bilishadi. Ixtisoslashgan turagentlik bu ishni professional darajada bajarish usulini yaxshi bilishadi: qulay marshrut va boriladigan joy grafigini tanlashni, qulay otelni tavsiya qilishni, shuningdek otelda joyni bronlashni tezkor hal etishadi. Avtomobilni ijaraga olish yoki kutib olish, aeroportga kuzatib qo‘yishni bajaradilar. Turagentlik xizmati qiymati odatda mijoz aviakompaniya yoki boshqa yetkazib beruvchiga to‘lagan narxdan oshmaydi. Aviakompaniyalar biletlar sotilishi narxi doirasida turagentliklarga saxiylik bilan komission mukofatlar beradi. Korporativ mijozlarning tezkor va sifatli uzatilgan axborotlarga talabchanligi oshishi turfirmalarni zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo‘llanishiga majbur etadi. Turfirmalar raqobatbardoshligini ta’minlashda ayniqsa kompyuter turmoqlarini sotib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha aviakompaniyalar va turagentliklar idoralarida 600 mingga yaqin bronlashtirishning global tizimi (GSB) terminlari o‘rnatilgan. Ular orqali na faqat samolyotga bilet olish mumkin, balki mehg‘monxona, safar, mahalliy teatr va boshqalarga buyurtma berish ham mumkin. GSB da ishlash afzalligi faqat turistik xizmatlarga beqiyos buyurtmalar berish va tasdiq olish emas. Buyurtmalarni real vaqt rejimida juda qisqa muddat ichida bajarilishida hamdir. Rossiyada bronlashtirishning xalqaro global tizimida amal qilayotgan «Amadeus», “Wordspan”, “Sabre”, va “Galileo” juda mashhur. Bu masalalar keyingi bo‘limda batafsil yoritilgan. Tanishlar va qarindosh – urug‘larnikiga tashrif. Turistik statistikaning ko‘rsatishicha, sayohatning bu turi o‘zida xalqaro turizmning katta segmentini mujassam etgan. Qarindoshlar bilan uchrashish maqsadida juda tez-tez safarlar qayta takrorlanadi, bo‘lish davomiyligi esa ishga doir va rekreatsion safarlardan ortiqdir. Misol uchun, arab mamlakatlari, Hindiston, Pokistondan Angliyada yashayotgan do‘stlari, qarindoshlarini ko‘rgani doimiy ravishda mehmonlar tashrif buyuradi. Rossiya va Ukrainaga Kanada, AQShdan ajdodlari slovyan bo‘lgan oila a’zolari kelishadi. Turistik bozorning mazkur segmenti yana etnik yoki qo‘msash – sog‘inish turizmi deb ham ataladi. Bu odamlarni do‘stlari, qarindoshlari bilan uchrashish ehtiyojga bog‘liq bo‘lib, xalqaro turistik almashinishda muhim o‘rin egallaydi. Odatda bozorning bu segmentida ishlashga bir necha turfirmalar ixtisoslashadi. Diniy (ziyorat) turizmi hozirgi paytda ommaviy tus olayapti. Uning bir necha turlari ajratiladi:

♣ ziyorat (muqaddas joylarga tashrif va ibodat qilish);

♣ bilimni orttirish safari (diniy, tarixiy yodgorliklar va boshqalar bilan tanishish);

♣ ilmiy safar din bilan shug‘ullanuvchi (tarixchi va boshqa mutaxassislarni safari).

Tahlil va natijalar.

Fan-texnika yutuqlari turizm industriyasi va mehmondo‘stlikda, yo‘lovchilar tashishda, axborotlar almashish sohalarida keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Havo trasnportida yangi zamonaviy tez yurar, yirik passajirlar tashishga mo‘ljallangan havo kemalarning ishlab chiqarilishi sababli sayyohlarga xizmat ko‘rsatish rivojlanib bormoqda. Temir yo‘l transporti sohasida texnologik omillar borgan sari rivojlanib, o‘z aksini poyezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya va Fransiya kabi mamlakatlarda tez yurar pasajjir poyezdlar tezligini soatiga 485 km.ga yetkazishga erishildi. Temir yo‘l transportining aviatsiya transportidan afzalligi shundan iboratki, temir yo‘l vokzallari shahar markazida joylashgan bo‘lib, sayyohlar uchun qulay imkoniyatlar tug‘diradi. Telekommunikatsiya texnologiyalari va elektronika sanoatining rivojlanishi kompyuter tizimida mehmonxona o‘rinlarini, transportda chiptalarni band qilishga imkon yaratdi. Yangi texnologilarning paydo bo‘lishi turistik mahsulotlarni tashkil etishda va ularni sotishda sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Xalqaro turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi o‘rinda turistik mahsulotlarning takomillashuvi, professional turagentlik tarmoqlarining rivojlanishini, tur operatorlar mahsulotlari sohasi, marketing xizmatlarining foydalanish darajasi va inson omillari bilan bog‘liqligi bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, turizm malakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish arajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o‘zaro bog‘langan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. Yuqorida fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni berishni lozim topdik:

1. Davlat turizm sohasini iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan holda uning rivojlanishi va barqaror amal qilishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratishi lozim.

2. O‘zbekistonning turizm uchun jozibador mamlakat sifatida qiyofasini shakllantirishga hamda xalqaro darajada milliy turmahsulotlarni targ‘ib qilishga yanada kuchliroq e’tibor qaratilishi kerak.

3. COVID-19 pandimiyasi sharoitida milliy turistik korxonalar har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Aleksandrova Yu.A. «Mejdunarodniy turizm» Uchebnik. M:«Aspekt press» 2004g.
2. Aleksandrova Yu.A. «Mejdunarodniy turizm» Ucheboye posobiye dlya vuzov. M:«Aspekt press» 2001g.
3. Komilova F.K., Xalqaro turizm bozori. O‘quv qo‘llanma T., TDIU-2001
4. Kosolapov A.B. – Turisticheskoye stranovedeniye. Yevropa i Azii. Uchebnoprakticheskoye posobiye. Izdaniye vtoroye. M.: 2006.
5. O‘zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. Toshkent 2007.
6. O‘zbekiston Respublikasi «Turizm to‘g‘risidagi» Qonun, Toshkent 20 avgust1999-yil.
7. Ekonomika i organizatsiya turizma: mejdunarodniy turizm. Pod.red. I.A.Ryabova, Yu.A. Zabayeva, Ye.A. Drachevoy. Uchebnoye posobiye. Izdaniyevtoroye. M.: KNORUS, 2006.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 347.214.21(075)

Nuriddin ERGASHEV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori
https://orcid.org/ 0000-0002-8274-6193;
Email: finaledition2@mail.ru;

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti p.f.d. Sh.Turdiyev taqrizi asosida

TEXNIKA IXTISOSLIKLARIDA TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI IYERARXIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnika ixtisosliklari talabalariga “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” kursini iyerarxik o‘qitish modelini amalga oshirishning didaktik ta’minoti hamda ushbu kursni o‘qitishni raqamli texnologiyalar muhitida tashkil qilishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar keltirilgan. Bundan tashqari, texnika yo‘nalishida oliy ta’lim muassasalari turli yo‘nalishlarda bo‘lajak muxandis kadrlarni innovatsion faoliyatga (iyerarxik o‘qitishga tayyorlash) iyerarxik o‘qitishda qo‘llanilgan muammoli, loyihaviy, tadqiqot, evristik, kamroq darajada - axborotni qabul qiluvchi va reproduktiv kabi umumiy didaktik metodlar muhim ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: texnik tizimlarda axborot texnologiyalari, iyerarxik o‘qitish, didaktik ta’minot, raqamli ta’lim, innovatsion faoliyat, raqamli ta’lim muhiti va boshqalar.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ТЕХНИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ ПО ТЕХНИЧЕСКИМ СПЕЦИАЛЬНОСТЯМ НА ОСНОВЕ ИЕРАРХИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье дидактическое обеспечение реализации иерархической модели преподавания курса “информационные технологии в технических системах” студентам технических специальностей, а также предложения по совершенствованию организации преподавания данного курса в среде цифровых технологий. Кроме того, в области техники высшие учебные заведения теоретически обосновывают важность таких общедидактических методов, как проблемный, проектный, исследовательский, эвристический, в меньшей степени - информационно-восприимчивый и репродуктивный, применяемых при иерархическом обучении будущих инженерных кадров по различным направлениям инновационной деятельности (подготовка к иерархическому обучению).

Ключевые слова: информационные технологии в технических системах, иерархическое обучение, дидактическое обеспечение, цифровое обучение, инновационная деятельность, цифровая образовательная среда и т. д.

DIDACTIC FOUNDATIONS OF TEACHING INFORMATION TECHNOLOGY SCIENCE IN TECHNICAL SYSTEMS IN TECHNICAL SPECIALTIES ON THE BASIS OF A HIERARCHICAL APPROACH

Annotation

This article offers students of technical specialties the didactic provision of the implementation of the hierarchical teaching model of the course “Information Technology in technical systems”, as well as the improvement of the organization of the teaching of this course in the environment of digital technologies. In addition, in the technical direction, institutions of higher education in different directions are theoretically based on the important importance of such general didactic methods as problematic, project, research, heuristic, to a lesser extent - information-receiving and reproductive, which were used in hierarchical training of future mujandis personnel to innovative activities (hierarchical training).

Keywords: information technology in technical systems, hierarchical teaching, didactic provision, digital education, innovative activities, digital education environment, etc.

Kirish. Raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarni innovatsion faoliyatga iyerarxik o‘qitishga tayyorlashda asosan o‘qituvchini bajaruvchi, innovator, ijodkor, o‘z mahorati va bilimini yaratuvchisi pozitsiyasiga va o‘zining pedagogik loyihasini amalga oshirish imkoniyatini beradigan metodlar qo‘llaniladi.

O‘qitish metodlarini tanlashda professor-o‘qituvchilar tarkibini iyerarxik o‘qitishga tayyorlash mualliflari quyidagi: o‘qitishning maqsad va vazifalari bilan; o‘qitish tamoyillari va usullari; kurs modulining mazmuni; talabalarning yoshi va malaka potensiali (bir qator usullarni tanlash pedagogik ma’lumotga va o‘qitishdagi o‘z tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar kontingentiga qaratilgan); ta’lim jarayonida raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish; o‘qitish uchun o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan shartlar va ajratilgan vaqt kabi muvofiqlik mezonlariga asosiy e’tiborni qaratdilar.

Texnika yo‘nalishida oliy ta’lim muassasalari turli yo‘nalishlarda bo‘lajak muxandis kadrlarni innovatsion faoliyatga (iyerarxik o‘qitishga tayyorlash) iyerarxik o‘qitishda qo‘llanilgan quyidagi: muammoli, loyihaviy, tadqiqot, evristik, kamroq darajada - axborotni qabul qiluvchi va reproduktiv kabi umumiy didaktik metodlar muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli muhitda o‘qitishni tashkil etish jarayonida texnologiyani to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanish hal qiluvchi komponentlar hisoblanadi. Nazariyadan (V.P.Bespalko, P.Y.Galperin, V.V.Davidov, L.V.Zankov, G.K.Selevko va boshqalar) yuzaga keladigan va amaliyotdan kelib chiqadigan texnologiyalar mavjud. Ularning

har bir muallifi pedagogik texnologiyani tavsiflovchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni belgilaydi.

Raqamli ta’lim muhiti afzalliklaridan foydalangan holda innovatsion faoliyatga kadrlar tayyorlash tizimida umumiy didaktik metodlardan tashqari, raqamli ta’lim muhitida o‘qitishni an’anaviy didaktikadan ajratib turadigan metodlardan ham ommaviy ravishda foydalaniladi.

O‘qituvchi va boshqa talabalarning minimal ishtirokida talabalarning ta’lim resurslari bilan o‘zaro ta’siri vostasida o‘qitish metodlari amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli texnologiyalar sharoitida o‘qitishda ushbu metodlardan foydalanish multimedia vositalari: interfaol ma’lumotlar bazalari, elektron jurnallar, kompyuter o‘quv dasturlari, elektron darsliklar va boshqalar taqdim etuvchi keng didaktik imkoniyatlar bilan bog‘liq. Bu va boshqa o‘quv vositalari haqida mazkur tadqiqot ishimizla quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu metodlar va tegishli o‘quv vositalaridan foydalanish raqamli ta’lim muhitida o‘zi o‘zini o‘qitishning muhim komponetini ta’lim jarayoniga amaliyotga joriy qilinadi.

Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi interfaol o‘zaro ta’sirga asoslangan metodlar iborat. Ushbu metodlarni ishlab chiqish amaliyotga joriy qilish o‘quv guruhlardagi bahs munozaralar va konferensiyalar o‘tkazish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va boshqalar bilan bog‘liq. Ushbu tadqiqot ishimizda raqamli ta’lim muhitida o‘ziga xos tatbiq etish xususiyatlariga ega bo‘lgan juftlik muhokamasi metodi ham keng qo‘llaniladi.

O‘quv guruhi a’zolari muammoni muhokama qilishdan oldin juftlikdagi hamkorlikda muhokama qiladilar, muammoga murosaga kelishadi yoki o‘z nuqtai nazarlarini aniqlaydilar. Juftlik muhokamasi - bu guruh muhokamasiga tayyorgarlik bo‘lib, ishtirokchilar juftlik muhokamasi tufayli muhokama qilinayotgan muammo bo‘yicha yanada muvozanatli va oqilona o‘z mustaqil fikr mulohazalarini ishlab chiqadilar. Shunday qilib, nafaqat o‘qituvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi, balki o‘quvchilarning o‘zlari o‘rtasidagi interfaol o‘zaro ta’sirlar muhim bilim manbaiga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta’lim muhitida o‘qitishda ham qo‘llaniladigan individual o‘qitish, o‘rganish va o‘zaro ta’sir qilish usullari. Individual ta’lim usullari ta’limning barcha bosqichlarida o‘qituvchining har biriga ko‘rsatilayotgan psixologik-pedagogik yordam, skayp, messenjer, ovozli pochta, elektron pochta, elektron kitoblar kabi zamonaviy vositalar orqali amalga oshiriladi.

Talabaning muloqotda faol ishtirokisiz o‘qituvchi yoki o‘qituvchi tomonidan talabalarga o‘quv materialini taqdim etishga asoslangan usullar: audio yoki video kasetlarga yozilgan ma’ruzalar, an’anaviy usullarda yoki Internet texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qiladi. Ta’kidlanganidek, bu usullar reproduktiv usullarning tarmoq modifikatsiyasining bir turidir. Shu bilan birga, multimedia imkoniyatlaridan keng foydalanish materialning bu tasvirini an’anaviydan sifat jihatidan farq qiladi.

Tizimli yondoshuv nuqtai nazaridan qo‘llaniladigan o‘qitish usullari uning tashkiliy shakllariga mos kelishi juda muhim.

Raqamli ta’lim muhitida o‘qishda an’anaviy shakllar qo‘llaniladi: ma’ruzalar, seminarlar, maslahatlar, amaliy mashg‘ulotlar, testlar, imtihonlar, mustaqil ishlar va boshqalar. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot ishimizda har bir mashg‘ulotda turli xil ta’lim shakllaridan birgalikda foydalanishga e’tibor qaratilib, bunday yondashuvlar pedagogik maqsadlar nuqtai nazaridan asoslaniladi.

O‘quv materialini taqdim etishning maxsus texnologiyasi bu diskret ma’ruzalar bo‘lib, uni tayyorlash, tashkil etish va o‘tkazish texnologiyasi muallif tomonidan Qarshi muxandislik iqtisodiyot institutining masofaviy ta’lim bazasi qoshida ishlab chiqilgan.

O‘quv materialini masofaviy ta’lim tizmida taqdim etishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish interfaol ma’ruza strukturasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Masofaviy ta’lim tizimida ma’ruza "odam - mashina - odam" o‘zaro ta’siri turiga ko‘ra interfaol tavsifga ega, tuzilmasi bo‘yicha diskret – mantiqiy ravishda tugallangan qismlarga taqsimlanadi.Mazkur o‘qitish texnologiyasi o‘qituvchining maqsadli malakasini oshirish va nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirishning asosiy g‘oyalaridan biri – o‘qituvchining buyrug‘i bilan ishlab chiquvchilarning dolzarb tadqiqot mavzularini taqdim etish va materiallar – diskret ma’ruzalar tayyorlashni amalga oshiradi. iyerarxik o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o‘qituvchi dars shakllarini tanlaydi, ularni dastur va o‘quv materiali mazmuni mantig‘i asosida belgilaydi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimida didaktik vosita sifatida gipermatn va multimedia versiyalaridagi elektron darsliklar va kompyuter o‘qitish tizimlari, audioo‘quv axborot materiallari, videoo‘quv axborot materiallari, masofaviy laboratoriya ustaxonalari, elektron kutubxonalar va boshqalardan foydalanildi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga iyerarxik o‘qitishga tayyorlashda biz pedagogik jarayonda raqamli ta’lim tizimining innovatsion imkoniyatlariidan maksimal darajada foydalanish tamoyiliga e’tibor qaratiladi.

Elektron kurslar, elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, onlayn o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda ularni ishlab chiqishga ilmiy yondashish zarurligini ham e’tiborga olindi. Jumladan, darslik yoki o‘quv qo‘llanmasini nashr etishga tayyorgarlik ishlari bosqichida yangi o‘quv qurollaridan foydalanishni nazariy tushunish amalga oshiriladi. Shu bois elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish an’anaviy darslik yoki o‘quv qo‘llanma yaratishdan ko‘ra ko‘proq vaqt talab qiladigan muhim dolzarb muammo hisoblanadi.

Elektron darslikning mohiyati va mazmunini nazariy tushunishdan tashqari, uni ishlab chiqish vazifasi raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi va o‘quvchining harakatlarini batafsil o‘rganish zarurati bilan murakkablashadi. Bunday jarayon ishlab chiquvchilar guruhining quyidagi: kurs muallifi (mazmun tomoni), masofaviy o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanish bo‘lgan metodist, dasturchi, loyihachi kabi jamoaviy ishlarini o‘z ichiga oladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim muhitida qo‘llaniladigan har bir o‘quv qurolining o‘ziga xos "kuchli" va "zaif" texnologik jihatlari mavjud, shuning uchun mazkur tadqiqot ishimizda biz texnik vositalardan foydalanishning vositalari yoki ta’lim muhitlarining muvozanatli muvozanati (bosma, audio, kompyuter va elektron) pedagogik maqsadga muvofiqligi tamoyiliga asosiy e’tibor qaratildi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimida an’anaviy o‘quv qo‘llanmalarini innovatsion vositalarga o‘zgartirish tizimli, antropotsentrik va metodik yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim, degan tushunchaga amal qilindi. O‘tkazilgan tadqiqotlar raqamli ta’lim muhitida o‘qitish ta’lim jarayoniga xos bo‘lgan barcha quyidagi komponentlarni: maqsadlar, mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar, o‘quv qo‘llanmalarini aks ettirishini ta’kidlash imkoniyatini beradi. Shuning bilan birga, komponentlarning har biri raqamli ta’lim muhitida o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot ishimizda quyidagi imperativga e’tibor qaratildi: ya’ni, uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik tayyorgarlikning o‘zgaruvchan komponentlari va invariantlarining bunday kombinatsiyasini topish muhim, ularning uzviy aloqasi zamonaviy ta’lim sohasida har bir aniq o‘qituvchi uchun axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy qilishning uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Raqamli vositalardan foydalangan holda raqamli ta’lim sharoitida ilmiy tadqiqotlar ustida ishlash texnologiyasini tasavvur qilish maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqot ishimizda raqamli ta’lim kontekstida texnologiyaning yetakchi xususiyatlari quyidagilardan: raqamli vositalar imkoniyatlarini kengaytirish sharoitida o‘quv jarayonining takrorlanishi; raqamli vositalarni, aloqani tashkil qilish uchun samarali vositalarni oqilona tanlash; tadqiqot faoliyati natijalarini sifatli baholash; amalga oshiriladigan bahs munozaraning ochiqligi va xayrixohligi; tezkor (operativ) teskari aloqa; ta’lim jarayoni natijasida raqamli izlardan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

Rejalashtirish bosqichida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning predmeti aniqlanadi, maqsad taxmin qilinadi, aloqa metodlari aniqlanadi, ta’lim jarayonining mazmuni ishlab chiqiladi, o‘ziga xos yo‘nalishlar taxmin qilinadi. Ta’lim jarayonini tashkil etish bosqichida o‘qitish amalga oshiriladi. Nazorat bosqichida o‘zaro baholash, joriy va yakuniy nazorat tashkil etiladi.

Ta’lim natijalarini sifatli baholash quyidagilarga:

- ko‘p vazifali vaziyatda ishlashga o‘rgatish jarayonida shakllangan (ma’ruzachini tinglash) ko‘nikmalarni aniqlash;

- boshqa insonlarning fikrlari, sharhlari, g‘oyalari, savollari, savollarga javoblarini, shu jumladan, kursdosh-larning nutqi va sharhlariga o‘zingizning sharhlaringizni yozib olish;

- ma’ruzachiga savollar ustida o‘ylash, ularni berish va berilgan savollarni, shu jumladan, o‘z savollarini muhokama qilish jarayonining mazmunini aniqlash;

- ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha bilimlarni "tayinlash" ko‘nikmasini aniqlash;

- maxsus va instrumental kompetensiyalarning shakllanish darajasini aniqlash;

- o‘z ishining natijalarini taqdim etish imkoniyalarini aniqlash (ilmiy referatni omma oldida taqdim etish) va o‘z bildirgan fikr mulohazalarini bahs munozalarni amalga oshirish hamda xatolar ustida mustaqil ravishda ishlash va berilgan formatda amalga oshirishga yordam beradi.

Ta’lim natijalari: ma’lum darajada shakllantirish (takomillashtirish) (ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, tadqiqot apparatini ishlab chiqish, mavzuning dolzarbligini asoslash va boshqalar): tahliliy imkoniyatlar; ko‘nikmalar (savol berish; o‘z fikrini qisqacha mazmunli ifodalash; bajarilgan ishni taqdim etish; mustaqil ravishda bildirilgan o‘z fikr mulohazalari ustida bahs munozarani amalga oshirish; xatolar ustida o‘zaro hamkorlikda ishlash); ko‘p vazifalarni bajarish holatlari (ma’ruzachini tinglash, o‘rtoqlarning nutqi va sharhlariga o‘z shaxsiy sharhlarini tuzish; ma’ruzachiga savollarni o‘ylab ko‘rish, ularga savol berish va "savol-javob" ni tuzatish); ommaviy taqdimot ko‘nikmalarini e’tiborga olish;

Raqamli vositalar: forum, vebinar, masofaviy ta’lim vositalaridan shaxsiy xabar almashish tizimi, elektron pochta, messenjer, Skype samarali foydalanish kabilar e’tiborga olinadi.

O‘zaro aloqa shakllari: alohida (shaxsiy xabar almashish tizimi, shaxsiy messenjer, elektron pochta, elektron kutubxona, elektron resurslar va boshqalar), guruh (seminar, vebinar, forum, amaliyot, seminar va boshqalar), jamoaviy (ochiq muhokama)lardan iborat.

Tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillardan biri elektron o‘quv kursi uchun topshiriqlar tayyorlash hisoblanadi. Raqamli ta’lim kontekstida o‘qituvchilar uchun o‘quv dasturi, vaqt chegaralari bilan cheklanmagan (shartli ravishda) an’anaviy formatga qaraganda boshqacha sifatdagi (miqdoriy jihatdan) katta hajmdagi vazifalarni yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, har bir vazifa keyingisining tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, o‘rganish jarayo-nida talabalarni iyerarxik o‘qitishga tayyorlashda o‘qitishni amalga oshirish uchun didaktik yordam ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: fanni kompleks yordamida o‘rganish tartibi va tavsiyalari, hisobot va nazorat shakllari, o‘qituvchi bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish tartibi); ma’lumot va o‘quv bloki (o‘quv mavzusiga teng hajmdagi modullar - har bir modul o‘zi o‘zini tekshirish uchun testlar, amaliy topshiriqlar bilan birga keladi).

ADABIYOTLAR

1. Кларин, М.В. Инновационные модели в зарубежных педагогических поисках / М.В. Кларин. – М.: Арена, 1994. – 365 с.
2. Бендова, Л.В. Педагогическая деятельность тьютора в сети открытого дистанционного профессионального образования : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.В. Бендова. – М., 2006. – 23 с.
3. Ergashev Nuriddin G‘ayratovich. Uzluksiz ta’lim sharoitida muxandislar malakasini oshirishni rivojlantirishning metodik shartlari. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558, Volume 1, Issue 2, July 2022, 54-59 b. www.rnasav.com.
4. Аракелов, А.В. Комплексная инновационная технология профильного обучения в структуре послевузовского педагогического образования : дис. ... канд. пед. наук / А.В. Аракелов. – Краснодар, 2008. – 452 с. : 34 ил.
5. Аршинов, В.И. Философия образования и синергетика: как философия образования может содействовать становлению новой модели образования / В.И. Аршинов // Синергетика и психология. – М.: Когито-Центр, 2004. – 205 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:37.03

Shodiqul OCHILOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
Yulduz ERGASHYEVA,
E-mail: ochilovshodiqul@gmail.com
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: ergayulduz8@gmail.com
G.f.n., professor A. Egamberdiev taqrizi asosida

METHODOLOGY OF TEACHING CONED PROJECTIONS IN MATHEMATICAL CARTOGRAPHY

Annotation

The introduction of cartographic methods into various fields of science and technology, the expansion of the range of tasks performed with cards, and the increase in the requirements for the accuracy of the obtained results require an increase in the production of high-quality and various content-purpose maps and atlases. By understanding the nature of the distribution of projections and errors used in the creation of maps, the accuracy of the digital maps that are currently being created is ensured, this issue should be understood not only by cartographers, and geographers but also by school pedagogues.

Key words: Mathematical cartography, conic projection, error distribution, polar, radius, polar angle, digital map.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ КОНИЧЕСКИМ ПРОЕКЦИЯМ В МАТЕМАТИЧЕСКОЙ КАРТОГРАФИИ

Аннотация

Внедрение картографических методов в различные области науки и техники, расширение круга задач, выполняемых с помощью карточек, повышение требований к точности получаемых результатов требуют увеличения производства качественного и разнообразного контента. карты и атласы специального назначения. Понимая характер распределения проекций и ошибок, используемых при создании карт, обеспечивается точность создаваемых в настоящее время цифровых карт, этот вопрос должны понимать не только картографы, географы, но и школьные педагоги.

Ключевые слова: Математическая картография, коническая проекция, распределение ошибок, поляра, радиус, полярный угол, цифровая карта.

MATEMATIK KARTOGRAFIYA FANIDA KONUSLI PROEKSIYALARNI O‘RGATISH METODIKASI

Annotasiya

Kartografik metodlarning ilm-fan va texnologiyalarning turli sohalarga joriy etilishi, kartalar bilan bajariladigan vazifalar doirasining kengayishi va olingan natijalarning aniqligiga bo‘lgan talablarning oshirilishi yuqori sifatli va har xil mazmun-maqsadli karta hamda atlaslarni ishlab chiqarishni ko‘paytirishni talab qilmoqda.

Kartalarni tuzishda foydalaniladigan proeksiya va xatoliklarning taqsimlanish mohiyatini tushunish orqali hozirda yaratilayotgan raqamli kartalarning aniqligi ta’minlanadi, shu masalani nafaqat kartograf, geograf, shuningdek, maktab pedagok o‘qituvchilari ham anglashi lozim.

Kalit so‘zlar: Matematik kartografiya, konusli proeksiya, xatoliklarning taqsimlanishi, qutbiy, radius, qutbiy burchak, raqamli karta.

Fan va texnika jadal rivojlanayotgan hozirgi paytda ko‘plab tezkor ma’lumotlarni tahlil qilish zarur, ayniqsa bu ma’lumotlarni karta orqali tahlil qilish, bu kartalarda tasvirlangan ma’lumotlar qanday proeksiyada ishlab chiqilganligini, umuman proeksiya nima va kartalarni yaratishda qanday ta’sir etishini har bir o‘rganuvchi bilishi lozim. Chunki, raqamli kartalarni ishlab chiqishda joyning o‘rni aniq, to‘liq va to‘g‘ri berilishida proeksiyani mos tanlash kerak bo‘ladi.

Kartografik proeksiya – yer ellipsoidi (shari)ning yuzasini tekislik, ya’ni qog‘ozda ma’lum matematik qonunlar asosida tasvirlash usulidir. Kartografik proeksiyalar yer ellipsoidi (shari) bilan tekislikdagi nuqtalarni tekislikda faqatgina bitta x va y koordinatali nuqta mos kelishini ta’minlaydi. Kartografik proeksiyalar: 1) foydalanilayotgan yordamchi geometrik yuzalar bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi: azimutal, konusli, silindrik, ko‘p konusli; 2) xatoliklari bo‘yicha: teng burchakli, teng maydonli, ixtiyoriy; 3) kartografik to‘rning orientirlanishi bo‘yicha: to‘g‘ri, qiyshiq, ko‘ndalang turlarga bo‘linadi.

Barcha konusli proeksiyalarning $\rho = \mu_0 f(\varphi),\ \delta = \alpha\lambda$ formulalarida ikkita doimiylar $-\alpha$ ва C lar qatnashadi: $\alpha -$ haqiqiy (yer yuzasidagi) uzoqliklarni kartadagi uzoqliklar bilan proporsionallik koffitsienti va C – integrallash doimiysi bo‘lib, ρ ning tenglamalarida qatnashadi, ushbu doimiylarni aniqlash uchun quyidagi uch shart qo‘llaniladi.



1-rasm. Konusli proeksiya

1. Berilgan bosh parallel yoki konus yuzasiga tegib turuvchi parallelda ($\varphi_0 = \varphi_m = \frac{\varphi_ж + \varphi_ш}{2}$), $n_0 = n_{min} = 1$ sharti qo‘yiladi. Bu parallel $\varphi_0)$ $\varphi_ж$ ва $\varphi_ш$ parallellari bilan chegaralanuvchi tasvirlanayotgan maydonning teng o‘rtasidan o‘tgan bo‘lishi kerak. φ_0 ning qiymati odatda yaxlit gradus qiymatigacha yaxlitlanadi. 2. Berilgan bosh parallel yoki konus yuzasiga tegib turuvchi parallelda ($\varphi_0 = \varphi_m = \frac{\varphi_ж + \varphi_ш}{2}$), $n_0 = n_{min} = 1$ sharti qo‘yiladi. Bu parallel ($\varphi_0)$ $\varphi_ж$ ва $\varphi_ш$ parallellari bilan chegaralanuvchi tasvirlanayotgan maydonning teng o‘rtasidan o‘tgan bo‘lishi kerak. φ_0 ning qiymati odatda yaxlit gradus qiymatigacha yaxlitlanadi. 3. Berilgan φ_1 ва φ_2 kengliklardagi ikkita bosh parallelda $n_1 = n_2 = 1$ sharti qo‘yiladi. Bosh parallellar B.B Kavrayskiy taklif etgan quyidagi formula bilan aniqlanadi: $\varphi_1 = \varphi_ж + \frac{2\Delta}{K}$; $\varphi_2 = \varphi_ш - \frac{2\Delta}{K}$, bu yerda $2\Delta = \varphi_ж - \varphi_ш$ bo‘lib, hududning kenglik bo‘yicha cho‘zilganligi, K - tasvirlanayotgan hududning konfiguratsiyasi va katta kichikligiga qarab har xil qiymatga ega bo‘ladi: a) agarda kartaga olinayotgan hudud kenglik bo‘yicha unchalik katta masofaga ($7^0 - 10^0$ dan ortiq emas) cho‘zilmagan bo‘lsa n=7; b) agar hududning konfiguratsiyasi to‘g‘ri to‘rtburchak yoki parallellogram shaklida bo‘lsa va $\varphi_ж$, $\varphi_ш$ parallellarga asoslari mos tushsa K=5; v) agar hududning konfiguratsiyasi ellips, doira yoki qandaydir egri chiziq shakliga ega bo‘lsa, K=4; g) agar hududning konfiguratsiyasi to‘rtburchak yoki romb shakliga ega bo‘lsa va rombning uchlari $\varphi_ж, \varphi_ш$ parallellariga mos tushsa K=3. [1. –Б. 48]

V.V.Kavrayskiy taklif etgan shart bo‘yicha, ya’ni berilgan chekka parallellar $-\varphi_ж, \varphi_ш$ da quyidagi tengliklar bajarilishi kerak a) $n_ж = n_ш$. б) $n_ж : 1 = 1 : n_0$. Bu shartlar proeksiyaning doimiylarini belgilaydi. Bosh parallellar (φ_1 ва φ_2) da esa uzunlik masshtabi bosh masshtabga teng ya’ni, $n_1 = n_2 = 1$ bo‘lishi lozim.

Lambert-Gaussning teng burchakli konusli proeksiyalari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi: $\rho = \frac{C}{U^\alpha}$, $\delta = \alpha\lambda$, $m = n = \frac{\alpha\rho}{\mu_0 r}$, $p = m^2$ [2. –Б. 90]

Proeksiyaning doimiylari $\alpha = \sin\varphi_0$ va C yuqorida aytilgan shartlar bo‘yicha topiladi: Agarda n_0 bo‘luvchi φ_0 paralleli berilgan bo‘lsa, ($\varphi_0 = \varphi_ж \frac{\varphi_ж + \varphi_ш}{2}$)

$$\alpha = \sin\varphi_0, \qquad C = \frac{\mu_0 r_0 U_0^\alpha}{\alpha}$$

2. Agarda $n_1 = n_2 = 1$ bo‘luvchi φ_1 ва φ_2 bosh parallellari berilgan bo‘lsa

$$\alpha = \frac{\lg r_1 - \lg r_2}{\lg U_2 - \lg U_1}, \qquad C = \frac{\mu_0 r_1 U_1^\alpha}{\alpha} = \frac{\mu_0 r_2 U_2^\alpha}{\alpha}$$

3. Agar $\varphi_ж$ ва $\varphi_ш$ berilgan bo‘lib, $n_ж = n_ш$ ва $n_ж : 1 = 1 : n_0$ sharti qo‘yilsa:

$$\alpha = \frac{\lg r_ж - \lg r_ш}{\lg U_ш - \lg U_ж}$$

$$C = \frac{\mu_0}{\alpha} \times \sqrt{r_ж r_0 (U_ж U_0)^\alpha} = \frac{\mu_0}{\alpha}\sqrt{r_ш r_0 (U_ш U_0)^L}$$

1. Bosh masshtab tanlanadi $-\mu_o = 1:20\,000\,000$

2. Kartografik to‘rni chekka parallellari va chekka meridianlarining qiymati aniqlanadi (globus yoki kartadan);

$$\varphi_ж = 41^0 \text{ sh.q}, \qquad \varphi_ш = 63^0 \text{ sh.q},$$

$$\lambda_ғ = 105^0 \text{ g‘.u}, \qquad \lambda_{шк} = 65^0 \text{ g‘.u}$$

Hududning kenglik va uzoqlik bo‘yicha qancha cho‘zilganligi aniqlanadi:

$$\varphi_ш - \varphi_ж = 22^0; \qquad \lambda = \lambda_ғ - \lambda_{шқ} = 40^0$$

4. Kartografik to‘rni chastotasi belgilanadi: $-\Delta\varphi = \Delta\lambda = 5^0$

5. O‘rta meridian aniqlanadi: $\lambda_m = \lambda_ғ \pm \frac{\lambda}{2} = 105^o - 20^o = 85^o$ g‘.u

6. Bosh parallellar (φ_1 ва φ_2) hisoblab topiladi:

$$\varphi_1 = \varphi_ж + \frac{2\Delta}{K} = 41^o + 6^o,5 = 47^o,5 \approx 48^o \text{ sh.k}$$

$$\varphi_2 = \varphi_ш - \frac{2\Delta}{K} = 63^o - 6^o,5 = 56^o,5 \approx 56^o \text{ sh.k}$$

α ва C doimiylarini hisoblash 1.-jadval

Formulalar	$\varphi_1 = 48^o$	$\varphi_2 = 56^o$

r	4275789	3574902
Lgr	6,6310163	6,5532641
$lgr_1 - lgr_2$	0,0777522 0,4136596	0,5122473
lgU	0,0985877	
$lgU_2 - lgU_1$	0,78866025	(0,788660249 shift sin)
$\alpha = \sin\varphi_0$	$52^0 03' 37{,}8''$	2.535064909 (lgU shift log yx α)
φ_0	2.11951690	7.14981
U^α	8.55158	18.12523244
$\mu_0 r$	18.12521833	22.98230758 ($\mu_0 r U^\alpha / \alpha$)
$\mu_0 r U^\alpha$	22.98228969	
C	22.98229864	
$C_{ўрт}$		

Ishni ko‘rib chiqishda AQSh hududi tanlandi va AQSh ning konfiguratsiyasi murakkab egri chiziqli shaklga yaqin bo‘lgani sababli K=4 deb olinadi[3. –Б. 106]

Yuqoridagi barcha kattaliklar aniqlab bo‘linganidan so‘ng, proeksiyani elementlari quyidagi jadvalda hisoblab topiladi: α - kartadagi uzoqlikning yer yuzasidagi uzoqlik bilan proporsional koeffitsienti.

Parallelni qutbiy radiusi $-\rho$ ni hisoblash 2-jadval

φ gradus	lgU	U^α	ρ см	$\Delta\rho$(см)
41°	0.3393870	1.85208552	12.40887550	
46°	0.3914970	2.03765736	11.27878469	1.13009081
51°	0.4426151	2.23394736	10.28775299	0.9910317
56°	0.5122473	2.53506491	9.06576338	1.22198961
61°	0.5847952	2.89204288	7.94673509	1.11902829
63°	0.6170516	3.06650777	7.49461614	0.45211895

Qutbiy burchak $-\delta$ ni hisoblash 3-jadval

λ gradus	λ gradus $-\lambda m$	δ
85°	0°	0° (*$0{,}78866025$)
80°	5°	3.9430
75°	10°	7.8860
70°	15°	11.8290
65°	20°	15.7732
60°	25°	19.7165
55°	30°	23.6598

Yassi to‘g‘ri burchakli koordinatalar x va u ni hisoblash 4-jadval

φ gra-dus	Koordi-natalar (sm)	λ gradus						
		85°	(90°)80°	(95°)75°	(100°)70°	(105°)65°	(110°)60°	(115°)55°
41°	x	0	0.029	0.117	0.264	0.467	0.727	1.043
	u	0	0.853	1.703	2.544	3.373	4.186	4.980
46°	x	1.130	1.157	1.237	1.370	1.555	1.791	2.078
	u	0	0.766	1.548	2.312	3.066	3.805	4.526
51°	x	2.121	2.145	2.218	2.340	2.508	2.724	2.986
	u	0	0.707	1.412	2.109	2.796	3.471	4.128
56°	x	3.343	3.364	3.429	3.536	3.684	3.875	4.105
	u	0	0.623	1.244	1.858	2.464	3.058	3.638
61°	x	4.462	4.481	4.537	4.631	4.761	4.928	5.130
	u	0	0.546	1.090	1.629	2.160	2.681	3.189
63°	x	4.914	4.932	4.985	5.073	5.196	5.354	5.544
	u	0	0.515	1.028	1.536	2.037	2.528	3.007

$$x = q - \rho\cos\delta; \qquad y = \rho\sin\delta.$$



3-rasm. Teng burchakli konusli proeksiya

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo ilmiy hamjamiyatida so‘nggi yillarda tabiiy fanlar sohadagi tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda, bu esa o‘z navbatida kundalik faoliyatida muntazam ravishda foydalanilayotgan raqamli karta (hayotiy)larni to‘g‘ri, aniq va to‘liq ishlab chiqilgan matematik asosiga bo‘lgan talabga javob berishi kerak. Proeksiyalarni tanlash T.Mirzaliev, E.Yu.Safarov, A.Egamberdiev, J.S. Qoraboevlar tomonidan “Kartashunoslik” darsligida[4. –B. 120] proeksiyalarning xususiyati, xatoliklarning taqsimlanishi haqida ma’lumotlar bilan keltirilgan. A.S.Suyunov, D.O.Jo‘raqulov, A.A.Salahiddinovlar tomonidan yozilgan “Matematik kartografiya” o‘quv-qo‘llanmasida [5. –B. 118] proeksiyalarni keltirib chiqarish tengliklari va mohiyatiga to‘xtalib o‘tilgan. E.Yu.Safarov, D.N.Rahmonovlarning “Matematik kartografiya” o‘quv-qo‘llanmasida[6. –B. 80] proeksiyalarni keltirib chiqarish tengliklari va mohiyati nazariy jihatdan yoritilgan, nihoyat, E.Yu.Safarov, Sh.M. Sharipov, D.N. Rahmonov va boshqalar tomonidan “Matematik kartografiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma”sida [7. –B. 35] aynan teng burchakli konusli proeksiyani tasvirlash ma’lumotlari, mohiyati, keltirib chiqarish tengliklari bilan xatoliklarning taqsimlanishi yoritilgan

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotimizda mavzuni chuqur bilishning an'anaviy, avtomatlashgan, qiyosiy tahlil, analitik, sintetik va boshqa umumiy ilmiy usullaridan, shuningdek, tarixiylik yondashuvi metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Proeksiyalar: azimutal konusli, va silindrikka bo‘linadi, Azimutal proeksiyalar yerning qutbiy qismini va aylana shakliga ega hududlarni tasvirlashda foydalaniladi, konusli proeksiyalar o‘rta kenglikda joylashgan parallellar bo‘yicha cho‘zilgan hududlar tasvirlanadi, silindrik proeksiyalar esa ekvatorga yaqin hududlar bilan dengiz kartalarini tasvirlashda qo‘llaniladi. Xatoliklarning taqsimlanishiga ko‘ra konusli proeksiyalar teng burchakli(burchak xatoligi 0 ga teng), teng maydonli(maydon xatoligi 1 ga teng) va ixtiyoriy (teng oraliqli, maydon xatoligi 1 dan katta yoki 1 dan kichik) proeksiyalarga bo‘linadi, teng burchakli konusli proeksiyalar viloyatni tasvirlashda, teng oraliqli va teng maydonli davlatlarni tasvirlashda qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, konusli proeksiyani bilish, uning mohiyatini anglash nafaqat kartograf, geograf va pedagoklar kartaning matematik asosini yaxshi bilishi lozim, sababi kartalarni to‘g‘ri aniq va to‘liq ko‘rsatishda proeksiya muhim ahamiyatga ega, ayniqsa kartada olib boriladigan kartometrik, geodezik tadqiqotlarning samaradorligi ta’minlanadi, yuqorigidagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz: matematik kartografiya fanidan olingan bilimlarni nafaqat kartografiya yo‘nalishida balki, geografiya, turizm va boshqa sohalarda ham o‘qitilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, shuningdek, matematik kartografiya faniga soatni ko‘proq ajratilsa olingan bilimlarni esa kerakli soha amaliyotida qo‘llash yaxshi natijalarni beradi deb o‘ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Берлянт А.М. Картоведение. – М.: Аспект-Пресс, 2003.
2. Вахрамеева Л.А., Бугаевский Л.М., Казакова З.Л. Математическая картография. – М.: Недра, 1986. -286 с.
3. Мирзалиев Т., Сафаров Э.Ю., Эгамбердиев А., Қорабоев Ж.С. Карташунослик. – Т.: Чўлпон, 2012.
4. Safarov E.Yu., Rahmonov D.N. Matematik kartografiya. – T.: “Cho‘lpon nashriyoti”, 2019. -288 б.
5. Safarov E.Y., Sharipov S.M., Raxmonov D.N., Yusupov B.N., Ergashyeva Y.X.. Matematik kartografiya: Amaliy topshiriqlarni bajarish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. T. 2021. -90 b.
6. Соловьев М.Д. Математическая картография. – М.: Недра, 1969.
7. Suyunov A.S., Jo‘raqulov D.O., Salahiddinov A.A. Matematik kartografiya. – Toshkent., “Davr nashriyoti” , 2013.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 372.3/.4

Ilxomjon YUNUSOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail:ilxomyunus@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.Abdullaeva taqrizi asosida

DEVEIOPMENT OF MEDIASAVODKHANATE COMPETENCIESOF FITURE DOKTORS

Annotaion

This article discusses the content and essence of the concepts of media and media culture, as well as the fact that the development of students' media culture is a pressing pedagogical problem.

Key words: modern information technologies, students, media, culture, media culture, media education, media literacy, media literacy, media skills, media competence.

РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается содержание понятий медиа и медиакультуры и в основе лежит также развитие медиакультуры учащихся говорят о том, что это актуальная педагогическая проблема.

Ключевые слова: современные информационные технологии, студенты, СМИ, культура, медиакультура, медиаграмотность, медиаграмотность, медиамастерство, медиакомпетентность .

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNINIG MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada media va mediamadaniyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati yotilgan, shuningdek, talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, talabalar, media, madaniyat, mediamadaniyat, mediata‟lim, mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat, mediakompetentlik .

Kirish Jahon tibbiyot ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish, axborot muhitida mediata’lim maxsulotlarini joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo‘lgan davr yangi ta’lim konsepsiyasida: “...zamonaviy dunyoda mediani ijtimoiy madaniy va siyosiy nuqtai nazardan tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baholash qobiliyati rivojlangan mediasavodxon kadrlarni tayyorlash...” dolzarb vazifa sifatida e’tirof etilib, ta’lim jarayonlarida mediata’limning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, innovatsion pedagogik va ahborotkommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida ta’lim sohasida olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar tibbiyot oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quvlaboratoriya jihozlari bilan ta’minlah, o‘quv dasturlari, o‘quvmetodik adabiyotlarni xalqaro talablarga mos holda yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Olib borilayotgan amaliy ishlardagi yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: “..xalqaro tajribalardan kelib chiqib,o‘quv jarayonlarini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida zamonaviy ta’lim va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish xisobiga talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish...” vazifasi pedagogik zarurat sifatida belgilandi. Elektron darsliklar, vertual ta’lim texnologiyalari, miltimediali elektron majmualardan o‘quv jarayonida keng foydalanish orqali talabalarning mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirilishi hamda faoliyat sohalari bo‘yicha talabalarga innovatsion ta’lim berish, kasbiy ko‘nikma va malkalarini doimiy takomillashtirib borish mediakontentlardan ta’lim jarayonida foydalangan holda mediakompetensiyali zamonaviy mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida mediamatnli materiallar, kompyuter texnologiyalari asosida o‘qitishga mo‘ljallangan elektron darsliklar, mediamahsulotlar yaratish jarayonlarini rivojlantirish, talabalarda mediamadaniyat va mediasavod-xonlik ko‘nikmalarini takomillashtirish va mavjud o‘qitish texnologiyalarining meyoriy asosi yaratilmoqda. Bo‘lajak shifokorlar uchun multimedia maxsulotlarini yaratish texnologiyalarini, shu jumladan, tibbiy texnologik apparatlar (MRT,MSKT,RET,kompyuter tomografiyasi)da tashxis qo‘yish va davolash uchun foydalaniladigan tomografik rasmlardan mediakontent yaratishda foydalanishni rivojlantirish hamda fan, ta’lim va ishlab chiqarishni keng axborot muxiti sharoitida tashxis ma’lumotlarni taqqoslash, muammolarni tahlil qilish, umumlashtirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlarni qabul qiladigan mediasavod-xonlik kompetensiyasiga ega salohiyatli kadrlarni tayyorlashni taqazo etmoqda. Tibbiyot sohasidagi islohatlar tufayli aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta’minlashda ularning mediamada-niyatini rivojlantirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash borasidagi manzilli ishlarni jadallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada tibbiyot sohasida bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivoj-lantirishda kompyuter texnologiya-laridan foydala-nishning pedagogik imkoniyati kengayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyoda kechayotgan globallashuv, shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamlashuv jarayonlari, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy manfaatlar to‘qnashuvi medianing axborot-psixologik ta’sirini oshirib, insonlar ongu shuuri uchun kurash jarayonini

kuchayib borishiga sabab bo‘lib bormoqda. Yoshlarning mediaolamdagi shiddatli axborot oqimiga qiziqishlarining ortishi, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funksiyalari kypayishi, axboriy muhitning ifloslanishi, unda turli nomaqbul axborot shakllarining paydo bylishi, mediaga qaramlik yoshlarning media bilan munosabatini tartibga solish uchun talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishni taqazo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 sonli farmoniga asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim olishlarida, zamonaviy kasb-xunar egallashlarida va kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishda, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushunishlarida innovatsion ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni xar tomonlama chuqur o‘zlashtirishlari zarur bo‘ladi. Zamonaviy axborot jamiyatida media, mediata’lim, ta’lim jarayonlarida mediadan foydalanish, zamonaviy bo‘lajak shifokorning ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda, ommaviy axborot vositalari yordamida ta’lim moxiyatini o‘zlashtirish, kasbiy salohiyatini oshirish va turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishga, ta’lim jarayonida (axborot texnologiyalari, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekran san’ati, kompyuter tomografiyalari, televizor, reklama, interaktiv doskalardan foydalanish, kompyuter animatsiyasi va boshqalar), tibbiy modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Shuning uchun xam bo‘lajak shifokorlarning axborot va kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularning mediasavodxonlik kompetensiyalarini masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda, bo‘lajak shifokorlarning media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega xisoblanadi.

Respublikamizda ta‟lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta‟lim, jumladan, oliy ta‟lim tizimida katta o‟zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, olib borilgan islohotlar bugun o‟z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish o‟qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik kompetensyalarini rivojlantirish samaradorligiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kundagi zamonaviy media savodxonlik, internet va ijtimoiy tarmoq, inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu texnologiya foydalanuvchilarini shartli tarzda ikki toifaga bo‘lish mumkin. Birinchi toifa shaxslar, internet va media olamning ijobiy jihatidan unumli foydalanib, internet va axborot texnologiyalar jamiyat taraqqiyotiga samarali hissa qo‘shadi deb hisoblaydi. Ikkinchi toifa esa, axborot va ijtimoiy tarmoqlardan turli yolg‘on va tahdid kabi axborot tarqatishda foydalinib, maishiy masalalar doirasida o‘ralashib qolganlardir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lajak shifokorlar uchun eng zarur bo‘lgan asbob- pichoqni media orqali targ‘ib qilinmoqda, deylik. Birinchi toifa shaxslar pichoqni shifokor uchun naqadar ahamiyatli qurol ekanligini, ushbu qurol yordamida shifokor bemorni jarrohlik amaliyoti yordamida uni hayotga qaytarishini va kundalik turmushimizni shu pichoqsiz tasavvur qilib bo‘lmasligini tahlil qiladilar, fikr yuritadilar va ushbu qurol-pichoqning yana biz bilmagan ijobiy va foydali tomonlarini mediadan tanlab, ajratib olib, pichoq haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. Ikkinchi toifa shaxslar esa pichoq-bu yovuz maqsadlarni amalga oshirishda eng oson qurol sifatida qo‘llashni fikr qiladilar. Pichoq massasi kichkina bo‘lganligi sababli dushmanga ko‘rsatmasdan yon cho‘ntakda ham olib yurishga qulayligini, u o‘tkir tig‘li sovuq qurollar turkumiga kirganligi sababli dushmanga xujum qilishda eng qulay qurol ekanligini tahlil qiladilar, fikr yuritadilar va yana ushbu quroldan o‘z g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda yana qanday xususiyatlardan foydalanish mumkinligini uylaydilar. Demak, media bilimlilar uchun bilim vositasi, kimlar uchun esa balo vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin ekan. Shuning uchun xam talabalarda axborotlarni saralash, tahlil qilish, ijobiy natijalarga yo‘naltirish kompetensiyasi muxim xisoblanadi. Jumladan, XX asrda xali internet rivojlanmagan vaqtda axborot taqchilligi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda, jamiyatda esa axborot oqimi ko‘paygani tufayli, ilmiy, tahliliy va mantiqiy fikrlash talab etuvchi axborotdan qochish, yuzaga keldi. Global axborot zamonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baxolash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishni talab etadi.

Bugungi kunda media, ya’ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san’atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma’lumot inson ongiga o‘zining ma’lum bir ta’sirini o‘tkazib, uning dunyoqarashini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo‘llanilishi va bugungi kunda mediata’lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o‘rganishga bo‘lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya’ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so‘ng darsda ko‘rgazmali organayzerlar, ko‘rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bizning tadqiqotimiz tayanch, fanga oid, amaliy, fan va hayotiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Nima uchun talabalarga mediasavodli bo‘lishi muhim? Bugungi kunda mediasavodxonlik XXI asr yoshlari uchun eng zarur bo‘lgan ko‘nikma bo‘lib qolmoqda. Xuddi o‘qish, yozish qobiliyati kabi bu juda muhim ko‘nikma. Sababi, bugungi kunda odamlar media dunyosida yashaydilar, turli axborot manbalaridan foydalanadilar. Albatta, har kim bu ma’lumot qanchalik foydali yoki zararli bo‘lishi mumkinligini o‘zi o‘ylashi kerak. Shu ma’noda media axborotlarni oziq-ovqatlar bilan taqqoslanadigan metafora kabi tushunish mumkin. Odatda aynigan ovqat istemol qilinmaydi. Juda yog‘li yoki juda achchiq taomni iste’mol qilish organizm uchun zararli xisoblanadi. Albatta, bu masalada insonni o‘zi nimani tanlashini hal qilishi kerak. Axborotlar ham xuddi shunday.

Turli ta’mli mahsulotlar tanlanishi mumkin, ammo aynigan ya’ni keraksiz ma’lumotlarga ega bo‘lish, ularni o‘qish, iste’mol qilish kerak emas. Fikrimizcha, bu metafora, axborot dunyosida hozir nima sodir bo‘layotganini juda yaxshi ko‘rsatib beradi. Fast fud (tez pishadigan taom) kabi hamma narsani iste’mol qiladigan odamlar bor. Sifatli mahsulotni tanlab, saralab o‘qiydigan, tinglaydigan odamlar ham mavjud. Ammo, bu ma’noda qaralganda, inson uchun axborotdan keladigan xavf oziq-ovqatnikidan kam emas. Agar inson fast fudni iste’mol qilsa nima bo‘ladi? Insonda ortiqcha vazn orttirish xolati vujudga keladi. Demak, talabalar xam sifati past ma’lumotlarni o‘qisalar, unda dunyo haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladilar. Ehtimol, ba’zi firibgarlar talabalarda mediasavodxonlik shakllanmaganligi sababli ularni aldab ketishi mumkin. Shuning uchun xam talabalarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masala kasb etadi.

Tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqib, bo‘lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini yoritishdan avval media o‘zi nima? Mediasavodxonlik nima? Mediasavodxonlik kompetensiyasi nima? Nima uchun bo‘lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish muhim? Kabi muhim savollarga to‘xtalib o‘tamiz.

Media (inglizcha media, lotincha medium -vositachi)degan ma’noni anglatib, bu aloqa vositalari, axborotni uzatish usullari, shuningdek ular tomonidan shakllangan muhit (media makon) ni o‘z ichiga olgan keng tushunchadir. Media atamasini birinchi marta fanga Kanadadagi Toronto Universiteti xodimlari tomonidan amaliyotga kiritilgan. Shuning uchun xam Toronto Universiteti xodimlari media atamasi asoschilari xisoblanadi. Toronto Universiteti - Kanadadagi yirik oliy o‘quv yurtlaridan biri xisoblanadi. Oliygoh 1827-yil tashkil etilgan. Universitetda sanoat texnologiyasi, sanat va fan, o‘rmon xo‘jaligi, tibbiyot, stomotologiya, pedagogika, huquqshunoslik, farmokologiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Xozirgi kunda Toronto Universitetida 50 mingdan ortiq talabalar ta’lim oladilar. Keyinchalik bu atama lotin tilidan hosil bo‘lgan ko‘plik shakli o‘rta, "o‘rta" yoki "vositachi"deb tarjima qilingan. Media atamasi xaqida Toronto universiteti xodimi Marshal Makluanni intervyusidan iqtibos keltirishimiz mumkin: “....bizni o‘rab turgan atrofdagi dunyoni o‘rganishga yondashuv yetarlicha adaptiv moslashuvchan bo‘lishi kerak, shunda u doimiy harakatda bo‘lgan atrofdagi dunyoning matritsasini qamrab olishi mumkin. Men o‘zimni keng manodagi universal olim deb bilaman, kichik bir fanga yopishib olgan, uni o‘zining intellektual sohasi deb e’lon qilgan va atrofda boshqa hech narsani ko‘rmaydigan tor mutaxassis emas. Mening ishim, aslida, chuqur tahliliy natijani oddiy amaliyotga aylantirib berish, yani zamonaviy oddiy metallurgiyadan tortib murakkab psixatiriyagacha bo‘lgan jarayonlarni strukturaviy taxlil qilib, ularni sodda qilib amaliyotga qo‘llashdan iboratdir. Turli xil axborotlar oqimini samarali o‘rganish nafaqat tarkib, balki vositalarning o‘zi, shuningdek, ushbu vositalar faoliyat ko‘rsatadigan media kontekst bilan ham bog‘liq. Hodisaning harakat tamoyillari va asosiy kuch chiziqlarini kashf qilish uchun uni yon tomondan kuzatish kerak. Mening tadqiqotimda radikal yoki shov-shuvli narsa yo‘q, lekin negadir hech kim buni mendan oldin qilishni o‘ylamagan edi. G‘arb sivilizatsiyasining so‘nggi 3500 yillik davrida turli xil axborotlar oqimining ta’siri — nutq, yozish, matbaa, fotografiya, radioeshittirish yoki televideniye bo‘lsin — jamiyat tadqiqotchilari tomonidan muntazam ravishda kam baholangan. Shu kabi ommaviy axborotlar oqimlari o‘rtasidagi aloqa vositasi -bu xabar, ya’ni mediadir",- deb o‘z fikrini bayon etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, mediamadaniyatini rivojlantirish ― ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediamadaniyat pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatar o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60p.
2. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер.... Тошкент, 2018. – Б. 36-37.
3. Парламентская Ассамблея Совета Европы. Документ №8753 от 6 июня 2000.
4. Уматалиев З. Медиахавфсизлик èшларимиз келажагининг пойдевори сифатида. ―Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм‖ республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. 223 б.
5. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). Modernization of education-the future innovative competence of teachers as a main factor of formation. In Конференции.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDC: 373.1

Temur-Malik YAXSHIBOYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: temurbek5777@gmail.com

GulDPI p.f.b.f.d. (PhD) M.Niyozov taqrizi asosida

DEVELOPING TECHNOLOGIES OF PUPILS CREATIVE ABILITY

Annotation

This article describes the psychological, pedagogical, and socio-economic factors of developing students' creative competences. The theoretical structure and methods of the development of creative thinking, students' creativity-based design process are shown.

Key words: creativity, creator, thinking, initiative, knowledge, skill, activity, process, creative potential, project, scientific inquiry, activity, heuristic, education, epistemological, standard, core, social.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В статье рассмотрены психолого-педагогические и социально-экономические факторы развития творческих компетенций студентов, показаны теоретическая структура и методы развития творческого мышления, творческого процесса проектирования студентов.

Ключевые слова: творчество, творец, мышление, инициатива, знание, умение, деятельность, процесс, творческий потенциал, проект, научное исследование, деятельность, эвристика, образование, гносеологический, нормативный, стержневой, социальный.

O‘QUVCHILARDA IJODKORLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarda ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillari xaqida yoritilgan.Ijodkorlik tafakkurini rivojlantirish,o‘quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonining nazariy tuzilmasi va usullari ko‘rsatrib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, ijodkor, tafakkur, tashabbuskorlik, bilim, ko‘nikma, faoliyat, jarayon, ijodiy potensial, loyiha, ilmiy izlanuvchanlik, faollik, evristik, ta’lim, gnesologik, standart, yadro, ijtimoiy.

Kirish. Mustaqil Respublikamizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti ta’lim tizimi oldiga jahon standartlari talablariga javob bera oladigan, salohiyatli, chaqqon (harakatchan), ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi yangiliklarni faol qabul qila oladigan va yarata olishga qobiliyatli ijodkor mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘ydi. Bunday mutaxassislar kasbiy bilimlarning zaruriy “yadro”sini o‘zlashtirishdan tashqari, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ilmiy izlanuvchanlik, mustaqillik, yangilik yarata bilish, tanqidiy fikrlash, masalalarni ko‘p variantda echa olish va ularni ob’ektiv baholash ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi kerak.

Ijodkorlik yoki ijodiy faoliyat katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, yangi, birinchi marta yaratilayotgan, o‘xshashi bo‘lmagan mahsulot beruvchi faoliyat. Bu haqda quyidagi fikr qayd etilgan: “Inson faoliyati o‘z mohiyati, amalga oshirilish xarakteri va ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha ijodkorlikdir” .

Odatda, kattalarning ijodkorligi – deganda yangi, o‘xshashi bo‘lmagan mahsulot, ya’ni ijtimoiy va ob’ektiv ahamiyatga ega moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishga olib keluvchi faoliyat tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maxsus adabiyotlarda esa, ijodkorlik tushunchasining u yoki bu talqini keltirilishi bilan bir qatorda, uning tabiati, ijodiy jarayon tuzilishi va inson ijodiy qobiliyatlarining shakllanishi haqida turli fikrlar mavjud. Bu erda “ijodkorlik” tushunchasini talqin etishda uning ko‘p qirraliligiga e’tibor qaratish lozim. Chunki, ijodkorlik tushunchasi “faollik”, “faoliyat”, “jarayon”, “faoliyat ko‘rinishi”, “faoliyat tipi”, “faoliyat shakli” sifatida qaraladi. Uning boshqa tomoni esa “ijodiy potensial”, “ijodiy qobiliyat”, “ijodiy faollik”, “ijodiy munosabat”, “ijodiy faoliyat”, “ijodiy mehnat”, “shaxs ijodi” kabi tushunchalarda aks etadi.

V.G.Razumovskiy esa ijodkorlikni quyidagicha ta’riflaydi: “ijodkorlik - bu insonning borliqni bilishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, o‘xshashi bo‘lmagan, ilgari mavjud bo‘lmagan, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar, asarlar va boshqa shu kabilar yaratiladi”.

Ijodiy faoliyatning falsafiy nazariyasi va uning ijtimoiy tabiati N.F.Xoroshko, A.T. Shumilin kabi olimlarning ishlarida qaralgan bo‘lib, ular asosan inson ijodiy faoliyatining dunyoqarashi jihatini, gnesologik va umummetodologik xarakterdagi muammolarini o‘rgangan. Ularning fikricha, ijodkorlik va inson mohiyati, akslanish va ijodkorlik, uzoqlashish va ijodiy qobiliyat, ijodkorlik va amaliyot ijodiy jarayonning o‘ziga xosligini aniqlovchi asosiy kategoriyalar hisoblanadi. Dialektik materializmda esa ijodkorlikni xarakterlovchi asosiy kategoriya bo‘lib, materiyaning ommaviy xossasi sifatida akslanishi hisoblanadi. N.F.Xoroshko fikricha, “bunday o‘zaro ta’sirlashish natijasida doimo vaziyat vujudga keladi, ya’ni paydo bo‘lgan yangi tashkil etuvchi boshqa ob’ekt bilan o‘zaro ta’sirlashishni boshlaydi, natijada avvalgisi bazasida, ammo unga nisbatan yuqori darajada yangi tashkil etuvchi paydo bo‘ladi va natijada quyidagi ketma-ketlik paydo bo‘ladi: “harakat–rivojlanish–o‘zini mustaqil tashkil etish–ijodkorlik–faoliyat–madaniyat”. Madaniyat sub’ektning moddiy va ma’naviy

qadriyatlarni anglash va yaratish majmuasi sifatida uning ijodiy faoliyatining yakuniy mahsuloti bo‘lib yuzaga chiqadi”.

Bizning fikrimizcha “ijodkorlik” borliqni bilish va o‘zgartirishning ijtimoiy-tarixiy jarayonida insonning jismoniy va ruhiy kuchini, uning qobiliyati va ehtiyojini mustaqil ishlab chiqarish va mustaqil rivojlantirish sifatida ishtirok etadi. Chunki bu faoliyat amaliy yaratuvchanlik va bilishning tarixan to‘plangan tajribalari va uning inkori, ya’ni rivojlanish jarayonida chegarasiz o‘z-o‘zini yangilashi o‘rtasidagi nomutanosiblikni o‘zida saqlaydi.

Xo‘sh ijodkorlik tafakkuri nima? Uni qanday rivojlantirish mumkin?

Tafakkur falsafasi, psixologiya hamda pedagogika kabi fan sohalarining muhim tushunchalaridan biri bo‘lib, unga olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan.

Bizning fikrimizga ko‘ra, V.Karimova tomonidan berilgan ta’rif ijodkorlik tafakkuri atamasi mohiyatini to‘laroq yoritadi: “Tafakkur – inson ongining bilish ob’ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o‘rtasidagi murakkab, har tomonlama aloqalarning bo‘lishini ta’minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir”. Shuni qayd etish lozimki, narsalar va hodisalar o‘rtasidagi sabab va natija bog‘lanishlarini hamda o‘zgarish va taraqqiyot qonunlarini bilganligimiz sababli, biz hozir bo‘lmagan, lekin bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa va hodisalarni oldindan aytib bera olamiz yoki yarata olamiz.

Biz amalga oshirgan ijodkorlik, tafakkur tushunchalari hamda ijodkorlik tafakkuri tushunchalariga berilgan ta’rif va tasniflarning tahlili asocida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari xususiyatlarini to‘laroq aks ettiruvchi o‘z ta’rifimizni taklif qildik:

Ijodkorlik tafakkuri- bilish ob’ektlari hisoblanmish narsa, buyumlar hamda umumiy holatda olingan yashash muhitining shakliy sifatlari hamda tashqi ko‘rinishdagi har tomonlama aloqalarni tuzishga qaratilgan; ijodiy faoliyatni inson ongida aks ettirish shaklidir.

O‘quvchilarda ijodkorlik tushunchasini rivojlantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uni o‘quvchilar ongiga singdirishda nazariy va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi didaktik prinsipga amal qilinishi mazkur jarayonning samarali amalga oshirish imkonini beradi. Odatda buyumni baholaganda uning qiymati, foydasi, go‘zalligi e’tiborga olinadi, biroq amaliy foydasi, estetik kechinmalari, shaxsiy psixologik ta’siri, rangi, ranglar uyg‘unligi, hissiyotga ta’siri, nimadan tayyorlanganligi, boshqa buyumlar bilan uyg‘unligiga ahamiyat berilmaydi.

Tahlil va natijalar. Buning uchun ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilganlik, ilmiy yangilikka intilish, ijodkorlik, shaxs psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi shakllar orqali hissiyotga ta’sir ko‘rsatish kabi muammolarning echimini topishni engillashtiradigan ijodkorlik tafakkurini rivojlantirishda pedagogik-estetik hamkorlikning samarasini oshirish talab etiladi.

1-shakl. Ijodkorlik tafakkurini rivojlantirish.



Ijodkorlik asosida loyihalash ishi oddiy loyihalashdan farq qilib, bu funksional vazifasini inobatga olgan holda, uni ixcham, xizmat uchun qulay va arzon bo‘lishini ta’minlashga qaratilgandir. Ijodkorlik loyihalarining jamiyatda ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, tarbiyaviy ahamiyati katta. Ijodkorlik asosida loyihalash uchun o‘quvchilarda ijodkorlik, bilim, ko‘nikma, malaka va ijodkorlik tafakkurini rivojlantirishimiz zarur. O‘quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonining nazariy tuzulmasini 2-shakl orqali tasavvur qilishimiz mumkin.



2-shakl. O‘quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayoniningnazariy tuzilmasi

O‘quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonini amalga oshirishda quyidagi narsalarni bilish lozim:

- loyihalanayotgan mashina yoki uskunaning qanday sharoitda ishlashi;
- loyihalanayotgan buyumdan foydalanish samaradorligini aniq (yoki qisman) baholanishi;
- loyihalashtirilayotgan buyum nima maqsadda xizmat qilishini bilishi;
- boshqa qanday variantlari bo‘lishini tasavvur qilishi;
- iqtisodiy talablarning qo‘yilishini izohlay olishi.

Texnologiya ta’limi jarayonida buyumlarning ijodkorlik loyihalarini bajarishda o‘quvchi berilgan topshiriqdan buyumning vazifasini, uning umumiy tuzilishini, tayyorlashning texnologik imkoniyatlarini va boshqa buyumlar bilan aloqasini bilib oladi.

Ushbu izlanishlardan kelib chiqib o‘quvchilarning ijodkorlik loyihalarini bajarish bo‘yicha faoliyati samarali bo‘lishi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- ijodkorlik loyihalarini bajarishga oid o‘quvchilar uchun topshiriqlar, ma’lumotlar hamda o‘quvchilar uchun ko‘rgazmali qo‘llanmalar va uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
- ijodkorlik asosida loyihalash bo‘yicha o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- ijodkorlik asosida loyihalash jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish;
- o‘quvchilarda ijod va ijodkorlikka bog‘liq kasblarga qiziqish uyg‘otish, ularning ijodkorligini rivojlantirish orqali etuk shaxslarni tarbiyalash;
- o‘quvchilarning ijodkorlikka oid egallashlari lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikma hajmi, sifatini belgilab olish hamda ularning sinflar bo‘yicha taqsimotini amalga oshirish;
- ijodkorlik loyihalarini amalga oshirishning mazmuni, tuzilmasi va tashkiliy asoslarini yangi axborot texnologiyalari vositasi orqali takomillashtirish.

Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda, texnologiya ta’limi darslarida o‘quvchilar ijodkorlik loyihalarini muvoffaqiyatli bajarishiga erishish hamda ularning dunyoqarashini boyitishda, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat.

- o‘quvchilar axborotlarning noan’anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib berish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- o‘quvchilar mustaqil ijod qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish va yasalayotgan buyumning turli variantlarini loyihalash, o‘zgartirish kiritish hamda taqqoslash imkoniyatlarini vujudga keltirish;
- o‘qitishda kompyuter texnologiyasini qo‘llash orqali o‘quvchi ongini o‘stirish, ijodiy izlanishini rivojlantirish, yaratilgan buyum loyihalarining maqbullarini tanlash uchun qo‘shimcha maslahat va ko‘rsatmalar berish imkoniyatiga ega bo‘lish;
- o‘quvchilar kompyuter savodxonligini oshirish va ularning o‘zlashtirish darajalarini baholashning qulay variantlariga ega bo‘lish.

O‘quvchilar kompyuterdan foydalanib ijodkorlik loyihalarini bajarishda quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi:

- loyihani qayta ishlash;
- loyihaga o‘zgartirish kiritish;
- loyihani kompyuter xotirasida saqlash va kelgusida foydalanish;
- loyihani alohida qismini qayta kompanovka qilish va boshqalar;
- loyihaga yozuvlar kiritish;
- loyihani boshqa fayllarga ko‘chirish;
- matnni tahrir qilish va boshqa imkoniyatlar mavjuddir.

Ushbu imkoniyatlardan to‘laqonli foydalana olish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarining texnologiya ta’limi o‘qituvchilari, axborot texnologiyalari yuzasidan quyidagilarni bilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- fan, texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlarni;
- zamonaviy axborot almashinish metod va usullarini egallaganligi;
- fanni o‘qitishda, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlariga oid bilimlarni rivojlantirishda kompyuter texnikasidan unumli foydalana olish;
- mavjud lokal va global tarmoq tizimlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, internet tizimi va uning imkoniyatlaridan foydalana olishi;
- kompyuterlar yordamida matn hamda grafik muharrirlari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ijodkorlik loyihalarini bajara olishi;
- axborot texnologiyalarni amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida tasavvurga ega bo‘lishini;
- darslarni tashkil qilishda kompyuter qurilmalaridan ta’lim vositasi sifatida foydalana olishi;
- o‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashgan tizimini o‘z faoliyatida qo‘llay olish;

- o‘quv materiallari haqida axborotli ma’lumot tizimini bilishi va qo‘llay olishni;
- o‘qitiladigan fan ma’lumotlar bazasini yarata olish.

Shuni ta’kidlash kerakki bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirishni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki bu texnologiya yordamida fanlar bo‘yicha turli mavzularni ko‘rgazmali va tushunarli shaklda bayon qilish imkoniyati katta. Bu afzalliklarni o‘z vaqtida tushunib etgan holda, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan o‘quv dasturlarini tuzish va ulardan keng miqyosda foydalanish maqsadga muvofiq.

Texnologiya ta’limi mashg‘ulotlarida o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish natijasida kasbiy munosabatlar samarali rivojlanishi kuzatiladi. O‘quvchilar o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajarish, nazorat topshiriqlariga javob berish uchun o‘tilgan mavzularni to‘laroq o‘zlashtirishga intiladilar.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o‘rnini quyidagicha izohlash mumkin.

- kompyuter vositasida loyihalashda vaqt tejaladi;
- o‘quvchilarni mustaqillikka, mustaqil fikrlashga, o‘zaro hamkorlikka o‘rgatish mumkin.

Shunday qilib, bugungi kunda kompyuter vositasida o‘quvchilar ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini 3-shaklda ko‘rsatilganidek tasavvur etish mumkin.



3-shakl. Kompyuter vositasida o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish tizimi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan o‘quvchilar ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish loyihalash jarayonida o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri kengayib borishi barobarida ularning ijodkorlik qobiliyatlari o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun, misol tariqasida duradgorlik asboblari uchun quti loyihasini chizishni olib ko‘raylik. Buyumni yasashdan oldin uning texnik rasmini, eskizini chizishimiz lozim. Bu loyihani chiroyli, tez va sifatli qilib bajarishda kompyuterdan foydalanish samarali natija berishi kuzatiladi. Bunda o‘quvchi kompyuterdan foydalanib mustaqil ravishda qutining namunaviy variantlarini chizishi, unga o‘zgartirish kiritishi va shakl tushirish, turli ranglarda tasvirlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. .- Toshkent. 2013. - B. 64.
2. Abduquddusov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005. – 160 b.
3. To‘raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. O‘zMU, 2018. -B. 27.
4. Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.
5. Sharipov Sh. S. Kasb-hunar ta’limida o‘quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent, Fan, 2005. -140 b.
6. Pedagogik ensiklopediya. – M.: 2002. – 550 s.
7. Шутенко, А.В. Методы проведения учебных занятий с использованием средств информационных и коммуникационных технологий /А.В. Шутенко [Электронный документ].- (htpp://pedsovet.su/publ/ 26-1-0-841). 05.04.2010.
8. Xasanova Sh.B. Elektron ta’lim resurslari tayyorlash va undan foydalanish tajribalari. Uzluksiz ta’lim. -Toshkent. 2017, №5. - B. 46-51

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/12/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:327

Gulbahor YAXSHIBOYEVA,
A teacher, the department of foreign languages, Andijan state medical institute, Andijan, Uzbekistan
E-mail: daminovamubina@inbox.ru

Based on the review of ADTI associate professor L.Khudayberdiyeva

IMPROVEMENT COMMUNICATIONAL SKILLS IN PARAMEDICAL ENGLISH CLASSES OF ANDIJAN STATE MEDICAL INSTITUTE

Annotation

There is a rapid and intensive development of medical science. In accordance with this, new goals and objectives are being put forward in the training of medical specialists, which are reflected in Uzbek standards of higher professional medical education (ASMI). These goals and objectives concern not only specialized medical disciplines, but also disciplines of the basic general education cycle. The article discusses the concept of listening; the relationship with other types of speech activity, the types and stages of listening, and also provides example exercises for the development and improvement of this skill in Andijan state medical institute (ASMI) among Paramedical students.

Key words: self-improvement, radio broadcast, lexico-syntactic and grammatical features, reading-emphasizes, ASMI, Writing across the Curriculum.

УЛУЧШЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПАРАМЕДИЦИНСКОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА АНДИЖАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Аннотация

Происходит быстрое и интенсивное развитие медицинской науки. В соответствии с этим в подготовке медицинских специалистов выдвигаются новые цели и задачи, которые отражены в узбекских стандартах высшего профессионального медицинского образования (АГМИ). Эти цели и задачи касаются не только специализированных медицинских дисциплин, но и дисциплин основного общеобразовательного цикла. В статье рассматривается понятие слушания; взаимосвязь с другими видами речевой деятельности, видами и этапами аудирования, а также приведены примеры упражнений по развитию и совершенствованию этого навыка в Андижанском государственном медицинском институте (АГМИ) среди студентов среднего медицинского образования.

Ключевые слова: самосовершенствование, радиовещание, лексико-синтаксические и грамматические особенности, чтение-ударение, АГМИ, Письмо по учебной программе.

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI PARAMEDITSINA YO‘NALISHIDAGI INGLIZ TILI DARSLARIDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI OSHIRISH

Annotatsiya

Bugungi kunga kelib tibbiyot fanining tez va jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Shunga muvofiq tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy tibbiy ta’lim (OTM) standartlarida o‘z ifodasini topgan yangi maqsad va vazifalar ilgari surilmoqda. Ushbu maqsad va vazifalar nafaqat ixtisoslashtirilgan tibbiyot fanlariga, balki asosiy umumiy ta’limning boshqa fanlariga ham tegishli. Maqolada parameditsina yo‘nalishida tehsil oluvchi talabalarning tinglash tushunchasi shuningdek, nutq faoliyatining boshqa turlari bilan aloqasi, tinglash turlari va bosqichlari muhokama qilinadi. Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI) talabalari orasida ushbu malakalarni rivojlantirish va takomillashtirishga oid misol mashqlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini takomillashtirish, radio eshittirish, leksik-sintaktik va grammatik xususiyatlar, o‘qish-ta’kidlar, ADTI, o‘quv dasturi bo‘yicha yozish.

In the past few years, teaching communication at the ASMI in English has been a primary task for institute students. In the medical world, English is considered not just a foreign language, but an international language, knowledge of which is necessary to obtain a decent education, a well-paid profession and communication at the international level.

Currently, in the period of globalization and the formation of a single information space, knowledge of a foreign language, and first of all English, is becoming an integral part of the characteristics of a highly qualified specialist. Almost all scientific discoveries made in the world are subsequently described in English. Therefore, no one doubts that knowledge of the English language in the modern world is the path to self-improvement, professional growth and international activity. Any person engaged in scientific activity should be at the center of all the latest achievements in their field. This primarily applies to medical professionals.

Recently, most attention has been paid to teaching auditorium skills, since fluency in a language also presupposes a fluent understanding of English by different sense organs, mostly listening. Possession of this type of speech activity helps a person to hear and understand the speaker, to extract the necessary information for himself, to respond to the speech of the interlocutor, and also to pronounce the necessary information, which in turn is speaking.

Learning any language (non-native), primarily native, begins with listening, we hear sounds, words, perceive any flow of information by ear, only then we learn to reproduce speech (speaking), later we learn reading and writing skills. Thus, listening is an important and first link in the language during the learning process. Listening is present in every lesson in our medical institute - this is the teacher's speech, the students' answers, sometimes lecturers’ audio records.

Listening to audio recordings is in the future a main basic part for the development of speaking skills, writing skills

and even in reading skills. During our lessons we also use presentation and in this case, listening plays a secondary role. The main factor in listening teaching is motivation. The listener must have a need for listening comprehension. It is important to choose suitable audio text that will be interesting and informative for students (for example, a text of a medical purpose), will correspond to their age characteristics, interests, and medical problems. Currently, there are a huge number of available listening tools, including audio recordings, films, songs in English, audiobooks, radio broadcasts, television channels, and podcasts.

It is recommended that the audio material be associated with the unit that is currently being studied in the classroom, thereby reducing the time for working out the lexical material that was introduced earlier within the framework of the conversational topic, and the logical information chain is not interrupted. When choosing a text for listening, we take into account the level of training of the student, the volume of the sounding text. The teacher's task here is to facilitate the process of perception, remove all kinds of phonetic, lexical, grammatical difficulties even before listening to the text.

Depending on the task, there are:

- Listening with a full understanding of the text
- Listening with an understanding of the main content (listening for detailed information).

When listening with an understanding of the main content, it is enough to present the text twice. If the text is large in volume, then during the second listening, you can make small pauses after a logically completed paragraph. When listening with selective extraction of information, one listening is enough and memorize the basic information, ignoring the secondary and unnecessary.

Listening training can be divided into 3 stages:

- Before listening
- While listening
- After listening.

Let's consider a specific example of a lesson with students of the medical direction at the ASMI.

As part of the study of the topic "The lungs", students are invited to listen to audio recordings of a country-specific nature called "Life without breathing". Tasks before the text stage can be as follows: What do you think this text will be about? (content proposal by title) What is necessary for living? Look at the picture and tell. (visual support, photos can be taken from the Internet). Emphasis is placed on selective vocabulary and grammar. An assignment of this type: Make up your on sentences with new words. For others to listen carefully to the examples of their peers, you can organize the work in this way: the first one reads in English, the other translates the sentence which heard into Uzbek/Russian, thereby concentrating his attention, memorizing new words and developing listening skills.

The purpose of the exercises at this stage is preparing students for listening, introduce them to the topic, and motivate them to work, remove any lexical or grammatical difficulties, if any. At the next stage, the textual one, the students listen to the text; try to understand the main content, the topic of the text, the basic facts.

Before listening, teacher can give tasks such as: Listen to the text and tell what sort of text it is (for example a description, an opinion article, a narrative) Listen to the text and think of your own heading. Guess what ... ?. If the text is not of a regional nature, but describes a situation or an incident in the life of the narrator, then you can pause while listening and ask the students to predict, guess how and how the story will end.

After the text stage, it offers endless possibilities for checking the understanding of the material heard, as well as for the parallel improvement of the skills of other types of speech activity. Tasks after the text stage can be as follows: Fill in the gaps. Are the sentences true or false? If the sentence is false, correct it. Put the sentences in chronological order. Choose the correct answer. Match two halves of the sentence. Make a plan of the text. Make up your own questions based on the text. Do you remember what these numbers mean? These tasks simultaneously improve writing and reading skills. Another group, after the text exercises, is aimed at improving their speaking skills. This includes exercises like Answer the questions. Choose the best summary. Discuss with your partner. Choose the proverb (think of proverb) according to the text. Do you agree or disagree with the narrator? Who do you agree with? Give your own arguments. This task is suitable if the audio recording is the expression of the views of several people on a problem.

The number of exercises will depend on the level of training, activity and interest of the students, as well as on the amount of time in the lesson. Thus, teaching listening is a rather interesting, rich, educational and cognitive process, if the student is motivated correctly. Possession of this skill ensures the success of communication, which lies in the ability to speak English and understand English. In addition to its main goal, listening develops memory, thinking, imagination and perception, that is, contributes to the all-round development of the personality.

Medical students require not only effective listen but also effective oral and non-verbal communication. When they interact with patients, they have to remember the elements of good verbal communication into if we may add eye-contact, focusing on listening and interactions. After communicating with patients doctors will directly connect with reading-emphasizes the tenets of scientific reading. This means one must accurately communicate complicated scientific information found through complete, discerning and careful research. Developing strong research skills takes time and practice in Uzbekistan without English atmosphere is one of the most difficult aims but deleting reading in the list of necessity of the language is impossible.

From our point of view, to a certain extent, the situation could be changed by including in the mandatory list of literature (journal articles, monographs, textbooks) in English in special medical departments, followed by the requirements for writing abstracts, annotations, and a summary of what has been read. This can be done both in English and in a native language at the discretion of the department. Of course, this imposes additional difficulties on teachers, but at the same time it contributes to the development of their own language competence, helps them to keep abreast of the latest discoveries in the field of medicine in which they are engaged.

Medical students able to know how make analyses and evaluable in their native language. In order to do all these process in English or other non-native all medical institutions and schools have initiated Writing Across the Curriculum (Wac) programs in undergraduate medical programs. Research which was organized in ASMI devoted to the writing and speaking skills of medical students whose first language is not English does not currently exist. It examined the verbal communication skills between doctor and medical students in ESP. In a study of the vocabulary knowledge of medical students whose language is not English found that students lacked fundamental knowledge of certain basic and common Paramedical and health-related vocabulary words in isolation as well as in context, falsely believed that they knew the meaning of certain words, confused phonemically, graphically, and morphologically similar words such as persist, alleviation, elevation and although they demonstrated

better knowledge of some of the simple words when used in context, they continued to exhibit weak word knowledge.

Writing is not an easy task for most students. Many scientists and our research on ESP writing anxiety suggests. There is a link between writing anxiety and self-confidence or self-perception of competence. There is extensive research devoted to the strong relationship between reading, writing and communicational skills are inextricably linked and dependent on vocabulary knowledge. In many ways, the ability to write well is determined by the writer’s knowledge of vocabulary. Vocabulary is the biggest challenge for ESP students who are faced with unfamiliar reading text most students believe they know the words or will decide to ignore the words they do not know. The ability to write well in a second language is also depend on the students’ ability to understand and use grammar. Such students often commit many errors. There are several reasons students commit grammar errors when they write.

According to our research, the methodology of teaching English in a non-linguistic university, where students acquire knowledge, skills and abilities of their future professional activities, has a number of features. A distinctive feature of teaching English in a non-linguistic university is the maximum consideration of the specifics of the professional sphere: its concepts and terminology, lexico-syntactic and grammatical features, the format of oral and written texts, and situational features. Therefore, training is built in accordance with specific professionally significant goals and objectives, on the basis of thematically and grammatically selected material, reflecting modern professional (in our case, medical) problems and ways of their practical solution, as well as situations of possible communicative interaction with foreign language representatives.

The main requirement for teaching ESP to read becomes the need to bring the content and methods of teaching it closer to the practical needs of the students, for which it is necessary to carefully study the goals and objectives of the students of a medical university, to take into account their interests and motivation when drawing up a training program. First of all, this relates to the selection of material, its critical understanding, taking into account the future specialization of students and the level of their language competence.

Based on the interest that the experimental teaching of ESP in listening, reading and speaking aroused among the students, one can judge the relevance of the article and the need to develop trainees' skills and abilities to extract professionally significant information from medical texts.

LITERATURE

1. Hudson T. 1982, The effects of induced schemata on the “short circuit” in L2 reading, p. 1-31.
2. P. Johnson, 1982, Effects on reading comprehension of building background fluency, p. 503-516.
3. Carrell P. & Eisterhold J., 1983, Schema theory and ESL reading pedagogy, p. 553-574.
4. Madden J.F.1980, Developing pupil’s vocabulary-learning skills, p. 111-117
5. Nation, I. S. P. (2001).Learning vocabulary in another language. Cambridge: CUP. p. 27
6. Vitin Zh.L. Modern methods of teaching and learning foreign languages. - St. Petersburg: KARO, 1997 .-- 108 p.
7. Galskova ND, Gez NI Theory of teaching foreign languages: Linguodidactics and methods: Textbook. A guide for students. lingual. Un-tov and fac. in. lang. higher. ped. study. institutions. - M .: Publishing Center "Academy", 2006. - 336 p.
8. Kolker Ya.M., Ustinova E.S., Enalieva T.N. Practical methods of teaching a foreign language. - M .: Academy, 2001 .-- 156 p.
9. Solovova E.N. methods of teaching foreign languages: Basic course of lectures: A manual for students ped. universities and teachers. - M .: Education, 2003 .-- 239 p.
10. Gorelik P. L. Annotations to medicines in English and Russian: a comparative study // Bulletin of the Academy encyclopedic sciences. 2014. No. 3. S. 55-59.
11. Gorelik P. L. Linguistic and Cultural Peculiarities of Translation medical prescriptions from English into Russian // Bulletin of the Academy encyclopedic sciences. 2014. No. 3. S. 60-63. 3601
12. Valeeva N.G. “Introduction to Translation Studies” - Moscow: RUDN University Publishing House, 2006.
13. Edition of the European Pharmacopoeia in Russian. t. 1. M .: OOO "Remedium", 2011.1816 p.
14. Korzhavykh E. A., Moshkova L. V. Characteristics of research in the field of pharmaceutical terminology // Bulletin of RUDN. Ser. Medicine. Specialty "Paramedical". 2004. No. 4. S. 80-90.
15. Oxford Dictionary of English Language, OUP, 2008